Abdulla Avloniy XIX asr rus mumtoz adabiyoti vakillari I. A. Krillov va L. N. Tolstoyning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan, jumladan, I. A. Krillovning 21 ta masali, "Maymun ila ko'zoynak", "G'ayri jinsiy ittifoq", "It ila yo'lovchi", "Qarg'a ila Zag'iisg'on", "Tulki ila qarg'a" kabi asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib "Maktab gulistoni" kitobida bosilib chiqqan. Abdulla Avloniyning 1913 yilda "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bosilib chiqdi. U 1917 yilga kelib ikkinchi marta nashr qilindi, asarda insonlarning "yaxshilikka chiqarg'uvchi, yomonlikdan qaytarg'uvchi bir ilm" - axloq haqida fikr yuritiladi. A. Avloniy asarlar yozish bilan bir qatorda maktablar ochish, xalqni savodxon qilishni, o'zbek xotin - qizlarini o'qitishni, o'qituvchilar va ziyoli kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanadi. U 1923 - 1924 yillarda eski shahardagi xotin - qizlar va erkaklar maorif bilim yurtlari mudiri 1924 - 1929 yillarda Toshkent harbiy maktabida o'qituvchi, 1925 - 1934 yillarda O'rta Osiyo universiteti, O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi maktabida, O'rta Osiyo davlat universitetida dars beradi. Pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedراسi professori va mudiri bo'lib ishlaydi. U 1933 yilda o'zbek maktablari 7-sinf uchun "Adabiyot xristomatiyasi" nashr ettirdi. A.Avloniy "Hijron", "Nabil", "Indamas", "Shuxrat", "Tangriquli", "Surayyo", "Shapaloq", "Chol", "Chiqaboy", "Abdulhaq" taxalluslari bilan tanqidiy va ilmiy maqola, 4000 misradan ortiq she'r ijod qilgan.

Avloniy 1927 yilda "Mehnat qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. 1930 yilda unga "O'zbekiston xalq maorifi zarbdori" faxriy unvoni berildi. Hozirgi mustaqil O'zbekistonimizda Abdulla Avloniy nomida bir qator maktablar bor. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi bolalar adabiyoti bo'yicha uning nomida mukofot ta'sis etgan. Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish markazida

A. Avloniy muzeyi tashkil qilingan. A. Avloniy 1934 yilda 25 avgustda vafot etdi.

2-mavzu. Hamza Hakimzoda Niyoziy – ma`rifatparvar bolalar shoiri va pedagogik risolalar muallifi, S.Ayniy bolalarning zullisonayn adibi

1. H.H.Niyoziyning ijodiy faoliyati.
2. Hamza – bolalar shoiri.
3. Sadridin Ayniy – bolalar shoiri va adibi.

Tayanch tushunchalar: milliy uyg`onish, jadid, ma`rifatparvarlik, mohiyat . islohot, pedagog, risola, mundarija, shoir, ma`rifatparvar, milliy ashula, yengil adabiyot, zullisonayn.

O`zbek ma`rifatparvarlik adabiyotining taniqli namoyandasi **Hamza Hakimzoda Niyoziy**(1889-1929) o`zbek bolalar adabiyotining maydonga kelishiga katta hissa qo`shgan. Uning o`zi tashkil qilgan yangi usul maktablari talabalari uchun yaratgan “Yengil adabiyot”, “O`qish kitobi”, “Qiroat kitobi” nomli o`qish kitoblariga kiritgan ko`plab she`r, hikoya va masallari, ilm-ma`rifatga chorlovchi, ta`limiy-ma`rifiy ahamiyatga ega asarlari hali-hanuz o`z qimmatini yo`qotgan emas. Ayniqsa, shoirning o`quv qurollari madhiga bag`ishlangan she`rlari, “Bolaning yomon bo`lmog`iga sabab bo`lgan onaning jazosi” hikoyasi, “Toshbaqa bilan chayon” masali bolalar yosh xususiyatlariga muvofiqligi bilan diqqatga sazavor. Niyoziyning “Yengil adabiyot”ida ilm va joholat muqoyasasiga oid talaygina she`rlar o`z ifodasini topgan.

Ilm-jannat eshigi,
Xazinaning teshigi,
Insonni olim qilgan,
Maktab erur beshigi.

Jahl–do`zax eshigi,
Jahannamning teshigi,
Bog`lab solan ko`zingni,
G`aflat erur beshigi .

Angshiladiki, shoir dastlab ilmni jannatning eshigini ochuvchi, xazinaning yo`lini ko`rsatuvchi porloq nur sifatida, maktabni esa insonning ilm-ma`rifat nuridan bahramand bo`lib, olim bo`lishidagi dastlabki bosqich-beshik sifatida tasvirlaydi. Keyingi satrlarda esa bu ifoda jaholat bilan muvoziy qo`llanilib, jannat va do`zax, xazina va jahannam, olimlik va so`qirlik, maktab va g`aflat singari zid ma`noli tushunchalar orqali realistik mohiyat kasb etadi. So`ngra, olimlik xosiyati va johillik kasofati aniqroq ko`rsatib beriladi:

Olim bo`lsak dunyoda,
Kelur har ish bunyoda,
Biz ham suv ostin kezub,
Ham ucharmiz havoda.

Johil qolsak dunyoda,
Xo`rlik kelur ziyoda,
Hayvon kibi yuk tashub,

Cho'l kezarmiz piyoda.

Demak, shoir yosh avlodlarining bir kuni olimlar qatoridan o'rin olishiga, hatto suv osti va osmonda kezadigan bilimdon bo'lishiga da'vat etadi va bunga qat'iy umid bog'laydi. Kelajakka ishonch ruhi adibni bolalar uchun ko'plab darsliklar, ijtimoiy-siyosiy mavzuda, dunyoviy ilm, kasb-hunarni o'rganishga undovchi she'rlar bitishiga turtki bo'ladi.

Shoirning "Qalam" g'azali yengil vazn, o'ynoqi satrdan iborat bo'lmasa-da, mazmunan dolzarb. She'r qalam haqidagi qasida tarzida yozilgan. Lirik qahramon maktabga kelib, qalamga oshno bo'lgani va shu tufayli aqli raso, ilm-u adab egasi bo'lgani hamda barcha orzu umidlari ro'yobga chiqqanini ta'rif-tavsif etadi:

O'qudim, chiqdi savodim ham xatim yaxshi bo'lub,
G'ayratinga yarasha ishlar mango qildi qalam.

Harna kim yozmish qalam so'zidin also chiqmadim,
Ul mani ham aytganim axir bajo qildi, qalam.

Shoir bolalarni maktabga qiziqtirish, o'quv qurollariga havas uyg'otish, qolaversa, ilmning xosiyatini teran idrok etadi. Yosh qahramon tilidan "Bor edi ko'nglumda bo'lmoq podsholik orzu, O'tmadi fursat bu hojatim ravo qildi qalam. Bir gadoni o'g'li erdim podsho qildi qalam",—deya ma'rifatni ulug'laydi. Natijada, shoir she'ri va talqinidan insonning jamiyatdagi mavqei, qanday inson sifatida bo'y ko'rsatishi ana shu ilm sharofatidan ekanligi anglashiladi.

Hamzaning bolalar uchun yozgan yana bir she'ri "Bir kishining bor edi to'rt bolasi" deb nomlanadi. Aslida bu mavzu o'tgan asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyotida alohida yo'nalish sifatida ko'zga tashlanadi. O'sha davr o'qish kitoblaridagi axloq-odob mavzusi insoniylikning turli yaxshi va yomon jihatlarini qamrab olgan. Saxiylik va baxillik, to'g'riso'zlik va yolg'onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik, sabr va sabrsizlik, qanoat va ta'magirlik, sadoqat va bevafoqlik, adolat va jabr-zulm singari insoniylikning qarama-qarshi qutblarida turgan o'nlab fazilat va illatlarning yaxshi va yomon jihatlarini xususida fikr yuritilib, yaxshisidan o'rnak olishga, yomonidan hazar qilishga undovchi she'r va hikoyalarga keng o'rin ajratilgan. Hamzaning yuqoridagi she'ri shu mazmunni o'zida ifoda eta oladi. Unda hikoya qilinishicha, bir oilaning to'rt farzandi bo'lib, uylariga kelgan mehmonning puli yo'qoladi. U pulni hech biri oldim demaydi, ko'rganim yo'q deydi. Shunda ota bolalarni tergash befoydaligini anglab, hiyla ishlatishga majbur bo'ladi: tort bolasini ham bir uyga qamab, oldiga qora kuya qo'yadi va deydi:

"Kimki rost esa gar so'zi,
Qora bo'lur o'zicha ikki yuzi;
Kimni agar yolg'on erursa so'zi,
Bor-yo'g'i qora bo'lur o'ng yuzi".

Bolalarning kattasi pulni olganligi uchun bu hiylani tushunmay, o'ng yuzim o'zicha qora bo'lsa, chap yuzimni o'zim qora qilay, deb kuyani surkaydi. Ota bolalarni tashqariga chiqqanida kattasining chap yuzi qoraligini ko'radi, qolganlarining yuzi esa oq bo'ladi. Shunda kimning o'g'ri ekanligi bilinib,

xolaning puli qaytib beriladi. Shu tufayli bu fe`lini tashlagan bolani shoir yosh kitobxonlarga ibrat qilib ko`rsatar ekan, qissadan hissa tariqasida:

Kimi bo`yla xiyonat qilur,

Bir kuni o`zini shuyla xijolat qilur, deb ta`kidlaydi.

H.H.Niyoziyning "Mevalar mojarosi" turkumidagi she`rlari ham bolalarbopligi bilan diqqatni tortadi. Unda bolalarga xos xarakter xususiyatlar, chunonchi, maqtanchoqlik, baxillik, manmanlik, chaqmacha qarlik, mushtumzo`rlik odatlari mevalar mojarosi misolida ko`rsatib berilgan.

Hamza she`riyatining ohangi va shakli xalq qo`shiqlarinikiga juda yaqin. U xalq qo`shiqlari musiqiyligidan foydalanib, o`z davri ijtimoiy-siyosiy voqealarini umumlashtirgan holda zulm va jaholatni qoralovchi, adolat va yuksak insoniy fazilatlarni, insoniy qadriyatlarni tarannum etuvchi zamonaviy ruhdagi yangi qo`shiqlar yaratdi. Shoir xalqning o`z hasratlarini ifoda etuvchi mungli, biroq shirin tuyg`ular uyg`otuvchi, tez va oson yodda qoluvchi, ohangdor va musiqiy qo`shiq hamda laparlaridan foydalanib, o`zi tanlagan mavzu va g`oyani o`quvchiga tez va qulay yetkazishga urindi. Hamza xalq orasidan turli mazmundagi qo`shiq va ashulalarni yig`ib, ularning ayrimlari uchun o`z davri hayot voqealarini aks ettiruvchi matnlar yozgan. Hatto u yozgan qo`shiqlarning ayrimlari hajviy holatni ifodalaydi. Shoirning bunday she`rlari uning "Oq gul", "Qizil gul", "Yashil gul", "Pushti gul", "Sariq gul", "Safsar gul" kabi ramziy nomlar bilan nashr ettirilgan "Milliy ashulalar uchun milliy she`rlar majmuasi" kitobidan o`rin olgan. Hamza folklarga xos nozik poetik uslub elementlarini chuqur o`zlashtirib, ulardagi ilg`or gumanistik g`oyalarni rivojlantirdi. Ayniqsa, uning xalq ijodida keng tarqalgan "Kelin salom qo`shiqlariga xos tasvir va ifoda yo`llaridan ijodiy foydalanib yaratgan hajviy, yumoristik asarlari bu jihatdan ibratlidir:

Olti pullik taqadek,

Ko`zi irg`ib baqadek,

Och muxlisning qo`lida

O`tmay qolgan chaqadek

Shayx hazratlariga salom!

Hamza "Muhtarama onalarimizga xitob" she'rida onalarning farzand tarbiyasidagi unutilmas xizmatlarini yod etar ekan, ularni:

Siz edingiz millati chin rahbari,

Turmushu insonni butun sarvari,

Koni hidoyat biza siz edingiz,

Tarbiya dunyosini payg`ambari -

singari satrlarda ulug`lash bilan birga dilidagi bunday gina- kudurati va iltimosini ham bayon etadi:

Muncha uyqu bosdi sizi, onalar,

Fikr etingiz o`ylab u peshonalar,

Ilm-maorif bila begonalar,

Bo`ldingiz siz olamga afsonalar.

Mazlumalar, jonlara jononalar,

Qizlaringizni o`qiting, onalar!

U 1914-yilda yaratgan "Yengil adabiyot" nomli 1-sinf o`quvchilariga atab chiqargan darsligidayoq:

Maktab – millatni guli,

Millat aning bulbuli,

Maktabsiz qolgan millat

Boshqa chamanning quli, – deb yozgan edi.

Hamza darsliklarni yozar ekan, ta'lim-tarbiya maqsadini ko`zlab, xalq og`zaki ijodi namunalaridan mohirona foydalangan. "O`qish kitobi"da ibratli she'riy masallarni keltirgan. Hamzaning bolalar uchun yozgan she'rlari ajoyib xususiyatlarga ega bo`lib, ularo g`ayrat-shijoat to`lib-toshgan, zavq va ilik tuyg`ular bilan sug`orilgan, oddiy, erkin, engil tilda yozilgan, o`zining ravonligi bilan yashgnab turgan asarlar edi. Mazkur she'rlar xalq tilining talaffuzi va ohangini saqlab qolgan jonli va sho`x til bilan yozilib, ulardagi satrlar qisqa-qisqa, har bir bayt aniq, ravshan ifodalangan, tarbiyaviy ta'sir ko`rsatish uchun tanlangan eng muhim so`zlar bir-biriga qofiyadoshdir.

Xullas, Hamza ilm-ma'rifatning kuchiga juda katta ahamiyat berdi. Uning fikricha, bilimlarni xalq ommasi orasiga yoyish, ommaning ongini uyg`otishga yordam berishi mumkin. Agar yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo`lsa, noto`g`ri tarbiya uning uchun chinakam baxtsizlikka, hatto, halokatga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun maktab tarbiyasi bilan bir qatorda, oila tarbiyasiga ham juda katta ahamiyat bergan. Bolalar ijobiy va salbiy ta'sirga, ayniqsa, go`daklik chog`larida juda beriluvchan bo`ladilar. Buni yaxshi bilgan Hamza ularga yoshlikdan to`g`ri tarbiya berib borish lozim, oilada to`g`ri yo`lga qo`yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu hol maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo`yadi, deb yozgan. Ayrim ota-onalar o`z bolalarining farovon yashashini ta'minlash to`g`risida jon kuydirsa ham, ularni tarbiyalash bilan mutlaqo qiziqmasligini qoralab, tarbiya bo`lmasa, moddiy jihatdan ta'minlanganlik yaxshi oqibatga olib bormasligini, moddiy jihatdan ta'minlangan, lekin tarbiya ko`rmagan bolalar yaxshi odam bo`lib yetishmasligini uqtirgan. Hamzaning pedagogik faoliyati, umuman, o`quvchilarda to`g`rilik, rostgo`ylik, halollik kabi yuksak fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Sadriddin Ayniy(1878-1954) bolalar uchun ijod etgan ma`rifatparvar adiblardan. Bu bejiz emas, albatta. Ma`rifatparvar S.Ayniy 1903 yili Samarqandga borib, M.Behbudiy tashabbusi bilan tashkil etilgan usuli jadid maktablarini ko`radi, o`qish va o`qitish ishlari bilan tanishadi. Buxoroga qaytgach, o`zi ham dastlab, tatar maktabida tojik tiliga tarjimon, so`ngra, 1908 yilda shunday maktab ochishga muvaffaq bo`ladi. Ayniy bolalar uchun ijod qilishni o`z maktabi talabalari uchun darslik yozishdan boshlab, "Alifbo" darsligini tartib beradi. 1910 yilda esa "Tahzib us-sibyon" darsligini nashr ettiradi. Ushbu darslik ko`p jihatlari bilan o`sha davr pedagogik risolalariga hamohang bo`lgan. Xususan, "Tarbiyali bola", "Odobli bola", "Ota-ona", "Maktab", "Ustoz muallim", "Marhamatli Ahmadjon", "To`g`rigo`y va o`g`ri bola" singari didaktik matnlar va she`rlarning berilishi an`anaviydir. Biroq, bu didaktik matnlar ifodasida, mavzuni talqin etishda

ustod Ayniy darsligining o'ziga xosligi ko'rinadi. Ayniy yerli xalq shevasida, ko'proq tojik tilida ijod qilgan, binobarin, darsliklarida fors tilidagi "Chor kitob"ga xos an'analarni rivojlantiradi. Ayniqsa, maktabning ilm maskani sifatidagi ta'rif-tavsifi ustoz-shogird savol-javobiga monand keltirilishi diqqatga sazovor. Bunday matnlardan dunyoning eng yaxshi joyi- maktab, eng yaxshi bolalar- maktabda o'qiydaganlar, undan ham yaxshilari- hech qachon maktabdan qolmaydiganlari, bulardan-da yaxshisi- saboqni puxta o'zlashtiradiganlari, tag'in o'rtoqlariga samimiy munosabatda bo'lib yordamini ayamaydiganlari ekani o'quvchiga tushuntirilib boriladi. Ustod Ayniy darsligiga kirgan didaktik matnlar bola tarbiyasida maktab, oila va muhit munosabatlari ta'siriga e'tibor berilgani bilan ajralib turadi. Ya'ni, bunda bolaning to'g'ri tarbiya topishida birgina maktab emas, oila, ota-ona va atrofdagi odamlar ham muhim rol o'ynashi ijtimoiy-hayotiy hikoyatlar orqali asoslab berilgan. S.Ayniy maktablar uchun ko'pgina alifbe va o'qish kitoblarini tartib berganligining o'ziyoq, uning bolalikka bo'lgan yuksak e'tiboridan dalolat beradi. Adibning 1920-yillarda nashr etgan o'nga yaqin tojik va o'zbek tilidagi alifbe hamda o'qish kitoblari orasida "Qiz bola yoki Xolida" darsligi qizlar maktabiga mo'ljallangani bilan ajralib turadi. U o'ttiz darsga mo'ljallangan. Asarning bosh qahramoni Xolida ismli qiz bo'lib, uning xulqi, xarakteri, atrofdagilarga munosabati, so'ngra, o'qishi va tarbiyasi xususida lavhalar berib borilgan. Jumladan, Xolida oilada, maktabda va tabiat qo'ynidagi faoliyat jarayonida ko'rsatiladi. Shuningdek, Ayniy Xolida misolida umuman qiz bolaning jamiyatda tutgan mavqei, sha'ni va orzu-havasleri haqida fikr yuritadi: "Qiz bola ota-onasining eng sevuqli bir mevasidur. Qiz bola ota-onaning qayg'ulik chog'larida eng mehribon bir sirdoshidir. Qiz bola qavmu qarindoshlarining obro'yi va nomuslaridir. Qiz bola uyning ziynati va xonadonning davlatidir. Qiz bola yurtning bog'i va butun elu ulusning chirog'idir". Ana shundan so'nggina, qiz bola timsolida Xolida gavdalanadi. Dastlab, uning olti yasharlik paytidagi arzanda va tantiqligi, kichkina bo'lishiga qaramay, yasan-tusanga o'chligi va o'rtoqlariga ham shunga qarab munosabat qilishi hikoya qilinib, keyinchalik bu qizaloq odmigina Fotima bilan do'stlashgach, xulq atvorida, dunyoqarashida o'zgarish yasalgani oydinlashadi. Xolidada o'qish va ilm olishga havas uyg'ongani, mehnatsevarlik fazilatlarining shakllana borishi "Xolida xat va savoddan bo'lak narsani istamaydur", "Xolida maktabga boradi", "Xolida shohi va baxmal kiyimlarini sug'urib tashlaydir", "Xolida qo'l ishlari o'rganadur", "Xolida tikish tikadur" sarlavhali hikoyalarda o'z ifodasini topa borgan. Xullas, asar so'nggida kitobxon Xolidani aqlli va dono qiz sifatida ko'radiki, bu bilan adib bola tarbiyasi, inson shaxsining shakllanishida mehnat va oilaviy muhit muhim rol o'ynashini ko'rsata olgan. Ayniy bu qissa orqali o'zbek bolalar nasrining shakllanishiga ham katta hissa qo'shdi, deya olamiz. Bundan tashqari, maktab va tarbiya mavzui unga umr bo'yi hamdam bo'ldi; adibning "Eski maktab", "Yetim" qissasi va "Esdaliklar" memuari shunday xulosaga kelishga asos bo'ladi. Shu ma'noda S.Ayniy o'zbek bolalari uchun nasriy asarlar yozgan, bolalar realistik prozasi rivojida o'ziga xos hissa qo'shgan zullisonayn adib sifatida alohida e'tirofqa sazovor.

3-mavzu. O`zbek bolalar adabiyoti shakllanish va taraqqiyot yo`lida (1920-30-yillar)

Elbek-bolalar shoiri, nosiri va islohotchi muallimi

Reja:

1. Elbekning hayot yo`li.
2. Elbek – bolalar shoiri.
3. Elbek – masalnavis.

20-yillarda chinakam shakllanish jarayoniga kirgan o`zbek bolalar adabiyotini **Elbek** ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

Muallimlik uni ham badiiy ijod, ham ilmiy ijod sari etakladi. Badiiy ijodga havas unda, o`z e`tiroficha hali Xoniy maktabida o`qib yurgan kezlarda – taxminan 14 yoki 15 yoshdalgida uyg`ongan esa-da, «1917 yildan boshlab yozuvga» chinakamiga berildi. Uning asl ismi Mashriq, otasiniki Yunus bo`lsa-da, elga dardkashlikni ko`zlab, Elbek taxallusini qo`llab, «she`rlar va ba`zan hikoyachalar yoza boshladi». Shu zaylda birin-ketin uning «Armug`on» (1921) masallar, «Ko`zgu» (1925), «Yolqinlar» (1927), «Sezgilar» (1927), «Bahor» (1929), «Mehnat kuylari» (1930), «She`rlar» (1934), «Chirchiq bo`ylarida» (1935), «G`unchalar» (1935) she`rlar to`plamlari, «Qo`shchi Turg`un» (1925), «Dadamat» (1936) hikoyalar majmualari, «Tozagul» (1934), «Bog`bon», «Etik», «Mergan» (1935) poemalar alohida kitoblar tarzida arab va lotin alifbolarida bosilib chiqdi. Uning she`rlari «Chig`atoy gurungi» uyushmasi chop etgan «O`zbek yosh ijodkorlari» (1922) to`plamidan joy oldi. Yangi-yangi she`r, hikoya va maqolalari o`sha davr matbuotida tez-tez bosilib turdi, o`zi ham o`zbek matbuotining faol namoyandasiga aylanib «Inqilob», «Maorif va o`qitg`uvchi», «O`zbekiston Sovet adabiyoti», «Bilim o`chog`i», «Yangi yo`l», «Alanga», «Uchqun» (Buxoro Xalq Respublikasi Maorif nazorati organi) singari qator jurnallarni tahrir hay`ati ishida qizg`in qatnashdi, shu zaylda Respublika matbuotining yuzaga kelishi va shakllanishida, o`zbek jurnalistikasining qaror topishi va rivojlanishida munosib hissa qo`shdi.

Elbek o`zbek tilining xalqimiz milliy qiyofasini ifoda etish uchun astoydil kurashdi, bu tilni kamsituvchilarga qarata 1922 yilda shunday satrlarni bitgandi:

Mungli qushim, sayrab-sayrab kel, anglat:

Kimlar erur turk tilini sotuvchi!

Bulbul kabi sayrab turg`on bu tilni

Uyalmayin bu o`lkadan otuvchi.

Boldan totli, jondan tunuk turkchani

Tushunmaydi xo`rlab-xo`rlab yotg`uchi

Ochunlarda boyligini ko`rasdan

Kimdir bunga: «Yordi, yormas degan!»

Mungli qushim, ularni qo`y, sen sayra,

Turk tilining dong`in chiqar ko`klarga...

«Til» she`ridan keltirilgan parchadan anglashtirayotirki, unda ifodalangan g`oya istiqlol g`alaba qozonib, milliy tilimiz davlat tili maqomini olgan ayni

zamonda ham o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q. Til va imlo masalalarini yorituvchi «Til», «Imlo masalasi», «Imlo va til quriltoyi chaqirilishi oldidan» (1920), «O'zbek imlo qurultoyi va uning qoldirgan ta'siri», «Alifbe masalasi» (1921), «Turk tillarining qonunlari to'g'risida» (1922), «Til darsligi», «Otilmagan sopqon» (tilga oid darslik haqida, 1923), «Tilimizdagi yangiliklar» (1924), «Yana til – imlo masalasi» (1925), «Imlomiz ustida bir necha so'z» (1927), «Til imlomiz ustida» (1929), shuningdek, o'zbek folklori va etnografiyasi yuzasidan to'plagan materiallari asosida «O'zbek folklori lug'ati» (1922), «O'zbek xalqining izohli lug'atiga oid materiallar» singari o'nlab maqolalarni yozdi. Elbek til taraqqiyotini jamiyat taraqqiyotidan ayri tasavvur qilmadi.

Elbek o'zbek halqining boy og'zaki ijodiyotini to'plash va o'rganish ishiga ham tilshunos-muallim sifatida Turkiston Maorif Xalq Komissarligi qoshidagi O'zbek bilim hay'atida ishlagan kezaridayoq kirishgan edi. U Bo'stonliq atroflaridan turli qo'shiqlar, laparlar, og'zaki drama, maqol va matallar, topishmoqlarni maroq bilan to'pladi. Shu kuzatishlari jarayonida xalq adabiyoti juda boy bo'lishi bilan birga o'z davri va o'sha zamon kishilarining turmushlarini o'z ichiga olgan qimmatli adabiy vasiqalardir, degan xulosaga keldi. Binobarin, ularni to'plash, nashr etish va o'rganishga jadal kirishishi zarurligini uqdirib, yoshlar ongini faollashtiruvchi o'zi to'plagan xalq topishmoqlari, maqollari va qo'shiqlarini jamlab «Topishmoqlar, maqollar va ashula to'plamim» nomi ostida 1923 yilda bostirib chiqardi. Bu kitob g'oyat qizg'in kutib olindi, unga O'zbekistonning boshqa joylaridagi folklor namunalarini qo'shish istagini ifodalovchi takliflar ham bo'ldi. Bu taklifni inobatga olib, Elbek Sirdaryo, Buxoro, Farg'ona, Xorazm va Samarqand shahar va qishloqlarini kezdi, folklor asarlarini yozib g'oyat yangidan to'plagan materiallarni qo'shgan holda 1928 yilda G'ulom Zafariy bilan hamkorlikda «Ashulalar» to'plamini nashrdan chiqardi, 1936 yilda yana yangi materiallarni qo'shib, shu to'plamni uchinchi nashrini amalga oshirdi.

Elbek xalq ertaklarini to'plar va o'rganar ekan, ularga o'zi o'zbekchaga o'g'irgan A.S.Pushkinning «Baliqchi va baliq haqidagi ertak», «Oltin xo'roz», «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak» tajribasi asosida yondashib, ertak syujetini nazmda bayon etish an'anasini o'zbek bolalar dostonchiligini yuzaga keltirishga tatbiq etdi. Bu jihatdan uning 1935 yilda nashrdan chiqqan «Ertaklar» to'plamini tashkil etgan «Kambag'al yigit va par dasturxon», «Erksiz folchi», «Omonat» she'riy ertaklari alohida ahamiyatga molik.

Garchi «Kambag'al yigit va par dasturxon» shu nomdagi o'zbek ertagi asosida yaratilgan esa-da, unda A.S.Pushkinning «Baliqchi va baliq haqidagi ertak» asari bilan qator mushtarakliklar bor. Pushkin ertagi markazida kambag'al cholu kampir va oltin baliq obrazlariga daxldor epik sarguzasht tursa, Elbek asarida kambag'al kampiru o'g'li va turna orasidagi munosabatdan tarkib topgan syujet harakatdadir. Hatto tuzoqqa ilingan turnaning tilga kirib ovchi o'g'longa qilgan murojaati bilan oltin baliqning baliqchi cholga qilgan iltijosida mazmun o'xshashligi bor:

Turna: - Hoy yigit, meni so'yma,
Bo'shatib qo'yib yubor.

Buning uchun sen mendan
Ne so`rasang shuni ol!:
Oltin baliq: - Qo`yib yubor dengizga, bobo,
Katta to`lov to`layman senga,
Ko`ngling ne tilasa bergayman.

Syujetdagi tafovut shundaki, Pushkin talqinida bebiliska boylik qashshoq kampirni quturtiradi, Elbek talqinida xalq boyligini zo`ravonlik bilan tortib olgan ochko`z podshodan qasos olishga undalgan. Ochko`z podsho ovchi o`g`londan turna bergan par dasturxonni tortib olgach, turna ichidan askar chiqadigan qovoqni sovg`a qiladi. Shu askarlar zo`ravon, ochko`z podsho ta`zirini berib, kambag`al yigitga par dasturxonni qaytarishadi. Ertakda hak-huquq uchun kurash motivi ifodasini topgan.

«Erksiz folchi» she`riy ertagida ham ijtimoiy motiv ustuvor. Xalqning «soxta folbin» ertagi syujetini nazmda bayon etish asosida bitilgan bu she`riy ertakda nochorlikdan soxta fol ochish evaziga tirikchilik qilishga uringan, ammo kutilmagan omadi bilan podshoning yo`qolgan xachiri va qaroqchilar xazinadan o`margan bir qop oltinni topib nazarga tushgan, nihoyat yolg`oni chinga aylanib saroy folbini sifatida izzat-ikrom qozonsa-da, erkidan ayrilib tahlikada yashashga mahkum bo`lgan folbin qismati ko`rsatilgan. Folbin o`zining yolg`ondakam folchi ekanini har qancha takrorlamasin, na podshoh, na saroy ahli unga ishonishmaydi, uning yolg`on gapini esa rost o`rnida qabul qilishadi. Elbek bu bilan saroyning yolg`on va ig`volar maskaniga aylanganini, unda yolg`on rost o`rnini tamoman egallaganini fosh etadi.

Elbekning bu she`riy ertaklari badiiy saviyasiga ko`ra H.Olimjon, Mirtemir, S.Jo`ra, Q.Muhammadiy, Sh.Sa`dulla va Z.Diyorlarning 30-yillarda yaratgan she`riy-adabiy ertaklari darajasida turmasa-da, o`zbek bolalar dostonchiligini rivojlantirish yo`lidagi izlanish sifatida e`tirofqa sazovor.

Elbek o`zbek bolalari xalq qo`shiqlarini to`plash va nashr etishning ham tashabbuskorlaridan bo`ldi. U o`zi to`plagan material asosida 1937 yilda chop ettirgan «Bolalar qo`shig`i» to`plami o`zbek folklorshunosligi tarixidagi dastlabki urinish samarasi sifatida ahamiyatlidir. To`plamda 18 ta bolalar qo`shig`i jamlangan.

Elbekning boshlang`ich maktab bolalari uchun darslik va o`quv qo`llanmalari tuzish tajribasi bolalar yoshi xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda badiiy asarlar yozish iqtidorini, demakki, bolalar shoiri va bolalar yozuvchisi sifatidagi iste`dodini shakllantirishda muhim omil bo`ldi. Bu jihatdan «Bilim» darsligining ikkinchi kitobida keltirilgan «Odamlarning kuchi nimada?» hikoyasi e`tiborga loyiq:

Odam miltiq, tuzoq, qarmoq, ketmon yasadi. Yirtqish hayvonlarni topib otdi. Tuzoq quyib, qushlarni ilintirdi. Qarmog`iga tiqish uchun ketmon bilan er kovlab, qurti topdi va baliqni suvdan ilintirib oldi: odamning kuchi yasagan quollarida.»

Adibning mahorati shundaki, hayotiy saboq bolalarga xos mushohadakorlik zaminida ifodalangan. Yoki 1922-1925-1927 yillarda 25 ming nusxada bosilgan «O`zbekcha o`qish kitobi»ning birinchisiga kirgan «Yo`ldoshning tegirmoni»,

«Totli sho`rvo» va «Jo`jalar» hikoyalari ham shu xildagi fazilatlariga ega. Chunki «Yo`ldoshning tegirmoni»da bolalar ijodkorligi o`yin jarayonida ochib beriladi:

«Qo`g`irchoq» to`rtligi esa parallelizm negizida bitilgan bo`lib, ahloqiy-didaktik mazmunga ega. Butun to`rtlikda «qanot» so`zi rang-barang ma`noda tovlanadi:

G`oz qanoti oq bo`lur,
Er qanoti ot bo`lur.
Bolalarning qanoti –
Maktabda o`quv bo`lur.

She`rning voqeaband mazmunga ega bo`lishi – unda epiklik alomatini ta`minlabgina qoldirmaydi, balki uning bolalarbopligini, aniqrog`i, undagi mazmun va obrazlarning «ko`rimliligini» – bola idrokiga mosligini belgilaydi. Elbekning o`zi ham bu hodisani chuqur anglaganini «Armug`on» to`plami so`zboshisida shunday e`tirof etgan: «Zamon kishilari hozirgi turmushga hamda o`zlarining ko`ngillariga to`g`rilab yozilgan kitoblarni axtarmoqqa boshladilar. Mana, men ham shuning kabi elimizning istagan narsalariga, oz bo`lsa-da, ko`mak etmoq umidi bilan ushbu kitobchani el bolalarining qarashlariga otmoqqa botirlik qildim...»

«... el bolalarining qarashlariga» mo`ljallangan bu kitobcha faqat masallardan tartib berilgan shoirning ilk to`plami bo`lib, qisqa muddatda ikki marta (1921 va 1923 yillarda) nashr etildi. Shuni ta`kidlash joizki, Elbek butun faoliyati davomida 30 dan ziyod masallar yozdi, ularni «Armug`on»dan boshqa «Ko`zgu» (1925), «Yolqinlar» (1925) va «G`unchalar» (1935) kabi to`plamlarida ham e`lon qildi va shu asosda o`zbek masalchiligini rivojlanishining yangi bosqichiga olib chiqdi. Elbek bu masallarni yaratishda xalq og`zaki ijodi, o`zbek mumtoz adabiyoti va I.A.Krillov masalchiligiga xos an`analardan ijodiy foydalandi. Chunonchi, «Sichqon xotinning qiz uzatishi», «Qora qushlar ila toshbaqalar» masallari uchun «Kalila va Dimna»da mavjud bo`lgan sichqon xotinning qiz uzatishi, qarg`a va toshbaqa syujetlaridan foydalangan. «Olaqarg`a va Qurbaqa» masalini esa I.A.Krillovning «Qarg`a va Tulki» masalidan ijodiy ta`sirlanib yozgan. Zotan, u I.A.Krillovning «Fil va Laycha», «Ko`zgu va Maymun», «Tulki va uzum», «Eshak bilan bulbul», «Bo`ri bilan Turna» masallarini o`zbek tiliga o`girish jarayonida mahorat sirlarini o`zlashtirgan, lekin o`ziga xos ijod yo`lidan borgan.

«Olaqarg`a va Qurbaqa» masalida maqtovdan taltayib ketib, o`ljasidan ajralib qolgan Olaqarg`aning gumrohligidan kulinadi. Olaqarg`a Qurbaqani tutib olib, daraxt shoxiga qo`narkan, Qurbaqa undan qutilishni ko`zlab, Olaqarg`ani maqtay boshlaydi:

Dedi: – Ey barcha qushning sen go`zali!
Dunyoda ko`rmadim men senday qushni...
Senga teng yo`q yerda emas, ko`k ustida,
Qani biroz sayrab bergil, men eshitay.
(«Armug`on», 1923, 22-bet)

Olaqarg`a bunday maqtovdan erib ketib, sayramoqqa kirisharkan, og`zidan Qurbaqa tushib ketadi va suvga sho`ng`ib undan qutuladi.

Shoir maqtanchoqlik fojeasini boshqa bir asari – «Sholi va Kurmak» masalida ham ochib beradi. Masal Sholi va Kurmak orasidagi munozara asosida qurilganligidan mumtoz adabiyotimizdagi munozara janriga hamohang. Lekin undan keltirib chiqarilgan bosh g`oya – sholikorni qadrlash, shu asosda sholikorlik mehnatiga muhabbat uyg`otish motivi masalga xos mantiqiy yakun tarzida namoyon bo`ladi.

Elbek bolajonlar uchun talay quvnoq she`rlar yozib, «Ko`zgu», «Yolqinlar», «Bahor», «G`unchalar» singari to`plamlarida e`lon qildi. Bu she`rlarida kichkintoylarni tabiat bilan tanishtirishga, ularda hasharotlarga, o`simliklarga, qushlarga mehr-muhabbat tuyg`ularini uyg`otish evaziga Vatanni sevish sabog`ini berishga intildi. Chunochi, «Lolazorda» she`rining lirik qahramoni Lola dengiz yuzida sizib olgan taassurotini shunday ifodalaydi:

Chiqqan edim dalaga,
Ko`zim tushdi bolaga.
Bordim-da, uzdim-oldim,
Oy, qiziq holga qoldim!

Elbekning boshlang`ich maktab bolalari uchun darslik va o`quv qo`llanmalari tuzish tajribasi bolalar yoshi xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda badiiy asarlar yozish iqtidorini, demakki, bolalar shoiri va bolalar yozuvchisi sifatidagi iste`dodini shakllantirishda muhim omil bo`ldi.

4-mavzu. Adabiy ertak va uning bolalar adabiyotini yuzaga kelishidagi ta`siri

Reja:

- 1.Xalq ertagi va adabiy ertaklarning o`zaro o`xshash hamda farqli xususiyatlari.
- 2.Folklor namunalarini interpretatsiya qilish.
3. Folklor siyujeti asosida adabiy ijod, yoxud stilizatsiya.
- 4.Folklor janrlarining kompozitsion qulayligi.
5. Adabiy ertakshakllari.
6. H.Olimjonning o`zbek bolalar dostonchiligi taraqqiyotiga ta`siri.
7. "Oygul bilan Baxtiyor", "Simurg` yoxud Parizod va Bunyod" ertak-dostonlarining g`oyaviy-badiiy mundariyasi.
- 8.T.G`oyipov adabiy ertaknavis adib.

MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Harakat, uzv, matn, dialog, monolog, guldur-gup, chandish, arsenal, alliteratsiya, ritm, tovush, tabu, maqol,masal, mashoyix, oqin, hukm, paremik, paremiografiya, paremiologiya, sintaktik, saj`, fetishestik, gallyutsinatsiya, inonch, deklamatsion, ibtido, versiya, variantlilik, mif, afsona, rivoyat, uydirma, tugun, sajiya, motiv, sayyor, allegoriya, antropomorfizm, folklorizm, stilizatsiya, tabdil.

O`zbek bolalar adabiyotining shakllanish jarayoni XX asrning 20-30 yillarida, ayniqsa, jiddiy tus oldi, tezlashdi va keng qamrov kasb eta bordi. Asosan, she`riyat va hali hikoyachilik doirasida qolib kelayotgan bolalar adabiyoti bu

davrga kelib, xalq ijodiyotiga keng va chuqur murojaat qilishga kirishib, o'z janriy imkoniyatlarini adabiy ertakning she'riy ertak, nasriy ertak, ertak qissa, dramatik ertak singari xilma-xil oraliq shakllari bilan boyitish va to'ldirishga muvaffaq bo'la boshladi. Aslida XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning 10-yillarida fors-tojik shoiri Ubayd Zokoniyning "Mushuk ila sichqon" qissasi(Xislat tarjimasini), rus adabiyoti namoyondalari I.A.Krillov, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy masallari, ertaklari va hikoyalarining o'zbek tiliga o'girila boshlanganligi, shuningdek, Said Rasul Aziziy va Abdulla Avloniylarning voqeaband she'rlari, masallari hamda Hamzaning xalq rivoyati asosida yozilgan "Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" she'riy ertagi, qolaversa, Abdulla Qodiriyning 20-yillarda xalq ertagi ruhida yozilgan "Jinlar bazmi" va Abdurauf Fitratning "Qiyomat" nasriy adabiy ertaklaridan o'z sarchashmasini olgan folklor syujetlari negizida bolalarbop asarlar yozish va shu asosda realistlik o'zbek bolalar adabiyotini shakllantirish va rivojlantirish harakati 30-yillar arafasi va davomida chinakkam yangi bosqichga ko'tarildi. Buning bir qancha sabablari va omillari bor edi. Birinchidan, xuddi shu yillarda o'zbek folklorshunosligi ancha jonlangan edi, xalq qo'shiqlari va dostonlari qatorida ertaklarni yozib olish va nashr etishda samarali natijalarga erishila boshlandi. Bu ishda Elbek, G'ulom Zafariy va Shukur Sa'dulla singari bolalar adiblari ancha faollik ko'rsatdilar. Ayniqsa, Elbek bolalar folklorini to'plash yo'lida qizg'in izlandi, 1937 yilda o'zi to'plagan asarlar asosida tartib bergan "Bolalar qo'shig'i" to'plamini nashr ettirdi.

Ikkinchidan, 30-yillarning boshlarida "Bolalarga ertak kerakmi? Sehrli-fantastik ertaklar ular tarbiyasiga zararli emasmi?,- degan mavzularda boshlangan qizg'in bahs xalq ertaklariga munosabatni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi. Natijada, xalq ertaklari syujetlarini turli shakllarda ijodiy interpretatsiya qilish va shu asosda bolalarni xalq fantaziyasi olamiga olib kirish bir muncha jonlandi. Bu hol bolalar epik poeziyasining yuksalishi va dramaturgiyasining oyoqqa turishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Sirasini aytganda, bolalarga atalgan badiiy adabiyot yaratish an'anasinng dastlab, adabiy ertak shaklida Daniel Defo, Jonatan Svift, Jan de Lafonten, Sharl Perro, Erix Rapse, aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar, Vilgelm Gauf, Hans Kristian Andersen, Karlo Kollodi, V.Jukovski, P.Yershov va boshqalar ijodiyotida keng miqyosda namoyon bo'lganligi va o'zbek bolalar adabiyoti vakillarining ular tajribalarini ijodiy o'zlashtira boshlashlari jarayon qiyofasini belgilay berdi. Natijada, folklor va yozma bolalar adabiyoti munosabatlari ikki tomonlama chuqurlashtirishga kirishdi:

Bolalar uchun ijod etish an'anasi hali yozuv bo'lmagan qadimgi zamonlardayoq onalar allalari, erkalamalari, ovutmacholari, shuningdek, xalq ertaklari, topishmoqlari, taqvim va maishiy qo'shiqlari, butun bir tizim tarzida namoyon bo'luvchi o'yinlari shakllarida folklor bag'rida yuzaga kelgan edi. Binobarin, bolalar uchun ijod etish xalq pedagogikasi va etnografiyasi aqidalariga to'yintirilgan qadimiy an'ana bo'lib, uning ijodiy andazasi bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashgan badiiy yozma adabiyotning vujudga kelishini ta'minlagan omil bo'ldi. Bu folklor va yozma adabiyot orasidagi genetik (bevosita) aloqa natijasi edi.

Folklor va yozma adabiyot orasidagi bilvosita aloqa esa bolalar adabiyotida folklorizmlarning xilma-xil ko`rinishlarini yuzaga keltirdi va bolalar adabiyotining xalqchillashuvini, g`oyaviy-badiiy barkamollashuvini, qiziqarliligi va tabiiy soddaligini ta`minladi. Shu tariqa, o`zbek bolalar adabiyoti ham folklorga tayangan holda shakllana va rivojlana bordi.

Shuni ta`kidlash joizki, o`zbek bolalar adiblari xalq ijodiyoti namunalarini to`plash, nashr etish va bolalarga moslashtirish, folklordagi janriy rang-baranglik va ifodaviy vositalardan ijodiy foydalanishda, asosan, tubandagi ikki yo`nalishda amal qildilar:

Birinchi yo`nalish-folklor namunalari (ertaklar, masallar, rivoyatlar, latifalar va hokazolarni) bolalar yoshi, saviyasi va ruhiga moslashtirib qayta ishlash yoki tabdil (interpretatsiya) qilish. Bu ijodiy jarayonning bosh sharti-asarning xalqchil ruhiga putur yetkazmagan holda g`oyaviy-badiiy barkamolligini ta`minlash va shu asosda axloqiy-tarbiyaviy qimmatini oshirish hisoblanadi. Jumladan, xalq ertaklarini bolalarga moslashtirib qayta aytish an`anasi jahon xalqlari, xususan, rus bolalar adabiyotida anchagina tajribaga ega. Shukur Sa`dulla ana shu ilg`or tajribani o`rganish asosida nafaqat o`zbek, balki, boshqa xalqlar ertaklarini ham bolalarga moslashtirib tabdil qilishda ma`lum natijalarga erishdi. Bu jihatdan, ayniqsa, uning 30-50-yillardagi izlanishlari samarali bo`ldi. Bu davrda u ellikdan ortiq xalq ertagini bolalarga moslashtirib, qayta ishladi va kichkintoylarga tortiq etdi. Bular "Ikki sandiq" (1945,1948), "Yoriltosh", "Uch tulki" (1947), "Qarg`aboy" (1948), "Tulki bilan turna" (1951), "Maqtanchoq quyon" (1953), "Ayyor tulki" (1955), "Ohanrabo" (1959) singari rasmiy kitobchalar tarzida nashrdan chiqdi.

Sh.Sa`dulla xalq ertaklarini kompozitsion soddaligiga, xalqchilligiga, g`oyaviy yo`nalishiga putur yetkazmay, zamon talablari doirasida axloqiy-tarbiyaviy qimmatga molik bo`lishiga diqqat qildi. Natijada ertaklar turli yoshdagi kichkintoylar uchun "hayot darsligi" vazifasini o`tay boshladi. Bu jihatdan adibning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun hayvonlar haqidagi ertaklarni qayta ishlashdagi xizmatlari e`tiborga arzigulikdir. Zero, u bu yoshdagi bolalarning diqqati beqarorroq bo`lishi, uzoq muddat davomida tinglash ularni tez charchatishini hisobga olib, hajmi katta ertaklarning ba`zilarini birmuncha qisqartirdi, ba`zilarini esa bir necha mustaqil ertakchalarga bo`lgan holda kichkintoylarga taqdim etdi.

"Bo`ri bilan tulki" ertagi, jumladan, xarakterlidir. Xalqimizda mashhur bu qadimiy ertak hajm jihatidan anchagina katta. Unda bo`rining yovuzligi va go`lligi, tulkining ayyorligi va olg`irligi zamirida o`tmishda zo`ravonlarning zolimligi fosh qilinsa, qo`zichoq, xo`roz, ot va qo`shchi chol obrazlari misolida mehnatkash xalqning ma`naviy go`zalligi va pokligi, aqlliligi va tadbirkorligi, samimiyliigi va qasoskorligi realistik tarzda ifodalanadi. Ertak xotimasida Bo`rining o`lishi - zolimlik dunyosining chirishi, qulashiga timsol bo`lib, xalq optimizmining hayotbaxsh qudratini yorqin ko`rsatadi.

Sh.Sa`dulla bog`cha yoshidagi bolalarning katta hajmli bunday ertaklarni idrok qila olmasliklarni payqab, uning negizidabir-biridan mustaqil bo`lgan ikkita ertak yaratadi.

Ertakchalarning birinchisi " Och bo`ri" deb nomlangan.

U bo`rining qo`zichoq, cho`pon va qirchang`i bilan munosabatlari epizodlarini o`z ichiga oladi. Ertak go`lligi tufayli otdan qattiq tepki yegan bo`rining o`limi bilan xotimalanadi. Bunday yakun ertakning kompozitsion yaxlitligini ta`minlagan. Qizig`i shundaki, Sh. Sa`dulla keyinchalik xuddi shu ertak asosida, aynan shu epizodlarni o`z ichiga olgan "Och bo`ri, sho`x qo`zi va qirchang`i" she`riy ertagini ham yaratdi.

"Chol bilan bo`ri" - ertaklarning ikkinchisidir. Bu asarga endi soddadillikda xalq ertagidagi qo`shchidan qolishmaydigan qop ko`targan chol va bo`ri munosabatlari epizodi asos qilib olingan. Chol o`z rahmdilligi va soddaligi tufayli bo`rining "qopqoniga" tushadi. Ertakni tinglayotgan kichkintoy cholga achinadi, unga rahmi keladi. Bu esa unda insonga muhabbat tuyg`usini tarbiyalaydi. Ammo ayyor tulkinining tadbirkorligi bilan bo`ri tajovuzidan qutulgan cholni ko`rib - quvonadi kichkintoy. Bu ertak ham bo`rining o`limi bilan tugallanib, xalq optimizmining barhayot qudratini kichkintoylar qalbiga ko`chiruvchi, kompozitsiyasiga ko`ra mustaqil asardir. Adib xuddi shu ertak asosida keyinchalik kichkintoylar uchun " Chol bilan bo`ri" nomli kichik she`riy pesa ham yozgan.

"Sholg`om", "Bo`g`irsoq", "Bo`ri va echki bolalari" kabi qaytariqlar negizida qurilgan "Qarg`a va qo`zi" ertagi ham Sh. Sa`dulla qalami ostida uch marta sayqal topdi.

Ikkinchi yo`nalish-folklor syujetlari asosida she`riy, nasriy va dramatik asarlar ijod etish yoki stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar. Bu yo`nalish barcha xalqlar bolalar adabiyotlari ravnaqida yetakchi omillardan hisoblanadi.

Folklor janrlarining kompozitsion qulayliklari -ommaviyligi bolalarga atab yoziladigan asarlar uchun g`oyat muvofiqdir. Bolalar adiblari bu haqiqatni chuqurroq anglay borganlari sari ko`proq ijodiy kamolotga erishayotirlar. Ular xalq syujetlariga monand syujetlar o`ylab topa boshladilar. Bunday to`qima adabiy syujetlar ko`pincha hayot voqeligini doim kuzatish va undan oziqlanishning, shuningdek, biror maqol va matalning mazmunini voqeaband tafsilot vositasida kichkintoylarga yetkazish niyatining natijasi bo`lib tug`iladi. Bu esa ularning xalq syujetlari negizida yozilgan asarlardan farq qiluvchi xoslik belgisi sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni janr e`tiborlariga ko`ra adabiy ertaklar, doston-ertaklar, adabiy masallar, adabiy latifalar deb atash to`g`riroqdir. Bu jihatdan, ayniqsa, adabiy ertaklarning bolalar poeziyasini taraqqiy ettirishdagi roli katta bo`ldi. Kichkintoylarni voqeligimiz ruhiga olib kirishda, ularga hayotdan saboq olishni va odam tanishni o`rgatishda S.Jo`raning- "Qaldirg`och", Z.Diyorning "Yuksak tog`, keng o`tloq va mard o`rtoq haqida qissa", Q.Muhammadiyning "Qo`ng`izoy va sichqonboy", "Sandal va pechka", "Chivin urishqoq va shamol polvon haqida", "Dono bobo va uning 101 nevara-chevaralari", Sh. Sa`dullaning "Bir tuxum tarixi", "Bir yallachi va bir o`yinchi", "Yalqov ayiq", "Revoch haqida ballada", "Qurumsoq", Po`lat Mo`minning "Kecha, bugun va erta haqida ertak", "Tish

cho'tka, paroshok va atirsovun ertagi", "Gaz polvon ertagi", "Cho'lning cho'lga xati", Safar Barnoevning "Oltin shahar haqida afsona", "Vijdon", "Qo'g'irchoqlar podshosi", Tunsunboy Adashboevning "Nur daryo", "Uch bo'taloq va sirli qovoq", Miraziz A'zamning "Chumolioy bilan arioyning sayohati", "Erk qushi", Anvar Obidjonning "Odil Burgutshoh" va "Zamburug' laqabli josus haqida ertak", Tohir Qahhorning "Ko'zga ko'rinmas maxluq", Hamza Imomberdievning "Ajdaho komida", Muhammadjon Rahmonning "Momoqaymoq", Nurali Qobulning "Odam, oyoqortog' va daydi shamol haqida ertak" kabi ko'pgina adabiy she'riy ertaklarning axloqiy-estetik qimmatini kattadir. Bu asarlar o'zbek bolalar epik poeziyasining xalqchil zamonaviy namunalari hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, XX asrning 60-80-yillarida bolalar adabiyoti vakillarining folklarga ijodiy munosabati yanada chuqurlasha bordi. Bu davrda ular folklarning qator janrlariga xos shakl va ifoda usullarini ijodiy o'zlashtirishga alohida rag'bat ko'rsata boshladilar, natijada, bolalar epik poeziyasida she'riy adabiy ertakning qator ichki ko'rinishlari bilan birga adabiy topishmoq, adabiy tez aytish, adabiy latifa, prozada esa adabiy nasriy ertak, ertak-qissa singari oraliq shakllar yuzaga keldi. Nasriy adabiy ertak janrida T.G'oyibov, P.Muhammadyorova, A.Abdurazzoq, M.Murodov, A.Irisov, Y.Shukurov, Y.Sa'dullaeva, S.G'afurov, R.Farhodiy va R.Tolibovlar izlangan bo'lsalar, A.Obidjon "Dahshatli Meshpolvon" (1989) ertak-qissasini yaratib, janrning yangi voqelik asosidagi jilosini ta'minladi. Bugina emas, u "Pahlavonning o'g'irlanishi", "Qo'ng'iroqli aldoqchi", "Qorinbotir" singari ertak-pesalari bilan folklor syujetlari tipidagi zamonaviy bolalar dramaturgiyasini boyitishga hissa qo'shdi. Bu jihatdan u Po'lat Mo'minning "Qovoqvoy bilan Chanoqboy", "So'qatoy va Konfetboy", "Ona bolam deydi, bola onam deydi", G'ani Jahongirovning "Ajoyib urug'", O.Tolibov va I.Ahmedovlarning "G'ayrat va g'aflat", Ergash Raimovning "Qorboboning yangi yil sarguzashtlari" va Rahim Farhodiyning "O'tkir shoxli buqacha" singari ertak-pesalarida ko'ringan salbiy xarakterdagi stilizatsiyalash usulini yanada chuqurlashtirdi va bu an'ananing hayotiyligini ta'minladi. Bu ertak-pesalarda nafaqat syujet qurilishida, balki obrazlar xatti-harakatlarida, nutqida, xilma-xil ifodaviy vositalarda ertaklarga xos fantastik unsurlar, tasviriy vositalar yetakchi taomilga aylangan.

Jumladan, atoqli o'zbek shoiri **Hamid Olimjon** (1909-1944) "bolalik kunlari" danoq xalq ijodiyotiga mehr qo'yganligini faxrlanib kuylaydi. Bora-bora folklor "fikrini tortib", butun umrga unga mahorat sabog'i, tadqiqotlar va original asarlar yaratish manbaiga aylanib qoldi. Jumladan, uning xalq shoirlari Fozil Yo'ldosh o'g'li, Abdulla shoir, Islom Nazar o'g'li bilan doimiy ijodiy muloqotlari, qator xalq dostonlari, ayniqsa, qahramonlik eposi "Alpomish"ni nashrga tayyorlashi va ular ustidagi kuzatishlari folklarga ijodiy munosabatini yanada chuqurlashtirgan ilhom manbai vazifasini o'tadi. U. "Alpomish" eposi tahliliga bag'ishlangan "Mardlik, muhabbat va do'stlik dostoni" (1938) maqolasida folklordan o'rganishning ahamiyatiga to'xtalib, bu sohada ulug' rus shoiri A.S.Pushkin ijodiy tajribalariga shunday yuksak baho beradi: "Pushkin ijodining so'nggi davrini folklor davri deb atash mumkin. Bu davrda Pushkinning butun

asarlari folklor materiallari asosida yozilgan edi. Folklor Pushkin ijodida ayrim bir tasodifiy hodisa emas, balki bir muayyan yo'l, ustanovka holda edi. Pushkin faqat rus folklorigina emas, balki ayni zamonda G'arbiy Yevropa folklori bergan materiallarga ham murojaat qilardi. Bu tasodifiy emas, ish prinsipi edi.

Pushkinning folklorga va xalq tiliga bo'lgan muhabbati adabiyotni keng xalqqa yetkazish niyati bilan tug'ilgan va bu rus adabiyotini demokratizatsiya qilishdagi etaplardan biri bo'lgan edi." Bu mulohazani H.Olimjonning folklorga munosabatiga ham aynan tatbiq etish mumkin. Zotan, uning 30-yillardagi ijodiyotida folklorga ijodiy munosabat alohida bosqichni tashkil etadi. Shoir ijodining ko'pchilik tadqiqotchilari buni e'tirof qilishgan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, H.Olimjon ham A.S.Pushkin singari nafaqat o'z milliy folklori doirasi bilan cheklangan, balki qo'shni qon-qardosh xalqlar og'zaki ijodini o'rganish va ularga munosabat ko'rsatishda ham ma'lum natijalarga erishgan. Qozoq xalqi eposi " Er Torg'in" asosida yaratilgan operaga maxsus maqola bag'ishlagani - buning yorqin dalili. Qolaversa, u bolalarga mo'ljallab yozgan "Lola", "Vatan", "Ona va o'g'il", "Hulkarning she'ri" va "Samolyot" singari qator she'rlarida xalq ijodiga xos obraz, motiv, ohang va janr stilizatsiyasi unsurlardan mahorat bilan foydalandi.

H.Olimjon umr bo'yi xalq ertaklarini tinglashdan tolmasdi. Bu haqdagi iqrorlarini "Ona" she'rida "Faqat sevadi-yu ertak aytadi" deya ifodalasa, "O'zbekiston" shehrida "Ertaklarsa quloq tutardim" tarzida e'tirof etgan, nihoyat "Oyguil bilan Baxtiyor" ertak-dostoni debochasida tinglagan ertaklari va ulardan olgan taassurotlarini yaxlitroq umumlashtiradi: "Uyqusiz tunlarim"da "ko'p ertak eshitgandim" deya "o'sha damlar"ning sururini qayta tuyadi. Eshitganlari esa "O'zi uchar gilamlar, "Tohir-Zuhra", "Yoriltosh", Oyni uyaltirgan qosh, O't bog'lagan qanotlar, Beqanot uchgan otlar, Baxtiyor bilan Oyguil, Suylaguvchi devorlar, Bola bo'p qolgan chollar". "Ana shu ertaklar uning fikrini tortgan", "Havasini ortirgan", pirovard-oqibatda, uning san'atkor bo'lib shakllanishida ta'sir ko'rsatgan va nihoyat uning o'zida ham "To tonggacha so'ylasam ertak" ("Savol") degan ijodiy niyatni uyg'otgan edi. Bu niyat 30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib shoirga tinchlik bermay qo'ydi, natijada uning o'zbek bolalar dostonchiligi taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan va o'zbek bolalar epik poeziyasida yangi bosqichni boshlab bergan "Oyguil bilan Baxtiyor) (1937) hamda "Simurg` yoki Parizod va Bunyod" (1939) ertak-dostonlari birin-ketin dunyoga keldi. Bu asarlar o'zbek bolalar epik poeziyasida yangi oraliq janr-ertak-doston shaklining qaror topishidan tashqari, folkloridan ijodiy o'rganish va o'zlashtirishning ham yorqin namunalari bo'ldi. Natijada, o'zbek bolalar epik poeziyasida shakliy izlanishlar tobora chuqurlasha bordi va bolalar dostonchiligi bag'rida maqol-ertak, masal-ertak, naql-ertak, ertak-doston, rivoyat-ertak va she'riy latifa singari xilma-xil oraliq janrlarda asarlar yaratish an'anaviy tus ola bordi.

Aslini olganda, Hamid Olimjon bu ertak-dostonlarini bolalarni ko'zlab yozmagandi. A.S.Pushkin ham o'z ertaklarini yozganida shunday yo'l tutgani ma'lum. H.Olimjon Pushkinning ertaklari ustidagi ijodiy izlanishlariga xos tajribalariga suyanib, adabiyotning mehnat ahli turmushiga kengroq va chuqurroq

singishini, butun ommaning kitobxon bo`lishini nazarda tutib shu ommabop janrga qo`l urgan edi. Binobarin, ertak-dostonlar yozilgan tarixiy sharoitga nazar solinsa, shoir izlanishlarining ijtimoiy-estetik mohiyati yanada ravshanlashadi. Holbuki, 30-yillarda ijtimoiy-madaniy hayotda savodsizlikni tugatish, barchani yoppasiga savodxon qilish harakati qizigan bo`lib, ertak-dostonlar endigina savod chiqarayotganlar o`qishiga qulay edi. H.Olimjon ertak-dostonlari zimmasiga davr yuklagan ana shu tarixiy-estetik vazifani bajarish bilan birga keng kitobxonlar ommasiga davr ruhini ilg`ash va anglashga ham ko`maklashardi. Shunga qaramay, bu asarlar davrlar o`tishi, ijtimoiy-estetik tafakkurning o`sishi tufayli ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda bolalar va o`smirlarga mo`ljallangan dostonchilikning sara namunalariga aylanib qoldi va yosh avlodda ijtimoiy-estetik dunyoqarashni tarbiyalashda hamon xizmat qilib kelayotir.

Shoir bolaligida tinglagan ertaklar silsilasida "Oygul bilan Baxtiyor"ning bo`lganligini o`zi bir-da "Baxtiyor bilan Oygul, qiz bo`lib ochilgan gul" tarzida, ikkinchi bor esa: "Ammo Oygul-Baxtiyor ertagini u takror qilar edi har kechin" deya qayta-qayta ta`kidlaydi. Shoir esa shu birgina ertak syujeti doirasida qolib ketmadi, ko`pgina tadqiqotchilar to`g`ri va asosli ta`kidlaganlaridek, o`z asari syujeti ustida ishlashda "Malikai Husnobod", "Susambil" ertaklari syujetlari, shuningdek, "Erni-er qiladigan xotin", "Qahramon", "Yaltillama sopol tovoq" ertaklari motivlari, hatto "Chambil qamali" va "Jizzax qo`zg`oloni" (Fozil Yo`ldosh o`g`li asari) kabi xalq dostonlaridan ham ijodiy ta`sirlandi. Qolaversa, u bunda "Bashar qo`shig`i"da ifodalangan "qora tunda tug`ilib, shu on bo`g`ilgani", o`sha qora tundagi "buzg`un va benavo dunyo"da unga "qondosh va jondosh el"ning "qashshoq va gado"likdan iborat mashaqqatli hayotidan norozi bo`lib 1916-yilda Jizzaxda ko`targan isyoni taassurotlarini ham tagma`no vazifasida istifoda etdi. Tabiiyki, bu asarning ijtimoiy-estetik ruhini kuchaytirdi. Rost, bu, o`z navbatida, asar yaratilgan davr voqeligini, tasdiqlashga qay darajadadir mos ham kelardi, biroq undagi voqelik har qalay "yo`qsillarning 1917-yilgi inqilobining majoziy-ertaknamo tasviri" (N.Karimov) ham emasdi. Bunday qarash asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini cheklashdan tashqari, hamon sevilib o`qilayotganiga ham shubha uyg`otadi. Ehtimol kimdir H.Olimjon o`z qahramolarini oddiy mehnat vakillaridan tanlaganini vaj qilib, shoirni zamonasozlik qilganligini asoslashga urinar. Aslida esa, tarixning bunyodkori omma ekanligi va shu haqiqatni badiiy adabiyotda ulug` rus shoiri N.Nekrasov qator asarlarida ifoda etgani inobatga olinsa, H.Olimjon ana shu ijodiy an`anani o`zlashtirib, o`z ertak-dostonlarida muvaffaqiyat bilan davom ettirganligi ayonlashadi. Zero, xalq ertaklarida erk va adolat uchun kurash hamma zamonlarda yetakchi motiv bo`lib keldi.

Chindan ham ertak-dostonda muhabbat va baxt tarixi emas, balki unga erishish uchun kurash tarixi ertaknamo yo`sinda ifodalangan. Bu kurashga jamiyatda xotin-qizlar mavqeini tiklash motivi ham hamohang. Shu sababli asar voqealari markazida Oygul obrazi turadi, u voqealarni harakatlantiruvchi kuchni boshqaradi. Bu g`oya-ertak-doston asosi bo`lgan "Malikai Husnobod" ertagining bosh g`oyasi. Ko`rinadiki, xalqning o`zida bu g`oya feodal munosabatlar

jarayonida qadimdan yuzaga kelgan. Ijtimoiy tengsizlik hamma zamonlarda ayollarni o'z huquqlarini tanishga undagan va bu xalq ijodida xilma-xil janrlardagi asarlarda, jumladan, "Malikai Husnobod" ertagida ham aksini topgan. H.Olimjon ertak-dostonni yozgan 30-yillar arafasida boshlangan xotin-qizlar ozodligi va teng huquqliligi uchun kurashdan iborat sho'ro kompaniyabozligi yangi bosqichga kirgan edi. Oygulning Malikai Husnobodga nisbatan ijtimoiy faol timsolga aylanganligida bu holat ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Shunga qaramay, u xalq ertaklarida hamma zamonlarda o'z erki, o'z huquqi, o'z muhabbati uchun kurashib kelgan ayollarning umumlashma mujassamasi darajasiga ko'tarilgan. U podsholar taklifini rad etar ekan, shunchaki o'z ijtimoiy mavqeidangina kelib chiqmaydi, balki podsholarning zolimligi, xalqni istibdodga giriftor etganligi, ma'naviy subutsizligini ko'zga tutib, shunday yo'lni tanlaydi. Shu xususiyatiga ko'ra u asardagi talqinda hatto Baxtiyordan ham faolroqdir. Rost, u podachi Baxtiyorni ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan o'ziga tengligi uchungina emas, balki ham jismoniy, ham ma'naviy barkamolligi uchun ixtiyor etdi: Chunki u:

Go'zal edi va chinor
Qomatiga edi zor.
Ko'kraklari butun bir
Oftobni yashirardi.
Tanlariga bir umr
O't lovillab turardi.
Qilichday o'tkir edi,
Rustam kabi zo'r edi..

Baxtiyor xuddi shu fazilati bilan Oygul qalbini zabt etgandi va shu fazilatlari tufayli uning dilidagi orzularni ro'yobga chiqarishga ko'makdosh bo'la olardi. Chindanam asarda shu nuqtadan e'tiboran Baxtiyor Oygul istaklarining ijrochisiday harakat qiladi. Ular hamkorlikda Susambilda "Yangi bir dunyo qura" boshladilar. Nihoyat:

Oygul himoyasida,
Baxtiyor soyasida
Susambilda erkin, shod,
Yashar edi xaloyiq.
Uni butun odamzod
Xayol qilishga loyiq.

Aksar tadqiqodchilar ana shu talqinlarda shoir sho'ro zamonini alqagan degan qarashlarni ilgari surganlar. Istiqlol yillariga kelib esa, bu talqinlarga shoir zamonasozligi nishonasi sifatida qarovchilar ham topildi. Aslida-chi? Na unisi, na bunisi. Chunki insoniyat tarixi hamisha erk va adolat uchun kurashdan iborat bo'lib kelgan, xalq ijodiyotida ham, mumtoz adabiyotda ham bu kurash turli shakllarda, jumladan, ozod va farovon yurt shaklida, Forobiyda esa "ideal shahar" tarzida ifodalanib kelingani nazarda tutilsa, H. Olimjon kishilikning shu asriy g'oyasini o'sha an'anaviy mantiq doirasida talqin qilganligi ravshanlashadi.

"Oygul bilan Baxtiyor" – jabrdiyda xalqning o'z haq-huquqi,erki yo'lidagi kurashini ifodalasa, "Simurg` yoki Parizod va Bunyod"– mehnat ahlining

halolligini, soʻzi va ishida sobitligini, mardligini, oʻz insoniy tuygʻularining chinakam eʼzozkori ekanligini tarannum etadi. Sirasini aytganda, bu ertak-doston uchun manba vazifasini oʻtagan "Simurgʻ afsonasi" Oʻrta Osiyo xalqlari, ayniqsa, oʻzbek va tojik folklorida qadim zamonlardan beri mashhurdir. U "Mahiston afsonasi" nomi bilan ham yuritilgan. Ogʻizdan-ogʻizga koʻchib yurgan bu afsonani ulugʻ Firdavsiy birinchilardan boʻlib, yozma adabiyot mahsuliga aylantirgan. Simurgʻ bilan bogʻliq epizod "Shohnoma" tufayli xalq ijodiyotida keng tarqalgan "Rustam" ertagida qayta ishlanib, jozibasi yanada oshgandir. Simurgʻ bu ertakda dunyoda boʻladigan voqealarni oʻz vaqtida bilib turadi: Zolning tugʻilish muddati, uning olamdagi voqealarni oʻn yil ilgari biladigan hukamo boʻlishi va ming yil yashashini shu Simurgʻ bashorat qiladi. Xalqning tabiat stixiyalari sirlarini oldindan bilish istagi Simurgʻ obrazida ana shunday ifodalangan edi.

Simurgʻ–afsonaviy bahaybat qush. Uning yordamida ertak qahramoni eng mushkul, hatto uddalash amrimahol boʻlgan ishlarni bajaradi, olis masofalarni koʻz ochib yumguncha bosib oʻtadi. Yer ostidagi qahramon uning koʻmagida yer yuziga chiqadi. Lekin unutmashlik lozimki, Simurgʻ har qanday qahramonga darrov koʻmaklashavermaydi. U yaxshilik koʻrgach, javob qaytaradi. Bunda anʼanaviy motiv – uning bolalariga tajovuz qilmoqchi boʻlgan ajdar yoki ilonni oʻldirishi shart. Shu yaxshiligi evaziga Simurgʻ qahramonning fidoyisiga aylanadi.

Simurgʻ–antropomorfizm hodisasi mahsuli. Odam qiyofasiga kira oladigan, odamday harakat qila va soʻzlasha oladigan xususiyatlari qahramonlarga gʻoyat qoʻl keladi. U evrilish xususiyatiga ega: istasa -kesakka aylana oladi, istasa-qanoti oʻtkir qilichga aylanib, togʻni kesadi. Xalq orzularining ramzi boʻlgan bu qush Murgʻufarmon, Koʻktubulgʻon nomlari bilan ham yuritiladi. Mahmud Qoshgʻariy turkiy xalqlar yozma adabiyotida bu xususda ilk maʼlumot berganlardan boʻlsa kerak: "Koʻktubulgʻon–bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanoti poʻlat boʻladi va u qanoti bilan toqqa urilib, bir tomondan boshqa tomonga oʻtadi".

Shundan boshlab, bu afsonaviy qush turk va fors alfozlarida turlicha gʻoyalarni talqin etishda vositachilik qildi. Buni Ibn Sinoning "Tayr risolasi", Fariddidin Attorning "Mantiq-ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison-ut-tayr" asarlaridagi talqinlar dalillay oladi.

Xalq orzularining ota-shin kuychisi H.Olimjonni ham bu sehrgar qush maftun etdi. Natijada, u 1939-yilda ertak-doston ustidagi ijodiy ishini yakunladi, dastlab uni respublika radiosidan oʻqib eshittirdi. Darvoqe, xuddi shu yillarda tojik shoiri Muhammadjon Rahimiy ham "Afsonai Simurgʻ" dostoni ustida ishlayotgan edi. U bu dostonni 1937-yilda boshlagan boʻlsa-da, kelib-kelib 1964-yilda tugata oldi. M. Rahimiy dostoni xalq syujetini aynan saqlagandir. Doston markazida besh ogʻayni botirlarning Tagob qalʼasi malikasi Mahistonning "uchar ot", "yengilmas qilich", "jahon koʻzgusi", "hayot olmasi" va "ishq sharobi" topishdan iborat besh shartini bajarishlariga oid epizodlar yotadi.

H.Olimjon esa bu manba bilan cheklanib qolmadi, u "Oynai jahonnamo", "Botir oshiq" singari ertaklar syujetlaridan ham ijodiy foydalanib, tamoman yangi mazmundagi ertak-doston yaratdi. Bunda unga Pushkinning xalq ertaklaridagi

ijtimoiy motivni kuchaytirish an'anasi yana asqotdi. A.S.Pushkin "Oltin xo'roz"da shohning g'ofilligidan, "Shoh Salton"da esa, uning ma'naviy buzuqligidan kulib, ertaklaridagi ijtimoiy motivning o'tkirligiga erishgan va shu usulda zulmkorlar qiyofasini fosh etgan edi. H.Olimjon ham "Oygul bilan Baxtiyor"da shohni zulm saltanati tirgagi sifatida ko'rsatsa, "Simurg` yoki Parizod va Bunyod"-da subutsizligini namoyish etadi. Shoir bu ertak-dostonida yovuzlik va subutsizlik hukmronligidagi muhitda voyaga yetgan Parizodni asarning markaziy obrazlaridan biri sifatida bo'rttiradi. Shu zaylda asl afsonada go'zallik va sevgi timsoli bo'lgan Mahiston o'rnida H. Olimjon g'oyaviy niyatiga mos toshbag'ir Parizod obrazi maydonga kelgan.

Parizod-xudbin va dumog'dor xon qizi. Xon saroyidagi barcha pastkashliklar muhitida shakllangan. Shu sababli "qalbi marmarday sovuq" bu qiz "tishidan zahar tomgan, ishidan o'lim yoqqan, shoxi osmonda, tirnog'i qonda" bo'lgan dev bilan xufya oshno edi. Shu pastkashligi, boylikka o'chligi va kambag'alni nazariga ilmaganligi tufayli Bunyodni ham seva olmasdi. U va'dada ham noshud. Bunyodni o'limga ro'para qilib, aslida unga tegishga rozi bo'lmay, shunchaki undan qutilmoq vajidan va'da bergan edi. U shu qadar yuzsizki, devni engib kelgan g'olib Bunyodga shu niyatdagina va'da berganligini tan oladi:

Cho'ponni sevolmadim,
Hech ko'ngil qo'yolmadim.
G'urbatga qorganimning,
Devga yuborganimning
Sababi shunda edi,
Ko'nglim tugunda edi.
O'lib ketar deb edim,
Chirib ketar deb edim.
Qancha botir bo'lsang ham,
Zo'r bahodir bo'lsang ham,
To'shaging xas deb bildim,
Aslingni past deb bildim,
Sevolmadim seni men,
Chunki men xon qiziman .

Xon qizi surbetlik bilan otasining xonligidan kerilarkan, o'zini aslzoda hisoblab, oddiy mehnatkashlar "aslini past" deb qaraydi. H.Olimjon Parizod timsolida feodal ierarxiyasida hukmron doiralardagi dumog'dor va subutsiz xotin-qizlarning salbiy umumlashma namunasi yaratdi.

Bunyod-Parizodning antipodi, aslzoda emas, oddiy cho'pon. Ishida ham, so'zida subuti butun. Shartning og'ir-yengilini bilmaydi, ezgulik yo'lida o'limdan qaytmaydigan bahodir. U-xalq pahlavoni. Nomining "gapiruvchiligi" ham shu niyatning ifodasi. G'oyat kamtar va kamsuqum inson. Oriyat va nomusni baland tutadi. Hatto so'zida tuturiqsiz Parizod hayosizlarcha uni tahqirlab, otasining vaziriga tegib olganini aytganida Bunyod "o'tda tutaqib"

Ne aytarin bilmasdan,
Tili so'zga kelmasdan..

Parizodni, xonni ham,
Ikki nomard jonni ham
Qilichdan o`tkazmoqqa,
O`linga yutqizmoqqa

Shaylanganida ham qasos o`tida yonib, saroydan mardona chiqib ketadi. Parizod shart qo`ygani uchun yovuz devni o`ldirganligini ta`na qilmaydi, aksincha bu, garchi shoir biror ishorada aks ettirmasa-da, eldoshlarini yovuzlikdan qutqazgani uchun shunday yo`l tutadi va g`azablansa-da, hech narsa demay chiqib ketadi. Ammo:

Bevafo xon qizini,
Nomard xonning o`zini,
Unutmadi hech qachon .

Xuddi shu tuyg`u uni kelajakdagi kurashlarga chog`lashi muqarrar. Ertak-doston shu xildagi umidbaxsh ruh bilan yakun topadi.

Bu o`rinda shuni ta`kidlash zarurki, butun ertak-doston davomida Simurg` Bunyodga birgina epizodda–devni yengishini ta`minlashidagina ko`maklashsa-da, aslida bu voqealar drammatizmni avj nuqtaga chiqarib, tugunni yechishga ochqich vazifasini bajargan hal qiluvchi epizoddir. Aftidan, H.Olimjon shunga urg`u berib, asariga "Simurg` yoki Parizod va Bunyod" deya nom qo`yganga o`xshaydi. Binobarin, asar nomini qisqartirib yoki shoirning ayrim majmualarida bo`lganidek, "Semurg`" tarzida chalkashtirib yozishi noto`g`ridir. Negaki, afsonaviy qush nomi-Simurg` bo`lib, o`ttiz qushni anglatadi, forscha Semurg` esa-uch qush ma`nosidadir. Bunda miqdordagi farq Simurg`ning bo`rtirma timsolini dalillashini unutmashlik lozim.

Xullas, H.Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor", "Simurg` yoxud Parizod va Bunyod" ertak-dostonlarida, akademik S.Mamajonov to`g`ri ta`kidlaganidek: "Ozodlik, adolat va baxtiyor hayot uchun kurash g`oyasi yotadi. Bularda temani ham, motivni ham, syujetni ham, qahramonlarni ham, obrazlarni ham, bayon qilish va tasvirlash yo`llarini ham xalq ijodidan oladi. Xalqning material va ipagi bilan shoir go`yoki yangi bir so`zana tikdi. O`z qalbini, zamondoshlarining qalbini, hozirgi davr ruhini xalq ijodi tori orqali ifodaladi". U xalq ertaklarining vorisi sifatida ish ko`rdi, xalq ertaklarining ijtimoiy-axloqiy mundarijasini xalqona ohang va poetik vaznda realistik ifoda etdi. Shu sababli bu asarlar hamon sevilib o`qilmoqda, ular asosida sahna asarlari, kinofilmlar yaratilib kelinmoqda. Jumladan, "O`zbekfilm" tomonidan 1972-yilda yaratilgan "Simurg`" ertak-filmi o`zbek bolalar badiiy filmlarining yorqin namunasiga aylanib qoldi.

Nasriy adabiy ertaklar muallifi **T. G`oyibov** 1904-yilda Marg`ilonda kosib oilasida tug`ilgan.U ertaknavis adib sifatida bo`y ko`rsata borib, birin-ketin "Sehrli so`z", "Tanbur" (1963) "Notanish bola", "To`linboy qissasi" (1965), "Sehrli darvoza" (1968), "Qo`lsiz rassom" (1970), "Zamon ertaklari" (1969), "Uch sehrli so`z", "Guldasta" (1972) "Sirli qopqa" (1979), "Marsdan kelgan odam" (1984), "Oltin shoxli kiyik" (1988), "Ajoyib xazina" (1989) va "Sehrgarning xatosi" (1992) kabi qator ertaklar to`plamlari yuzaga keldi. Ayniqsa, "Zamon ertaklari" to`plami adibga katta shuhrat keltirdi, to`plam tojik, qozoq va rus tillariga o`girilgan holda

Dushanbe, Olma-ota va Moskvada chop etildi. 1989 yilda "V strane volshebnikov" nomi ostida yana bir ertaklar to'plami rus tilida Toshkentda nashrdan chiqarildi. T.G'oyibov ertaklarga dramaturg sifatida ham ijodiy munosabat ko'rsatib, "Botir Vali", "Kichkina o'g'ri bolaning katta ishi", "Sehrlil olma", "Egri va to'g'ri" singari ertak-pesalar yaratdi. Bu asarlar respublika yosh tomoshabinlar va qo'g'irchoq teatrlari repertuaridan mustahkam o'rin oldi. Ana shu dalillarning o'ziyoq adibning ertaknavislik faoliyati g'oyat samarali bo'lganligini ko'rsatib turibdi. Biroq uning kamtarona xizmati milliy istiqloлга erishilgach, munosib taqdirlandi. U roppa-rosa uch kam yuz yasharligida-2001 yilning 28 avgustida "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlandi. Bu uning salkam yetmish yillik ertaknavislik faoliyatining chinakam e'tirofi edi. T.G'oyibov ertaklari aksaran maishiy va fantastik xarakterda bo'lib, xilma-xil mavzularni ifoda etadi. "Qor odam", "Sehrjonov va Burjuev", "Gilosxon", "Parilar makoni", "Oltin shoxli kiyik", "Atomdev", "Marsdan kelgan odam" sehrlil fantastik ertaklar silsilasini tashkil etdi. Ularda voqelik ba'zan bolalar ishtirokida kechsa, ba'zan bolalar nazaridan o'tkazilgan holda kechadi. Adib shu asosda ertak bolalar uchun yozilganini ta'kidlabgina qo'ymaydi, balki ertaklarning o'quvchilari yoki tinglovchilari sanaluvchi bolajonlarda jasorat va kashfiyotga havas uyg'otishni, adabiy qahramonga aylangan tengqurlari o'rnagi va ibrati vositasida yuksak fazilatlar sohibi sifatida shakllanishlariga ta'sir ko'rsatishni ham ko'zda tutadi. "Atomdev" ertagida bu xususiyat yaqqolroq namoyon bo'lgan. Unda bayon etilishicha, Ijodkorov kashf etgan atomdevga minib, suv ostiga sho'ng'ishga, suv osti olamini kuzatishga har kim ham jur'at etavermaydi. Lekin Botirjon otlig' bolakay botirlik ko'rsatib, atomdevga minib suv ostiga tushadi. Suv osti hayvonot va nabotot olamini ko'rib hayratlanadi, undan qimmatbaho toshlarni olib chiqib, olim Ijodkorovga, onasiga va maktabiga tortiq qiladi. Botirjon shu qadar jasur, shu bilan birga sinchkov, zehnil, fahmli, hatto hayvonlarni ham tezda o'ziga rom qila oladigan mehribon bola bo'lgani sababli Ijodkorov va uning ixtiroosi atomdevni yovuz niyatli Ochko'zov dastidan ozod qilishda alohida g'ayrat ko'rsatadi. Ertak voqea ichida voqea keltirish asosida qurilgan. Olim Ijodkorov insoniyatga manfaat keltirishni ko'zlab atomdevni ixtiro qiladi, biroq ziqna va xiylagar Ochko'zov uni qo'lga kiritib boyimoqchi, hammani o'ziga itoat ettirmoqni ko'zlaydi. Ammo hushyor odamlar bunga imkon bermaydilar, yovuzlikni mahv etib, ezgulik g'alabasini ta'minlaydilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq ijodiyotiga xos ifoda usuli, syujet qurilishi, kompozitsion aniqlik, obrazlilik, tilning soddaligi va boshqa unsurlardan ijodiy foydalanish o'zbek bolalar adabiyoti realizmini, xalqchilligini, janriy xilma-xilligi, g'oyaviy-badiiy ko'lamdorligi va saviyasini ta'minlamoqda. Akademik S.Mamajonov yozganidek; "Xalq ijodi yozuvchilar uchun xalq tarixini, kurashini, uning maqsad va ideallarini, ruhi, ongi, psixologiyasi va xarakterini, uning boy tilini o'rganish manbai bo'lmoqda; xalq bilan, hayot va zamon bilan uzviy bog'lanishda ma'lum ma'noda g'oyaviy-estetik ko'priklardan biri bo'lib xizmat etmoqda". Shunday xizmati tufayli o'zbek bolalar adabiyoti tobora teranlashmoqda va hayajonbaxshligi kuchaymoqda. Binobarin, bu jarayonni chuqur va har

taraf lama tadqiq qilish-o'zbek bolalar adabiyoti kamolotining ufqlarini ochishga yo'l ko'rsatishi aniq.

5-mavzu. Sulton Jo'ra - o'smirlar kuychisi, Oybek – bolalar adibi

Reja:

1. Sulton Jo'raning hayot yo'li.
2. Sulton Jo'ra – bolalar shoiri.
3. Oybekning hayot yo'li.
4. Oybek – bolalar shoiri.
5. Adibning bolalarga bag'ishlangan nasriy asarlari haqida.

Sulton Jo'ranio o'smirlar kuychisi sifatida yaxshi taniymiz. Shoir she'rlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari rang-barang. Uning “Oy nechta”, “Lola”, “Sog'inchli salom” kabi she'rlarida bolalar olamining ifodasi ufurib turadi. S.Jo'raning pedagog shoir sifatida yozgan “Tinish belgilarining majlisi”, “Kimning xati chiroyli” she'rlari ta'lim-tarbiyaviy jihatdan dolzarb. Shuningdek, shoirning “Yolg'onchi” dostoni, “Zangori gilam” ertaklarining syujeti va kompozitsiyasi o'ziga xos qimmatga ega.

She'riyatda havas Sulton Jo'ra qalbida juda erta uyg'ondi. U bilim yurtida o'qib yurgan kezlarida klassik va sovet shoirlarining asarlarini mutolaa qilib, o'zi ham ularga taqlidan she'rlar mashq qila boshladi. Keyinchalik shoir tarjimai xolida bu yillarni xotirlab “Birinchi marta 1927 yilning oxirida “Mehnat qo'ynida” degan she'r yozdim, u “Yangi yo'l” jurnalida bosildi”-deb aytgan edi.

Sulton Jo'raning dastlabki she'rlari 1933-yilda Buxoro yosh shoirlarning “She'rlar” to'plamida nashr etildi. Uning 1939-yilda “Fidokor”, 1941-yilda “Moskva” she'riy to'plamlari, 1942-yilda “Iroda” nomli pyesasi nashr etildi. Shoir vafotidan so'ng 1951-yilda rus va o'zbek tillarida “Tanlangan asarlar”, tinch qurilish yillari davrida iste'dodli shoirning “Havorang gilam”, “Zangori gilam”, “Bruno”, “Parvoz”, “Qaldirg'och” kabi kitoblari bosilib chiqdi.

Ayni choqda, u “yaxshi” va “a'lo” baholarga o'qish uchun kurashish, rostgo'y va intizomli bo'lish, madaniy va pokiza kiyinish, savodxon va chiroyli yozuv malakasini egallash kabi ta'lim-tarbiyaviy masalalarni ham badiiy vositalarda talqin etdi. Bunday g'oyalar shoirning “Yozgi yomg'irdan so'ng” (1936), “Qizlar”, “A'lo” va “Yaxshining maqtovi”, “Zangori gilam”, (1939), “Lola”, “Oy nechta?”, “Tinish belgilarining majlisi”, “Cho'ntak”, “Sirkda” (1940), “Qarzdor”, “Qaldirg'och”, “Yolg'onchi”, “Dengiz tagida”, (1941), “Sog'inib” (1942), “Sog'inchli salom”, “Salom xat” (1943) kabi asarlarida o'z ifodasini topdi.

Sulton Jo'ra o'z vatanining ozodligi, xalqining erki uchujngina emas, balki ularning porloq kelajagi bo'lgan kichkintoy do'stlarining baxti uchun ham kurashdi. Qirg'in maydonlarida bosqinchilar bilan olisha turib, navqiron avlodga o'z alangali salomini yo'llay oldi.

She'riyat sirlarini qunt bilan o'rganish, jiddiy va muttasil mashq Sulton Jo'raning adabiyot dargohiga o'z ovozi bilan kirib kelishiga imkon berdi. U poeziya olamiga katta umid bilan kirib kelgan yillar o'zbek adabiyotining yanada

ko'tarilish davriga to'g'ri keldi. Bu paytlar yangi hayot davrini tarannum etuvchi. 30-yillar o'zbek poeziyasining eng yaxshi namunalarini yaratgan Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom va Uyg'unlarning qator asarlari nashr etilgandi. Bular butun vujudi bilan poeziyaga berilgan Sulton Jo'raga ta'sir etmay, uni to'lqinlantirmay qolmadi. Shuning uchun ham shoir "Bu yillarda adabiyotga qiziqib Uyg'un, Hamid Olimjonlarning she'rlarini ko'p o'qirdim... yohud Shayxzoda, G'afur G'ulomlarning barcha asarlarini qiziqib o'rganib chiqdim,"-deb takror-takror yozadi. "Mening o'sishimga o'rtoq G'afur G'ulomning tashabbusi bilan 1939-yilning dekabrda Toshkentda adabiy kecha o'tkazildi".

1940 yilgacha, shoirning o'zi «birinchi she'riy to'plamim» deb e'tirof etgan «Fidokor» majmuasi bosilgunigacha, u, asosan, davriy matbuotda bosilgan she'riy va publitsistik asarlari bilan shunday e'tibor qozona olgan edi. Rost, bu asarlarning kattagina qismi katta yoshdagilarga mo'ljallangan esa-da, u bolalar va o'smirlarni qam unutmadi, ular uchun g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlar yozib, bolalar va o'smirlar kuychisi sifatida tanildi. U turli yoshdagi bolalar ruhiy olamini nafis his qila olganligi sababli ular xarakteridagi tabiiy soddalikni, tinib-tinchimaslikni, ayrim hollarda yolg'onchiligu dangasalikni yorqin ifoda eta oladigan «Lola», «Oy nechta», «Cho'ntak», «Mamatning kechirimi», «Yolg'onchi», «Qarzdor», «Kimning xati chiroyli», «Yaxshi» va «A'lo»ning maqtovi», «Harflar paradi», «Tinish belgilarining majlisi»

kabi XX asrning 30-yillaridagi o'zbek bolalar she'riyatining betakror namunalarini yaratdi.

Sulton Jo'ra adabiyot maydoniga kirib kelgan davrda rus va jahon ilg'or adabiyotining eng yirik namunalari bilan tanishish, mutolaa qilish imkoniga ega edi. Yana bir dalilni alohida ta'kidlash kerak. Ma'lumki, ana shu yillarda o'zbek adabiyotshunosligida ham muhim muhim asarlar maydonga kelgan edi. Bu davrda e'lon qilingan "Lirika uchun", "So'nggi yillarda o'zbek poeziyasi"(Oybek), "O'qish va o'rganish qiyinchiliklari to'g'risida" (Hamid Olimjon), "Realizmni egallash yo'lida" (Hamid Olimjon, Uyg'un), "O'zbek sho'ro adabiyotida dunyoqarashni egallash haqida chet ta'sirlar bilan kurashish masalasi" (O.Hoshim), "Bir reaksiya nazariya to'g'risida" (O.Sharafiddinov) kabi asarlar va adabiyotimizning qisqa, lekin mazmunli tarixiy yo'lini xarakterlovchi boshqa maqolalar Sulton Jo'ra ijodining g'oyaviy takomilida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yillari adabiyot maydoniga kirib kelgan Zulfiya, Usmon Nosir, A. Umariy, Hasan Po'lat, Z.Diyor, Parida Tursun kabi iste'dodlar o'rtasida avj olgan qizg'in ijodiy musobaqa esa Sulton Jo'rani ham ijodiy kamolot sari rag'batlantiradi

O'zining roman va qissalari, ilmiy-nazariy, siyosiy, badiiy publitsistik asarlari, tarjimalari, ajoyib she'rlari, dostonlari, hikoyalari bilan o'zbek adabiyoti xazinasini boyitgan atoqli so'z san'atkorlaridan biri **Oybek** bolalar adabiyoti taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shgan adibidir. U yaratgan she'r va hikoyalar, qissa va dostonlar bolalar ma'naviyatiga samarali ta'sir etib, yosh avlod estetik didining shakllanishida katta rol o'ynamoqda. «Gunafsha» (1926), «Bolalikni eslab» (1926), «Shaharcha bolalariga» (1934), «Shoirning bolaligi» (1937), «Eski va yangi bolalik» (1937), «Odobli Tursun», «Ahmadjon bog'bon» (1971) kabi

she`riy kitoblari, «Zafar va Zahro» (1953), «Haqgo`ylar» (1976), «Bobom» (1957) kabi dostonlari, «Alisherning yoshligi» (1967) qissasi, «Globus» (1981) hikoyalar to`plami, «Bolalik» kabi asarlari ayniqsa xarakterlidir.

Yozuvchi Oybekning bolaligi ham barcha mehnatkash xalq bolalari kabi kechadi. U yoshlikdan uy-ro`zg`orga qarashish, guzardan narsa olib kelish, suv tashish, o`tin yorish, qor kurash kabi yumushlarni bajaradi. Barcha bolalar kabi bahor vaqtlarida tomma- tom oshib, varrak uchirar, dovuchcha qoqar, qish bo`lsa oshiq o`ynar, xo`roz, tuxum va it urishtirishlarda qatnashar, yoz kunlari onasining pinjida qarindosh-urug`larining uylariga «mehmon»ga borar, hayit, sayil va boshqa milliy bayram kezlarida esa o`zida yo`q sevinib, dor o`yini, xalq qiziqchiliklarini, ko`ngil ochar tomoshalarni ko`rishga muyassar bo`lar edi. Keyinchalik «Shaharcha bolalariga», «Shoirning bolaligi» she`rlarida shu manzaralar o`z aksini topadi.

Oybekning bolalar va o`smirlarga bag`ishlangan she`riy asarlarida bugungi qaynoq hayot, ilm, hunar va mehnatga bo`lgan muhabbat, vatanparvarlik, jamoatchilik, ijtimoiy burchni anglash kabi xususiyatlar aks etgan. Bu fazilatlar o`sha davrda Oybek asarlarining yetakchi mavzuiga aylanadi. Shoir g`oyaviy-badiiy kuchli she`rlar bilan birga, bolalar va o`smirlar hayotini tasvirlovchi hikoyalar ham yozdi. 1981 yilda adibning «Globus» nomli to`plami bosilib chiqdi. Bunda Oybekning shu vaqtgacha e`lon qilinmagan «Gulnor opa» (1930 yil), «Fanorchi ota» (1930 yil), «Singan umid» (1930 yil), «Tillatopar» (1930 yil) hikoyalari ham chop etilgan.

Oybek kichik yoshdagi maktab bolalari uchun Pokiston bolalari hayotidan «Qonli barmoqlar» (1962 yil) hikoyasini yozdi. Hikoyada Pokistonda tinchlik uchun kurashuvchilardan qanday qasos olinayotganligi, ularning bolalari ko`chalarga chiqarib tashlanayotganligi, tilanchilikka va malaylikka mahkum etilayotganligi hikoya qilinadi. Yozuvchi buni asar qahramoni to`qqiz yoshli Alining sarguzashtiari orqali tasvirleydi.

Oybek hikoyada Alilarning yashash sharoitini va qanday kun kechirishini quyidagicha tasvirleydi: «Gorishov Lohurning baridagi bir daha. Lohur — qo`shiqlar, gullar diyori. Gorishov esa dahshat! Ali bu xaroba - vayronalar ichida yuguradi. Ko`cha, yo`lka deydigan narsa yo`q, tutash xaroba kulbalar. Shunday xaroba kulbalarning birisida Ali bilan onasi, otasi qamalgandan so`nghaydalib, ko`chaga tashlangan edi».

Pokiston shaharlarining ko`cha-ko`ylarida to`da-to`da tilanchi bolalar yuradi. Gadoylar odatda «baxshish» deyilsa, o`zlarini tomdan tashlab yuborishga tayyor ekanligi hikoyada bo`rtib turadi.

Ali bir parcha non qidirib, besh-olti kundan buyon rastalarni kezib yurganda gulobchi do`kondor uni chaqirib «jahl aralash dedi: “Mana bu yashiklarni bo`shat!» Buning evaziga esa haq to`lashga va`da qiladi. Ali: «rostdanmi?»,- deb so`radi va do`kondorning «ha» degan tovushini eshitgach, bola uzun xo`rsindi, jilmaydi. Kir, kalta ko`ylagining yenglarini shimarib, ishga tushdi». Ali yashiklardagi siniq gulob shishalarini tashiydi: «Siniq, cheti uchgan shishalar va berahm quyoshning issig`i xunob qilar, kichik barmoqlari tilingan, qo`llari qon. Ammo och, tentirab yurishdan

charchagan bola bu xizmatdan vaqti xush edi. Isqirt, juldur, cho`pday oriq bolalar bolaning qonagan qo`llariga tikildilar. Bolalar Aliga ko`mak bermoqchi bo`lganlarida u «rahmat», deb javob berdi. Ali och-nahor, barmoqlarini shisha siniqlari kesib achitishiga, bir parcha non topishning nihoyatda azob-uqubatlari va mashaqqatlariga qaramay, do`kondor gulobchining og`ir ishini bajardi. Do`kondor bir qutini ochib, yupqa «chapati» nonni uloqtirdi. Ali ilib oldi, quvonib dedi:

– Darrov borib, ayamga beraman, u kasal!

– Aya, men keldim, non topib keldim. Turing, non yeng, non...

Kampir onaning yuzini ochdi:

– O`tdi olamdan!

Dard bilan, yo`qchilik bilan, ochlik bilan, g`am bilan hamisha kurashgan bu g`arib ayolning yuzida baxtsiz hayotning eng so`nggi nafasida o`lim bilan kurash dahshati ko`rinar edi».

Bu hayotiy parcha faqat pokistonlik Aining hayoti uchun xos hodisa bo`libgina qolmay, balki kambag`al mehnatkash bolalarining hayoti uchun ham tipik hol edi.

Kitobxon Alining sarguzashtlari bilan tanishar ekan, unda oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum etilgan bolaning ayanchli taqdiri orqali yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg`ulari shakllanadi.

Muhimi shundaki, hayotda doimo yovuzlik bilan ezgulik orasida tinimsiz kurash borishini, bu kurash insonlarni ulug` ishlarga otlantirishi mumkinligini his qiladilar.

Oybek buyuk o`zbek shoiri Alisher Navoiyning bolalik yillari haqida hikoya qiluvchi «Alisheming yoshligi» qissasini (1967) yozdi. Ulug` Navoiy Oybekning sevimli siymolaridan biri edi. Bu haqda adib maqolalaridan birida shunday hikoya qiladi: «Navoiy she`riyati va Navoiy obrazi hamisha kuchli bir quyosh kabi ko`nglimni tortar edi. O`z asarlarimda Navoiy obrazini yaratishga zo`r mayl va istagim bor edi. Yoshligimdan bepi Navoiyning o`lmas, adabiy she`rlarini sevib o`qir edim, uning jozibali g`azallari borgan sari ko`nglimga singib bordi, shakl va mazmunlari yuragimni maftun etdi... U mening ko`nglimda, yodimda edi, butun borlig`imni band etgandi. Yursam-tursam hamisha Navoiyni o`ylar edim. Uning ma`nodor, aqlli ko`zlari hamisha xushfe`l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl pok, ulug` qalbini his etardim, ko`z o`ngimda ko`rardim...»

Oybek 1928 yildan boshlab Alisher Navoiy ijodini chuqur o`rganishga kirishdi. U dastlab, Navoiy ijodiga doir ko`pgina ilmiy maqolalarni o`qib o`rganadi. Keyinroq «Navoiy», «Guli va Navoiy» dostonlarini nashr ettiradi. Davlat mukofotiga sazovor bo`lgan «Navoiy» romanida ulug` shoir va mutafakkir hayotining kamolot davri tasvirlanadi.

«Alisherning yoshligi» qissasida Hirotdagi (taxminan 1447-1452 yillar) tarixiy voqealar, shahzodalarning Shohruh vafotidan keyingi o`zaro taxt uchun kurashlari va shu davrda o`tgan Alisheming bolalik (to`rt yoshdan boshlab) yillari haqida hikoya qilinadi. Qissada Alisher obrazining takomili o`sha vaqtdagi tashqi muhit voqealari va ziddiyatlari bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Hukmron doira orasida mavqei ancha baland bo`lgan G`iyosiddin va Gulbegim bekaning oiladagi samimiyliklari, o`zlarini sipo ham oqilona tutishlari, farzandi Alisheming ham

jismoniy, ham aqliy tomondan kamolotida muhim rol o'ynaganligi haqqoniy tasvirlanadi.

Yosh Alisher xarakteridagi o'ziga xos xislatlar uning bolalik chog'idanoq namoyon bo'lgan edi. Alisher siymosiga xos bo'lgan aqllilik, kattalarga bo'lgan samimiy hurmat, she'riyatni nozik his etish, g'azallarni g'oyat maromiga yetkazib, ifodali o'qish, ayniqsa, «ot choptirishdan fikr yuritish yaxshiroqdir chamamda», deya fikr yuritishi kitobxonda katta taassurot qoldiradi.

Alisheming keyinchalik buyuk davlat arbobi, ulkan shoir darajasiga yetishishida bu kabi fazilatlarning o'zigina yetarli asos bo'lib xizmat etmadi, albatta.

Oybek Alisher xarakterining shakllanish jarayonini har bir epizod, suhbat, yordamchi obraz va qahramonlar munosabati orqali ham badiiy asoslay olgan.

Alisheming o'qishga – maktabga bo'lgan havasini adib uning tilidan: «Ov qilmoq merganlik–ermak narsa, lekin eng zo'r zarariyat maktabdir. Turmushning ko'p sirlarini maktab o'rgatadi», deb uning ilmga bo'lgan qiziqishini tasvirlaydi. Shu bilan birga uning ota-onasi, qavm-qarindoshi va boshqalarning suhbatlari, shoirlarning g'azallari Alisherga katta ta'sir etganini qayd etadi.

Adibning «Bolalik» qissasi avtobiografik xarakterga ega bo'lib, uning markazida yosh Musaning sarguzashtlari yotadi. Musa obrazining hayotdagi asosi adib Oybekning o'zidir. Asarda Musavoyning yetti yoshgacha bo'lgan davrdagi xakteri sho'xlik, tegajoqlik, tinib-tinchimaslik va o'yinqaroqlikdan tashqari, ochiq ko'ngil, dangalchi o'tkir zehniligi Oybekona tasvirga ega.

«Bolalik» qissasida Turg'un, A'zam, Ahmad, Qodir, Hoji, Sobir kabi Musavoyning tengqurlari va o'rtoqlarining obrazlari ham berilgan. Ularning har biri o'z shaxsiy qiyofalariga ega.

Oybek o'sha davr tashvishlari bolalar hayoti va taqdirida ham ma'lum darajada aks etganligini mahorat bilan tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Oybek yuqoridagi kabi asarlari bilan o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va yuksalishiga katta hissa qo'shdi. U o'zining bunday asarlari bilan bolalar adabiyotining sevimli kuychisiga aylanib qoldi.

6-mavzu. O'zbek bolalar adabiyoti yuksalish yo'lida (1940-80 yillar).Quddus Muhammadiy- bolalarningtabiatshunos shoiri

Reja:

1. Quddus Muhammadiyning hayot yo'li.
2. Quddus Muhammadiy – bolalar shoiri.
3. Shoir she'rlarinig mazmun-mundariyasi.

Quddus Muhammadiy XX asr o'zbek bolalar she'riyatini mavzu mundarija hamda janriy xilma-xillik bilan boyitgan zabardast shoir. Uning ijodi o'tgan asrning 30-yillaridan, to yangi asr bo'sag'asiga qadar keng qamrovli shakl va tamoyil kasb etdi. Shu davr mobaynida shoir she'rlarini bog'cha bolasidan tortib, maktabni tamomlayotgan o'spirinlargacha birdek sevib o'qidi, qo'shiq qilib

kuyladi. Q.Muhammadiyning alohida chop etilgan she'riy to'plamlari, ertak-dostonlaridan tashqari, birgina maktab darsliklariga kiritilgan asarlarining o'ziyoq, uning ommabop va hammabop she'rlar yozganidan dalolat beradi. Muhimi, ana shu ehtiros hali-hanuz syngani yo`q. Shoir she'rlari mustaqillik bolalari tomonidan ham birdek, sevib o`qilmoqda. Shunga yarasha ijodkor badiiy olamining talqini o`zining yangi qirralari bilan to`lishib bormoqda.

Quddus Muhammadiy butun umrini, ijodini kichkintoylarning katta adabiyotiga bag`ishladi.

*She`r yo`lin o`rgatgan quyoshim, oyim,
Kunduzim, yulduzim, ilhomim, so`zim,
Shu Vatan, shu xalqim, shu o`g`il-qizim,
She`rimning asosiy mavzui sizlar.
Asarim ovozi - parvozi sizlar,
O`zingiz ilhomim oltin o`zagi,
O`zingiz she`rimning husn-bezagi,*

Haqiqatdan ham shoir she'rlarining mavzui bepoyon Vatan, uning mehnatsevar xalqi, shirin «o`g`il-qizlari»dir. Asarlarining ovozi ham, «parvozi» ham, «ilhomim»ning «oltin o`zagi», she`rining «husn-bezagi» ham shulardir. Shoir o`z asarlarida bolalarning yurak tuyg`ularini, orzu va intilishlarini, o`qishdagi yutuqlarini aks ettirish bilan birga, ulardagi kamchiliklarni qoralaydi, uni yo`qotish yo`llarini izlaydi, topadi, o`z o`quvchisiga talabchan o`rtoq, qattiqqo`l ustoz sifatida yo`l ko`rsatadi.

Shoirni bolalarning hamma tomoni qiziqtiradi. U bolalarga nima xunigu nima chiroylik, nima yaxshi-yu nima yomon, juda go`zal nima-yu juda qiziq nima ekanligi haqida yozadi. U o`z she'rlari bilan bolalarda estetik didni o`stirishga, go`zallik haqida tassavur hosil qilishga harakat qiladi.

To`qson yillik umrini bolalarga she`r, qo`shiq, doston, doston-ertak yaratishga qaratgan Quddus Muhammadiy 1907 yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. Bo`lajak shoirning otasi Muhammad Alibek Abdurahmonbekov ancha savodli kishi edi. Shu sababii u dastlabki ma`lumotni otasidan oldi.

1925 yilda otasi vafot etgach, Quddus Muhammadiy awal amakisirikida, so`ngra esa maktab-internatda tarbiya oladi. Internatda Q.Muhammadiyning birinchi she`ri «Chuvalachi» maydonga keladi va bu yerda chiqadigan «Quyosh» nomli devoriy gazetada bosilib chiqadi. Shu ilk mashqlaridayoq bo`lajak shoirning nafasat olamini kuzatish va badiiy idrok etish talanti hamda umumlashtirish mahorati yaqqol ko`rinadi. U yetti yillik maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent qishloq xo`jalik texnikumiga o`qishga kiradi. Bu yerda u bolalar uchun she`rlar yoza boshlaydi. Uning «Tong o`yini», «Paranji», «Ahmad va asalari», «Seleksiya stansiyasi» nomli she`rlari vaqtli matbuotda bosilib chiqadi.

1931 yildan Q. Muhammadiy maktabda botanika o`qituvchisi bo`lib ishlaydi, shu bilan birga O`rta Osiyo davlat univeisitetining biologiya fakultetida o`qiy boshladi.

Bolalar uyidagi va universitetdagi hayot, mehribon murabbiy va muallimlarning g'amxo'rliklari Q.Muhammadiy qalbida bir umr o'chmas iz qoldiradi. Bu yerdagi o'zaro do'sflik bo'lajak shoir qalbini tordek ko'tarib yuboradi.

Quddus Muhammadiy Oybek, H.Olimjon, G'.G'ulomlarni o'zi uchun ustoz deb bilgan, ulardan o'rgangan, ular bilan doimo ijodiy muloqotda bo'lgan. Ilk she'rlaridan biri «Tong o'yini» orqali ulkan adib Oybek bilan tanishadi. Oybek bu iste'dodli bolalar shoirini hamisha qo'llab-quvvatlab, ijodiga g'amxo'rlik qilib kelgan.

Bir kuni Yozuvchilar uyushmasida mushoira bo'ladi. Mushoiraga raislik qilayotgan Hamid Olimjon she'r o'qish navbatini Q.Muhammadiyga beradi.

Q.Muhammadiy zavq bilan «Sa'va sayrarkan» she'rini o'qiydi. Q.Muhammadiyning ijodiy qobiliyatini payqagan H.Olimjon she'r tugashi bilan uni yoniga chaqirtiradi. Qachondan beri she'r yozishini, qayerda ishlashini surishtirib, she'r ma'qul tushganini aytadi. So'ng, bolalar uchun she'rlarning kamligi haqida to'xtalib, mana shunday ajoyib she'rlarni ko'proq yozishni ta'kidlaydi.

Q.Muhammadiy ijodiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri hozirjavoblikdir. Shoir asarlarida ona-Vatanga muhabbat, a'lo o'qish, xulq-odobda boshqalarga namuna bo'lishga da'vat etish, fan va texnikani o'rganish muammolari asosiy mavzulardan hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Quddus Muhammadiy Islom shoirga adabiy kotiblik qiladi. Bu yerda u xalq og'zaki ijodi namunalari bilan yaqindan tanishadi. Islom shoirdan ko'p narsalarni o'rganadi.

Shoirning birinchi she'rlar to'plami 1946 yilda «O'quvchiga esdalik» nomi bilan bosilib chiqadi. Shundan keyin uning 60 dan ziyodroq turli nom va tillardagi kitoblari bosilib chiqdi.

Quddus Muhammadiy doimo zarur mavzularda asarlar yaratib keldi. Har bir she'rni kundalik hayotimizdan olib yozdi. Yozganda ham qiziq yozdi, qizg'in yozdi, soz yozdi. Bolalarni o'qishga, hunar o'rganishga, odobli bo'lishga, mehnatga chaqirdi, qiziqitirdi, yordam berdi. Buni shoirning «O'quvchiga esdalik» she'rida ko'rish mumkin. Asarda maktab o'quvchisining ma'naviy qiyofasi va vazifalariga mufassal to'xtalib, o'qish, bilim o'rganish zarurligini ta'kidlaydi:

*Bo'lay desang bog'bon,
Yo Vatanga posbon,
Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,
Nimaki qilsang tilak,
Bariga o'qish kerak.*

San'atkorning qaysi turkumda yaratgan asarini olmang, barchasida hayotbaxsh ruh, da'vatkorlik, bolani nimagadir chorlash, yaxshilik, a'lo o'qish, axloq-odobli bo'lishda boshqalarga ko'mak ko'rsatish, qushlar va jonivorlarga mehribon bo'lishdek ibratomuz ma'no va mazmun yotadi.

Quddus Muliammadiy sofdil, a'lochi o'quvchi bolalarni samimiy sevadi, o'z she'rlarida bunday bolalarni maqtaydi. «A'lochi Sodiq», «Sinov», «Mening

orzum», «Bizning uyda», «Yasha, Omon!», «Besh», «Solijonning darsxonasi» va boshqa she'rlari a'lochi o'quvchilar haqida yaratilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shoir bu she'rlari orqali a'lo o'qish, tinmay mehnat qilish bilangina ilm-fan sirlarini egallash mumkinligini bolalar qulog'iga quyadi. S.Marshakning «Kitobimizni qanday nashr qiladilar?» she'ridan ilhomlanib yozilgan «Kitob» she'rida ham uning bunyodga keltirilishidan iborat mehnat jarayoni butun tafsiloti bilan bir-bir bayon etilgan. Ha, kitobning kitob bo'lmog'i uchun qog'oz kerak. Qog'oz esa paxtadan tayyorlanadi. Paxtani paxtakor mehnatisiz tasavvur qilib bo'lmaganidek,

undan qog'ozni tayyorlash ham o'z -o'zidan bo'lmaydi. Paxta qog'ozga aylangunicha, «ming chig'iridan o'tadi». Lekin hali qog'ozning o'zi kitob degani emas, uni kitobga aylantirish uchun «qancha olim, shoirlar» «uyqusini tark etib» ijod qilishi, so'ngra uni nashriyotga eltishi, shundan keyin uni

Bosmaga berish kerak.
Bosmaxonada harfni
Bittalab terish kerak.
Mashinalar g'izillab,
Sahifalar beradi.
Bir yoqdan korrektorlar
Solishtirib ko'radi.
So'ng o'tar redaktordan,
Yana qayta bosilar

Lekin shunda ham kitob tayyor bo'la qolmaydi. Endi uni «Elimlab, qirqishi bor», «Muqova ham kerak bop». Ana shunday ikir-chikirlardan so'ng, aniqrog'i, ko'pchilikning ishi natijasi o'laroq kitob paydo bo'ladi. Lirik qahramon kitob tayyorlanishiga daxldor shu jarayonlarni obdon bilgani bois:

O'ylab tursam hamma ish
Bog'lanar bir-biriga
Bir kitobning ichida
Minglarning xizmati bor.
Shuning uchun kitobga
Samimiy hurmatim bor,-

der ekan, kitobni bunyodga keltirgan turli kasbu kor egalarining xizmatini qadrlash tuyg'usi bilan yashaydi. Biroq L. Bat bu she'rda qator qusurlarni ko'radi. Uningcha: «oddiy so'zlar yig'indisidan iborat bo'lib qolgan.

Masalan: Men hali yosh bolaman,

Ko'p joyni ko'rganim yo'q.

Lekin kitob orqali

Bildim talay yo'l-yo'riq.

Kitobdan olingan boshqa taassurotlar ham shunday bayonchilik bilan beriladi.» (Qarang: O'zbek bolalar adabiyoti. Maqollar. T., «Yosh gvardiya», 1969, 51-b.) Aslida she'r uchun ekspozitsiya vazifasini bajargan bu satrlar o'quvchining kitobdan olgan taassurotlari bayoni esa-da, bunday umumiy

taassurotni har qanday o`quvchi ham ayta olishiga shubha bilan qarash asossizdir. Holbuki, Q. Muhammadiy «Etik» she'rida ham shu xilda she'riy ekspozitsiya yasab, so`ngra etikning bunyodga keltirilishi jarayonining poetik tavsifiga o`tgan edi. Demak, bunday ekspozitsiyalar bilan voqea tafsilotiga ko`chish shoir uslubiga xos hodisadir. Shu holatni anglamaganidan L.

Bat ikkinchi bir asossiz da'voni o`rtaga tashlaydi. «Keyin, -deb yozadi u, - aslida mustaqil ikkinchi she'r bayon qilinadi: Q.Muhammadiy o`zining yosh qahramoni tili bilan kitob yaratilishini yozuvchi, redaktor ishidan boshlab to bosmaxonadan chiqishiga qadar aytib beradi.

Undan olov - dud chiqib,
Abgor bo`pti bu safar.
Qosh, pari kuyib ketti,
Tashqari g`iz-g`iz sovuq.
Chumchuqcha qip yalang`och,
Egnida par to`ni yo`q.
Kuygan a'zo-badani,
Achishardi jizzilab.

Shundagina u o`z nojo`ya hatti-harakati haqida o`ylashga majbur bo`libdi:

Ko`pchilikning qadri ko`p,
Chumchuqchaga bilindi.
Yolqizlik yomon ekan,
Boshiga tushib bildi.
Xatosin tushunibdi.

Dildirab, o`lay deb turganida Musicha xola yana joniga oro kiribdi. Ota-ona urug`i bundan xabar topib, Musicha xolaga uni asrab olgani uchun minnatdorchilik bildirib, “gap uqmas o`jar bola”sini o`z inlariga olib ketishibdi: Chumchuqcha esa:

- Ayrilmayman sizlardan,

Ta'zirimni xo`p edim, - deya tavba qilib, ko`pchilikdan uzr so`rabdi. O`shandan beri u jamoasidan ayrilmay, birga yurib, birga ishlarkan...

“Qo`ng`izvoy bilan Sichqonvoy” Q.Muhammadiy ijodiyotidagi shoh asar bo`lib, 1940 yilda yozilgan va dastlab “Mushtum” jurnalida “Qo`ng`iz bikach bilan Sichqonvoy” nomi ostida o`sha yili bosilib chiqqan. Shoir uni yana qayta ishlov berib, takomillashtirib 1955 yilda hozirgi nomi bilan e'lon qildi. Shundan beri bu asar shoirning 1957 yil bosilgan “Tanlangan asarlar” va 1977 yilda “Tabiat alifbesi” ning uchinchi kitobi bo`lmish “Taniqli do`stlar”da qayta-qayta nashr etildi. Binobarin, bu asar o`zbek bolalar epik poeziyasi taraqqiyotida ayricha salmoqqa ega bo`lib, X.Olimjon, Mirtemir va S.Jo`ralar o`tgan asrning 30 - yillarida qaror toptirgan she'riy ertaknavislik an'anasi hosilasi sifatida yuzaga keldi.

Bor ekanda, yo`q ekan,
Och ekanda, to`q ekan.
Yaqin o`tgan zamonda,
Qo`rg`ontepa tomonda.
Qo`ng`izoy qiz bor ekan,
Husnda barno ekan,

Oy kabi tanho ekan.
Sodda fe'lli, quvnoq qiz,
Ko`ngli ochiq, o`ynoq qiz.
Sochlari sunbul ekan,
Qo`shiqqa bulbul ekan.
Serg`ayrat mehnatsevar,
Odobli, epchil, chevar.
Sevarkan uni hamma,
Elu yurt, hola, amma.
Hatto mitti kapalak,
Qo`ng`iz desa pirpirak.

Ertak oxirida Sichqonboy o`g`rilikka kirib, mushuk qo`liga tushgani xabar qilinarkan, qissadan hissa tarzida “Har kim ekanini o`rar” degan xulosa o`rtaga tashlanadi. Q.Muhammadiy to`qson ikki yillik hayotining etmish bir yilini bolajonlar uchun ijod qilishga bag`ishladi. Bu davrda u XX asrda bunyodga keltirilgan tom ma`nodagi yangi realistik o`zbek adabiyotining asoschilari Oybek, G`afur G`ulom va H.Olimjonlar nazariga tushib, ularning e`tiboriga sazovor bo`libgina qolmadi, balki o`zi ham o`zbek ma`naviyati va adabiyoti tarixida tamomila yangi adabiy hodisa bo`lgan o`zbek bolalar adabiyotining bunyodkori va asoschilardan biriga aylanib qoldi.

Tayanch tushunchalar: yumor, satira, hajv, adabiy ertak, adabiy topishmoq, tez aytish, stilizatsiya, ertak-doston, tabiat alifbesi, qomusiy shoir, tabiatshunos, folklor negizida, mavzu, motiv, g`oya.

7-mavzu. Shukur Sa`dulla – bolalik kuychisi

Po`lat Mo`min bolalarning qo`shiqnavis shoiri

Reja:

1. Shukur Sa`dullaning hayot yo`li.
2. Shukur Sa`dulla– kichkintoylar shoiri.
3. Shoir she`rlarining mazmun-mundarijasi.
4. Po`lat Mo`minning ijodiy yo`li.
5. Bolalarga bag`ishlangan she`rlarning o`ziga xos xususiyatlari.
6. Po`lat Mo`min dostonchi-shoir

Sh.Sa`dulla 1912-yilning 15-yanvarida Jizzax shahrida xizmatchi oilasida tug`ilgan. U dastlabki savodini eski maktabda chiqargach, 1924-yilda Samarqand shahriga kelib, Pedagogika bilim yurtiga o`qiydi. 1932 yilda shoirning “Hayqiriq” nomli 1-she`rlar to`plami chop etiladi.

Sh.Sa`dulla 1931-yilda O`zbekiston Davlat nashriyotining bolalar va yoshlar adabiyoti bo`limiga muharrirlikka ishga taklif etiladi. 1950-yilda Sh.Sa`dulla I.Muslim bilan hamkorlikda bolalar shoiri S.Marshakning “She`r va ertaklar” asarini o`zbek kitobxonlariga tortiq etishdi.

Daniyalik mashhur ertakchi G.X.Andersen, rus yozuvchisi N.A.Nekrasovning asarlarini, L.Tolstoy va B.Jitkovning hikoyalarini, bolalar shoirlari M.Kvitko,

A.Barto, M.Mirshakar, O.Berdiyev, M.Fayzulina she'rlarini, V. Lebedov - Kumachning yoshlik taronalarini, B.Gorbatovning "Bo'ysunmaganlar" (1953), V.Osayevaning "Vosyok Trubachev va uning o'rtoqlari" (1954) povestlarini, Korney Chukovskiyning "Doktor Voyjonim" (1966) asarini ona tilimizga tarjima qilgan.

Sh.Sa'dulla bolalar uchun turli janrlarda ijod etdi: she'r ham, poema ham, hikoya ham, qissa ham, opera ham, she'riy ertak ham yozdi. Hatto xalq ijodiyotiga mansub ayrim an'anaviy janrlarni yozma adabiyotga omuxtalashtirdi. Xalq latifalari asosida "Ikki donishmand", "Afandining ko'ylagi", "Afandi tegirmonchi va ko'sa" kabi she'riy latifalardan topishmoq janri talablarini saqlagan holda topishmoq – she'r namunalari yaratdi.

Bolaligida ertakka o'ch bo'lgan shoir ulg'ayganida ham shu odatini tark etmay, "Ayyor chumchuq", "No'xat polvon", "Laqma it" kabi she'riy ertaklarini "Yoriltosh", "Afsona yaratgan qiz" singari ertak- pesalarini, "Kachal Polvon yoki yog'och qo'g'irchoqning sarguzashtlari" ertak- qissasini yaratdi.

Uning maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshidagi bolajonlarga bag'ishlab yozgan ko'plab she'rlari hamon kichkintoylar tilidan tushmay keladi. Ayniqsa, "Shohista", "Yomg'ir-yog'aloq", "Yaxshi ism", "Dildor va koptok" she'rlari baayni jajji bolakaylar fe'l atvorini to'la aks ettirgani bilan ajralib turadi. Shuningdek, Sh.Sa'dullaning yil fasllari haqidagi she'rlari maktab darsliklaridan o'rin olganligi e'tiborli. Muallifning "Yoriltosh", "Kachal polvon yoxud yog'och qo'g'irchoqning sarguzashtlari" ertak dramalari, "No'xatpolvon", "Laqma it", "Ayyor chumchuq" adabiy ertaklarining syujeti va badiiy-kompozitsion xususiyatlari diqqatga sazovor. Shukur Sa'dullaning o'zbek bolalar nasri taraqqiyotiga qo'shgan hissasi "Komandirning boshidan kechirganlari", "Aziz qishlog'im" qissalari orqali xarakterlidir.

Shukur Sa'dulla "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan adib edi. U 1972 yilda vafot etgan.

She'riy imzo - o'zbek bolalar poeziyasi uchun mutlaqo yangi janr. U, asosan, dialog yoki monolog shaklida bo'ladi. Ba'zan topishmoqdek jumboqdan iborat bo'lsa, ba'zan epigramma xususiyatiga ega. Bunday paytda piching, istehzo uning asosiy fazilatiga aylanadi. Binobarin, she'riy imzo kuchli emotsional ta'sirchanlikka ega miniatyur badiiy asar hisoblanadi. She'riy imzoda hayvonlar, qushlar, hasharotlar hamda boshqa narsa-hodisalarning she'riy tavsifi ixchamgina: ba'zan oddiygina, ba'zan yumoristik tarzda ifodalanadi. Uning har bir satri yoki bandining mazmuni asosida aniq narsa yoki voqeani aks ettiruvchi jozibali rasm chizish mumkin. Demak, she'riy imzo shoir va rassomning hamkorlikdagi fantaziyasi mahsuli hisoblanadi.

Uning hayvonlar, qushlar, hasharotlar va bolalar o'yinchoqlari to'g'risidagi qator asarlari ma'rifiy-badiiy qimmatga ega she'riy imzolar sirasini tashkil etadi. "Chittak" - qushcha rasmi ostiga "chekilgan" ana shunday she'riy imzolardan. Shoir unda topishmoqdagidek yashiringan narsa-jumboqning belgilarini sanab ko'rsatib, shu usul bilan kichkintoylarga chittakning tashqi ko'rinishiga oid

oddiygina ma'lumotlar beradi. Ular tasavvurini aniq tushunchalar hisobiga to'ldiradi va boyitadi:

Men qushchaman kichkina,
Tillarim chuchukkina.
Ola-chipor qanotim,
Bilsangiz - chittak otim.

Chittak o'zini shunday tanitadi. Uning so'zlash uslubi xuddi bolalarnikiday. Antropomorfizmdan foydalanish she'riy imzoning ma'rifiy ahamiyatini ta'minlashdan tashqari tez yodlanishini ham qulaylashtiradi. Demakki, kichkintoylar lug'at boyligini "ola-chipor", "chuchukkina", "chittak" kabi yangi tushunchalar hisobiga boyitish imkonini tug'dirgan.

Shoir poetik ijodida hajviy she'rlar barmoq bilan sanarli: "Olim uyaldi", "Bizning oyna", "Ivirsiq", "Anqov", "Shalabbo", "Injiq qizcha", "Jumboq" kabilar shu silsilani tashkil etadi Shukur Sa'dulla 60-yillarga kelib o'z qalamini nasrda ham sinay boshlaydi, bunda ham u maktabgacha yoshdagi

kichkintoylarning o'ylari, orzulari, ishlari, taqdirlari, xarakterlarini badiiy tahlil qilishni maqsad qilib olgandi. Binobarin, uning bunday hikoyalarini ma'lum darajada kichkintoylar olamining o'ziga xos badiiy tadqiqotlari desa bo'ladi. Bu hikoyalarning aksariyati ichki qarama-qarshilik

negizidagi kompozitsion asosda qurilgan: "Tush", "Ismi qo'yilmagan xat", "Yutqiziq", "Yaxshilik" hikoyalari ana shunday fazilatga ega. Hikoyalarning aksariyatida ifodalanayotgan fikr-muddao

muallif tanlagan sarlavhalaridayoq ravshan anglashilib turadi: "Anqov", "Yalqov", "Qo'rzoq", "Qaysar", "Ochko'z", "Chaqimchi", "O'jar", "Dilozor", "Izza", "Gap uqmas" va hokazo. Bu hajviy hikoyachalarda adibning o'zi tasvirlanayotgan voqealarga aralashmaydi.

"Komandirning boshidan kechirganlari" (1961) qissasi yozuvchining sarguzasht janridagi dastlabki mashqidir. Bu qissa o'zbek bolalar prozasida maktabgacha yoshdagi kichkintoylar hayotini, orzu va tashvishlarini realistik va romantik bo'yoqlarda ifodalagan birinchi yirik asar hisoblanadi. "Komandirning boshidan kechirganlari" asarida serquyosh

respublikamizning azim poytaxti, Sharqning mash'ali - go'zal Toshkent shahri besh yashar Hayotning tasodifiy sayohatlari fonida epik tarzda tasvirlanadi. Unda Hayot markaziy figura, u hali maktab ko'rmagan, kuzatuvchanlik qobiliyati past maktabgacha yoshdagi kichkintoylarning vakili sifatida harakat qiladi.

Asarda Hayotning harakati tasodiflar negizida sodir bo'lsa-da, yozuvchi talqinida ko'zlagan ma'lum estetik-tarbiyaviy maqsadni aks ettiradi. Chindan ham qahramon sayohatlari kechgan Toshkentning e'tiborli joylarining tasviri kichkintoyni qanchalik zavqlantira olsa, uning qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usini ham shu qadar to'lqinlantira oladi va mazkur tuyg'uning mustahkamlanishiga, e'tiqodga aylanishiga madadkorlik qiladi. Yozuvchi asar qahramoni besh yashar Hayotni ana shunday harakatlar qildirish

evaziga voqelikni - turmush haqiqatini kichkintoylar saviyasiga munosib aks ettira olgan.

Adibning zamonaviy mavzuda yaratgan ikkinchi asari “Aziz qishlog`im” qissasidir. Bu asar 1967 yilda yozilgan bo`lib, 1969 yilda nashr etildi. Sh.Sa`dulla bu asarida xalqimiz hayotining yangi bir manzarasini - qishloqdagi qaynoq turmushni shaharlik bola Habibullaning qishloqqa qilgan sayohati jarayonida ko`rsatadi.

“Aziz qishlog`im”da mavjud obrazlarning barchasida ijobiy insoniy fazilatlar mujassam, shunga qaramay, yozkvchi qissa konfliktini inson va tabiiy ofat o`rtasidagi kurash negizida qurib, “Inson degan so`zning mag`rur jaranglashi”ni (M.Gorkiy) real ifodalay olgan.

1966 yilda Toshkent zilzilasi faqat toshkentliklarnigina emas, balki butun mamlakatni, hatto million-million bolalarni ham bezovta qilgani tarixiy haqiqatdir. Sh.Sa`dulla qissada xuddi shu mavzuga qo`l urib, shu bahonada qishloq ahlining zilzila jafokashlariga xayrixohlik tuyg`ularini ifodalashga intiladi. Bu hol, ayniqsa, qishloqliklarning toshkentlik bola Habibullaga munosabatlari fonida yorqin gavdalantirilgan.

Shukur Sa`dulla “Kachal Polvon yoxud yog`och qo`g`irchoqning sarguzashti” ertak-qissani yaratishda o`zbek qo`g`irchoq teatrining chodir xayol va chodir jamol tipidagi ikki turida o`ynaladigan Kachal Polvon sarguzashtlariga doir xalq komudiyalariga asoslanadi. Xalq komediyalari mazmunini ijodiy qayta ishlab, g`oyaviy-badiiy niyatiga muvofiq qisqartirdi, to`ldirdi va yangi detallar, epizodlar ijod qilib boyitdi. Xalq komediyalarining qo`g`irchoq qahramonlarini esa asarning qahramonlariga - badiiy obrazlariga aylantirdi. Shu asosda ertak-qissada fantaziya va realizm o`zaro uyg`unlashib, asarning yaxlit syujetini vujudga keltirdi. Bunda Sh.Sa`dullaning italiyalik adib Kollodining “Pinokkioning sarguzashtlari” hamda rus adibi A.Tolstoyning “Oltin kalit yoki Buratinoning boshdan kechirganlari” (1936) asarlaridan ijodiy ta`sirlanganligi ham muhim rol o`ynagan.

Asardagi obrazlarning qariyb hammasi qo`g`irchoq komediyalarining qahramonlaridan iborat. Adib tayyor obrazlarni o`z holicha ishlatavermaydi. Ularga o`z g`oyaviy-estetik kontseptsiyasiga muvofiq ijodiy yondoshadi. Fantastik ertak-qissada Sh.Sa`dulla tomonidan ijod qilingan salbiy va ijobiy xarakterdagi to`qima obrazlar ham yo`q emas. Adib har bir xarakterning o`z qiyofasiga, xarakter belgilariga ega bo`lishini ta`minlash maqsadida turli badiiy vositalarga murojaat qiladi. Ertak-qissada ellikka yaqin obraz mavjud.

Mazkur obrazlarni g`oyaviy-badiiy estetik xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalariga ko`ra uch guruhga bo`lib o`rganish mumkin:

1. Xalq tiplari. Bu guruhga Kachal Polvon, Shomamat ota, Orif jarchi, Boybuva ko`sa, Beknazar karnaychi, Ernazar maymunchi, Jo`ra qiziq, Mullajon, Bichaxon, To`tixon, etim qiz Mohira, kayvoni, askiyachilar, Qo`zi cho`tir, Ro`zi gov, Dehqon ota, Jalol polvon, rohatijonfurosh, egizak aka-ukalar Alijon va Valijon, mehtarbozlar boshlig`i Mirsalim, Qurbonali otalar mansubdirlar. Bular orasida markaziy o`rinda Kachal Polvon obrazi turadi. Kachal Polvon individual belgilarga

ega umumlashma tip. U sho`x, quvnoq, xushchaqchaq, sodda va dilkash. Vaziyatni mudom to`g`ri baholay oladi. Bu xususiyatlar uning do`stlari bilan olib borgan siyosiy kurashida qozongan g`alabasini mantiqiy asoslashda o`zini ko`rsatgan.

To`g`ri, Kachal Polvon inqilobchi obrazi emas, shunga qaramay Kachal Polvon Abdurahmonbek saltanatiga qarshi eldoshlari - faqir mahallaliklarning ozodligi, haq-huquqlari uchun astoydil kurashgan xalq qahramoni timsoliday kichkintoylar qalbiga yo`l topib, ularga xalqparvarlik saboq beradi. Ertak-qissada Kachal Polvon yakka harakat qilmaydi. Hamma faqir mahallaliklar bilan kengashib, ular bilan belgilangan maqsad sari olg`a intiladi. Natijada doimo g`alaba qozonadi. Yozuvchi shu taxlitda jamoatchilik qudratini va engilmasligini hayot haqiqatiga muvofiq talqin qiladi. Xalq tiplariga mansub boshqa barcha ijobiy obrazlar epizodik xarakterdadir. Adib bu personajlarning ma'lum g`oyaviy-badiiy qimmatiga va har birining o`ziga xos individual belgilariga ega bo`lishini esda tutishga intiladi.

2. Satirik obrazlar. Bu guruhga hokim Abdurahmonbek, Iso avliyo, Nosir bo`ri, Qora Mirshab, To`racha - chinoq, maktabdor domla, xalfa, Eshonqul, Sarsinboy chavandozlar mansub. Bu salbiy personajlar ijobiy personajlarga nisbatan birmuncha mukammalroq ishlangan. Bulardan tashqari satirik obrazlar qatoriga savdogar

Abdurahim, Mirzasalim oqsoqol, jarchi Mullagarang, ayg`oqchi talabalar - Umar echki, Salim tajang, Ashirbek kabi nomda boru aslida qiyofasini ko`rsatmaydigan personajlar ham bor.

Abdurahmonbek - bosh salbiy personaj. Aslida "Sarkardalar" deb ataluvchi chodirxayol qo`g`irchoq teatrida o`ynaluvchi xalq komediyasida Farg`ona viloyatining zolim hokimi qiyofasida ko`rinadigan bu personaj Sh.Sa'dulla talqinida afsonaviy qo`g`irchoqlar mamlakati Shirinsoyning sohib saltanati. U - feodal ierarxiyasining cho`qqisida turgan hamda adolatsiz tizimni butunicha o`zida tajassum etgan zolim va telba hukmdorning timsoli. Unda feodal hukmdorga xos barcha xususiyatlar mavjud. Yozuvchi Abdurahmonbek personajini xarakterlashda rang-barang bo`yoqlarga murojaat etadi. Bunda fosh etuvchi sotsial yumor, ayniqsa, katta rol o`ynagan. Natijada, Abdurahmonbek zolimlikda tengsiz shaxs va feodal davlat arbobining umumlashgan tipi darajasiga ko`tarilgan.

Boshqa salbiy personajlarni ishlashda ham Sh.Sa'dulla Gorkiyning dushmani hamisha xunuk va nafratangiz etib ko`rsatish to`g`risidagi maslahatlariga amal qilib, ular dunyosini ma'naviy qashshoqlar va badkirdorlar dunyosi tarzida kichkintoylar ko`z o`ngida gavdalantirgan. Shu yo`l bilan kichkintoylarda yomonlik va xunuklikni ezgulik va go`zallikdan tez ajrata bilish malakasini shakllantirishni ko`zlagan.

3. Afsonaviy maxluqlar, hayvonlar, hasharotlar va qushlar obrazlari jumlasiga ajdar, kavsar dev, oq chavkar ot, quyonlar, chumolilar, ko`rshapalak, kaptarlar, kakliklar, bedanalar va qirg`ovullarni kiritish mumkin. Bularning barchasi ham asar qahramonlari hayotida, xususan, Kachal Polvon faoliyatida muhim rol

o`ynaydi. Ajdar, kavsar dev kabi afsonaviy maxluqlar hamda ilon yovuzlik timsoli hisoblansalar-da, Kachal Polvonning ijobiy fazilatlarini bo`rttirishda xizmat qiladilar. Kichkina kitobxon oppoq qanotlarini kitob o`rnida Kachal Polvonga taqdim etgan kapalaklarni ham, boylar zo`ravonlik bilan o`ziniki qilib olgan kambag`allar bug`doyini qaytarishda jonbozlik ko`rsatgan va Kachal Polvonning ozodlikka chiqishiga katta madad bergan zahmatkash chumolilarni ham, Kachal Polvonni jazodan ogohlantirgan ninachini ham, oldingi oyoqlarini ko`tarib, bir-biriga urib qarsak chalgan quyonlarni ham, xushxonu raqqos bedanalar, kakliklar, qirg`ovullarni ham sira unutilmaydi.

Sh.Sa'dulla ertak-qissaning badiiy jihatdan qiziqarli bo`lishi, unda xalq komediyalariga xos milliy ruhning barq urib turishi uchun o`zbek xalq ijodiyoti, hatto bolalar folklori namunalariga keng murojaat qildi, xushchaqchaq askiyalardan, yumorni va o`ychanlikni kuchaytiradigan topishmoqlardan, tez aytishlar, sanamalar, dono maqollari va matallaridan unumli va o`rinli foydalandi. Sh.Sa'dulla folklor materiallaridan ijodiy foydalanib, bir necha dramatik asarlar ham yozdi. Uning "Yoriltosh" muzikali ertak-dramasi (1937) va opera librettosi (1967), "Chol bilan bo`ri" kichik she'riy pesasi (1967), "Zubayda" (1969) ertak-dramasi o`zbek bolalar dramaturgiyasining yuksalishida ma'lum rol o`ynayotir. Bu asarlarda yaxshilik bilan yomonlik, tadbirkorlik bilan takabburlik, mehr bilan g`azab, sabr bilan toqatsizlik o`rtalaridagi shafqatsiz kurash ifodalanib, pirovardnatijada yaxshi-likning, tadbirkorlikning, mehrning va sabrning tantanasi ko`rsatiladi. Bolalarga shu tushunchalarning mohiyati singdiriladi. Binobarin, bu asarlar bolalarda yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalashda va ularning zavqini, qiziqishlarini oshirishda ahamiyatlidir.

Bolalarning suyukli shoiri **Po`lat Mo`min** yoshligidanoq adabiyotga havas qo`ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o`qib yurgan vaqtida adabiyot to`garagiga faol qatnashadi. Adabiyotni qunt bilan o`qidi, o`rgandi. O`rta ma`lumot oigach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o`zbek tili va adabiyoti fakultetiga o`qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomlagach, aspiranturada o`qidi, maktablarda o`qituvchilik qildi. So`ngra O`zbekiston davlat nashriyotida ishladi. P. Mo`min qayerda ishlamasin, doimo adabiyotga muhabbat bilan qaradi, uni qunt bilan mutolaa qildi, o`rgandi. Kichik-kichik she`rlar yoza boshladi. 1944 yilda «Bahorga sayohat» nomli birinchi she`ri bosilib chiqdi. Birinchi she`rlar to`plami esa 1949 yilda «Sayrang, qushlar» nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. To`plamdan munosib o`rin olgan «Haykal», «Alia va Jalla» (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqarliligi bilan kitobxonlarning e`tiborini o`ziga jalb etdi.

Bolalarga atab ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonishi uchun esa qobiliyat va istakning o`zigina yetmaydi. Belinskiy ta`rffi bilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo`lib tug`ilish kerak. Bu bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo`lsin, nozik *did* egasi, go`dak tabiati va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimiy, bolalarcha soddadil ham dono bo`lsin, degan mazmunni taqozo etadi, albatta. Biz Po`lat Mo`min ijodida ana shunday olijanob xususiyatlar mujassamligim his etamiz.

Shoirning tinimsiz ijodiy mehnati tufayli «Hunardan unar», «To`g`ri o`sgan gul bo`lar», «Aql qaerda bo`lar», «O`rinbosarlar», «Oltin nay», «Bir yarim Karim», «Endi adashmaydi», «Barcha bola do`st bo`lsa», «Rahmatga rahmat», «Gazpolvon ertak aytar», «Chang yutar both», «Do`sting qancha ko`p bo`lsa», «Oftob va odob», «Yaxshilarga o`xshasam», «Bu juda soz», «Eson va Omon», «Oltmish oltin qo`l», «Ustozlar izidan», «Bolalarning baxti kulgan», «Bir yuz bir oltin qo`l» she`riy to`plamlari; «Chanoqvoy bilan Qovoqvoy», «Bahodirning botirligi», «Oq fd yo`qoldi», «Suqatoy-konfetvoy», «Ona bolam deydi» kabi ertaklari, pesalari yuzaga keldi. Bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she`r va qo`shiqari, doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo`lib qo`shildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganki, bu faqat shoirning emas, balki o`zbek bolalar adabiyotining ham yutug`i, obro`si hisoblanadi.

Kimda-kim a`lo va yaxshi baholarga o`qish uchun astoydil intilsa, harakat qilsa, zahmat cheksa, shubhasiz, u maqsadiga erishadi, samarali biiim oladi. Agar bu intilish jismoniy mehnat bilan qo`shib olib boriisa, yanada muvaffaqiyatli bo`ladi. Po`lat Mo`min ta`im va jismoniy mehnatga bag`ishlangan she`rlarida mehnat va mehnatsevar bolalar haqida fikr yuritadi. Ba`zan ishyoqmas, dangasa, yalqov o`quvchilarni tanqid qiladi. Masalan, «Besh oldim, besh!» degan she`rini olaylik. Asar qahraraoni uzoq vaqt past bahoga o`qib yurardi, fanlarni ko`ngildagidek o`zlashtira olmaganidan do`stlari, ota-onasi va o`qituvchilar oldida gunohkordek his qilardi o`zini. O`quvchi bunday qiyin ahvoldan faqat ko`proq dars tayyorlashi, kitob o`qishi bilan qutulib ketishi mumkinligiga ham ishonrtgdi. Nima boiadi-yu bir kuni u uyga berilgan topshiriqni qayta-qayta o`qiydi, dars va kitobdan boshqa hech narsani o`ylamaslikka harakat qiladi. Natijada ertasi kuni «besh» baho oladi. Shu-shu bola kitobni sevib qoladi. Qunt qilish, berilgan topshiriq ustida ko`p mehnat qilish lozimligini tushunib yetadi. O`zidagi bunday ijobiy o`zgarishdan xursand bo`ladi. Boladagi bu quvonch va hayajonni shoir yosh kitobxon ruhiyatiga mos ravishda chizib beradi:

Shunday *qilib* do`silarim,
Aytsam yurak so`zlarim,
Yurishib qoldi ishim
Ko`payib ketdi «besh»im.

Bolalar shoirming «Tuganmas kon», «O`qituvchi baho qo`yganda», «Ko`chalarni to`ldirib», «Sizga nima bo`ldi, o`g`ii bolaiar?», «Yuqumli «2»lar», «Bilsa bo`lar ekanku!», «Sentyabrdan Mm sevinar?» kabi she`rlarida ham a`lo va yaxshi o`qish uchun mtilayotgan, harakat qilayotgan bolalar to`g`risida yozilgandir.

Ba`zan o`quvchi-yoshlar orasida mug`ambir, pismiqlik bolalar ham topilib qoladi. Shoirning «Qo`l ko`tarib qo`lga tushdi» degan asari ana shunday bolalarga bag`ishlangan. Asar qahramoni aslida dangasa, ishyoqmas, qoloq o`quvchi. U buni o`qituvchisiga sezdirmaslik ucimn har kuni dars paytida «Men aytaman, deb

ko`taradi qo`i». O`qituvchi esa boianing bunday mug`ombirligini sezmaydi, u darsni yaxshi o`zlashtiribdi, deb undan so`ramaydi. Oxiri bir kuni «Mayli, ayta qol» deydi. Shunda haligi bola savolga javob bera olmay, o`qituvchi va o`quvchi do`stlari oldida izza bo`ladi:

*Darvozasiga Urilganday gol Qo`lga
tushgandi Uko`tarib qo`l.*

Shoir she`rlarida kichkintoylarning jismoniy ishga intilishlari ham yaxshi ochib beriladi. Uning «Oftob chiqdi olamga», «Er chopildi —javob topildi» she`rlari fikrimizning dalilidir. «Oftob chiqdi olamga» asarida u xalq og`zaki ijodidan unumli foydalangan. She`rda bolalaming harakati, urinishi, kattalar ishiga ko`maklashishi nihoyatda ta`sirli va shirali ifodalangan.

Po`lat Mo`min haqiqatan ham oftob — bu olam-olam quvonch, shodlik, mehnat, yashash, yasharish ramzi ekanligini kichkintoy do`stlari qulog`iga quyishga, buni bola obrazi orqali yanada yorqinroq, ta`sirliroq aks ettirishga harakat qiladi:

*Oftob chiqdi olamga, Chopib bordim dadamga.
Dadam ko`chat ekardi, Salom berdim dadamga.*

P. Mo`minning «Yer chopildi — javob topildi» asarida mehnatdan zavqlanish tuyg`usi yorqin ifodalangan. Asar qahramoni dastlab uyga berilgan topshiriq — misollarni ishlay olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi — yer chopadi. Terlab-pishadi. Natijada ko`ngli yorishadi, fikri oydmilashadi. Uyga berilgan misollarni ham yechadi, yerni ham chopadi. Barcha savolga javob topildi. Shu bahonada yer ham chopildi.

Po`lat Mo`minning «5» baho qo`shig`i», «Xursandmisiz?, Xursandmiz», «Sentyabrim», «Uch baho — puch baho» singari qo`shiqlari o`qish, ilmi bo`lish mavzuiga bag`ishlangan. O`z ustida ko`p ishlash, kitob o`qish, dars qoldirmaslik «a`lo» o`qishning mustahkam garovi ekanligini shoir «Uch baho — puch baho» qo`shig`ida ancha tanqid qilib o`tadi. Onalarni, keksalarni hurmat qilish, e`zozlash («Achom-achom buvijon», «Mehribonim, oyijon!»); o`zaro hurmat, do`stlikni joyiga qo`yish («Bir jahon boialarimiz»); har bir shodiyona, bayramlarni zo`r tayyorgarlik bilan kutib olish, chevarlik kasbini bolalikdan bilib borish («Ko`ylagim») mavzulariga bag`ishlab shoir o`nlab qo`shiqlar yaratganki, bunday qo`shiqlar bolalaming jon-dili hisoblanadi.

Po`lat Mo`min axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu masala ko`proq uning «Birovlar», «Bir odamning afsusi», «So`zi shunaqa — o`zi shunaqa», «Behzodni bilasizmi?», «Ulg`aydimi aqlingiz?», «Qo`ying oltin — yo`ling oltin», «Birinchi bo`l, birinchi» kabi she`r va qo`shiqlarida ochib beriladi.

Po`lat Mo`min «Alia bilan Jalla», «Ziyrak fil va ziqna boqqol», «Har kimniki o`ziga, oy ko`rinar ko`ziga», «Unutgan o`g`il», «Oltin nay», «Dono bola», «Bilganni qari — bilmaydi pari» singari ertak-dostonlarida xalq og`zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangani ko`rinib turadi.

Po`lat Mo`min dostonchi-shoir sifatida ham juda qadrlidir. Uning «Oltin noklibor», «Ko`cha — ko`pchilik uchun», «Eh, rosa shirin ekan», «Xolning jiyron velosipedi»,

«Ko`ngil istar yaxshilik» degan poemalari allaqachon kichkintoylarning sevimli asarlariga aylanib ketgan. Shoirning dostoniaridabolalalar o`rtasidagi do`stlik, birodarlik, o`qituvchi va jonajon maktabga muhabbat, birlik, baynalmilallik kabi masalalar ilgari surilgan. Bolalar hayotida sodir bo`ladigan yutuq va kamchiliklar badiiy bo`yoqiarda, qiziqarli epizodlarda chizib berilgan. Bir so`z bilan aytganda, maktab o`quvcMaririing hayoti zavq-shavq bilan tasvirlangan.

Po`lat Mo`min o`zining ertak-pesalari bilan ham yosh kitobxonlar o`rtasida shuhrat qozondi. Uning «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy», «Suqatoy-konfetvoy», «Ona bolam deydi, bola onam deydi» nomli fantastik ertak-pesalari uzoq vaqtlardan beri bolalarning quvonchiga quvonch qo`shib kelayotir.

Qovoqvoyning dangasaligi, lapashangligi, erkaligi, tantiqligini o`tkir kulgi ostiga oluvchi va Chanoqvoyning bilimdonligi, donoligi va mehribon do`stligini ulug`lovchi «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy» bolalami yaxshilikka da`vat etadi.

Bu asardagi yaxshi fazilatlar dramaturgning boshqa bir ertak-pesasi «Suqatoy-konfetvoy»da ham ko`ringan. Tematikasi va g`oyaviy yo`nalishi, uslubi jihatidan bu ikki asar bir-biriga yaqin. Unda ham ilm, odob, haloUik va mehnatsevarlik ulug`lanadi. Voqea Bilim xola, Janjal xola, Qurt o`rtasidagi kurash asosida rivojlanadi.

Po`lat Mo`minning butun e`tibori, ijodining mohiyati bolalarga hayot yo`lini ko`rsatib berishga intilishdan iborat. Shu pesadagi Aqljon bilan Odobjon aytganidek:

Bugina enias, bolalar Po`lat Mo`minning o`nlab topishmoqlarini ham sevib o`qib, o`rganadilar va zehnlarmi charhlaydilar.

Muallifning «Qovoqvoy bilan chanoqvoy» asarinng ta`iim-tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Undagi ertaklarga xos shartli, allegorik obrazlar tomomila aniq va hayotiy zaminga asoslanlgan.

Pesaning bosh qahramonlaridan biri Qovoqvoydir. Uning timsolida тиаЖdangasalik va beg`amlilik oqibatida darslarni o`zlashtira olmay, sinfda qoluvchi lapashang va po`k bolaning tadrijiy takomilini mujassamlashtirgan. Do`stlari ta`sirida Qovoqvoyning asta-sekin tuzala borishi, ilg`orlar qatoriga kirib, mehnatsevarlik va epchiffik darajasiga ko`tarffishi bilan bog`liq voqealar, bu yo`ldagi kishilar o`rtasidagi munosabat, tortishuv va kurashlar pesaning asosini tashkil etadi.

P.Mo`min ertak syujetini harakatga keltirishda bosh va yordamchi konfliktlardan foydalanadi. Qishloq xo`jalik ekinlarining ashaddiy dushmanlari chigirtka va kapalaklar o`z urug`larini paxtakorlarga tarqatmoqchi bo`ladilar-u, Tarvuz, Qovun, Chanoqvoy, Paxtaoy, G`ujumoy, Lavlagi hamda Sholg`om kabi kuchlar ta`qibidan qo`rqadilar. Qovoqvoyning befahm, landavur, beg`am hamda qo`rqoqligi zararkunandalarga ish beradi. Ular paxtazorlarga sochishni buyurib, tuxumlari solingan xaltachani Qovoqvoyga zo`rlab tutqazadilar. Hashorotlar undan o`z maqsadlari yo`lida foydalanish uchun harakat qilsa, ijobiy qahramonlar Qovoqvoyni tarbiyalamoqchi. Mana shu o`rtadagi kurash asar konfliktimng boshqa yetakchi tomonini tashkil etadi.

Mehnatga bo`yni yor bermay, darslarni o`zlashtira olmaganidan tashqari, Qovoqvoy tanbal, yalqov, fahm-farosati kam, bo`shang, ayni vaqtda u, haddan

ziyoda chiranchoq. Uning xarakteridagi bu sifatlar asardagi ijobiy kuchlar bilan bo'lgan ziddiyat va to'qnashuvlarda ochib tashlanadi, Qovoqvoy asta-sekin tuzalish tomon yo'naltiriladi. Bir-birini o'rtoqlarcha samimiy tanqid qilishga asoslangan ijobiy kuchlar o'rtasidagi shu ziddiyatlar dramatik konfliktning yordamchi chizig'ini yuzaga keltiradi.

Konfliktning yordamchi liniyasi esa yaxshi ishlangan va qahramonlar xarakterini chizib berishda, asarning muvaffaqiyatini ta'minlashda katta xizmat qilgan. Po'lat Mo'min Qovoqvoyning maqtanchoqligini fosh etib, uni izza qilishda to'g'ridan-to'g'ri zalga — tomoshabinlarning o'ziga murojaat etish ЪДан o'ziga xos yutuqqa erishgan Qovoqvoyning «Mendan karra jadvalni so'rang, suv qilib ichib yubordim» degan mazmunda kerilib savol-javob o'ynashi zalni faollashtiradi, maqtanchoqning miyasi g'ovlab, o'sal bo'lishi qalblarga samimiy kulgi shavqini soladi.

Chiranchoq Qovoqvoyning jismoniy zaif va po'kligi kamtarin Tarvuz bilan yuz bergan tortishuv va to'qnashuvlarda, boks musobaqalarida bilinib, sharmanda bo'ladi. Qovoqvoy Tarvuzdan yengilib zil ketsa, ikkinchi tomondan qadam-baqadam g'ayratga kira boradi, badan tarbiya mashqlari foydasini, mehnatsevarlik manfaat keltirishini anglaydi.

Qovoqvoyning qayta tarbiyalanishida ayniqsa Chanoqvoy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Boshda Chanoqvoyning odilona, samimiy, do'stona maslahatlariga mensimay qarab, quloq solmagan Qovoqvoy «Sehrgar» gaplarini jon dili bilan tinglaydi, uning ko'rsatmalariga amal qilib, karrani o'rgana boradi, g'ayratga kiradi, faollashadi, zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish, ularni tutishda faollik ko'rsatish darajasiga ko'tariladi. Biroq uning xarakteridagi zaif tomonlari tezda uzil-kesil yo'qolmaydi. U endi do'stlariga «Sehrgar»ni uchratganligi bilan maqtanadi. Muhimi shundaki, do'stlar uni qayta tarbiyalashga, o'z saflariga qaytarishga muvofiq bo'ladilar.

Asarda Chanoqvoy xarakteriga mos va yetarli material berilgan. Xususan, muallif uning tilini individuallashtirish alohida e'tibor bergan. Pesaning she'riy kuchi, yumoristik va satirik fazilatlar ham Chanoqvoy, Qovoqvoy, Tarvuzvoy nutqida, ularning dialog va monologlarida yaxshi ko'rinadi.

8-mavzu. G'afur G'ulom - bolalar shoiri va nosiri

REJA:

1. G'afur G'ulomning hayot va ijod yo'li.
2. G'afur G'ulom – bolalar shoiri.
3. Adib qissalarining g'oyaviy-badiiy mundarijasi.
4. Xulosa

G'.G'ulomning o'zbek bolalar adabiyotini rivojlantirish sohasidagi xizmatlarini alohida umumlashtirish yo'nalishidagi ilk urinishlar XX asrning o'rtalaridayoq yuzaga kelgan edi. O'shanda pedagogika bilim yurtlarida o'qishga mo'ljallangan bolalar adabiyoti faniga oid o'quv qo'llanmalari va xrestomatiyalarida G'.G'ulom alohida ijodkor sifatida taqdim etilib, uning haqida portret-maqola va asarlaridan namunalar berila boshlangan edi. G'afur G'ulomning bolalar shoiri va nosiri

qiyofasiga otalik va murabbiylik tuyg'ulari chuqur singishib ketgan. Bunda etimlikda kechgan bolalik hotiralari ta'siri ayricha rol o'ynaganini alohida ta'kidlash joiz. Shu holat uni qo'lga qalam olib ilk she'rini yozishga undagan edi. «Bir kuni, - deb yozgan edi u o'zining «Kechmish va kechirmishlarimdan» xotiranomasida, - bolalar bog'chasidagi yetim bolalardan 15 tasini bizning internatga o'tkazdilar. Men bu go'daklar bilan birga tunab qoldim. Kechasi uxlamay, kuzatuvchilik qilib chiqdim. Shu kecha o'z yetimligim, boshimdan kechirganlarim va shu yetim bolalar ahvoli... to'g'risida she'r yozdim. Shu she'rimni birinchi she'rim desam bo'ladi". O'sha ilk she'ridayoq u bolalarning ham hazrati Odam farzandi ekanligini, binobarin, ular ham insonday yashash va ulg'ayish huquqiga ega ekanliklarini ularning o'z tillaridan favqulodda bir ko'tarinkilik bilan ifoda etgan edi.

Biz Odam bolasimiz,

Odamning donasimiz.

Biz o'sib ulg'ayamiz,

Olim bo'lish g'oyamiz.

G'afur G'ulom yetimlikda ulg'ayganini umr bo'yi unuta olmadi. Yetimlik uni o'ksik qalb sohibiga aylantirgan va mudom ta'qib etganligi tufayli bolalarga atab qaysi mavzuda she'r yozmasin, o'sha zahoti xotirasi qatlaridagi yetimlik armonlari uyg'onishi tabiiy edi. Kattalar uchun yozilgan va XX asrdagi o'zbek she'riyatida voqeaga aylangan «Sen yetim emassan»da ham, bolalarga atab bitilgan «Bayram maktubi» va boshqa qator she'rlarida ham bu holni kuzatish mumkin. Inchunin, shoirning roppa-rosa ellik ikki yasharligida yaratgan «Bayram maktubi» she'rida o'qiymiz:

O'ttiz sakkiz yil burun

Bugungi siz bilan teng

O'n to'rt yoshlarda edim.

Tongsiz, uzun kechqurun

qora qo'ynin ochar keng

Ko'z o'ngida uchurum.

Maktab qayoqda deysiz?

Nonning hatto o'zi yo'q,

Bo'z yaktak, yirtiq ishton,

Eshiksiz, o'tsiz, nursiz,

Vayronalar qup-quruq,

Halq tentirar parishon

Oq podshoning urushi

Yurtni yergacha toptab,

Tekkan edi tinkaga.

Och qo'shinning yurishi

Er yuzini gur o'rtab,

O'xshardi alangaga.

Rus mustamlakachiligi siyosatining butun fojeasini bolalik xotirasi vositasida shu xilda fosh etarkan, qonxo'r fashistlar ming-minglab bolalarni otanalaridan ayru etib, yetim qoldirayotganidan jirkanganida yana o'sha «o'ninchi yillar sargardonligi»ni eslamay, o'tolmaydi:

G'.Gulomning o'smirlar kitobxonligining asosini tashkil etgan «Netay», «Yodgor» va «Shum bola» qissalarida shu muammo tahlil qilindi. Adib asarlarida yetimlikni keltirib chiqargan sabab va oqibatlariga badiiy nazar solish yo'lidan boradi. Uning talqinicha, yetimlik-mohiyat e'tibori bilan o'gaylik ham. Chindanda, o'z otasi yo onasi (ba'zan har ikkovi)dan bevaqt ajralib, o'gay ota yoki o'gay onadan shafqat emas, shafqatsizlik ko'rgan bolakayning achchiq va alamli qismatishunday foje' qismatdir. Bunday holatda yetimning o'gayligi birmuncha shaxsiy fojea sanalishi mumkin. Ammo G'afur G'ulom masalani shu holda echish yo'lidan bormagan, aksincha u o'tmishdagi nobop tuzum va bemehr jamiyatning shafqatsizligi ham o'lganni tepkilab, etim-esirlarga o'gaylik qilishi fojeasini ochishga harakat qildi va aytish mumkinki, bunga muvaffaq ham bo'ldi. Bu jihatdan Netay va SHum bola-qoravoyning etimlik qismati talqini e'tiborni tortadi. «Yodgor» qissasida yetimlik syujetni harakatga solgan motiv. Unda yetim go'dak Yodgorning qismatiga munosabat hal qiluvchi rol o'ynaydi. S.Mamajonov to'g'ri ta'kidlaganidek: «Yodgor» poetik ma'lum jihatidan ramzli nom. Go'dak Yodgor asarda tasvir ob'ekti bo'lmasa ham yozuvchi uchun yangi insoniy munosabatlarni ko'rsatib berish uchun ola bir vosita rolini o'ynaydi, xolos. Bu go'dak Mehri va Jo'ralar, ularning ota-onalarining qalb dunyosini ochib beruvchi bir kalitdir, ohu go'dak asar voqeasini yaratadi, konfliktga keskin tus beradi, syujetni o'stiradi va uni ikkiga bo'lib tashlab, keyin yana bir-biriga qo'ohadi, Shu go'dak xarakterlarni rivojlantiradi, ochadi. U asardagi voqealar va odamlarni bir-biri bilan munosabatga kirituvchi, asarning hamma bo'lagini yozuvchining ko'rish markaziga bog'lab, tortib turuvchi magnitdir: Mehrining o'z sevganiga shu go'dak halaqit beradi. Jo'raning «aybsiz aybdor» bo'lib onasi, aka va ammalari oldida ta'naga qolishida shu go'dak sababchi bo'ladi, xuddi sxuningdek, Jo'raning insoniyligini ochib beruvchi, Saodat sevgisini sinovdan o'tkazuvchi va Mehriга hayot haqiqatini tushuntirgan ham shu go'dak – «Yodgordir».

Tayanch tushunchalar: qissa, ctilizatsiya, interpretatsiya, tarixiy haqiqat, badiiy haqiqat, milliy istiqloq, tamoyil, tanqidchilik, dramaturgiya, publitsistika.

9-mavzu. Hakim Nazir – o'zbek bolalar realistik nasrining sohibkori. Qudrat Hikmat - bolalar shoiri

Reja:

1. Hakim Nazirning hayot va ijod yo'li.
2. Hakim Nazir – bolalar nosiri.
3. Adib hikoyalarining g'oyaviy-badiiy mundarilasi.
4. Yozuvchining bolalar qissachiligidagi izlanishlari.
5. «Lochin qanotlari» romani haqida.

Hayotda har bir kishining, katta-kichikning o'ziga yarashiq burch va vazifalari, yumush va tashvishlari, umid va intilishlari bo'ladi. Tarovatli

qishloqlarimizdan birida yashovchi Karimning yagona ishi («Bir tup g`o`za») sigir boqishdan iborat edi. Lekin inson bolasi boshiga nima kelishini, qanday voqea ro`y berishini oldindan bilmaydi. Tasodif oyoq ostidan chiqadi. Karimning sigiri arqonini uzib ketib, bir necha g`o`za nihollarini payhon qffib tashlaydi. Bunga Karimning beparvoligi sabab bo`ladi.

Bo`lib o`tgan voqeaga Karim oldiniga parvo qilmaydi. Chunki bepayon zumrad dalalarda g`o`zaning son-sanog`i yo`q. Karimning sigiri payhon qilgan nihollar esa buning oldida dengizdan bir qatra-ku. Awaliga Karim ham shunday deb o`ylaydi. Biroq, unga o`zidan kattaroq bolalar bir tup g`o`zadan qancha tola, yog`, qanchadan-qancha moddalar borligini tushuntiradilar. Karim shundan keyingina sigirning qancha zarar keltirganligim payqab, achinadi, uyaladi. Chunki Karim bu ishda sigiri emas, o`zi aybdorligini juda yaxshi bilardi.

Hakim Nazirning asadaridan olib hikoya qilingan bu parchada qatrada quyosh aks etishi ko`rinib turibdi. Yozuvchining shunga o`xshash o`nlab hikoyalarida, biz o`zimizga qadrdon olovli quyoshni, musaffo havoni, muqaddas ona yerni, bir so`z bilan aytganda, bugungi go`zal O`zbekistonni, osmono`par «oq oltin» tog`lari bunyod etayotgan fidokor paxtakorlarni, ularning quvnoq, baxtiyor bolalarini ko`ramiz. Ular Hakim Nazir asarlarining qahramonlaridir.

Bu hikoyaning ijobiy qahramonlari o`rta va katta yoshdagi maktab bolalaridir. Bu yoshda bolalarni dunyodagi hamma narsa qiziqtiradi, bu yoshda ularning ona-Vatanga bo`lgan mehr-muhabbat, sadoqat, burch kabi olijanob tuyg`ulari shakllanadi, go`zal his-tuyg`ulari, oliy insoniy munosabatlari uyg`onadi. Bu qahramonlar shunday yoshdagi, ularning o`zaro munosabatida soddalik, shu bilan bir qatorda jiddiylik va qat`iyat bor.

Shuning uchun yozuvchining «Boshoq» hikoyasining qahramonlari Azimjon va Toshtilla boshoqda ishtirok etmasak, kattalar oldida uyatga qolamiz, mehnat intizomini buzgan bo`lamiz, degan fikrga keladilar. Bu bolalar ma"naviy dunyosi boyligidandir. Hakim Nazir bu tuyg`ular olamida mehnat romantikasiga katta e`tibor berib, uning o`ziga xos nafosatini ko`rsatadi. Adib o`zining bu tasvirlarida haq. Bu xususan uning o`zbek milliy koloritini to`g`ri va yorqin tasvirlashida, qishloq turmushidan olingan jonli va hayotiy voqea detallarni to`g`ri topishida yaqqol ko`rinadi. Adib asarlarida bolalarning xalq mulkini ko`z qorachig`idek asrash xususidagi olijanob tuyg`ulari, jamoaning mehnatini qadrlash, e`zozlashlari, mehnatning shon-sharaf ishi ekanligi haqidagi tushunchalari o`zining jonli ifodasini topgan.

Hakim Nazir 1915 yilda Toshkent shahrida mahsido`z-kosib oilasida dunyoga keldi. Onasi Malika otinning maktabida boshlag`ich ma`lumot olgandan keyin, royabzal fabrikasiga kirib kasb egallash bilan birga kechki ishchiiar dorilfununi (industiral texnikum)da o`qishni davom ettirdi.

Hakim Nazir bolaligidan kitobxonlikka juda berilgan, gazeta va jumallarda bosilgan materiallarni chanchoqlik bilan o`qib chiqardi. Undagi o`qish-yozishga bo`lgan qiziqish uni hoziigi «Tong yulduzi» gazeta-tahririyatida ishlashga olib keldi. 1934-1935 yillarda dastlabki hikoya, ocherklari gazetada, «Yosh kuch» jumalida bosilib chiqdi. Bular havaskorlik mashqlari edi. Adib jiddiyroq asar yozish uchun hayot

taassurotlaridan tashqari chuqur nazariy ma'lumot ham zarur ekanligini angladi. Kunduzi redaksiyalarda ishlagan holda kechki Toshkent davlat pedagogika institutida o'qib, til-adabiyot fakultetini muvafaqqiyatli bitirib chiqdi. Bir oz vaqt o'qituvchilik qildi. Adabiy ishga astoydil berildi. 1942 yildan boshlab o'n bir yil davomida O'zbekiston radio qo'mitasida bo'lim boshlig'i, bosh muharrir bo'lib ishladi. So'ng Badiiy adabiyot nashriyotida bosh muharrir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida kotib, adabiy maslahatchi vazifalarini bajardi. Mazkur vazifalarni yozuvchi ijodiy ish bilan qo'shib olib bordi.

Qunt, chidam bilan o'z ustida ishlashi, tinimsiz ijodiy izlanishi tufayli Hakim Nazir bolalar yozuvchisi sifatida kitobxonlarga tanildi. 1940 yilda «Kenja» (yangi nomi «Quyosh qachon tutiladi?»), 1946 yilda «Salim ota» nomli hikoyalari respublika tanlovlarida sovrindor bo'ldi. 1951 yilda esa Moskvada rus tilida chiqqan «Malchiki iz kishlaka» hikoyalar to'plami sobiq ittifoq tanlovida mukofot oldi.

Sevimli yozuvchimizning ijod yo'liga sinchiklab nazar tashlasak, uning dastlabki ijodiy izlanishlari hikoyachilikdan boshlanganini ko'ramiz. Uning birinchi kitobi «Qishloqdagi jiyanlarim» ham hikoyalardan jamlangandir. Hikoya jami yozuvchi Man yosh kitobxonlar olamini birlashtirishda bamisoli bir ko'priki bo'ldi. Bu ko'priki orqali Hakim Nazir bolalarning boy, go'zal, quvnoq, ajoyibotlarga to'la dunyosiga kirib bordi. Bir-biridan ta'sirli, bir-biridan o'qimisfi, bolalarcha jonli hikoyalari dunyo yuzini ko'rdi. Bularda kichkintoylarning quvonchlarga to'la turmushi, his-tuyg'ulari, o'qishi, xulq-odobi, kattalarga hurmati, mehnatga munosabati, milliy qadriyatlar o'z badiiy ifodasini topdi. Hikoyalarda yozuvchining kichkintoylar yoshi, saviyasi va ruhiyatini ko'rsatishga alohida e'tibor berganiko'rinish turadi. «Qishloqdagi jiyanlarim» (1948), «Besh baho» (1955), «Cho'l havosi» (1958), «Yaxshiism» (1962), «Meni taniysizmi?» (1963), «Bolajonlarim» (1964) nomli hikoyalar to'plamlari birin-ketin e'lon etilib, bolalar va o'smirlarning ma'naviy mulkiga aylandi.

Hakim Nazirning ko'pgina hikoyalari bog'cha yoshdagi yoki endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan bolalar hayotini aks ettirishga bag'ishlangan. Buni adibning «Bir og'iz so'z», «Rasmi kitobcha», «Davronning qushchasi», «Qaysargina ukam», «Yaxshi ism», «Ikki o'rtoq», «Bulbul», «Qanddon», «Igna», «Bir tup g'o'za» kabi hikoyalari misolida aytish mumkin. Bunday hikoyalarda bolalar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, axloq-odob, alo'lo' o'qish, jamoat ishlarida faollik ko'rsatish, kattalarning yumushlariga ko'maklashish, qushlar va jonivorlarga g'amxo'r bo'lish, orzu-umidlar qanotida yashash va boshqa masalalar aks etganini ko'ramiz.

Bolalarda orzu-umid, yaxshilik sari intilish kattalarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. «Yaxshi ism» hikoyachasida adib xuddi shu to'g'rida so'z yuritadi. Shoir endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan. U hali maktab qonun-qoidasini yaxshi bilmaydi. Shuning uchun qizcha maktab o'qituvchisi Zuhra yulduziga raketa uchirilganligi to'g'risidagi axborotni ro'znomadan o'qib berganida butun sinfni boshiga ko'tarib:

— Topdim! Topdim! Topdim!! — deya ovozinig boricha baqirib yuboradi Shoir.

Ayon bo`lishicha, kecha Shoiraning onasi unga singilcha tug`ib bergan bo`lib, chaqaloqqa nima deb ism qo`yish janjal bo`lib turgan ekan. Shoirada havas yaxshi, niyat kuchli. Unga raketa va ayniqsa, Zuhra yulduzi yoqib qoladi. Shu onda singuchasiga Zuhra deb ism berish fikri tug`u`adi. Bu haqda u butun sinfga so`zlab beradi.

«Yaxshi ism»ning ahamiyati shundaki, bolaning Shoiraga, tanlagan ismga, qudratli texnikaga, shirinsuxan muallimaga va otaga bir umr havasi keladi.

Bolalarga har taraflama to`g`ri ta`lim-tarbiya berish, tushuntirish, o`rgatish, ularda ko`nikmalar hosil qilish kattalarga bog`liq. Kichkintoylarning otaxon adibi «Bulbul» hikoyasida bu masalaga katta e`tibor beradi. Ona tabiatga, qushlarga mehribon. Mik qilish g`oyasi bu asarning asosini tashkil etadi.

Qobiljon qushlarni ehtiyot qilish, e`zozlash kerak ekanligini, ularni urish, ozor berish yomonligini tushunib yetmaydi. Shu sababli qo`shni hovliga kelib sayragan bulbulni urmoqchi bo`ladi.

Olim aka ishdan qaytganda Qobiljon qo`shnilarnikiga bulbul kelganidan xabar beradi.

- Dada, dada! - dedi u ko`zini katta-katta ochib, - nega bizning boqqa bulbul kelmaydiya?

- Qo`rqadi, - dedi dadasi.

- Nimadan qo`rqadi? - dedi u ajablanib.

- Sendan! - dedi dadasi.

- Iya, nega endi mendan qo`rqadi?

- Axir kesak otsang, mayib bo`ladi-da! Bu ishing yaramaydi deb aytib edim-ku. Qobiljon indamay, o`ylanib qoldi: endi nima bo`ladi? Rostdan ham bulbuljon uning bog`iga hech kelmasmikan-a?

- Kesak otmasam keladimi, dada? - dedi oxiri Qobiljon.

- Albatta, keladi, - deb ishontirdi dadasi.

- Bo`pti! - dedi Qobiljon va shu paytdan boshlab qushlarga kesak otmaydigan bo`ldi.

Adibning maktab yoshidagi bolalarga bag`ishlab yozgan juda ko`p hikoyalari kitobxonni ona yurtni sevishtirishga, mehnatkash bo`lishga, mehnat ahlini, ota-onani e`zozlashga, kasb-hunar egasi bo`lishga chorlaydi.

«Bir tup g`o`za» hikoyasida yosh qahrmonlarning xalq boyligiga bo`lgan munosabatlari g`oyat hayotiy detallar, jonli, qiziqarli voqealar asosida ifoda etiladi. Bolalarning o`yin-qaroqligi tufayli yoshlarning xalq mulkiga bo`lgan munosabatlari o`zgaradi.

Muallif hikoyada qahramonlar xarakterini individuallashtirishga alohida e`tibor beradi. Abdusamad - cho`rtkesar bola. Goho ba`zi gaplarni shartta aytib yuboradi (sigirni qidirib yurganda Qoraboy akaga qilgan muomalasini esga oling). Karim soddadil, to`g`ri so`z bola. Shu bilan birga, serharakatligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu holni biz Karimning xatti-harakatlari, qiliq, odatlari, so`zlari, o`rtoqlari bilan munosabatlarida ko`ramiz.

Muallif «Qishloqdagi jiyanlarim» to`plamidagi «Valijonning dadasi» hikoyasida bolalarning jangcliilaiga hurmat va muhabbatini tasvirlaydi. Buni ikkinchi jahon umshidan

qahramon bo`lib qaytgan Valijonning dadasini butun qishloq ahli zo`r hurmat va katta tantana bilan kutib olganini ko`rsatish orqali ochadi. «Jiyanimning toychasi» hikoyasida kitobxonni qishloq bolalarining xarakterlari va hayoti bilan tanishtiradi. Mahmudjon bilan Omonning otasi paxtadan mo`l hosil olish uchun kim o`zarga kirishadi. Bolaiar o`z otalarining g`olib chiqishi uchun kuyib-pishib harakat qiladilar. Mahmudjon jonidan aziz ko`rgan toychasini aravaga qo`shib paxta tashishga kirishadi. Bu bilan yozuvchi qishloq bolalarining o`ziga xos xarakterini yaratadi. Kichik bir parcha orqali katta bir voqeani - bolalarning ulug` ishlarga qo`l urganligini haqqoniy ko`rsatadi. Hakim Nazirning aksariyat asarlari, yuqorida ko`rganimizday, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bag`ishlangan.

Muallifning birinchi qissasi «Ko`korol chiroqlari» urushdan keyingi qishloq hayotida yuz bergan qiyinchiliklarni yengishda ota-onalariga ko`mak ko`rsatgan bolaiar haqida, ulaming mehnatda xarakterlarining chiniqishi, do`stliklarining tobianishi aks ettiriladi. Bu qissani muallif kitobxonlar talabi asosida keyinroq qayta ishlab, «So`nmas chaqmoqlar» nomi bilan bostirdi. Hakim Nazirning «Yonar daryo» qissasi o`zbek bolaiar adabiyotining keyingi yillardagi katta yutug`idir. «Gaz-qaynar» manzarasini yorqin bo`yoqlarda gavdalantirgan bu asarda o`sha davrda Qizilqum sahrosi kishilarining jasorati, romantik hayoti, qahramonligi hamda bir-biriga chin rnehribonligi tasvirlanadi, shunmgdek, oiladagi bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan roli ko`rsatiladi. Asarda voqea o`n ikki yoshli o`quvchi Damir tilidan hikoya qilinadi. Bundan ikki yil awal otasi vafot etib, singlisi Popuk ikkovi onasining qaramog`ida qolishgan. Ko`p vaqti ishda o`tadigan ona bolaiar tarbiyasiga kam e`tibor bergan. Damir esa keksa buvisining o`ta niehribonligi, yumshoqligi orqasida o`yinqaroq, o`qishga kam xafsala, o`jar bo`lib qolgan. Natijada, u onasiga bo`yin egmasiikka xarakat qiladi.

Damirlarning uzoq qarindoshlari Sulton amaki ularning uylariga tez-tez kelib turadi, shuning uchun bolaiar unga o`rganib qolishgan. Keyinchaiik ota sifatida shu oilaga kirgan Sulton amaki Damir xarakterining shakllanishida muhim roi o`ynaydi. Damir xarakterida iz qoldirgan ikkinchi muhim voqea uning Qizilqumga safari bo`ladi. Bu uning ko`z o`ngida yangi oiama ochadi, uni mehnat quchog`ida chiniqtiradi.

Gazchilarning «G`ildirab yuradigan posyolkasi», «Cho`pon boboning boshchiligida» ochilgan «Mo`xjiza quduq», bemorligiga qaramay Sulton amaki ko`rsatgan fidokorlik, umuman, gazchilarning afsonaviy qahramonligi Damir ruhida keskin burilish yasaydi.

Yozuvchining «Kenjatoy» qissasida hunar maktabi hayoti qiziqarli va jozibador aks ettirilgan bo`lib, o`smirlarda ishchi kasbidan faxrlanish tuyg`usini tarbiyalashga xizmat etadi.

«Tohir-Zuhra qissasi»ni olsak, unda bosh muomma hayotga qadam qo`yayotgan balog`at pallasidagi o`spirin bilan qizaloqning yosh qalblarida tug`ilmish ilk sevgi kechinmalariga qaratilgan, ularning yoniq iztkoblari tasviriga keng o`rin berilgan.

«Dadamni topib beringlar» qissasida bir dehqon oilasi boshiga tushgan nohaqlik fojeasi kichiklar nazari orqali o`tkazilib, ularning ongi va rahiyatiga

yetkazilgan salbiy ta'siri badiiy tahlil etilganini ko'ramiz va yosh qahramonlar bilan birga iztirobga tushamiz.

Hakim Nazir so'nggi kitobini «Oq fотиha» deb atadi. Bu xotira-qissa bo'lib, bolalik sarguzashtlariga bag'ishlangan. Muallif bezovtalik, g'ulg'ula-hayajonlarga to'la bolalik chog'lari ko'rgan-kechirganlarini jonli lavhalarda hikoya qiladi, kichiklikda ota-onasidan olgan ilk insoniy saboqlari uchun chuqur va samimiy mirmatdorchiligini izhor etadi.

Hakim Nazir 1973 yilda «Lochin qanotlari» romanini yaratdi. Bunda furushga ketgan ota-onalarning o'rnini bosgan O'ktam, Umri va boshqa yosh vatanparvarlar obrazlari gavdalantirildi. Romanni jamoatchilik iliq qabui etdi. Tadqiqotchilar: «Lochin qanotlari» romani o'zbek bolalar adabiyotida deyarli qo'l urilmagan mavzuni - urush yillari kichkintoylarning buyuk g'alabaga qo'shgan hissasini ko'rsatishga bag'ishlangan yirik asar sifatida qimmatlidir» deb yozdilar.

Yozuvchining «Chiranma g'oz - hunaring oz» nomli pesasi ko'p yil davomida yosh tomoshabinlar teatri sahnasida qo'yildi.

Muallifning 24 ta kitobi ras tilida, 12 ta kitobi qozoq, qirg'iz, turkman, gruzin, arman, ukrain, belorus, latish, litva, estonva boshqa tillardatarjima bo'lib chiqqan. Qator hikoyalari nemis, fransuz, ispan, bulg'or, chex, mo'g'ul kabi tillarda e'lon etilgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti va X.K.Andersen nomli Xalqaro faxriy diplom sovrindori Hakim Nazir o'z ijodiy faoliyatini davom ettirmoqda.

Quadrat Hikmatning bolalar shoiri sifatidagi qirralari rang-barang. Uning badiiy olami nihoyatda boy. Shoirning so'z va topilmalari, o'z fikrini badiiy tamsillar yordamida obrazli ifodalash orqali betakror badiiy nutq yarata olish mahorati o'ziga xos uslubini belgilaydi.

Quadrat Hikmatning bolalar uchun yozgan ko'pgina she'rlarida obrazlilik yetakchi. Xususan, shoirning badiiy san'atlar va tasviriy ifodalar vositasida manzara yaratish mahorati diqqatga sazovor. Aytaylik, 3-sinf o'qish kitobida shoirning «Ayamajiz» she'ri keltirilgan.¹ O'qituvchi o'z kasbiy mahorati va adabiy-nazariy bilimi hamda tajribasiga ko'ra she'rni turli usul, yoxud o'yinlar vositasida maroqli o'tishi mumkin. Ammo, Q.Hikmat she'rlariga xos badiiy bo'yoqdorlik o'quvchidan dastlab, so'z san'ati mo'jizalarini ilg'ay bilishni taqozo etadi. E'tibor berilsa, she'rning har bir misrasida obrazli detal va tasviriy ifoda uchraydi:

*Biyday cho'lu dalalar,
Bo'ralar qor kapalak.
Bog'lar sokin, mizg'ishar
Misoli oq kapalak.*

Ta'kidlangan so'zlar ham lugaviy ma'nosi, ham obrazli ifodasiga ko'ra muhim. «Biyday» so'zining lug'aviy ma'nosini 3-sinf o'quvchisi anglab yetishi

¹ M.Umarova, Sh.Hakimova. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik.T., 2010. –B.84.

gumon. Shu sababli bu she'rdagi "ochiq", "yalang", "keng" ma'nosida qo'llanayotgani, yana, o'z va ko'chma ma'no ifodalayotgani oydinlashtirilishi lozim. Haqiqatan, qishda dala-dasht hosildan bo'shab, ancha keng bo'ladi, ochilib qoladi. Ammo shoir shiddat bilan qor yoqqandagi (*bo'ralar*) holatga ko'proq urg'u berayotir. Oppoq qor hamma yoqni qoplaganda bir tekisdagi yalanglik ko'zga tashlanadi. Badiiy so'zning jarangi shunda aks etgan. Shoir qorning kapalaksimon yog'ishiga muvoziy oqqa burkangan bog'lar tasvirini chizib, uning "mizg'ishi"ni-da, (ozgina uxlagan, ko'z ilintirgan) kapalakka qiyoslaydi. Shoirning topilmasi shundaki, bog'larning qor yoqqan vaqtdagina sokinlashuvi, yilga nisbat olganda "mizg'ish"dir. Kapalak uyqusini-da, hech kim ko'rmagan. O'quvchi bu kabi ramziy detallar mohiyatini teran anglasagina, she'rning badiiy tas'sirchanligi, estetik zavqi oshadi. Binobarin, she'rdagi "muz oyna", "sumalak shodalari", ayamajiz-qishning eng sovuq kunlarini yalmog'izga o'xshatilishi kabilar nafaqat badiiy topilma, balki xalqona ifodasiga ko'ra ham e'tiborni tortadi.

4-sinf O'qish kitobida Q.Hikmatning "Qish to'zg'itar momiq par" nomli yana bir she'ri berilgan.² Bunda har bir so'z ustida ishlash muhim. Ya'ni so'z va iboralar o'z yoki ko'chma ma'noda qo'llanayotganini o'quvchilar anglab yetishi zarur. Masalan, she'rning birinchi to'rtligi shunday boshlanadi:

*Savab bulut to'shagin
Qish to'zg'itar momiq par.
Yerga serbar oq namat
Yozilganday yaltirar.*

Ta'kidlangan so'zlar ko'chma ma'noda obrazlilik kasb etgan. Shuningdek, bunda she'riy san'at namunalarini kuzatish mumkin. Tashxis – jonlashtirish bolalar she'riyatida eng ko'p uchraydigan san'at. Q.Hikmat o'xshatishlari esa mantiqiy asosga ega bo'lishidan tashqari, sodda va betakroridir. To'shakni yumshoq qilish uchun momiq paxta savab solish, ostiga namat tashash (yungdan bosib ishlangan palos, kigiz) insoniy xislatlarga xos. Tabiat hodisasi insondagi ana shu holatlarga o'xshatilmoqda. Bunda momiq parni to'zg'itib savash– qishda qorning mayin, ezg'ilab yog'ishi (o'xshatilayotgan narsa)ga ko'chirib o'tkazilgan.

Ushbu she'rdagi lirik qahramonning qishdan zavqlanish kechinmasi, ayni paytda qor ko'p yog'ib, sovuq izg'irinning ziyoda bo'lishi tufayli bolalarga xos arazi ko'zga tashlanadi. Hamchunun yosh lirik qahramon qorga:

– Namuncha
Zeriktirding uchqunlab?
Yog'masding-ku ilgari
Surunkasi uch kunlab...
Yetar shuncha yog'ganing
Uzoq dala qirga bor! –deya murojaat qiladi.

Bu jihat apostrofa –ya'ni narsa yoki hodisaga xuddi jonli mavjudotga kabi murojaat etish asosida yuzaga kelgan. Shunga o'xshash, Q.Hikmatning "Bahor" she'ri obrazli ifodalarga boy.

Uchib yurar mayin shamollar

²S,Matchonov va boshq. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik.T., 20011. –B.82.

Yelpib- yelpib anhor yuzini
Qirg`oqlarda soyabon tollar
Oyna suvda ko`rar o`zini

She`rni o`qigan yosh kitobxon uning estetik zavqi va jozibadorligini darrov ilg`aydi. Bolalar she`riyati uchun badiiy yuksak tasvir va obrazlilik kamyob hodisa. Shoir chizgan bahor manzarasi umumadabiyotga, nozik tuyg`ularga boy chinakam she`r namunasi bo`la oladi:

“ Ko`kni quchgan teraklar tinmas, Oro berar kulrang po`stiga” misralari jonlashtirishning hamda noyob badiiy topilma namunasi. Bu bolalarning yosh xususiyatlariga juda mos.

Ammo bilamiz-ki, mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi keng qo`llangan. Biri tashxis (shaxsga bog`liq)- jonsiz narsalarni jonlantirish; ikkinchisi intoq (nutq bilan bog`liq) - nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash. Quدرات Hikmat she`rlarida intoq ham ko`p ishlatiladi. (masalan “Temirjon bilan telefon” she`rida telfonning insondek shikoyat qilishi ,”Eshak nega hangraydi” she`ridagi sher, fil, tulki, kiyik, eshak va cho`chiqalarning majlisda she`rva eshakning savol javobi kabi...), ammo yuqoridagi “Bahor” she`rida shoir tashxis usulidan mohirona foydalanib, ko`klam obrazini san`atkorona tasvirleydi. Shu sababli, bu she`rda Bahor o`ziga oro, zeb berib, husnidan sarxush , go`zal qiz sifatida gavdalanadi; tonggi shabboda, tol, maysa , o`t, chinor va teraklar xuddi odamdek bir- birlarini kuzatadilar, ilhomlanadilar, yoki o`zlarini yelpiydilar va h.k. Binobarin, shoir bahordagi dov-daraxtlarni, shamolni insoniyashtiradi.

Umuman, Quدرات Hikmat she`riyatning badiiy xususiyatlari serjilo, shoir fikrlarni rassom singari chizayotganga o`xshaydi. She`r xoh bolalar o`yinlari, xoh boshqa mavzularda yozilgan bo`lmasin , ular eng avvalo bollarni tevarak atrofdagi voqealar va hodisalar bilan tanishtiradi.

Zotan, Quدرات Hikmat she`rlaridagi voqeabandlik obrazlilik qofiyalarning ixchamliligi, hatto sodda tuzilishi, til xususiyatlari barcha-barchasi shoir she`rlarining g`oyaviy- badiiy ematsionalligini oshirishga xizmat qiladi.

V.G.Belenskiyning bolalar bilan obrazlar vositasida gapirish lozimligi haqidagi fikrlari baayni Q.Hikmat ijodiga xosligini uqish mumkin. Zero, Quدرات Hikmat she`rlarni o`qib ulg`aygan o`quvchi o`z ona tilimiz boyliklaridan voqif bo`lib, badiiy so`z qudratini teran his etadi, Vatan va yurt iftixori bilan yashaydi.

10-mavzu. Mirkarim Osim-bolalarning tarixnavis adibi

Reja:

1. Mirkarim Osimning ijodiy yo`li.
2. Mirkarim Osim-bolalarning tarixnavis adibi
3. Adibning tarixiy ba tarixiy-biografik qissalari haqida.

Adabiyotda xalqimizning tarixiy o`tmishi mavzuini badiiy aks ettirish to`g`risida mulohaza yuritilsa, taniqli adib Mirkarim Osimning bu sohada qilgan xizmatlarini eslamaslik mumkin emas. Yozuvchi tarixiy o`tmishga hamisha va

astoydil qiziqib kelgan. Xalq o'tmishiga qiziqish uning ijodida tarixiy mavzuni bosh yo'nalishga aylantirdi.

O'zbek sho'ro adabiyotining to'ng'ich avlodiga mansub Mirkarim Osim 1907 yilda Toshkentda, ziyoli oilasida dunyoga kelgan. 1918 yildan «Shamsul urfon» nomli boshlang'ich maktabda o'qidi. 1921 yildan Alisher Navoiy nomidagi respublika bilim yurtida tahsil ko'rdi. Do'stlari Oybek va H. Yoqubovlar bilan bu texnikumda adabiyot-san'at turlarini o'rgandi. 1926 yilda esa Moskva Davlat pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida o'dib, uni 1930 yilda tugalladi. Samarqandda o'qituvchilar tayyorlash kursida, 1932 yilda O'zbekiston Maorif Xalq komissarligi, Pedagogika ilmiy-tadqiqot ilmgohida ishladi. Tarix fanidan qo'llanma, tavsiya, darsliklar yaratdi. Mirkarim Osim badiiy ijodni she'rlar yozish bilan boshlagan. So'ngra hikoya va qissa janrlarida ham qalam tebrata boshlagan. 1940 yilda Ulug' Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida «Astrobod», «Alisher Navoiy a Darvishali», «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Ulug'bek va Navoiy» singari hikoya va tarixiy qissalar yoza boshladi. Adib bir umr tarixiy qissalar yozish bilan mashg'ul bo'lib, yangi-yangi avlodlarni o'tmish va uning ilg'or shaxslariga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyaladi. Vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini ulug'ladi.

Mirkarim Osim 50-yillar Stalin qatag'onining begunoh ma'naviy qurbonlaridan biridir. Uning vatanparvarlik, millatparvarlik, o'tmish tarixga muhabbat ruhidagi asarlari o'z muallifiga qaro kunlar olib keldi. Adib ko'p yillar sho'ro rejimining azoblarini chekdi. 40-yillarning oxirida qatag'onga uchradi, 50-yillarda ozodikka chiqdi. Tarixiy mavzularda hikoyalar, qissalar yozdi. Barcha asarlarida xalq tarixi, nurli siymolar xarakteri yorqin tasvirlanadi.

60- yillarda vatanga qaytgan san'atkor tarixiy asarlar yozishda, tarjimai hol ishi bilan shug'ullanishda davom etadi. Adabiy nashriyotlarda kichik adabiy xodim vazifalarida ishladi. Mirkarim Osim tarixchi adiblar orasida asl manbani buzmay, qayta badiiy jonlantirishi bilan ajralib turadi. Uning asarlari 70-80-90-yillar tarixiy adiblari uchun asosiy manba vazifasini o'tadi.

Adabiyotshunos M. Sattorov tarixchi adibning asarlarini davriy jihatdan shartli ravishda uch guruhga ajratadi.

1. Tariximizning qadimgi davrlari haqida hikoyalar (Makedoniyalik Iskandar, so'ngra, arab xalifaligining, keyinroq eroniy shohlarning O'rta Osiyoga yurishlari haqidagi bitilgan hikoya, qissa va turli obrazlar talqiniga oid asarlar).

2. O'rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi asarlar (Mo'g'ullar istilosi va buyuk fan, madaniyat arboblari haqida biografik qissa va hikoyalari).

3. XVIII asrdan to Oktyabr to'ntarishiga qadar bo'lgan davr tarixiy hayotini badiiy aks ettirgan asarlar turkumi.

Chindan ham muallif asarlari davriy jihatdan kengqamrovli. Ayniqsa, adibning O'rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi tarixiy-biografik qissalari alohida e'tirofqa sazovor. Ayni paytda Mirkarim Osim asarlarini uch katta mavzu yo'nalishi bo'yicha tahlil qilish, baholash mumkin:

1. Tarixiy qahramonlik mavzuidagi asarlar.
2. Tarixiy-maishiy mavzu.

3. Tarixiy biografik asarlar.

Adib yarim asrlik ijodiy faoliyatida ana shu uch davr va uch mavzuviy yo'nalish bo'yicha samarali ijod qilib, o'zbek nasrini, o'zbek qissachiligini boyitdi. Xususan, u tarixiy qissachilikda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bu yo'nalishda u qadim ajdodlarimizning, Vatanimiz tuprog'iga bostirib kirgan chet ellik bosqinchilarga (eron, arab, mo'g'ul, rus) qarshi olib brogan qahramonona kurashlari, o'tmish ilm-fan madaniyatimiz yulduzlarining jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan beqiyos hissalarini, opbek xalqining ikki tomonlama zulm-istibdoddan tinkasi qurib, adolatsizlikka qarshi isyonga o'tlanib, milliy ozodlik uchun kurashgani haqida bir qator asarlar yaratdi. Jumladan, muallifning «O'tror», qissasi fikrimizni dalillay oladi. Negaki, «O'tror» tarixiy-maishiy mavzudagi asardir. Chunki unda o'zbek xalqining 1216-1220- yillardagi siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayoti badiiy aks ettiriladi. Qissada tarixiy voqealar talqini barobarida xalqning maishiy turmush sharoiti, kasb-kori, mashg'ulotlari tasviriga ham keng o'rin ajratilgan. Shuning uchun uni tarixiy-maishiy yo'nalishdagi asar deb qarash lozim.

Mirkarim Osim ijodida tarixiy-biografik mavzu ham katta oqimni tashkil etadi. Uning «Zulmat ichra nur» (Navoiy), «Jayhun ustida bulutlar» (Beruniy), «Ibn Sino qissasi», «Aljabrning tug'ilishi» (Al-Xorazmiy), «Singan setor» (Mashrab) kabi qissalarini ko'rsatish mumkin. Adibning «Jayhun ustida bulutlar» qissasi ulug' qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning, «Ibn Sino qissasi» esa nomi jahonga mashhur buyuk hakim va olim Abu Ali ibn Sinoning, «Aljabrning tug'ilishi» hikoyasi mashhur matematik al-Xorazmiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan.

Adib o'z tarixiy-biografik asarlarini odatda, bu ulug' insonlarning tavallud ayyomining tantanali nishonlanishi munosabati bilan sovg'a sifatida yaratgan. Jumladan, «Jayhun ustida bulutlar» qissasi Abu Rayhon Beruniyning 1000 yilligiga, uch-to'rt biografik hikoyalardan tashkil topgan «Ibn Sino qissasi» Abu Ali ibn Sinoning 1000 yilligiga, «Aljabrning tug'ilishi» hikoyasi al-Xorazmiyning 1200 yilligiga sovg'a tariqasida yozilgan. Shuningdek adibning XY asr hayotiga bag'ishlangan «Zulmat ichra nur» qissasi atoqli shoir Alisher Navoiyning 525 yillikyubileyiga tortiq qilingan edi. O'smirlar va bolalarga bag'ishlangan bu asarda bobokalon shoirimiz hayoti va ijodiy faoliyatining barcha davri hissiy nozikliklari bilan yaxlit qamrab olingan. Yoxud adibning «Nur va zulmat» qissasi ham Jahonotin Uvaysiyning qalb iztiroblarini tarannum etadi. Shunga ko'ra bu kabi asarlar tarixiy-biografik asarlarning eng ajoyib namunalaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, qahramonlik mavzuiga ijodkorning «To'maris», «Temur Malik», «Aleksandr va Spitamen» kabi asarlarini kiritish mumkin bo'lsa, maishiy mavzudagilarga «Mohlar oyim va Xonposhsha», «Karvon qo'ng'irog'i», «Elchilar» kabi asarlari, shuningdek, «Elchilar», «Karvon yo'llarida», «Do'stlik qaldirg'ochlari», «Tilsiz guvoh», «Zulmat va muhabbat nuri» kabi tarixiy qissalari hayotimizning, aniqrog'I, xalqimi tarixining ilmiy va badiiy jihatdan nisbatan kam tadqiq qilingan davrlari—XYU-XY111-X1X asrlar hayotiga, o'sha davr xalqlarimiz turmushining tarixiy taraqqiyotiga bag'ishlanadi

Tarixiy mavzularda asar yaratish olijanob vazifa va ayni paytda benihoya mas'uliyatlidir. Tarixni baholash vaqtning zimmasida, albatta. M.Osim tariximizning ochilmagan sahifalarini birma-bir varaqlab, unga murojaat etdi. "U kishi nafaqat yozuvchi,-deb yozgan edi O.Yoqubov,-balki har qanday tarixshunos olim bilan (albatta, tarixiy voqealar haqida gap ketganda) bellasha oladigan, tarixni besh qo'ldek biladigan zukko edi. Shu boisdan, oddiy kitobxonlar qatori tarixshunos olimlarimiz ham uning asarlarini o'qib o'rganadilar."³

Tarixiy qissalar ilmiy-nazariy ma'lumotlarga qaraganda ta'sirchan va tarbiyaviy-estetik ahamiyat ustivor ekanligini S.Anorboyev mulohazalaridan ham anglash mumkin. Uning e'tiroficha, 1940-yillarda hali adabiyot darsliklari va xrestomatiyalarda A.Navoiy haqida qisqacha biografik ma'lumotlar bo'lmagan bir paytda, olimlarning davriy matbuotda e'lon qilingan Navoiy hayot yo'li, ijodining keng tahlili o'quvchilar ommasiga boy ma'lumot bera olgan. "Mirkarim Osimning "Alisher Navoiy va Darvishali", "Astrobod", "Alisherning yoshligi", "Badarg'a" hikoyalarini o'qiganimda esa,-deb yozadi muallif alohida qoniqish bilan,- Alisher mening ko'zimga goh uyqusirab otdan yiqilib, Yazd cho'lida qolib ketgan ziyrakkina bola, goh navqiron yigit, goh...johil ruhoniylardan tap tortmay hajv qiluvchi tili o'tkir zabardast shoir, goh adolat tig'ini baland ko'targan davlat arbobi qiyofasida namoyon bo'ladi."⁴

Bunday e'tiroflarni adibning deyarli har bir asari to'g'risida aytish mumkin.Chunki M.Osim asarlarida xalqimiz tarixining zarvaraqlarida nomlari o'chmas qilib yozib qo'yilgan siymolarning tabarruk obrazlari tasvirlangan. Adib bu obrazlarning yangi qirralarini, ularning hayotdagi yangi sahifalarini topa olgani muhim ahamiyat kasb etgan.

"Mirkarim Osim o'zbek tilining zabardast bilgichlaridan,-deb yozgan edi O.Sharafiddinov. Shuningdek, u tariximizning ham bilimdoni edi. O'tmishdagi jami allomalar, mutafakkirlar va yorqijn shaxslarni yaxshi bilar, bir necha asrlar oldin ham, yaqin o'tmishda ham o'zbeklar ichidan ko'plab buyuk siymolar yetishib chiqqanidan faxrlanardi."⁵

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Mirkarim Osimdagi bu milliy g'urur xalqimizda mustaqillikdan so'nggina uyg'ondi.

Bugungi kunning mashhur va tanilib kelayotgan tarixchi adiblari Mirkarim Osimni o'zlarining ustozlari deb biladilar.Tarixchi adib 70 yilligi munosabati bilan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoni berilgan.

Mirkarim Osim bolalarning tarixnavis adibisifatidamoziysaboqlarini yosh avlodga yetkazib kelayotir. U 1907-yili Toshkentda ziyoli oilada tug'ildi. 1918-yili "Shamsulirfon" nomli maktabda, 1921-yili Alisher Navoiy nomidagi respublika bilim yurtida Oybek va Homil Yoqubovlar bilan birga o'qidi. 1926-1930 yillar Moskva davlat pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida, keyinchalik Samarqand o'qituvchilar tayyorlash kursida tahsil ko'radi, xalq ta'limi jabhasida faoliyat ko'rsatadi.

³Yoqubov O. Vatanni tanitgan adib.-"Sharq yulduzi", 2002, 2-son, 134-b.

⁴Anorboyev S. Tarixdan saboqlar.-"Guliston", 1977 yil, 12-son, 15-bet.

⁵Sharafiddinov O. Vatanni tanitib.- "Sharq yulduzi",-2002, 2-son, 136-bet.

Tarix bilan tillashgan adib “Astrobod”, “Alisher Navoiy va Darveshali”, “Badarg`a”, “Navoiyning xislatlari”, “Ulug`bek va Navoiy”, “O`tror”, “To`maris”, “Temur Malik”, Aleksandr va Spitamen, “Mohlaroyim va Xonposhsha”, “Karvon qo`ng`irog`i”, “Elchilar”, “Zulmat ichra nur”, “Jayhun ustida bulutlar”, “Ibn Sino qissasi”, “Aljabrning tug`ilishi”, “Singan setor” kabi o`nlab qissa va hikoyalarida o`tmish ajdodlarimizning nurli siymolarini, milliy-ma`naviy qadriyatlarimiz ildizining teranligini badiiy gavdalantirishga muvaffaq bo`lgan.

Tarixnavis adib To`maris, Shiroq, Spitamen, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug`bek, Navoiy, Mashrab kabi ulug` ajdodlarimiz siymosini tarixiy manbalar asosida yoritdi. Shonli o`tmishimiz bilimdoni Mirkarim Osim tug`ilgan kunining 70 yilligida “O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi” unvoniga sazovor bo`lgan. Taniqli adib 1984-yili vafot etdi.

Mirkarim Osimning o`zbek bolalar tarixiy nasri taraqqiyotiga qo`shgan hissasi shu jihatdan beqiyos. Adibning tarixiy-biografik xarakterdagi “Jayhun ustida bulutlar”, “Zulmat ichra nur”, “Yulduzlar sayri” qissalari alohida turkumni tashkil etadi. Ularning aksariyati O`rta asrlardagi buyuk mutafakkirlar, olim va ijodkorlar hayot yo`liga bag`ishlangan. Bunday asarlar zamondosh kitobxonni tarixiy shaxslar qismati, boy adabiy-ilmiy merosi, faoliyatlari bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Natijada, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mashrab singari buyuk siymolar obrazi badiiy inkishof etilganligi tahsinga sazovor. Adib qissalarining g`oyaviy-badiiy mundarijasi shu jihatdan kengqamrovli. Yozuvchining “Shiroq”, “To`maris” singari tarixiy hikoyalarida esa ajdodlarimiz qahramonliklari yorqin aks etadi.

Mirkarim Osim Vatanimizning uzoq o`tmishiga bag`ishlangan asarlari bilan adabiyotimiz tarixida yorqin iz qoldira oldi. O`zbek adabiyotida tarixiy mavzu shakllanishida Oybek, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov xizmati katta bo`lsa, shular qatorida M.Osimning ham “To`maris”, “Shiroq”, “Jayhun ustida bulutlar”, “Ibn Sino qissasi”, “Temur Malik”, “Zulmat ichra nur”, “Singan setor” kabi qissalari tarixiy mavzudagi nasr durdonalaridir. Zotan, atoqli adibimiz o`z ijodiy faoliyati davomida xalqimiz o`tmishini sinchiklab o`rganib, avlodlar qalbida g`urur va iftixor tuyg`ularini alangalatadigan asarlar yarata oldi.

Istiqlol sharofati bilan tarixiy haqiqat va milliy qadriyatlar tiklanayotgan bir paytda Mirkarim Osim ijodiga murojaat etish dolzarb ahamiya kasb etayotir. Chunki adib murakkab bir davrda yashab, ijod qildi. Lekin shunga qaramay o`z xalqi tarixini yozishdan cho`chimadi. Yaqin o`tmishda tarixiy shaxslarni o`rganish, jaholatni qo`msash deb noto`g`ri baholab kelindi. Shu bois, tarixiy mavzuda qalam tebratgan yozuvchilar ijodi kamsitilardi. Istiqlol tufayli biz tarixiy o`zlikka qayta boshladik. Qadim dunyodagi ulug` siymolar ijodini o`rganishga keng imkoniyatlar ochildi. Bu haqda dastlab mamlakatimiz prezideni I.A.Karimov shunday degan edi: “Asrlar davomida aqlu zakovati ila bunyod etgan boy ma`naviyati tufayli xalqimiz mag`rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi.

Ana shu milliy ong, ana shu milliy g`urur bugungi istiqlolikmizning oltin poydevoridir. Bu poydevorga Shiroq va To`maris, Beruniy va Farobiy, Abu Ali

ibn Sino va Al-Xorazmiy, Amir Temur va Bobur, Navoiy va Ulug'bek kabi yuzlab zotlar asos solganlar".⁶

Darhaqiqat, ona tariximizni badiiy qayta jonlantirish vositasida yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, to'g'rirog' yuqorida nomlari keltirilgan buyuk mutafakkirlar haqida tarixiy-biografik qissalar yozish orqali xayrli ishga qo'l urgan Mirkarim Osim shijoati yurtboshimiz g'oyalariga hamohangdir. Olimlar haqli e'tirof etishganidek, yozuvchilarimizdan hech kim tarixiy materialni bu adibchalik sinchkovlik bilan o'rganib, o'ziniki qilib olib, ishlatmagan. Adib nafaqat xalq qahramonlari haqida, balki, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mashrab, Uvaysiy singari ulug' mutafakkir va shoiru shoirlar haqida ham qissalar yaratib, ma'naviyatimiz ildizlari teran ekanligini isbot eta oldi. Jumladan, M.Osim buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi bilan talabalik yillaridayoq qiziq boshlagan. 1930-yillarda ulug' mutafakkirning 500 yillik yubileyiga qizg'in tayyorgarlik ketayotgan bir davrda ko'pchilik adib va ziyolilarimiz alisher Navoiy yashagan davr va uning ijodiy merosini chuqurroq o'rganishga kirishgan edilar. Mirkarim Osim ham albatta bu harakatdan chetda qololmasdi. Shoir yashagan davr to'g'risidagi adabiy va tarixiy manbalardan xabardorligi yosh yozuvchiga qo'l keladi. Uning birinchi tarixiy qissasi "Astrobod" "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" jurnalining 1940 yil 4 sonida, ikkinchi qissasi "Alisher Navoiy va Darveshali" o'sha jurnalning 1941 yil 3-sonida bosilgan. Shu yili "Alisherning yoshligi", "Badarg'a" hikoyalari "Qizil O'zbekiston" gazetasida e'lon qilinadi. qissasini monografik tizimda o'rganish har jihatdan dolzarblik kasb etadi. "Navoiyning xislatlari" ("Yosh leninchi" gazetasi, 1940, 18 noyabr), "Shoirning yoshligi" ("Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1941 yil 16 yanvar), "Ulug'bek va Navoiy" ("Yosh leninchi" gazetasi, 1941 yil, 21 aprel) kabi tarixiy hikoya va ocherklari yozuvchining ulug' shoirga bo'lgan cheksiz ehtiromning ifodasi edi.

Adibning bu asarlarida Alisher Navoiyning badiiy obrazi o'zbek adabiyotida ilk marta o'z ifodasini topayotgan edi. Alisher Navoiyning yoshligi haqidagi hikoyalar o'sha davrda maktab darsliklariga ham kiritilgan edi. E'tirof etilishicha, 40-yillarning o'quvchilari Mirkarim Osimning o'sha hikoyalari orqaligina Alisher Navoiy haqida ilk ma'lumot olganlar.

Rost, bugun ulug' alloma haqidagi badiiy va ilmiy adabiyotlar juda serob. Xususan, mustaqillik yillari bu dahoga qayta haykal qo'yildi. So'z mulkining sultoni shaxshan muhataram Prezidentimiz e'tiborida bo'lishi tahsinga sazovor. Alisher Navoiy bobomizni yurtboshimiz o'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan zot sifatida e'tirof etadilar. "Biz,- deya ta'kidlaydilar u kishi,- uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz."⁷

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz

⁶I.A.Karimov. Buyuk bobolarning ruhi poklariga tayanib . –Kitobda: Istiqlol va ma'naviyat. T.:O'zbekiston, 1994, 118-119-bet.

⁷Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 47-b.

namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Shu sababli : "Olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki,- deya ta'kidlaydi I.Karimov,- u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir." ⁸

Darhaqiqat, inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdankam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib kiradi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy quuro'lga ega bo'lamiz. Binobarin, M.Osimning "Zulmat ichra nur" qissasidagi Alisher Navoiy obrazini monografik tizimda o'rganish ana shu maqsadlarga ko'ra dolzarblik kasb etadi.

M.Osimning tarixiy qissalarining dolzarb ahamiyati 1980 yillardan e'tiboran anglashila bordi. Masalan, Mahkam Andijoniy M.Osim ijodiyotining adabiyotshunoslikdagi o'rni haqida shunday ma'lumotlarni keltiradi. "Mirkarim asarlarini o'qib , chiqargan amaliy xulosam,-deya ta'kidlaydi u,- Vatan tarixini bilish va bu haqda yozish uchun tarixiy manbalarni kop o'rganish kerak. Domla (Mirkarim Osim) adabiy davralardan o'zini chetga olib yurgani uchun munaqqidlar ham u kishining ijodiga unchalik e'tibor bermas ekan. Menga bu adolatsizlik bo'lib ko'rindi." ⁹ Muallif e'tiroficha, shu tariqa yosh tadqiqotchi Mahmud Sattorovga "Mirkarim Osim" adabiy siymosini yoritish topshiriladi va olim shu mavzuda disertatsiya yoqlaydi. ¹⁰ Chindan ham filologiya fanlari nomzodi M.Sattorov keyinchalik M.Osimning tarixiy qissalaridan iborat saylanmasini chop ettirib, unga so'zboshi yozadi. ¹¹ Bundan tashqari, boshqa adabiyotshunos olimlar ham tarixiy qissalar haqidagi monografik tadqiqot va risolalarida bevosita M.Osim asarlariga murojaat qilib kelmoqdalar. ¹² Xususan, istiqlo'l sharofati bilan M.Osim adabiy merosining boy va rang-barangligi asosli ta'kidlangan. Betakror adibimizning tengsiz xizmatlari istiqloldan keyin o'z qadr-qimmatini topdi. Mustaqilligimizning o'n yilligi arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan o'zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan M.Osim "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi. Shu munosabat bilan

⁸O'sha joy.

⁹M.Andijoniy. Vatanni tanitgan adib.-"Sharq yulduzi", 2002 yil, 2-son, 137-bet.

¹⁰O'sha joy.

¹¹Sattorov M. Moziy saboqlari. -Kitobda: Mirkarim Osim. Karvon yo'llarida.Saylanma. T.:G'ASN, 1987.

¹²Qarang: Shermuhamedov P. Tarix va zamon. Kitobda: Istiqbolni o'ylab. T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 3-80-b

A.Xolmurodov¹³, O.Yoqubov¹⁴, O.Sharafiddinov¹⁵, M.Andijoniy, N.Rahimjonov, Q.Ko'bayev¹⁶ kabi olim va adiblar e'tirofi muhim ahamiyatga ega.

11-mavzu. Xudoyberdi To'xtaboyev-bolalarning sargzasht va romannavis adibi

Reja:

1. Xudoyberdi To'xtaboyevning hayot yo'li.
2. Adib qissalarining g'oyaviy-badiiy mundarijasi.
3. Xudoyberdi To'xtaboyev – bolalar romannavisi.

Novcha niholcha hamon ajal bilan olishib yotibdi, jang bobokalonlar aytishganidek, beomon, shafqatsiz edi. Birin-ketin yashil bargchalari qoyjirab taslim bo'lishdi, shoxchalaridagi hayot so'ndi. «Tanam tirik hali, — entikib dedi novcha niholcha, — men yashashim kerak, albatta yashayman...» U kimdandir yordam kutgandek jovdirab atrofga qaray boshladi. Meni bu yerga ekib, ketmonini asfaltda darangSatib sudrab ketgan bolalar kelib qolmasmlkan, deb yana bir bora ko'cha boshiga ko'z tashladi, yomg'ir tomchilaridan umidvor bo'lib, buiut bo'lmasa ham ko'kka tikilib, uzoq qotib turdi... Keyin to'satdan sersuv adirlarda birga o'sgan ukalarining o'ligiga ko'zi tushib qoldi.. Qiziq, hammalari tik turgancha jon berishibdi... O'tgan yili xuddi shu kecha-kunduzlarda hammalari tirik, yayrab-yashnab batq urib o'sishayotgan edi... Endi bo'lsa... «yo'q, men yashashim kerak...». - Suv! Suv! Suv!

Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha asta-sekin o'zidan ketib, allaqanday sehrli xayolot nash'asi bilan mast bo'la boshladi, keyin o'sha kun — haddan tashqari qizdirib yuborgan 19 iyun kuni kunduz soat oltalarda jon berdi. Tik turgancha qotib qoldi u...

Bu atoqli adib Xudoyberdi To'xtaboyevning shoh asarlaridan biri - «Nihollar nolasi»dan parcha. Bu asarni bolalar behad sevib o'qiydilar, o'zlariga xulosalar chiqaradilar. Haqiqatan ham nihol — daraxtning xuddi inson kabi joni borligi, ozuqa suvga ehtiyoji; parvarish qilinmasa yosh kitobxon qalbini achitib, tug'yonga solib halok bo'lishi asarning asosini tashkil etadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev katta-yu kichik bolalaming sevimli adibi. U hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika janrlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan talantli adib sifatida kitobxoniga ma'lum va mashhurdir.

Xudoyberdi To'xtaboyev 1932 yilning 17 dekabrda Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumaniga qarashli Kattatagob qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi ham poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas, qishloqda bo'ladigan hamma mehnatlarda hol-qudrat ishtirok etdi, hayot nimadan iborat ekanligini yoshligidanoq bila boshladi. Bo'lajak adib ikkinchi jahon urushi yillarida o'qishni yig'ishtirib, dalada ketmon chopdi, hisobchilik qildi, mashaqqatli

¹³Xolmurodov A. Eskirmas saboqlar.—«Sharq yulduzi», 2002 yil, 2-son, 134-b.

¹⁴Yoqubov O. Vatanni tanitgan adib.—“Sharq yulduzi”, 2002 yil, 2-son, 135-bet.

¹⁵Sharafiddinov O. Vatanni tanitgan adib.—“Sharq yulduzi”, 2002 yil, 2-son, 136-bet.

¹⁶N.Rahimjonov, Q.Ko'bayev.Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi. T.:Adolat, 2005

mehnat bilan suyagi qotdi. Qo`qon pedagogika bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan X.To`xtaboyev ona qishlog`ida muallimlik qilar ekan, unda iimga cheksiz ishtiyoq uyg`onadi. Shuning uchun ham u o`qituvchilikni tashlab, Toshkent davlat dorilfununiga o`qishga kirdi. Bu yerda Alisher Navoiy, Bobur, G`.G`ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor asarlarini sevib o`qidi, o`rgandi.

Universitetni tugatib, Bog`dod tumanida o`qituvchilik qildi. Ilmiy bo`lim mudiri, direktorlik lavozimlarida ishlab, yoshlarni ilm-fan nuriaridan bahramand etish ishlarida faoliyat ko`rsatdi. She`riy mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e`lon qilina boshladi. Bu esa bo`lajak adibni markazga - Toshkentga ijodiy ish bilan jiddiy shug`ullanishga chorlar edi. Shunday ham bo`ldi. U 1958 yilda Toshkentga ko`chib keldi. «Toshkent haqiqati» gazetasiga ishga kirdi. X.To`xtaboyev bolalikdan to`g`ri so`z, halol, pok va mehnatsevar bo`lib o`sdi. Gazetada ishlar ekan, ba`zi popok odamlarni ko`rib, ularning qilmishlarmi hazm qila olmadi. Bunday kishilarmng sir-asrorlarini fosh etishga, el-yurt o`rtasida munofiqlarning yaramas tomonlarini ochib tashlashga qaror qildi. Bu borada unga feleton janri qo`l keldi. 1962 yilda respublikamizning otaxon gazetasi - «O`zbekiston ovozi» ga feletonchi bo`lib ishga o`tdi. Bu yerda 300 dan ziyod feleton yozdi.

«Hadik», «Tilxat», «Ona», «Xarakteristika», «Barvaqt aytilgan azon», «Domlaning uyiga o`t ketdi», «Maxsus topshiriq», «Jonginam, shartingni ayt» kabi kattalar uchun qissa va hikoyalar yozgan X. To`xtaboyev bolalar uchun ham hikoyalar yarata boshladi. Uning «Birinchi daraxtim», «Qochoqlar», «Qizg`anchiq», «Dadajon, yozmang», «Kelvordim, dada», «Vali bilan Salim», «Shoshqaloq», «Yaxshi-yaxshi» singari o`nlab hikoyalari yosh kitobxonlarda katta qiziqish uyg`otdi.

«Kichkina rais» hikoyasining qahramoni kichkintoy o`quvchi bola. Lekin Foziljonning xatti-harakati, intilishi, paxta dalalarini sergaklik bilan kuzatishi, fikr yuritishi raislarga xos.

Foziljonning ona zaminga, odamlarga nisbatan qiziqishi ta`sirli chizilgan. Kimsasiz, g`irt yetim bola o`z qishlog`i, atrofidagi odamlar bilan sevinib, quvonib yashaydi. O`zini ularning bag`rida erkin his etadi.

Xudoyberdi To`xtaboyevda yozuvchilikka ishtiyoq uyg`otgan, qobiliyatning shakllanishida muhim rol o`ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergan narsa hayot, vaqtli matbuot, redaksiyalardagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o`qish, o`rganish, o`z ustida ishlash bo`ldi.

Hayotda turli xarakterdagi odamlar ko`p bo`ladi. Birov yaxshilik qilaman deb yomonlik qilib qo`yganini o`zi ham sezmay qoladi. Birov o`zini jamoat uchun g`oyat foydali odamman deb o`ylaydi, aslida esa zararkunanda bo`lib chiqadi. Yana birov bilar-bilmas har narsaga aralashaveradi, o`rtagatushadi, so`z beradi, lekin baribir men haqman, shunday qilishim kerak deb biladi. Ana shunday kishilargabag`ishlangan «Jonginam, shartingni ayt» qissasi Xudoyberdi To`xtaboevni hajvchi adib sifatida kcng kitobxonlar ommasiga tanishtirdi.

Xudoyberdi To`xtaboyev uzoq yillar feletonchi bo`lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o`rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo`layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan,

sarqit deb atalgan illatlar botqog`igabotgan, molu dunyoga hirs qo`ygan shaxslar haqida birtalay feletonlar yozdi. «Sariq devni minib», «Sariq devning o`limi» nomli asarlari ana shu faktlarniumumlashtirish asosida yuzaga keldi, desak to`g`ri bo`ladi.

Ma`lumki, hajviy qissalarimiz barmoq bilan sanarli edi. «Kalvak maxsum», «Toshpo`lat tajang», «Tirilgan murda», «Shum bola»dan keyin ancha vaqt bu janrda aytarli asar yaratilmadi. Keyingi yfflarda Abdulla Qodiriy va G`afur G`ulomning an`analarini Xudoyberdi To`xtaboyev davom ettirib, bu «bo`shliq»ni to`ldirishga harakat qildi.

O`n to`rt yoshli o`smirga aytadigan gapingizdan albatta, farq qilislii kerak», deb ta⁴ Mdlaydi u. Yozuvchining bolalar va o`smirlarga atab yozgan asarlarining qiziqarli, o`qimishli, jozibali bo`lishining asosiy sabablaridan biri ham shu. Shuning uchun ham Xudoyberdi To`xtaboyevning birinchi yumoristik-sarguzasht qissasi, bolalar hayotidan olingan «Sehrlı qalpoqcha» tez orada bolalar hurmatiga sazovor bo`ldi va uni jamoatchilik juda yaxshi kutib oldi.

Yozuvchining yumorga moyilligi, oddiy vaziyatlardan ham kulgi chiqara olish iste`dodi ilgari asarlariga nisbatan bu asarida yana ham chuqurroq sezildi. «Sariq devni minib» asarini qiziqarli syujet asosiga quradi, asarning hikoyachisi — bayonchisi qilib undagi barcha voqealarning ishtirokchisi, guvohi bo`lmish Hoshimjonni qo`yadi, tilga olinadigan voqealar uning tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi Hoshimjonning hikoyasi orqali uning hayot yo`li sarguzashtlarini, o`ziga xos xarakteri va psixologiyasini atroflicha ochib beradi. Shuningdek, Hoshimjon xarakterida Xo`ja Nasriddinning va xalq ertaklaridagi «tegirmonga tushsa butun chiqadigan» zukko bolalarning fazilatları yaqqol mujassamlashganligini ko`ramiz.

«Sariq devni minib» da o`qish, ilm cho`qqilarini egallash uchun va insonning o`z orzusi, ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan zamonamizda yashashiga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotda yengil-elpi yashashga yo`l axtargan va adashgan bolalar — hoshimjonlar kulgi ostiga olinadi:

Hoshimjon dehqon oilasidan chiqqan, sho`xligi olamni buzadigan bir bola. U hayotdagi ko`p narsaga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz oson yo`l bilan erishgisi keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsaga erisha olishi, katta obro` orttirishi mumkin, deb o`ylyadi. O`z fikrida qat`iy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergan ertakdagi sehrlı qalpoqchani izlashga tushadi, uzoq izlanishlardan keyin istagan ishini hech qanday mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrlı qalpoqchani tashlandiq molxonadan topib oladi. Endi u o`zini orzulariga batamom erishadiganday his etadi, «Ortiqcha» fanlami dars jadvalidan chiqarishni rad etgan direktor, har xil vazifalar berib «miyasini qotiradigan» o`qituvchilariga o`qimasdan ham har qanday kasb egasi, mashhur odam bo`la olish, ko`krak to`la nishonlar bilan shon-shuhratlar, katta obro`ga ega bo`iish mumkinligini ko`rsatib qo`ymoqchi bo`ladi va shu maqsadda sehrlı qalpoqcha bilan safarga chiqadi. Shunday qiiib uning sarguzashtları boshlanadi.

Ming afsuski, sehrlı qalpoqcha bu borada Hoshimjonga ko`mak berolmaydi. Sehrlı qalpoqcha muhayyo etgan imkoniyatlar har safar kutilmagan ko`ngilsiz

oqibatlarga olib kelaveradi. Hoshimjonning baxti endi kulay deb turganda ishning pachavasi chiqib qolaveradi. U davlat xo'jaligida agronom bo'lib ham, «shoirlik qilib» ham, qurilishda muhandislik qilib ham, qo'g'irchoq teartida artistlik qilib ham ko'radi, mashhur sayohatchi sifatida butun dunyoni kezmoqchi ham bo'ladi. Lekin hamma yerda ilmining, tajribasining yo'qligi ishning pachavasini chiqaraveradi. Hoshimjon qaerga bormasin, qanday ish qilmasin pirovardida sharmanda-yu sharmisor bo'ladi. Uning agronomlik va muhandislik «faoliyati» jinoyatga olib keladi, qamalishiga sal qoladi, shoir bo'laman deb rasvo bo'ladi, «ulug' artist» teatrdan quviladi.

Qissada Hoshimjon o'z sayohati davomida qanchadan-qancha ajoyibotlarning guvohi bo'lib, qiziq, kulgili sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U o'qimay, mehnat qihnay, o'z ustida ishlamay juda ko'p narsalarga erishmoqchi bo'ladi, lekin u hech narsaga erisha olmaydi. Chunk! unga ilmsizligi pand beradi.

Yozuvchi Hoshimjon obrazini butun qirralari bilan ochishga uringan. Boialarga xos o'yinqaroqlik ham, soddaligu beg'uborlik ham, g'ururlilik, to'g'ri so'zlik, shumlik bir oz maqtanchoqlik, hatto o'rnida yolg'onni ham do'ndirib yuboradigan, o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatishga intilish odatlari, boialarga taqlidchilik, dovyurak, epchil va rahiy tetiklik, xafachilik va mhiy tushkurdikdan yiroqlik ham Hoshimjon xarakteriga xos xususiyatdir.

Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devning o'limi» sarguzasht romani uch qism («O'rtoq polkovnik», «Sariq devni quvib», «Sariq devning o'limi yoki olam guliston bo'lgani»)dan iborat. Bu roman asosida ham Hoshimjon sarguzashtlari yotadi. Kitobni o'qib uning yangi sarguzashtlaridan xabardor bo'lasiz, sehrlil qalpoqcha yana madadga keladi, ajoyib-g'aroyib karomatlar ko'rsatadi. U Hoshimjonga jiddiy masalalarda — o'g'ri, muttaha, tekinxo'rlarni fosh etishda yordam beradi.

Endilikda Hoshimjon aynan avvalgi o'yinqaroq Hoshimjon emas, balki to'qqiz yillik maktabni bitirib, ulg'ayib, birmuncha quyulib, esi kirib, oq-qorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o'z hayoti, taqdiri, jamiyatga foyda yetkazadigan odam bo'lib yetishi haqida jiddiy o'ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshida sartarosh bo'ladi. «Bilasizku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmaguncha qo'ymaydigan odatim bor. Jonirni qiynab bo'lsa ham maqsadimga erishaman», deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog'laydi. Keyin milisiya maktabiga kirib o'qib, uni bitirgandan so'ng milisionerlikka ishga o'tadi. Kitobdagi barcha voqea-hodisalar, sarguzashtlar Hoshimjonning ana shu milisionerlik nuqtasidan boshlanadi, hamma gap-so'zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog'liq holda davom etadi.

Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida milisiya polkovnigi Salimion, uning madadkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battolgavdalanadi. Ular o'rtasida tinimsiz shiddatli kurash ketadi. Odil nihoyatda makkor, u Salimjon boshiga juda ko'p og'ir savdolar solgan, uyiga o't qo'ygan, uning yakka-yu yolg'iz farzandining qo'lga to'pponcha tutqazgan, jinoyaiga yetaklagan. Asar pirovardida butun umri davomida xalqqa, yaxshi odamlarga zarar yetkazish bilan shug'ullangan

Odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag'lubiyatga uchraydi, haqiqat, adolat, ezgulik g'olib chiqadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev o'z romanida yulg'ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo'lib birlashsa, bu ishni butunlay o'z qo'lga olsa, Odil battollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

«Sariq devni minib» qissasi, «Sariq devning o'limi» romanining eng yaxshi fazilatlaridan bin tffining shiradorligi va o'ynoqiligidadir. Muallif bosh qahramon Hoshimjonning tilini alohida e'tibor bilan ishlagan. Bu til nozik qochirimlarga boyligi va jonliligi, shu bilan birga bolalar tiliga mos holda soddaligi bilan ajralib turadi. Qahramonning xarakteri uning so'zlaridan shundoqqina bilinib turadi.

Fantastik-sarguzasht janri bolalar adabiyotining eng qiziqarli janrlaridan biridir. Bunday asarlar bolalarning ongi va psixologiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni o'qishga, o'rganishga, izlanishga o'rgatadi, jamiyatimizning faol quruvchilarini tarbiyalashga yordam beradi.

«Qasoskorning oltinboshi» romani markazida bosh qahramon — tarixiy shaxs, xalq qasoskori Namoz taqdiri yotadi. «Qasoskorning oltin boshi» tarixiy-biografik roman emas, shuning uchun ham muallif Namozning hayotini batafsil yoritib berishni maqsad qilib olgan emas. Lekin adib o'rni-o'mi bilan uning hayotiga doir ma'lumotlar berib borgan. Bu ma'lumotlar uning xarakterini tushunib olishda kitobxonga yordam beradi.

Namoz faqat jismonan emas, aqlan ham yetuk. U haqiqat uchun qasoskoi, qo'rqmas, tadbirkor, ochiq ko'ngil qahramon sifatida g'aydalantirilgan. U **atroflga** o'zi kabi dovyurak yigitlarni to'plab, zulmkorlarga qarshi kurashga undaydi.

Halolligi, mardligi, adolatliligi, yetimparvarligi uchun xalq **Namozni** yaxshi ko'radi va uni Go'ro'g'liga qiyos qiladi. «Go'ro'g'libek Namozboy qiyofasida paydo bo'lgan emish. Afsun o'qisa ko'zdan g'oyib bo'lib qolarmish, Undan o'q o'tmas emish, qilich chopmas emish...»

Namozning mardligi, jasorati xalq qalbida mangu yashab kelayotganligi «Qasoskorning oltin boshi» da yaxshi chizib berilgan.

Talantli bolalar adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sir ochildi», «Акйuka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jn qissa», «Besh bolali yigitcha», «Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarili jangi», «Mungli ko'zlar», «Jarmati odamlar» kabi yirik asarlarining **yuzij** I kelishi o'zbek bolalar adabiyotining yutug'i hisoblanadi. U bolalar iieliu yanada o'qimishli asarlar yaratish maqsadida tinimsiz izlanmoqda.

12-mavzu. Safar Barnoyev bolalar shoiri va nosiri

Reja:

1. Safar Barnoyev o'zbek bolalar adabiyotining yorqin namoyandasi.
2. Bolalarga bag'ishlangan she'rlarning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Safar Barnoyev hikoyalarining g'oyaviy-badiiy mundarijasi.

Safar Barnoev o'zbek bolalar adabiyotining Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Q'uddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Hakim Nazir, Mirkarim Osim, Q'udrat

Hikmat va Po'lat Mo'min singari namoyandalari, shuningdek, jahon xalqlari bolalar adabiyotlarining zabardast vakillari ijodlarini q'unt bilan o'rgandi, xususan, xalq ijodiyotiga, bolalar folkloriga hayratlanib nazar soldi. Biroq Buxoroyi sharifning saodatmand farzandi bo'lib bolalar shoiri sifatida teranroq mahobat kasb etdi. U huddi shu nuq'tada iste'dodini ikki ulkan vatandoshi, o'zbek va tojik bolalar adabiyotlarining betakror namoyandalari Sulton Jo'ra va Gulchehra Sulaymonovalarning q'onuniy vorisi sifatida shakllantirganday tuyuladi.

Gap shundaki, Sulton Jo'ra ikkinchi jahon urushida bevosita q'atnashib, uning bolalar q'ismatiga ko'rsatgan fojeali ta'sirini ifodalab, o'zbek bolalar she'riyatida shu mavzuni yuksak sa'natkorlik bilan ifodalagan "Sog'inib", "Sog'inchli salom" singari go'zal epistolyar she'rlar yaratib q'oldirgan sa'natkor edi. U jangchi sifatida vakillikka ishtirok etgan edi, shu sababli urush dahshatini o'z tanasida sinab ifodalagan edi. Safar Barnoyev bola sifatida urushning barcha kulfatlarini ko'rdi, otasini yulib olib uni yetim q'ildi urush, o'zga xonadonlarga q'ora xatlar kelganida ko'kka o'rlagan faryodlarni eshitib o'shandagi iztirobli yig'ilardan q'albi ozurda bo'lib,

Iztirobli yig'idan
Uyg'ondi tor ko'chamiz
Q'ora hatday q'orayib
Ketdi bizning kechamiz,-

deya o'sha ma'shum kunlarga nazar sola olgandi u.

Shundan kelib chiq'ib ayta mumkinki, urush mavzusida Sulton Jo'ra tugagan joyda urush haq'idagi bolalik xotirasi bilan Safar Barnoyev bo'y ko'rsata boshladi. Urush uning q'albida bitmas- tunganmas alam va jarohat q'oldirgan. She'rlarida shu alam laxta-laxta dardga aylangan, nasrida urush majruh q'ilgan bolalikning umid to'la jovdiroq ko'zlardagi hasrat tosh q'otib kelgan. Mashhur "Non" hikoyasini olasizmi, "Nur yog'ilgan kun" yoki, "Oq' laylaklar" q'issalarini olasizmi, qolaversa, afg'on bolalari turmushiga bag'ishlangan hikoyalarini olasizmi, bari-barida urush xotiroti asosida bolalik q'ismatiga nazar solinadi. Hatto bir q'ator publitsistik maq'olalarida ham shu ruhni payq'ash q'iyin emas.

Safar Barnoev va Gulchehra Sulaymonovalar she'riyatidagi hamohanglik Buxoroyi sharif farzandi ekanliklarida. Bu hol ularning poetik tafakkuri va ifoda uslubida buxorocha fikrlashga o'xshagan yaq'inlikda sezilib turadi. Aytaylik Tursunboy Adashboevning q'aysi she'rini o'q'imang, q'irg'iz dalasining epkini esib turganday, undagi giyohlarning muattar hididan, Arslonbobning shifobaxsh havosidan mast bo'lganingizni sezmay q'olasiz. Miraziz A'zam she'riyati lirik q'ahramonida q'andaydir bilag'onlik mayli payq'alsa, Anvar Obidjon asarlarida chust do'ppini boshida yakshoxa q'o'ndirib olgan oltiariq'liklar q'ahq'ahasidan ko'nglingiz yayrab ketadi.

Safar Barnoev asarlarida esa nainki moziy bilan bo'y o'lchashgan Buxoroyi sharifning bolalarga xos tasavvuridagi suvratini ko'rasiz, balki jahon ahlini lol q'oldirayotgan shu osori-atiq'alarni bunyod etganlarning zakovatidan hayratlanasiz, ota-bobolariga izdoshlik q'ilayotgan buhorolik bolakaylarning

beg`ubor entikishlari-yu, o`rni kelganda o`zlarini sodda mug`ombirlikka solib mushfiq`iyona loflaridan yayrab-toshib kulasiz:

Bilasizmi, dadam meni erkatoym dedilar,
Yozda bayram bo`lganida toychoq` olib berdilar.
Bilasizmi, oyim meni yurardilar o`ynatib,
Tili shirin o`g`lim deya, yurardilar so`ylatib.
Bilasizmi, bilasizmi, bilmaysiz-da, endi siz,
Agar aytсам gaplarimga kulasiz-da, endi siz.
Oyim mitti chaq`aloq`ni kecha olib keldilar,
O`rab-chirmab “Buni senga olib keldim”-dedilar,
Chaq`aloq`q`a yaq`inlashsam, ehtiyot bo`l,- dedilar.
Ehtiyot bo`l, ehtiyot bo`l, tekkizma q`o`l, dedilar
Mittigina chaq`alog`u yig`lashini q`o`ymaydi,
Oyim bo`lsa, doim deydi;- Q`orni sira to`ymaydi.
Nega q`orni to`ymas ekan, mittigina bo`lsa u,
Nega keldi shu yig`loq`i, dadamda ham yo`q` uyq`u.
Qo`ldan-qo`lga olib uni ko`tarishib yurishar.
Meni emas, chaq`aloq`ni endi yaxshi ko`rishar.

Sezmayapsizmi, bolakay q`adr tuyg`usini q`ay darajada tuymoqla? O`z o`rnini egallayotgan ukajonidan kuyayotganini yopish uchun “yig`lashni qo`ymayotganidan, dadasi uxlayolmayotganligi”ni vaj ko`rsatib, o`z xaqq`iq`atini himoya q`ilayotir. Fe`lida yilt etgan shu q`arama-q`arshi mayllar asosida zuvalasi bichilayotir. Bolaning shakllanishidan iborat murakkab jarayon bor bo`yicha shunday ko`rinib turibdi.

Safar Barnoyev “Mening tarjimai holim” she`rida q`uyidagi satrlarni bitgan:

Q`aysi kun,
Qaysi yilda tug`ilganimni,
Taxminan
Bitib bergan sho`ro kotibi,
Necha bor daraxtdan yiq`ilganimni
Hamon aytib yurar qo`shnimiz xotini.
Tut pishig`ida tug`ilgansan deb,
Onam aytganlar,
Pishiq`chilikda...

O`shandan beri hozirgacha etmish tut pishig`i bo`lib o`tdi. Safar Barnoev esa o`shal hayot daraxtiga chirmashib, uning har tarafga tarvaq`aylab ketgan shoxalaridan sarxil tutlarni termogga intilib o`sdi. Bu orada o`sha tutlarning g`o`rasini ham, pishig`ini ham tatib ko`rishga ulgurdi. Biroq har qanaqa vaziyatda ham tamshana-tamshana hayot sururini tuymoqdan lazzat topdi. Shu zaylda do`stiga aylangan qalam dilidagi borini qog`ozda muhrlab bordi, natijada “Tog`lardaman”(1970), “Yoshlik sururi” (1972), “Dadamning qo`llari” (1971), “Sog`inch” (1975), “Yulduzxon va Bahorjon” (1977), “Dadam haqida qo`shiq`” (1989), “Sayroq`i bedanalar” (2007), “Nilufarning olmalari”(1986), shuningdek,

“Birinchi tabassum” (1972), “Oq` laylaklar” (1982), “Chehralar” (1983), “Egizaklar” (1985), “Tinchlikni ulug`laymiz”(1985), “Mukofot” (1985), “Karimjon-Karlson” (1988), “Kichkina xo`ja Nasriddin”(1998) singari yigirmaga yaq`in she`riy va nasriy kitoblarini bitib, o`zbek bolalar she`riyati va nasrini goho hazin, goho quvnoq` ruhiyatga sug`orilgan she`rlaru, hayajonbaxsh adabiy ertaklar, xilma-xil mavzulardagi hikoyalari, q`issalari bilan boyitdi. U istiqlol tufayli mamlakatimizda bolalikka munosabatning tubdan qayta qurilayotganiga teranroq razm sola boshladi. Bu hol uning ijodida bolalik muammolaridan bahs etuvchi publitsistikaning faollashuviga yo`l ochdi. Natijada uning davr ruhiyatiga sug`orilgan qator dolzarb publitsistik maq`ola va ocherklari yuzaga keldiki, bular XX asrning so`nggi choragidagi o`zbek bolalar publitsistikasi qiyofasini belgilashda ahamiyat kasb etadi.

13-mavzu. Miraziz A`zam she`riyatining falsafiy-badiiy xususiyati.

Reja:

- 1.Miraziz A`zamning bolalar adabiyotiga qo`shgan hissasi.
- 2.M.A`zam she`rlarining janriy tarkibi

Miraziz A`zam o`zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga barakali hissa qo`shgan shoirlardan biridir. U ham bolalar, ham kattalar shoiri, ayni chog`da publitsist, etuk tarjimon hamdir. Shoir 1936 yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Maktabda o`qib yurgan kezlari dayoq she`riyatga qiziqqan. She`riy mashqlarini taniqli bolalar shoiri Quddus Muhammadiy va keyinchalik Quadrat Hikmat boshchilik qilgan adabiy to`garakda sinovdan o`tkazar, ijodiy izlanish, o`qish va o`rganishni qizg`in davom ettirar edi. Adabiyot va she`riyatga bo`lgan chanqoqlik uni ToshDUga etakladi. Adabiy mashklari bolalar va o`quvchilar gazetalari, “Gulxan”, “G`uncha” jurnallarida bosila boshladi.

Toshkent Davlat universitetini muvaffaqiyatli tugatgach, Toshkent telestudiyasida, «G`uncha» bolalar jurnalida, so`ngra «Yosh gvardiya», G`afur G`ulom nashriyotlarida muharrir bo`lib ishlagan. Ko`p yillar O`zbekiston Yozuvchilari uyushmasida maslahatchi, boshqaruv kotibi vazifasini bajargan.

Miraziz A`zam ijodi talabalik yillarida yanada kuchaydi. Uning birinchi she`ri 1960 yilda «G`alati tush» nomi bilan chop bo`lgan. Keyinchalik u 1972 yilda alohida kitob holida bolalarga sovg`a qilingan. Uning birinchi she`riy to`plami «Metallurg» (1964) nomi bilan chop bo`lgan. Shundan so`ng shoirning bolalar uchun «Aqlli bolalar» (1969, doston), «Senga nima bo`ldi» (1970), «Er aylanadi» (1973), «Erga dovrug` solamiz» (1970), «Bir cho`ntak yong`oq» (1990, saylanma) kabi bir qator ajoyib she`riy to`plamlari bosilib chiqdi. Ularda shoir bolalarning qalbi va tuyg`ulari tasviri orqali olamni, odamni bilishga, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga, halol va pokiza mehnatni ulug`lashga intiladi.

Miraziz A`zam kattalar uchun ham bir qator salmoqli she`riy guldastalar yaratgan. Jumladan, «Sevaman» (1977), «Tuyg`ular» (1980), «Sabot» (1983) kabi to`plamlaridagi ko`pchilik she`rlar o`zining hayotiyiligi va jozibaliligi bilan o`quvchi qalbini zabt etgan. Shoir ana shu she`riy to`plamlaridagi eng yaxshi

she`rlarini va yangi yozilgan asarlari sarasini o`zining «Haqiqatning ko`zlari» (1988) saylanmasiga jamlab, talabchan o`quvchisiga havola qilgan.

Miraziz A`zam haroratli, shijoatli publitsist hamdir. Uning madaniy-adabiy merosni ko`z qorachig`idek asrashga da`vat etuvchi bir qator tarixiy-adabiy maqolalari mavjud.

Miraziz A`zam mohir tarjimon, adabiyot va madaniyatning hormas targ`ibotchisi ham. Uning turk, rus, nemis adiblaridan qilgan, ayniqsa, islom madaniyatiga oid tarjimalari ko`pchilik mutaxassis va oddiy o`quvchilar ixlosini orttirdi. Ayniqsa, Miraziz A`zam dunyo bolalar adabiyoti vakillaridan yuzga yaqin muallif asarlari, chunonchi, Korney Chukovskiy, Edvard, Lir, Uolter De la Mer, Janni Rodari, Jak Prever, Jeyms Kryus, Yulian Tuvim, Iskandar al-Huriy, Tavfiq Fikrat, Ali Oqboosh, Mustafo Ruhiy Shirin, Mustafo Rahmondo`st, Dzyun Takami va boshqalarning asarlarini tarjima qilgan. Kattalar adabiyoti vakillaridan Pushkin, Mayakovskiy, Esenin, Axmatova, Jak Prever, Kvazimodo, Mehmet Okif Erso`y, Najib Fozil, Shahriyor, O`rxon Pomuq kabi oltmishga yaqin mualliflarning nasriy va she`riy asarlarini ham o`zbekchaga o`giran.

Shuningdek, u o`ttizdan ortiq turk adiblarining hikoya, she`r, roman, doston va risolalarini tarjima qilib, Turkiya adabiy jamoatchiligining alohida e`tirofiga sazovor bo`lgan. 1993 yil dekabrda Turkiya yozuvchilari Birligi uni O`zbekistondagi o`zining tamsilchisi etib tayinladi.

M.A`zamning o`z she`riy asarlari rus, ukrain, turkman, mo`g`ul, koreys, turk va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Ma`lumki, o`tgan asrning 80-yillarida adabiyotshunoslikda “eksperemental she`riyat” atamasi paydo bo`lgandi. Bu yo`nalishda ijod qilgan shoirlar o`y-fikrlari, shaxsiyati bilan boshqa shoirlardan keskin farqlanib turishardi. Rauf Parfi, Miraziz A`zam, Tilak Jo`ra kabi shoirlar aynan shunday yo`nalishda ijod qilishlari bilan e`tibor qozongan edilar.

Ma`lumki, XX asr nihoyasida “eksperemental she`riyat” atamasi o`rnida “modern she`riyat” atamasi paydo bo`ldi. Adabiy tanqidchilar bu atamaga jiddiy nigoh tashlab qolishdi. Kimlardir uni maqtasa, kimlardir erga urdi. Kimlardir hatto unga munosabat bildirishni ham xohlamadi. Ammo hech kim bunda yuqorida nomi tilga olingan “eksperementchilar”ni o`z maqolalarida eslamadi ham. Holbuki, hozirgi o`zbek modern she`riyati aslida ana shu “eksperementchilar”ning ijodidan oziqlanib voyaga etgandi.

Miraziz A`zamning o`zi modern she`riyat haqida shunday yozadi: “Hozir modernchilar bor, ular she`riyatda o`zlarini namoyon etayotirlar. Men birontaoqim, bironta yo`nalishga qarshi emasman. Modern yo postmodernchilar dunyoning hamma iqlimlarida katta ishlar qilib, jamiyat hayotida chuqur izlar qoldirayotir. Bundan ko`z yumish mumkin emas. Faqat hamma gap shundaki, ularning qalbini yondirayotgan narsa nima, chindan yondirayotirmi – shunisi aniq bo`lishi kerak. O`tgan asr rus adabiyotidagi oqimlar, futurizm Mayakovskiyni, imajinizm Eseninni, akmeizm Axmatovani jahon she`r xazinasiga berganini unutib bo`ladimi? Syurrealizm, kubizm, dadaizm, naturalizm buyuk shaxslarini bermadimi? Men o`zim realizm va romantizmni yaxshi ko`raman.

Ammomodernistlar realistlarning o`n varaqlik tasvirini bitta ta`sirchan jumlada yo bitta metaforada beraolishlari mening zavqlarimga juda yaqin. Faqat menga har qanday shoir xalq dardi bilan og`rishi kerakday ko`rinadi. To`g`ri, madh shoirlari ham bor, ular hayotdagi yangi o`zgarishlardan zavqlanadilar va madhiya va qasidalar bitadilar. Aslida bu ham kerak, lekin madh va qasida samimiy bo`lmog`i kerak”.

Shoir shu fikrlarni bayon etganidan keyin XIII asrda yashagan Qatron ismli qasidalar ustasi bo`lgan shoir xususida to`xtaladi. O`sha davr podshohi uning qasidalari uchun juda katta maosh belgilagan ekan, ammo Qatron shu qaror e`lon qilingan kuni ertasiyoq yo`qolib qolibdi. Amaldorlar uni ko`p axtaribdilar, faqat oradan bir necha yil o`tgandan keyingina topibdilar. Undan ketib qolish sabablarini so`rganlarida:

– Podshohim meni manfaat uchun buni yozgan, deb o`yladilar, men yurtimizdagi katta o`zgarishlarni she`r uchun, o`zim uchun madh etganman. Mengaalohida ehtirom ko`rsatish boshqa shoirlar ichida meni uyaltiradi, – degan ekan.

Shu rivoyat mazmunidan kelib chiqib, Miraziz A`zam yozadi: “Yaltoqlik, munofiqlik, mushriklikni adabiyot yo`lidagi to`siqlar deb bilaman. Yaltoqlik, laganbardorlikning zararlari ko`pchilikkaayon. Munofiqlik esa so`zda turmaslik, omonatgaxiyonat illatlaridir. Bizda bu faqat shaxsiy kamchilik emas, bizda, nazarimda, munofiqlik illati ko`p...”.

Miraziz A`zam yana bir taniqli ijodkor Qutlibeka Rahimboevaning umr yo`ldoshidir. Shoir o`z oilasi haqida shunday deydi: “...Mening oilamga kelsak, xotinim Qutlibeka Rahimboeva shoira, qaerdaki she`riy turkumi bosilgan bo`lsa, o`sha gazeta va jurnalning yillik mukofotiga sazovor bo`lgan, hatto ruscha tarjimasi chiqqanda, “Molodost” jurnali ham shunday mukofot bergan, “SHuhrat” medali sovrindori, O`zbekistondaxizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi. Hozir dramaturgiya va nasrda ham faol ijod qilib kelmoqda. To`rt o`g`lim va bir qizim bor. Biri bevaqt vafot etdi. Ikkinchisi Mirvosil kichikligidan yaxshi hikoyalar yozib keladi, hikoyalari “Gulxan”, “Yosh kuch”, “Guliston” jurnallarida, ayrimlari bayozlarda, “Ma`rifat” va boshqa bolalar gazetalarida bosilgan. Amerika yozuvchisi Reks Stautning bir romanini tarjima qildi va u “Jahon adabiyoti” jurnalida e`lon qilindi. Uchinchi o`g`lim Mirahmad va kenja o`g`lim Najot tijorat yo`lidan ketishdi. Qizimiz Orzu – Kamoliddin Behzod nomidagi Tasviriy san`at va dizayn institutini bitirib “Jannat-makon” jurnalida muharrir bo`lib ishlamoqda.

Shoir hozir hayot bo`lib, qaynoq ijod bilan mashg`uldir. Shoir ijodi gullagan, sermahsul, serfayz bo`lishiga ishonsa bo`ladi. Chunki 1996 yildan buyon mehnat nafaqasida bo`lgan Miraziz A`zam hali ham qizg`in ijod bilan band. Yaqin yillarda u dastlab sochilib yotgan yozishmalarini jamlab nashrga tayyorladi. “Kuzgi yaproqlar” nomli devonini e`lon qildi. Farididdin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumi va Abdurahmon Jomiydan qilgan tarjimalarini bir kitob holidagi G`afur G`ulom nomidagi Nashriyot-matbaa Ijodiy Uyi tomonidan bosmadan chiqardi.

Shoir umri davomida Rossiya, Ozarbayjon, Moldova, Tatariston, Qibris, Turkiya, Makedoniya va Afg'oniston singari juda ko'p mamlakatlarda bo'ldi va anashu safarlari haqida "Yo'llar va esdaliklar" nomli safarnomasini yozdi. Zamondosh ustozlari, o'qituvchilari, safdoshlari haqidagi (G'afur G'ulom, Oybek, Shayxzoda, Mirkarim Osim, Ozod Sharafiddinov, Ma'ruf Jalil, Rauf Parfi) xotiralarini ham bir kitob holiga solishni rejalashtirgan. Undan tashqari "Dunyo bolalar adabiyoti" degan antologiya ham tuzgan.

Miraziz A'zam 1998 yili "Eng aziz, eng ulug'" tanlovining g'olibi bo'lgan. 2007 yilning noyabr oyida u Makedoniyaning Uskup (Skople) shahrida "Turkchanning uluslarorasi she'r sho'lani" (Xalqaro turkiy she'r festivali)da Jaloliddin Rumi nomidagi Katta mukofot bilan taqdirlandi.

Miraziz A'zam ijodida bolalar uchun yozgan asarlari salmoqli o'rin tutadi. Jumladan, uning "Aqlli bolalar" (1969), "Senga nima bo'ldi" (1970), "G'alati tush" (1972), "Er aylanadi" (1973), "Erga dovuq solamiz" (1976), "Bir cho'ntak yong'oq" (1990), "Qirq bolaga qirq savol" (2000) kabi qator she'riy to'plamlari, 2003 yilda "Eng yorug' yulduzlar" nomli maktab sahnasiga mo'ljallangan pesalar, tarixiy hikoyachalar, maqolalar to'plami nashr etildi. 2005 yilda uning bolalarga yozgan asarlari "Saylanma" holida nashr etildi.

2007 yilda Miraziz A'zamning kattalarga atalgan asarlari jamlangan "Saylanma"si chop etildi. 2004 yili "Imon" nomli olti qismli kinoqissasi "O'zbektelefilm" studiyasida suratga olindi.

Xullas, hozirgi zamon o'zbek bolalar she'riyatida shoir Miraziz A'zamning o'z o'rnini bor. Bu, albatta, uning izlanishi, mehnatkashligi, bolalarni va ularning adabiyotini qattiq sevishidan. Milliy she'riyatimizda keskin o'zgarishlar yasagan modern she'riyatning ilk boshlovchilaridan biri bo'lgan Miraziz A'zam mehnati o'z bahosini topmog'i lozim.

Miraziz A'zam yaratgan asarlar: she'rlar, dostonlar, hikoyalar va publitsistik maqolalar bolalar adabiyoti xazinasini boyitdi. Shoir bolalar uchun turli janrlarda ijod qildi. Ayniqsa, uning ijodida doston (poema), ertak kabi yirik hajmli asarlar ham alohida o'rin tutadi. Chunki shoir bolalarning ertak janriga katta qiziqish bilan qarashini yaxshi bilgani uchun ularga atab juda ko'p adabiy ertaklar yozdi.

Ma'lumki, buyuk so'z ustalaridan tortib, adabiyotga tetapoya kirib kelayotgan yosh adibgacha o'z asarlarining mavzusi va g'oyasi, syujeti va obrazlari, kompozitsion tuzilishi va badiiy tilini ishlashda xalq og'zaki ijodi, jumladan, xalq ertaklaridan ijodiy oziqlanishgan. Xuddi boshqa bolalar shoir va yozuvchilari qatori Miraziz Ahzam ham xalq ertaklarining syujeti va kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, ijodiy uslubi va badiiy vositalaridan bahramand bo'lib, bir necha she'riy ko'rinishdagi adabiy ertaklar yaratgan. Shu yo'l bilan u o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan voqealarni ertaklardagi kabi romantik uslubda bayon qilish, obrazlarni esa mubolag'ali tasvirlashga erishgan. Shoir xalqning ertakchilik tajribalariga murojaat etar ekan, avvalo, o'z asarlarining g'oyaviy-badiiy va mavzuiy jihatdan barkamol, qiziqarli bo'lishiga ham erishishni ko'zda tutgan.

Aytish mumkinki, o'zbek adabiyoti va uning ajralmas bir qismi bo'lgan o'zbek bolalar adabiyoti unga ta'sir ko'rsatgan boshqa omillar bilan bir qatorda

xalq og`zaki poetik ijodining samarali ta`siri tufayli shakllandi. U o`zining rivoji jarayonida ijobiy obraz yaratish sohasida ham, badiiy shakl yaratish jihatdan ham folklor asarlarining faol ta`sirida bo`ldi. Shakllanish jarayonida qo`llanilgan usullar yangi mazmun, syujet, motivlar, obrazlar asosiga keyingi davrlarda davr ruhiga mos ravishda yanada boyidi, mustaxkamlandi, rivoj topdi.

Yozuvchi yoki shoirlar o`z asarlarida folklor asarlari (jumladan, xalq ertaklari) syujetini poetik tarzda, ya`ni qanday bo`lsa shunday qayta bayon qilish yo`li bilan yaratmadilar, balki bir necha folklor asari syujetidan, an`anasidan ijodiy foydalanib, yangi shakl va mazmundagi asarlar yaratdilar. Bu asarlarda folklor an`analarining ruhi sezilib tursa-da, uni qayta yaratgan yozuvchi yoki shoirning individual uslubi, o`ziga xos mahorati bilinib turishi bilan e`tiborni tortadi. Mazkur ijodkorlarning asarlarida folklorning faol ta`sirini ham shakl jihatdan, ham mazmunda anglash mumkin.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, bu hol Miraziz A`zam ijodida ham yaqqol ko`zga tashlanib turadi. Ertak Miraziz A`zamning eng sevimli janrlaridan biri edi. U o`zi yaratgan asarlarning xalqchil bo`lishi uchun ertaklardan mahorat bilan foydalandi. Shoirning barcha ertaklarida yaxshilik yomonlikka, soddalik ayyorlikka, olijanoblik yovuzlikka, go`zallik xunuklikka qarshi qo`yiladi. Insonga mehru muhabbat ulug`lanadi.

Ertak yaratishda Miraziz A`zam xalq badiiy an`analariga sodiq qoladi. Ertak qahramoni fahm-farosat, aql bilan ish ko`rib, o`z murod-maqсадiga etadi, baxtiyor bo`ladi. Miraziz A`zamning barcha personajlari pishiq-puxtaligi bilan ajralib turadilar.

Nomi xalqqa taniqli adabiy ertakchi Miraziz A`zam she`riy adabiy ertaklarning go`zal va betakror namunalarini yaratdi. Shoirning xalq og`zaki ijodi asosida yaratgan ertaklari dillardan-dillarga o`tib yuribdi. O`z adabiy ertaklari bilan adib bolalar adabiyoti xazinasini boyitdi.

Mohir so`z ustasi bolalar uchun ixcham, ammo ma`no va mazmun jihatidan etuk asarlar yaratib berdi. Uning bolalarga bag`ishlangan ajoyib-g`aroyib ertaklari o`zbek bolalarining sevimli asarlariga aylangan. Miraziz A`zam, xususan, bolalarga bag`ishlab yaratgan ertaklari bilan she`riy adabiy ertak janrining taraqqiyotiga barakali hissa qo`shdi.

Zamon muammolarini ertak libosida ifodalashda Miraziz A`zam alohida rag`bat va g`ayrat ko`rsatdi. U ijodiy imkoniyatlarini shu janrda sinab ko`rar ekan, butun mahoratini ishga sola olgani uchun bolalarning sevimli ertakchi shoirlaridan biri sifatida tanildi.

Ertak janrining kompozitsion qulayliklari – ommaviyligi bolalarga atab yoziladigan asarlar uchun g`oyat muvofiqdir. Bolalar adiblari bu haqiqatni chuqurroq anglay borganlari sari ko`proq ijodiy kamolotga erishayotirlar. Ular xalq syujetlariga monand syujetlar o`ylab topa boshladilar. Bunday to`qima adabiy syujetlar ko`pincha hayot voqeligini doimiy kuzatish va undan oziqlanishning, shuningdek, biror maqol va matalning mazmunini voqeaband tafsilot vositasida kichkintoylarga etkazish niyatining natijasi bo`lib tug`iladi.

Miraziz A`zam ertaklari aksaran maishiy mazmunda bo`lib, xilma-xil mavzularni ifoda etadi. Uning ertaklari syujeti qiziqarliligi, uydirmalarga boyligi, sarguzashtlarga to`laligi bilan diqqatni tez jalb qiladi. Va albatta, o`z nihoyasida ezgulikning yovuzlik, oydinlikning qorong`ulik, haqiqatning nohaqlik, hayotning o`lim, aqllilikning nodonlik, adolatning jaholat va to`g`rilikning egrilik ustidan g`alaba qozonishini tarannum etadi.

She`riy adabiy ertak janrida samarali izlangan taniqli o`zbek bolalar shoiri Miraziz A`zam, uning yangidan-yangi badiiy qirralarini kashf etishga muyassar bo`ldi. Shoir adabiy ertaklarining nafaqat syujet qurilishida, balki obrazlar xatti-harakatlarida, nutqida, xilma-xil ifodaviy vositalarda ertaklarga xos fantastik unsurlar, tasviriy vositalar etakchi tamoyilga aylangan.

Miraziz A`zam bolalar uchun xilma-xil mavzulardagi mushohadali ertaklar yaratar ekan, ularda ertakka xos shaklgagina emas, balki til va ichki ifoda usullariga amal qilib, zamon dardlari bilan kichkintoylarni oshno qilishga harakat qildi. Shoir ertaklari bolalarga ezgulikni yovuzlikdan, bag`rikenglikni xudbinlikdan, mehnatsevarlikni yolqovlikdan, muloyimlikni qo`pollikdan, donolikni jaholatdan va nihoyat, bugunni o`tmishdan farq qila bilish sabog`ini bera oladi. Ularda Vatan va xalqqa, bilim va kasbu korga muhabbat tuyg`usi o`z badiiy ifodasini topgan.

Shoir ertaklari badiiy qurilishining ixchamligi, soddaligi va yaxlitligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ulardagi har bir tafsilot, badiiy detal va obraz, voqea, motiv, ifoda vositalari, poetik usul ijodkor estetik qarashlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

14-mavzu. Tursunboy Adashboyev she`riyatida bolalik va tabiat munosabati ifodasi.

Reja:

1. Tursunboy Adashboyevning hayot yo`li.
2. Bolalar she`riyati yolidagi izlanishlar.
3. Shoir she`rlarining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari.

She`r haqida so`zlab berish, aslida nochorlikning ishi. Yaxshi she`rni o`qiganga, undagi voqea yoki mantiqni shoir qalbiga yaqinlashib his qilganga nima yetsin! Aslida, she`r shuning uchun yoziladi. Bu bizning - shoirlikka ixlosmand odamning nuqtai nazarimiz.

Bolalar ham xuddi shunday. She`r haqidagi chuqur ilmiy mulohazalar, bahslar, jimjimador fikrlar-u, balandparvoz ovozlari ular uchun mutlaqo ahamiyatsiz. Dunyoni tanib kelayotgan yosh qalb atrofidagi hamma narsa, hodisa, munosabatlarga qalb ko`zlarini katta-katta ochib qaragani, talpingani kabi, hayotning jonli parchalariga aylangan she`rga ham do`st tutinadi. Bolalar she`riyatining mas`uliyati, o`ziga xosligi hambolalaming mana shu xislatlandan kelib chiqadi. Qisqasi, bolalarga sodda, samimiy, qiziq, tabiiy, chiroyli, zavqli she`rlar kerak. Xuddi mana bu she`r kabi:

tabiat, ko`ngli daryo odamlarga mehru muhabbatimiz rishtalarini bog`lagan o`tgan kunlarimizni sog`inamiz. Shu sog`inchning ildizlari qalbimizda qanchalar chuqur bo`lsa, demak, taqdir bizni siylabdi. Tursunboy Adashboyev she`rlarida hammadan oldin Vatanning muqaddas ostonasi bo`lgan ona qishloqqa juda yoshligidan o`ychan termulgan, undagi har bir mavjudlikni ixlos bilan ardoqlagan; sodda-yu to`pori, qismati mehnat va yana mehnat bo`lgan, odamlarni yoshiga nisbatan ulug`roq nigoh bilan kuzatgan qalb manzaralari ko`zga tashlanadi.¹ Bo`lim shoira. Muhtarama Ulug` bilan hamkorlikda yozilgan.

To`rg`ay yotar tuxum bosib,
Shuvoq bilan sirlashib.
Qora qo`ng`iz soqqa yasab,
Do`ngga tortar tirmashib.
Yumronqoziq serhadik
Ish bitirar yugurib.

Tursunboy Adashboyev o`zi tug`ilib o`sgan qardosh Qirg`iziston Respublikasi O`sh viloyati tabiatini shu qadar mehr, samimiyat bilan tasvirlaydiki, ko`z oldingizda

beriladilarki, uning o`yinligini ham unutadilar. Yosh qalabda hali rostu yolg`on, soxta-yu haqiqiy degan tushunchalar o`rtasida aniq chiziqlar tortilmagan. Ular hamma narsaga ishonadilar, tabiiy deb qabul qiladilar. Hattoki, o`zlari o`yin uchun yaratgan narsalarni ham tirik mavjudlik kabi yaxshi ko`rib qoladilar:

Taraqqiyot sari intilish — zamonlar uchun qonuniyat. Lekin taraqqiyot munis o`t-o`lanlar o`sgan jaydari yerlarni bosib-yanchib o`tmasligi, bir-biriga oqibatli mehnatkash chumolilarning uyini buzmasligi kerak. Fan-texnika nechog`li taraqqiyotmasin, inson bolasi, o`zini eng awalo ona tabiat bag`rida to`laqonli his etadi. Katta zamonaviy shaharlarda tug`ilib o`sgan bolalar qishloqqa borib qolsa, mitti qo`ng`izcha bilan kun-tun o`ynab zerikmasligida hikmat ko`p. Tursunboy Adashboyev she`rlarini o`qirgan, yaxshi shoir bo`lmoq uchun, albatta, tabiatga yoshlikdan sirdosh, do`st bo`lish kerakligi takror-takror dilingdan o`tadi. Misralardan bola qalbining quvonchi, hayratlari, beg`uborliklari ufurib turadi:

Tursunboy Adashboyev she`rlarining qahramonlari «Loyni bir oz tindirib suv zahrini sindirib» g`isht quyayotgan, «Sapchib oqqan suv bilan kim o`zarga yugurgan», xolasiga yordam uchun «... nonni botirib, qotirib qaymoq yegan», «Tog`dan ko`tarilgan quyoshni onasi yopgan patirga» o`xshatgan, buvisining ajinlariga qarab «Dazmol bosib olsangiz, tekis bo`lib ketardi», deb maslahat beradigan, kun bo`yi bog`dagi sirpanchiqda «vagon» bo`lib uchishgach, «Oqshomuyga... Shimning orti suzilib» qaytadigan quvnoq, topqir, xayolkash, mehnatkash, zavqi-yu ishtahasi tobida bo`lgan bolalar.

Ayrim she`rlardagi voqelik, tuyg`ular kechinmasidan shoir bu she`rni o`z boshidan kechirganlari ta`siridanmi yoki kuzatganlari asosida yozganmi — bilinib turadi. Lekin Tursunboy Adashboyev she`rlarida bunday chegara yo`q — oddiy chizgilardan salmoqli voqealargacha lirik qahramonning yuragidan o`tgan.

Bu she`rlardagi kitobxonga eng yoqadigan xislat — samimiyat, xolislik. Shoir bolalar, kattalar tabiatining, o`zligining yarq etgan bir qirrasini ko`rsatib qo`yadigan manzara, voqea, bahsning suratini so`zlarda chizadi, lekin hech qachon qissadan hissa chiqarmaydi; she`r qahramonlarini toifalarga ajratib, o`quvchini ham hakamlik chizig`ining u yoki bu yog`iga da`vat qilmaydi. Xuddi shu usul bilan muxlislarini bag`ri kenglikka, mustaqil mushohada yuritishga, hayotning o`ziday murakkab inson tabiatiga bir zarb bilan oq yoki qora chiziq tortmaslikka o`rgatsa, ajabmas:

Bolalar arzimagan bir xasdan ham kashfiyot qilishlari, uni iangarcho`p deb miriqib o`ynashlari mumkin. Ba`zan farzandlarimiz ertak qahramonlariga aylanadilar: gullar bilan suhbatlashadilar, xazonlarni qayiq qilib sayohatga chiqadilar, nima uchun qushlar ularning qo`liga qo`nmayotganidan ajablanadilar... Dunyo bolalar adabiyotida kichkintoylarning shu xislatiga asoslangan ajoyib ertaklar bor.

Tursunboy Adashboyev ijodida ixcham, manzara she`rlar borki, bolalar uchun filmlar yaratuvchi mohir rejissyor ular asosida ajoyib asarlarni suratga olishi mumkin. Mana bu to`rt qator she`r go`yo multffilmday.

Boychechaklar nish urib To turguncha o`rnidan Bahor
qishni tarnovga Osib qo`ydi burnidan. Yoki
Tolning bargi suvga tushib
Qayiq bo`ldi.
Bu ayniqsa qumursqaga
Loyiq bo`ldi.
Qo`sh qirg`oqni to`lqin yalab
Ko`kkasapchir,
Eshkakni-chi, o`zi yakka
Eshar abjir.
Teng-tushlari qoldi gap-so`z
Tayinlashmay.
Qumursqa ham jo`nab ketdi
Xayrlashmay...

Tursunboy Adashboyevning turli davrlarni, ya`ni o`zining bolalik yillarini eslatuvclii she`rlarini, farzandlarining bolaligini tasvirlovchi she`rlarini — barchasini ichki bir yaxlit tuyg`u — mehr, mehribonlik birlashtirib turadi:

Tursunboy Adashboevni kattalar qatoriga adashtirib olib kirdi, xolos. Lekin qalbi bolalik beg`uboriiklari, samimiyati, soddaligi, yorqin hayratu quvnoq topqirliklari olamida sobit turibdi. Ana shu sadoqat Tursunboy Adashboevga o`zbek bolalar adabiyotini yangi-yangi betakror asarlar bilan boyitish baxtini nasib etaversin,

Hodisa bu davrda yangicha tafakkur in`ikosi sifatida ko`zga tashlandi. Milliy bolalar adabiyotining mazmun va mohiyatidagi tub burilish yaqqol ko`zga tashlandi. Zamonaviy bolalar adabiyotida yosh qahramonlar xarakteri tahlili masalasiga alohida e`tibor qaratildi. Bolalar adabiyoti shakl va mazmun jihatdan-

da yangi tamoyillar kasb eta bordi. Adabiy tanqidchilikda bolalar adabiyotiga munosabat kuchaydi. Milliy bolalar matbuoti mavzu material, g'oyaviy-badiiy jihatdan o'sdi, bolalar ijodkorligi namunalari ko'proq ommalashtirildi va rag'batlantirib kelinmoqda.

Zero, istiqloлга erishgan ilk kunlardan boshlaboq, yoshlarimizni avvalo ma'naviy sog'lom, barkamol qilib kamol toptirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgani ular adabiyotida ham o'z aksini topa bordi. Badiiy adabiyot, jumladan, uning alohida tarkibiy qismi bo'lgan bolalar adabiyoti, ushbu g'oyat murakkab vazifani ado etishdagi eng muhim vositalardan biridir. Bu ishga badiiy so'z qudrati bilan hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli yozuvchilar soni orta borgani quvonarli holda. Istiqloл davrida jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq g'oyalar S.Barnoyevning publistik maqola va hikoyalarida, A.Obidjon, T.Adashboyev, M.A'zam, T.Malik, H.Imonberdiyev, K.Turdieva, A.Akbar, D.Rajab kabi shoirlarning she'riy asarlarida o'z ifodasini topdi. Ularning aksariyatida ijtimoiy jamiyatdagi yangilanishlar, bozor munosabatlarining ta'lim-tarbiyadagi o'rnini aks ettirishga qaratilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Shuningdek, «Gulxan», «Tong yulduzi», «G'uncha», «Yosh kuch» kabi bolalar matbuot nashrlarida ham istiqloл g'oyalarini, badiiy adabiyot namunalari o'z ifodasini topib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda bolalar adabiyotining bola tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishdagi muhim o'rni bu sohadagi yangi izlanishlar orqali asoslandi. O'zbek bolalar adabiyotiga uzoq yillardagi bir yoqlamalik va uning salbiy oqibatlari ham inkor etilmagani holda, milliy bolalar savodxonligi darajasini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar badiiy so'z vositasida qayta jonlanayotir. Qolaversa, o'zbek bolalar adabiyotini chet el, rus va boshqa hamdo'stlik mamllakat bolalar adabiyotiga muqoyasalab o'rganish samarali natija berayotir.

15-mavzu. Anvar Obidjon-bolalar shoiri, adibi va dramaturgi

Reja:

1. Anvar Obidjonning hayot va ijod yo'li.
2. Anvar Obidjon– bolalar shoiri.
3. Adib qissalarining g'oyaviy-badiiy mundarijasi.

O'zbekiston xalq shoiri **Anvar Obidjon** 1947-yilning 8 –yanvarida Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tug'ilgan. U o'zbek bolalar adabiyotini o'zining qisqa va mazmunli she'rlari, qiziqarli hikoya, qissa, pesalari bilan boyitib kelayotgan adib va dramaturgdir. A.Obidjon hozirgi O'zbekiston milliy universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. U bir qator gazeta va jurnallarda xodim, bo'lim mudiri bo'lib ishlagan.

A.Obidjon sermahsul ijodkor. Uning “Ona Yer” (1974, she'rlar), “Bahromning hikoyalari” (1980, she'rlar), “Ey, yorug' dunyo” (1983, qissa), “Olovjon va uning do'stlari” (1983, qissa va hikoyalar), “Bezgakshamol” (1985, hajviy she'rlar), “Masxaraboz bola” (1986, she'rlar), “Akang qarag'ay Gulmat” (1987, qissa va hajviyalar), “Juda qiziq voqea” (1987, she'rlar), “Oltin yurakli Avtobola” (1988, qissa va hikoyalar), “Dahshatli Meshpolvon” (1989, qissa va

pyesalar) , “Yerliklar”(1990, hajviyalar), “Alamazon va Gulmat hangomasi” (1992, qissa, pyesa, she`r), “Ajoyibxona” (1993, she`riy taqvim), “Meshpolvonning janglari” (1994, qissa va doston), “Alisher ila Husayn yoki uch dono va o`g`ri” (1996, doston va she`rlar), “Alamazon va Gulmat” (1998, qissa va she`rlar), “Oltiariq hangomalari”, (1999, hajviyalar), “Bulbulning cho`pchaklari” (2001, she`r va hikoyalar), “Odobli bo`lish osonmi?” (2001, hikoya), “Meshpolvon” (2003, qissa), “Bezgakshamol-2” (2003, hajviy she`rlar) kabi to`plamlari nashr etilgan.

Respublika yosh tomoshabinlar teatri hamda Farg`ona, Qarshi, Qo`qon, Guliston teatrlarida Anvar Obidjonning “Qo`ng`iroqli yolg`onchi”, “Pahlavonning o`g`irlanishi”, “Topsang, hay-hay”, “To`tiqul”, “Qorinbotir”, “Navro`z va Boychechak” pyesalari sahnalashtirilgan. Uning asarlari asosida “O`zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan “Tilsimoy-g`aroyib qizaloq”, “Dahshatli Meshpolvon” komediyalari kino tasmasiga tushirilgan. Anvar Obidjon she`rlariga bastalangan qo`shiqlarning asosiy qismi bolalarga bag`ishlangandir.

Uning «Kulchalar» va «Botirvoyning kundaligi» turkumlaridagi qahramonlarning deyarli hammasi turli yoshdagi bolalardir. Bu she`rlarda bolalik tuyg`ularining sofligi, orzu-umidlarining beg`uborligi, tabiatan bir oz shumligi, quvnoqligi kata iste`dod bilan ochib beriladi, o`quvchini goh yayrab-yayrab kulishga, goh jimgina o`ylashga, fikrlashga, xulosalar chiqarishga undaydi. Adibning mahorati shundaki, u bola dunyoqarashidagi o`ziga xosliklarning tub-tubini ko`ra oladi. Ichki olamini, o`y-xayollarini, kichik

qalbida kechayotgan ruhiy jarayonlarni nozik did bilan kuzatadi. Bir qaraganda, juda oddiy ko`rinadigan kichik-kichik she`rlarda inson tabiati shakllanishining dastlabki bosqich jarayonlari keng ko`lamda tahlil etib beriladi. Samimiy yumor, yengil hajv elementlari yorqin ko`zga tashlanadi. Shoirning «hali o`zim bolaman-ku!», «Sinchkov bola», «Shu ham fil-mi?» kabi o`nlab she`rlari shu jihatdan nihoyatda xarakterlidir.

Dadajonim,

Dadajon,
Otim nega
Otajon?

Axir kimga

«Ota»man?
Shuni o`yla-a-ab
Yotaman.

She`rni o`qiganda endigina so`zlar ma`nosini anglay boshlayotgan bolakayning holati koz o`ngimizga keladi. Uning kutilmagan «muammo»li masala oldidagi o`ychanligi o`quvchining labiga nurli tabassum paydo qiladi, qalbida kichkintoyga nisbatan issiq bir tuyg`uni uyg`otadi.

Anvar Obidjonning «0099 - raqamli yolg`onchi», «Ey, yorug` dunyo», «Alamazon va uning piyodalari» kabi qissalarida hamda, «Botinkaning tufliga xati» tipidagi turkum she`rlari ham o`quvchini befarq qoldirmaydi. O`zbekiston xalq shoiri, ko`p qirrali adib, shoir va dramaturg Anvar Obidjon faqat tabiatni tasvirlovchi, turfa xil ramziy, majoziy obrazlar yaratuvchigina emas, balki ijodining kata qismida bolalar dunyosi, ruhiyatini ham tasvir etgan.

17-mavzu. Milliy istiqlol davri bolalar adabiyoti

Reja:

1. Istiqlol davri bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Davr bolalar she'riyati.
3. Bolalar prozasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti hayotni o'rganish-bilishning badiiy vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. U zamondoshlarimizning, jumladan, yosh avlodning ruhiy holatini teran tadqiq etishga, fikr doirasini kengaytirishga, his va tushunchalarining shakllanib, voqelikka to'g'ri munosabatda bo'lishga da'vat etadi. Bugungi adabiyot tom ma'noda hayot darsligiga aylanayotgani shu jihatdan e'tirofqa sazovor.

Prezidentimiz mustaqillikning ilk yillaridayoq jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ma'nau va jismonan sog'lom avlod tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo'ydi. "Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi,-deb ta'kidlagan edi, shu munosabat bilan yurtboshimiz I.A.Karimov,-aytish mumkinki, hayotining ma'nosi qobil farzandlar o'stirish, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir"¹⁷

Chindan ham ilgarilari bolalar adabiyoti haqida gapirganda yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va jismoniy to'g'ri tarbiyalash maqsadida ular diqqatini ijtimoiy hayotning o'tkir muammolariga tortish-bolalarning nozik qalblariga ozor yetkazish, jarohatlash hisoblanardi. Bugunki kunda esa bolalar uchun ham ijtimoiy dolzarb mavzudagi asarlar ko'plab yaratilmoqda. Shu bilan birga badiiy saviyasi pishiq asarlar yuzaga kelayotir. Hodisa bu davrda yangicha tafakkur in'ikosi sifatida ko'zga tashlandi. Milliy bolalar adabiyotining mazmun va mohiyatidagi tub burilish yaqqol ko'zga tashlandi. Zamonaviy bolalar adabiyotida yosh qahramonlar xarakteri tahlili masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bolalar adabiyoti shakl va mazmun jihatdan-da yangi tamoyillar kasb eta bordi. Adabiy tanqidchilikda bolalar adabiyotiga munosabat kuchaydi. Milliy bolalar matbuoti mavzu material, g'oyaviy-badiiy jihatdan o'sdi, bolalar ijodkorligi namunalari ko'proq ommalashtirildi va rag'batlantirib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalari keng e'tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali o'quvchilarda axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berildi. Hozirgi adabiy jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq mavzu talqinlarining ustivorligi (S. Barnoev, E. Malikov, T. Malik asarlarida), kichkintoylar va bolalar fe'l-atvoridagi xarakter xususiyatlarning hajviy-yumoristik, fantastik, sarguzasht ifodasi (X. To'xtaboev, A. Obidjon ijodi) bolalar va o'smirlarning murakkab ruhiyat manzaralarining teran aksi (N. Fozilov, M. A'zam), keng dunyo, tabiat va jamiyat muammolarini ma'naviy-falsafiy aks ettirgan asarlar (M. A'zam, A. Obidjon, T. Adashboev) tahlili dolzarb vazifa. Bunda asrimiz boshlaridayoq bolalar asarlarining g'oyaviy-badiiy, axloqiy-ma'rifiy,

¹⁷ I.A.Karimov. Sog'lom va barkamol avlod uchun. Istiqlol va ma'naviyat. T:O'zbekiston 1994, 126-bet.

falsafiy va psixologik jihatdan monografik tahlili, salmoqli tadqiqotlar, risola hamda adabiy-tanqidiy maqolalarning vujudga kela boshlagani muhim hodisa bo'ldi. Adabiyotshunos olimlar-u tadqiqotchilarning ko'pgina maqola va risolalarida o'zbek bolalar adabiyoti tarixi va muammolari ilmiy-nazariy aspektda o'rganilib, badiiy jihatdan yuksak asarlar tahliliga e'tibor zarurligi ko'rsatib berildi. Shuningdek, olimlar o'tmishdagi bolalar kitobxonligi asoslarini o'rganish g'oyalarini ilgari surib, XX asr o'zbek bolalar adabiyotisalaflari ijodini yangi nuqtayi nazarlar bilan boyitish zarurligini asosladilar. O.Safarovning "Zamonlar tongining charoqlarisiz" (2003), "She'rim -ochil dasturxon" (2011) adabiy portretlari shu ma'noda, alohida mazmun kasb etadi. Bu risolalarda yetuk shoirlar siymosi yangi asr ko'zgisida yaxlit namoyon bo'ladi. Ular she'rlarining mavzu mundarija, obrazlar olami, badiiy jozibadorligiga ko'ra mumtoz o'zbek adabiyoti, rus va jahon bolalar adabiyoti namunalari bilan muqoyasalanib, o'zaro ta'sir aloqalari oydinlashtirilganki, bu o'z navbatida o'zbek bolalar she'riyatidagi yangi tamoyillarni yoritishga bag'ishlangani va XX asr bolalar she'riyati manzarasini tasavvur qilishga yordam berishi bilan diqqatga sazovor.

Bir asrlik tarixga ega o'zbek bolalar adabiyoti qiyofasini belgilashda R. Barakaevning "O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi" (2004) risolasi ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bolalar adabiyotshunosligida shoirlar ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar qatorida B.Ashurovning "Tursunboy Adashboevning poetik mahorati"(T., 2009) nomli kitobi e'tirofqa loyiq. Zotan, T.Adashboev she'rlari bolalar adabiyotining yangi tamoyillari nuqtayi nazaridan tadqiq etilgani, bolalar she'riyatida shu vaqtgacha e'tiborga olinmagan badiiy mahorat masalalari, hozirgi yosh avlod tarbiyasi uchun muhim bo'lgan Vatan va vatanparvarlik mavzusi talqinlari, tabiat manzaralari tasviri, lirik qahramon obrazini yaratish borasidagi o'ziga xosliklar, ularni xalq og'zaki ijodi va jahon bolalar adabiyoti an'analari ijodiy o'rganish vositasida tasnif etilishi ilmiy ommalashtirilgani jihatdan e'tiborni tortadi.

Istiqlolning uchinchi o'n yilligiga qadam qo'ygan bo'lsak-da, XX asr o'zbek bolalar adabiyotining qiyofasini belgilovchi ko'plab shoir-u yozuvchilar ijodi, jumladan, Q.Hikmat, M.A'zam, N.Fozilov, X.To'xtaboev, A.Obidjon singari iste'dod egalarining badiiy yuksak asarlari umumadabiyot mezonidagi tahlillardan hali yiroq.

Shu jihatdan qaraganda bolalar adabiyoti namoyandalari haqidagi qator to'plamlar, monografik risolalar ham o'zbek bolalar adabiyotining tadrijiy, janriy tamoyilini belgilashda o'ziga xos omil bo'layotir, desak yanglishmaymiz. Jumladan, "Bolajonlik saodati" da(T.,2011) Safar Barnoev asarlariga yozilgan taqrizlar alohida qimmatga ega. Adibning turli yillarda chop etilgan to'plamlariga bag'ishlab bildirilgan mulohazalarda istiqlool davri bolalar adabiyotiga xos yangi janrlar, obrazlar, mavzular, badiiy detallarning rang-barang talqini uchraydi. Ijodkor asarlari orqali o'zbek bolalar adabiyotining umummasalalari, muammolari va dolzarb vazifalariga daxl qilingan. Shuningdek, S.Barnoev ijodiy olamiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy maqolalar risolani ma'nan boyitgan.

Bunday fikrni “Beg‘uborlik olami kuychisi” (T.,2011) to‘plami haqida ham aytish mumkin. Xususan, “She‘r va talqin” faslidagi maqolalarda Tursunboy Adashboev she‘rlarining yangi qirralari inkishof etilishi bilan birga, o‘zbek bolalar adabiyotining ayrim tamoyillari xususida so‘z boradi: A.Rasulov T.Adashboev ijodi misolida bolalar adabiyotida nasr materialini she‘rda tasvirlay olish, parodiya (teskari tanqid) janrini maromiga yetkazish, "uch tug‘ishgan - hayvonot, nabotot va jamodot aro uzviy bog‘liqlik, o‘zaro ta’sir mukammal ko‘rsatilishi", masal, lof janrlari ahamiyatini ko‘rsatadi. Shoirning mutarjim sifatidagi yutuqlari o‘zbek bolalar she‘riyati o‘zanlarini yangilangani ta’kidlanadi.

A.Obidjon XX asr o‘zbek bolalar she‘riyati xususiyatlari,20- 30-70- va 80-yillardagi yangi oqimlar, M.A’zam singari ijodkorlar misolida bolalarning faqat aqliga emas, ko‘ngliga ham ta’sir o‘tkazish yo‘lini izlashga tutinish, T.Adashboev ham shu silsilada boshqalarga o‘xshamagan she‘riyati bilan bu olamga kirib kelganini ta’kidlab o‘tadi. Shoirning "Bolalikka qaytaman" turkumiga kirgan, yoxud, "Yo‘lchi yulduz", "Fufayka" singari she‘rlari sobiq tuzum davrida o‘z bahosini topmagani tilga olinadi. A.Obidjon, T.Adashboev she‘rlarini adabiyotshunos, o‘quvchi hamda shu adabiyotning yetuk salafi nuqtayi nazaridan o‘rganarkan, bolalar adabiyotshunosligini yanada taraqqiy ettirish zarurligini o‘rinli ta’kidlaydi.

S.Matchon, Q.Yo‘ldosh, Q.Qahramonovlar bolalar adabiyotshunosligi masalasida fikr yuritsalar, R.Barakaev, B.Ashurov T.Adashboev ijodini kengqamrovli, monografik izchillikda talqin etadilar. Natijada, o‘zbek bolalar she‘riyati, adabiyoti sohasida ham nihoyat, teran anglanayotgan vazifalar, tamoyillar oydinlashadi.

Yetuk adabiyotshunos olim A.Rasulovning X.To‘xtaboev romanlari haqidagi "G‘aroyib saltanat" (Toshkent, "Adib" nashriyoti, 2012) hamda A.Obidjon ijodining ayrim qirralariga bag‘ishlangan "O‘zlik sari yo‘l" (Toshkent, "Adib" nashriyoti, 2012) risolalari aytish mumkinki, bolalar adabiyotshunosligida yangi oqim hisoblanadi. Olim bolalar asarlarini tipik va kontseptual, yozuvchi mahorati, badiiy olami, makon va zamon, adabiy tur va janruqtayi nazaridan o‘rganish, ya’ni jahon va umrda umadabiyot o‘lchovida tahlil qilish ehtiyojini asoslaydi. Ayni paytda qahramon xarakterini yoritishning an’anaviy va modern usullariga e’tiborni qaratadi.

“Istiqlol davri yangi bolalar adabiyotining maydonga kelishiga,-deb yozadi R.Barakayev,- 80-yillarning ikkinchi yarmi katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayni shu davrda bolalar adabiyotimiz tom ma’nodagi haqiqatga tik boqadigan adabiyotga aylandi, yosh avlodni erksevarlik tuyg‘ulari ruhida tarbiyalashda ilk qadamlarini qo‘ydi.”¹⁸

Binobarin, istiqlolga erishgan dastlabki kunlardanoq, yoshlarimizni ma’naviysog‘lom, barkamol etibtarbiyalash masalasiga jiddiy e’tibor qaratilgani ular adabiyotida ham o‘z aksini topa bordi. Bolalar adabiyoti, ushbu vazifaniado etishdagi eng muhim vositalardan biridir. Bu ishga badiiy so‘zqudratibilan hissa qo‘shib kelayotgan iste’dodli yozuvchilar talaygina. Aytaylik, jamiyat taraqqiyoti

¹⁸Bu haqda qarang: Barakayev R. Istiqlol davri o‘zbek bolalar adabiyoti: an’ana, vorisiylik va izlanishlar. // O‘zbek tili va adabiyoti j. 2003, 3-son, 4-b.

bilan bog‘liq g‘oyalar S.Barnoyevningpublitsistik maqola va hikoyalarida, A.Obidjon, T.Adashboyev, M.A‘zam,T.Malik, H.Imonberdiyev, K.Turdieva, A.Akbar, D.Rajab kabi shoirlarning she‘riy asarlarida o‘z ifodasini topdi. Xususan, istiqlol davri bolalar adabiyotida yangidan tanilgan shoir va yozuvchilar ijodi diqqatga loyiq.

Hamza Imonberdiyev (1954-1997). H.Imonberdiyevbolalar adabiyotining rivojiga hissa qo‘shgan adiblardan. U uzoq yillar“Tong yulduzi” gazetasida, so‘ngra 1986 –yildan umrining so‘nggidamlarigacha“Cho‘lpon” bolalar nashriyotida faoliyat ko‘rsatgan. Uning turli yillarda nashr qilingan “Quvnoqlar quvonchi”, “Shokoladxo‘rlar”, “G‘aroyib pufak”, “Oydagi tomosha”, “Lofchilar - aldoqchilar”, “G‘aroyibkent hangomalari” singari she‘riy va nasriy to‘plamlari bolalar kitobxonligida shuhrat qozongan. Shoirning bolalar uchun yozgan she‘rlarida bolalarning xarakter-xususiyati, orzu-o‘ylari aks etgan. Masalan, “Bir so‘z” she‘rida Loladan astoydil ranjigan, unga birgina “shaddod” degan so‘zi uchun“badbashara”, “xumbosh” kabi yomon so‘zlarni eshitganidan arazlab, boshqa o‘rtoq topishga ahd qilgan bola timsoli gavdalanadi. “Urishqoqlar”da esa o‘g‘il bolalar ko‘proq o‘ynaydigan “urush-urush”o‘yini manzarasi chizib berilgan. Ayniqsa, qo‘lda yog‘och–avtomat bialn kalishlardanesa granata o‘rnida foydalanishlari, bir-birlarini poylab turib, “o‘q”uzishlari bolalar tilidan mardona hikoya qilinadi.

–Paq-puq, otdim, yiqil,–deb.

Dushman tan olmas:–O‘qing

Qiyshiq ketdi,–nuuqul deb.

Hamma bola o‘yinda

“Jang” qiziydi tobora...

FaqatginaNodir bu jangga qo‘shilmay, raketa yashash bilan ovora bo‘ladi.

Chunki:

–Urishqoqlar ichida

Yashab netaman,–der u.

Olis sayyoralarga

Uchib ketaman,-der u.

Buni eshitib, qolgan bolalar“o‘zing bilan bizni ham ola ket”,- deb so‘raydilar.Do‘stlari rozi bo‘ladi:

–Chiqinglar,-deb imlaydi.

–Biz kashf etgan sayyora

Urush nima bilmaydi!

Ko‘rinadiki, bolalar garchi “urush-urush” o‘ynasalar ham aslida urush nimaligini bilmaydigan sayyorani kashf etmoqchi. Uning salbiy oqibatlarini his qila olgan bolagina shunday fikrlaydi. Barcha bolalar tinchlikni sevishlari Nodirga ergashib ketmoqchi bo‘lgan do‘stlar niyatidan anglashiladi. Binobarin, H.Imonberdiyev yosh qahramoni tilidan, urushqoqlar o‘yinini qoralaydi. Ularni orasida yashahni xohlamaydi. Uning “Vaqtning hajmi qancha?” she‘ri falsafiy mazmunga ega. Vaqt haqida tasavvur, tushuncha yosh bolalarda hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Aniqrog‘i, vaqt ular uchun mavhum tushuncha.Shoir bir

soat misolida uni aniqlashtirishga, bolalarbop vositalar yordamida oydinlashtirishga erishgan.

Oylab ko'rsam, vaqt degan
Rezinali to'rxalta.
Neki tiqsang ichiga
Sig'averar, zo'r xalta

Bunga shoir keyingi misralarda aniqlik kiritadi: bir soatda nimalar qilish mumkinligini o'quvchiga ular xarakteridan kelib chiqqan holda tushuntiradi. Ya'ni, kitob, gazeta o'qish, samokat minish mumkinligi, do'sting bilan urushib, hatto yarashib olish, yoki, tort yeyayotgan ukangga "yordamlashish", "qarashish"; yoki, uy ichini alg'ov-dalg'ov qilib, so'ng yig'ishtirish; yoki bo'lmasa, telefon orqali uy ishini ko'chirishkabilarni bor-yo'g'i bir soatda bajarish, ha, faqatgina harakat zo'r bo'lsagina, ana shunchaishni qilish mumkinligini ta'kidlaydi. H.Imonberdiyev kichik yoshdagi o'yinqaroq bola nazdida bir soat hech nima emasligini to'g'ri ilg'again uchun, uning qadrini yuqoridagi yumushlar bajarilishi bilan asoslaydi. Demak, bola qisqa muddatda ko'p narsaga erishish insonning o'ziga, xatti-harakatiga bog'liqligini shu tariqa tushunib yetadi.

H.Imonberdiyevning "Qish tongida" she'ri tabiiy manzara talqiniga bag'ishlangan:

Erta tursam hovuzda
Birov oyna solibdi.
Ko'm-ko'k, tiniq, zilol suv
Eng ostida qolibdi.
Oynani solgan usta
Unutgan-ov hoynahoy.
Suv olishga ozgina
Qoldirmabdi ochiq joy.

Bola tasavvuri, tafakkuri aynan shunday fikrlashga moyil. Zotan, she'r jonli tasvir asosida yaratilgan. Shoirning "Qo'pollik" she'rida esa kichkintoy bolakaylarning uchqur xayoli, qahramonlik ko'rsatishga moyil tabiati ochib beriladi. Ya'ni, qo'pollik qilib, akasidan "Bor, ko'zimga ko'rinma, hech keraging yo'q",- degan do'qini eshitgan ukaning ginalari, shu bilan birga, akasining o'z yoniga kelishi uchun hatto:

Balki sharga osilib,
Uchaman oyga.
Balki minib G'irko'kni
Jangga kiraman.
Yog'och qilichim sermab
Yovni qiraman.
Dushman bilan solishib
O'larman oxir.
Nima qila olardim
Akamsiz axir.
Kelib qabrim boshiga

Akam bosh egar,
Kechir meni, uka, deb
Balki yosh to‘kar,-

Degan xayollarga boradi. Shu payt “Uka!” deb akasi boshiga kelganda, xayollari har yoqqa sochilib ketadi. yosh qahramonning xufton dili charaqlab ochilib ketadi va quyidagi qarorga keladi:

Akam bo‘lsa yonimda
Quvnab ketaman.
Shunday akam turganda
O‘lib netaman?!

Chindan ham she‘r voqeaband sujet asosiga qurilgan. Aka-uka munosabatlarida tabiiylik ustivor. O‘zbek oilalarida uka har doim akaga suyanadi. Aka ham o‘z navbatida ukani suyaydi, ko‘nglini cho‘ktirmaslikka harakat qiladgi, ungag‘amxo‘rlik qiladi. Bu hissiyot bolalikdan boshlanishi esa yuqoridagi she‘rda yorqin aks etgan.

Umuman, H.Imonberdiyev she‘rlarida fikr ustivor, g‘oya dolzarb, tasvir hayotiy. Uning qator ertak-dostonlarida esa bahodirlik, mardlik motivlari kuylanadi. Shoir ijodida istiqlol g‘oyalari ko‘zga tashlanadi. Sor burgutning o‘z polaponini uchishga o‘regatishda baland qoyalardan pastga otib yuborishi, yiqilay deganda ushlab olishi misolidaxalq farzandlarini dovyuraklikka chorlaydi.

Kavsar Turdiyeva (1958-yilda tug‘ilgan). K.Turdiyeva Toshkent davlat universiteti va Sankt-Peterburg davlat universitetlarida o‘qigan. 1994-yilda “Hozirgi zamon bolalar she‘riyatida ma‘naviyat muammolari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U dastavval, bolalar shoiri sifatida tanilgan. Shoiraning “Varrak”, “O‘ynayapman, o‘ylayapman”, “Qush bo‘lib uchgan ona”, “Raqamlar bo‘ylab sayohat”, “Quvnoq alifbo bo‘ylab sayohat” kabi kitoblari chop etilgan.

K.Turdiyeva bolalar kinochiligi sohasida ham ijod qiladi. U multfilmlar, telefilmlar uchun yozgan qo‘shiqlari bilan-da mashhur bo‘lgan. Shoir “Irkitvoy va Kirketjon” multfilminiva M.To‘ychiyev bilan hamkorlikda “Katta oyi” badiiy filmini yaratishda faol ishtirok etdi. K.Turdiyeva bolalar qo‘shiqchiligi sohasida ham o‘z hissasini qo‘shib kelayotir. Uning she‘rlariga A.Nazarov, M.Mahmudov, Sh.Yormatov kuy bastalagan. shoiraning “Toshkesarlar mamlakatida” dramatik ertagi “Sog‘lom avlod yili”ga bag‘ishlangan tanlov sovrindori bo‘lgan.

Shoiraning “Baxillik haqida rivoyat” o‘quvchilarga ma‘naviy saboq bera oladi. Unda o‘ziga xoz motiv va detallar uchraydi. Rivoyat xalq ertaklariga o‘xshash an‘anaviy zachinga ega:

Juda qadim yillarda,
Juda uzoq zamonda
Kampir-u chol yasharkan
Bilmama qaysi tomonda

Shu kampir va cholning juda badfe‘lligi, xasis va baxilligi tufayli qarindoshlar oyog‘i ularnikidan uzilgan, hech kimkelmas, hatto kulgi ovozi eshitilmas ekan. Ammo ularning yakka-yu yolg‘iz bolasi butunlay o‘zgacha, odamoxun,

suxandon, o'zgalardan yordamini ayamaydigan bo'lib voyaga yetadi. Asosan, gadolarga, yo'qsillarga boru budini ulasharkan. Chol va kampir ana shundan xunob bo'lishib, bir qarorga keladilar:

Gadoylarning bargisin
Jo'nataylik mozorga,
Yo'qsa, saxiy bu o'g'lon
Bor-budimiz yo'q qilar,
Qaysi gado yo'liqsa
Uning qornin to'q qilar.

Oqko'ngil o'g'illari bu qora ishga yo'l qo'ymagach, unithog' tomonga giyoh terishhga yuboradilar. xurjuniga bir kalla qand va non soladilar. Baxil chol-u kampir xamirga zahar qo'shib, non pishirishadi. So'ngra, ko'chadan o'tgan nochor, bechoralarga shu nondan ulashadi. O'sha ko'chadan bir oyoqli devona o'tib ketayotsa, chol uni hamuyga chorlab, xaltangga sol deyanondan xurjuniga tiqib yuboradilar. Tog'ma-tog' yurib, tentiragan saxiy o'g'il uyini topolmay, ochlikdan sillasi quriydi.

Shunday ajib bu dunyo,
Tasodifga to'liqdir.
Taqdir ekan, devona
Yigitchaga yo'liqdi...

Yigitga rahmi kelgan devona o'sha nonni xaltasiga solidi. Yigit devonaning ishidan oyoqsiz bir bechora sog' kishiga non berganidan xijolat tortib, hang-u mang bo'lib turganda u g'oyib bo'ladi. Yigit uning ketidan peshma-pesh yuguradi, gadoy rizqini qiydim deb qiynaladi. Har qancha och qolib, joni qiynalsa ham, uning nonini yeyishga vijdoni yo'l qo'ymaydi. Devonani izlay deb chopgan yigit, o'z qishlog'iga kelib qoladi. Baxil ota-onalar o'g'illarini qarshi oladilar. ammo qattiq charchagan yigitchani uyqu etadi. Uning xurjunidagi nonni esa alal-oqibat:

O'zim bergan non deya,
Qora niyat, shum ayol,
Eri bilan ikkisi
Uni yerlar bemalol.

Shu tariqa, baxil ota-ona o'zi qazgan chohga ravona bo'ladi, saxiy qalbli bola va devona omon qoladi.

Rivoyan tugallanmasi ham xalq ertaklarini eslatadi. Ezgulik va saxiylikning qo'li baxillik va zulmdan ustun bo'ladi. K. Turdiyeva asar g'oyasida istiqloq davri adabiyotiga xos an'analarni singdira olgan. Yomonlik qilgan inson kim bo'lishidan qat'y nazar yaratuvchi tomonidan jazolanishi muqarrar. Saxiyni Olloh qo'llaydi. Devona qiyofasidagi dargvesh ham ilohiy hodisa. Xalq ertaklarida asosan o'gay onalarga xos bo'lgan yovuzlik timsoli saxiy yigitning o'z ota-onasi obrazida kelishi noan'anaviy talqindir. Ammo, har yomonda bir yaxshilik hikmati bor, degan hadis mazmuni bor asarda. Shu baxil ota-onadan saxiy va qobil farzand dunyoga kelgan.

K. Turdiyevaning "Dunyoni saqlar bolalar" qo'shig'i bolalar ijrosi uchun mo'ljallab yozilgan. Qo'shiq tantanavor ohangda

kuylanishi bilan e'tiborni tortadi. Unda naqarot ham berilgan. Ma'lumki, naqarot qo'shiqning har bandidan so'ng muntazam ravishda takrorlanib turuvchi qismi. Qo'shiq va madhiyalarda naqarot boshqa qismlardan musiqiy vazn, uslub va ijro sur'ati bilan farqlanishi mumkin. Xor jamoalariga mo'ljallab yaratilgan qo'shiqlarda naqarot qismi, odatda yalpi xor tomonidan ijro etiladi.¹⁹

Aytish mumkinki, bu qo'shiq ko'proq xor jamoasi ijrosiga mo'ljallangan va umadhiyaga yaqinligi bilan boshqa qo'shiqlardan ajralib turadi. Aytaylik, qo'shig'ining 1-band tuzilishi aniq ritmni saqlagan, ya'ni turoqlanishi – 4+4=8, qofiyalanishi – a-b-a-b; a-b-d-b tarzda. 2-band ham shunga yaqin faqat turoqlanishi va qofiyalanishida o'ziga xoslik bor:

Eshit, zamin, / eshit samo/ -a4+4=8

Bizning kuyni / etsin navo/ -a4+4=8

Mehr bilan / ulashsa qalb/-b3+4=7

Boshimizga / qo'nar Humo -a4+4=8

Humo qushim / samo qushim/- a4+4=8

Qutlar gullar / favvoralar/- b4+4=8

Yurtga shodlik / va obodlik/- d4+4=8

Keltirar kimlar/}

Bolalar /- b5+3 =8

Bu sakkizlikning 3- va 8- misralarida turoqlanishida o'zgarish bor. 3-misra 7 hijoli bo'lsa, 8-9-misralar qo'shib 8 hijoniya'ni bo'g'inni keltirib chiqargan. So'ngra, so'nggi to'rlukda ichki qofiyalanish borki, u ta'kidlanib ko'rsatildi. Bunday qofiyalanish deyarli barcha band misralarida uchraydi va qo'shiqdagi ichki ohangdoshlikni yuzaga keltirgan. Ammo, 1-sakkizlikda misra oxiridagi qofiyalar ham to'q va ritmli – muntazam takrorlanib kelgan. 2-sakkizlikda esa kuzatilganidek, asosan ichki qofiyalar ritmik ohanglarni jilolab turibdi, shunga ko'ra qo'shiqning umumiy turoqlari, qofiyalariga putur yetmagan, deyish mumkin. Naqarotda esa misralardagi so'zlarning har biri deyarli qofiyadosh va radiflardan tashkil topgan:

N a q a r o t

Dunyoni/poklarbolalar,/

Ishonchni/ oqlarbolalar,/

Tinchlikni/yoqlarbolalar, /

Quvonchni/xohlarbolalar, /

Ishongan bog'lar / –bolalar,/

Suyangan tog'lar / –bolalar. /

Kelajakning / iplariga /

¹⁹Bu haqda qarang: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Toshkent, "OzME", 2003, 292-b.

Umidni bog'lar/ bolalar./

Ta'kidlab ko'rsatilganidek, bo'g'inlar, qofiyani tashkil qilgan, radif har misra oxirida kelyapti. Demak naqarotning qofiyalanish tartibi— a-a-a-a-a-a-b-a tarzidadir. Rost, boshlang'ich sinf o'quvchilari, hali qofiya, radif, hijo singari adabiy tushunchaga ega bo'lmaydilar, ammo ularga bo'g'in va tovushlar haqida keng ma'lumot berilgan. Shu sababli, ularga o'qish kitoblaridagi she'rlarning qofiyasini, ya'ni uning ifodali aytilishini, yoki, turoqlar haqida, yoki to'xtamlar to'g'risida tushuncha berish mumkin. Binobarin, bunday matnlar o'tilganda avvalo, vatanparvarlik mohiyati uqdirilgani holda, so'ngra, uning tantanovor kuylanishini ta'minlovchi unsurlar haqida to'xtalib o'tilsa, o'quvchilarning ularni yod olishi, ifodali aytishiga puxtazamin hozirlanadi.

Dilshod Rajab (1964- yilda tug'ilgan) o'zbek bolalar she'riyatining iste'dodli vakillaridan biri. U Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ziyoli oilasida tug'ilgan. 1990 - 1993 yillar Nizomiy nomidagi TDPI aspiranturasida o'qib. "80-yillar o'zbek bolalar she'riyatida poetik mahoratning ayrim masalalari" mavzusida nomzodlik ishini yozib, himoya qiladi. 1994-2004- yillarda O'zbekiston Davlat matbuot qo'mitasida, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashriyatida, Respublika "Shahidlar xotirasi" xayriya jamg'armasidaturli lavozimlarda ishlagan. 2005- yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining "Muhofaza" jurnali, "Vaziyat" gazetasi birlashgan tahririyatida bosh muharrir o'rinbosari sifatida faoliyat yuritmoqda. Yuzdan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik maqolalari chop etilgan.

Dilshod Rajabov majoziy obrazlar orqali talay she'rlar yaratgan. Shoir she'riyatida qushlar, uy hayvonlari, turli buyumlar bor. Ular yordamida shoir hayotiy xulosalar qilib, o'quvchilarni hayotni tushunishga chorlaydi. Goho bir xil obrazlar turli ma'noda kelishi mumkin. Masalan, Qarg'a obraziga shunday yondashadi:

Men qarg'aman, qarg'aman,
Bekor so'kib, qarg'amang.
Men-ku bir beozor qush,
Sizga nima qildim, xo'sh?

Qarg'a majoziy obraz sifatida salbiylik kasb etadi. Shoir o'quvchidagi shu kayfiyatni o'zgartirish uchun qarg'aning o'zini gapirtiradi. Qarg'a o'zini beozor qush deb biladi. O'zining qag'-qag' etib yurishini poetik tarzda izohlaydi :

Bahor yozdamas faqat
Kuylash kerak hamma vaqt.
Shunda qolmaysiz qotib
Va qayg'u g'amga botib

Shoir qarg'a haqida fikrlashda davom etadi."Qarg'a"she'ridagi tasvir "Falokat" she'rida davom etadi, ammo manzara boshqacha.Shoir oddiy bir tasvirdan falsafiy xulosa chiqara olgan:

Silkinadi daraxtlar

Tebranadi in-uya.
Qargʻalarning yurtida
Boʻlayapti zilzila.

Qattiq shamol turib, daraxtlar qattiq silkinadi. Oqibat qargʻalar inini tashlab ketadi. Shoir bu sheʻrida qargʻaga nisbatan salbiy munosabatini saqlaydi. "Zilzila" obrazini qoʻllab, yomon kishilar atrofida zilzila, yaʼni kuchli oʻzgarish boʻladi. Shoir qargʻa obrazini yaratishda davom etadi, mavjud anʼanalarni buzib qargʻani "laqma" deb hisoblaydi. Dilshod Rajab salbiy maʼnoni rad etib, Qargʻani ijobiy bir tarzda ham, ahmoq qush sifatida ham koʻrsata olgan. "Laqma" sheʻrida shoir xalq ichida oʻzlashib ketgan Qargʻa, pishloq va Tulki haqidagi masalga ishora qiladi:

Afsuski, sendaylar koʻp,
(Qolar mudom kulgiga).
Shuning uchun mudom toʻq-
Yurar makkor Tulkilar.

Shoir Piyola, Supurgi, Narvon, Qoziq kabi jonsiz narsalarni obraz darajasiga koʻtarib, ularning tabiiy holatidan inson hayotiga daxldor xulosalar chiqara olgan. Masalan, "Qoziqning maslahati" sheʻrida shunday xususiyat koʻzga tashlanadi:

Charxla tinmay kallani,
Boʻlma toʻmtoq, doʻstginam.
Boshing oʻtkir boʻlmasa,
Yeysan toʻqmoq, doʻstginam.

Sheʻrni oʻqigan oʻquvchi qoziqning boshiga toʻqmoq bilan urilishini koʻz oldiga keltiradi va shoirning nima demoqchiligini anglab yetadi. Dilshod Rajab bolalarni tozalikka chaqirishdasochiq majoziy obrazidan oʻrinli foydalanadi :

Nopoklarni sevmayman,
Ular menga yot doim.
Kim boʻlmasin, aslida
Ikki yuzim oq doim.

Sheʻrning xulosasi milliy ruh bilan sugʻorilgan. Biz doim toza odamlarni tavof qilamiz. Oʻta toza, halol odamlarni avliyo hisoblaymiz. Shoir shu fikrlarni yosh kitobxonga obrazli qilib yetkazadi:

Pokligim nechun meni
(Yuvinishib oʻzi ham),
Tavof qilar odamlar
Surtishib yuz-koʻziga.

Shoir hayvonlar obrazidan foydalanib, bolalar ayni damda, kattalar orasidagi nuqsonlarni birma-bir ochib beradi. "Oshqovoqning shikoyati" sheʻrida bu jihat yaqqol koʻrinadi:

Oʻylamasdan bir gapni
Aytaverar Mirsaid.
Men bekorga pushtaga
Yotmayman-ku ishshayib.
Xoʻp mazali qilaman
Odamlarning oshini.

Nechun menga o‘xshatar
Norbo‘taning boshini?

O‘qituvchilar ko‘pincha “ikki”chi bolalarga ko‘pincha "Kallami bu, yo oshqovoq" deydi. Shoir fikr yordamida bolalarga aqlsiz odamning kallasidan qovoq ham yaxshi, qovoq shirin va foydali, deydi. Dilshod Rajab majoziy obrazlar yaratarkan, goh adabiyotdagi an‘analarni davom ettirsa, goh novatorona yondashib, majoz yordamida bolalarga ta‘lim-tarbiya beradi. Uning bu she‘rlari o‘zbek bolalar adabiyotida mavjud majoziy obrazlar safini kengaytiradi va bolalarning barkamol bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

Iste‘dodli shoir Dilshod Rajabov satira va yumordan foydalanib yozgan she‘rlari bilan ham bolalarning ham sevimli shoiriga aylanib ulgurdi. Uning “Qurbaqaning bulbulga degani” she‘rida boy mazmun yashirin:

O‘zingni shoh sanaysan,
Qo‘nib olib bitoqqa.
Ko‘rardim sayrashingni,
Tushsang edi botqoqqa.
Agar rostdan bo‘lsang zo‘r,
Botqoqda bir sayrab ko‘r.

Chindan ham kitobxon o‘ylanib qoladi: qurbaqa botqoqda yashagani uchun qo‘pol sayrar, yoki bulbulfazilatliqush bo‘lgani uchun chiroyli joylardasayraydimi? Inson qudratli, ayni damda juda ojiz mavjudotligini anglab qoladi. Bu she‘rni oi‘qigan yosh kitobxon hayotning juda shafqatsiz ekanligini biroz anglaganday bo‘ladi. Zamirida haqiqat, sirtida yengil kulgu mavjud. Bu she‘r tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shoirning hajv bilan sug‘orilgan o‘z she‘rlari orasida “Qo‘yning shikoyati”, “Echkining-echkiga shikoyati”, “Tuyaning shikoyati” kabi she‘rlari ham bor:

Echkivoy bilan yashash,
Rosti, tegdi jonimga.
Bigizday shoxlarini,
Niqtab turar qornimga.

Qo‘yning fikricha, yem-xashakning yaxshisini echki yeydi, e‘tiroz qilmoqchi bo‘lganlarga shoxlarini o‘qталadi:

Ne ham derdim, ko‘naman
Buncha zolim bo‘lmasa?!
Qiyin ekan yashamoq,
Boshda shoxing bo‘lmasa!

Shoir bu she‘rda hayotiy voqealikni keltiradi va undan ko‘chma ma‘noda foydalanadi. Hayotda “shoxli insonlar bor”, ularning hamma narsasi bor. Dilshod Rajab qo‘yning hikoysini keltirish bilan cheklanmay, “Echkining shikoyatini keltiradi”. Bu bilan har kim o‘zicha haqligini ko‘rsatadi, demoqchi. Echkining fikricha, qo‘y betamz u bilan 3 oy yashab, darrov shikoyat qilibdi. Shoir birovga zulm qilib ham o‘zini oqlaydiganlarni satira tig‘iga oladi:

Hayot sero‘t yaylovmas,
Yetmas goh hatto yantoq.

Sabr qilib bariga
Bo‘lish kerak og‘irroq.

Zulmkor bo‘lsa-da xatosini tan olmagan echki axiri “soqolimni hurmat qilsin” deb, yaltoqlanadi. Bu gunoh qilib, fosh bo‘lganida, o‘zini ojiz ko‘rsatadiganlar obrazidir.

Arava ikki tomondan ip bilan eshakka bog‘lanadi. Shour shu voqelikdan foydalanib, aravani jonlantiradi. Kitobxon tasavvurida aravaning orzusi gavidalanadi:

Endi somon yo‘lini,
Tushda ko‘raman, beshak.
Qayga ham borar edim,
Yo‘lboshchim bo‘lsa eshak.

Xalq beparvo, fahmsiz, aqli kam insonlarni “eshak” deb hisoblaydi. Demak eshakning majoziy obraz sifatidagi mohiyati shu. An’anaviy xulosaga ko‘ra ot to‘g‘ri yo‘ldan borsa, eshak adashib ketadi, yo‘lni to‘g‘ri topolmaydi. Shuning uchun arava somon yo‘lni orzu qilsa ham eshak yo‘lboshchi bo‘lgani uchun manziliga yeta olmaydi. Shoir xalqni boshlab boruvchilar chin inson bo‘lishini istaydi.

Dilshod Rajab she‘rlarida bolalarga xos sodda fikrlab, katta xulosa chiqarish ko‘zga tashlanadi. Masalan, shoir “Tungi militsionerlar” she‘rida ko‘pginanoto‘g‘ri, sirli ishlar tunda bo‘lishini bola tilida ifodalaydi:

Chigirtkalar chirillab,
Hushtak chalishar tunda.
Militsioner amaki,
Esimga tushar shunda.

Shoir bola tafakkuri sifatida militsionerning hushtagi tartibga chaqiruvchi ekanini, xato qilganlarni ogohlantirishini tundagi chigirtkalarningchirillashiga o‘xshatadi. Ya’ni, militsioner va chigirtkani vazifadosh qilib qo‘yar ekan, shunday xulosa qiladi:

Bular-chi unday emas,
Tez-tez chalib turishar.
Ko‘p bo‘larkanda tunda
Xato tartib buzishlar.

“Bopladim” she‘rida tol ustida g‘alva ko‘tarib, yig‘ilishgan mayna bir-birini so‘kib, yumdalashgani tasvirlangan. She‘r o‘quvchi yoshidagi bola tilidan berilgan. Bola shunday hayratlanadi.

Osmon keng-u adog‘i yo‘q,
Dov-daraxtning sanog‘i yo‘q.
Boshqasi qurib qolgangandek,
Ehtimol joyin talashar.

Shoir bir she‘rida bola tilidan shaharga borib o‘zgarib ketgan Halima opasini tanqid qiladi. Opasi shaharga borib uzun sochlarini kesgan edi, tirnoqlqrini o‘stirgan edi. Bola lirik qahramon Halima opasini koyiganini opasi esa “shaharda moda shu deb” kulganini eshitib, shunday xulosa qiladi:

Yoqtirmadim shaharni,
Yomon ekan modasi.
Tirnoqlarni o‘stirib,
Qirqsa uzun sochlarni.

Dilshod Rajab goho shiringina kulgu asosida she‘rlar yozadi, uning “Poyezdning bolasi” she‘ri zavqovar:

Bahorgi ta‘til payti
Shaharga kelgan Sayfi
Tramvayda yurganin
Maqtab der xolasiga:
-Maza qilib mindim-da,
Poyezdning bolasiga

Dilshod Rajab bolalar shoiri bo‘lib tig‘ilgan inson. Uning hajvga boy she‘rlari bolalardagi kamchiliklarni tuzatishda, yoshlarni kamol toptirishda muhim rol o‘ynaydi.

Dilshod Rajabning ertaklaridan biri “Toshning boshi” “t to‘g‘risida ertak” bo‘lib, tovush va harflarning qudratini tushuntirishga xizmat qiladi. Toshdagi “T” harfining jonlantirilishi sherxonni qiziqtirishi tabiiy:

Shoir {T} ni mahorat bilan jonlantirganki, sherxon qiziqsinib o‘qiydi va tovushlar bo‘lmasa, so‘zlar hosil bo‘lmasligini, ayrimlari bo‘lmasa, so‘zlar mohiyatini yo‘qotishini anglaydi. Ertakda tavze, ya‘ni tovush takrorodan o‘rinli foydalanilgan:

Tosh qotibdi shunda tosh,
Tunda ajalning o‘zi.
Turar tishi g‘ijirlab,
Tikib arofat ko‘zin.

Yuqoridagi satrlarda “T” “Sh” tovushlari takror kelib, chiroyli ohang hosil qilgan.

Dilshod Rajab -ertaknavis shoir. Uning “Eng buyuk boylik”, “Toshning boshi”, - “T to‘g‘risida ertak”, “O‘g‘rining qismati” ertaklari o‘zbek adabiy ertakchiligiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Dilshod Rajab bolalarga she‘rlar bitar ekan, asosan, to‘rtlik, ba‘zan uchlik, ikkilik bandlardan ham foydalangan. Shoir a-a-a-a-a; a-b-a-b; a-a-b-a kabi qofiyalanish tartibini ko‘p qo‘llagan.

Dilshod Rajab o‘z she‘rlarida o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, anafora, tavze, takrori kabi badiiy san‘atlardan foydalanib, she‘rlarining ohangdorligini, jozibadorligini, mazmundorligini oshiradi. Shoir asarlari badiiyati bilan ham ajralib turadi.

Uning she‘rlarida Vatan obrazi asosiy o‘rin tutadi. Shoir majoziy obrazlar yordamida bolalarga to‘g‘ri ta‘lim beradi, ularning barkamol avlod bo‘lib yetishiviga munosib hissa qo‘shmoqda.

Abdusaid Ko‘chimov (1951-yili tug‘ilgan). Abdusaid Ko‘chimov Samarqandning Urgut tumanida tugilgan. Toshkent Davlat pedagogika institutining ozbek tili va adabiyoti fakultetini tugatgan. Ilk kitobi-“Kashfiyotchi

bolalar” 1978- yilda chop etildi. Shundan so‘ng uning “Mening O‘zbekistonim”(1979) “Mening yulduzim”(1984), “Umid daraxtlari” (1992), ”Chanoq”(1985), ”Ikki bahor”(1990), “Qiyofa”(1996) kabi she’riy va nasriy kitoblari nashr qilindi. “Baland tog‘lar”(2002) saylanma kitobiga yozuvchining qissalari, dostonlari, she’rlari kiritilgan. A. Ko‘chimov Xalqaro YUNESKO mukofoti, G‘afur G‘ulom nomidagi mukofot bilan taqdirlangan. Unga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” unvoni, ”Shuhrat” medali, “Mehnat shuhrati” ordeni berilgan.

A.Ko‘chimov qalbi jo‘shqin, shijoatli bolalar publitsisti hamdir. U mustaqillik g‘oyalarini matbuotda keng yoyish, o‘tmish tariximizga oid hamda istiqloq ne‘matlarini bolajonlar qalbiga jo etishda dolzarb maqolalari bilan hissa qo‘shib kelmoqda.

A.Ko‘chimovning bolalar shoiri sifatidagi o‘ziga xosligi–bolalar qalbini so‘zlatishida. Uning she’rlari mavzusi rang-barang. Shoirning “Biz o‘n yeti o‘rtoqmiz”, “Ikki o‘rtoq bor edi”, “Uch do‘st”, “Mish-mishvoy”, “Yer boyliklar onasi”, “Buvimning istagi” kabi she’rlarida kichik zamondvoshlarning lirik obrazi va uning boy, murakkab ichki kechinmalarini teran aks ettiradi. Jumladan,shoirning “G‘affor shamol” she’ri kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xarakterini ochib bergishga xizmat qiladi. Unda G‘affor ismli bola timsolida mashaqqatlardan hayiqadigan, o‘z fikrida turmaydigan, shamol singari qo‘nimsiz bolalar hajv qilingan. Ta’kidlanishicha, G‘affor shundayki:

Boksyorlikka havas qo‘yar
Gohida u.
Goho birdan oshpazlikni
Qilar orzu.
O‘qituvchi, artist, suvchi
Yoki rassom.
U “sevmagan” hunar yo‘qdir
Xullas kalom.

G‘affor hamma kasbni shu tariqa oirzu qiladi, ammo o‘z so‘ziidan darrov qaytadi.chunki, uningcha doktorlikning ishi og‘ir; shofyorlikning egni dog‘-dug‘, yag‘ir bo‘ladi; mashhur olim bo‘lish soz-u, o‘qish qiyin; shoirlik xo‘p ajoyib, biroq she’r to‘qish qiyin; xullas, hamma hunarning bir “lekin”I topila qoladi.Lirik qahramon bunday bolalarga achinadi. G‘affor singarilarga biror kasbni tezroq tanlab, har daqiqa oltinga tengligini anglashga da’vat etadi.

A.Ko‘chimovning yana birshe’ri “Yer– boyliklar onasi” deb nomlanadi. She’rda kichkintoy bolalarga xos “nimavoy”lik hamda undan chiqarilgan ibratli saboq mazmuni aks etgan. Yosh lirik qahramon jajji ukasi Savlatjonning ezma “bilag‘on”ligidan dastlab jahli chiqadi.Chunki u juuda ko‘p narsaga qiziqadi: Nega Kunduz chiqmas oy? Nega qishda muzlar soy? Nega tomning tili yo‘q? Nega gulning qo‘li yo‘q? Xayriyatki, ularning tog‘day bardoshli bobosi bor: u erinmay jajji nevaraning barcha “nega-nega”lariga javob beradi.Natijada, lirik qahramonona-yer haqidagi tushunchaga ega bo‘ladi: Yer–non tayyorlanadigan bug‘doyning, kiyim-kechak tayyorlanadigan paxtaning, oq qant olinadigan shakar

qamishning, temirning, barcha boylklarning onasi ekanligi ma'lum bo'ladi. Shuningdek, bobosining hikoyasidan yosh qahramon oqpadar Gitlarning ona-yerga chang solgani, shu urushda bobosi ham o'ng oyog'idan ajralib kelgani, hozir ham ba'zi yovlar zaminga azob bergib, bog'-rog'larni xarob etayotgani ayonlashadi. Shu tariqa, lirik qahramon ongida Yer oddiy tuproq, zamin holidan buyuk Vatan darajasiga ko'tariladi va "ezmavoy" ukasiga ich-ichidan minnatdorlik bildiradi.

Shoirning "Ikki o'rtoq bor edi", "Mish-mishvoy", "Men g'iybatchi emasman", "Majlis", "Sufliyor" kabi she'rlarida ham maktab o'quvchilari o'rtasida uchrab turadigan turli voqealar, odatlar, yoki, shu yoshdagi o'g'il-qizlarning fe'l-atvori lirik ifodasini topgan. Uning ko'pgina she'rlarining mavzusi esa zamon voqeligini aynan talqin etgani bilan e'tiborni tortadi. "Hiyla" she'rida kattalarga xos fe'l-atvor aslida bolalikdan, aniqrog'i, oiladan boshlanishi ochib berilgan. She'r qahramoni Shodmonjon otasidan xushomadgo'ylik sabog'ini olgach, darhol bu "o'git"ni hayotga tatbiq etadi:

Ertasi erkalanib,
Oyisidan pul oldi.
Darsdan keyin G'anining
Yuragiga qo'l soldi...
–"Morojniye"ga bir to'ysak.
Nima deding, jo'rajon?
G'ani labin yaladi:
–Attang, pulim yo'q edi..
Shodmon kerilib:
–Mana,
Menda bor, ketdik!–dedi.

Tandirday qizib turgan kunda ikki o'rtoq muzqaymoqni paqqos tushiradilar. A'lochi, yuvosh, morojniy jonu tani bo'lgan G'anibu siylovdan hayron bo'lib turganda, Shodmon maqsadga ko'chadi:

–Uy ishin ko'chirsam,
Degandim daftaringdan...

G'anining yo'q demoqqa tili bormay, g'alati ahvolga tushadi. Qo'li titrab portfelini ochadi... "Yegan og'iz uyalar, xushomad zo'r shaytondir".

Shoir shu tarzda yosh kitobxonlarga ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan hodisalar mohiyatini tushuntirgishga, realistik tasvirga e'tibor qaratadi. Bu ham bo'lsa, mustaqillik davri bolalar adabiyotining mavzu va muammoni yoritishda kengqamrovlilik kasb etgani dalolatidir. Shu ma'noda A.Ko'chimov ijodida umuman, insoniyat dardi, ruhiy kechinmalari, iztiroblari, yoxud, orzu-o'ylari reallasha boradi, ya'ni, hayotga yaqinlashadi. Shoir she'rlarida yosh qahramonlar–bolalar chinakam "hayot qozonida qaynaydilar". Bujihat "Ukamning maslahati" she'rida ham yaqqol ko'rinadi. Umuman, shoir she'rlari kichkintoylarni bolalik olamidanda kattalik dunyosiga yetaklovchi vosita ekanligi ayonlashadi. A.Ko'chimovning bolalar uchun yozgan adabiy ertak, balladava dostonlarida ham bu xususiyat majoziy, obrazli tasvir etilgan.

Ko‘rinadiki, ertak ezgulik bilan tugagan. Shunga muvofiq asarning tarbiyaviy ahamiyati, mavzuviy dolzarbligi katta.

Xullas, shoir ona-Vatan, ijtimoiy-hayotiy voqealar, zamona taloto‘plari, jamiyatda kechayotgan yaxshi-yomon o‘zgarishlarni A.Ko‘chimov o‘ziga xos uslubda, ohangda bolalarbop ifoda etadi. Ijodkorning o‘z ovozi, tahliliy mushohadalarga boy publitsistikasi, esse va ertaklari istiqlol davri bolalar adabiyotini yangi tamoyillar bilan boyitishga hissa qo‘sha oldi. Uning she‘rlarida hurfikrlilik yarq etib ko‘zga tashlanadi, lirik qahramonlari haqiqatga tik boqadi. Uning asarlarida Vatan oldidagi burch va mas‘uliyat eng oliy insoniy tuyg‘u ekanligi anglashilib turadi. Xuddi shu qirralar davr bolalar adabiyotining yetakchi xususiyatlari hamdir.

Ona tili va adabiyot
fanining
ona tili qismi bo`yicha

m a ' r u z a l a r m a t n i

1-ma'ruza. Morfemika

Reja:

1. Morfemika haqida ma'lumot.
2. So'z tarkibi: o'zak, negiz, asos, qo'shimcha.
3. qo'shimchanning vazifasiga ko'ra turlari.
4. qo'shimchalar orasidagi shakl va ma'no munosabatlari.

Morfemika tilshunoslikning bir qismi bo'lib, tildagi ma'noli qismlar haqida ta'limot beradi.

Tildagi bo'linmas, eng kichik ma'noli qism morfema deyiladi.

Aqli so'zi ikki morfemadan tashkil topgan: aql+li. **Aql** o'zak morfema bo'lib, so'zning asosiy leksik ma'nosini ifodalaydi. **-li** morfemasi esa o'zak morfema orqali ifodalangan belgi yoki predmetga egalik ma'nosini bildiradi. Ko'rinadiki, morfemalar ikki ko'rinishga ega:

1. O'zak morfema.
2. qo'shimcha morfema (qo'shimcha).

So'zda, albatta, ishtirok etadigan, leksik ma'no ifodalaydigan morfema o'zak morfema deyiladi. O'zak morfema so'z yasash uchun qam, forma yasash uchun ham asos bo'la oladi. Chog'ishtiring: ish+chi, paxta+zor, ish+ga, paxta+da.

Mustaqil leksik ma'no ifodalay olmaydigan, so'zning leksik yoki grammatik ma'nolarining shakllanishida xizmat qiladigan morfemalar qo'shimcha morfema deyiladi: kuch+li, ish+la (so'z yasayapti), uy+lar, uy+ga (shakl yasayapti).

So'zlarni o'zak va qo'shimcha morfemalarga ajratishda bu morfemalarning ma'no ifodalay olishiga e'tibor berish kerak bo'ladi: **quloqchin** so'zida **-chin** elementi ma'no ifodalaydi; tiril, tirik so'zlarida esa "tir" qismi ma'noga ega emas. Shuningdek -xona, -noma, -xo'r, -boy kabilar aniq o'zak morfema ma'nosidan uzoqlashib, qo'shimcha morfemaga aylangan. Morflar turli ko'rinishlarga ega bo'ladi. Masalan: ishla so'zidagi -la elementi hayda so'zida -da shaklida kelgan (lekin hay-hayla fe'lida yana -la tusida qo'llangan), hozir ajralmaydigan **unda** so'zida ham aslida shu -da qo'shimchasi bor (un ovoz). Bu -la va -da ko'rinishlari umumiy tarzda morfema deyiladi. Buning har bir ko'rinishi esa morf (allomorf) sanaladi. Bu

turli ko‘rinishdagi qismlar, morflar bir-biriga nisbatan allomorf sanaladi. Bu hol o‘zak morfemalarda ham ko‘rinadi: **tashqi** so‘zidagi **tash** elementi **tish** tusida ko‘p uchraydi. Yana: *kuchuk uvladi - bo‘ri ulidi* (uv va u).

Morfemalar vazifasiga ko‘ra so‘z yasalishiga ham, shakl yasalishiga ham aloqador. Masalan, **temirchi** (qo‘shimcha orqali so‘z yasash), **temirni** (qo‘shimcha orqali shakl yasash).

Qo‘shimcha morfemalarning ayrim xususiyatlari

Qo‘shimcha mustaqil qo‘llanmaydigan, ammo o‘zakka qo‘shilib uning leksik va grammatik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan har xil ma‘nolarni ifodalashga xizmat qiladigan morfemadir.

qo‘shimchalar tashqi tomonlari, ma‘nolari, vazifasi va qo‘llanishi jihatidan bir qancha xususiyatga ega.

qo‘shimchalar tashqi tomondan fonetik strukturasi ko‘ra bir unli (tinch+i), bir undosh (tila+k, tuga+l), unli va undosh (daftar+im), undosh va unli (xato+si), undosh - unli -undosh (yaxshi+lik) va boshqalarga bo‘linadi.

qo‘shimchalarning kelib chiqishi. Bu hodisa so‘zlarning taraqqiyot yo‘li bilan bog‘liq.

1. qo‘shimcha mustaqil so‘zdan kelib chiqqan (boradigan -borib turgan -turgan -digan; -dir<tur).

2. Bir qo‘shimchaning fonetik varianti bora-bora ma‘no va vazifa jihatidan farqlanib ikki qo‘shimcha tug‘ilgan (-gan sifatdosh uchun, -qin ot va sifat uchun: qochqin, toshqin, qizg‘in, yong‘in).

3. Bir qo‘shimchaning urchib, ikki qo‘shimcha bo‘lib ketishi kitobcha (kichik kitob), mingtacha (taxmin: -cha urg‘usiz).

4. qo‘shimchalarning qo‘shilishidan (-chilik: mo‘lchilik, -garchilik: yog‘ingarchilik). Ko‘pgina qo‘shimchalarning paydo bo‘lish yo‘llari hali aniq emas.

Boshqa tillardan ham qo‘shimchalar olinadi (-zor, -bon, -don tojik tilidan olingan).

Prefikslar haqida. qo‘shimchalar o‘zbek tilida suffiks xarakteridadir. O‘zak ketiga qo‘shiladi. Prefikslar boshqa tillardan kirgan (antifashist, beish, noto‘g‘ri kabi). qop-qora, kap-katta kabi so‘zlarning bosh qismi (kop, kap) prefiks emas. Ular aslida o‘sha o‘zakning bir qismining takrorlanishidir. O‘zbek tilida infiks (o‘zak ichiga qo‘shiladigan qo‘shimcha) yo‘q. Demak, qo‘llanish o‘rniga ko‘ra qo‘shimchalar ikkiga bo‘linadi: suffikslar va prefikslar.

Affiksoïdlar. Ba'zi so'zlar qo'shimcha vazifasini bajarib, ergash morfemaga aylana boshlagan bo'lsa ham, hali qo'shimchaga aylanib yetmagan bo'ladi. Bular affiksoïd sanaladi. Masalan, Bu uyda to'rt xona bor. Biz ishxonaga bordik. Misollardagi xona elementi o'ni bilan so'z bo'lib ham, qo'shimcha bo'lib ham qo'llangan. U bir o'rinda o'zak morfema, boshqa o'rinda ergash morfema. Keyingi holda o'rin bildiradigan qo'shimchaga juda yaqin. Chog'ishtiring: muzxona-muzlik, sartaroshxona-sartaroshlik. -jon, -xon, -oy elementlari ham xuddi shunday: jon qizlar-qizlarjon, jonim otam-otajonim kabi.

qo'shimchalarning har biri o'ziga xos ma'noga ega: -chi so'z yasovchi, -lar ko'plik, -ga kelishik va h.k. Ammo ular bajaradigan **vazifasiga ko'ra** ikki turga bo'linadi:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar.
2. Shakl yasovchi qo'shimchalar.

Yangi leksik ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi: ish+la, ish+chi, kurs+dosh.

So'z yasovchi qo'shimchalarning o'ziga xos xususiyatlari "So'z yasalishi" bobida batafsil bayon etiladi.

So'zning grammatik ma'nosini hosil qiluvchi qo'shimchalar shakl (forma) yasovchi qo'shimchalar deyiladi: gullarga so'zidagi -lar ko'plik ma'nosini, -ga kelishik (jo'nalish) ma'nosini hosil qilayotgan shakllardir. **Ishlamayapti** so'zida -ma inkor, -yap zamon, -ti shaxs -son ma'nolarini ifodalayapti.

So'z yasovchi qo'shimchalar so'zning material qismiga, leksik ma'no ifodalovchi qismiga kiradi. Shakl yasovchilar esa so'zning formal qismida bo'ladi:

Masalan: terimchilarga so'zida terimchi-material qism, -larga formal qism -so'z shakli hisoblanadi.

Shakl yasovchi qo'shimchalar asosiy xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Kategorial shaklni yasovchi qo'shimchalar.
2. Nokategorial shaklni yasovchi qo'shimchalar.

Ma'lum so'z turkumidagi biror grammatik kategoriyaga xos shakl yasash uchun xizmat qiladigan qo'shimchalar kategorial shakl yasovchi qo'shimchalar deyiladi: otlardagi ko'plik, egalik va kelishik shaklini yasovchi qo'shimchalar, fe'lning mayl, zamon shaxs -son shaklini yasovchi qo'shimchalar bunga misol bo'la oladi,

Grammatik kategoriyaga oid bo‘lmagan ma’noni ifodalovchi, ma’lum sintaktik vazifaga xoslangan so‘z shaklini hosil qiluvchi qo‘shimchalar nokategorial shakl (funktional shakl) yasovchi qo‘shimchalar deyiladi: otning kichraytirish, erkalash shakli, fe'lning sifatdosh, ravishdosh shaklini hosil qiluvchi qo‘shimchalar (-cha, -choq, -chak, -ar, -ib).

Bu o‘rinda so‘zning morfema strukturasi va so‘zning morfologik strukturasi tushunchalarini izohlash ham o‘rinli. So‘zning morfema strukturasi – so‘zning morfemalardan iboratligi: ish+chi+lar.

So‘zning morfologik strukturasi so‘zning shakl yasalishi uchun asos bo‘ladigan qism bilan shakl yasovchi qismdan iborat strukturasi: terimchi+lar, ishchi+ga, kitob+dan.

So‘z tarkibi yoki so‘z strukturasi uch nuqtay nazardan yondashiladi:

1. Morfema strukturasi - necha morfemadan iborat: ish+chi so‘zi ikki morfemali.

2. So‘z yasaliş strukturasi - yasaliş asosi va yasovchi: ish+chi, terim+chi.

3. Shakl yasaliş strukturasi yoki morfologik strukturasi -yasaliş asosi va shakl yasovchi: ish+lar, ishchi+lar.

Qo‘shimchalarning tuzilishi

qo‘shimchalar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: sodda qo‘shimchalar va qo‘shma qo‘shimchalar.

Birgina ma’noli qismdan iborat bo‘lgan qo‘shimcha morfema sodda qo‘shimcha deyiladi: -chi, -zor, -dosh, -ga, -da, -dan, -roq kabi.

Birdan ortiq qo‘shimchalarning o‘zaro birikuvidan hosil bo‘lgan qo‘shimcha morfemalar qo‘shma qo‘shimcha deyiladi: -chilik, -garchilik, -garlik, -moqda kabi. qo‘shma qo‘shimchalarda ergash morfemalar bir-biridan ajralmaydi: kosibchilik, ikki tomonlama, yog‘ingarchilik kabi.

O‘zbek tilidagi qo‘shma qo‘shimchalarning o‘ziga xos xususiyatlari A.Berdialiyev tomonidan maxsus tadqiq qilingan.

So‘zlardagi kabi qo‘shimchalarda ham **polisemiya**, **sinonimiya**, **antonimiya** va **omonimiya** hodisalari mavjud.

qo‘shimchalar omonimiyasi. Semantik tomondan o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan, turli ma’nolarni bildiruvchi har xil qo‘shimchalarning tashqi jihatdan bir xil bo‘lishi qo‘shimcha **omonimiyasi** deyiladi. Masalan: yotoq,

o‘roq, qo‘rqoq, qochoq so‘zlaridagi -oq qo‘shimchasi fonetik tomondan o‘xshash bo‘lsa ham, bular to‘rtta har xil qo‘shimchadir.

qo‘shimchalar omonimiyasi turli tipdagi ergash morfemalar orasida uchraydi: 1. So‘z yasovchi qo‘shimchalarning o‘z doirasida: to‘plam (-m qo‘shimchasi harakat natijasi oti yasaydi), o‘rim (-im qo‘shimchasi proses nomi yasaydi). 2. So‘z yasovchi qo‘shimcha bilan shakl yasovchi qo‘shimcha orasida: tinchi (-i fe‘l yasovchi qo‘shimchasi **u tinchidi**; uchinchi shaxsni ko‘rsatuvchi egalik qo‘shimchasi -i ham shu formada bo‘ladi -kitobi). 3. Shakl yasovchi qo‘shimchalarning o‘z doirasida: oqish – sifat (-ish belgining o‘zligini bildiradi), chopish – fe‘l (-ish fe‘lning funksional shaklini hosil qiladi.)

4. Omonim qo‘shimchalar urg‘u orqali farqlanadi: urg‘uli -ma qo‘shimchasi ot, sifat yasaydi, urg‘usiz -ma qo‘shimchasi fe‘l yasaydi va h.k.

qo‘shimchalar omonimiyasi hodisasining o‘ziga xos xususiyatlari M. Jo‘raboyeva tomonidan tadqiq etilgan.

Qo‘shimchalar sinonimiyasi. Shaklan har xil, umumiy ma‘nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan qo‘shimchalar sinonim qo‘shimchadeyiladi: -yap, -yotir, -moqda qo‘shimchalari hozirgi zamon davom fe‘lini yasaydi. -li va -dor qo‘shimchalari egalikni ifodalaydi: homilali, homilador. -giz, -dir qo‘shimchalari fe‘lning ortirma nisbatini yasaydi: oldir – olg‘iz, kiydir – kiygiz kabi.

Sinonim absolyut tenglikka ega emas. Ular ma‘nosi, uslubiy bo‘yog‘i, qo‘llanish doirasi bilan o‘zaro farqlanib turadi. Bu farqlarga e‘tibor qilish orqali mazmuni ochiq, nozik ottenkalarni hamda emotsiyalarni aniq berishga, umuman, uslubiy jihatdan savodli bo‘lishga erishiladi.

Sinonim qo‘shimchalar boshqa tillardan, shevalardan qo‘shimchalar olish yo‘li bilan hosil bo‘ladi.

Sinonim qo‘shimchalar so‘z yasovchilarda ham (unumli, unumdor), shakl yasovchilarda ham (oqish, oqimtir, aytingiz, aytinglar) uchraydi.

Sinonim qo‘shimchalarning o‘ziga xos xususiyatlari Y.Tojiyev tomonidan maxsus tadqiq etilgan.

Qo‘shimchalar antonimiyasi. qarama-qarshi ma‘no bildiruvchi qo‘shimchalar antonim qo‘shimcha deyiladi. qo‘shimchalar antonimiyasi, asosan, so‘z yasovchi qo‘shimchalar doirasida uchraydi: -li, -siz: aqlli, aqlsiz; -li, be-: suvli, besuv; be-, ba-: bedavlat, badavlat.

qo‘shimchalar antonimiyasining o‘ziga xos xususiyatlari B.Isabekov tomonidan ilmiy tekshirilgan.

Qo‘shimchalar polisemiyasi. Birdan ortiq leksik yoki grammatik ma‘noni hosil qiluvchi qo‘shimcha ko‘p ma‘noli qo‘shimcha deyiladi. Masalan, -chilik qo‘shimchasi quyidagi ma‘nodagi otlar yasaydi:

1. Asosdan anglashilgan narsani yetishtiradigan sohani ifodalovchi ot: paxtachilik, uzumchilik, urug‘chilik. 2. Asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiradi: pishiqchilik, arzonchilik. 3. Asosdan anglashilgan tushuncha bilan bog‘liq bo‘lgan ishni anglatadi: ulfatchilik, o‘rtoqchilik.

Jo‘nalish kelishigi shakli -ga: 1. Harakat yo‘naltirilgan tomonni ifodalaydi: uyga. 2. Atalganlik ma‘nosini anglatadi: ukamga oldim. 3. Payt ma‘nosini bildiradi: yozga chiqdi.

2-ma‘ruza.SO‘Z YASALISHI. SO‘Z TURKUMLARIDA SO‘Z YASALISHI

REJA:

1. So‘z yasalishi haqida umumiy ma‘lumot.
2. O‘zbek tilida so‘z yasash usullari.
3. So‘z turkumlarida so‘z yasalishi.

So‘z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohalaridan biri bo‘lib, u yangi so‘z yasalishi va so‘z yasash usullarini o‘rgatadi. So‘z yasalishi morfologiya va leksikologiya bilan o‘zaro bog‘liq.

"So‘z yasalishi" atamasi ikki hodisani nomlash uchun ishlatiladi:

1. So‘z yasalishi, ya‘ni so‘z hosil qilish.
2. Tilshunoslikning bir bo‘limi nomi.

So‘z yasash har qanday usul bilan bo‘lsa-da, yangi so‘z hosil qilish demakdir: ishchi, hozirjavob, besh yillik.

Ma‘lum so‘z negizidan ma‘no va grammatik jihatdan undan farq qiladigan yangi so‘z hosil qilish so‘z yasash deyiladi. So‘z yasash leksik ma‘noning o‘zgarishini nazarda tutadi. Bunda avvalgi so‘zning shakli ham o‘zgaradi: yetak - yetakchi-yetakla.

Turmushda predmetlar, hodisalarni nomlash uchun yangi so‘zlar hosil qilinadi. Yangi so‘z til birligi hisoblanadi. U til birligi sifatida lug‘at tarkibini boyitadi.

Har bir tilning yasama so‘zlari shu tildagi so‘z yasash modellari: o‘zak+suffiks, prefiks+o‘zak, so‘z+so‘z holatida yuzaga keladi: chopiq, besuv, qo‘lqop. Demak, har bir yasalishda ikki elementning munosabati bor. Yasalmadagi ikki element semantik jihatdan ham, formal (tashqi) jihatdan

ham aloqador: o‘roq-chi, ish-chi yasama so‘zlarining ma’nosi yasovchi so‘zning ma’nosiga asoslanadi: yasama o‘zakning ma’nosini rivojlantiradi, o‘shandan kelib chiqadi. Masalan: o‘roq yasalmasining ma’nosi o‘rish harakati bilan asoslaniladi (motivlovchi). Shunga ko‘ra birinchi element asoslovchi (motivlovchi), ikkinchi element asoslanuvchi (motivlanuvchi), ikkala elementning orasidagi munosabat motivatsiya munosabati sanaladi. Demak, "motivlashgan" so‘zi "yasalgan" degan ma’noni ifodalaydi.

So‘z yasovchi o‘zlashgan qo‘shimchani baholashda uning o‘zbek tilida ham yangi so‘z yasash uchun xizmat qilishi yoki qilmasligini hisobga olish muhimdir. Binobarin, bunday qo‘shimchalar yangi so‘z yasab, o‘zbek tili leksikasini boyitishi kerak. Aks holda bular o‘zlashma so‘z yasovchi qo‘shimcha sanalmaydi (-ik, -ak, -izm, -ist) kabi.

So‘z yasash yo‘llari

Leksika doimiy harakatda bo‘lib, uning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil. Leksika, asosan, boshqa tillardan so‘z olish va ichki imkoniyat asosida yangi so‘z yasash bilan boyib boradi. Yangi so‘z, odatda, tildagi bor materialdan yaratiladi. Eritma so‘zining (eri+t+ma) materiali va modeli, vositasi avvaldan ma’lum, lekin hosil bo‘lgan so‘z yangidir.

O‘zbek tilida so‘z yasashning bir necha usuli bor:

1. Semantik usul. 2. Fonetik usul. 3. Sintaktik usul. 4. Affiksatsiya usuli. 5. Kompozitsiya usuli.

Semantik usul

Tilda bor bo‘lgan so‘zning ma’nosi o‘zgarishi natijasida yangi so‘z hosil bo‘lishi semantik usul bilan so‘z yasash deyiladi: kun – quyosh – (planeta), kun - sutkaning yorug‘ qismi, kunduzi.

Semantik usul bilan so‘z yasashga so‘z ma’nosining o‘zgarishi, konversiya (ko‘chish), polisemiya asosida omonimlarning vujudga kelishi kiradi. Kechasi -ot (vaqt nomi); kechasi - otdan yuzaga kelgan ravish so‘z ma’nosining o‘zgarishi), oldingilar (sifatdan otga ko‘chirish: oldingi odamlar). Tosh – jism, ot yoki biror narsaning toshib ichidan sirtiga chiqishi - fe'l. Ich- (ichki qism) ot, ich (ichiga yutish) -fe'l (polisemiya asosida omonim vujudga kelgan).

Fonetik usul

Tilda tovush o‘zgarishi natijasida paydo bo‘lgan yangi so‘zlar fonetik usul bilan so‘z yasash deyiladi:

1. Soʻz tarkibida fonetik oʻzgarish orqali: tun-kun, aka-uka.

2. Urgʻuning oʻrnini oʻzgartish orqali: yangi-yangi. Prof. A.Gʻulomov "Ichki oʻzgarish yoʻli bilan soʻz yasash" (Nauchnaya sessiya AN UzSSR, Toshkent, 1947. 338-392-betlar) maqolasida fonetik usul bilan soʻz yasashni juda qadimgi usul deb hisoblaydi. Uni affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan soʻz yasashdan ilgari hodisa deb aytadi. A. Gʻulomov ichki oʻzgarish faqat tovushlarning oʻzgarishi bilan emas, tovushlarning ikkilanishi, tovush tushib qolishi va tovushlarning oʻrin almashtirishi usullari boʻlganligini aytadi va quyidagi misollarni keltiradi: koʻz-koʻr, tosh-tesh, aka-uka, siq-suq tovush almashish usuli; silamoq-siylamoq, oʻt-trava, oʻt-jeloch tovushlarni choʻzish orqali soʻz yasash; qatiq-qattiq tovushlarni ikkilantirish usuli bilan, sol-ol, togʻ-a-ogʻa, toshmoq-oshmoq tovushlarning birini tushirish bilan; siq-qis, choʻk-koʻch tovushlarning oʻrnini almashtirish va h.k.

Prof. S.Usmonov "Soʻz yasash formasi" maqolasida (Nizomiy nomli pedinstitutasi asarlari, 42-tom, Toshkent, 1964, 349-b.) "Turkiy tillarda ichki fleksiya masalasi juda munozarali" deb fonetik usul bilan soʻz yasashiga shubha bildiradi.

Sintaktik - leksik usul

Soʻz birikmasining soʻzga aylanishi yoʻli bilan soʻz yasash sintaktik - leksik usul deyiladi. Vaqtlar oʻtishi bilan maʼlum tipdagi soʻz birikmalari bir soʻzga aylanib, bir leksik maʼno anglatadigan boʻlib qoladi: asalari, tokqaychi, joʻxoripoya, mingboshi.

Affiksatsiya usuli

Soʻzga qoʻshimcha qoʻshish orqali yangi soʻz hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi: ishchi, oʻrmonchi, oʻyla, yopiq, ochiq. Bu usul eng faol usuldir. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilish oʻrniga koʻra suffiks va prefiks xarakteridadir: betinim, tinimsiz. Soʻz yasovchi qoʻshimcha birdan ortiq qoʻshilishi mumkin: bil+im+don+lik. Agar qoʻshimcha oʻzbek tili soʻzlariga ham, boshqa til soʻzlariga ham qoʻshilib yangi soʻz yasasa, u soʻz yasovchi hisoblanadi: oilaviy, texnikaviy, mafkuraviy, fizikaviy kabi. Faqat oʻzlashma soʻz tarkibidagina uchrasa, bu soʻz yasovchi hisoblanmaydi: -ist: kommunist; -yat: majburiyat.

Soʻz yasovchi qoʻshimcha sodda yoki qoʻshma boʻlishi mumkin: -chi, -la, -k, -sodda; -chilik, -garchilik qoʻshma.

Soʻz yasash darajasiga koʻra qoʻshimchalar uchga boʻlinadi:

1. Unumli. 2. Kam unum. 3. Unumsiz.

Unumli qoʻshimchalar: -chi, -la, -lik, -li, -chi, -dor.

Kam unum: -dosh, -ma, -ch, -don.

Unumsiz: -kash, -g'on, -gar, -vul; -xona, -noma kabi qo'shimchaoidlar ham so'z yasash uchun xizmat qiladi: choyxona, ishxona, tabriknoma.

Etimologik jihatdan so'z yasovchilarning asosiy qismi o'zbekchadir.

Kompozitsiya usuli

Birdan ortiq o'zak morfemalarni qo'shish orqali yangi so'z hosil qilish kompozitsiya usuli deyiladi. Kompozitsiya usuli bilan qo'shma so'z hosil qilinadi: tuyaqush, oybolta, havorang, sotib ol, olib bor. Kompozita - qo'shma so'z demakdir. Sodda so'zda mustaqil ma'noli morfema bitta bo'lsa, qo'shma so'zda birdan ortiq bo'ladi. Chog'ishtiring: temirchi, tortinchoq, boshla, belbog', qo'lqop, asalari.

Agar qo'shma so'z tarkibidagi bir morfema o'z ma'nosini yo'qotgan bo'lsa, sodda so'z sanalaveradi: kechqurun, quloqchin.

O'zlashma qo'shma so'zlarning morfemalari o'zbek tili uchun uqilmasa, sodda so'z sanaladi: odamshavanda, dardisar, astoydil, santimetr.

qo'shma so'z so'z birikmasidan quyidagi belgilari bilan farq qiladi:

1. qo'shma so'zning komponentlari - morfema; so'z birikmasining komponentlari so'zlardir.

2. qo'shma so'z komponentlari birikib, yaxlitligicha bir ma'no ifodalaydi. So'z birikmalarida komponentlar leksik mustaqilligini saqlaydi. Chog'ishtiring: tuyaqush, oybolta; qora portfelli, o'n besh qavatli.

3. Mustaqil ma'noli so'z bilan yordamchi so'zning birikishidan qo'shma so'z hosil bo'lmaydi. Shunga ko'ra yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan: o'qib bermoq, yoza boshlamoq, yotib qolmoq kabilar qo'shma so'z emas. So'z birikmasi ham emas. Chunki bularning ikkinchisi o'z ma'nosimi saqlamagan. Bular fe'lning analitik formalaridir.

4. qo'shma so'z stabil bo'lib, nutqda tayyor bo'ladi. So'z birikmasi nutq jarayonida yaratiladi: shakarkon (qo'shma so'z) - shakarning koni (so'z birikmasi).

5. qo'shma so'z turg'un birikmaga o'xshaydi. Ammo turg'un birikmalar ko'chma ma'no ifodalaydi: yer yong'oq, bosh barmoq (qo'shma so'z) - zangori olov (gaz), zangori kema (mashina), gapning tuzi (ma'nosi), ko'zi ochildi (tushundi).

6. qo'shma so'z so'z birikmasi bilan omonimlik tashkil qiladi: oqqovun (qovun turi) - oq qovun (rang ifodasi), qizil urug' (rang ifodasi) – qizilurug' (qovun turi).

7. qo'shma otlarning bir qismi (bir leksik-grammatik kategoriyadagi so'zlarning boshqa kategoriyaga ko'chishi) konversiya hodisasi bilan bog'liq:

muz yorar (muzni yorib o‘tadigan paroxod), qo‘sh quloq (qo‘sh quloqli idish).

8. qo‘shma so‘zning komponentlari o‘z turg‘un tartibiga ega. Masalan otlarda, odatda, aniqlovchi aniqlanmish: tishcho‘tka, kirsovun.

So‘z yasash borasida qo‘shma so‘z atamasi juft so‘zlarni: yosh-qari (hamma) qovun-tarvuz (poliz), erta - kech (doim); qisqartmalarni (BMT, XXR), shuningdek, so‘z takrori yo‘li bilan hosil qilingan so‘zlarni ham o‘z ichiga oladi.

Abbreviatsiya yo‘li bilan so‘z yasash o‘zbek tilining keyingi davrda erishgan yutuqlaridan biridir. Abbreviatura qo‘shma qisqartma so‘zlar bo‘lib, ular bir so‘z kabi qo‘llanadi. O‘zi maxsus qo‘shimchalar ham oladi: Rayijrokomdan keldi. So‘z yasashning bu turi ot turkumiga xosdir.

Takror yo‘li bilan so‘z yasash (paqpaq, bibip, kuku) qadimgi ko‘rinishdir.

Takror ikki xil:

1. Odatdagi takror.
2. Ikkilanish (udvoyeniya).

Oddiy takror ma‘noni kuchaytiradi, ekspressivlik beradi: tezroq-tezroq yur. O‘ylab-o‘ylab bir fikrga keldi. Ikkilanish so‘z qo‘shishning bir ko‘rinishi bo‘lib takrorlanayotgan elementlarining bir xilligi bilan xarakterlanadi: Tur-turi boshlandi, bibip kelyapti, qoch-qoch tugadi.

Takror so‘z yasash vositasi bo‘lganida, so‘z qo‘shish hodisasi bilan o‘xshashlik tug‘diradi. qiyoslang: Kuku (qush), Ko‘ksuv (joy oti). Grammatik vosita bo‘lganida esa affiksatsiya bilan yaqinlashadi: Kim-kim keldi? - Kimlar keldi? – ko‘plik ma‘nosi ifodalanadi.

Takror yo‘li bilan yasash bir qancha ko‘rinishlarga ega.

1. Taqlid so‘z ikkilanib, shu tovush bilan xarakterlanadigan predmetning nomi hosil qilinadi: shaqshaq (qush), tutu (tovuq), pat-pat (motosikl).

2. Ot turkumiga xos so‘zlar ikkilanib, shu so‘z ifodalagan predmet bilan bog‘langan o‘yin nomi hosil qilinadi: ot-ot, xola-xola, kino-kino.

Juft so‘zlar strukturasi ko‘ra ikkilanish yo‘li bilan yasalgan so‘zlarga ancha o‘xshasa qam, aniqlovchilik tipidagi qo‘shma so‘zlardan bir qancha tomonlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilar:

1. Juft so‘zlar orasidagi bog‘lanish tenglanish asosida, qo‘shma so‘zlarda esa tobelanish asosidadir. Chog‘ishtiring: eski-yangi eski va yangi (har xil), katta-kichik, katta va kichik (hamma); belbog‘, ko‘zoynak.

2. Juft soʻzlar bir turkum doirasida boʻladi. qoʻshma soʻzlar turli soʻz turkumlaridan ifodalangan boʻlishi mumkin. Chogʻishtiring: qovun-tarvuz, eski-yangi, beshotar, oqtepa.

3. qoʻshma soʻz bir bosh urgʻuga ega boʻladi, juft soʻzlarda har ikki komponent ham urgʻuli boʻladi.

Juft soʻzlarning asosiy semantik xususiyati umumlashtirish, jamligni bildirishdir: erta-kech (doim), olma-oʻrik (hoʻl mevalar), jiyda-mayiz (quruq mevalar).

Demak, juft usuldagi soʻz yaslashida birinchidan, juftlangan soʻz yangi maʼno berishi kerak. Ikkinchidan, shu tilda umumlashtiruvchi leksik maʼno ifodalashi kerak: ota-ona, er-xotin, kelin-kuyov juft soʻz yasalishi emas. Ular rus tilida roditeli, suprug, molodojyoni maʼnosini beradi. Bularda umumlashtiruvchi leksik maʼno yoʻq.

Soʻz turkumlarida soʻz yasalishi

Ot yasalishi

Yasama otlar: 1. Affiksatsiya. 2. Kompozitsiya. 3. Abbreviatura yoʻllari bilan yasaladi.

Affiksatsiya usuli bilan ot yasash. Bu usul ot yasashdagi eng mahsuldor usuldir. Affiks qoʻshish yordami bilan yasalgan otlar tubandagi maʼno gruppalariga boʻlinadi:

1. Shaxs otlari.
2. Narsa, qurol otlari.
3. Oʻrin, joy otlari.
4. Abstrakt otlar.

Shaxs oti yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qoʻshilib "shugʻullanuvchi" maʼnosini anglatuvchi shaxs otlarini yasaydi. Bunday otlar sof oʻzbekcha affikslar bilan ham, tojik tilidan qabul qilingan affikslar bilan ham yasaladi. Hozirgi oʻzbek tilida shaxs oti yasovchi affikslar quyidagilar:

- chi: ishchi, qiziqchi, boʻyoqchi, tabelchi.
- dosh: suhbatdosh, maktabdosh.
- gar: zargar, sovungar.
- kor: paxtakor, sholikor.
- bon: saroybon, bogʻbon.
- dor: muhrdor, chorvador.
- shunos: tilshunos, huquqshunos.
- furush: nosfurush, doʻppifurush.
- soz: soatsoz, kemasoz.
- doʻz: mahsidoʻz, etikdoʻz.

- paz: oshpaz, kabobpaz.
- kash: chizmakash, aravakash.
- boz: kaptarboz, qimorboz.
- xon: kitobxon, gazetxon.

Narsa, qurol oti yasovchi affikslar. O‘zbek tilida ot va fe'l o‘zaklarga qo‘shiladi. Narsa, qurol oti yasovchi affikslar quyidagilar:

- gich (g‘ich, kich, -qich): o‘tkazgich, yelpig‘ich, ko‘rsatkich, ochqich.
- ma: o‘sma, qatlama.
- m (-im): to‘plam, bo‘lim.
- k (-q): kurak, bo‘yoq.
- indi: yuvindi, qirindi.
- in: ekin.
- daq, -doq: kekirdak, qovurdoq.
- chi: tomchi, duyunchi.
- don: tuzdon, siyohdon, surmadon.

O‘rin, joy oti yasovchi affikslar:

- zor: bodomzor, shaftolizor.
- iston: O‘zbekiston, Tojikiston.
- goh: qarorgoh, sayrgoh.
- xona: dorixona, ishxona.
- loq: o‘tloq, qumloq.
- obod: Hamzaobod, Murodobod.

Mavhum ma’noli ot yasovchilar:

- lik: yaxshilik, go‘zallik.
- chilik: pillachilik, paxtachilik.
- garchilik: loygarchilik, odamgarchilik.
- ch, -inch: ishonch, sevinch.
- sh, -ish: qurilish, yig‘ilish.
- lashtirish: radiolashtirish, elektrlashtirish.

Kompozitsiya usuli bilan ot yasash. Bu usulda qo‘shma otlar vujudga keladi: tuyaqush, ko‘zoynak, belbog‘, yalangoyoq.

qo‘shma otlar material jihatidan:

1. Ot+ot: Mirzacho‘l, bilakuzuk.
2. Sifat+ot: Kattaqo‘rg‘on, achchiqtosh.
3. Son+ot: uchburchak, beshariq.
4. Ot+fe'l: o‘rinbosar, kungaboqar.
5. Ikki mustaqil fe'l: olibsotar, ishlab chiqarish.

Sifat yasalishi

Boshqa soʻz turkumlari singari sifat turkumi xam toʻxtovsiz ravishda yangi soʻzlar bilan toʻldirilib, boyib turadi. Bu boyish, avvalo, yangi sifatlar yasalishida koʻrinsa, soʻngra, rus tilidan qabul qilingan tayyor sifatlarni olish bilan amalga oshadi. Bunga rus tili orqali oʻzlashgan dokumental, dialektal, progressiv, revolyutsion, reaksion, effektiv kabilarni koʻrsatish mumkin.

Sifatlar, asosan, ikki yoʻl bilan yasaladi:

- 1) affiksatsiya;
- 2) kompozitsiya.

Affiksatsiya yoʻli bilan sodda sifatlar yasalsa, kompozitsiya yoʻli bilan qoʻshma sifatlar yasaladi.

Affiksatsiya yoʻli bilan sifat yasash

Affiksatsiya yoʻli bilan sifat yasash mahsuldir. Bu yoʻl bilan boshqa soʻz turkumlaridan turli maʼnodagi sifatlar hosil qilinadi.

-li qoʻshimchasi sifat yasovchilar ichida eng sermahsuli boʻlib, asosan, ot turkumidagi soʻzlardan sifat yasaydi: sevimli, maslahatli, bilimli, suvli kabi. Bu qoʻshimcha turli soʻzlarga qoʻshilib shu oʻzakdan anglashgan predmetga egalikni yoki predmetning biror ish uchun yaroqli ekanligini bildiradi: aqlli, uyli, mazali, minishli, yeyishli.

-dor. Bu qoʻshimcha maʼno va vazifasi jihatidan -li qoʻshimchasiga yaqin turadi: jozibador, aybdor, aloqador, vafodor.

ser- qoʻshimchasi -li va -dor qoʻshimchalari bilan yasalgan sifatlarga sinonim boʻla oladi: sershox, sersoqol, serunum, sergoʻsht, sersuv.

ba- qoʻshimchasi arabcha va tojikcha oʻzlashgan soʻzlarga qoʻshilib sifat yasaydi: baquvvat, basavlat.

-mand qoʻshimchasi asosdan anglashilgan predmetga egalik maʼnosini ifodalaydi: davlatmand, kasalmand.

-kor shakli asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi: zulmkor, ehtiyotkor, isyonkor.

-siz, be-, no- qoʻshimchalari asosdan anglashilgan narsa holatga ega emaslik belgisini ifodalovchi sifatlar yasaydi: kuchsiz, pulsiz, beor, bexosiyat, nooʻrin.

-chan shakli moyillik maʼnosidagi sifatlar yasaydi: uyatchan, xayolchan, talabchan.

-choq, -chiq, -chak qoʻshimchalari asosdan anglashilgan predmetga moyillikning kuchsizligini ifodalaydi: urinchoq, tortinchoq, sirgʻanchiq, kuyunchak, erinchak.

-qoq qoʻshimchasi: tirishqoq, urishqoq.

-gir (-kir, -g'ir) qo'shimchalari belgi xususiyat anglatadi sezgir, keskir, o'tkir, topqir, olg'ir.

-ag'on, -mon: bilag'on, topag'on, bilarmon.

-ki, -qi: jizzaki, shartaki, vaysaqi.

-k (-k, -g'): chirik, o'lik, yaltiroq, yorug'.

-kin, -kun, -gin, -g'in: tushkun, jo'shqin, ozg'in,

-ma: ag'darma (etik), qovurma (sho'rva).

-mas: bo'linmas, yengilmas.

-ildoq: qaqildoq, chiyildoq.

-ch: tinch, jirkanch.

-gi, -ki, -qi: oxirgi, bahorgi, tushki, tashqi.

-i: qishloqi, bahori.

-cha: o'zbekcha, erkakcha.

-namo, -simon: majnunnamo, maymunsimon.

-parvar: insonparvar, vatanparvar.

-aki: zo'raki, qalbaki, yuzaki.

bad-: badaxloq, badbashara, badqovoq.

-chil, -don, -bop, xush-, -kash kabi qator sifat yasovchilar borki, ular turli ma'nodagi sifatlar yasay oladi.

Kompozitsiya yo'li bilan sifat yasash

Kompozitsiya usuli bilan qo'shma sifatlar hosil qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega. qo'shma sifat hosil qilishda ikki va undan ortiq komponent semantik va grammatik jihatdan biriktiriladi.

Tarkibiga ko'ra bunday sifatlar quyidagilarga bo'linadi:

1. Ikki sifatdan tarkib topgan bo'ladi: olachipor, och sariq, to'q qizil.
2. Sifat va otdan: ochko'z, qimmatbaho, sheryurak.
3. Ot yoki ravish va sifatdoshdan tashkil topgan: tinchliksevar, tezpishar.
4. Ot va aro so'zidan tarkib topadi: xalqaro, shaharlararo. qo'shma sifatlar bilan sifatlovchi birikmalarni farqlash lozim. Bunda sifatning predmet belgisini bildirishini asosga olish bilan birga, uning grammatik belgisini ham hisobga olish kerak. Masalan: ko'k muqovali kitob gapida «ko'k muqovali» qo'shma sifat emas. Chunki bu birikma komponentlari o'zaro aniqlovchi aniqlanmishlik munosabatini saqlagan. Ya'ni ko'k muqovali kitob deganda, ko'k va muqova so'zlari o'z mustaqil ma'nosini saqlaganligi ko'rinadi. qora telpakli yigit, oq soqolli kishi, o'rta ma'lumotli qiz, besh qavatli bino birikmalari tarkibidagi so'zlarni almashtirish mumkin. qo'shma sifatlarda bunday qilib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, qo‘shma sifatlar sodda sifatlar singari darajalana oladi: kaltafahm, kaltafahmroq, eng kaltafahm.

Umuman, -li qo‘shimchasini olgan birikmalar qo‘shma sifat emas.

Ba‘zan pauzani o‘zgartish orqali -li qo‘shimchasini olgan birikmalarning o‘zaro aloqasini o‘zgartirish mo‘mkin: uch bolali ayol, sakkizta fonarli uy.

Fe‘l yasalishi

Fe'llar o‘ziga xos yasalish sistemasiga ega. Tilimizdagi fe'llar, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi. Yasash asosiga qo‘shilib -*la*, -*lan*, -*lash*, -*lashtir*, -(*a*)/*y* kabi affikslar mahsuldor bo‘lib, juda ko‘p miqdorda fe‘l yasashga xizmat qiladi.

1. -*la* affiksi quyidagi qoliplarda yangi so‘z hosil qiladi:

ot+*la-ishla*, *gulla*, *tuzla*, *bog‘la*;

sifat+*la-qorala*, *tekisla*, *tezla*, *tozala*;

ravish+*la-qaytala*, *hozirla*....;

olmosh+*la-sizla*, *senla*;

taqlid+*la-gumburla*, *dukrula*....;

undov+*la-dodla*, *voyvoyla*, *tufla*....

2. -*lan*, -*lash*, -*lashtir* kabi murakkab affikslar-

ot, sifat, son+*lan-zavqlan*, *ajablan*, *ikkilan*....;

ot, sifat, son+*lash-salomlash*, *tezlash*, *birlash*....:

ot+*lashtir-rejalashtir(moq)*, *gazlashtir(moq)*, *ekranlashtir(moq)*... -turli ma‘nolarga ega bo‘lgan fe'llar yasaydi. Yuqorida ko‘rsatilgan affikslar orqali yasalgan fe'llarni ma‘no jihatidan guruhlash mushkul, chunki tilimizdagi *ovqatlanmoq*, *kasallanmoq*, *foydalanmoq*, *to‘lqinlanmoq*, *ahdlashmoq*, *qiyinlashmoq*, *oydinlashmoq* kabi yuzlab fe'llarning har biri rang-barang ma‘nolarni o‘zida voqelantiradi.

3. -*r/ar*, -*y/ay* affikslari sifat+*r/ar*, ot, sifat+*y/ay* qolipida biror belgini qabul qilish ma‘nosini ifodalovchi fe'llar yasaydi. Chunochi, *qisqar(moq)*, *pasay(moq)*, *toray(moq)*, *kuchay(moq)*....

4. Fe'l yasovchi -*a*, -*illa*, -*sira*, -*k/ik*, -*q/iq*, -*ira*, -*i* kabilar kamunum affikslar sanaladi va

ot, sifat, taqlid+*a-sana*, *o‘yna*, *qiyna*, *ata*, *bo‘sha*, *shildira*, *yiltira*;

taqlid+ *illa-chirsilla*, *chirqilla*, *mo‘ltilla*, *guvulla*, *likilla*;

ot, olmosh+*sira-suvsira*, *gumonsira*, *hadiksira*, *sensira*, *manmansira*, *sizsira*;

ot, sifat, son+*k/ik-ko‘zik(moq)*, *kechik(moq)*, *birik(moq)*;

sifat+*q/iq-zo‘riq(moq)*, *zoriq(moq)*;

taqlid+ *ira-yaltira*, *miltira*, *qaltira*;

ot, sifat+i-changi(moq), boyi(moq), tinchi(moq) qolipidagi fe'llarni yasashga xizmat qiladi. Affiksatsiya usuli bilan fe'l yasalmaydi.

Kompozitsiya usuli bilan, ma'lumki, fe'l+fe'l-olib *bermoq, aytib ketmoq, sotib bermoq, olib qochmoq, sakrab turmoq;*

ot+fe'l-ta`zim *qilmoq, bashorat qilmoq, isbot etmoq, kasal bo'lmoq, fikr qilmoq, zikr etmoq;*

sifat+fe'l-xursand *bo'lmoq, shod etmoq, xafa qilmoq, obod qilmoq, juft bo'lmoq, zada bo'lmoq* kabi qo'shma fe'llar yasaladi.

3-ma'ruza. MORFOLOGIYAGAKIRISH

REJA:

1. Morfologiya va sintaksis munosabati.
2. Grammatik ma'no.
3. Grammatik shakllar.
4. Grammatik kategoriya tushunchasi haqida.
5. Grammatik kategoriya ko'rinishlari va ularning tasnifi.

Morfologiya grammatikaning bir bo'limidir.

Grammatika (grekcha: harf, o'qish va yozish san'ati) tilshunoslik fanining bir qismi bo'lib, tilning grammatik qurilishini tekshiradi.

Grammatika (m-s) so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning birikuvi haqidagi qoidalar yig'indisidir.

Grammatika so'zlarning qo'shimchalar vositasi bilan o'zgarishini, so'zlarning o'zaro bog'lanib gap bo'lib kelishini, gapni to'g'ri, savodli tuzish qoidalarini ham o'rgatadi,

Lug'at tarkibidagi so'zlar o'z holicha fikr mazmunini ifodalamaydi. Chunki so'zlar faqat ma'no (tushuncha) bildiradi. So'zlar, iboralar grammatika qonun-qoidalar asosida tegishli qo'shimchalar yoki yordamchi vositalar bilan o'zaro ma'lum tartibda birikib kelgan taqdirdagina fikr ifodalovchi gaplar shakllanadi: Bolalarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishida o'qituvchilarning ham roli kattadir.

Agar biz yuqorida keltirilgan gapdagi so'zlarni lug'atdagi holatida, ya'ni grammatik jihatdan uyushmagan tarzda keltirsak (bola, Vatan, muhabbat, ruh, tarbiyalash, ish, o'qituvchi, ham, rol, katta deb aytsak), biror fikr kelib chiqmaydi. Demak, so'zlar vositasi bilan fikrni maqsadga muvofiq

ifoda etishda, mazmunli nutqni vujudga keltirishda grammatika va grammatik formalarning ahamiyati g'oyat muhimdir,

O'rganish obyekti, materiali va vazifasi nuqtayi nazaridan grammatikaning bir necha tipi farqlanadi: 1) tarixiy grammatika, 2) tasviriy grammatika, 3) qiyosiy grammatika. Biz bu kursda tasviriy grammatikani o'rganamiz.

Har bir tilning o'ziga xosligini uning fonetik, leksik va grammatik strukturalari aks ettiradi. Bu strukturalarning hammasi bir butun sistemani hosil qiladi. Demak, tilning grammatik qurilishi uning fonetik qurilishi hamda leksik sistemasi bilan uzviy bog'liqdir. Grammatika so'zlarni shakllantiradi, biriktiradi, ularning fikr anglatish vositasi sistemasidagi vazifasini ro'yobga chiqaradi. Bu ma'lum qoidalar, normalar asosida bo'ladi: Bola yugurdi. qiz kuyladi. Bedana sayradi. gaplarining hammasi bir yagona qoida – model asosida tuzilgan gaplardir.

Ko'pgina tillarning grammatik qurilishida o'xshashlik va farqlar mavjud. Tillarning grammatik qurilishidagi o'xshashlik nisbatan sintaksisda kuchli (ayniqsa, qo'shma gaplar strukturasida), farqlanish esa so'z formalarida kuchlidir.

Tilning grammatik va tovush tomoni o'zaro yaqin munosabatda. Har bir grammatik hodisaning tovush bilan ifodalanishi grammatikaning fonetika bilan munosabatini ko'rsatadi. qiyoslang: gapning xarakterli belgilaridan biri — intonatsiyadir. Yoki so'z urg'usining turli bo'g'inlarga tushishi uning turkumini o'zgartiradi: qushcha - ot, kichraytish, qushcha ravish, -day, -dek shakli. Hozir — tayyor, hozir payt ma'nosida — ravish.

Tilning grammatik qurilishi va lug'at tarkibi o'zaro munosabatda. So'zning morfologik va sintaktik xususiyatlari haqidagi ta'limot grammatikaning asosidir. So'zning leksik-grammatik xususiyatlari jihatidan o'xshashliklari ot, sifat fe'l kabi so'z turkumlarning ajralishiga asos bo'ladi. So'z ma'lum shaklga kiradi va boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishadi.

Grammatikaning asosini so'z turkumlari va gap haqidagi ta'limot tashkil qiladi. Bu grammatikaning ikki qismdan — morfologiya va sintaksisdan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Morfologiya (grekcha: morfe — shakl va logos—so'z, ta'limot) so'zning grammatik shakllari haqidagi ta'limotdir. Morfologiyada so'zlarning turkumlanishi, grammatik o'zgarishi, so'z formalarining hosil bo'lish yo'llari o'rganiladi. Fonetikaning asosini unli-undosh, jarangli-jarangsiz kabi fonetik oppozitsiyalar tashkil qilganidek, morfologiyaning

asosini bir-biriga zid, lekin o‘zaro bog‘langan, shartlangan grammatik oppozitsiyalar tashkil qiladi (birlik - ko‘plik, bo‘lishli - bo‘lishsizlik kabi).

Morfologiya va sintaksis bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Sintaksis (grekcha: sintaksis — tuzish, qurish) so‘zlarning birikishini, gap va uning tuzilishini hamda turlarini tekshiradi. Tilning qurilishi yaxlit bir sistema bo‘lib, u morfologik va sintaktik hodisalarning o‘zaro bir butun sistemani hosil qilishdan tashkil topadi. Chog‘ishtiring: so‘zlar o‘zaro bog‘lanish talabi bilan, demak, sintaktik xususiyat natijasida, turli formalarga kiradi: teatrning binosi, teatrga bordik kabi. Gap bo‘laklari bilan so‘z turkumlari orasida bog‘lanish bor. Jumladan, so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarning vazifasi sintaktikdir. So‘zlarni ot, sifat, fe‘l turkumlariga ajratishda bir asos sintaktik funksiyadir.

Grammatik ma’no

Demak, so‘z fonetikada ham, leksikologiyada ham tekshirilgan ekan. Leksikologiyada, asosan, so‘zning leksik ma’nosi, grammatikada so‘zning grammatik ma’nolari o‘rganiladi.

So‘zning ob’yektiv borliq (narsa, belgi, harakat kabilar) haqidagi tushunchani anglatishi uning leksik ma’nosidir.

Grammatik ma’no deganda nima tushuniladi?

Grammatik ma’no deganda har bir tilning qurilish tizimi nutqda ifodalanishini zaruriy va majburiy deb talab etadigan va turli xil shakliy ko‘rinishlar bilan beriladigan umumlashgan ma’nolar tushuniladi.

Chunonchi, *"Bolalar qiziqarli kitobni o‘qiydi"* gapini olsak, *"Bolalar"* so‘zida 2 xil ma’no ajralib turadi: 1) lug‘aviy ma’no - ya’ni bu so‘zning borliqdagi odam jinsiga mansub bo‘lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxsni yoki voyaga yetgan kimsaning farzandi, avlodini atab kelish; 2) ko‘plik sonda, bosh kelishikda, gapda ega vazifasida kelgan turdosh ot. Bu ma’nolardan birinchisi lug‘aviy, leksik ma’no bo‘lsa, ikkinchisi grammatik umumlashgan ma’nodir. Grammatik ma’nolar har bir tilda o‘ziga xos bo‘ladi va rang-barang shakliy usullar bilan ifodalanadi.

Tabiatan agglyutativ va sintetik bo‘lgan o‘zbek tilida qo‘shimchalardan aloqa-munosabat qo‘shimchalari va lug‘aviy shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar, asosan, grammatik ma’no ifodalaydi. Masalan, *kitobi* so‘z shakliga e’tibor bersak. Bu shakidagi *-i* qo‘shimchasi kitobning qandaydir uchinchi bir shaxsga tegishlilikini ifodalasa, *"O‘lgan kimlar"* *kitobi* birikmasida tur va jins norhini o‘zaro bog‘lab birikma hosil qilyapti.

Shu ma'nolar *-i* qo'shimchasida mujassamlangan va shu ma'no ushbu qo'shimcha morfema orqali yuzaga chiqmoqda.

Kelishik qo'shimchalari grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan, "*Javondagi kitoblardan oldi*" gapida *-dan* qo'shimchasi ma'lum bir manbadan biror narsa ajralayotganini ifodalasa, "*Vijdondan qo'rqing*" gapida *-dan vijdon* va "*qo'rqmoq* so'zlarini bir-biriga bog'lashga xizmat qilyapti, "*Anvaruydan chiqdi*" gapida esa *Anvar* degan shaxsning chiqish joyini ko'rsatmoqda. Yuqorida keltirgan misollarimizdan shunday xulosaga kelish mumkinki, grammatik ma'no lisoniy va nolisoniy munosabatlarning muayyan shakl (qolip)da mujassamlangan mavhum in'ikosidir. Chunki, yuqoridagi *kitobi* so'zidagi *-iqo'shimchasida*, "*Javondagi kitoblardan oldi*" gapidagi *-dan* qo'shimchasida nolisoniy munosabat yotsa, "*O'tgan kimlar kitobi*" birikmasidagi *-iva* "*Vijdondan qo'rqing*" gapidagi *-dan* qo'shimchasida sof lisoniy munosabat mujassamlangan. Shuning uchun grammatik ma'no tarkiban murakkab bo'lib, lisoniy va nolisoniy munosabatlar in'ikosiriling birikishidan iboratdir.

Fe'l zamonlari ham grammatik ma'no ifodafaydi. Bu zamonlar faqat nutqdagi, matndagi so'zlarning qaysi zamonga oid ekanini ko'rsatish bilan chegaralanmay, balki tashqi dunyoda sodir bo'ladigan voqea va hodisalarning qachon bo'lib o'tganini, ya'ni aynan gapirilayotgan vaqtda yoki gapirilayotgan vaqtdan oidin yo keyin sodir bo'layotganligini ifodaiash uchun ham xizmat qiladi: *Lola o'qidi; Lola o'qiydi; Lola o'qiyotir.*

Sifat darajalari ham grammatik ma'no anglladi. Ular narsa, predmet, hodisalarning borliqdagi nisbiy farqini aks ettiradi:
tor/ torroq /eng tor; go'zal/ go'zalroq/ eng go'zal.

Mana shunday ma'lum bir shaklda mujassamlangan va tilda ifodalanishi zarur be'lgan umumlashgan, lug'aviy ma'no ustidagi ustama ma'no **grammatik ma'no** sanaladi.

Grammatik shakl (so'z formasi)

So'zning ma'lum bir grammatik ma'no ifodalovchi shakli (ko'rinishi) so'zning grammatik formasi deyiladi.

Grammatik ma'no aytib o'tganimizdek, rang barang usullar bilan ifodalanadi. O'zbek tilida, jumladan, grammatik ma'nolar quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya.
2. Yordamchi so'zlar.

3. So‘z tartibi.
4. Takror.
5. Ohang.
6. Juftlash.
7. Ichki fleksiya.
8. Urg‘u.
9. Suppletivizm.

Biz bu usullarni tilimizda tarqalganlik doirasiga ko‘ra joylashtirdik. Usullar mohiyati sizga "Tilshunoslikka kirish" kursidan ma‘lum.

1. Affiksatsiya tilimizda grammatik ma‘noni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli bo‘lib, tilimizga xos bo‘lgan grammatik ma‘nolarning deyarli barchasi son, egalik, kelishik, hurmat, shaxsiy munosabat, belgi darajasi, harakat, nisbat, tarz (harakatning sodir bo‘lish usuli), bo‘lishli-bo‘lishsizlik (tasdiq-inkor), mayl-zamon, shaxs-son affikslar-qo‘shimchalar yordamida ifodalanadi. O‘zbek tilida, asosan, suffikslar, ya‘ni o‘zak yoki asosdan keyin qo‘shiladigan qo‘shimchalar ishlatiladi. Tilimizda eroniy tillardan kirgan bir qator *be-*, *bo-*, *ser-*, *no-*, *ba-* kabi prefikslar-o‘zak va asosdan oldin keladigan qo‘shimchalar ham o‘zlashib qolgan. Lug‘aviy shakl va aloqa- munosabat qo‘shimchalari vositasida yasaladigan shakllar tilshunoslikda **s i n t e t i k** shakllar deb aytiladi. Chunonchi, *kitoblar*, *akamga*, *uyalarimizda*, *kelmasaydingiz*, *yaxshiroq*, *o‘nta* kabi shakllar sintetik shakl sanaladi.

2. Yordamchi so‘zlar. Bular ham grammatik ma‘no-ifoda qilish uchun qo‘llaniladi. Ko‘makchi otlar, ma‘nosi toraygan so‘zlar bilan birga ketib, o‘zi aloqador bo‘lgan so‘zni boshqa so‘z bilan munosabatga kiritadi: *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* (A.q.) – holat ma‘nosi voqelangan; *Telefon orqali gaplashdim* – vosita ma‘nosi voqelangan; *Do‘stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbai bolib kelgan* (O‘.U.) – atalgahlik ma‘nosi voqelangan. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar juda katta guruhni tashkil etib, ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarning yarim bog‘lovchi, yarim ko‘makchi, yarim yuklama kabi turlari mavjud bo‘lib, bunday so‘zlar ham mustaqil, ham yordamchi ma‘noga ega. Chunonchi, *Ishning boshida Abdurahim turar edi*.

Yordamchi so‘zlar sifatida o‘zbek tilida *juda*, *eng*, *bag‘oyat*, *nihoyatda*, *o‘ta*, *sal*, *birmuncha* kabi ravishlar ham, *olmoq*, *bernoq*, *qolmoq*, *o‘tirmoq*, *chiqmoq*, *ketmoq*, *boshlamoq*, *bolmoq* kabi 40 dan ortiq fe‘llar ham keng qo‘llaniladi. Yordamchi so‘zlar vositasida yasalgan shakllar **analitik** shakllar deb ataladi. Tilimizda juda ko‘p holatlarda ayni bir grammatik ma‘no sintetik shakl bilan ham, analitik shakl bilan ham ifodalanishi mumkin. Chunonchi,

Kitobni akamga (akam uchun / akamga deb / akamga atab / akamgamo 'ljallab / ...) oldim.

3. Takror (reduplikatsiya) - bir soʻzni aynan ikki marta takrorlash sanalib, bunda ham turli grammatik maʼnolar hosil qilinadi: predmetning koʻpligi, belgining oshirilishi, maʼnoning kuchayishi, harakatning takrorlanishi hamda uzoq davom etishi va boshqalar. Chunonchi,

etak-etak paxta- miqdoriy koʻplik;

ayta- ayta charchamoq- harakat davomiyligi.

Tilimizda bu usulning toʻliq takror (*etak- etak paxta*) va qisman takror (*qip- qizil, koʻm- koʻk, yam-yashil*) va tilimizgagina xos boʻlib, fanda"sadodosh takror" (slovo-exo) deb atalgan koʻrinishi ham keng tarqalgan (*mayda-chuyda, she'r-pe'r, kitob-mitob, koʻk-moʻk, qizil-pizil*).

4. Soʻz tartibi- grammatik maʼno anglatishning yana bir vositasi. Soʻzlarning gapda maʼlum tartibda oldinma - keyin joylashtirilishi ham grammatik maʼno ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilimizda baʼzan shu vosita orqali soʻzning qaysi kelishikda ekanligi aniqlanishi mumkin. Masalan, bunday holatlar xususan poetik nutqda keng uchraydi. Soʻz tartibi soʻz birikmalari hosil qilishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Chunonchi, *keng dalalar* (soʻz birikmasi) - *Dalalar keng* (gap). Soʻz tartibi grammatik omili nutqda hamisha ohang bilan birga ish koʻradi. Shuning uchun yuqoridagi hosilalarning ohangi bir-biridan tubdan farq qiladi. Chunonchi, *bir,ikki kitob* va *bir- ikki kitob* birikmalarining ohangi har xildir.

5. Ohang ham grammatik maʼno ifodalashga xizmat qiladi. Bu vosita yordamida

a) gapning turini ajratish mumkin: *Imtihon topshirdi. Imtihon topshirdi? Imtihon topshirdi!*

b) gap boʻlaklarini ajratish mumkin:

Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim keldi! Gulnora singlim keldi. Birinchi gapda "*Gulnora*" va "*singlim*" soʻzlari uyushib kelgan boʻlsa, ikkinchi gapda "*Gulnora*" soʻzi undalma vazifasida kelgan, uchinchi gapda esa *ism* maʼnosida kelgan. Ohangning soʻz tartibi, soʻzlarni bir-biriga bogʻlash bilan uzviy aloqadorlikda voqelanishini takroran eslatib oʻtish joiz. Yuqoridagilar buning yorqin dalilidir.

6. Juftlash har xil soʻzlarni - maʼnodoshlarni (*baxt-saodat*), zid maʼnolilarni (*yaxshi-yomori*), giponimlarni ulov (*ot-eshak*), darajalanuvchilarni (*qoy-qoʻzi*), umumiste'mol soʻz va arxaizmlarni (*bola-chaqa, choʻpon-choliq*) oʻzaro qoʻshish orqali har xil grammatik maʼnolarni ifodalash ham tilimizda anchagina.

Yuqorida sanalgan olti usul tilimizning ichki qurilishiga xos bo'lgan grammatik ma'nolarni ifodalashning yetakchi usulidir. Shular bilan birga tilimizda juda kam qo'llaniladigan suppletivizmlar, chunonchi, (*men-biz, sen-siz*; eski o'zbek tilida *u- alar, anga, anda, ani, aning*), arabcha so'zlar orqali o'zlashgan ichki fleksiya usullari mavjud:

Kitob -kutubxona

xabar -axbor fikr -afkor

ilm -ulum

taraf-atrof va boshqalar.

Hozirgi tilshunoslikda grammatik ma'noni alohida til hodisasi sifatida o'rganish endi boshlandi. Shu kungacha grammatik ma'no grammatik shaklning bir tomoni sifatida o'rganilib kelindi. Grammatik ma'noni ifodalashning rang -barang usullarini ko'rib o'tgach, biz ayta olamizki. ayni bir grammatik ma'no xilma- xil vositalar bilan ifodalanishi mumkin.

Chunonchi, son ma'nosi o'zbek tilida affiksatsiya *a/-lar*, ya'ni birlik/ko'plik son shakllari paradigmasi doirasida ko'rib chiqilgan. Son shakllarining ma'nosi deganda mana shu ikki morfema nazarda tutilgan. Tilimizda son ma'nosining ifodalanishi yana boshqa vositalar orqali ro'yobga chiqadi. Chunonchi, ko'plik ma'nosi takror, juft so'zlar bilan ham, birlik ma'nosi juz'iy reduplikatsiya (takror) yoki so'z-so'zsimon (*kitoh-mitob, non-pon, meva-cheva*) bilan ham ifodalanishi mumkin.

Hozirgi fanimizda son ma'nolarining o'xshashlik va farqli tomonlari, shuningdek, "*Kitobni akam uchun oldim*" va "*Kitobni akamga deb / atab oldim*" kabi hosilalar orasidagi ma'no farqlari deyarli o'rganilmagan. Ya'ni ayni bir ma'noni turli xil vositalar bilan ifodalash yo'llari fanimizning o'rganilmagan, muammolari sirasiga kiradi. Bularni tadqiq qilish bugungi kunning vazifasidir.

So'zning morfologik strukturasi

So'zning morfologik strukturasi so'zning forma yasalishi uchun asos bo'ladigan komponenti bilan shakl yasovchi komponentlaridan iborat strukturasi: *paxta+lar, paxtakor+lar+ra*. Paxta — forma yasalish asosi, -lar ko'plik shakli, *paxtakor* — forma yasalish asosi, -lar, -ga ko'plik va jo'nalish kelishigi shakllari.

So'z formasining asosi tub, yasama, qo'shma so'z bo'lishi hatto so'z birikmasiga teng bo'lishi ham mumkin: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida.

Bir soʻzda birdan ortiq shakl yasovchi ishtirok etishi mumkin: temirchi+lar+ni Bunda tushum kelishigi uchun shakl yasovchi asos *temirchilardir*. Koʻplik uchun asos *temirchidir*.

Grammatik kategoriya. Grammatik kategoriyalar tasnifi

Grammatik kategoriya (GK) va grammatik shakl masalasi grammatika fanida koʻp tilshunoslarni oʻylovga qoʻygan masalalardandir. GK mohiyati nimadan iborat? Bu savolga tilshunoslar turlicha javob beradi. Buning mohiyatini bilish uchun dastlab kategoriya atamasining oʻzi nimaligi haqida fikr yuritaylik. Bu atama falsafadan tilshunoslikka kirib kelgan boʻlib, falsafada bu tushuncha quyidagicha izohlanadi: "...ob'yektiv borliq va bilishdagi mohiyatan koʻproq qonuniy aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi umumiy tushuncha".

Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, yaʼni kategoriya uchun juftlik va yakkalik mavjud bolishi shart va zarur. Falsafada juftlikni sabab-natija, mohiyat-hodisa, butun-qism; yakkalikni borliq, miqdor, makon tashkli etsa, tilshunoslikda kategoriya atamasi ostida qatʼiy zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki koʻplik (kelishik kategoriyasi) tushuniladi.

GK boʻlishi uchun aloqa va aloqaga tushuvchi birliklar zarur. Muayyan maʼno umumiyliigi asosida birlashgan va oʻzaro zidlanuvchi shakllar sistemasi GK hisoblanadi. GK deganda, asosan, morfologik kategoriyalar (MK) anglahsiladi.

GK grammatik shakllarning oddiy arifmetik yigʻindisi emas, balki maʼlum turdagi formalarning barqaror munosabatlari tizmasidan iborat boʻlgan yangi bir butunlikdir. Shuning uchun grammatik kategoriya oʻzi uchun xos boʻlgan umumiy maʼnoga ega, bu maʼno shu kategoriya shakllarida maʼlum koʻrinishlarda, turlarda parchalanib, aniqlanib voqelanadi. Shuning uchun kategoriya UGMsi bilan shu kategoriya birliklari shakllari XGMLari oʻzaro tur-jinsmunosabatlarida turadi. Masalan, oʻzbek tilida ravishdoshlarning UGMsi " fe'lni fe'l bilan aloqaga kiritish" sifatida tavsiflanadi. Lekin ravishdoshlarning xususiy koʻrinishlari quyidagi paradigmani hosil qiladi:

- I. 1. *-gach* - boshqa bir harakatning boshlanish chegarasini koʻrsatish;
2. *-guncha* - boshqa bir harakatning tugallanish chegarasini ifodalash;
3. *-ganda* - boshqa bir harakat sodir boʻlish fonini ifodalash;

II. 4. *-b/-ib* - davomli va davomsiz harakatni fe'l bilan bog'lash;

5. *-a/-y* -davomli harakatni fe'l bilan bog'lash;

III. 6. *-gani/-gali* - maqsad ma'noli harakatni boshqa harakat bilan bog'lash.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha ravishdoshlarda ravishdoshning umumiy ma'nosi mavjud: fe'lni fe'lga bog'laydi. Lekin bu uch qatorning xususiy ma'nolari ham bor: birinchi qatorda payt-zamon, ikkinchi qatorda davomli-davomsizlik, uchinchi qatorda sabab-maqsad UGMLari mujassamlangan. Keyingi tadqiqot ishlarida (qarang: Mengliyev B. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari. ND. Buxoro, 1994) yuqorida ko'rsatib o'tilgan (*-gach, -guncha, -ganda, -b/-ib, -a/-y, -gani/-gali*) shakllar ravishdoshlarning turli zamon yoki tarz formalari emas, balki har xil zamon va tarz kategoriyalarining ravishdoshlarda ko'rinishi sifatida talqin qilingan. Boshqacha qilib aytganda, zamon ma'nolari ravishdoshlarga va ravishdoshlik vazifasi zamon ichiga singib ketgan. Bunday hodisalarni o'rganish bugungi tilshunosligimiz oldiga ko'ndalang qilib qo'yilgan.

Sh. Shahobiddinova morfologik kategoriyalarni o'rganar ekan, o'zbek tilida ularning quyidagi turlarini beradi:

1. Son kategoriyasi - 0: *-lar*

2. Egalik kategoriyasi - 0: *-i/m: -i/ng...*

3. Kelishik kategoriyasi -0: *-ning: -ni:...*

4. Subyektiv munosabat kategoriyasi - 0: *-jon: -xon...*

5. qiyoslash kategoriyasi -0: *-roq...*

6. Nisbat kategoriyasi -0: *-t/-dir: -il...*

7. O'zgalovchi kategoriyasi -0: *-ish: -i/b: -gan...*

8. Kesimlik kategoriyasi - 0 aniqlik, buyruq, shart mayli...

Ushbu grammatik kategoriyalar bir necha jihatdan tasnif qilinadi:

1. Kategoriyadagi shakllarning ma'noviy tarkibiga ko'ra.

2. Morfologik kategoriya (MK)larning so'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan.

3. MK sintaktik qobiliyatlarining yo'nalishlariga ko'ra.

Endi shular ustida qisqacha to'xtab o'taylik. Birinchi tasnifga ko'ra kategoriyalar sodda va murakkab kategoriyalarga ajratiladi. Son, qiyoslash, kelishik, nisbat, sub'yektiv munosabat kategoriyalari sodda kategoriyalar jumlasidandir. Chunki ularda ma'no sodda bo'lib, faqat bir kategoriyaga mansub bo'lgan ma'noni ajratamiz. Chunonchi, son kategoriyasining ma'nosi miqdoriy va sifatiy belgilarning ma'lum yig'indisidan iborat bo'lsa, kelishik kategoriyasi tobelikni ifodalaydi. qiyoslash kategoriyasi belgining qiyosan

ekanligini ko'rsatsa, nisbat kategoriyasi fe'l anglatgan bajaruvchining tavsifini ifodalaydi.

Murakkab kategoriyalarning formalarida ma'no murakkab bo'lib, ularda bir necha kategoriyalarga mansub bo'lgan ma'nolarni ajratish mumkin. Murakkab kategoriyalar sirasiga egalik, o'zgalovchi, kesimlik kategoriyalarini kiritish mumkin. Masalan, egalik kategoriyasida uch xil ma'no mujassamlangan bo'iadi:

a) lisoniy va nolisoniy munosabatni ifodalash (egalik kategoriyasi uchun kategorial ma'no);

b) shaxs ma'nosi (nokategorial ma'no);

d) son ma'nosi (nokategorial ma'no).

Kesimlik kategoriyasi ham murakkab bo'lib, unda tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-son ma'nolari birlashgan bo'lib, ular bitta qo'shimchada yoki bir necha qo'shimchada ro'yobga chiqadi. Masalan, "*Olmani ol*" gapida "*ol*" so'zshakli tasdiq, buyruq mayli, hozirgi zamon, ikkinchi shaxs, birlik son ma'nolarini voqelantirib kelmoqda va bu ma'nolar 0 bilan ifodalanmoqda. "*Kitobni olmadingiz*" gapida inkor ma'nosi *-ma* qo'shimchasi bilan, ma'yl, zamon ma'nosi *-di* bilan, ko'plik ma'nosi *-iz* bilan ifodalanmoqda.

O'zgalovchi kategoriya ham murakkab bo'lib, unda ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllari ma'nolari bir butunlikni hosil qiladi.

Morfologik kategoriyalarning so'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan tasnifiga ko'ra MKlar ikkiga bo'linadi: leksik-morfologik va funksional - morfologik. Leksik-morfologik kategoriyalar so'zlarning ayrim guruhlariga - turkumlariga xos. Bular sirasiga son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja, nisbat, o'zgalovchi kategoriyalari kiradi. Chunki son kategoriyasi, asosan, ot, olmoshlarga, qiyosiash, daraja kategoriyalari sifatiga, nisbat, o'zgalovchi kategoriyalari fe'llarga xos leksik -morfologik kategoriyalar sifatida ajratiladi.

Funksional - grammatik kategoriyalarga kelishik, egalik, kesimlik kategoriyasi kiradi. Chunki kesimlik kategoriyasi gap markazi - kesimni shakllantirsa, kelishik uning boshqa bo'laklarini shakllantiradi. Egalik kategoriyasi esa so'z birikmasi qurilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

MKlar sintaktik qobiliyatlarining yo'nalishlariga ko'ra tasnifida "birin ketinlik", ya'ni grammatik kategoriyalarning sintaktik qobiliyatlarining "oldingisi bilan" va "keyingisi bilan" sifatida belgilanishi nazarda tutiladi. Masalan, "*kitobning*" so'z shaklidagi *\-ning* o'zidan keyin egalik shaklini olgan ot kelishi shartligini, "*kitobi*" so'zidagi *\-i* bu so'zshaklidan oldin qandaydir qaratqich aniqlovchi bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida egalik, nisbat, kesimlik, qiyoslash, son kategoriyalari soʻzshaklning "oldingisi bilan" aloqalarini koʻrsatsa, kelishik kategoriyasi soʻzshaklning "keyingisi bilan" aloqasini koʻrsatadi. Shaxsiy baho shakllari bu jihatdan moʻtadildir.

4-ma'ruza. SOʻZ TURKUMLARI

REJA:

1. Tasniftushunchasihaqida.
2. Soʻzning serqirraligi va uni tasniflash omillari.
3. Soʻzning grammatikadagi tasniflari: maʼnoviy, morfologik va sintaktik tasnif.

Biz oldingi maʼruzada tasnifning mohiyati nimada ekanligi, uning xususiyati haqida bir oz toʻxtalib oʻtgan edik. Soʻzlarning tasnifini berishda leksemaning serqirraligi mohiyati hamma vaqt diqqat markazida boʻlishi kerak. Leksemaning har bir qirradi bir tasnifni yuzaga keltiradi. Chunonchi:

1. Boʻgʻin soniga koʻra: bir boʻgʻinli, koʻp boʻgʻinli.
2. Fonemalar miqdoriga koʻra: bir fonemali, ikki fonemali, uch fonemali...
3. Fonemalarni ifodalovchi harflarning tartibiga koʻra.
4. Tub-yasamaligiga koʻra: tub va yasama.
5. Yasalish tipiga koʻra: diaxronik va sinxronik.
6. Tuzilishiga koʻra: sodda, qoʻshma, juft, takroriy.
7. Shakl va maʼno munosabatiga koʻra: maʼnodosh, shakldosh, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar va paronimlar.
8. qoʻllanishiga koʻra: aktiv va passiv.

Demak, soʻzlarga berilgan xilma-xil tasnifning mavjudligi ularning serqirraligidan dalolat beradi. Har xil tasnifning har biri oʻz oʻrnida ahamiyatlidir. Soʻz va uni tasniflash asoslari tilshunos I.Madrahimov tomonidan oʻrganilib, uning maʼnoviy, sintaktik, morfologik guruhlanishi asoslab berilgan.

Soʻzlar maʼnoviy belgisiga koʻra quyidagicha turkumlanadi:

1. Mustaqil maʼnoli soʻzlar:
 - a) mavjudotni atovchi soʻzlar –ot;
 - b) belgi - xususiyatni atovchi soʻzlar –sifat;
 - v) harakat - holat ifodalovchi soʻzlar –fe'l;
 - g) miqdorni ifodalovchi soʻzlar – son;

d) o‘rin - payt, tarz - tusni ifodalovchi so‘zlar– ravish;

e) taqlidni ifodalovchi so‘zlar – taqlidiy so‘z.

2. Bo‘sh-ishora ma‘noli so‘zlar – olmosblar.

3. Yordamchi ma‘noli so‘zlar: ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, ko‘makchi fe‘llar. So‘zlarning mustaqil va yordamchi tiplarga ajralishi ularning mustaqil holda ma‘no ifodalay olish qobiliyatiga ko‘ra belgilanadi.

O‘zbek tlishunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zo‘rma-zo‘rakilik bilan cheklantirilib, "ot, sifat, son o‘rnida qo‘llanuvchi so‘zlar" sifatida tor doirada tushunilgan edi.

Bu o‘rinda olmoshning nafaqat ot, sifat, son o‘rnida, balki fe‘l, ravish, taqlidiy so‘z, undov gap, hattoki matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan. Olmoshlar sinfiga:

-*men, sen, biz, siz, ular* kabi shaxsga;

-*kim, nima, ana, mana, bu* kabi predmetga ishora qiluvchi leksemalar;

-*qanday, bunday, shunday* kabi belgiga;

-*buncha, shuncha, qancha* kabi miqdorga;

- *shunday bo‘lmoq, shunday qilmoq* kabi harakat-holatga ishora etuvchi leksemalar ham kiradi. Ishora so‘zlarning ma‘nosi matn ichida oydinlashadi.

Leksemalar morfologik tasnifga ko‘ra ikki tipga ajratiladi:

1. O‘zgaruvchi leksemalar.

2. O‘zgarmas leksemalar.

O‘zgaruvchi so‘zlar morfologik kategoriyalar (son, egalik, kelishik, nisbat, qiyoslash, sub'eyktiv munosabat, kesimlik, o‘zgalovchi)ning qo‘shimchalarini qabul qila oladi.

O‘zgarmas so‘zlar bunday qo‘shimchalarni qabul qila olmaydi. Leksemalarning morfologik imkoniyatiga ko‘ra tasni-fini quyidagicha beramiz:

LEKSEMALAR

O‘ZGARUVCHILAR+

sonlanuvchi – ot,
darajalanuvchi – sifat,
tartiblanuvchi – son,
nisbatlanuvchi – fe‘l

O‘ZGARMASLAR 0

ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama,
ravish, undov, so‘z – gap.

Ushbu tasnifdan ishora soʻzlar va taqlidlar oʻrin olmagan. Chunki olmoshlarga oʻzlari ishora qilib kela oladigan barcha leksema guruhlarining morfologik kategoriyalari ham, sintaktik vazifalari ham xosdir. Bu isbot talab qilmas holatdir: Ot-olmoshlar son kategoriyasiga (*kim-kimlar*); fe'l-olmoshlar nisbat kategoriyasiga (*shunday qilishdi*); son-olmoshlar: tartib kategoriyasiga (*necha nehanchi*); sifat-olmoshlar daraja kategoriyasiga (*shunday-shundayroq*) ega. Taqlidlarnig esa oʻziga xos tasniflovchi morfologik kategoriyasi yoʻq. Biroq ular oʻzgarmas soʻzlar ham emas. Taqlidlarning morfologik kategoriyalarga ega boʻlishi ularning gapda qanday boʻlak boʻlib kelishi bilan bogʻliq. Professor H. Neʼmatov oʻzining "Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII веков" nomli kitobida taqlidlarda leksemalarning ajralmagan "embrion - diffus holati" oʻz aksini topganligini qaydetadi.

5-maʼruza. OTTURKUMI

1. Otturkumi haqida.
2. Otning maʼnoviy guruhlari.
3. Otning grammatik kategoriyalari: son kategoriyasi.

Ot — mustaqil soʻz turkumlaridan biri. U boshqa turkumlardan bir necha belgi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Predmetlik maʼnosini anglatib, son, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga ega boʻlgan soʻz turkumiga ot deyiladi: ish+chi+lar+ga, kitob+lar+i+dan. Grammatikada predmetlik nima? Grammatika inson anglashi mumkin boʻlgan barcha narsa (belgi, xususiyat, harakat, holat)ni ham predmet deb qabul qiladi: daraxt, shamol, qoʻzgʻolon, yaxshilik kabi.

Ot morfologiyada katta oʻrin tutadi. Boshqa soʻz turkumlari otning belgi xususiyatlarini koʻrsatadi. Jumladan, sifat otning belgisini son miqdorini va tartibini, fe'l harakatini bildiradi: katta bino, beshta student, ikkinchi kurs, kitob oʻqimoq.

Ot mustaqil soʻz turkumi sifatida quyidagi grammatik belgilarga ega:

1. Ot yasash xususiyatiga ega: paxtachi, paxtakor, tomorqa, belbogʻ.
2. Sonlanish xususiyatiga ega: kitob – kitoblar.
3. Egalik koʻrsatkichiga ega: kitobim, kitobing, kitobi kitobimiz, kitobingiz, kitoblari.
4. Kelishik formalari bilan oʻzgaradi: ruchka, ruchkaning, ruchkani, ruchkaga, ruchkada, ruchkadan.
5. Gapda barcha gap boʻlaklari vazifasini bajaradi.

Otning ma'noviy guruhlari

Otlarni ma'no jihatdan turlicha tasnif qilish mumkin. Bunda ot turkumiga kirgan soʻzlarning grammatik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi semantik belgilar asosga olinadi.

Otlar quyidagi semantik xususiyatlarga koʻra tasnif qilinadi:

1. Bir turdagi predmetlardan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga koʻra.

2. Kim yoki nima soʻzlariga boʻlgan munosabatiga koʻra.

3. Sanalish yoki sanalmasligiga koʻra.

Yuqorida qayd qilinganlarning birinchisiga koʻra otlar ikkiga: atoqli va turdosh otlarga boʻlinadi.

Atoqli ot

Bir xildagi predmet yoki hodisaning birini ajratib koʻrsatuvchi otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi: Alisher, Rustam, Oybek.

2. Geografik nomlar: Buxoro, Volga, Pomir.

3. Turli tashkilot, korxonalar nomlari: "Kamolot" jamgʻarmasi, "Baqoyev" korxonasi.

4. Planeta va yulduzlarning nomlari: Yupiter, Mars, Hulkar.

5. Tarixiy hodisa, gazeta, jurnal nomlari: Vatan urushi, "Oʻzbekiston ovozi" gazetasi, «Gʻuliston» jurnali.

6. Hayvonlarga maxsus qoʻyilgan nomlar: Boychibor, Haybar, Juchka.

Turdosh ot

Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi otlar turdosh ot deyiladi: ishchi, gul, ruchka.

Atoqli va turdosh otlar faqat ma'no jihatdan farq qilib qolmay, oʻziga xos baʼzi grammatik xususiyatlarga ham ega. Masalan, atoqli otlar faqat birlik shaklda qoʻllanadi. Agar koʻplik qoʻshimchasini olsa grammatik koʻplik emas, boshqa ma'no ottenkalariga ega boʻladi.

Koʻpchilik atoqli otlar turdosh otlardan, ma'lum qismi esa boshqa turkumga oid soʻzlar asosida paydo boʻladi: Arslon, Anor, Lola (turdosh otdan), Oʻtkir, Shirin (sifatdan), Tursun, Toʻxta (fe'ldan) kabi. Oz boʻlsa-da atoqli otning turdosh otga aylanishi uchraydi: rentgen (apparatning nomi), xosiyatxon (atlas nomi).

Turdosh otlar quyidagi belgilar asosida turlarga ajratiladi:

1. Ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra: aniq va mavhum otlarga bo'linadi.

Bevosita predmet anglatadigan otlar aniq (konkret) otlar deyiladi. Ular anglatgan predmetlarni bevosita ko'rish va sanash mumkin. Shuning uchun ham bunday otlar sanoq sonlar bilan sintaktik aloqaga kira oladi. Bundan tashqari sub'yektiv baho hamda ko'plik qo'shimchalarini olishi mumkin: daftar — beshta daftar, daftarcha, daftarlar.

Mavhum tushunchani ifoda qiluvchi otlar abstrakt otlar deyiladi. Bular mavhum belgi, xususiyat nomlari bo'lib, odatda, ko'plik qo'shimchasini olmaydi: sevgi, oqim, tuyg'u, yaxshilik. Ba'zan ko'plik formada qo'llanganda, ko'plik ma'nosi emas, qo'shimcha ma'no ottenkalari ifodalanadi: tuyg'u-tuyg'ular ma'no kuchaytirilgan.

Ko'ngulda quvonchlar, egnimda sarpo.

Sharaflar tongidir har ish jobajo.

Ulug' kun bayrami — tinchlik bayrami. (G'.G'.)

Mavhum otlarni quyidagi leksik - semantik gruppalarga bo'lish mumkin:

1. Turli his-tuyg'u, sezgi, kayfiyatni bildiradi: sevgi, hayajon, qayg'u,
2. Shaxs va predmetlarga xos bo'lgan belgi xususiyatlarni bildiradi: mardlik, odamgarchilik.
3. Kasb-hunarni bildiradi: injenerlik, o'qituvchilik, doktorlik.
4. Vazifa, mansab bildiradi: raislik, kotiblik, generallik.
5. Ish-harakat yoki hodisani bildiradi: tinchlik, o'qish, yozuv, uyqu.
6. Xayoliy tarsalarni bildiradi: xudo, farishta, do'zax va hokazolar.

2. Otlar birlik shaklda yakka predmetni yoki predmetlar to'dasini ifodalashi mumkin. Shunga ko'ra otlar yakka va jamlovchi (to'da) otlarga bo'linadi.

Birlik shaklda bir turdagi predmetlarning bittasini ifodalaydigan ot yakka ot deyiladi: kitob, bola, paxta, nok.

Birlik shaklda ham bir xil predmetlarning to'dasini, jamini ko'rsatadigan otlar jamlovchi otlar deyiladi: xalq, poda, armiya, ko'pchilik.

Jamlik quyidagi usullar bilan ifodalanadi: 1) leksik-semantik usul (xalq, el, to'da, poda); 2) affiksatsiya (temuriylar, sut emizuvchilar, insoniyat,

hayvonot, tematika); 3) kopulyasiya, ya'ni juftlash (ota-ona, urf-odat, qozon-tovoq); 4) tasviriy sintaktik usul (mehnat ahli, olimlar armiyasi, hayvonot dunyosi, o'qituvchilar safi); 5) kontekstual-situativ (dunyo tahsin o'qimoqda, jahon qoyil qolmoqda, zal jim kabi). Bu gaplarda dunyo, jahon, zal kabilar metonimik ma'noda qo'llanganda jamlik ma'nosini ifodalab kelmoqda. Ammo bular nutqiy hodisalardir.

A.A.Potebnya so'zning semantikasida jamlik mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashda otni yakka predmetga nisbatan ishlatish imkoniyatining bor yoki yo'qligini asos qilib olishini aytgan edi. Masalan, *olomon*, *armiya* so'zlarini bir kishiga nisbatan ishlatib bo'lmaydi.

Kim yoki nima so'zlariga munosabatiga ko'ra otlar: kishi va narsa otlariga bo'linadi. Hafiza, Olim, odam, qariya — kim so'rog'iga javob bo'lib, kishi otlarini ifodalaydi. Mashina, fontan, stadion, qo'shchinor — nima so'rog'iga javob bo'lib narsa otlarini ifodalaydi.

Sanalish-sanalmasligiga ko'ra sanaladigan va sanalmaydigan otlarga bo'linadi. Sanaladigan otlarning asosini konkret otlar tashkil qiladi: daftar, kitob, ruchka, olma.

Sanalmovchi predmet otlariga, asosan, modda otlari (abstrakt otlar) kiradi: qum, muz, tuz, un, tutun, havo kabi.

6-ma'ruza. OTNING SON KATEGORIYASI

Reja:

1. Son kategoriyasi haqida umumiy ma'lumot.
2. Son kategoriyasi shakllarining lisoniy xususiyati.
3. Son kategoriyasi shakllarining nutqiy xususiyati.
4. Son kategoriyasi va tejamkorlik.

Xulosa

Otning son mavjudot sonini turli ko'rinish va darajada ifodalash shakllar tizimidan iborat.

Kategoriya shakllari ikki qismdan tuziladi. Birinchi qismga o'zak, ne-giz, juft va takroriy ot, ikkinchi qismga bitta qo'shimcha (**-lar**) kiradi.

Bu shakllar orkaly son-miqdor ma'nosi to'rt xil ko'rinishda ifodalanadi: 1) birlik, 2) ikkilik, 3) ko'plik va 4) umumiylik. Lekin bu shakllar-ning mazkur ma'nolarga munosabati bir xil emas. Bu otning luG'aviy mazmu-ni bilan bogliq. Son-miqdorga munosabatiga ko'ra kategoriya shakllari etti turga bo'linadi: 1) yakka ot, 2) sanalib-sanalmaydigan ot 3), jamlovchi ot, 4) atoqli ot, 5) juft ot, 6)

takroriy ot, 7) **-lar** li ot. SHulardan to'rttasi tub shakl, ya'ni otning o'zak, negizidir.

Mazkur shakllarning lisoniy xususiyati, ya'ni ularda son-miqdor ma'nosining belgilanganlik darajasini ishora yordamida quyidagichako'rsatsa bo'ladi.

Shakl (ot)		Birlik	Ikkilik	Ko'plik	Umumiylik
yakka		+/-	+/-	+/-	+/-
sanalib-sanalmaydigan		+/-	+/-	+/-	+/-
jamlovchi	1	—	—	+	—
	2	+/-	+/-	+/-	—
atoqli		+	—	—	—
juft		—	+	+	—
takroriy		—	—	+	—
-lar		—	+/-	+/-	—

Jadvaldan ko'rinadiki, yakka va sanalib-sanalmaydigan otning tub shakli son-mikdorning to'rtala ko'inishiga, juft a'zo va narsa oti birlik va ikkilikka betaraf. Jamlovchi otning son-miqdorga munosabati ikki tomon-lama: 1) yakka narsaning ko'pligi (jamligi) o'zida belgilangan (**o'quvchi — guruh**), 2) shu jamlkning bitta, ikkita yoki ko'pligiga betaraf (**bitta guruh, ikkita guruh, ko'p guruh**). Takroriy ot da ko'plik, juft shaklda ikkilik va ko'plik, atoqli ot da birlik belgilangan. **-lar** shakli ikkilik va ko'plik ma'nosiga betaraf.

Yakka otning o'zak, negizi birlik, ikkilik, ko'plik va umumiylikka be-taraf bo'lganidan mazkur ma'nolarni qulay vosita yordamida ifodalaydi. qulaylik so'z, birikma, matn (eng kichik, kichik, katta)da hosil bo'ladi. Birlik ma'nosiga quyidagi vositalar qulaylik tugdiradi:

Egalik qo'shimchasi: otam, onam, otang, **onang**.

Bir sanoqsoni: bir bola, **bir** tulki, **bir bino**, **bitta non**.

Tartib son qo'shimchasi: **birinchi kitob, ikkinchi arava, uchinchi qishloq, o'ninchi qishloq, o'ninchi maktab**.

Ko'rsatish, gumop olmoshi: shu bola, bu **bino**, **allaqaysi eshik, qaysidir sandiq**, qandaydir juvon.

Sifat: yolG'iz ayol, yakka buta, so'qqabosh odam, ilk qaldirg'och.

YUqoridagi vositalardan **bir** soni boshqalariga nisbatan ko'p ishlatiladi.

Otdan oldin takroriy so'z ishlatilsa, birlik ta'kidlanadi: **bittayu** bitta do'st, **yakkayu yagona farzand**. Bunday birikma hissiy gap (matn)da ishlatiladi: Bittayu bitta *bolamni shunaqa notinch maktabga berasizmi!* (A.qahhor, O'tmishdan ertaklar").

Ayrim gapning umumiy mazmuni ham bunday ot da birlik namoyon bo'lishiga qulaylik tug'diradi: **Telefon jiringladi** (A.Kahhor, "qo'shchinor chiroqlari"). Bunday gap ko'p uchraydi.

Yuqoridagi misollarda lisoniy vosita qulaylik tugʻdirgan boʻlsa, quyidagi misolda gʻayrilisoniy vosita birlik ifodalanishiga yordam bergan.

Mantiqan ayonlik: **Toʻp** "*Paxtakor*" futbolchilarida (toʻpning bittali-gi barchaga ayon).

Koʻplik ifodalanishiga quyidagi vositalar qulaylik tugʻdiradi.

Ikki va undan katta son: **ikki bola, yigirmata uy, toʻrtala nomzod, oʻntacha xat, oʻnlab ariza, besh-olti oʻquvchi.**

Sifat va ravish: **talay anor, tumonat odam, sanoqsiz nihol, turli hayvon, koʻp bola, bir nechta sigir, har xil kapalak, anchagina tarvuz.**

Ot: koʻpchilik dehqon, aksariyat bino.

Hisob soʻz: **bir quchoqgul, bir dasta jurnal, bir mashina qovun.**

Takroriy soʻz: **javon-javon kitob, qator-qator terak, semiz-semiz qoʻy.**

Miqdor olmoshi: **barcha talaba, hamma oʻqituvchi, ayrim olim.**

quyidagi hollarda koʻplik kuchaytirib ifodalanadi: a) ayrim soʻz tarkibidagi unli choʻzib talaffuz qilinadi: **koʻoʻp baliq, moʻoʻl terak, aancha qogʻoz,** b) miqdor bildiruvchi soʻz oldidan *juda* soʻzi ishlatiladi: **juda koʻp kitob,** v) yirik miqdor bildiruvchi son, *olam, dunyo* kabi soʻzlar takror ishlatiladi: **millon-milion odam, olam-olam yogʻoch, dunyo-dunyo chigirtka.**

Yakka tub otda koʻplik ifodalanishiga morfologik vosita ham qulaylik tugʻdiradi: *Yakshanba kuni bolalargya kuzgi paxtalik nimcha berildi* (A.qahhor, "Utmishdan ertaklar"). Bu gapda sanaladigan tub ot (nimcha)ning koʻplik ifodalashiga u bilan mazmunan bogʻlangan **-lar** li ot (bolalar) yordam bergan.

quyidagi nolisoniy vositalar ham sanaladigan tub otda koʻplik namoyon boʻlishiga qulaylik tugʻdiradi.

Nutqvaziyati: **Piyola chiroyli ekan** (piyolaning byrdan ortiqligi koʻrinib turgan boʻlsa).

Mantiqan ayonlik: *qishi bilan arrakashlik tsilib toʻnka kavlaydigan boʻldik* (A.qahhor, "qoʻshchinor chiroqlari"). qishi bilan bitta toʻnka kavlan-masligi oʻz-oʻzidan maʼlum).

Shu jamlikning bitta yoki koʻpligiga betaraf boʻlganidan bu maʼnolar-ni qulay vosita yordamida ifodalaydi: **bitta xalq, ikkita guruh, minglab oila.** Jamlovchi ot bu jihatdan yakka otga oʻxshaydi.

Juft otning ayrimida ikkilik, ayrimida koʻplik belgilangan, shuning uchun mazkur maʼnolarni biror vosita yordamisiz ifodalaydi.

Takroriy otda koʻplik belgilangan boʻlib, nutqda biror vosita yordami-siz namoyon boʻladi.

-lar shakli koʻplikni ifolashi uchun qulay vosita vazifasini otning lugʻaviy mazmuni bajaradi.

Yakka otning oʻzak, negizi koʻplik maʼnosiga betaraf boʻlganidan unga **-lar** qoʻshilsa sof koʻplik ifodalanadi: **bolalar, kitoblar, qoʻylar.** Bu shakl anglatgan miqdor ikkidan tortib cheksizgacha boʻlishi mumkin. Mazkur shakl sanaladigan mavjudotning koʻpligini aniqkoʻrsatish zarurati boʻlmaganda ishlatiladi: **Odamlar oraga tushdi** (A.qahhor, "Oʻtmishdan ertaklar").

Zarurat bo'lsa matnda ko'plikni turli darajada aniqlashtiruvchi vosita ishlatiladi: *Juda ajoyib kitoblari bor, xuddi bir uy keladi* (A. Qahhor). Bu misolda hisob so'z (*bir uy*) **-lar** shakli anglatgan miqdornikonkretlashtirib kelgan.

Jamlovchi otning o'zak, negizi ko'plikni bildiradi, shuning uchun bunday otga qo'shilgan **-lar** shu ko'plik (jamlik, yaxlitlik)ning birdan ortig'ini ifodalaydi: **xalqlar, guruhlar, uyurlar.**

Juft a'zo va narsani bildiruvchi otga **-lar** qo'shilganda ikkilik ma'nosi ta'kidlangan holda namoyon bo'ladi.

Ko'plikni bildiruvchi juft otga **-lar** qo'shilganda ko'plik ta'kidlanadi: *Nihoyat, mehmonlar turli noz-ne'matlar, rang-barang sharbat shisha-lari, anvoyi gullar bilan zeb berilgan stollarga o'tirishdi* (A.qahhor, "Muhabbat"). Misoldagi birinchi birikmada ko'plik uchta vosita: juft ot (noz-ne'mat)ning o'zi, aniqlovchi bo'lib kelgan sifat (turli) hamda **-lar** qo'shimchasi bilan ifodalangan. Nohissiy bayonda juft otga qo'shimcha qo'shilishini to'g'ri deb bo'lmaydi.

Ko'rinadiki, otning **-lar** shakli o'zak, negizning lug'aviy mazmuniga bog'liqholda faqat grammatik ma'no (ko'plik) emas, uslubiy ma'no (ta'kid-lash, kuchaytirish) ham ifodalaydi.

Otning son kategoriyasi shakllarining nutqiy xususiyatitahlilidan ko'rinadiki, ko'plik ma'nosi ham lugaviy vosita (o'zak, negiz,juft va takroriy ot), ham fonetik (unlini cho'zish), ham morfologik vosita(**-lar**) bilan ifodalanadi.Ko'plik lugaviy vositadan anglashilganda **-larning** ishlatilish-ishlatilmasligi birikma, gap, matnning nohissiy (ob'ektiv) va hissiy (sub'ektiv)ligiga bogliq.Nohissiy bayonda qo'shimcha tejala-di.Bayon hissiy bo'lsa, hissiylik darajasiga qarab **-lar** tejalmasligi mumkin.

Endi ana shu qoida (me'yor)ga tayanib badiiy adabiyot, matbuot, radio, televideniada **-lar** qo'shimchasining tejab-tejalmay ishlatilishini tahlil qilamiz.Bularning birortasida otga **-lar** qo'shilmagan. Bundan xulosa qilish mumkinki, adib o'zbek tilining xususiyatiga izchil rioya qilgan.

Lekin hozirgi kunda matbuot, televideniada rus, ingliz tili ta'siri-da bunday birikmada otga **-lar** qo'shib ishlatilmoqda. Namuna tariqasida bir nechta misol keltiramiz: **5 ta interv'yu-suhbatlar, 10 nafar tanlov hay'ati a'zolari**, 81 ta *soglikni satslash muassasalar*, **64 nafar sport-chilar** ("Ma'rifat" gazetasi, 2002, 6 iyul') , 8 ta *nodaelat ta'lim muassa-salari*, **210ta xonadon** boG'chalari ("Davr" axborot dasturi).

Yuqoridagi misollarda otga **-lar** qo'shib ishlatilishi o'zbek tili xusu-siyatini qo'pol ravishda buzishdir.

7-ma'ruza. EGALIK KATEGORIYASI

REJA:

1. Egalik kategoriyasi shakllarining yasalishi va imlosi.
2. Egalik kategoriyasining sintaktik xususiyati.
3. Egalik kategoriyasining ma'noviy xususiyati.

Predmetning uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini anglatuvchi umumiy ma'nolar va ularni ifoda qiluvchi formalar sistemasi egalik kategoriyasidir.

Egalik kategoriyasi qarashlilikni, ya'ni bir predmetning ma'lum shaxsga yoki predmetga tegishli ekanligini ko'rsatadi. qarashlilik uch shaxsga, birlik hamda ko'plikka ko'ra ifodalanadi. Masalan, kitobim, kitobing, kitobi, kitobimiz, kitobingiz kitoblari.

Egalik kategoriyasining asosiy qo'shimchalari quyidagilar:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	-m (-im)	-miz (-imiz)
II	-ng (-ng)	-ingiz (-ingiz)
III	-si (-i)	-si (-i)

So'z o'zaklarining unli yoki undosh tovush bilan bitishiga ko'ra egalik qo'shimchalari turli variantlarda qo'shilaveradi. Ammo singlisi, birisi so'zlarida egalik qo'shimchasi ikki marta qo'shilgan deb tasavvur qilinadi. Lekin aslida bunday emas. Bu so'zlardagi "i" fonemasi tutashtiruvchi funksiyani bajaruvchi "i" tovushidir. Hozirgi tilimizda so'z material strukturasi qayta bo'linishi qonuniyati asosida "i" tovushi o'zak tarkibiga o'tgan. Natijada, singil o'zagining ikkinchi varianti singli shakllangan. Bunga egalik affiksi -si formasida qo'shilgan.

Egalik qo'shimchalari o'zbek tilida ikki ma'nolidir, ya'ni ham shaxs, ham son ma'nosini ifoda etadi: ruchkamiz — I shaxs, ko'plik, ruchkam — I shaxs, birlik.

Ma'no talabiga ko'ra qaratqich ham qaralmish qam birlikda (mening kitobim), qaralmish esa ko'plikda, qaratqich esa birlikda (mening kitoblarim), qaratqich ko'plikda, qaralmish birlikda (bizning kitobimiz), qaralmish ham qaratqich ham ko'plikda kela oladi (bizning kitoblarimiz).

Stilistik maqsadlarga ko'ra II shaxs egalik formasining birligi shu shaxsning ko'pligi uchun (senlarning kitobing), ko'plik formasi esa birlik uchun (sizning dadangiz) qo'llanishi mumkin. Bunda hurmat, kesatish ma'nolari ifodalanadi.

O'zakka egalik qo'shimchalari qo'shilganda, turli fonetik hodisalar ro'y beradi:

1) o'zak tarkibidagi ikkinchi "i" va "u" tor unililari tushib qoladi: og'iz+im — og'zim, bo'yin+im — bo'ynim.

2) o‘zak oxiridagi k, q jarangsiz undoshlari jaranglilashadi: o‘rtoq+im — o‘rtog‘im, eshik+im — eshigim. Lekin ittifoq, idrok kabi so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, o‘zakda o‘zgarish yuzi bermaydi.

3) shahar so‘ziga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, ikkinchi bo‘g‘indagi "a" unlisi tushib qolishi ham, saqlanishi ham mumkin shaharim yoki shahrim.

Egalik qo‘shimchalari uyushiq bo‘lakli har bir so‘zga alohida-alohida qo‘shilishi mumkin: O‘qituvchilarimiz, studentlarimiz ko‘makka chiqdi. Xuddi shuningdek, bir butun holda qo‘llanadigani konstruksiyalarga ham qo‘shilib kelishi mumkin: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashimiz qarori.

Egalik qo‘shimchalarini kesimlik qo‘shimchalaridan farqlash lozim. Egalik qo‘shimchalari otlarga qo‘shiladi, kesimlik qo‘shimchalari esa fe‘llarga qo‘shilib keladi. Chog‘ishtiring kitobim — o‘qidim, kitobing — yozing kabi.

8-ma’ruza. KELISHIK KATEGORIYASI

REJA:

1. Kelishik kategoriyasining mohiyati.
2. Kelishik shakllarining yasalishi.
3. Kelishik shakllarining sintaktik xususiyati va ma’nosi.

Ot yoki otlashgan so‘zlarga qo‘shilib, sintaktik munosabati ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan grammatik formalar sistemasiga kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi olti grammatik ma’no yoki kelishilikni birlashtiradi: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi, o‘rin kelishigi (o‘rin-payt kelishigi emas. Chunki payt ma’nosi uchala kelishikda ham bor), chiqish kelishigi.

Kelishiklar ifoda qiladigan munosabatlarning umumlashgan ma’nosi so‘zlar paradigmasida emas, so‘z birikmasida shakllanadi, ya’ni bunday ma’nolar sintagmatik xarakterda bo‘ladi.

Otlarning kelishik formalari bilan o‘zgarishi turlanish, kelishik qo‘shimchalarini turlovchi qo‘shimchalar deb yuritiladi.

Kelishik	So‘roqlari	Turlanishi
Bosh k.	Kim? nima?	Zulfiya, kitob,

qaratqich k.	qayer? Kimning? nimaning?	Toshkent Zulfiyaning, kitobning,
Tushum k.	qayerning? Kimni? nimani?	Toshkentning Zulfiyani, kitobni,
Chiqish k.	qayerni? Kimdan? nimadan?	Toshkeitni Zulfiyadan, kitobdan,
Jo‘nalish k.	qayerdan? Kimga? nimaga?	Toshkentdan Zulfiyaga, kitobga,
O‘rin k.	qayerga? Kimda? nimada?	Toshkentga Zulfiyada, kitobda,
	qayerda?	Toshkentda

Ko‘rinadiki, har bir kelishikning o‘z formasi, ma‘nosi va sintaktik vazifasi bor. Masalan, jo‘nalish kelishigi ot, olmosh, son va otlashgan so‘zlarga qo‘shilib, ot bilan fe'l orasidagi sintaktik munosabatni ko‘rsatadi. Uning asosiy ma‘nosi harakatning yo‘nalish o‘rnini bildirishdir. Bundan tashqari, payt, atash, sabab, maqsad ma‘nolarini ham ifoda etadi.

O‘zbek tilida otlarning boshqa biror so‘zga grammatik aloqasi ko‘makchilar orqali ham ifoda etilishi mumkin: pichoqda kesdi — pichoq bilan kesdi. Telefonda gaplashdi — telefon orqali gaplashdi. Bu hol nutqda kelishikli va ko‘makchili konstruksiyalar sinonimiyasini yuzaga keltiradi: onamga oldim — onam uchun oldim kabi.

Kelishik qo‘shimchalari so‘zga son va egalik (agar ular bo‘lsa) formalaridan keyin qo‘shiladi: kitoblarimga.

Bosh kelishik

Bosh kelishikdagi so‘z kim? nima? qayer? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Bosh kelishikning maxsus ko‘rsatkichi yo‘q. Shuning uchun ham nol formali kelishik deb yuritiladi. Bosh kelishik boshqa kelishiklarni hosil qilishda asos bo‘ladi.

Bosh kelishikda kelgan otlar gapda quyidagi vazifalarda keladi:

1. Ega vazifasida: Toshkent — non shahri. O‘rik oppoq bo‘lib gulladi. Saida majlisni ochdi. (A.qahhor).

2. Kesim vazifasida: Navoiy — buyuk shoir. Kishi va jamiyatni shakllantirgan narsa — mehnat.

3. Izohlovchi vazifasida: Daryodan o‘tilgan kuni general Pogodin front Harbiy Sovetiga chaqirildi. (I.R.).

4. Hol vazifasida: Shu kuni Abdulla allamahalgacha xayol surib yotdi. (Umarbekov).

5. Undalama, atov gap vazifasida: Yoshlar, Vatanga sodiq bo‘ling! Oy. Nozik jimjitlik. Salqin shamolgina qizning sochlari bilan o‘ynashadi. (O.).

Nutqda Farg‘ona shahri, pedagogika instituti, o‘zbek xalqi kabi konstruksiyalar -ning qo‘shimchasini qabul qilmaydi. Shuning uchun ham ular bosh kelishik deb yuritiladi.

Qaratqich kelishigi

Biror predmetning biror shaxs yoki predmetga tegishli, qarashli ekanligini bildirgan kelishik qaratqich kelishik deyiladi.

qaratqich kelishigining morfologik belgisining. Kimning? nimaning? qayerning? so‘roqlariga javob bo‘ladi: Alining kitobi, daraxtning bargi, Buxoroning aeroporti.

qaratqich kelishigidagi ot qaratqich bo‘lib, odatda, boshqa biror so‘zni o‘ziga qaratib keladi. qaratilgan so‘z qaralmish bo‘lib, egalik qo‘shimchasini oladi: Cholg‘uchilarning sadolari, qo‘shiqchilarning kuylari havoda yangrab turardi. (O.).

qaratqich kelishigining turli morfologik variantlari bor. Ular quyidagilar:

1. Poeziyada -n shaklida: Ahdga vafo o‘zbek xalqin udumi. (G‘.G‘.)

2. Jonli so‘zlashuv nutqida -ni, -ri, -shi, -yi: Foydasi yo‘q hozir gapirishni, bahorri, ishshi, soyyi kabi.

3. -ing varianti ham mavjud. Bu I va II shaxs kishilik olmoshlarining birlik formasiga qo‘shiladi: men+ing, sen+ing kabi.

4. Klassik adabiyotda -im formasi ham bor: Menim orzum. qaratqich kelishigi belgili va belgisiz formada ishlatiladi Belgili qaratqich kelishigi -ning qo‘shimchasi bilan shakllanib, real qarashlilikni ifodalaydi: Olmaning guli, Lolaning sovg‘asi.

qaratqich kelishigining qo‘shimchasi tushib qolsa, qaratqich kelishigi belgisiz bo‘ladi: Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar. (Maqol). Belgisiz qaratqichda umumiy xoslik ifodalanadi: olma shoxi, cho‘l qushlari.

qaratqich kelishigi quyidagi hollarda, albatta, belgili qo‘llaniladi:

1. Olmosh qaratqich kelishigida kelganda: Uning yuziga qon yugurdi. (A.M.).

2. Otlashgan soʻz (sifat, sifatdosh) qaratqich kelishigida kelganda: Yamasang yangi boʻlur, yangining tengi boʻlur. (Maqol).

3. qaralmish otlashgan soʻzlardan boʻlganda: Har narsaning yangisi yaxshi, doʻstlikning eskisi. (Maqol).

4. qaratqich bilan qaralmish orasida biror soʻz boʻlsa: quyoshning iliq nurlari sochildi.

5. qaratqich qaralmishdan soʻng kelganda:

Har bir guli bu chamanzorning.

Jon bagʻishlar tiliga torning.

6. Butunning qismi anglashilganda: Yurakning yarasini faqat mehr tuzata oladi. (H.Gʻ.) va boshqalar.

qaratqich kelishigi quyidagi hollarda belgisiz boʻladi:

1. qaratqich kelishigidagi ot abstrakt otlardan boʻlganda: Yaxshi did haqiqat yoʻlidan boradi.

2. qaralmish payt maʼnosidagi soʻzlardan boʻlganda: qoratepa guzari dam olish kunlari juda gavjum boʻladi. (S.A.).

3. qaratqich kelishigidagi soʻzlar bir-biriga tobe holda, birin-ketin kelganda, eng soʻnggisidan oldingilari belgisiz boʻladi: Buxoro davlat universiteti, filologiya fakulteti 2- kurs studentlarining ilmiy munozarasi boshlandi.

4. qaratqich qaratqich bilan birikkanda: Madaniyat rivojining birinchi sharti tinchlikdir. (A.N.Tolstoy).

qaratqich kelishigidagi soʻz gapda qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi: Paxtakorlarning orzusi ushaldi.

Tushum kelishigi

Tushum kelishigidagi ot ish - harakatni oʻz ustiga olgan predmetni anglatadi. Tushum kelishigining qoʻshimchasi -ni, soʻrogʻi , kimni? nimani? qayerni? Gapda vositasiz toʻldiruvchi boʻlib keladi: Samadni, oshni, Buxoroni.

Poeziyada bu forma -n shaklda ishlatiladi:

Olmazorlar gulin toʻkadi,

Meva bogʻlab shoxin bukadi. (H.O.).

Jonli tilda, shevalarda -ni qoʻshimchasi -i, -ti, -di shaklida ham qoʻllanadi: Adl qulogʻi-la eshit holimi. (Muqimiy). Oshti ichdi, nondi yedi.

Tushum kelishigi belgili va belgisiz ishlatiladi. Kelishik qoʻshimchasi -ni saqlansa, belgili, -ni tushib qolsa, belgisiz hisoblanadi.

quyidagi hollarda tushum kelishigi belgisi qo'llaniladi:

1. Tushum kelishigidagi so'z atoqli otlardan bo'lganda: Azizning bu taklifi Nafisani o'ylatib qo'ydi. (H.G.). Saodatni chaqirdi.

2. Tushum kelishigidagi so'z kishilik yoki ko'rsatish olmoshi bo'lganda: Meni chegaraga yuborishdi. Uni ko'rdi.

3. Tushum kelishigi payt bildiruvchi so'z bo'lganida: Erkin yozni qanday o'tkazganini so'zladi.

4. Tushum kelishigidagi so'z otlashgan so'zlardan bo'lganida: Yaxshini maqtagan yarashur, yomonni maqtagan adashur. (Maqol).

5. Tushum kelishigidagi so'z harakat nomi bo'lganida: Yaxshisi bu uchrashuvni tezlashtirish kerak. (H.G.).

6. Egalik qo'shimchasini olib kelganda: Yo'lchi titroq qo'llari bilan Gulorning sochlarini asta siladi. (O.) va h.k.

Tushum kelishigidagi so'z, asosan, bir turdagi predmetni ifoda qilib, uni ta'kidlash lozim topilmaganida belgisiz qo'llanadi: Navoiy yangidan-yangi tanishlar, do'stlar orttira bordi. (I.Sulton).

Chiqish kelishigi

Chiqish kelishigi ish-harakatning chiqish nuqtasini, shuningdek, ob'yekt, manba, payt, sabab, qiyoslash ma'nosini ifoda etadi. Chiqish kelishigining morfologik belgisi -dan, so'rog'i kimdan? nimadan? qayerdan? Masalan, Dehqonlardan ko'nglimiz to'q. Bulbul shodligidan sayrab yubordi. Men Sharqdan kelayotirman. Chiqish kelishigi qo'shimchasi shevalarda, yozma yodgorliklarda -din, -tin, -tan, -nan shakllarida uchraydi:

Deyin so'z ilmning xosiyatidin,

Bayon aylab, aning mohiyatidin. (Furqat).

Kavokib sayrini shab to sahar, bedor o'landan so'r. (Fuzuliy).

Chiqish kelishigi (umuman makon kelishiklari) ko'rsatish olmoshlariga qo'shilganda bir -n tovush orttiriladi: shundan, shunga, shunda kabi.

Chiqish kelishigi formasi, asosan, quyidagi grammatik ma'nolarni anglatadi:

1. Harakatning boshlanish manbaini bildiradi: uydan chiqdi; Gulnoraning o'zidan so'rab ko'ramiz.

2. Harakatning boshlanish paytini bildiradi: Kundan-kun yaxshi, uch oydan.

3. Predmetning nimadan ishlanganligini bildiradi: Nizomiy bolidan halvo pishirdim. (N.)

4. qiyoslash ma'nosini anglatadi: asal qanddan shirin.

5. Chiqish kelishigi qaratqich kelishigi vazifasida kelib, kimdan? nimadan? so'roqlariga javob bo'lib, to'dadan birini ifoda qiladi: soldatlardan biri.

Chiqish kelishigi deyarli belgisiz qo'llanilmaydi. Uyushiq bo'lakli gaplarda oxirgi bo'lakka qo'shib, yaxlitlovchi forma vazifasini bajaradi: Bog'lar, tokzorlar va polizlardan xushbo'ylik anqirdi.

Chiqish kelishigidagi so'z gapda to'ldiruvchi: Xolmatdan xabar bormi? Hol: Bir nafasdan so'ng uchovlon bog'chadan chiqdilar. Chiqish kelishigidagi so'zlar kesim bo'lib kelganda -mi yuklamasi, tuslovchi qo'shimchalarni olib kelishi mumkin: Bolam, qurilishdanmisizlar, deymen. (A.q.)

Chiqish kelishigi ma'lum so'zlar, tarkibida qotib, kelishik sistemasidan chiqib qolishi ham mumkin. Bunda: a) ravish hosil bo'ladi: birdan, zimdan, to'satdan, b) modal so'z hosil bo'ladi: aftidan, ehtimoldan, v) ko'makchi hosil bo'ladi: yuzasidan, orqasidan kabi.

Jo'nalish kelishigi

Jo'nalish kelishigidagi ot ish-harakat yo'nalgan predmetni anglatadi. Bu kelishikning morfologik belgisi: -ga, -ka, -qa: ishga, stanokka, barakka, boqqa.

Jo'nalish kelishigi poeziyada va so'zlashuv nutqida -a, -ya formalarida uchraydi: Dugonajon dugona, chehrang zebi - zebona, ovoz qilib haryona, bizlarni, ey dugona, chaqirdingmi buyona. (V.Sa'dulla). O'lkadan o'lkaya yel kabi yursam. (S.A.).

Jo'nalish kelishigi formasi quyidagi grammatik ma'nolarni ifodalaydi:

1. Ish-harakat yo'nalgan shaxs, predmet yoki tomon kabi ma'nolarni ifodalaydi: qari va kasal kishilarga har vaqt yordam berish kerak. Dilda bo'lsa, tilga chiqadi. (Maqol). Men Toshkentga ketaman.

2. Atalganlik ma'nosini bildiradi: Yosh qalbimiz alangasi — Vatanga. Bor mehrim Oysuluvghahadya, — dedi Ergash ("Saodat").

3. Sabab yoki maqsadni bildiradi: Plan bajarilganiga xursandmiz.

4. Vaqt ma'nosini anglatadi: Ekskursiya yozga qoldirildi va h.k. Jo'nalish kelishigi formasi ko'makchilar bilan sinonimlik tashkil qila oladi: ukamga oldim — ukam uchun oldim.

Jo'nalish kelishigi ba'zi hollarda chiqish, o'rin-payt va tushum kelishigi funksiyalarida ham keladi: Biz hashamatli bino oldiga (oldida) to'plandik. Bu voqealarga (voqealarni) tushuna olmadim. Bo'lgan voqealarni

aytib berishga (berishdan) uyaldik. Bular nutqda parallel holda qo'llanaveradi.

Jo'nalish kelishigidagi ot gapda: a) vositali to'ldiruvchi: Dildora Nafisaning chaqnoq ko'zlariga havaslanib boqdi. b) O'rin holi: Abdulla tushga yaqin Mingbuloqqa yetib keldi. (O'.Umarbekov)

Jo'nalish kelishigi formasi ayrim ravish va modal so'zlar tarkibida qotib qolgandir: Eshon bilan birga, nafsambiriga.

O'rin kelishigi

O'rin kelishigi ish-harakatning bajarilish o'rnini, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Formasi -da, so'rog'i kimda? nimada? qayerda? Masalan, uyda, bahorda, issiqda.

Bu kelishik quyidagi grammatik ma'nolarni ifodalaydi:

1. Predmet va harakatning o'rnini bildiradi: daryoda yashaydi, dalada o'sadi.

2. Harakatning bajarilish paytini bildiradi: Bolalik kunlarimda uyqusiz tunlarimda. (H.O.)

3. Bir vaqtning o'zida ish-harakatning ham bajarilish o'rnini, ham paytini ifodalaydi: O'roqchilar ko'tarar qiy-chuv

To'yda kelin kelgan singari. (O.)

4. Vosita ma'nosini bildiradi: Ipak parashyutda qilamiz parvoz. (U.)
Payt ma'nosini ifodalaganda, ba'zan o'rin kelishigi belgisiz qo'llanadi: Dehqon bo'lsang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda. (Maqol)

Kelishik formasidagi so'zlar nutqda keng qo'llanadi. Ularning salmog'i nutqda qo'llanadigan umumiy so'zlarning 40-45 %ini tashkil qiladi.

9-ma'ruza. SIFAT TURKUMI

REJA:

1. Sifat turkumi haqida.
2. Sifatning ma'no guruhlari.
3. Daraja kategoriyasi.

Predmetning belgisini bildiruvchi so'zlar sifat deyiladi: oq, qizil, shirin, katta, uzun.

Sifat harakatning belgisini bildirishi ham mumkin: yaxshi gapirdi, qattiq ta'sirlandi. Lekin harakat belgisini ba'zi sifatlar bildiradi. Sifatlarning umumiy kategorial ma'nosi predmet belgisini anglatishdir.

Sifatlar boshqa soʻz turkumlaridan oʻziga xos maʼnosi, maxsus forma yasovchi (daraja) va soʻz yasovchi qoʻshimchalarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Ayrim holatlarda ikki ot bir-biri bilan aniqlovchilik munosabatiga kirishganda, biri ikkinchisining belgisini ifodalab kelishi mumkin. Lekin belgi maʼnosini ifodalab kelgan bunday ot tamomila sifat turkumiga oʻtib ketmaydi, balki ot turkumi doirasida qoladi: tosh yoʻl, oltin soat.

Asliy va nisbiy sifatlar

Predmet belgisini toʻgʻridan toʻgʻri ifodalay olishi va ifodalay olmasligiga koʻra sifatlar ikkiga boʻlinadi: 1) asliy, 2) nisbiy sifatlar.

Predmet belgisini bevosita boshqa bir predmetga nisbat qilmagan holda ifodalaydigan sifatlar asliy sifatlar deyiladi: koʻk, sariq, keng, semiz. Bunday sifatlar predmetning asl, doimiy belgisini bildiradi, predmet belgisini boshqa predmetga nisbat berib ifodalaydigan sifat nisbiy sifat deyiladi: devoriy gazeta, kuzgi bugʻdoy, ilmiy ish. Nisbiy sifatlar boshqa soʻz turkumlaridan sifat yasovchi grammatik formalar vositasida yasaladi: tarixiy, odamsimon, yozgi kabi.

Sifatlarni asliy va nisbiy sifatlarga ajratishda darslik kitoblarda bir xillik yoʻq. Jumladan, 1980 yilda nashr qilgan «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» kitobida bu haqda hech narsa aytilmaydi.

Bizningcha, sifatlarni ikkiga: asliy va nisbiy sifatlarga ajratish lozim. Buning uchun sifatlardagi semantik va formali struktur meʼyorlarni amalda qoʻllab maʼnodagi qatʼiylik va noqatʼiylik, soʻzlaridagi yasamalik va tublik xarakterini hisobga olib ajratish kerak boʻladi. Jumladan, asliy sifatlar tub, maʼnosi aniq va qatʼiy, nisbiy sifatlar boshqa soʻzlardan yasalgan va maʼnosi noaniq. Chogʻishtiring: shirin olma-tub, maza ifodalaydi, devoriy yasama, maʼnosi noaniq.

Asliy va nisbiy sifatlar yana quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Asliy sifatlar belgini darajalab koʻrsata oladi: shirin- shirinroq, eng shirin, qizil-qizilroq, eng qizil. Maʼno anglatishiga koʻra asliy sifatlarga ancha yaqin turuvchi -li qoʻshimchasi bilan yasalgan nisbiy sifatlar ham darajalana oladi: kuchli- kuchliroq-eng kuchli, aqlli-eng aqlli.

2. Asliy sifatlarda intensiv va belgining kamligini koʻrsatuvchi forma yasalishi bor: sap-sariq, kap-katta, oqish, koʻkimtir: Taʼm, maza, holat, xarakter bildiruvchi: nordon, shirin, ogʻir, novcha, semiz kabi asliy sifatlar intensiv formaga ega emas.

Sifatlarning maʼnoga koʻra turlari

Predmetning ma'lum bir belgisini bildirish xususiyatlariga ko'ra sifatlar bir necha turga bo'linadi:

1. Xususiyat bildiruvchi sifatlar: kamtarin, mug'ombir, sodda, sho'x.
2. Holat bildiruvchi sifatlar: xursand, sovuq, iliq, keksa, jimjit.
3. Shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar: gavdali, novcha, yassi.
4. Rang-tus bildiruvchi sifatlar: oq, qora, qizil, ko'k.
5. Hajm, o'lchov bildiruvchi sifatlar: keng, tor, uzun, katta, og'ir.
6. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar: shirin, nordon, bemaza.
7. Hid bildiruvchi sifatlar: xushbo'y, badbo'y, qo'lansa.
8. Predmetning o'ringa yoki vaqtga ko'ra munosabatini bildiruvchi sifatlar: yozgi, qishqi, bahorgi, ichki va boshqalar.
9. Tabiiy holatni ifodalovchi sifatlar: yosh, qari, keksa, va h.k.

Sifat darajalari

Belgining bir-biriga qiyosan darajasini ko'rsatadigan kategoriya daraja kategoriyasi deyiladi. Bu kategoriya asosan sifat turkumiga xos.

Sifat bildirgan belgining darajasi har xil bo'lishi mumkin. Ya'ni belgi normal (oddiy) darajada bo'lishi, oddiy darajadan ortiq (kuchli) yoki oz (kuchsiz) bo'lishi mumkin. Sifatlarning daraja nuqtayi nazaridan bo'lgan bunday farqi turli vositalar yordamida ifodalanadi: yaxshi, yaxshiroq, juda yaxshi kabi. Ammo ayrim sifatlar bildirgan belgi tabiiy ravishda daraja ko'rsatkichiga ega bo'lmaydi: g'oyaviy, sirtqi, devoriy.

Sifat darajalari uch ko'rinishga ega: 1) oddiy daraja, 2) orttirma daraja, 3) ozaytirma daraja.

Izoh: Sifat darajalari turli darsliklarda har xil tasnif qilingan: U. Tursunov... «Hozirgi o'zbek adabiy tili» kitobida oddiy, qiyosiy, orttirma darajalar mavjudligi va sifatlarda belgining ortiq yoki kamligini ifodalovchi formalar borligi qayd etiladi. «O'zbek tili grammatikasi» kitobida orttirma, ozaytirma, qiyosiy daraja borligi qayd etiladi va h.k.

Predmet belgisining ortiq yoki kamligi oddiy darajaga nisbatan belgilanadi. Shuning uchun sifatlardagi oddiy darajani inkor qilib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, biror belgi darajasining ortiq yoki kamligiga asoslanadi. Shunga ko'ra sifatlarning belgisi uch darajaga bo'linadi: 1) oddiy; 2) orttirma; 3) ozaytirma. Bunda temirdan og'ir, po'latdan yengil kabi ishlatishlarda belgi darajasini oz yoki ko'pligi ifodalanmaydi. Chunki bunda bir predmet belgisi ikkinchi bir predmet belgisiga nisbatan olinadi. Holbuki, yuqorida qayd etilganidek, daraja bir predmetdagi oddiy belgiga nisbatan olinadi.

Belgining ortiq yoki kamlikka munosabati ifodalaymaydigan daraja oddiy daraja deyiladi. Bunda sifatlar daraja ifodalovchi vositalarga ega bo'lmaydi: yaxshi, baland, shirin, go'zal.

Orttirma daraja

Belgining normal holatdan ortiqligi, kuchliligi ifodalangan daraja orttirma daraja deyiladi. Orttirma daraja bildiruvchi maxsus forma ko'rsatkichi yo'q. Bu ma'no bir necha usul bilan ifodalanadi.

1. Fonetik usul: yap-yapaloq, dum-dumaloq, sap-sariq, qip-qizil.
2. Leksik usul: juda go'zal, g'oyat go'zal, behad xursand. Xuddi shuningdek, belgining ortiqligi analitik formada ham ifodalanadi: uzundan-uzun, shirindan-shirin kabi.

Ozaytirma daraja

Belgining normal darajasidan kuchsizligini bildiradi. Bu ma'no ikki usul bilan ifodalanadi.

1. Leksik usul: Bunda darajaning kuchsizligi maxsus so'zlar yordamida hosil qilinadi: sal durust, bir oz yaxshi, xiyol ochiq.
2. Morfologik usul: Bunda darajaning kuchsizligi -roq qo'shimchasi yordamida ifodalanadi: oqroq, ko'kroq, balandroq, tekisroq kabi. Kattaroq o'g'il bolalar tomga varrak, kichikroqlari laylakcha ko'tarib chiqqan edilar. (SH. Sa'dulla).

Belgining normal darajadan pastligini ifodalovchi leksik vositalar (sal xiyol, bir oz) yoki morfologik vositalar (-imtir, -ish) bo'lganida sifatga -roq qo'shimchasi ham qo'shiladi. Sal yorug'roqda, sarg'ishroq yigit.

Ikki predmetning belgisi o'zaro qiyoslanganda -roq qo'shimchali sifat bildirgan belgi darajasi boshqa predmetning belgi darajasidan kuchliroq (ortiqroq) bo'ladi: Havo kechagidan bugun sovuqroq. Karim Salimdan novcharoq kabi. Lekin bunday hollarda ham -roq qo'shimchasi darajaning kuchliligini (ortiqligini) ifodalaydi. Chunki bu ma'no qiyosning o'zidan kelib chiqadi. -roq qo'shimchasi shunda ham darajaning normal holatdan kuchsizligini bildiradi, ya'ni belgining darajasi -roq qo'shimchasi qo'llanmagan formada kuchli (ortiq) bo'ladi. qiyoslang: bugun sovuqroq-bugun sovuq, undan kuchliroq-undan kuchli kabi.

Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlarda qo'llanuvchi -ish, -imtir qo'shimchalari belgining kuchsiz darajasini bildirmaydi. Balki belgining sifat bildirgan rang-tusga moyilligini, shunga yaqinligini ko'rsatadi: oqish, qizg'ish, ko'kimtir. qora, qizil, oq, sariq kabilarda ham xuddi shunday. O'zbek tilidagi sifat darajalarini o'rganish inqilobdan oldin boshlangan. N.Ostroumov «Etimologiya sartovskogo yazika», T., 1910 yil kitobida sifat

darajalari haqida fikr yuritadi. Bu haqda A.N. Kononov, S.Usmonov, M Sodiqova va boshqa olimlar ham ilmiy ish yozgan.

Sifatlardagi sub'yektiv baho formasi

Sifatlardagi sub'yektiv baho formalari soʻzlovchining shu belgi orqali predmetga ijobiy munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi: yaxshigina, shiringina, chiroyligina.

Shaxsning sub'yektiv munosabati tufayli baʼzi sifatlarga qoʻshimcha ravishda

-cha qoʻshimchasi qoʻshib aytilib, soʻz variantlari hosil qilinadi: yetim-yetimcha, yashirin-yashirincha, oshiq-oshiqcha; chin-chinakam; hazil-hazilakam, yolgʻon-yolgʻondakam kabi.

Sifatlarning otlashuvi

Sifatlarning otlashuvi ularning ot bajargan vazifalarda kelishidir. Bunda sifat butunlay otga aylanmaydi. Sifatlar otlashganda otga xos sintaktik funksiyalarni bajaradi: Yomonning yaxshisi boʻlguncha, yaxshining yomoni boʻl. (Maqol.)

Sifat quyidagi hollarda otlashadi: a) predmet-aniqlanmish (sifatlanmish) tushib qolganda: Koʻr tutganini qoʻymas, kar eshitganini (koʻr odam, kar odam maʼnosida). Kambagʻalni tuyaning ustida it qopadi; b) kishi yoki hayvonlarning tabiiy holatini (nuqson, kamchiliklarini) bildiruvchi sifatlar aniqlanmishsiz ot tarzida qoʻllanadi: choʻloq, maymoq, pakana, malla, kal, semiz. Demak, sifatlarda konversiya (aylanish, oʻzgarish) - bir turkum oʻrnida ikkinchisining qoʻllanishi ham mavjud.

Sifatlar ot oʻrnida qoʻllangani kabi boshqa soʻz turkumlari ham sifat oʻrnida qoʻllana oladi. Otlar emotsional-ekspressiv yoki koʻchma maʼno ifodalaganda: zahar (odam), tilla (bola), shakar (qiz).

Sifatdoshlar: kelishgan yigit, kelishgan qiliq.

Ravishlar: oqilona maslahat, ruscha kitob.

Otga koʻchgan sifatlar ham mavjud qiz, oʻgʻil, yosh, qari, erkak, xotin, kasal kabi soʻzlar bir vaqtlar sifat boʻlib, keyinchalik ot kabi qoʻllanadi. Buning belgisi ularning sifat bilan ifodalanganda aniqlovchi olishidir. Yosh yigit, qari chol, chiroyli xotin.

Sifatlar gapda asosan aniqlovchi vazifasida keladi: qizil olma, shirin qovun kabi.

10-ma'ruza. SON TURKUMI. HISOB SO'ZLAR

REJA:

1. Son turkumining umumiy xususiyatlari.
2. Sonning ma'no turlari.
3. Hisob so'zlar va ularning turlari.

Predmetning miqdorini, sanoq jihatdan tartibini bildiruvchi so'zlar turkumi son deyiladi. Son qancha? nechta? necha? nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladi. Besh, oltita, uchinchi kabi.

Sanaladigan predmet nomini anglatuvchi ot bilan qo'llanmagan (besh, o'n, uchdan ikki kabi) sonlar matematik son ma'nosini ifodalab, mavhum ma'noli bo'ladi va faqat sonlarning nomini anglatadi: ikki karra ikki to'rt. Sonlar sanaladigan predmetning nomini anglatuvchi so'zlar bilan qo'llanganda esa son turkumini tashkil qiladi.

Son predmetning miqdori, sanog'i va tartibiga ko'ra belgisini ifodalashiga ko'ra sifat va ravish turkumlariga yaqin turadi. Sonlar harf bilan yoziladi. Arab (1,2,3,4) yoki rim (X, XI, XII) raqamlari bilan yozilishi mumkin.

Sanash sistemasida odatda, katta sonlar oldin, kichik sonlar keyin aytiladi: 320; 4516 kabi. Eski yozma yodgorliklarda esa kichik son oldin, katta son keyin aytilgan. O'rxun-Yenisey yodgorliklarida: o'n bir soni bir yigirma, o'n uch soni uch yigirma deyilgan.

O'zbek tilida oz, ko'p, ancha, biroz kabi miqdor bildiruvchi so'zlar ham bor. Ammo bu xil so'zlar son kategoriyasiga kirmaydi. Unga raqamlar bilan ifodalash mumkin bo'lgan so'zlarga kiradi. S. Nizomiddinova "qo'sha, yorti, yolg'iz, toq so'zlari semantik jihatdan miqdorni bildiradi. Ular 2 yoki 1 sonlari (raqamlari) bilan ifodalanadi" deydi.

O'zbek tilida miqdor tushunchasi asosan yigirma uchta so'z bilan ifodalanadi. Bulardan to'qqiztasi birlik (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9), To'qqiztasi o'nlik (10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90), to'qqiztasi yuqori miqdorni bildiradi (yuz, ming, million, milliard). Eski o'zbek tilida tuman (o'n ming), lak (yuz ming) sonlari ham bo'lgan.

Sonlar morfologik va sintaktik o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi:

1. Sonlar o'ziga xos forma yasovchi ko'rsatkichlariga ega: -nchi, -ala, -ta, -tacha, -tadan kabi.

2. Sonlar juft, metr, dona kabi numerativ soʻzlar bilan birikib kela oladi.

3. Boshqa soʻz turkumlaridan son yasalmaydi. Oʻzidan ham boshqa soʻz turkumlari yasalishi kuchsiz (uchlik, ikkilanmoq kabi).

4. Sonning gapdagi vazifasi, asosan, aniqlovchi boʻlib kelishdir. Otlashganda ot bajargan vazifalarni bajaradi.

Sonlarning sintaktik xususiyatlari quyidagicha:

1. Ot bilan birikib aniqlovchi boʻlib keladi: Ikkita qiz gul terdi.

2. Sonlar hech qachon belgi ifodalovchi soʻzlarni oʻziga tobe qilib kelmaydi, aniqlovchi olmaydi.

3. Sonlar otlashganda, ot bajargan vazifalarni bajaradi: Olimlarning har ikkisi tuproqshunos. Moskvada soat ikki. Buxoroda toʻrt.

4. Sonlar kirish soʻz vazifasida ham keladi: Birinchidan, darsga kechikmaslik, ikkinchidan, tartibni saqlash

Sonning tuzilishiga koʻra turlari:

Tuzilish jihatidan sonlar uch xil boʻladi: sodda sonlar, tarkibli (murakkab) sonlar, juft sonlar.

Bir oʻzakdan iborat sonlar sodda sonlar deyiladi: bir, uch, besh, olti, ellik, ming. Aslida ikki oʻzakdan tuzilib, hozirgi kunda bir oʻzak tarzida qoʻllaniladigan sakson (sakkiz+oʻn), toʻqson (toʻqqiz+oʻn) soʻzlari ham sodda son gruppasiga kiradi.

Oʻzbek tilida sodda sonlar ichida ayrimlarining sinonim variantlari mavjud: bir, yakka, yagona, yolgʻiz, ikki, qoʻsh, juft: yakka otning changi chiqmas; qoʻsh ordenli olim.

Bir miqdor tushunchasini anglatuvchi ikki va undan ortiq sonlar tarkibli (murakkab) sonlar deyiladi: oʻn uch, yigirma besh, ikki yuz uch, oʻndan besh kabi. Tarkibli sonlarning oʻzaro ichki munosabatlari bir xil emas. Oʻnlar xonasi doirasidagi tarkibli sonlar oʻzaro teng bogʻlanish zaminida vujudga keladi. Shu sababli biri ikkinchisini aniqlamaydi va izohlamaydi, ammo ikki yuz, uch ming kabi tarkibli sonlarda ikki, uch sonlari ming sonlariga nisbatan aniqlovchidir. Chunki yuz, ming, million sonlari tugal va yaxlit son hisoblanadi.

Ketma-ket keladigan ikki son tizmasidan tuzilgan sonlar juft son deyiladi. Juft kelgan sonning birinchi komponenti miqdor jihatdan ikkinchi komponentidan oz boʻladi: uch-toʻrt, olti-yetti.

Juftlanish ikki xil bo‘ladi: 1) bir xil o‘zaklar aynan takrorlanadi: beshta-beshta, o‘nta-o‘nta; 2) har xil o‘zaklar takrorlanib keladi: ikki-uch, o‘ttiz-qirq.

Sonning ma‘no jihatdanturlari

Sonlar ma‘no va grammatik xususiyatlarga ko‘ra dastlab ikkiga bo‘linadi: miqdor son va tartib son.

Miqdor sonlar

Miqdor sonlar predmetni sanash, donalash, taqsimlab yoki taxminlab ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Miqdor sonlar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) sanoq son, 2) chama son, 3) jamlovchi son, 4) donalik son, 5) taqsim son, 6) kasr son.

1980-yil nashr qilingan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» kitobida miqdor sonlar to‘rt ko‘rinishga ega deyilgan. Dona va taqsim sonlar sanoq sonlar sirasiga kiritib yuborilgan. Holbuki, bu son turlari ham o‘ziga xos semantik belgilarga ega. Jumladan 5 metr libosni 5 ta metr libos deb bo‘lmaydi, beshtalar, oltitalar deb bo‘lmaydi. Taqsim son ham xuddi shunday xususiyatlarga ega.

Sanoq son

Predmetning sanog‘ini bildiruvchi miqdor sonlar sanoq sonlar deyiladi: uch bola, ikki do‘st.

Sonlarning bu turi boshqa so‘zlarga bog‘lanmay, mustaqil holda qo‘llana oladi. Bu hodisa uning otga yaqinligini ko‘rsatadi. Lekin sanoq, son predmet ma‘nosini emas, uning miqdorini bildiradi. Sanoq sonlar bog‘langan ot tushib qolganda, bunday sanoq sonlar substantiyvlashadi: O‘n to‘qqizdan oshmay tur, go‘zal. (H.O.). Sanoq sonlar sonning boshqa turlari uchun asosdir. Sanoq sonning o‘zida maxsus morfologik belgi yo‘q: bir, ikki, uch, to‘rt, besh va h.k.

Sanoq son miqdorni ko‘rsatib turganligidan sanaluvchi predmet (ot) -lar qo‘shimchasini olmaydi: o‘n kishi (o‘n kishilar emas). Ammo gumon, taxmin ma‘nosidagi sanoq sonlar -lar qo‘shimchasini qabul qiladi: Sen ketganda soat uchlar edi.

Sanoq son o‘zidan oldin sifatlovchi aniqlovchi olmaydi: yaxshi beshta kitob emas, beshta yaxshi kitob deyish kerak.

Sanoq sonlar otlashganda egalik, kelishik qo‘shimchalarini olishi mumkin: uchga, uchdan, uchim.

Bir so‘zi va uning xususiyatlari

Sanoq sonlar orasida bir so‘zi turli ma’no va vazifalarda qo‘llanishi bilan xarakterlanadi. Bir so‘zining ma’nosi kontekstda boshqa so‘zlar bilan bog‘langanida konkretlashadi.

Bir so‘zi o‘zak holida, asosan, quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1. Bir so‘zi o‘lchov va miqdor ma’nosida sanoq son vazifasida keladi: bir metr atlas, bir kilo uzum.
2. Bir so‘zi yakka-yagona degan ma’noni anglatadi: Xalqqa xizmat qilish Oybek uchun bir ideal edi.
3. Ayiruv, chegaralov yuklamasi ma’nosini anglatadi: Mening mehribonim bir sensan, onajon.
4. O‘xshashlik ma’nosini anglatadi: Opa-ukaning xarakteri bir.
5. Predmetning konkret emasligi, noaniqligi kabi ma’nolarni bildiradi: bir kishi, bir kun, bir gap kam.
6. Kuchaytiruv yuklamasi yoki ravish bo‘lib keladi: Kechagi to‘yda Gulnora bir o‘ynadi, hamma hayron qoldi. Bir tez yurdiki (juda).
7. Bir so‘zi takrorlanganda, hodisaning ketma-ketligini bildiradi: Do‘konlarni bir-bir aylandi.
8. O‘zi bog‘langan so‘z bilan takrorlanib ayiruv bog‘lovchisi ma’nosini anglatadi: bir kulib, bir yig‘lab gapirdi; bir unday, bir bunday deysiz (goh, goh) va boshqalar.

Chama son

Predmetning taxminiy miqdorini bildiruvchi sonlar chama son deyiladi. Chama son predmet miqdorini aniq bildirmaydi. Chama son quyidagicha yasaladi:

1. Sanoq songa -tacha qo‘shimchasini qo‘shish bilan: beshtacha, yigirmatacha. Bu qo‘shimcha birdan boshqa sonlarga qo‘shiladi.
2. Sanoq sonlarga -lab qo‘shimchasini qo‘shish bilan. Bunda ko‘p predmet tasavvur qilinadi: o‘nlab, yuzlab, minglab.
3. Sanoq sonlarga -lar qo‘shimchasini qo‘shish bilan. Bunda chama, taxmin ma’nosi ifodalanadi: soat beshlar, u yigirmalarda edi.
4. Sanoq sonlarga -larcha qo‘shimchasini qo‘shish bilan. Bunda chama, jamlash ma’nosi ifodalanadi: yuzlarcha, minglarcha.
5. Ikki sanoq sonni juftlab keltirish orqali ham chama son tuziladi: besh-olti bola, yetti-sakkiz qiz bor edi. Ammo sonlar yonma-yon kelganda, hamma vaqt ham chama ma’nosi anglashilavermaydi. Chog‘ishtiring: 1918-1922 yillarda grajdanlar urushi bo‘ldi. Bunda -dan, -gacha aniq son ma’nosi ifodalangan. Men 30-35 yillarda universitetda o‘qir edim.

Dona sonlar takrorlanib kelganda, chama ma'nosi anglashiladi: Xiyol o'tmay yana uch-to'rtta o'q otildi (A.q.).

Bulardan tashqari chama, yaqin, ko'proq, ortiq, oshgan, o'rtasida kabi maxsus so'zlar yordami bilan ham chama ma'nosini ifodalash mumkin: Uning yonida ikki bola – biri o'n, ikkinchisi o'n ikki yashar chamasi bor edi. (O.) Yigirmaga yaqin yigitni ayirdi. (O.)

Jamlovchi son

Bir turdagi predmetlarni jamlab ko'rsatadigan son jamlovchi son deyiladi. Jamlovchi sonlar quyidagicha hosil bo'ladi:

Sanoq songa -ov qo'shimchasini qo'shish bilan: ikkov, uchov, beshov. Bu qo'shimcha bir so'ziga qo'shib kelganda gumon olmoshi hosil bo'ladi: Birov keldi. (Kimdir ma'nosida).

Ba'zi vaqtda -ov qo'shimchasi -ovlon shaklida kelib, jamlikni ko'rsatadi. Oltovlon ola bo'lsa og'zidagini oldirar. (Maqol)

Ne xush bo'lg'ay ikkovlon mast bo'lsak vasl bog'inda,
qo'lim bo'lsa aning bo'yninda-yu, og'zim qulog'inda. (A. Navoiy)

Sanoq sonlarga -ala qo'shimchasini qo'shish bilan: ikkala, uchala, to'rtala. Unli bilan tugagan ikki, olti, yetti kabi sonlarga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda, oxirgi unli tushib qoladi: ikki-ikkov, olti-oltov, ikki-ikkala, yetti-yettala.

-ovlab, -ovlashib qo'shimchalarining sanoq sonlariga qo'shib kelishidan jamlovchi sonlar hosil bo'ladi: uchovlashib ichkariga kirishdi. (M. Ism.) Bu vazifani ikkovlab bajardik.

Dona son

Predmet miqdorining donalab sanalishini bildiruvchi sonlar dona son deyiladi.

Sanoq sonlarga -ta qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi: uchta, beshta, oltita.

-ta formasi numerativ so'zlardan oldin qo'shilmaydi. Beshta tup daraxt emas, besh tup daraxt deyiladi.

Taqsim son

Predmetlarning miqdor jihatdan teng bo'linganligini bildiradi.

-tadan qo'shimchasini sanoq sonlarga qo'shish bilan hosil hilinadi: uchtadan, beshtadan, oltitadan.

Bundan tashqari, sonning boshqa turlarini takrorlash bilan ham taqsim; ma'nosi ifodalanadi: ikkov-ikkov, uchta-uchta bo'lib ketishdi, uch-uch, to'rt-to'rt bo'lib kelishdi.

Kasr son

Butunning qismini ifodalaydigan sonlar kasr son deyiladi: uchdan bir, oltidan ikki, o‘ndan uch kabi. Tilda kasr ma’nosini bildirgan maxsus so‘zlar ham bor: yarim, chorak, nim, nimchorak (chorakning yarmi).

Tuzilish jihatidan kasr sonlar tarkibli sanaladi. Kasr va butun sonlar aralash holda ham ishlatiladi. Besh butun ikkidandan bir kabi.

Tartib son

Predmetning sanalish tartibini bildirgan sonlar tartib son deyiladi. Tartib sonlar sifatlarga yaqin bo‘lib, ular kabi predmet belgisini bildiradi.

Sanoq sonlarga -nchi, -inchi qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi: ikkinchi kurs, oltinchi uy, uchinchi sinf.

Tarkibli sonlardan tartib sonlar yasalganda, qo‘shimcha eng keyingi songa qo‘shiladi: bir yuz oltinchi maktab.

-inchi, -nchi qo‘shimchasi o‘rnida ba’zan -lamchi formasi ham ishlatiladi. Bu qo‘shimcha predmetning tartibiga ko‘ra belgisini emas, sanaladigan voqea-hodisalarning tartibi, sirasini bildiradi: uning ikkita aybi bor: birlamchi, jussadan bergan emas, ikkilamchi, xotinidan ko‘p urish eshitadi. (A. q.)

-nchi, -inchi qo‘shimchasi modal ma’noli so‘zlar ham yasaydi, Bundan «oldingi», «avvalgi», «boshqa» degan ma’nolar ifodalanishi mumkin: Gulning birinchi g‘unchasi kuttirib ochildi. (S. Ahm.) Bu, shubhasiz, bizning yutug‘imiz. Lekin ikkinchi tomoni ham bor, esdan chiqarmaslik kerak. (A. q.)

Tartib son otlar bilan grammatik munosabatga kirishganda, ikki holatni ko‘rish mumkin: a) sonni ifodalovchi tartib son: uchinchi sinf, oltinchi uchastka; b) mazmunan sifatga yaqin turgan belgi ma’nosini bildiradi. Bunda predmetning tartibi emas, balki uning xususiyati, belgisi e’tiborga olinadi: birinchi sort un, ikkinchi nav paxta.

Tartib son arab raqamlari bilan yozilganda, chiziqcha qo‘yiladi. Rim raqamlaridan so‘ng chiziqcha qo‘yilmaydi: 5-uy, 5-may, XVII tom.

Hisob so‘zlar haqida

Sanoq sonlar ba’zan hisob so‘zlar bilan qo‘llanadi. Son bilan predmet o‘rtasida qo‘llaniladigan numerativ (lot: hisob) so‘zlar predmetning xususiyatiga qarab qo‘shiladi. Numerativ so‘zlar sanalayotgan konkret predmetni ko‘rsatmay, o‘sha predmetni hisoblashda, uning qaysi kategoriyaga, guruhga oid ekanligini aniqlash uchun ishlatiladi.

Sanoq soʻzlar koʻpincha ot turkumidagi soʻzlardan ifodalangan boʻladi: dona, tup, nusxa, bogʻlam, siqim.

Oʻzbek tilida numerativ soʻzlarning ishlatilish doirasi juda keng va turli-tumandir.

qadimdan predmetlarni oʻlchash uchun turli idishlar yoki boshqa oʻlchov vositalari koʻplab ishlatilgan. Ularning ayrimlari hozir kam isteʼmol qilinadi.

qadoq: yarim qadoq goʻsht.

Tanob: oʻn tanob yer.

Tosh: uch tosh manzil.

Gaz: besh gaz chit.

Keyingi vaqtda isteʼmoldan chiqqan soʻzlar oʻrniga rus tilidan hisob soʻzlari kirib keldi:

Gektar: uch gektar yer.

Sotix: ikki sotix joy.

Metr: besh metr gazmol.

Minut: ikki minut dam.

Oʻzbek tilida numerativ soʻzlar qoʻllanishiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Predmetni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan soʻzlar: dona, nusxa bosh, tup, nafar.

2. Butunning, guruhning yoki toʻdaning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan soʻzlar: burda, parcha, varaq, ogʻiz, luqma, siqim, tilim, chimdim, qultum, tomchi va h.k.

3. Toʻdalab, guruhlab, koʻrsatuvchi hisob soʻzlar: gala, toʻp, guruh, toʻda, dasta, bogʻ, quchoq, shoda va h.k.

4. Juft predmetlar hisobini koʻrsatuvchi soʻzlar: juft.

5. Ogʻirlikni oʻlchash uchun ishlatiladigan hisob soʻzlar: gramm, litr, pud, tonna, qoshiq, piyola.

6. Uzunlik oʻlchovi uchun: metr, quloch, qarich, qadam va h.q.

7. Vaqt oʻlchovi uchun: kun, yil, oy, hafta, soat, minut va h.k.

8. qiymat (pul) hisobi uchun: soʻm, tiyin, tanga va boshqalar kerak.

Reja:

1. Fe'ning umumiy ma'nosi.
2. Fe'ning ma'noviy guruhlari.
3. Fe'ning grammatik kategoriyalari.
4. Nisbat kategoriyasining umumiy ma'nosi.
5. Nisbat kategoriyasi shakllarining yasalishi.
6. Nisbat kategoriyasi shakllarining mazmuni va qo'llanishi.

Fe'l ish-harakat yoki holatni atab keladi. Holatni atab kelganda ham uni jarayon tarzida bir holatga o'tish ma'nosi bilan beradi.

Daraxt-ko'k –sifat-kesim; daraxtning barqaror, turg'un belgisini ifodalab kelmoqda. Daraxt-ko'kardi -fe'l-kesim, daraxtning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini harakat, jarayon sifatida ifodalab kelmoqda. Shuning uchun harakat, jarayon ma'nosi fe'llarning umumiy ma'nosini tashkil etadi. Bu ma'no barcha fe'llar uchun xosdir. Fe'l nima qilmoq? so'rog'iga javob bo'ladi; *yozmoq, o'qimoq, bormoq, o'tirmoq*kabi. Fe'l anglatgan ish-harakat, holat biror kimsa yoki narsa tomonidan bajariladi. Bu kimsa yoki narsa harakatning bajaruvchisi deyiladi. Fe'llar harakat va holatning predmet-obyektga munosabatiga qarab ikki turga bo'linadi: 1) o'timli fe'llar; 2) o'timsiz fe'llar. O'timli fe'llar kimni?, nimani?, qayerni? so'roqlriga javob bo'lib keladigan to'ldiruvchilar bilan birika oladi: *Va shabboda qurg'ur ilk sahar Olib keldi gulning totini.* (H.O).

O'timsiz fe'llar bunday to'ldiruvchilar bilan birika olmaydi: *Mehmon juda quvonib keldi.* (A.O.) *Sobir hayajonlanib o'rnidan turdi.* (O.) Ba'zi fe'llar matnda qanday so'zlar bilan boq'lanib kelishiga qarab o'timli ham, o'timsiz ham bo'lib kela oladi: *O'quvchi masalani ishladi – U bu dargohda ancha ishladi.*

Keyingi yillarda so'z turkumlarining semantik tahliliga e'tibor kuchaymoqda. O'zbek tilshunosligida fe'llarning semantik xususiyatlari, tasnif masalalari tilshunoslarning diqqat markazida turibdi. Bu jihatdan A. Hojiyev, L.qo'chqortoyev, K. Xoliqov, M. Sodiqova, R. Rasulov va qator tadqiqotchilarning asarlarini sanash joizdir. Jumladan, K. Xoliqov tomonidan fe'llarning bir necha ma'noviy guruhlari ajratilid: "hali ilmiy tadqiqotga mansub qator fe'l razryadlari mavjud, shuningdek, fe'llarning leksik-semantik tashifi, ularning o'zlariga xos grammatik xususiyatlari atroflicha o'rganilishi zarur" degan fikr o'rtaga tashlangan. Bu sohada R. Rasulovning olib borgan tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Olim tomonidan holat fe'llari va ularning LMGlari chuqur o'rganilib tahlil etilgan. Holat fe'llarining yana

ichki 9 ko‘rinishi (davomli holat, ijro holati, biologik holat, fiziologik holat, psixik holat fe’llari kabi) ajratilgan.

Turkiy tillardagi fe’llarning LMGLarini dastlab N.K. Dmitriyev belgilab chiqqan edi; nutq fe’llari, sezgi fe’llari, faoliyat, harakat fe’llari kabi. Bu tasnif hozir ham amalda qo‘llanilmoqda. Chunki 6-sinf “Ona tili” darsligida ham ushbu bo‘linish mavjud. Fe’llarning LMGLarlni belgilab chiqish, har bir guruhni chuqur o‘rganish alohida ilmiy ishlarning obykti bo‘lib, maxsus tadqiqotni talab etadi. A.A. Salkalamanidze ham fe’llarning lug‘aviy-semantik guruhlarini o‘rganar ekan, ularni guruhlashda fe'l valentligini, fe'l valentligini belgilashda esa ularning o‘timli va o‘timsizligini asos qilib oladi 4,18-19:.

Fe'l anglatgan ma`nolar qator mazmuniy guruhlarga ajratiladi, bunda harakatga xos yaratish, buzish, o‘zgartirish, so‘zlash, sezish, yo‘naltirish bilan; holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog‘liq jihatlar e`tiborga olinadi.

I. Harakat fe’llari inson, hayvon, jonsiz predmetlarga xos faoliyatni ifodalaydi. Ular yurish, ta`sir etish, zarb berish kabilar bilan bog‘liq bo‘ladi.

qo‘l, yuz, og‘iz, gavda bilan bog‘liq harakatlarda harakatlantiruvchi obyektlar yaqqol ko‘rinib turadi. Masalan:

1. Oyoq harakati bilan bog‘liq fe’llar. Bu harakat, asosan, “*yurmoq*” fe’li bilan beriladi. Yurish bilan bog‘liq bo‘lgan:

- a) yo‘rg‘alamoq;
- b) pildiramoq;
- d) chopmoq;
- e) lapanglamoq.

2. qo‘l harakati bilan bog‘liq bo‘lgan fe’llarga quyidagilar kiradi:

- a) ushlamoq va uning ko‘chma ma`nolari;
- b) silamoq;
- d) tirnamoq;
- e) shapaloq;
- f) chimchilamoq.

II. Nutq fe’llari gapirish harakat bilan bog‘liqdir. Bunday fe’llar inson faoliyati bilan aloqador bo‘ladi.

- a) gapirmoq (sinonimlari-so‘zlam, aytmoq, demoq):
- b) bidirlamoq;
- d) to‘ng‘illamoq;
- e) g‘o‘ldiramoq.

III. Holat fe'llari. Inson tabiatiga xos bo'lgan jismoniy, ekspressiv-ruhiy holatlar o'ziga xos xarakterga ega. Holatlarni to'rtga bo'lishimiz mumkin:

- a) ichki holat (ruhiy kechinmalar bilan bog'liq);
- b) tashqi holat (xursandlik, darg'azablik ... bilan bog'liq);
- d) jismoniy holat (sog'lomlik, betoblik, kuchlilik, zaiflik... bilan bog'liq);
- e) ijtimoiy holat (boylik, kambag'allik ... bilan bog'liq fe'llar).

Ruhiy-psixologik holat fe'llari, asosan, insonga xos bo'lib, o'y-xayol, eslash, unutilish, dard-alam tortish, achiqlanish, kuyish... bilan bog'liqdir. Bular, asosan, turg'un va frazeologik ibolar bilan beriladi va, shuningdek, ushbu fe'llar miya (o'y, tafakkur), yurak (ko'ngil) bilan bog'liq bo'lib, xuddi shu so'zlarning o'zi ham nutqda ba'zfn ishtirok etadi. Bunday fe'llar yangi dastur va darsliklarda (maktablar uchun) tafakkur fe'llari deb berilgan:

O'yga tolmjq - o'yga cho'mmoq
O'ylab - o'ylab o'yiga yetolmaslik
Xayoli qochmoq
Eslamoq – yodiga olmoq
Ko'z o'ngiga keltirmoq
Ko'nglidan o'tkazmoq
Esiga tushmoq
Esidan chiqmoq
Ko'ngliga tugib qo'ymoq.

Yasamoq, qurmoq, bunyod etmoq, hosil ,o'lmoq, chizmoq, yozmoq, barpo qilmoq, arralamoq, parchalamoq, sayqal bermoq, randa qilmoq, sindirmoq, yemoq, o'chirmoq.... kabi natijali faoliyat fe'llari va o'ylamoq,xayol surmoq, hukm chiqarmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq kabi tafakkur fe'llari ham mavjud. Bular sodda va qo'shma holatda bo'ladi.

Fe'l stilistikasini o'rgangan olim M. Sodiqova bu o'rinda **munosabat fe'llarini** berib, ularni guruhlarga ajratadi:

1. Ijobiy xarakterdagi munosabat fe'llari;
2. Salbiy xarakterdagi munosabat fe'llari.

Birinchi guruhga-*erkalamoq, yaxshi ko'rmoq, maftun bo'lmoq, rom etmoq, eon bosmoq, o'rtaga tushmoq, rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, e'zozlamoq, parvona bo'lmoq* kabilarni kiritgan.

Nisbat kategoriyasi

Harakatning sub'yekt va ob'yektga bo'lgan munosabatini ko'rsatadigan kategoriya nisbat kategoriyasi deyiladi.

Harakat bilan sub'yekt va ob'yekt orasidagi munosabat turli-tumandir. Bu munosabatlar maxsus fe'l formalari orqali ifodalanadi. Bir formada sub'yektning harakati bevosita ob'yektga o'tganligi ifodalansa, boshqa bir formada sub'yektning harakati uning o'ziga qaytganligi, harakatning ob'yekti ham, sub'yekti ham uning o'zi ekanligi anglashiladi: O'ktam g'urur bilan jurnalni ochdi (O.) Navoiy sexrli sadolarga beixtiyor berildi. (O.)

Fe'lning besh nisbat shakli bor: bosh nisbat, o'zlik nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbat, majhul nisbat;

Bosh nisbat

Harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilganligini bildiradigan nisbat bosh nisbat deyiladi. Masalan:

Tarixning to'lqinli, o'tli izidan,
qip-qizil qon tusli chechaklar terdim.
Butun ijodimni xalqimga berdim
Oldim ilhomimni ko'klam qizidan. (U)

Misralardagi terdim, berdim, oldim fe'llari bosh nisbatdadir. Bu nisbatning maxsus ko'rsatkichi yo'q, shuning uchun ham nol ko'rsatkichli nisbat formasi ham deb yuritiladi. Uning bosh nisbat deb atalishi boshqa nisbat formalariga nisbatandir. Boshqa nisbatlar shunga oppozitiv holatda bo'ladi.

O'zlik nisbat

Fe'lning o'zlik nisbati sub'yekt tomonidan bajarilib, yana sub'yektning o'ziga qaytgan harakatni bildiradi. Bunda harakatning bajaruvchisi (sub'yekt) ham, shu harakat qaratilgan predmet (ob'yekt) ham bir shaxsning o'zi bo'ladi, ya'ni harakat sub'yektning o'zida qoladi. Masalan: Siddiqjon kattakon bir daraxt ostida miltillab turgan chiroqqa tomon burildi. (A.q.)

O'zlik nisbati fe'l negizlariga, -n, -in, -il, -l ba'zan ish, -sh qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi: yuvin, kiyin taran; cho'mil, chayqal, qo'shil, ishqal: kerish, joylashgan kabi.

«So'z yasovchi -lan qo'shimchasi bilan yasalgan fe'llar ham negiz holatida o'zlik isbatida bo'ladi: shodlan, otlan, faxrlan, zavqlan kabi» deyish to'g'ri emas. Chunki -n nisbat yasovchi emas. Balki -lan butun qo'shimchadir. Bu tip so'zlar bosh nisbat hisoblanadi.

O'zlik nisbat yasovchi qo'shimchalar -(i)n va -(i)l omonimlik xarakterda bo'lib, ular ayrim fe'l o'zaklaridan majhul nisbatli fe'llar ham hosil qiladi. Chog'ishtiring: ko'rinmoq (o'zlik nisbat) ko'rilmoq (majhul nisbat). Bularning o'zaro farqi kontekstda bilinadi. Xalqimiz tomonidan yaxshi urf-

odatlarimiz saqlangan. (Majhul nisbat). Siz bu dokladga yaxshi tayyorlandingiz (o'zlik nisbat). U semirib ancha ochildi (o'zlik nisbat).

qo'shma fe'llarda o'zlik nisbat qo'shimchasi yetakchi fe'lga qo'shiladi: sevinib qoldi, yechinib oldi, yuvina boshladi.

Orttirma nisbat

Fe'ning orttirma nisbati vosita bilan bajarilgan harakatni bildiradi: tuzat, o'qit, yurgiz, turg'iz.

Fe'l orttirma nisbatga o'tishi bilan avvalgi fikr materiali kengaymb, oraga biror predmet yoki shaxs qo'shiladi. Bola uxladi. Bola ukasini uxlatdi. U ovqat yedi. U ukasiga ovqat berdi.

Fe'ning orttirma nisbat shakli quyidagi qo'shimchalar yordamida yasaladi:

-dir, -tir: yozdir, kuldir, choptir, quvontir.

-gaz, -giz, -g'iz, -kaz, -qaz, -qiz: ko'rgaz, kirgiz, yurgiz, ko'rgaz,

-turg'iz, yetkiz, bitkaz, o'tkaz, tutqaz. u

-t: o'qit, cho'qit, ishlat, qurit.

-iz: oqiz, tomiz, emiz.

-ar: chikar, qaytar.

-sat: ko'rsat.

Ayrim fe'llarda orttirma nisbat yasovchi qo'shimcha aniq ko'rinib tursa-da, lekin hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan ularni morfemalarga ajratib bo'lmaydi: tuzatmoq, surishtirmoq, uzatmoq, solishtirmoq, uyg'ot, yupat kabi.

Xullas, o'zlik nisbat formasi ob'yektli fe'lni ob'yektsiz fe'lga, orttirma nisbat formasi esa ob'yektsiz fe'lni ob'yektli fe'lga aylantiradi. Agar fe'l ob'yektli bo'lsa, orttirma nisbat formasi qo'shilishi bilan yana bir (boshqa) ob'yekt yuzaga keladi.

Orttirma nisbat yasovchi formalar qo'shma fe'llarda uning yetakchi qismsha qo'shiladi: Oqizib ketdi, kuldirib yubordi, ishlatib oldi.

Majhul nisbat

Majhul nisbatda harakat ob'yekti bosh kelishik formasida kelib, gapda ega vazifasini o'taydi. Harakat sub'yekti esa to'ldiruvchi vazifasida keladi. Masalan: Xat o'qituvchi tomonidan yozildi.

Majhul nisbat fe'l o'zaklariga -(i)l, -(i)n qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi: ochildi, aytili, tozalandi, olindi kabi.

Yuqorida qayd qilinganidek, o'zlik va majhul nisbatidagi fe'llar bir xil qo'shimcha -(i) l, -(i) n bilan yasaladi. Shuning uchun bu formadagi fe'llarning qaysi nisbatda ekanligi kontekst orqali aniqlanadi: Navoiy sehrli

sadolarga beixtiyor berildi. (O.) (O'zlik nisbat). Doklad uchun Lolaxonga so'z berildi. (Majhul nisbat.). qo'shma fe'llarda majhullik qo'shimchasi ko'pincha ko'makchi qismga qo'shiladi: o'qib chiqildi, yozib olindi, ochib tashlandi.

Birgalik nisbat

Harakatning bir necha sub'yekt tomonidan bajarilishini bildirgan nisbat birgalik nisbat deyiladi.

Birgalik nisbat fe'l negiziga (-i)sh qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi: yozishdi, borishdi, o'qishdi, yugurishdi.

Ba'zi fe'llarda birgalik nisbat formasi sezilib tursada, hozirgi tilda morfologik jihatdan ajralmas holga kelgan. Ular bosh nisbat hisoblanadi: to'qnashdi, boqishdi, qarashdi (yordamlashdi ma'nosida), aytishdi (bahslashdi ma'nosida).

Birgalik nisbat yasovchi -(i) sh qo'shimchasi ba'zan fe'l negiziga ikki marta qo'shib kelishi mumkin: ko'rishishdi, quchoqlashishdi, o'pishishdi.

Ko'makchili fe'llarda birgalik nisbat belgisi ko'pincha ko'makchi qismga, ba'zan yetakchi qismga qo'shib keladi: O'qib chiqishdi, borib kelishdi, ko'rishib chiqdi, urishib bo'ldi, Ma'noni kuchaytirish uchun har ikkala qismga qo'shilishi mumkin: yozishib bo'lishdi, urishib ketishdi.

Bir fe'l negiziga bir necha nisbat qo'shimchalar qo'shib kelishi mumkin: sev, sevin, sevintir kabi. Bu fe'lning qaysi nisbatdaligi eng oxirgi qo'shimchaga qarab belgilanadi.

Demak, orttirma va o'zlik nisbat formalari harakatning ob'yektga bo'lgan munosabatini, majhul va birgalik nisbat formalari esa harakatning sub'yektga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Shuning uchun ham, nisbat kategoriyasi harakatning ob'yekt va sub'yektga munosabatini ko'rsatuvchi kategoriya sifatida ta'riflanadi.

12-ma'ruza. MAYL VA ZAMON KATEGORIYALARI

REJA:

1. Mayl kategoriyasining umumiy ma'nosi.
2. Aniqlik mayli.
3. Buyruq-istak mayli.
4. Shart-istak mayli.
5. Zamon kategoriyasining umumiy ma'nosi.
6. O'tgan zamon shakllari.
7. Hozirgi zamon shakllari.
8. Hozirgi-kelasi zamon shakllari.

So'z turkumlari orasida fe'llar eng boy va murakkab grammatik kategoriyalarga ega. Fe'l quyidagi grammatik kategoriyalarga ega: 1. Nisbat;

2. Bo‘lishli-bo‘lishsizlik; 3. Mayl; 4. Shaxs-son; 5. Zamon.

Mayl kategoriyasi

Mayl kategoriyasi harakat bilan sub'yekt orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ko‘rsatadi. Masalan: «o‘qi» fe‘li so‘zlovchining suhbatdoshiga qaratilgan buyrug‘ini, iltimosini; o‘qisa fe‘li shu ishning bajarilishi boshqa biror ishning yuzaga chiqishi uchun shart ekanligini; o‘qidi fe‘li esa shu fe‘lning o‘zagidan anglashilgan ishning aniq bajarilganligini bildiradi. Ko‘rinadiki, o‘qi fe‘lining turli gusga kirishi o‘sha fe‘ldan anglashilgan harakatga so‘zlovchining turlicha qarashini ko‘rsatadi. Demak, mayl kategoriyasi harakat va holatning turli ma‘no ottenkalarini darak, modallik tushunchasi bilan birga zamon, shaxs-son kabilarni bildiradi: kelsin, kelsa, kelib qoldi, kelayotir kabi. Ammo kelmoq, kelish, kelib, kelgach, kela-kela fe‘llari mayl xususiyatiga ega bo‘lmagani sababli bularda shaxs-son, nisbat zamon va modallik kabi ma‘nolar yo‘q.

Mayl formalari yordamida harakat ijrosi haqidagi so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga berilgan xabar har xil bo‘ladi. Shunga qarab, mayl tushunchasi ham buyruq, darak, shart, maqsad, gumon, hikoya, orzu-istak, iltimos tarzida har xil shakllarda ifodalanadi. Bularning har birini alohida mayl turi sifatida nomlash shart emas. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» T.: 1980 yil nashr qilingan kitobda mayl turlari juda ko‘p miqdorda nomlangan, bizningcha, bunra hojat yo‘q.

O‘zbek tilida maylning quyidagi turlari bor:

1. Aniqlik (darak) mayli.
2. Buyruq-istak mayli.
3. Shart mayli.

Aniqlik (darak) mayli

Harakatning bajarilish yoki bajarilmasligi haqida darak ma‘nosini anglatuvchi fe‘l shakliga aniqlik (darak) mayli deyiladi.

Aniqlik mayli maxsus mayl ko‘rsatgichiga ega emas. Bu mayl ma‘nosi zamon va shaxs-son qo‘shimchalari bilan shakllangan fe‘l formasidan anglashiladi. Bu xususiyati bilan aniqlik mayli boshqa mayl formalaridan farq qiladi: oldi, olayotir, oladi kabi.

Darak maylidagi fe‘llar ba‘zan to‘liqsiz fe‘l shakllari bilan qo‘shilib kela oladi: kelmokda edi, yozmoqda edi, yozmoqda ekan, o‘qidimikin kabi.

Buyruq-istak mayli

Ish harakatni bajarish yoki bajarmasligi haqida buyurish, so‘rash, istash, iltimos, maslahat, chaqirish-da‘vat qilish kabi ma‘nolarni ifodalaydi:

Kechir meni nozli malagim,
Seni maqtay olmasim tayin,
Senga shuncha chiroy bergan kim?
Aytib bergin uni maqtayin (H. O.)

Soʻzlovchining harakatini bajarishga undashi bevosita ikkinchi shaxsga qaratilgan boʻladi. Shuning uchun buyruq-istak maylining asosiy formasi ikkinchi shaxs (birlik va koʻplik) hisoblanadi: Nasibaxon, boring, qozonga qarab turing (A.q.) Oʻn toʻqqizdan oshmay tur, goʻzal. (H. O.)

Buyruq maylida 1 shaxs yoʻq, soʻzlovchi oʻziga -oʻzi buyurishi mumkin emas. Ammo istak, hoxish maʼnolari -y (-ay) qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilinadi: oʻqiy, boray, yozay.

Buyruq-istak maylining ikkinchi shaxs birligi uch formaga ega: 1. qatʼiy buyruq, qistash anglashiladigan asosiy forma. Buning qoʻshimchasi yoʻq: Yovlarni quv, doʻstlarni qutqar. (H. O.)

2. Feʼl negiziga -gin (-gil) qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilinadi. Bu forma buyruk, maʼnosini iltimos, soʻrash tarzida ifodalaydi: Ufqlarda sayr etgin mudom, quyosh kelib suvga choʻkkanda (H. O.) Meni kutgil va men qaytarman (K. Simonov).

3. Feʼl negiziga -ing qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilinadi. Bunga shaxsga nisbatan hurmat ifodalanadi: Boring, Nasibani maktabdan aytib keling. (A.q.)

Buyruq maylining ikkinchi shaxs koʻpligi -inglar, -ingiz qoʻshimchalarini qoʻshish bilan hosil qilinadi: Uzoq ketib qolmanglar, tezroq kelinglar. (O.) Doʻstlar, ishonch bilan kutingiz bizni (U).

Buyruq-istak maylining uchinchi shaxs -birligi -feʼl oʻzaklariga -sin koʻpligi esa -sinlar formalarini qoʻshish bilan hosil qilinadi: Shunday oʻlka doim bor boʻlsin... (H.O.) Siz ayting, majlisga solmasinlar, mayli mehnatimdan qirqsinlar (A.q.)

Shart mayli

Biror harakatni ruyobga chiqishi uchun shart boʻlgan boshqa biror harakat maʼnosini anglatuvchi feʼlning mayl shakli shart mayli deyiladi: Oʻqisa (biladi), kelsa (koʻrasan).

Seni koʻrsa ochilsin gullar

Seni koʻrsa yonsin bulbullar (H. O.)

Shart mayli -sa qoʻshimchasi yordamida yasaladi. Bu qoʻshimcha vazifasida baʼzan -ganda formanti qoʻllanadi: Yomgʻir yogʻmaganda dalaga chiqar edik.

Bu mayl shaklidagi feʼllar har uch zamon shaklida, birlik yoki koʻplik sonda, boʻlishli-boʻlishsiz formalarda, barcha nisbat shakllarida, shaxs-son bilan turlana oladi.

Shart mayli formasidagi feʼl orzu-istak, iltimos maslahat kabi maʼnolarni bildiradi. Shuning uchun bu mayl formasi baʼzi adabiyotlarda «shart-istak mayli» deb ham yuritiladi: Koshki institutni durustgina bitirib chiqsam. Onajon shu suratni menga bersangiz.

Ma'ruza bo'yicha tayanch tushunchalar:

Mayl, modallik ma'nosi, mayl va zamon kategoriyalarining bog'liqligi, aniqlik mayli, buyruq-istak mayli, shart-istak mayli, mayl shakllari ma'nosining o'zgarishi.

Zamon kategoriyasi

Harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatuvchi kategoriya zamon kategoriyasi deyiladi. Harakat bajarilish vaqtinig nutq momentiga munosabatiga qarab fe'lning uch zamoni farqlanadi:

1) nutq momentigacha bo'lgan xarakat-o'tgan zamon; 2) nutq momentida davom etayotgan harakat-hozirgi zamon; 3) nutq momentidan keyin bo'ladigan harakat-kelasi zamon. Zamon ma'nolari maxsus formalar orqali ifodalanadi.

Zamon ma'nosi ikki xil ifodalamishi mumkin: 1) sintetik yo'l bilan fe'lning o'z formasi orqali ifodalanish: bordim, boraman kabi; 2) analitik yo'l bilan, ya'ni to'liqsiz fe'l yoki ko'makchi fe'l yordami bilan ifodalanishi: borar edi, kelar bo'ldim kabi.

Ba'zi fe'l formalari zamokni aniq ko'rsatadi (bordi borgan) ba'zilarida bunday konkretlik bo'lmaydi (chopib, chopa). Keyingi holatda fe'lning zamoni boshqa bir fe'lning zamoniga ko'ra aniqlaniladi: shoshib so'zladi (o'tgan zamon). Demak, fe'lning zamoni birinchi holda harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi, ikkinchi holda esa boshqa fe'lning zamoniga munosabatni bildiradi. Bularning birinchisi absolyut zamon, ikkinchisi nisbiy zamon deb ataladi. Odatda, ravishdoshlarning zamoni nisbiy bo'ladi.

O'tgan zamon

O'tgan zamon fe'li harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganligini ifodalaydi. O'tgan zamon fe'lining bir necha formalari bo'lib, ular o'zlariga xos ma'no va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Fe'lning o'tgan zamon formalari 1980 yilgacha nashr qilingan hamma darsliklarda turli xil gruppalanib va nomlanib kelingan. (O'tgan zamon hikoya, o'tgan zamon eshitilganlik, o'tgan zamon davom va h.k.) 1980 yil nashr qilingan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida o'tgan zamon fe'li formalari turli nomlar bilan guruhlanmagan. Biz ham shu fikrning tarafdorimiz. Shunday qilib, o'tgan zamon fe'li quyidagi shakllar yordamida yasaladi:

1) -di qo'shimchasi yordamida yasaluvchi fe'l shakllari: yozdim, yozding, yozdi, o'qidim, o'qiding, o'qidi.

2) -gan qo‘shimchasi yordamida yasaluvchi formalar: yozganman, yozgansan, yozgan, o‘qiganman, o‘qigansan, o‘qigan.

3) -i(b) qo‘shimchali ravishdoshni shaxs-son bilan tushlash orqali: yozibman, yozibsan, yozibdi, o‘qibman, o‘qibsan, o‘qibdi.

4) -gan (yotgan), -i(b), -ar formalariga edi to‘liqsiz fe‘lini qo‘shish yordamida hosil qilinuvchi formalar: yozgan edim, yozgan eding, yozgan edi, yozib edim, yozib eding, yozib edi, yozar edim, yozar eding, yozar edi.

O‘tgan zamon fe‘lining sintetik formalarida harakatning nutq momentiga munosabati bevosita ifodalanadi. «Edi» to‘liqsiz fe‘li yordamida yasaluvchi o‘tgan zamon formalarida esa harakatning nutq momentiga bo‘lgan munosabati bivosita, ya‘ni boshqa biror forma ifodalangan vaqt orqali bo‘ladi. Chog‘ishtiring: -keldi, -qachon? -hozir, -kelgan edi, -qachon? -ilgari.

O‘tgan zamon fe‘l formalaridan -guvchi edi shakli og‘zaqi va yozma nutkda kam ishlatiladi.

Hozirgi zamon

Hozirgi zamon fe‘li harakatning nutq so‘zlanib turgan paytda sodir bo‘layotganini yoki bo‘lmayotganini ifodalaydi.

Hozirgi zamon fe‘lining qo‘shimchalar va ko‘makchi fe‘llar yordamida yasaluvchi bir necha formasi qo‘llanadi. Hozirgi zamon fe‘lining sintetik formasi quyidagi qo‘shimchalar yordamida yasaladi: -yav, -yotir, -yotib, -moqda kabi. Masalan: kelayapman, kelayotirman, kelayotibman, kelmoqdaman.

Hozirgi zamon fe‘lining analitik formasi esa yot, tur, o‘tir, yur ko‘makchi fe‘llari yordamida yasaladi: yozib yotibdi, yozib turibdi, yozib o‘tiribdi, yozib yuribdi kabi.

Hozirgi zamon formalari harakatning nutq momentidan oldin boshlanganligi va nutq momentida ham tugamaganligini bildiradi: Mana bular ajoyib hunar egalari bo‘lib o‘smoqda, Ukam institutda o‘qiyapti.

Kelasi zamon

Harakatning nutq momentidan keyin bajarilish yoki bajarilmasligini bildirgan fe‘llar kelasi zamon fe‘llari deyiladi.

Kelasi zamon formalari ko‘pincha hozirgi zamon formalari bilan bog‘langan bo‘ladi. Chunki hozirgi zamon fe‘l formalari orqali ifodalangan harakat, asosan, nutq momentida tugallanib qolmay, undan keyin ham davom qilishi mumkin bo‘lgan harakatni bildiradi.

Kelasi zamon fe‘llari sintetik yo‘l bilan quyidagi forma yasovchilar yordami bilan hosil qilinadi.

1) -ajak, -yajak qo‘shimchasi va tegishli shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilan: borajakman, o‘qiyajakman. Siz bilan yuksalajak shonimiz, kamolimiz (G‘. G‘.)

2) -moqchi qo‘shimchasi va tegishli shaxs-son formalarini qo‘shish orqali: kirmoqchiman. Men yoshlar tarbiyasi bilan astoydil shug‘ullanmoqchiman. (Ac. M.)

3) -r, -ar bilan yasalgan sifatdoshlarga tegishli shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilan: kelarman, o‘qirman, kelmasman, o‘qimasman. qorli tog‘lar turar boshida, gul vodiylar yashnar qoshida. (H. O.)

4) -a; -y bilan yasalgan ravishdoshlarga -digan sifatdosh yasovchi qo‘shimchani qo‘shish bilan: keladiganman, ishlaydigansan.

5) -a, -y bilan yasalgan ravishdoshlarga tegishli shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilan boraman, o‘qiyman. Bu tipdagi fe'llar kelasi zamonning boshqa formalariga nisbatan ma'no jihatdan turiligi, zamon jihatdan umumiyliigi bilan ajralib turadi:

a) hozirgi zamon ma'nosini bildiradi: Onam fabrikada ishlaydi. Ukam institutda o‘qiydi.

b) kelasi zamon ma'nosini bildiradi: Toshkentga bizning jamoamizdan bir kishi delegat bo‘lib boradi. Bu kitobni Karim oladi.

d) umumzamon belgisini bildiradi: Yer o‘z o‘qi atrofida aylanadi. Baliq suvda yashaydi.

13-ma'ruza. SHAXS, SON KATEGORIYALARI

REJA:

1. Shaxs, son kategoriyasining mohiyati.
2. Shaxs, son shakllarining mazmuni va qo‘llanishi

Harakatning bajaruvchi shaxsga va bu shaxsning son miqdoriga munosabati shaxs-son kategoriyasi deyiladi. Bu ma'nolarni ifodalovchi formalar shaxs-son formolari deyiladi. Harakatning bajaruvchisi so'zlovchi, tinglovchi, yoki o'zga bo'lishi mumkin. Shaxs bildiruvchi formantlar ayni vaqtda bajaruvchining son miqdorini ham ko'rsatib turadi: bordim - 1 shaxs, birlik, bordik-birinchi shaxs, ko'plik, bordingiz-ikkinchi shaxs ko'plik, borishdi-uchinchi shaxs ko'plik.

Fe'lning shaxs-sonda o'zgarishi tuslanish deyiladi. Shunga ko'ra shaxs-son qo'shimchalari tuslovchilar deb yuritiladi.

Bajaruvchi shaxs bilan harakat orasidagi munosabat predikativlik munosabati deb yuritiladi. Ega va kesimlik munosabati predikativ munosabatdir.

Fe'ning birinchi va ikkinchi shaxs formasi faqat kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Uchinchi shaxs formasi esa kishilar uchun ham, umuman predmetlar uchun ham qo'llaniladi.

Harakatning bajaruvchisi, ya'ni shaxs ayrim fe'llarda aniq bo'ladi: Men dorixonada ishlayman.

Ayrim fe'llarda shaxs aniq ifodalanmaydi: «Bugun yomg'ir yog'adi, yog'adi», -deyishayapti (shaxs noaqiq).

Demak, shaxs ko'rsatish yoki ko'rsatmaslik jihatdan fe'llar ikkiga bo'linadi: shaxsli fe'llar va shaxssiz fe'llar.

Birinchi turdagi fe'llarda ishning bajaruvchisi bilinib turadi. Bularda xuddi kishilik olmoshlaridagi kabi uch shaxs bor: boraman, borasan, boradi. Ikkinchi turdagi fe'llarda harakatni bajaruvchi shaxs bilinmaydi. Harakat o'z bajaruvchisiga ega emas. Bunday fe'llar ham ma'lum shaxs (uchinchi shaxs) formasida bo'ladi. Lekin bu forma bajaruvchi shaxs ma'nosiga ega bo'lmaydi; Bunda grammatik shaxs bo'lsa ham, bajaruvchi shaxs yo'q. Masalan: Xorazmga Amudaryo orqali boriladi.

Ba'zi fe'llar o'z leksik ma'nosiga ko'ra faqat uchinchi shaxs birligi formasida bo'ladi: yomg'ir yog'di, yarasi qichidi.

Fe'llarda shaxs uch xil yo'l bilan ifodalanadi: 1) sintetik yo'l: bordim, bording; 2) analitik yo'l: u borgan 3) analitik sintetik yo'l: men bordim, sen borgansan.

Hozirgi o'zbek tilida shaxs-son ko'rsatkichlarining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1) aniqlik maylining hozirgi zamon formalari va sifatdosh hamda ravishdoshlarning o'tgan zamon formalaridan keyin qo'shiladigan shaxs-son formalari

Birlik	Ko'plik
I shaxs – man	-miz
II shaxs – san	-siz
III shaxs – di yoki nol	-dilar yoki nol (-lar)

2) aniqlik maylining -di edi bilan yasalgan o'tgan zamon formalari va shart mayli formasidan so'ng qo'shiladigan shaxs-son formalari.

Birlik	Ko'plik
--------	---------

I shaxs – <i>m</i>	-k
II shaxs –ng	-ngiz
III shaxs –nol	-(lar)

3) buyruq -istak maylidan so‘ng qo‘shiladigan shaxs-son ko‘rsatkichlari:

Birlik	Ko‘plik
--------	---------

I shaxs –ay	-aylik
II shaxs –nol yoki gin	-ing, ingiz
III shaxs –sin	-sin(lar)

Ikkinchi tuslanish qo‘shimchalari shaklan egalik qo‘shimchalariga o‘xshaydi: oldim, olding; bolam, bolang kabi, lekin bularning biri fe'lga qo‘shilib, bajaruvchi shaxsga munosabatni bildirsa, ikkinchisi otga qo‘shilib predmetning tegishli, qarashli ekanligini ko‘rsatadi.

Fe'lning shaxs-son formalari biri ikkinchisining o‘rnida qo‘llana oladi. Masalan: birinchi shaxsning ko‘plik formasi birinchi shaxsning birligi o‘rnida ham qo‘llanadi. Bu vaqtda so‘zlovchining kamtarligi yoki mag‘rurayishi ma‘nosi anglashiladi: Oldin yutuq bilan qutlaymiz, -dedi yigitga yaqinlashib qiz. O‘zlaridan so‘rasak, qalay-siz? (O.) Turli uslubiy talablar bilan boshqa shaxslar ham o‘zaro o‘rin almashtirib ishlataveradilar.

14 - ma`ruza. HARAKAT TARZI KATEGORIYASI

Reja:

1. Harakat tarzi kategoriyasi haqida umumiy ma‘lumot.
2. Harakat tarzi shakllarining ma‘nolari.

Nutqimizda bittadan ortiq fe‘ldan iborat bo‘lgan birliklar ham bor. Ular tarkibidagi asosiy ma‘noni ifodalaydigan fe‘l **yetakchi** fe‘l deyiladi: *o‘qib chiqdi, ko‘ra boshladi, aytib berib tura qol*. Etakchi fe‘lning ma‘nosini izohlaydigan, to‘ldiradigan fe‘l esa **ko‘makchi** fe‘l deyiladi: *o‘qib chiqdi, ko‘ra boshladi, sotib yubordi, berib tur, yiqila yozdi, gapirib berib qo‘ya qol* va b.

Etakchi va ko'makchi fe'lning qo'shilishidan qo'shma fe'l, ya'ni yangi so'z hosil bo'lmaydi, chunki ular birgalikda yangi bir lug'aviy ma'noni ifodalamaydi. Yetakchi va ko'makchi fe'lning birikishidan **ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi** hosil bo'ladi. Ayrim darsliklarda bu birikmalar **harakat tarzi shakllari** deb yuritiladi (19; 61). Harakat tarzi shakllari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi (19; 63-64):

- 1) harakatni bajarishga kirishish (*o'qiy boshladi*);
- 2) harakatni bajarishga imkoniyat (*bajara oladi*);
- 3) harakatning davomli muddatda ora-sira bajarish (*borib turibman, ishlab yotibdi, o'qib yuribdi*);
- 4) harakatning kutilmaganda sodir bo'lishi (*ko'rib qoldi*);
- 5) harakatni sinash maqsadida bajarish (*tatib ko'rdi*);
- 6) harakatlarni o'z maqsadlarida bajarish (*yozib oldi*);
- 7) harakatning boshqalar uchun bajarilishi (*sotib berdi*);
- 8) harakatning uzoq davom etishi (*sinab yuribman*);
- 9) harakatning favquloddaligi (*ishonib o'tiribman*);
- 10) harakatning to'la bajarilishi (*bajarib bo'ldi, o'qib chiqdi*);
- 11) harakatning tez, to'siqsiz va oson bajarilishi (*olib tashladik, boshlab yubordik, yozib qo'ydim*);
- 12) harakatni bajarmaslikni qat'iy ta'kidlash (*bora ko'rma*);
- 13) harakatning ma'lum muddatgacha davom ettirilishi (*tura turgin*).
- 14) harakatning yuz berishiga oz qolganlik ma'nosi (*yiqila yozdim*). Bu shakl ko'p o'rinlarda qo'shib yoziladi.

Ba'zan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi tarkibidagi etakchi fe'l uyushib kelishi ham mumkin: *Yil sayin sovxozning eri kengayib, texnikasi ko'payib, odamlari o'sib bormoqda*. Ba'zan ko'makchi fe'l ham birdan ortiq bo'lishi mumkin: *aytib berib tura qol* (*aytib* – etakchi fe'l, *berib tura qol* – ko'makchi fe'l).

Ko'makchi fe'llar etakchi fe'llarga ravishdosh yasovchi *-(i)b, -a, -y* qo'shimchalari yordamida bog'lanadi. Ayrim ko'makchi fe'llar etakchi fe'lga qo'shimchasiz ham birikadi: *yozdi-oldi, ketsin-qo'ysin, ayt-qo'y*.

Etakchi fe'llarga so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar, ko'makchi fe'llarga esa barcha turdagi (zamon, shaxs-son, nisbat, vazifadosh shakllarning qo'shimchalari) qo'shimchalar qo'shila oladi: *yozib olaman, ishlay boshladik*. Nisbat va bo'lishsizlik shakllari qo'shimchalari etakchi fe'lga ham, ko'makchi fe'lga ham qo'shila oladi: *gapirtirmayqo'yishmaydi*.

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarida o'zlik nisbat qo'shimchalari faqat etakchi fe'lga qo'shiladi, majhul daraja qo'shimchasi ko'pincha ko'makchi fe'lga qo'shiladi, orttirma nisbat qo'shimchasi asosan etakchi fe'lga qo'shiladi, birgalik nisbat qo'shimchasi esa etakchi fe'lga ham, ko'makchi fe'lga ham qo'shilaveradi. O'zbek tilida faqat ko'makchi fe'l bo'lib

keladigan fe'llar yo'q. Ayrim fe'llar o'z asl ma'nolaridan tashqari, ko'makchi fe'l tarzida keladi. Bularni etakchi fe'lga bog'lanishi jihatidan quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) ravishdoshning *-(i)b* qo'shimchali turiga birikadi: *yot, o'tir, yur, kel, bo'l, bit, chiq, et, o't, yubor, tashla, tush, o'l, qara, boq, qo'y;*

2) ravishdoshning *-a, -yqo'* shimchali turiga birikadi: *boshla, bil, yoz;* 3) ravishdoshning ham *-(i)b*, ham *-a, -yqo'* shimchali turlariga birikadi: *tur, bor, ol, ber, qol, ko'r, ket.* (*sol* ko'makchi fe'li *-(i)b, -a* qo'shimchasini olgan etakchi fe'lga bog'lanadi. Bu ko'makchi fe'llarni yana ma'no jihatidan **harakat jarayonini tasvirlovchi** (*boshla, kel, ket, yot, tur, yur, o'tir, bor, ber, bo'l, bit, bitir, chiq, et, o't, ol, qo'y, yubor, sol, tush, tashla, o'l, ko'r, yoz, qol*), **modal ma'nolarni ifodalovchi**, ya'ni so'zlovchining harakatga bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi (*bil, bo'l, ol, qol, qo'y, ko'r, ber, qara, boq, tur, yur, o'tir, yoz*), **yo'nalish ma'nosini ifodalovchi** (*ol, ber*) kabi guruhlariga bo'lish mumkin.

15-ma'ruza. Fe'lning vazifa shakllari

Reja:

1. Fe'lning vazifa shakllari haqida.
2. Harakat nomi.
3. Sifatdosh.
4. Ravishdosh.

Fe'lga xos shunday grammatik shakllar borki, ular fe'lni kesimlikdan boshqa turkumga *-(a)y, -(i)b, -gach, -guncha, -gancha, -ganda, -gani, -may/masdan* shakllari ravishga, *-gan, -ayotgan, -adigan/ydigan* sifatga, *-moq, -ish, -uv* otga) xos vazifalarga moslaydi. Shunga ko'ra, ular uch guruh – ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllariga ajratiladi. Bu shakllar fe'lga nutqda o'zga turkum xossalarini «yopishtirganligi» uchun bir butun holda *o'zgalovchikategoriyasi* bilan nomlanadi.

Ma'lumki, o'zgalovchi, garchi bunga o'zbek tili qurilishida yetarli asos va ehtiyoj bo'lishiga qaramay, alohida kategoriya sifatida ajratilmagan. Biroq ularning tarkibiy qismlari, ichki shakllari bo'lgan ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi ayrim manbalarda kategoriya sifatida qaraladi.

Ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi o'zaro o'zgalovchi kategoriyasining «fe'lni boshqa so'zlarga bog'lash va fe'lga otga xos vazifalarini berish» UGMsini «fe'lni fe'lga bog'lash» (ravishdosh), «fe'lni otga bog'lash» (sifatdosh) va «fe'lga ot vazifasini berish» (harakat nomi) tarzida xususiylashtiradi. Ularning ichki shakllari

esa boshqa kategoriyalar ma'nolari asosida farqlanadi va bu tizim (paradigma)lar kategorial ahamiyatga ega emas.

Demak, o'zbek tilida ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi kategoriyalari emas, balki turli ko'rinishlarga ega bo'lgan uch shakldan iborat bitta o'zgalovchi kategoriyasigina mavjud.

Ravishdosh shakli va uning variantlari. «Fe'lni fe'lga bog'lash» UGMsiga ega bo'lgan ravishdosh shakli *-(a)y*, *-(i)b*, *-gach*, *-guncha*, *-ganacha*, *-ganda*, *-gani*, *-may/masdan* kabi variant shakliga ega. Bu variant shakllar o'zaro quyidagi tajalli ma'nolar asosida xarakterlanadi:

- (a)y* –davomli harakatning holat tusini ifodalash;
- (i)b*–davomli/davomsiz harakatga holat tusini ifodalash;
- may/masdan* – bo'lishsiz harakatga holat tusini berish.
- gach* –harakatning boshlanish paytini ko'rsatish;
- ganda* –harakatning sodir bo'lish paytini ko'rsatish;
- guncha* –harakatning tamom bo'lish paytini ko'rsatish;
- ganacha* –harakatlarning bir paytdaligini ko'rsatish;
- gani* –harakatga maqsad ma'nosini berish;
- may/masdan* –bo'lishsiz harakatga holat tusini berish.

Aytilganidek, barcha variant shakllar uchun «fe'lni fe'lga bog'lash» sintaktik vazifasi umumiy.

Ko'rindiki, variant shakllardan uchtasida turli xil «holat», qolgan oltitasida esa har xil «payt» ma'nosi ifodalangan.

-(a)y, *-(i)b* shaklli ravishdosh bajaradigan vazifacining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu shaklli ravishdosh ko'pincha *boshlamoq*, *chiqmoq*, *qolmoq*, *ko'rmoq*, *yubormoq* kabi fe'l bilan birikib keladi. Ko'p hollarda ravishdoshli birikuvlar fe'lning harakat tarzini hosil qilish uchun xizmat qiladi: (*o'qib chiqdi*), (*berib yubordi*). Bunda faqat shakl mavjud bo'lganligi uchun mazkur ko'rsatkichli so'zshakl (*o'qib*, *berib*) ni shakl va ma'no yaxlitligi sifatida ravishdosh deb bo'lmaydi.

Ravishdosh shakllari ma'noviy munosabatini kuzatish natijasida amin bo'lish mumkinki, *-gani* va *-guncha* hokim fe'l ifodalagan harakatdan keyin sodir bo'luvchi jarayonni anglatadigan ravishdosh hosil qiluvchi shakl sirasiga kiradi. Modallikning kuchli darajada ifodalanishi va harakatlar bajaruvchilarining umumiyliigi belgisi bilan *-gani* shakli bu belgiga ega bo'lmagan *-guncha* shaklidan farqlanadi.

Ravishdosh shakllarining paradigmatic munosabati quyidagicha:

1. «Fe'lni fe'lga bog'lash» umumiy sintaktik vazifasi bilan birlashuvchi ravishdosh shakllari «hokim fe'ldan anglashilgan harakatning sodir bo'lish paytini ifodalash» belgisi ostida ajraladi. *-a/y*, *-(i)b*, *-ganacha*, *-may/masdan*, *-gani* shakllarida bu belgi majhul. *-gach*, *-guncha*, *-ganda* shakllarida esa ifodalangan.

2. *-a/y*, *-(i)b*, *-ganacha*, *-may/masdan*, *-gani* shakllarining «ravishdosh va u bog'langan hokim fe'l ifodalagan harakatlarning bir vaqtdaligini ko'rsatish» belgisiga munosabati turlicha. Mazkur belgi *-ganacha*, *-a/y* shakllarida ifodalangan. Chunki bu shaklli ravishdosh va undan keyingi hokim fe'l anglatgan harakatlar bir

vaqtda ro‘y beradi: *kutgancha o‘tirardi, kuta-kuta charchadi* kabi. *-gani* shaklli ravishdosh va u bog‘langan fe‘l anglatgan harakat turli vaqtda ro‘y beradi: *ko‘rgani keldi, aytgani ketdi* kabi. Shuning uchun ular mazkur belgiga salbiy munosabatda deyiladi. *-(i)b, -may/masdan* shakllarida belgi yuzaga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin. Qiyoslang: *shoshilib gapirdi, shoshilmasdan gapirdi* (harakatlar bir vaqtda yuz bergan), *o‘qib javob berdi, o‘qimasdan javob berdi* (avval o‘qish, keyin javob berish harakati yuz bergan). Bu hol ushbu shakllarning mazkur belgiga majhul, noaniq munosabatda ekanligini ko‘rsatadi.

3. *-a/y, -gancha* shakllari «ravishdosh ifodalagan harakatning takroriy emasligi» belgisi bilan farqlanadi. Bu belgiga munosabat *-gancha* shaklida ijobiy va *-a/y* shaklida majhul. Bu quyidagilar bilan izohlanadi. *O‘qigancha kelardi* birikuvida ravishdosh ifodalagan harakat takror-takror yuz bermaydi. *Kelisopni qo‘ya chopdi* birikuvida *-a/y* shakli bir martalik harakatni ifodalaydi. *O‘qiy-o‘qiy charchadi* birikuvida esa ravishdosh ifodalagan harakat takrorlanuvchi, davomiy. *-a/y* shaklli ravishdosh, odatda, takror qo‘llanadi, ayrim hollarda takror bo‘lmagan holda ishlatilishi mumkin.

4. *-gach, -guncha, -ganda* shakllari o‘zaro «harakatning chegarasini ifodalash» belgisi bilan farqlanadi. *-gach* shaklli ravishdosh ifodalagan harakat hokim fe‘l ifodalagan harakatdan oldin yuz beradi: *borgach, aytaman*. *-guncha* shaklli ravishdosh ifodalagan harakat hokim fe‘l ifodalagan harakatdan keyin yuz beradi: *borguncha aytaman*. *-ganda* shaklli ravishdosh ifodalagan harakat bilan hokim fe‘l ifodalagan harakat bir paytda yuz beradi: *ko‘rganda ko‘rishguncha*.

Ravishdosh shakllarining tavsiflangan alohida ma‘nolari uning UGMsi tarkibidagi yondosh ma‘no hisoblanadi.

Sifatdosh shakllari va uning turlari. O‘zgalovchi kategoriyasining tarkibiy qismi bo‘lgan sifatdosh nutqda fe‘llarni otlarga (ba‘zan fe‘llarga) bog‘lash vazifasini o‘tashga ixtisoslashgan. Bu vazifa – barcha sifatdosh shakllari uchun mutlaq substansial mohiyat.

Sifatdoshlar tabiatan «fe‘lni fe‘lga bog‘lash» belgili noto‘liq ziddiyatning majhul, noaniq uzvi. Bu ziddiyatda ravishdosh kuchli a‘zo hisoblanadi. Sifatdosh, asosan, fe‘lni otga, qisman fe‘lga (masalan, *mast qiladigan kulishi, dilni vayron qiladigan yig‘lashi* kabi) bog‘lash vazifasini bajaradi. Shuningdek, bu shakl ba‘zan analitik, perifrastik shakllar tarkibida ham fe‘lni fe‘lga bog‘lashi mumkin.

Sifatdoshlarning sintaktik imkoniyati asosida uning ma‘noviy xususiyati yotadi. Bu ma‘noviy xususiyat – fe‘l anglatgan harakat yoki harakat natijasini narsa/predmetning belgisi sifatida nutqda voqelantirish. Shuning uchun tilshunoslar sifatdoshni sifat va fe‘l oralig‘ida turgan so‘z sifatida baholashadi. Mana shu jihati bilan ular ravishdoshdan tubdan farq qiladi. Ravishdoshlar o‘zgalashish jarayonida fe‘lning lug‘aviy ma‘nosini o‘zgartirmay, unga faqat tobelovchi sintaktik vazifa yuklasa, sifatdoshlar fe‘ldagi dinamik belgini barqarorlashtirib, uning lug‘aviy ma‘nosini ko‘proq modifikasiya qiladi.

Manbalarda sifatdoshning quyidagi shakllari ajratiladi:

-gan;

-(a)r;

-*(u)vchi*;

-*mish*;

-*ajak*;

-*asi/gusi*.

-*(a)r* shakli mavjud darslik va adabiyotlarda umumzamon, doimiylik ma'nodini ifodalovchi (*aytar gap, ketar odam*) sifatdash shakli sifatida qaraladi. Lekin bu shaklning kammahsulligi va uni olgan sifatdash ko'proq sifatga yaqin turishi o'zbek tilshunoslari tomonidan e'tirof etilgan. Chunki «uning yordamida sifatdash hosil bo'lishi o'zbek tilida juda kam uchraydi. Mazkur ko'rsatkich yordamida qo'llanuvchi ayrim so'zlar fe'ldan ko'ra sifatlarga juda yaqin turadi: *oqar suv, so'nmas hayot* kabi. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining keladi, ishlaydi va keladigan, ishlaydigan tipidagi shakli kelib chiqqach, bu shakl yordamida yasaluvchi sifatdash hozirgi-zamon fe'liga aylangan» («O'zbek tili grammatikasi, I tom). Demak, *-(a)r* shaklini tarixiy sifatdash shakli sifatida qarashga to'la asos bor.

-*mish* o'zbek tili tarixida tom ma'nodagi sifatdash bo'lib, bu shaklga «perfekt kesim orqali anglashilgan harakatga nisbatan amalga oshirilgan, sodir bo'lgan harakat» ma'nosini ifodalash xos. Lekin til taraqqiyotining keyingi bosqichi va hozirgi vaqtda o'zbek tili uchun me'yor emasligi bilan xarakterlanadi. O'g'iz tillari va o'zbek tilining o'g'iz shevalariga xos bo'lgan bu shakl o'zbek tilida uchratmasligi uni sifatdash shakli sifatida qarashga imkon bermaydi.

-*(u)vchi* shakli o'zbek struktur tilshunosligida sifatdashdan keskin farq qiluvchi ismi foil (harakat bajaruvchi) hosil qiluvchi sifatida baholanganligi uchun unga sifatdash shakllari qatoridan o'rin berilmadi.

-*ajak, -asi/gusi* shakllari – to'la arxaiklashgan sifatdash ko'rsatkichi.

Demak, tom ma'nodagi sifatdash shakli sifatida mazkur qatorda *-gan* qoladi. Ma'lumki, *-gan* zamon ma'nosini ko'rsatuvchi va *-gan* shaklining varianti sifatida qaraluvchi *-yotgan, -adigan/ydigan* shakliga shu ma'nosi bilan o'tmaydi. Har uchala shakl zamon ma'nosi bilan farqlanganligiva bu zamon kesimga nisbatan belgilanuvchi nisbiy zamonga aylanganligi sababli, ularni sifatdash shaklining zamon bilan farqlanuvchi ko'rinishi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Demak, sifatdash shakli *-gan, -yotgan, -adigan/ydigan* ko'rinishiga ega.

Sifatdashning bu uch ko'rinishi o'zaro «fe'lni otga va qisman fe'lga bog'lash» UGMsiga birday ega bo'lganligi sababli quyida ularning faqat ma'noviy tomoniga e'tibor qaratiladi.

-gan ko'rsatkichi bilan shakllangan sifatdashning ma'noviy xususiyati asosida keyingi fe'ldan anglashilgan harakatdan ilgari sodir bo'luvchi harakatni predmetning atributiv belgisi sifatida ifodalash yotadi. Lekin sifatdash ifodalagan harakat nutq momentigacha sodir bo'lmagan bo'lishi mumkin. Masalan, *Jon xotin, men borguncha shu xatni olib borgan bolani o'ldirib yubor.*(Ert.) Bu shaklli sifatdash ifodalagan harakat davomiy (*Sochiga bitta-ikkita oq oralagan xotin chiqib eshikni ochdi*) bo'lishi ham mumkin.

To'rt holat fe'li – *yot, tur, o'tir, yur* fe'llariga qo'shilganda ham shakl ushbu ma'no bilan bo'ladi. Bu, albatta, fe'lning lug'aviy ma'nosiga bog'liq holda yuz beradi.

-*yotgan* shaklining ma'noviy mohiyati davomiy harakatni narsa/shaxsning atributiv belgisi sifatida berish. Misollar: *Nay ovozi kelayotgan tepaning oldiga yetdim.* (S.Ayn.) *U ho'l o'tin vishillab yonayotgan o'choqqa tikildi.* (P.Tur.) Bu shakldagi davomiylilik, hozirgi zamon ma'nosi, asosan, shakldagi -*yot* formantining ma'noviy xususiyati asosida. Chunki *yot* fe'li kesimdan anglashilgan harakat bilan bir vaqtda yuz bergan davomiy harakatni ifodalaydi. Ma'lumki, -*gan* shakliga bajarilgan, o'tgan zamonga oid harakatni ifodalash xos bo'lib, -*yotgan* shaklli sifatdoshda zamon va davomiylilik ma'nosini ifodalashni -*yot* formanti butunlay o'z zimmasiga olgan va -*gan* shakli hissasiga faqat atributiv belgi ekanlikni ko'rsatish va bog'lash vazifasi qoladi.

-*adigan/ydigan* shaklining ma'noviy mohiyati doimiy harakatni narsaning atributiv belgisiga aylantirish. Bu shaklning bunday xususiyatga egaligi uning tarkibiy qismi bo'lgan -*adi* formantining qadimda holat fe'li -*ardi* bo'lganligiga borib taqaladi. Holat esa, albatta, davomiy. Xuddi -*yotgan* shaklida bo'lgani kabi, -*adigan/ydigan* shaklida ham asosiy ma'noni ifodalash mas'uliyati shaklning -*adi* qismiga yuklatilgan bo'lib, -*gan* qismida esa xarakterni turg'unlashtirish va fe'lni hokim so'zga bog'lash vazifasi qoladi. Misollar: 1. *Eng yaxshio'qiydiganzehlili bolalarni doskaga chiqarish kerak.* 2. *Bu akam bilan Ustaxo'janing katta o'g'lituradigan xona ekan.*

Sifatdosh shakllarining ma'noviy munosabatlari quyidagicha. Shakl UGMsida kategorial ma'no «fe'lni fe'l yoki otga bog'lash» bo'lib, undagi yondosh ma'no «fe'lga sifatlik (atributiv) belgisini berish»dir. Shakl turlari «tegishli keyingi fe'ldan anglashilgan harakatdan oldin sodir bo'lish» belgisi asosida farqlanadi. -*gan* shaklida mazkur belgi ijobiy. -*yotgan*, -*adigan/ydigan* shakl turlarining bu belgiga munosabati majhul. Chunki ularning asosiy xususiyati tegishli fe'ldan anglashilgan harakatdan keyin yoki u bilan bir vaqtda sodir bo'lish bo'lsa-da, ba'zan kontekst talabi bilan oldin yuz bergan harakatni ifodalashi ham mumkin. Misol: *Ishlayotgan kishilarni keyinchalik mukofotga taqdim etasiz.* -*adigan/ydigan* shakl turining «doimiylik» belgisi ham uni mazkur belgiga befarq, majhul, noaniq munosabatli qilib qo'yadi.

Demak, ma'lum bo'ladiki, sifatdosh ham ravishdosh kabi o'z mikrosistemasi ichida sifatdoshlik (harakatni barqarorlashtirish, fe'lni otga va qisman fe'lga bog'lash) belgilarini muayyanlashtirish, ixtisoslashtirish jihatidan emas, balki o'zga kategoriyalarning zamon, tarz kabi ma'nolarini ifodalashga ixtisoslashishi jihatdan farqlanadi. -*gan*, -*yotgan*, -*adigan/ydigan* qo'shimchalari turli xil sifatdosh emas, balki o'zgalovchi kategoriyaning shakli sifatida namoyon bo'ladigan bitta sifatdosh shaklining boshqa kategoriyalarga xos tajalli ma'nolar bilan farqlanuvchi ko'rinishlari.

Harakat nomi shakli va uning turlari. O'zbek tilshunosligida harakat nomi shakli sifatida quyidagi ko'rsatkichlar farqlanadi:

- moq*;
- (*i*)*sh*;
- maslik*;
- (*u*)*v*;

-ganlik;

Bu shakllar sirasida *-(u)v*, *-ganlik* shakllarining keng iste'molli va jonli nutqqa xos emasligi ularni to'la ma'nodagi harakat nomi shakli sifatida qarashga monelik qiladi.

-moq shakli nisbatan kam qo'llanadi va harakat nomining adabiy til ko'rinishi, lug'at shakli sifatida qaraladi: *Bosmachilarning vahshiyliigi odamlarga ma'lum: odamlarni kesmoq, osmoq, tiriklay kuydirmoq.* (S.Ahm.) Bu harakat nomining boshqa shakllaridan uslubiy qo'llanilishi bilangina farqlanadi.

-(i)sh affiksli harakat nomi quyidagi ma'noga ega:

a) harakatning nomi, atamasi: ***Ketishi ham, ketmasligi ham noma'lumligini aytdi.*** (Mirm.)

b) ish, mashg'ulot ma'nosi: (*shudgorlash*), (*o'g'itlash*), (*ishlash*);

v) odatdagi ot ma'nosida: (*chopish*), (*jilmayish*), (*kelish*), (*ketish*).

Bu shakl *-lik* qo'shimchasi bilan ko'p hollarda tilning diniy nutq ko'rinishida uchraydi: (*aytishlik*), (*kelishlik*), (*borishlik*) kabi.

Harakat nomining bo'lishsiz shakli *-maslik* ko'rsatkichi orqali hosil qilinadi: (*bormaslik*), (*kelmaslik*) kabi.

Harakat nomi otga xos barcha sintaktik vazifada kela oladi.

18-ma'ruza. Ravish so'z turkumi. Olmosh so'z turkumi

1. Ravishning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari
2. Ravishlarda daraja
3. Ravishlarning ma'no jihatdan turlari
4. Ravishlarning yasalishi
5. Ravishlarning otlashishi
6. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari.
7. Olmosh – bo'sh-ishora ma'noli so'zlar.
8. Olmoshning ma'no turlari.

1-§. Ravishning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Ish-harakat va holatning belgisini bildirgan so'zlar turkumi **ravish** deyiladi. Ravish *qandayq, qachonq, qaerdaq, qaerdanq, qaergaq, qanchaq, negaq, qaydarajadaq* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Ravish ko'pincha fe'lga bog'lanib, ish-harakatning qay holatda bajarilishini, paytini, o'rnini, darajamiqdorini, sababini, maqsadini, bildiradi. Ravishlar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) biror so'z bilan bog'langanda, o'z shaklini o'zgartirmaydi, ya'ni so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni olmaydi: *tez yurdi*; 2) o'ziga xos yasalish tizimiga ega: *kamtarona, birin-ketin, shu kuni*; 3) harakat belgisini qisman

bo'lsa ham darajalab ko'rsata oladi: *tez, tezroq, juda tez.* 4) gap tarkibida ko'pincha hol (*Ikkisi do'stlarcha ko'rishdi.*) ot-kesim (*Uning bahonasi ko'p.*), ba'zan otga bog'lanib, aniqlovchi (***Ko'p odam to'plandi. Uning yuzida bolalarcha samimiy kulgi zohir bo'ldi.***) bo'lib keladi.

2-§. Ravishlarda daraja

Ayrim ravishlar sifat kabi darajani ham bildiradi: 1) bosh daraja: *Usekin yurdi*; 2) qiyosiy daraja: *Mashina tezroq yurdi. Sal oldinroqkeldi.* 3) orttirma daraja: *Juda ko'p paxti terdi.* 4) kuchaytirma daraja: *juda-juda charchadi, kuppa-kunduzi kelishdi.*

3-§. Ravishlarning ma'no jihatdan turlari

Ravishlar ma'no jihatdan **olti** turga bo'linadi:

1. **Holat ravishlari** ish-harakatning qanday holatda yoki qay tarzda bajarilganligini bildirib, *qandayq, qayholdaq, qaytarzdaq* so'roqlariga javob bo'ladi: *asta, sekin, tez, birdan, qo'qqisdan, to'satdan, yonma-yon, qo'lma-qo'l, omon-eson, zo'rg'a, piyoda, yayov, do'stona, qahramonona, qarddonlarcha, naridan-beri, yana, bazur (bahuzur)* va b.

2. **Payt ravishlari** ish-harakatning bajarilish paytini bildirib, *qachonq, qachongachaq, qachondanq, qachondan beriq* kabi so'roqlarga javob bo'ladi: *avval, oldin, ilgari, endi, hozircha, hanuz, hamisha, erta-indin, qishin-yozin, so'ng, keyin, kechgacha, kechadan, hozir, doimo, tez orada, shu kuni, bu orada.* Payt va o'rin ravishlarini payt va o'rin otlaridan farqlash lozim; agar kelishik qo'shimchalari ajratilsa va otligicha qolsa, bu otdir: *yozda, qishda, bahorda; ko'chada, uydan;* agar kelishik qo'shimchasi ajralgandan keyin boshqa turkum so'ziga aylansa, bu ravishdir: *yaqinda, boshda (avval), kunda, chetda* va b.

3. **O'rin ravishlari** ish-harakatning bajarilish o'rnini bildirib, *qaerdaq, qaerdanq, qaergaq* so'roqlariga javob bo'ladi: *oldinda, orqada, o'ngda, chapda, quyidan, uzoqdan, ichkaridan, yuqoriga, berida, pastda, o'rtada, tashqarida, olg'a, u yoq-bu yoqqa* va b.

4. **Sabab ravishlari** ish-harakatning bajarilish sababini bildirib, *negaq* so'rog'iga javob bo'ladi: *noiloj, ilojsiz(likdan), chorasiz(likdan).*

5. **Maqsad ravishlari** ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiradi va *negaq, nima maqsaddaq* so'roqlariga javob bo'ladi: *atay(in), ataylab, jo'rttaga, qasddan, qasdma-qasdiga, azza-bazza.*

<p>Diqqat! Ayrim darsliklarda maqsad va sabab ravishlari bir guruhga birlashtirilib, maqsad-sabab ravishlari deb yuritiladi.(24; 159)</p>

6. Daraja-miqdor ravishlari ish-harakatning darajasini, miqdorini, belgining darajasini, narsa-buyumning noaniq miqdorini bildirib, *qancha qaydarajadaq* soʻroqlariga javob boʻladi: *juda, eng, gʻoyat(da), nihoyatda; koʻp, moʻl, bisyor, oz, kam, picha, ancha, bir talay, bir oz, koʻplab*. Bular oʻz ichida quyidagi guruhlarga boʻlinadi: 1) kuchaytiruv ravishlari: a) tasdiq – *eng, juda, nihoyat(da), gʻoyat(da), yana(da) tagʻin, tamomila, uncha, ozmuncha, oʻbdan, nah, oʻta, qoq, zir*; b) inkor – *sira, asti, aslo, zinhor, hargiz, hadeganda*; 2) kuchsizlantiruv ravishlari: *arang, zoʻrgʻa* (bu soʻz *sal* soʻziga sinonim boʻlganidagina daraja-miqdor ravishi hisoblanadi, boshqa oʻrinlarda holat ravishidir: *Tutun orasidan zoʻrgʻa (sal) koʻrinar edi*), *zoʻr-bazoʻr, xiyol, sal, sal-pal*.

OLMOSH TURKUMI

Ot sifat, son va baʼzan ravish oʻrnida qoʻllanuvchi soʻzlar olmosh deb ataladi: *men, biz, kim, nima, shuncha*.

Olmoshlarning asosiy maʼnosi va qaysi soʻz turkumi oʻrnida qoʻllanishi matnda reallashadi. Chunki olmoshlarning maʼnosi noaniq va umumiy boʻladi.

Maʼno va grammatik xususiyatlarga koʻra olmoshlar umumlashgan predmet (olmosh-ot), umumlashgan belgi (olmosh-sifat), umumlashgan miqdor (olmosh-son) bildiruvchi olmoshlarga boʻlinadi.

Umumlashgan predmet bildiruvchi olmoshlar, predmetlikni koʻrsatadi, egalik, kelishik qoʻshimchalari bilan turlanadi. Gapda ot bajargan vazifalarni bajaradi. *Men, sen, u, kim, nima, hech kim, hech nima*.

Umumlashgan belgi bildiruvchi olmoshlar sifat va ravishlar kabi formal oʻzgarmasligi, asosan, aniqlovchi va hol vazifasida kelishi bilan xarakterlanadi. *Bu, shu, oʻsha, qaysi, allaqanday, hech qanday*.

Umumlashgan miqdor bildiruvchi olmoshlarga: *qancha, necha, shuncha, oʻshancha, kabilar kiradi*.

Olmoshlar quyidagi grammatik xususiyatlari bilan boshqa soʻz turkumlaridan farq qiladi:

1. Maʼno jihatdan olmoshlar abstrakt xarakterga ega boʻladi. Chogʻishtiring: *tosh, non, tuz, qizil, oq, achchiq* deganda konkret predmet yoki belgi anglashiladi. *Hamma, u, oʻsha, shuncha* deganda narsa yoki belgi ifodalanmaydi.

2. Olmoshlarda soʻz yasalishi yoʻq. Olmoshlar boshqa soʻz turkumlaridan yasalmaydi. Olmoshlardan boshqa soʻz turkumlarining

yasalishi ham kuchsiz: manmanlik, sensiramoq, mensiramoq. Kamtarlikning kamoli bor, manmanlikning zavoli bor. (Maqol)

3. Olmoshlar otlarga xos soʻz oʻzgartuvchilar bilan oʻzgaradi. Olmoshlar kelishik qoʻshimchalarini oladi va ular bilan belgili qoʻllanadi: Men uni koʻrdim (Men u koʻrdim emas).

4. Olmoshlarni maʼno xarakteriga koʻra toʻrt gruppaga ajratish mumkin: a) ot xarakteridagi olmoshlar, b) sifat xarakteridagi olmoshlar, c) son xarakteridagi olmoshlar, d) ravish xarakteridagi olmoshlar.

Biz shonli yoʻlni bosib oʻtdik. (Gazetadan)

Namanganning qaysi qishlogʻidan, qanday urugʻlari borligini surishtirdi.

Nechanchi uyda turasiz? Nega javob bermaysiz? (A. q.)

Olmoshning maʼno turlari

Olmoshlar maʼno va grammatik xususiyatlarga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Kishilik olmoshlari.
2. Oʻzlik.
3. Koʻrsatish.
4. Soʻroq.
5. Belgilash-jamlash.
6. Boʻlishsizlik.
7. Gumon.

Kishilik olmoshlari

Shaxs oʻrnida qoʻllaniladigan olmoshlarga kishilik olmoshlari deyiladi. Baʼzi kishilik olmoshlari shaxsni ifodalash bilan birga koʻrsatish-maʼnosini ham bildiradi. Shunga koʻra kishilik olmoshlarini ikkiga boʻlish mumkin: 1) sof kishilik olmoshlari (men, sen, biz, siz), 2) kishilik koʻrsatish olmoshlari (u, ular).

Tarixiy jihatdan kishilik olmoshlari I sh. bi II sh. si, III sh. ul boʻlgan.

Kishilik olmoshlarini sxemada quyidagicha koʻrsatish mumkin.

Shaxs	Birlik	Koʻplik
I	Men	biz–sof kishilik
II	Sen	siz – sof kishilik
III	U	ular – kishilik koʻrsatish

Kishilik olmoshlari soʻzlash prosessida uch shaxsni bildiradi. I shaxs-men (soʻzlovchi), II shaxs-sen (tinglovchi), III shaxs -u (oʻzga).

Demak, kishilik olmoshlari ikki son (birlik va ko'plik), uch shaxsni ko'rsatadi. I va II shaxsda birlik va ko'plik ayrim-ayrim so'zlar orqali ifodalanadi. III shaxsning ko'pligi esa u olmoshiga -lar qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi.

«Biz» olmoshi faqat ko'plikni ifoda etib qolmay, yana ba'zi bir ma'no ottenkalarga ega:

1. Shaxsning, so'zlovchining ko'pchilik nomidan gapirayotganligini anglatadi: Biz o'z ishimizdagi kamchiliklarni hisobga olishimiz kerak.

2. Kamtarinlik ma'nosini bildiradi: Biz bu maqolani yozishda talabalar fikrini ham hisobga oldik.

3. Mag'rurlikni bildiradi: Suv xabarini biz keltirdik.

Siz olmoshi II shaxs ko'plik ifodalashdan tashqari biror shaxsga hurmat ma'nosini ham bildiradi: Karima dadasiga: «Siz bugun qanday ovqat yeysiz?», -dedi.

Shuning uchun ham siz olmoshi ko'pincha birlik deb tasavvur etiladi, ko'plik ma'nosini ifodalash uchun -lar qo'shimchasi qo'shiladi. Demak, ko'plik ma'nosi ikki shakl: siz va sizlar bilan ifodalanadi:

Yov boshiga mangu soling qora kulfatni,

Sizga behad sog'liq tilab yubordik xatni. («Xat»)

Ilg'or, ishchilar, sizlarniig xalq xo'jaligimiz uchun qilayotgan mehnatlaring hamisha qadrlı.

Ko'rinadiki, «biz», «siz» ba'zan ular birlik va ko'plik ma'nosida ishlatiladi. Buni kontekstdan anglash mumkin bo'ladi.

Agar so'zlovchi ko'plikni qayd qilmoqchi bo'lsa, «biz» va «siz» olmoshlariga -lar shaklini qo'shadi: bizlar, sizlar, senlar.

Kishilik olmoshlarining 3-shaxs birligi «u», ko'pligi «ular». Shaxs va predmetlarni ko'rsatadi. Kim? nima? so'roqlariga javob bo'ladi. «U» ko'rsatish olmoshi bo'lib kelganda, shaxs va predmetlarni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. qaysi? so'rog'iga javob bo'ladi: Tuvakda bir tup gul o'stirgan odam u gulning biror yaprog'iga shikast yetkazmaydi. (A. q.)

Kishilik olmoshlari ot singari kelishiklar bilan turlanadi: men, mening, meni, menda, menga, mendan. Ko'rinayaptiki, kishilik olmoshlari tushum va qaratqich kelishiklari bilan turlanganda, bir «n» tushib qoladi. III shaxs (u) kelishiklar bilan turlanganda, bir «n» orttiriladi: unga, unda, undan.

Egalik qo'shimchalari kishilik olmoshlariga, odatda, qo'shib kelmaydi. Ba'zan III shaxs kishilik olmoshlari ko'rsatish ma'nosida kelganda otlashib egalik qo'shimchasini qabul qilishi mumkin: Unisi uch yoshga kirdi. Bunisi kattasidan aqli.

Kishilik olmoshlariga -niki qo'shimchasini qo'shish bilan konkret bo'lmagan, abstrakt egalik bildiriladi: meniki, seniki, uniki. Ba'zi kitoblarda -niki bilan yasalgan olmoshlarni «egalik olmoshi» deb yozilgan. (qarang: Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: 1966-yil, 259-bet).

I va II shaxs kishilik olmoshlari predikativlik qo'shimchasi vazifasida ham keladi: studentman, studentsan, o'qimoqdaman, o'qimoqdasan.

Kishilik olmoshlari gapda ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi bo'lib keladi.

Ko'rsatish olmoshlari

Predmet va uning belgilarini ko'rsatish uchun qo'llanuvchi so'zlar ko'rsatish olmoshlari deyiladi: bu, shu, o'sha, u.

Ko'rsatish olmoshlari, bu, shu, u, o'sha kishilik olmoshlariga qaraganda yanada abstrakligi bilan ajralib turadi. Kishilik olmoshlari shaxs oti o'rnida qo'llanadi, ko'rsatish olmoshlari esa shaxs, predmet otlari o'rnida ham qo'llanaveradi. Ko'rsatish olmoshlari sintaktik jihatdan sifatlarning ekvivalenti bo'ladi, ya'ni gapda aniqlovchi vazifasida keladi: U vodiya cho'rilar, qullar kerak bo'ldi. (A. q.)

O'z xususiyatiga ko'ra ko'rsatish olmoshlarini uch guruhga ajratish mumkin: 1. Ot o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar. Shaxs va predmetlarni ko'rsatish orqali nomlaydi: bu, shu kabi. 2. Sifat xarakteridagi ko'rsatish olmoshlari predmetning belgisini ifodalaydi: Biz o'sha do'konga boramiz. (O.) 3. Takror holda qo'llanib harakatning belgisini bildiradi: shu-shu, o'sha-o'sha. Shu-shu boshqa arz qilganini bilmayman. (A. q.)

Ko'rsatish olmoshlari ma'no jihatidan bir-biridan farq qiladi.

«Bu» olmoshi so'zlovchiga ancha yaqin masofada turgan, yaqindagina eslatilgan predmet yoki voqea-hodisani ko'rsatishga xizmat qiladi: Cholning bu ishidan jahlim chiqdi. (O.)

«Shu» olmoshi ham bu olmoshi kabi ma'noga ega, ammo bunda ta'kidlab ko'rsatish kuchli: Iltimosim shuki, o'zingiz shu brigada ishidan ko'z uzming. (O.)

«U» olmoshi so'zlovchidan ancha uzoqda turgan yoki ancha ilgari eslatilgan predmetni ko'rsatadi: Men u kitobni o'qidim.

«O'sha» ko'rsatish olmoshi so'zlovchiga avvaldan ma'lum bo'lgan voqea yoki hodisani ko'rsatadi:

O'sha jilva va o'sha otash,

O'sha ko'zki, suzgin xayolkash.

O'sha imo, o'sha ishora,

Eta boshlar yurakni pora. (H. O.)

Ko'rsatish olmoshiga mana, ana so'zlarini qo'shish bilan so'zlovchiga yaqin bo'lgan predmet ta'kidlab ko'rsatiladi: Mana bu narsani olib qo'y. (A.q.) Ana shu yili biz qishloqdan ko'chib ketdik. Mana shu gaplarni aytib berasiz. (A.q.)

Ko'rsatish olmoshlari juft yoki takroriy so'z holda ham qo'llanadi: Shu-shu Nilufarning ishi yurishib ketdi. (A. Mux.) Shunday qilib, u-buni gapirib yuramiz. (O.) Ko'rsatish olmoshlari kelishiklar bilan turlanadi. Jo'nalish, o'rin, chiqish kelishigi qo'shimchalarini qabul qilganda bir «n» tovushi orttiriladi: bunda, bunday, shunga.

Ko'rsatish olmoshlari otlashganda egalik qo'shimchalarini qabul qila oladi: shunim, shuning, shunisi. Egalik qo'shimchasi ikki marta (pleonastik) qo'shiladi: bunisi.

O'zlik olmoshi

O'zlik olmoshi «o'z» predmetni aniqlab, uning ma'nosini kuchaytirib keladi. Bu olmoshi gapda, asosan, aniqlovchi vazifasida keladi.

O'zlik olmoshi quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

1. Predmetning o'zlik olmoshi bilan ifodalangan shaxsga qarashli ekanligini bildiradi: Jo'raxon qodiriyni o'z ko'zi bilan ko'rgan.

2. O'zlik olmoshi egalik qo'shimchasini olib har uchala shaxsni ko'rsata oladi: o'zim, o'zing, o'zi.

3. O'zlik olmoshi kelishiklar bilan turlanishi uchun avval egalik qo'shimchasini oladi: o'zimning, o'zimga.

4. O'zlik olmoshi gapda turli gap bo'laklari vazifasida keladi.

O'zlik olmoshi takrorlanib, juft holda ham qo'llanilishi mumkin: Bu gaplar o'z-o'zidan bosilib ketadi. (A. q.)

O'z olmoshi ham (-yam) yordamchisini olib, ma'lum darajada modallik o'ttenkasiga ega bo'ladi: Asl shaftoli! Arzon o'ziyam. (O.)

So'roq olmoshlari

Predmet, belgi, son haqida so'roq bildiruvchi olmoshlar so'roq olmoshlari deyiladi: kim? nima? qancha?

So'roq olmoshlari yordamida so'roq gaplar tuziladi. So'roq olmoshlaridan kim shaxslar uchun, nima, ne umuman predmetlar uchun qo'llanadi. So'roq olmoshlari birlik va ko'plik formada ishlatiladi. Kim, kimlar, nima, nimalar.

Har bir so'roq olmoshi o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Kim. 1. Faqat shaxs haqida so'roqni bildiradi. Egalik va kelishiklar bilan turlana oladi: kimning, kimda, kimim, kimingiz.

2. Ko‘plik qo‘shimchasini oladi: Bunda shaxslarni ajratib ko‘rsatadi yoki yolg‘iz shaxsga hurmatni bildiradi. Kimlar keldi? (qanday odamlar ma‘nosida). Bu kishi kimlar?

3. Aniqlovchi bo‘lib kelmaydi va o‘zidan oldin sifatlovchi aniqlovchi olmaydi.

4. «Kim» olmoshiga -sa qo‘shilganda, so‘roqlik ma‘nosidan chiqadi. Otga aylanadi. Kimsa bormikin anga ko‘rganda kulgu kelmadi. (Navoiy)

5. Ayrim vaqtda juftlanib kelib shaxslarning kimligini aniqlashda qo‘llaniladi: Kim- kim keldi. Kim -kimlar so‘zladi.

6. «Kim» olmoshi gapda ko‘pincha ega, kesim, to‘ldiruvchi bo‘lib keladi. Kim keldi?

«Nima» olmoshi predmet yoki voqealarga nisbatan so‘roqni bildiradi: Sizning nima dardingiz bor? (A. q.).

«Nima» olmoshi takrorlanib kelishi mumkin: nima - nimaga olding?

«Nima» olmoshi so‘roq so‘z -gap bo‘lib keladi: Men ertaga ketaman. - Nima? Men ertaga ketaman deyapman.

Takrorlanib ne-ne shaklida ishlatilganda, ma‘noning ortiqpigini, emotsionallikning kuchliligini bildiradi: U qizini Toshkentga ne-ne umidlar bilan yubormadi. (S. Ahm.) Bu olmoshi gapda ega, kesim, to‘ldiruvchi, ba‘zan qaratqichli aniqlovchi bo‘lib keladi: Oting nima. Nimani istaysan.

«Nega» (nima+ga) olmoshi voqea harakatning sodir bo‘lishidagi sabab, maqsadni aniqlash uchun beriladigan so‘roqni bildiradi: Nega kelding?

«Necha» (ne-cha) predmetning miqdoriga nisbatan so‘roqni ifodalaydi: Necha kitob? Necha uy? Gapda aniqlovchi va kesim bo‘lib keladi: Necha kishi keldi? O‘quvchilarning soni necha?

«qanday» olmoshi predmetning belgisiga nisbatan so‘roqni bildiradi. Bu so‘z qanaqa, qandoq shaklida ham keladi: U qanaqa omonat?

«qaysi» olmoshi predmetning tartibiga yoki o‘rniga ko‘ra belgisini aniqlash uchun qo‘llaniladi: qaysi kishi? qaysi uy?

«qancha» olmoshi son-ravish xarakteriga ega bo‘lib, predmet yoki harakatning miqdoriga ko‘ra belgisini aniqlash uchun beriladigan so‘roqni ifodalaydi: qancha kitob olding?

«qachon» olmoshi harakat, voqeaning bajarilish vaqtini aniqlash uchun berilgan so‘roqni bildiradi. Yig‘ilishimiz qachon o‘tkaziladi?

«qalay» olmoshi harakatning bajarilish holatini aniqlash uchun beriladigan so‘roqni bildiradi: Tojixonlar oilasi qalay?.. (A. q.) Ba‘zan kirish so‘z vazifasida keladi: qalay, fikrimiz sizga ma‘qulmi?

Jamlash - belgilash olmoshlari

Predmetning yig'indisini, to' dasini bildirib, ularni: ayirib, ta'kidlab ko'rsatadi. Shunga ko'ra ularni ikki kichik gruppaga: jamlash va belgilash olmoshlariga ajratish mumkin. Birinchi gruppaga kiruvchi olmoshlar jamlashnigina ifodalasa, ikkinchi gruppaga kiruvchi olmoshlar esa predmetni qisman jamlash bilan ta'kidlab, aniqlab ham ko'rsatadi.

1. Jamlash olmoshlariga hamma, bari, barcha, butun, yalpi so'zlari kiradi.

«Hamma» olmoshi predmet za shaxslar to' dasini ko'rsatadi: Hammaning eti jimirlab ketdi. (A. q.)

«Hamma» olmoshi predmetlar belgisini jamini ko'rsatadi, sifat xarakterida bo'ladi: Ekilgan hamma daraxt ko'karibdi.

«Hamma» olmoshi gapning uyushiq bo'laklaridan keyin oldin qo'llanib umumlashtiruvchi so'z vazifasida keladi: Onam, opam, akam va men – hammamiz dasturxon atrofida davra qurganmiz. (O.)

«Bari», «jami» olmoshlari ham predmet va shaxslarning yig'indisini ifodalaydi: qizlarning barisi shu yerda . Kelganlarning jamisi – o'n sakkizta.

«Barcha» (bor+i+cha) olmoshi ko'proq sifat xarakterida qo'llanib, predmetning miqdoriga ko'ra belgisini ifodalaydi: barcha odamlar maydonga chikdi.

«Butun» harakatning miqdoriga ko'ra belgisini ifodalaydi: Hali butun qishloq uyquda. (U).

Belgilash olmoshlari har so'zi va shu so'zning so'roq olmoshlari, shuningdek, bir, narsa kabi so'zlar bilan qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Belgilash olmoshlari tuzilishiga ko'ra ikki xil: tub so'z (har) va qo'shma so'z holda (har qancha, har nima, har bir) qo'llanadi. «Har» so'zning o'zi yakka holda qo'llanib, predmetni sanab, ta'kidlab ko'rsatish orqali uning belgisini ifodalaydi: Har bahor ham shu bo'lar takror. (H. O.)

«Har» so'roq olmoshlari bilan birikib umumlashtirish ma'nosini ifodalaydi: Har qanaqa masala ko'pchilikning ra'yiga qarab hal etilishi kerak. (A. q.)

Belgilash jamlash olmoshlari gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol bo'lib keladi.

Bo'lishsizlik olmoshlari

Predmet yo belgini inkor qilish uchun qo'llaniladigan olmoshlar bo'lishsizlik olmoshi deyiladi.

Bo'lishsizlik olmoshlari so'roq olmoshlariga yoki bir, narsa so'zlariga inkor bildiruvchi hech so'zini qo'shish bilan tuziladi va olmoshning negizida ifodalangan umumiy ma'noni inkor etadi: hech, hech kim, hech nima, hech qaysi, hech bir, hech qachon.

Bo'lishsizlik olmoshlari tuzilishiga ko'ra sodda (hech) va qo'shma (hech nima, hech kim) shaklda bo'ladi.

Bo'lishsizlik olmoshlari qatnashgan gaplarda kesim har vaqt bo'lishsizlik formasida bo'ladi: hech kim bormagan, hech kim gapirmadi.

«Hech» so'zi yakka holda qo'llanganda ko'pincha fe'llar oldidan kelib, ravish funksiyasini bajaradi va ish -harakatning batamom inkorini bildiradi. Onasi xursand bo'lsa ham, hech uxlay olmadi. (O.)

Hech so'zi vaqt, mahal so'zlari bilan birikib paytga nisbatan inkorni ifodalaydi: Uni hech vaqt kamsitmas edi. (O.)

qo'shma so'z shaklida qo'llangan inkor olmoshlari gapda birdan ortiq kelishi mumkin. Bunday gaplarda bir necha inkor ifodalangan bo'ladi: Men hech qachon hech kimning ustidan hech qayerga arz qilganim yo'q. (A. q.)

Yuqorida sanab o'tilgan bo'lishsizlik olmoshlaridan tashqari, bir narsa, «bir nima» shaklida tuzilgan qo'shilmalar ishtirok etgan gaplarning kesimi bo'lishsizlikni ifodalasa, inkor olmoshi vazifasini bajaradi. Turg'unoy to Maston olib bermaguncha qo'l uzatib bir narsa olmas edi. (Hech narsa olmas edi ma'nosida) (A. q.)

Kimsa so'zi ham inkor olmoshi o'rnida qo'llanib, shaxsga nisbatan inkor ma'nosini bildiradi. Uyda kimsa yo'q edi. (Hech kim yo'q edi ma'nosida)

Bo'lishsizlik olmoshlari gapda turli vazifalarda kela oladi.

Gumon olmoshi

So'zlovchiga noma'lum, noaniq predmetlar yo belgilarga ishora qiluvchi olmoshlar gumon olmosh deyiladi.

Gumon olmoshlari, asosan, ot va sifat xarakterida qo'llaniladi: Muhridin aka allakimdan xursand bo'lib chiqib ketdi. (A. q.) Gumon olmoshlari quyidagicha tuziladi:

1. So'roq olmoshlariga alla elementini qo'shish bilan: allakim, allaqanday. Bu shaxs va predmetlarga nisbatan noaniqlik ifodalaydi: Allakimdan eshitgan, allaqanday aravakash.

2. So'roq olmoshlariga -dir morfemasini qo'shish bilan: nimadir, kimdir, qayerdadir bir qo'shiqni sekin aytdi. (O.)

3. So'roq, olmoshlari oldidan bir so'zini keltirish bilan: Ko'zimga bir nima ko'rindi.

«Birov» so'zi begona, notanish ma'nosida keladi: Birov eshikni qoqdi. (A. q.)

Ba'zi so'zi gumon olmoshi ma'nosida keladi: ba'zi odamlar, ba'zi ishlar.

Gumon olmoshi formalari aralash holda ham ishlatiladi:

Onaxon bu gaplarni tinglarkan, allanimalardandir quvonar, allanimalardandir qo‘rqar edi. (A. q.)

Boshqa turkumdagi so‘zlarning olmoshga ko‘chishi - pronominalizatsiyadir.

Nutqdagi ma‘lum sharoitga qarab ba‘zi ot, sifat va sonlarning asl ma‘nosi o‘zgarib abstraktlashadi, umumlashadi, olmoshga, yaqinlashadi. Bu hodisaga pronominalizatsiya deyiladi. (Pronomos lotincha olmosh demakdir.)

Pronominalizatsiya natijasida ot predmetni, sifat belgini, son esa miqdorni bildirmay, o‘sha ma‘nolarga ishora qiladi: odam, kishi, narsa kabi otlar: Uning ko‘nglini olishga bir inson topilmadi (hech kim). Bir narsa olib keldi (nimadir); ayrim, tubandagi kabi sifatlar: Vazifalarimiz tubandagilardan iborat (shulardan). Bir soni: biri keldi, biri-kelmadi (u); odam ketgisi kelyapti (men).

Olmoshlar sintaktik jihatdan yuqorida qayd etilganidek, turli gap bo‘laklari vazifasida kela oladi.

Ba‘zi adabiyotlarda olmoshlarni «ko‘rsatuvchi so‘zlar» termini bilan ham yuritiladi. Bunda olmoshlarning mustaqil leksik ma‘no ifodalay olmasligi va ularning o‘zigagina xos morfologik va sintaktik xususiyatlari yo‘qligi hisobga olinadi. Ya‘ni olmoshlar mustaqil ma‘noli so‘zlar bo‘lmay, narsa va hodisalarni ko‘rsatuvchi, ularning borligiga ishora qiluvchi ko‘rsatuvchi so‘zlardir degan xulosa beriladi. Bu fikr bizningcha ham to‘g‘ridir.

17 - ma‘ruza . YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARI

Reja:

1. Yordamchi so‘z turkumlari haqida umumiy ma‘lumot.
1. Ko‘makchi haqida ma‘lumot
2. Ko‘makchilarning qo‘llanishi va ma‘nolari
3. Ko‘makchilar va kelishik qo‘shimchalarining ma‘nodoshligi
4. Bog‘lovchining vazifasi.
5. Bog‘lovchining turlari.
6. Yuklama haqida.
7. Yuklamaning ma‘nosiga ko‘ra turlari.

1. Yordamchi so‘z turkumlari haqida umumiy ma‘lumot

Atash ma‘nosiga ega bo‘lmagan, ma‘lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasini bajara olmaydigan so‘zlar **yordamchi so‘zlar** deb ataladi. Bularga **ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama** kiradi. “Yordamchi

soʻzlar til tizimida mohiyatan mustaqil soʻzlar bilan qoʻshimchalar oraligʻida turadi”(25; 59).

1-§. Koʻmakchi haqida maʼlumot

Ot, olmosh, harakat nomi va otlashgan soʻzlardan (sifat, son, sifatdosh, ravish) keyin kelib, ularni boshqa soʻzlarga tobelanish yoʻli bilan bogʻlaydigan yordamchi soʻzlar **koʻmakchi** deyiladi: *Oʻz qoʻli bilan toʻgʻriladi.* Koʻmakchi qaysi soʻzdan keyin kelsa, oʻsha soʻz bilan birgalikda bir soʻroqqa javob boʻlib, bitta gap boʻlagi vazifasini bajaradi.

Koʻmakchilar quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Sof koʻmakchilar lugʻaviy maʼnolarini butunlay yoʻqotib, vazifa jihatidan kelishik qoʻshimchalariga yaqin turadigan soʻzlardir: *bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yangligʻ, tufayli.* Bunday koʻmakchilar urgʻu olmaydi, urgʻu koʻmakchidan oldingi soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi (25; 61).

2. Koʻmakchi vazifasida qoʻllanuvchi soʻzlar (vazifadosh koʻmakchilar (25; 63)) gapda oʻrni bilan mustaqil soʻz, oʻrni bilan koʻmakchi boʻlib keladi. Bular quyidagi turkumlardan koʻmakchilarga koʻchadi:

1) ot turkumidan: *tashqari, boʻyi, chamasi, holda, yoʻsinda;* 2) sifatdan: *sababli, tufayli, qarshi, chogʻli, doir, muvofiq, oʻzga, boshqa;* 3) feʼldan: *qarab, qaraganda, koʻra, tortib, degan, deydigan, osha, boʻylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata;* 4) ravishdan: *avval, soʻng, keyin, burun, ilgari, beri, buyon, asosan, binoan.*

3. Ayrim koʻmakchilar bogʻlovchi vazifasini ham bajaradi. Bunday soʻzlar **koʻmakchi-bogʻlovchilar** deb yuritiladi: *bilan, deb, deya.* Masalan: *daftar bilan qalam; Umrin shirin oʻtsin deb(deya), u koʻp mehnat qildi.*

4. Bulardan tashqari, oʻz lugʻaviy maʼnolarini saqlagan holda koʻmakchi oʻrnida kelib, harakat bilan predmet oʻrtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydigan soʻzlar ham bor. Bu soʻzlar oʻrin-payt, chiqish kelishigi va egalik qoʻshimchalarini qabul qiladi. Bunday soʻzlar **koʻmakchiotlar** deb ataladi: *old, oʻrta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, oʻrin, qosh, yoqa, tomon.* Bu soʻzlar belgisiz qaratqich kelishigidagi soʻzdan keyin kelgandagina koʻmakchi ot hisoblanadi: *ish ustida, siqigʻi ostida.* Aks holda, ular oʻrin otlari hisoblanadi: *stolning ustida, uyning oldida.* Koʻmakchi otlarni quyidagi turlarga boʻlish mumkin: 1) vertikal yoʻnalishni bildiruvchi: *ost, ust, tag.* 2) gorizontal yoʻnalishni bildiruvchi: *old, orqa, yon, ich, tomon;* 3) aralash yoʻnalishni bildiruvchi: *oʻrta, ora, bosh.*

2-§. Koʻmakchilarning qoʻllanishi va maʼnolari

1) **bosh kelishikdagi** soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar:

Bilan (***qisqa shakllari: -la, ila***) koʻmakchisi birgalik (*Ukasibilankeldi.*), vosita (*qalam bilan yozdi*), tez boshlanish (*Eshik ochilishi bilan kirishdi*), payt (*Tuni bilan uxlamadi*), holat (*Baxtiyorlik bilan jilmaydi*) kabi maʼnolarni bildiradi.

Uchun (***qisqa shakli: -chun***) koʻmakchisi maqsad, sabab, atash, evaz maʼnolarini ifodalaydi: *Bolalar uchun qurildi. Oʻqimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. YOrdamingiz uchun rahmat.*

D i q q a t !-la, -chun shakllari oʻzi bogʻlanib kelgan soʻzdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *qoʻllarim-la, Vatan-chun.*

Kabi, singari, yangligʻ (baʼzan ***misoli*** soʻzi) koʻmakchilari oʻxshatish, qiyoslash maʼnolarini ifodalaydi: *SHamol kabi eldi. CHoʻl singari bepoyon. Oy yangligʻ chiroyli.*

Sayin koʻmakchisi payt, izchillik, davomiyluk maʼnolarini ifodalaydi: *Sovuq kun sayin kuchaydi.*

Sari, yoqalab koʻmakchilari yoʻnalish maʼnosini ifodalaydi: *Dala sari ketdi. Daryo yoqalab yurdi.*

Sababli, tufayli koʻmakchilari aloqadorlik, sabab maʼnosini ifodalaydi: *CHaqirilmaganligi sababli kelmadi.*

Orqali koʻmakchisi vosita maʼnosini, ***chogʻli, chamasi*** koʻmakchilari chama, taxmin, maʼnolarini, ***osha, boʻylab*** koʻmakchisi makon boʻylab sodir boʻlish maʼnosini, ***boʻyicha*** koʻmakchisi moslik maʼnosini, ***uzra*** koʻmakchisi biror sath boʻylab yoʻnalish maʼnosini, ***ichra*** koʻmakchisi biror predmetning ichida sodir boʻlish maʼnosini, ***degan*** koʻmakchisi atash maʼnosini, ***boʻyikoʻmakchisi*** davomlilik maʼnosini, ***haqida(toʻgʻrisida)*** koʻmakchilari fikr qaratilgan predmet maʼnosini, ***holda(yoʻsinda)*** koʻmakchilari holat maʼnosini ifodalaydi: *Pochta orqali joʻnatdi. Oʻn chogʻli odam toʻplandi. Asrlar osha etib keldi. Ariq boʻylab yurishdi. Urush haqida soʻzladi.*

2) **joʻnalish** kelishigidagi soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar:

Tomon koʻmakchisi ham joʻnalish, ham bosh kelishikdagi soʻzlarga bogʻlanib, yoʻnalish maʼnosini, ***qadar*** koʻmakchisi chegara maʼnosini, ***koʻra*** koʻmakchisi sabab, taʼkidlash, qiyoslash maʼnolarini, ***qarshi*** koʻmakchisi zidlik maʼnosini, ***qarab, qarata*** koʻmakchisi yoʻnalish, oʻlchov maʼnosini, ***qaragandakoʻmakchisi*** taʼkidlash, qiyoslash manolarini, ***qaramasdan, qaramay*** koʻmakchilari toʻsiqsizlik maʼnosini, ***yarasha*** koʻmakchisi moslik maʼnosini, ***doir*** koʻmakchisi aloqadorlik maʼnosini, ***asosan, binoan, muvofiq*** koʻmakchilari tayanch maʼnosini ifodalaydi: *Uytomonketdi. Kechgaqadarkutib oʻtirdi. Uning topshirigʻiga koʻraetib kelishdi. Bilimiga qarabbaho qoʻyiladi. Uning qarshiligiga qaramay vazifa bajarildi. SHu fikrgaasosan qaror qilishdi. Odamlarga qarata nutq soʻzladi.*

3) **chiqish kelishigidagi** soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar: *Soʻng, avval, keyin, burun, ilgari* koʻmakchilari payt maʼnosini, *boshqa, tashqari, oʻzga, boʻlak* koʻmakchilari mustasnoqlik maʼnosini, *beri, buyon* koʻmakchilari payt maʼnosini, *nari* koʻmakchisi ish-harakatning chegarasi maʼnosini, *boshlab, tortib* koʻmakchilari boshlanish vaqt, nuqta maʼnolarini ifodalaydi: *Uch yildan keyin paydo boʻldi. Sendan boshqa hech kimi yoʻq. SHu kundan boshlab ishga kirishamiz.*

4) **qaratqich kelishigidagi** soʻzlar bilan qoʻllanadigan koʻmakchilar: Koʻpchilik **koʻmakchiotlar** shu kelishikdagi soʻzlar bilan qoʻllanadi: *Uy oldida toʻxtadi. Bogʻ ichiga kirib ketdi. Devor orasida qolib ketdi. Koʻcha oʻrtasida ketyapti. Koʻprik boshida kutib turdi.*

D i q q a t !*uchun, bilan, kabi, singari* koʻmakchilari qaratqich kelishigidagi soʻzlar bilan ham qoʻllanishi mumkin: *sening uchun, buning kabi.*

3-§. Koʻmakchilar va kelishik qoʻshimchalarining maʼnodoshligi

Koʻmakchilar vazifasi jihatidan kelishik qoʻshimchalariga oʻxshaydi. Ayrim hollarda koʻmakchi oʻrnida kelishik qoʻshimchasi yoki kelishik qoʻshimchasi oʻrnida koʻmakchilar almashib kelishi mumkin. Koʻmakchilar tushum, joʻnalish, oʻrin payt, chiqish kelishiklari oʻrnida almashib kelishi mumkin. *Radio orqali eshitdik - Radiodan eshitdik. Ukamga oldim - ukam uchun oldim. qalam bilan yozdi – qalamda yozdi. Borganini gapirib berdi. Borgani haqida gapirib berdi.* Biroq hamma vaqt ham koʻmakchi oʻrnida kelishik qoʻshimchasi ishlatilavermaydi: *Ukasidan soʻradi.*

Kabi, singari, yangligʻ koʻmakchilari *-day, -dek* qoʻshimchalari bilan maʼnodoshdir: *shamol kabi – shamolday, eldek – el kabi.*

BOGʻLOVCHI

Soʻzlarni va qoʻshma gapdagi sodda gaplarni bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qiladigan yordamchi soʻzlar **bogʻlovchi** deb ataladi: *Maysa va daraxtlarga jon kiryapti, chunki bahorning iliq nafasi sezila boshlagan edi.*

Bogʻlovchilar gapda qoʻllanishiga koʻra ikki xil boʻladi:

1. **YAKKA holda qoʻllanadigan bogʻlovchilar:** *va, ammo, chunki.*

2. **Takrorlangan holda qoʻllanadigan bogʻlovchilar:** *yo...yo, yoki...yoki.*

Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra **teng bog'lovchilar** va **ergashtiruvchi bog'lovchilarga** bo'linadi.

1. Teng bog'lovchilar

Bu bog'lovchilar so'zlarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng huquqli qilib bog'laydi va quyidagi turlarga bo'linadi:

1) **biriktiruv bog'lovchilari** - *va, ham, hamda*: *Ham* so'zi uyushiq bo'laklar oldidan kelgandagina bog'lovchi hisoblanadi: **Ham** *akamni, ham ukamni tabriklashdi va sovg'alar topshirishdi hamda dam olish uyiga yo'llanma bilan mukofotlashdi. Bilan ko'makchisi uyushiq bo'laklarni bog'laganda biriktiruvchi bog'lovchi (*va*) o'rnida kelishi mumkin: *Karim bilan Salim maktabga birga borishgan*. Bu so'z o'zaro tobe bog'langan so'zlarni bog'laganda ko'makchi hisoblanadi: *ukam bilan bordim*.*

2) **zidlov bog'lovchilari**: *ammo, lekin, biroq, balki, holbuki*. Bu bog'lovchilar sodda gapdagi so'zlarni yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lab, zid munosabatlarni ifodalaydi: *U keldi, ammo o'tirmadi. Havo bulutlashdi, lekin yomg'ir yog'madi*. So'zlashuv tilida rus tilidan o'tgan **a** bog'lovchisi ham shunday vazifani bajaradi: *Men bormoqchiman, a siz-chiq*

3) **ayiruv bog'lovchilari**: *yo, yoki, yoxud, goh, ba`zan, yoinki, yo...yo, yoki...yoki, goh...goh, ba`zan...ba`zan, bir...bir, xoh...xoh, dam...dam*. Bu bog'lovchilar uyushgan bo'laklarni yoki qo'shma gap qismlarini bir-biridan ayirib bog'laydi: *Alijon goh menga, goh erga qarab jim turaverdi. YO sen borasan, yo men kelaman. -miso'roqyuklamasi ayiruv bog'lovchilari o'rnida almashib kelishi mumkin: Ko'chagami, hovligami chiqib ketibdi. (YO ko'chaga, yo hovliga...)*

4) **inkor bog'lovchisi** so'z va gaplarga inkor ma'nosini yuklaydigan bog'lovchidir (25; 71): *na...na: Unda na kitob bor, na daftar*. Bu bog'lovchi ishtirok etgan gapning kesimi tasdiq shaklda bo'ladi: *U na o'qidi, na yozdi*.

2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Bu bog'lovchilar ergashgan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga ergashtirish yo'li bilan bog'laydi va quyidagi turlarga bo'linadi:

1) **aniqlov bog'lovchilari**: *ya'ni, -ki(-kim), toki*: *U ko'rdiki, kamchiliklar ko'p*. Ba`zan **-ki** ot turkumidagi so'zlar bilan birga kelib, ta'kidlash, uqtirish ma'nolarini anglatadi, bunda u bog'lovchi emas, yuklama sanaladi: *...ko'ksi to'la nuqul ordenki, bir-biridan chiroyli*.

2) sabab bog'lovchilari: chunki, shuning uchun, negaki, zeroki: *Ish o'z vaqtida bajarildi, chunki bunga puxta tayyorgarlik ko'rilgan edi. Ba'zan uchun* ko'makchisi ham shu vazifada qo'llanadi: *Ular etib kelsin uchun, Turdi kutib turdi.*

3) shart bog'lovchilari: *agar(da), garchi, garchand, gar, mabodo, basharti: Agar* ishimiz o'ngidan kelsa, bugun qaytib ketamiz.

4-§. Bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlar yoki vazifadosh bog'lovchilar haqida

Bilan, deb, bordi-yu so'zlari, *-u(yu), -da, -mi, ham, na* yuklamalari, balki modal so'zi bog'lovchi o'rnida almashib keladi: ***Bordi-yu (agar), o'zim kelolmasam, odam jo'nataman. Ular etib kelsin deb, kutdim. Alisher bilan (va) Salimjon maktabda birga o'qishgan. Kitob ham (va) daftarlarni tayyorlab qo'ydim. Bu gapdan u xafa bo'lmadi, balki xursand bo'ldi.*** Iboralar ham ba'zan bog'lovchilarga sinonim bo'lishi mumkin: ***SHungaqaramayu*** kelmadi - ***Ammo*** (lekin, biroq) u kelmadi.

Yuklama haqida ma'lumot

Mustaqil so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no beradigan yordamchilar **yuklamadeyiladi**. Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1) so'z yuklamalar: *faqat, ham, axir, hatto, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki.* So'z yuklamalar o'zi bog'lanib kelgan so'zlardan vergul bilan ajratilmaydi.

2) qo'shimcha ko'rinishdagi yuklamalar: *-ku, -mi, -a, -gina.* qo'shimcha-yuklamalar urg'u olmaydi, urg'u yuklamadan oldingi bo'g'inga tushadi: *Maktabga bordungmiq*

6-§. Yuklamalarning ma'no jihatdan turlari

1. So'roq va taajjub yuklamalari: ***-mi, -chi, -a(ya).*** Bulardan ***-mi*** yuklamasi so'roq va taajjubdan tashqari modal ma'noni ham bildiradi, bunda u noaniqlikni ifodalaydi: *Uyidami, ko'chadami, uning uchun farqi yo'q edi.* – ***chi*** so'roqdan tashqari buyruq, do'q, iltimos, qistash, ta'kid, uqtirish ma'nolarini ham bildiradi: *qani, yur-chi! Kitobingni berib tur-chi.-a, -yayuklamalari* ham so'roq va taajjubdan tashqari his-hayajonni, tasdiq va ishonchni ham bildiradi: *qanday chiroyli-ya! Go'sht olibdi - jiqqa yog'-a.*

2. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari: *Nahotki, axir, hatto(ki), -ku, -da, -u(-yu), -oq(-yoq), -ki(-kim)*, yuklamalari kuchaytirish va ta'kid ma'nolarini anglatadi, *tim(qora), liq(to'la), lim(to'la), g'irt(yolg'on), qir-(shir-, qip-yalang'och), g'arq(pishgan), jiqqa(ho'l)* yuklamalari nutqqa tasviriylilik berib, so'z ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

3. Ayiruv yuklamalari: *faqat, ham, -gina (-kina, -qina), xolos*. Ham yuklamasi ba'zan bog'lovchi o'rnida ham qo'llanadi: *Uni birinchi kursga qabul qilishdi ham stipendiya tayin qilishdi*. Bu so'z takrorlanib kelganda, fonetik o'zgarishga uchrashi mumkin: *U yurtiniyam, xalqiniyam boqdi(O.)*. *Faqat, -gina* yuklamalari o'rnida **yolg'iz** so'zi qo'llana oladi. Bu **yolg'iz** nom *xolos*.

4. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari: *xuddi, naq, go'yo(ki), misoli, bamisli: Xuddi o'zimga o'xshaydi*.

5. Gumon yuklamasi - *-dir*: *Uyiga etib borgandir*. Bu yuklama *-man, -san, -miz, -siz* qo'shimchalari kabi shaxs-son ifodalaydigan *-dir* qo'shimchasi bilan shakldoshdir: *Farzandlarim mening qanotimdir*.

7-§. Yuklamalarning yozilishi

1) *-mi, -oq(-yoq), -gina (-kina,-qina), -dir* yuklamalari o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: *SHu bugunoq ota-onasigagina emas, butun mahallaga etib bormaydimiq*

2) *-chi,-ku,-u(-yu), -da, -a(-ya)* yuklamalaridan oldin chiziqcha qo'yiladi: *Sen-chiq Keldi-ku!*

e s l a t m a : Juft so'zlar tarkibida bog'lovchi vazifasida kelgan *-u(-yu)* yuklamasi kirilcha yozuvda so'zga qo'shib yoziladi: *Gapu so'z ko'paydi*.

3) *faqat, ham, hatto, axir* kabi so'z yuklamalar ayrim yoziladi: *Tog'larda hatto yoz oylarida ham yomg'ir yog'adi*.

18-ma'ruza. Alohida so'z turkumlari

Reja:

1. Taqlid so'zlar.
2. Modal so'zlar
3. Undov so'zlar haqida ma'lumot
4. Tasdiq va inkor so'zlar

Tovushga va holatga taqlidni bildirgan so'zlar **taqlid so'zlar** deyiladi. Bunday so'zlar ma'no jihatidan ikki turga bo'linadi:

1. Tovushga taqlid bildiradigan so'zlar: *gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, qiy-chuv, taq-tuq, g'arch-g'urch, inga-inga, pix-pix, qult-qult, bidir-bidir, vov, uv, irr, mo'o', maa, baa, mee, ing-ing, ang-ang, miyov, vaq-vaq, vish-vish, qu-qu, qa-qa, g'a-g'a, qag'-qag', pit-pildiq, parr, viz-viz*.

2. Holatga taqlid bildirgan soʻzlar: *yalt-yult, apil-tapil, gʻuj-gʻuj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, jilpang-jilpang, alang-jalang, moʻlt-moʻlt, lop, likang-likang, qilpang-qilpang, salang-salang, gʻivir-gʻivir, dik-dik, lik-lik, hilp-hilp, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil* kabi.

Taqlid soʻzlar yakka holda, juft holda va takrorlangan holda qoʻllanadi. Juft va takrorlangan taqlid soʻzlar orasiga chiziqcha qoʻyiladi.

Taqlid soʻzlar mustaqil soʻzlar kabi gap boʻlagi boʻla oladi: *SHamol gʻir-gʻir* (hol) *esmoqda*.

Tovushga taqlid soʻzlar baʼzan otlashib, koʻplik, egalik va kelishik qoʻshimchalarini qabul qiladi va **ega, qaratqich aniqlovchi** hamda **toʻldiruvchi** vazifalarini bajaradi: *Odamlarning gʻovur-gʻovuri bosildi. YUragining duk-dukini eshitdi. CHugʻur-chugʻurning toʻxtashi amri mahol.*

Modal soʻzlar

Soʻzlovchining oʻz fikriga boʻlgan munosabatini bildiradigan soʻzlar **modal soʻzlar** deyiladi: *ehtimol, bugun etib kelar*.

Modal soʻzlar maʼno jihatidan quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal soʻzlar:

1) fikrning rostligi tasdiqlanadi: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat (arx.);* 2) fikrning qatʼiyligi taʼkidlanadi: *shubhasiz, shaksiz, soʻzsiz* 3) ishonch: *albatta* 4) anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: *tabiiy, oʻz-oʻzidan,* 5) fikrning chinligi eslatiladi: *toʻgʻri, xoynaxoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe, rostdan.*

2. Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal soʻzlar:

1) fikrning taxminiyligini bildiradi: *shekilli, chamasi, chogʻi;*

2) fikrning gumonli ekanligini bildiradi: *ehtimol, balki;*

3) fikrning tasmolli ekanini bildiradi: *aftidan;*

4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradigan: *har holda, har qalay.*

3. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan.*

4. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan.*

5. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom.*

6. Achinish: *afsus, attang, esiz.*

7. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim.*

8. quvonch: *xayriyat.*

9. Mavjudlik va mavjud emaslik: *bor, yoʻq.*

Bulardan tashqari: *binobarin, zero, holbuki, vaholanki* kabi modal soʻzlar ham mavjud.

Modal soʻzlarning koʻpchiligi mustaqil soʻzlardan oʻsib chiqqandir.

1) ot turkumidan: *aftidan, haqiqatan, mazmuni, ehtimol, darhaqiqat*; 2) sifatdan: *yaxshi(ki), to'g'ri, so'zsiz, shubhasiz, tabiiy*; 3) ravishdan: *albatta*; 4) fe'ldan: *xoyna-xoy* (tojikcha *xohi-naxohi* so'zidan); 4) bog'lovchidan: *balki*; 5) so'z birikmasidan: *har qalay, har holda*; 6) gapning modal so'zga aylanishi: *holbuki* (*Hol buki*); 7) so'z tushirish natijasida hosil bo'lgan: *o'z-o'zidan* (*aniq so'zi* tushib qoladi).

Modal so'zlar **sof** va **vazifadosh** modal so'zlarga bo'linadi. *Haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, xullas, masalan, umuman, taxminan* so'zlari sof modal so'zlar hisoblansa, modal ma'noda ham qo'llanadigan *aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz* kabi so'zlar vazifadosh modal so'zlar hisoblanadi.

Modal so'zlar gap tarkibidagi so'zlardan vergul bilan ajratiladi va ko'pincha **kirish so'z** vazifasini bajarib keladi.

Undov so'zlar haqida ma'lumot

His-hayajon, tuyg'uni, haydash-chaqirishni bildiradigan so'zlar turkumi **undov** deyiladi: *eh, uh, o, e, uf, voy, ura, barakalla, ofarin, salom, xayr, xo'sh, rahmat, balli, bay-bay, voy-bo'y, a, ax, ohho, obbo, ey, ehhe, i, ie, o'h, o'hho', hm, him, be, tuf, hah, ho, hay-hay, eh, o', ha, iyi*. Bu so'zlar mustaqil so'zlarga ham yordamchi so'zlarga ham kirmaydigan ayrim so'z turkumidir.

Undovlar yakka holda, juft holda yoki takrorlanib qo'llanishi mumkin: *oh, voy, oh-voh, dod-voy, bay-bay, hay-hay*.

Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi.

Undovlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. His-hayajon undovlari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) shafqat, mehribonlik: *ie, o, voy, voy-ey, eh*; 2) sevinch, xursandchilik, zavqlanish: *ho, o'h-ho', ehe*; 3) qoyil qolish, rohatlanish: *hay-hay* (takrorlansa), *oh-oh*; 4) mamnuniyat, faxrlanish, mag'rurlanish, xayrihohlik: *e-ha, eh, ha-ya, o'*; 5) undash, ogohlantirish, tasdiq: *ha*.

Undovlar yozuvda gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. Agar undov kuchli bo'lsa, his-hayajon bilan aytilsa, undov belgisi qo'yiladi: *eh! Havo naqadar sof va musaffo!*

Undovlarning asosiy qismi yasama emas, lekin mustaqil so'zlardan undovlarga ko'chgan so'zlar ham mavjud: 1) olmoshdan : *qani*; 2) fe'llardan: *kel, hormang, yo'qol, bor-ey, yashang, kechirasiz: Kel, bir bahslashaylik!*

His-hayajon undovlari, odatda, gap bo'lagi vazifasini bajarmaydi. Ular yo kirish so'z, yoki so'z-gap bo'lib kelishi mumkin: ***Ie, men kimni ko'ryapmanq - Dod!*** - *ichkaridan dodlagan ovoz eshitildi*.

2. Buyruq-xitob undovlari ikki xil bo'ladi: 1) odamlarga qaratilgan undovlar: a) kishilarning diqqatini tortish uchun qo'llanadigan: *hoy, hay* (bir marta aytilsa), *hey, allo, ey*; b) ta'kid, buyurish uchun qo'llanadigan: *ma, tss, jim,*

marsh; 2) hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va jonivorlarni chaqirish uchun qoʻllanadigan: *kisht, bah-bah, mosh-mosh, tu-tu-tu, kuch-kuch, gah, chuh, beh-beh, qurey-qurey*; b) hayvon va parrandalarni biror harakatdan toʻxtatish uchun qoʻllanadigan: *ishsh, hoʻk, tak*;

v) hayvon va parrandalarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatiladigan: *pisht, drr, xix, hov-hov, choʻk, tek, hayt, chu*.

3. Koʻrsatish, taʼkid undovlari quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

1) koʻrsatish: *hu, huv, hovv*; 2) javob, tasdiq, taʼkid, mulohaza: *ha-ha-ha, xoʻsh, labbay, ha*.

Bulardan tashqari, quyidagi undovlarni urf-odat undovlari (ayrim darsliklarda **nutqiy odat** undovlari deb ataladi: (25; 100.) tarzida ajratish mumkin: *rahmat, marhamat, salom, xayr, barakalla, ofarin, balli, yashang, hormang, qulluq* va b.

Undovlar odatda *debsoʻzi* bilan qoʻllanib, hol (*U „vov“ deb yonboshiga yiqildi*), *degan* soʻzi bilan qoʻllanib, gapda koʻpincha sifatlovchi-aniqlovchi (*Koʻchada „dod“ degan ovoz eshitildi*) boʻlib keladi. Undovlar otlashishi mumkin, bunda ular ega (*Ularning dod-voyi osmoni falakka chiqdi.*), kesim (*Endi uning holiga vov*) toʻldiruvchi (*Uning oh-vohiga kim quloq soladiq*), qaratqich-aniqlovchi (*Dod-voyning foydasi yoʻq.*) vazifalarini bajaradi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM
USLUBIYOTI KAFEDRASI**

Ona tili va adabiyot
fanining
adabiyot qismi bo'yicha

MUSTAQIL TA'LIM

BUXORO-2017

Mustaqil ish mavzulari (adabiyot)

T/r	Mavzu nomi	Ajrat. soat	Rejalasht. sana	Bajarilgan sana
	I. Kirish			
1.	Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari	2		
2.	Bolalar kitobxonligi haqida. Zamonaviy bolalar kitobxonligining adresliligi	4		
3.	Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko`rinishlari	4		
4.	II. Bolalar folklori. Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog`liqligi	4		
5.	Qo`shiqlar	2		
6.	Maqollar. Topishmoqlar	2		
7.	Masallar vatez aytishlar	2		
8.	Ertaklar.	4		
9.	Adabiy ertaklar	4		
10.	III. Alisher Navoiy va Gulxaniy ijodi Alisher Navoiyning "Xamsa" turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid g`oyalar.	4		
11.	Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy qarashlar.	4		
12.	Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g`oyalar.	2		
13.	IV. O`zbek bolalar adabiyoti (umumiy tahlil) O`zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi	2		
	Jami:	40		

Adabiyot fani bo`yicha o`rganish va yod aytib berishga mo`ljallangan janr namunalari

1. Sanama – 4 ta
2. Chorlama–2 ta
3. Tarqalmachoq–2 ta
4. Chandish–4 ta

5. Tegishmachoq–2 ta
6. O`yin qo`shiqalaridan–2 ta
7. Guldur –guplar–4ta
8. Tez aytish – 10 ta
9. Maqol–40 ta
10. Topishmoq –20 ta
11. Ertak– 6 ta
12. Ibn Sino ruboiylari va Ahmad Yassaviy hikmatlaridan aytish
13. A.Navoiyning ota-ona ta`rifida va “Sher bilan Durroj”, Hotami toy haqidagi hikoyatlarni so`zlab berish
14. Sh.Munisning “Savodi ta`lim”, A.Otinning “Yakka baytlar”idan aytish.
15. Uvaysiy chistonlaridan (8 ta) aytish.

Bolalar adabiyoti fanidan mustaqil o`qish uchun tavsiya etiladigan asarlar ro`yxati:

Jahon adabiyoti:

1. Jyul Vern “O`n besh yoshli kapitan” asari
2. Antuan de Ekzyuperi “ Kichkina Shahzoda”
3. Paulo Koelo “Alkimyogar”
4. Chingiz Aytmatov “Oq kema”
5. Jahon xalq ertaklari
6. Jonatan Svift “Gulliverning sayohatlari”
7. Nodar Dumbadze “Hellados”
8. Daniel Defo “Robinzon Kruzo”
9. Mark Tven “Tom Soyerning sarguzashtlari”
10. Lyuis Kerrol “Alisa mo`jizalar mamlakatida”
11. Villi Maynk “Marko Poloning ajoyib va g`aroyib sarguzashtlari”
12. Agniya Barto she`rlari
13. Astrid Lindgren Mitti va tomda yashaydigan Karlson
14. Alan Aleksandr Miln “Vini Pux”
15. Ernest Xemenguey “Chol va dengiz” va boshqalar

O`zbek adabiyoti:

1. Go`ro`g`li turkumidagi dostonlar
2. Alpomish dostoni
3. O`zbek xalq ertaklari
4. Abdulla Qodiriy “O`tkan kunlar”
5. Abdulla Qahhor “O`tmishdan ertaklar”
6. G`afur G`ulom “Shum bola”
7. Mirkarim Osim “Zulmatdagi nur”
8. Asqad Muxtor “Chinor”
9. Oybek “Bolalik”
10. O`tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”
11. Tog`ay Murod “Ot kishnagan oqshom”
12. Xudoyberdi To`xtaboyev “Shirin qovunlar mamlakati”
13. Ulug`bek Hamdam “Muvozanat”
14. Marhabo Karimova she`riyati
15. Raim Farhodiy she`riyati va boshqalar

Glossariy

Avtobiografikasar– (yun. Autos-o‘zim, bios–hayot, grafo–yozaman)– muallifningo‘zhayotihaqidaizchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr.

Avtobiografikasarmuallifio‘zhayotini qayta danyashabko‘radi, unibirbutunsifatidaidroketishgaintiladi. A.a.aksar hollarda mualliflarning ijodiy yetuklik pallalarida, umrlari nihoyasida yoziladi. (mas. Oybekning “Bolalik” qissasi.) U memuar, kundalik va sayohatnomalarga o‘xshab ketsa-da, ulardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, A. a. avtobiografik xarakterdagi asarlar hamda turli munosabatlar bilan yoziladigan tarjimayi hollardan tafovutlanadi.

Adabiyot – (ar. adab–go‘zal xulq) – keng ma‘noda, inson tafakkurining mahsuli o‘laroq dunyoga kelgan, o‘qish uchun mo‘ljallab yozilgan asarlar jami. Tor ma‘noda – so‘z san‘ati, badiiy adabiyot.

Adabiyotshunoslik–(ar. –adab, fors. tanish, o‘rganish)– badiiy adabiyotning kelib chiqishi, mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarni o‘rganuvchi fan. A.ning obyektini bo‘lmish badiiy adabiyotga taalluqli ilmiy muammolar ko‘lami-predmeti juda keng.Zamonaviy A. fani uchta asosiy sohadan tashkil topadi:*adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid.* Uning matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya singari yordamchi sohalari ham mavjud.

Allegoriya–(yun. allos-o‘zgacha, agoreuo- gapiraman)– 1) mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko‘chim turi. Mas. tulki–ayyorlikni ifodalaydi.

Alliteratsiya– (lot.al- yonida, litera–harf) – she‘riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi. Mas. sochilgan sochingdek sochilsa siring (Cho‘lpon).

Annotatsiya– (lot. annotatio- izoh, sharh) – asar mazmunining qisqacha bayoni. Noshirlik amaliyotida kitoblarning ichki muqovasida, ilmiy maqolalarning sarlavhasidan keyin beriladi. A. asarning o‘ziga xos pasporti bo‘lib, u bilan umumiy tarzda tarzda tanishtiradi.

Antologiya– (yun. guldasta)– biror milliy adabiyot, davr, adabiy yo‘nalishga mansubligi jihatidan tanlangan ijodkorlar asarlaridan namunalarni jamlovchi to‘plam.

Aforizm –(yun. ta‘rif, ixcham ifoda) – muallifi ma‘lum bo‘lgan, ixcham shaklda va ta‘sirli ifoda etilgan umumlashma fikr.

Badiiy tahlil – (ar. tekshirish, hal qilish) – adabiy asarning mazmun mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudliginiturli aspektlarda o‘rganib, o‘ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intelektual faoliyat.

Badiiy to‘qima – (ruscha kalka-xud.vim.)– yozuvchining ijodiy tasavvur va taxayyuli mahsuli, voqelikda real asosi yoki to‘liq o‘xshashi mavjud bo‘lmagan badiiy obrazlar, hayotiy holatlar, voqealar yaratishda namoyon bo‘luvchi bad. Ijodning muhim komponenti.

Band –she’rning ritmik ritmik – intonatsion va mazmuniy jihatdan nisbiy mustaqillikka ega bo‘lagi.

Gimn –(yun. madhiya) –qadimgi yunon adabiyotida ilohlarni ulug‘lash, maqtash uchun kuylangan qo‘shiq. Mas. yunonlar Appoloni madh etgan. Keyinchalik tarixiy voqealar, qahramonlar madhetiluvchi tantanovar qo‘shiqlar ham gimn deb yuritilgan.

Mazmunan dasturiy xarakterdagi she’r asosidagi tantanovar qo‘shiq, muayyan ijtimoiy harakat, uyushma, davlat va shu kabilarning atributlaridan biri, madhiyasi.

Detektiv adabiyot– (yun. izquvar) –sarguzasht adabiyotining bir tarmog‘I, sujeti asosida sirli jinoyatlarni ochish bilan bog‘liq voqealar yotuvchi asarlarning umumiy nomi.

Didaktik adabiyot –(yun. o‘rgatuvchi, ta’limiy) – muayyan ta’limiy, tarbiyaviy maqsadlarda yaratilgan adabiy asarlarning umumiy nomi. Mas. sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Kaykovusning “Qobusnoma” asari.

Improvizatsiya –(lot. kutilmagan, birdan)–badiiy ijodning alohida bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda asar bevosita ijro jarayonida yaratiladi.

Interpretatsiya– (lot. tushuntirmoq) – talqin;adabiy asar mazmunini idrok qilish, uning mazmuni, badiiy konsepsiyasini anglash, tushunish.

Insenirovka– (lot. sahna) – aslida sahnaga mo‘ljallab yozilmagan asarlarni (ko‘proq, epic asarlarni) sahnalashtirish uchun qayta ishlash. I. sahnalashtirilishi mo‘ljallangan asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini qayta yaratishni taqozo etadi.

Intonatsiya – (lot.-kuchli talaffuz etaman) – jonli nutqning ifodaviyligini ta’minlovchi asosiy omil, tipning fonetik vositalari (tovush toni, talaffuz tempi, tembr, pauzalar, melodika, mantiqiy va so‘z urg‘ulari) majmui. U estetik emotsional ta’sir o‘tkazishda muhim ahamiyatga ega.

Remarka – (fr. - izoh) – dramatik asarlarda muallif tomonidan sahna voqeasining boshlanishi oldidan beriluvchi yoki uning kechishi davomida qavs ichida berib boriluvchi izohlar. Remarka parda yoki ko‘rinish oldidan berilgan hollarda vopqea kechayotgan joy, vaqt, ishtirok etuvchilar va sh.k.lar haqidagi zarur ma’lumotlardan iborat bo‘ladi.

Epigraf –(yun. – bitik.sarlavha) – asarning boshlanishida sarlavhadan keyinoq yoki uning bo‘lim (bob.fasl)lari boshida keltiriluvchi qisqa, odatda, e’tiborli manbalardan (xalq ijodi, mashhur kishilarningpurhikmat so‘zlari va sh.k) olingan ko‘chirma, sitatani bir ko‘rinishi.

Glossariy

Absolyut sinonimlar. Ma'nosi, qo'shimcha ottenkasi, qo'llanishi va b. Jihatlari bir-biriga to'la teng keluvchi so'zlar. Bunday sinonimlar tilda juda sanoqli bo'lib, asosan, terminlarda uchraydi: *tilshunos – tilchi, leksikografiya – lug'atchilik* kabi. q. *Dubletlar*.

Avtosemantik so'zlar. (<grek. avtos – o'zi+semantikos - ifodalovchi). *ayn. mustaqil so'zlar*. qiyos. **semantik so'zlar.**

Agglutinatív tillar. So'z yasalishi va forma yasalishi agglutinatsiya (q.) yo'li bilan bo'ladigan tillar. Mas., turkiy tillar, fin-ugor tillari agglutinatív tillarga kiradi.

Agglutinatsiya (<lot. agglutinare—yopishtirmoq). 1. So'zning o'zak yoki asosini o'zgartmagan holda (ichki fleksiyasiz) unga standart affikslarni qushish bilan so'z yasalishi va forma yasalishi. Bunda har , bir affiks ma'lum bir ma'no, vazifa bilan qatnashadi. Masalan, turkiy tillarda, jumladan o'zbek tilida yasama so'zlar va so'z formalari o'zak yoki asosga ma'lum izchillik bilan affikslar qushish orkali hosil qilinadi va bu affikslarning xar biri uz ma'nosi bilan statnashadi: *ter-im-chi-lar-imiz-ga*.

2. Ikki so'zning bir so'zga yaxlitlanishi. M., *echkini emar>echki emar>echkemar*.

Adabiy norma. Til hodisalaridan adabiy til qoida talablariga mos holda, namunali tarzda foydalanishni, tilning adabiyiligini ta'minlovchi vositalarni saralashni belgilovchi norma. q. **norma**.

Adabiy til. Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum normaga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlarriga xizmat qiluvchi formasi. Adabiy tilning ikki ko'rinishi bor: 1) yozma ko'rinishi, 2) og'zaki ko'rinishi.

Adstrat. (nem. a d s t r a t). Bir teritoriyada turli tillarning uzoq vaqt birga amal qilishi natijasida yuzaga kelgan ikki tillilikning turi.

Adverbializatsiya (<lot. adverbium — ravish). Boshqqa turkumga oid so'zning ravishga kuchishi. Masalan, *kunda, yakinda, birdan* kabi-lar.

Additiv son (<lot. additivus — kushiluvchi). Komponentlari bildirgan miqdorning yigindisidan iborat bulgan miqdorni bil- diruvchi sostavli

son: *un besh*. (10 + 5), *qirk sakkiz* (40-1-8) kabi. *qiyos*. multiplikativ son.

Addistiya (<*lot. additio* — stushish). Transformastiyaning bir usuli; sodda gap strukturasi uyushiq bulaklar bilan kengaytirilishi. Masalan, *Akasiga sovfa oldi* – *Akasi, ukasi va singillari- ga sovfa oldi*. transformastiya.

Antropologik lingvistika (<*grek, anthropos* — odam + *logos* — ga'limot). Tilshunoslikning uz yozuviga ega bulmagan tillarni ur-gapuvchi bulimi.

Antroponim (<*anthropos* — odam + *oputa* — nom). Kishining atostli oti, ism.

Antroponimika. Leksikologiyaning (onomastikaning) kishi otlarini (ismlarini) o'rganuvchi bo'limi.

Asindeton (<*grek, asyndeton* — borlanmagan). *ayn*. boglovchi- siz bog'lanish.

Asliy sifatlar. Predmet belgisini bevosita, boshka predmet- ga nisbat kilmagan xolda ifodalaydigan sifatlar: *qizil, yaxshi, shirin, orik* kabilar. *kiyos*. nisbiy sifatlar.

Akkomodatsiya. (*lot. Accomodatio* – muvofiqlashuv). Yonma-yon kelgan undosh va unli tovushlar artikulyatsiyasining bir-biriga uyg'unlashuvi. Mas., *i, u* unli lari *k, g* undoshlari bilan yondosh kelganda, ularga moslashib, oldingi qator unli sifatida talaffuz qilinadi: *kiyik, sigir, bugun, gul*. Xuddi shu unli lalar chuqur til orqa *q, g'* undoshlari bilan yondosh kelganda, ularga moslashib, ma'lum darajada til orqa unlisi kabi talaffuz qilinadi: *qiyin, quyuq, g'ujum* va b.

Akkumuliyatsiya. Biror tilda aktiv ishlatiladigan so'z, ibora va sh.k. ta'sirida xuddi shunday so'zlarning boshqa tilda ham aktiv ishlatila boshlashi.

Aktiv lug'at. Shu tilda so'zlashuvchilar tushunadigan va ishlatiladigan, aktiv ravishda qo'llaydigan so'zlar. *qiyos*. **passivkonstruksiya**.

Akustik fonetika (<*grek. acustikos* – eshitishga oid). Eksperimental fonetikaning nutq tovushlari hosil bo'lishini tovush to'lqinlari aspektida o'rganuvchi bo'limi. Akustik jihatdan tovushning bir qator belgilari farqlanadi: 1) t

o v u s h k u c h i , 2) t o v u s h b a l a n d l i g i , 3) t o v u s h t e m b r i , 4) t o v u s h n i n g c h o ' z i q l i g i .

Aksent (<lot. accentus – urg‘u). Boshqa tilda so‘zlaganda tovushlarni o‘sha tildagidan boshqacha holda, o‘z tili tovushlari kabi talaffuz etish: *O‘zbekcha aksent bilan gapirmoq.*

Aksentema (<lot. accentus – urg‘u). Bo‘g‘indagi urg‘uning kuchlikuchsizligi.

Aksentologiya (<lot. accentus – urg‘u+grek. logos – so‘z, ta’limot). Fonetikaning urg‘uni (urg‘uning tabiati, tipi, vazifasi va h.) o‘rganuvchi bo‘limi.

Alfavit(grek alifbosidagi birinchi ikki harfning nomi – alpha va beta dan). Grafik shakllarning majmui, ma’lum tartibda joylangan holati. *O‘zbek alfaviti.*

Amorf tillar (grek. amorphous < a – inkor prefiksi+morphe - forma). Affikslarga ega bo‘lmagan, so‘zlar orasidagi Grammatik aloqalar bitishuv yo‘li bilan yoki yordamchi so‘lar vositasida ifodalanadigan tillar. M.: xitoy tili.

Analitik tillar. Grammatik ma’nolarforma yasovchi affikslar yordamida emas, balkiyordamchi so‘zlar , so‘z tartibi, intonatsiya yordamida ifodalanadigan tillar. Masalan, ingliz, fransuz, ispan tillari analitik tillar gruppasiga kiradi.

Antiteza (grek. qarama-qarshi qo‘yish). qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, obrazlarni qarama-qarshi qo‘yishdan iborat stilistik figura: *Yaxshi topib gapirar, yomon qopib. Do‘st bo‘lish oson, uni saqlash qiyin.*

Antonimiya. Til birliklarining o‘zaro semantik jihatdan zid qarama-qarshi bo‘lish hodisasi. Leksik antonimiya. *Affiksial antonimiya. Sintaktik antonimiya.*

Antonimlar (<grek. anti – qarshi, zid+onuma – nom). O‘zaro zid, zid, qarama qarshi ma’noli til birliklari: *katta-kichik, baland past, uzoq-yaqin* (leksik antonim); *-li / -siz :qumli-qumsiz*(affiksial antonimiya); *esiga kelmoq – yodidan ko‘tarilmoq* (frazeologik antonimlar).

Anokopa (grek.opohope-kesib chiqarish). So‘z oxiridagi tovush yoki tovushlarning tushib qolishi. M.: *kel-ke, to‘rt-to‘r* kabi.

Argo(fran. argot - jargon). Biror ijtimoiy guruh, toifaning (masalan, studentlar, sportchilar, o‘g‘rilar va b.) o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan leksik elementlardan iborat yasama tili.

Arxaizm (grek. qadimgi). Ma’lum davr uchun eskirgan, iste’moldan chiqqan boshlagan til birligi (so‘z, frazeologizm va b.). Mas., *surur*(sevinch), *xayon* (foйда) va b.

Atributiv forma. So‘zning gapda asosan anshugovchi funkstiyasi -da kelishiga xos formasi. M. o‘zbek tilida fe’lning sifatdash formasi - (*kelayotgan, keladigan* kabi), otning uxshatish va urin belgisi formalari (*toshdek, bogdagi* kabi).

Aferezis (<grek. aph - airesis). Oldingi so‘zning so‘nggi tovushi (yoki tovushlari) ta’sirida keyingi so‘z boshidagi tovushning (yoki tovushlarning) tushishi. M.: *aytar edi – aytardi* kabi. q. **eliziya.**

Afrikata (lot. ishqalayman). qorishiq undosh tovush, paydo bo‘lish o‘rniga va ovozning ishtirokiga ko‘ra bir xul bo‘lgan portlovchi tovush bilan sirg‘aluvchi tovushning yaxlit, bitta tovush sifatida talaffuz qilinishiga teng keladi. Mas.: *choy* so‘zidagi **ch**, *joy* so‘zidagi **j**, *чупк* so‘zidagi **ч** tovushlari afrikatalardir.

B

Bajaruvchi shaxs. **Harakatni bajaruvchi shaxs, subekt, agens.**

Belgilash olmoshlari. **Shaxs-predmet, uning belgisi, soni xususiyatlarini jamlab yoki ajratib kursatuvchi (shu tarz- da belgilovchi) olmoshlar:** *xamma, barcha, har, har narsa, har qaysi, har qancha* kabilar.

Belgili. **Affiks qatnashgan:** *Belgili qaratqich kelishigi. Belili tushum kelishigi. qiyos. belgisiz.*

Belgisiz. **Affiks yashiringan, qatnashmagan:** *Belgisiz qaratqich kelishigi. Belgisiz tushum kelishigi. qiyos. belgili.*

Birgalik daraja. *ayn.* **birgalik nisbati.**

Birgalik nisbati. **X, arakatning bajaruvchisi birdan ortik; eka- niini bildiradigan nisbat. Bu nisbat -sh affiksi bilan yasaladi:** *borishdi* kabi.

Birinchi shaxs. **So‘zlovchi. Bu ma’no quyidagicha ifodalanadi:**

1) 1 shaxs kishilik olmoshlari bilan: *men, biz*; 2) egalik kategoriyasining 1 shaxs formalari bilan: *hunarim; maqsadim, vazifamiz* kabi; 3) shaxs-son kategoriyasining 1 shaxs formalari : *bildim, o‘rgatdim, qaytdik* kabi.

Bir ma’nolilik. aynan **monosemiya.**

Bir tilli lug‘at. So‘zligi va unga beriladigan ta’rif-tavsiflar bir til (o‘z til) materialidan bo‘ladigan lug‘at. Bunday lug‘atlar bir necha turga ega. Mas.: izohli lug‘at, imlo lug‘ati, sinonimlar lug‘ati va h.

Bobo til. Genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq tillarning kelib chiqish va taraqqiyot manbai (asosi) deb qaraladigan til, qiyosiy-tarixiy metod bilan tiklanadigan abstract lingvistik model.

Bosh ma’no. Polisemantik birlik ma’nokari sistemasida markaziy o‘rinda turadigan, boshqa ma’nolar unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki biror ma’no orqali

bogʻlanadigan maʼno. mas.: *koʻz* soʻzining koʻrish organi maʼnosi boshqa maʼnolariga nisbatan bosh maʼnodir.

Bosh soʻz.1. lugʻatlarda izohlanadigan, tarjima qilinadigan soʻz. Lugʻat maqolasi bosh soʻzga tuziladi.

2. Soʻz birikmasidagi hokim soʻz.

Bosh urgʻu. Boʻgʻinlarni soʻzga birlashtirib turuvchi asosiy tom maʼnodagi urgʻu. qiyos. *ikkinchi darajali urgʻu.*

Bogʻli (koʻchmas) urgʻu. Soʻzda boʻgʻinlar soni soni oʻzgarishiga qaramay oʻrni oʻzgarmaydigan urgʻu.

Boʻgʻin koʻchirish. ayn. soʻz koʻchirish.

D

Daraja kategoriyasi.1. Belginiig bir-biriga qiyosan daraja- siii kursatadigan grammatik kategoriya. Asosan sifat turkumiga, qisman ravish turkumiga xos. Bu grammatik kategoriyaning uch turi bor: 1) oddiy daraja ; 2) ozaytirma daraja , o r t t i r m a daraja .

Dekorrellyastiya (</ot.rle—«olish», «ajratish» maʼnosi ang-lashiladigan pristavka- jcorrelalio— uzaro aloka, munosabatdorlik). Soʻzda morfemalar miqdori saklangani holda ularning maʼnosi, xarakteri va uzaro munosabatining uzgarishi. Masalan, *uning asli ul— olmosh* va *-ing— karatkich kelishigi affiksidan tarkib topgan.* Keyinchalik morfemalarga ajralish uzgargan: *u— olmosh* va *-ning— kelishik affiksi. k. morfologik qayta bulinish.*

Deminutiv (</ot. , deminutus — kichraygan). *ayn. kichraytish formasi: kizcha, stolcha, tugunchak* kabi.

Denotat (</ot.denotare — belgilamok;). Til birligi (soʻz) yordamida iomlanuvchi (ataluvchi) vokelik, narsa-predmet. *qiyos. signifikat.*

Derivatologiya. *ayn. soʻz yasalishi 1.*

Derivastionmaʼno. Yasama soʻzda soʻz yasovchi affiks ifodalaydigan, soʻz yasash asosining moddiy maʼnosini konkretlashtpradigan, chegaralaydigan maʼno. Masalan, *ishchi* soʻzida

shaxs (shaxs oti), ma'nosi (derivastion ma'no) *-chi* affiksi yordamida ifodalanadi.

Derivastion morfema. Asosning ma'nosini uzgartirib, yangi so'z yasovchi morfema.

Derivastiya (<lot.derivatio — ayrilish, ajralish). Affikslar yordamida yangi so'z yasalishi: *kulgi* (*kul + gi*), *qiskich* (*qis + qich*), *gulla* (*gul+la*) kabi.

Denotat. (lot. deminutis - belgilamoq). Til birligi yordamida nomlanuvchi voqelik, narsa-predmet.

Denonativ ma'no. Denotat bilan bevosita bog'liq, uni bevosita bidiruvchi ma'no. Sodda roq aytganda so'zning bosh ma'nosi.

Derivatsion ma'no. yasama so'zda so'z yasovchi affiks ifodalaydigan, so'z yasash asosining moddiy ma'nosini konkretlashtiradigan, chegaralaydigan ma'no. Mas., *ishchi* so'zida shaxs (shaxs oti), ma'nosi (derivatsion ma'no) *-chi* affiksi yordamida ifodalanadi.

Derivatsiya (lot. derivation — ayrilish, ajralish). Affikslar yordamida yangi so'z yasalishi: *kulgi* (*kul+gi*), *qisqich* (*qis+qich*).

Diakritik belgi (grek. diakritikos - farqlovchi). Harfga qo'shimcha ravishda biriktirilib, boshqacha tovushni ko'rsatuvchi harf hosil etishda qatnashadigan belgi va b.

Dialekt (grek. dialektos — sheva, lahja). Umumxalq tilining son jihatdan nisbatan kam bo'lgan territorial, sotsial va professional jihatdan umumiylikka ega bo'lgan kishilar foydalanadigan ko'rinishi.

Diereza (grek. diarexis — bo'linish). qator undoshlardan birining assimilyatsiya yoki dissimilyatsiya natijasida tushib qolishi. Mas.: *arslon* — *aslon* kabi.

Dominanta (lot. dominans, dominantis - hokim). Sinonimik qatordagi bosh so'z: bu so'z sinonimik qatordagi umumiy bo'lgan denonativ ma'noni ifodalaydi: *yuz* — *bet* — *aft* — *bashara* — *chehra* — *jamol* — *diydor* — *oraz* — *uzor* — *uzor* — *ruxsor* sinonimik qatorida *yuz* dominanta hisoblanadi.

Dubleklar (frans.dublet <double - ikkilik). Teng semantik strukturaga ega bo'lgan til birliklari: *tilchi* — *tilshunos* kabi.

J

Jaranlilik. Un paychalarining tebranishidan yuzaga keluvchi ton.

Jarangli undoshlar. Tarkibida ovozga nisbatan shovqin ustun bo'lgan undoshlar. Mas., *b, v, g, z* ...

Jarangsizlik. Un paychalarining tebranmasligi, tonning yo'qligi.

Jarangsiz undoshlar. Tarkibi shovqinning o'zida iborat bo'lgan undoshlar: *p, f, k, sh, s, t* ...

Jargon (fran. jargon). Biror guruh vakillarining o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida o‘zicha mazmun berib ishlatadigan so‘z va iboralari: *novcha (aroq)*, *qizil(vino)* – ichuvchilar nutqiga xos; *tog‘amning o‘g‘li (militSIONER)* – shoyorlar nutqida.

I

Ibora. Frazеologik birlik.

Ideografik sinonimlar. Denonativ ma‘no ottenkasiga ko‘ra o‘zaro farqlanadigan sinonimlar: *yordamlashmoq – ko‘maklashmoq – qarashmoq* kabi.

Idioma (grek. idioma – o‘ziga xos ifoda, ibora). ayn. **frazеologik chatishma.**

Idiomatika. 1. biror tilning idiomalari majmui.

2. Tilshunoslikning idiomalarni o‘rganuvchi bo‘limi.

Ido. 1907-yilda fransuz Lui de Bofron tomonidan esperantoning varianti sifatida yaratilgan xalqaro sun‘iy til.

Izoglossa (grek. isos-bir xil, o‘xshash+glossa – til, nutq). U yoki bu til hodisasining tarqalish territoriyasini ko‘rsatish uchun geografik kartalarda tortilgan chiziqlar.

Intervikal undosh. Ikki unli orasida kelgan undosh.

Interlingva (lot. inter- opa + lingua - til). 1903-yilda Djuzeppe Peano tomonidan taqdim etilgan xalqaro yordamchi til.

K

Kakografiya (grek. kakos – yomon+grapho – yozaman). Ongli ravishda xatolar qo‘yilgan tekstni o‘quvchilarga tuzatishga berish bilan orfografiyani o‘rgatish usuli. Bu usul pedagogic jihatdan asoslanmagan.

Kalambur (fran. calembour – so‘z o‘yini). So‘zlarning ko‘p ma‘noligiga, fonetik strukturasi bir xilligiga asoslanadigan so‘z o‘yini, so‘zlarni shunday qo‘llashdan iborat nutq figurasi.

Z

Zamon kategoriyasi. Xarakatning nutq momentiga munosabatini bildiruvchi grammatik kategoriya. Xarakatning nutk momentiga bulgan munosabatiga kura fe‘lning uch xil zamon turi buladi: 1) utgan zamon; 2) xozirgi zamon; 3) kelasizamon. Xarakatning nutk momentiga munosabatini bevosita yoki bавosita ifodalashiga kura zamonning ikki turi farklanadi:

1) absolyut zamon, 2) nisbiy zamon.

Zidlov boglovchilari. **Ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi (zid)**
bo'lgan uyushiq bo'laklarni, shuningdek qo'shma gap sostavidagi
sodda gaplarni bog'lash uchun xizmat qiluvchi bog'lovchilar: *lekin, ammo,*
biroq, hollbuki kabi: G'o' za sug'orishni juda yaxshi biladilar, lekin amal qilmaydilar.
(Oybek.) *Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjon buni ta'na deb tushundi.*
(A. qahhor.) *O'ktam mevalarni saralaydi, biroq egasi kelmaydi.* **(Oybek.)**

ILOVALAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

«Ro‘yxatga olindi»
BD-5111700-3.03

2016-yil «___» _____

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi

2016-yil «___» _____

ONA TILI VA ADABIYOT

FANDASTURI

Bilim sohasi:	100000 –	Gumanitar
Ta’lim sohasi:	110000 –	Pedagogika
Ta’lim yo‘nalishi:	5111700 –	Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish

Toshkent - 2016

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016-yil “__” _____dagi “__”-sonli buyrug‘ining __-ilovasi bilan fan dasturlari ro‘yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2016-yil «__» _____dagi __-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta’lim muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar:

Hamrayev M.A.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Shodmonqulova D.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi

Pardayev B.O‘.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti”Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”kafedrası katta o‘qıtuvchisi

Taqrizchilar:

Safarova R.

Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI katta ilmiy xodimi, pedagogika fanlari doktori, professor.

Jumaniyozov R.

Toshkent viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil «__» _____dagi __-sonli majlis bayonnomasi).

KIRISH

Mazkur fan dasturi umumiy tilshunoslik fani haqida qisqacha ma'lumot, o'zbek tili leksikologiyasi, frazeologiyasi, leksikografiyasi, hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi, fonetik tizimi, grafikasi, orfografiyasi, orfoepiyasi, grammatik qurilishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi, o'zbek tili uslublari, bolalar adbiyoti va bolalar folklori, maktabgacha, maktab va katta yoshdagi bolalar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek va jahon bolalar adbiyoti haqidagi ma'lumotlarni qamrab olgan.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanning asosiy maqsadi - bo'lajak o'qituvchilariga ona tilining fonetik xususiyatlari, talaffuz me'yorlari, lug'at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi yuzasidan nazariy bilim berish, bolalar adbiyoti va bolalar folklori, o'zbek va jahon bolalar adbiyoti haqida ma'lumot berish, talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir.

Fanning vazifasi – ona tilining barcha bo'limlari yuzasidan talabalarga nazariy bilimlar berish va amaliyotda qo'llashga o'rgatish, ona tilining davlat tili maqomini olishi hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun materiallariga tayanish bilan bog'liq bo'lgan o'zgartishlarni yetkazish, o'zbek va jahon bolalar adbiyotining rivojlanish davrlarini tahlil qilish, jahon va o'zbek bolalar adbiyoti namoyandalarining ijodini o'rganish, o'zbek va jahon bolalar folklori namunalari o'rganish, maktabgacha, maktab va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Ona tili va adbiyoti fanini o'zlashtirish jarayonida

Bakalavr:

- tilshunoslik fani, uning o'rganish obyekti va turlari;
- tilning paydo bo'lishi;
- tilning ijtimoiy hodisa ekanligi;
- til va tafakkur;
- til va nutq;
- o'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili;
- tilning tuzilishi va tizim sifatidagi xususiyatlari
- til taraqqiy qilib, o'zgarib boruvchi hodisa
- milliy til va adbiy til;
- dunyo tillari va ularning tasnifi;
- tilshunoslikning sohalari;
- fonetika va uning turlari;
- fonetik birliklar va ularning turlari
- nutq apparati;
- fonetik akustika;
- nutq tovushlarining artikulyatsiyasi;
- fonologiya haqida;
- tovush va fonema;
- fonemalarning turlari;
- o'zbek adbiy tili unli fonemalari va ularning tasnifi;
- ayrim unli fonemalar tavsifi;
- o'zbek tili undosh fonemalari va ularning tasnifi;
- undosh fonemalar tavsifi;
- qo'sh tovushlar va ularning qo'llanilishi;

- fonemalarining o‘zgarishi;
- transkripsiya;
- nutqning fonetik bo‘linishi;
- urg‘u va uning turlari;
- fonetik hodisalar;
- ohang;
- orfoepiya;
- grafika;
- yozuvning turlari;
- o‘zbek yozuvi tarixidan;
- orfografiya va uning tamoyillari;
- o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari;
- leksikologiya, uning o‘rganish obyekti, vazifalari;
- o‘zbek tili lug‘at tarkibining ma’no jihatidan tavsifi;
- so‘z va leksema munosabati;
- leksemaning ifoda va mazmun tomoni;
- lug‘aviy ma’no va uning tarkibiy qismlari;
- leksemalarda bir ma’nolilik va ko‘p ma’nolilik;
- lug‘aviy ma’noning turlari;
- lug‘aviy ma’no taraqqiyoti yo‘llari;
- leksemalarning shakliy munosabatlariga ko‘ra turlari;
- lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kelib chiqishi jihatidan tavsiflanishi;
- o‘zbek tili leksikasida o‘z va o‘zlashgan qatlam;
- lug‘at tarkibining ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanishi jihatidan tavsiflanishi;
- qo‘llanish doirasi chegaralanmagan leksika (so‘zlar);
- qo‘llanish doirasi chegaralangan leksika (so‘zlar);
- lug‘at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi;
- tarixiy jihatdan o‘zbek tili leksikasi;
- o‘zbek tili leksikasining boyish manbalari;
- lug‘at tarkibining hissiy-ta’siriy bo‘yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi;
- lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar – frazeologik birikmalarni ma’no va tarkib jihatdan tavsiflanishi;
- frazeologiya;
- tasviriy ifoda (parafraza);
- leksikografiya, lug‘atlar va ularning turlari;
- morfemika, morfema va uning turlari;
- so‘z yasaliş usullari;
- so‘zlarning tuzilish jihatdan turlari;
- grammatika;
- so‘z shakl va grammatik ma’no;
- grammatik ma’noni ifodalash vosita va usullari;
- so‘zning grammatik shakli
- grammatik kategoriya va uni hosil qilish vositalari;
- so‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari;
- otning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari
- otlarning ma’no turlari;
- otlardagi son kategoriyasi;
- otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari;
- otlarning nokategorial shakllari;
- otlarning yasalişhi;
- otlarda modal shakl yasalişhi
- otlarning tuzilish jihatdan turlari;

- sifatning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
- sifatlarning ma'no jihatdan turlari;
- sifatlardagi daraja kategoriyasi;
- sifatlarning modal shakllari;
- sifatlarning yasalishi;
- sifatlarning tuzilish jihatdan turlari;
- sonning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
- sonlarning ma'no jihatdan turlari;
- sonlarning hisob so'zlari bilan qo'llanishi;
- sonlarning ishlatilish jihatdan turlari;
- sonlarning tuzilish jihatdan turlari;
- olmoshning ta'rifi va grammatik xususiyatlari;
- olmoshlarning ma'no jihatdan turlari;
- olmoshlarning ishlatilish jihatiga ko'ra turlari;
- olmoshlarning tuzilish jihatdan turlari;
- fe'lning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
- fe'llarning ma'no turlari;
- bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar;
- o'timli va o'timsiz fe'llar;
- fe'llarning nisbat kategoriyasi;
- fe'llarning mayl kategoriyasi;
- fe'llarning zamon kategoriyasi;
- fe'llarning shaxs-son kategoriyasi;
- fe'llarning nokategorial shakllari;
- fe'llarning vazifa shakllari: ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi;
- fe'llarning yasalishi;
- fe'llarning tuzilish jihatdan turlari;
- ravishning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
- ravishlarning ma'no turlari;
- ravishlarning yasalishi;
- ravishlarning tuzilish jihatdan turlari;
- yordamchi so'z turkumlarining ta'rifi, turlari va grammatik xususiyatlari;
- alohida olingan so'z turkumlarining ta'rifi, turlari va leksik-grammatik xususiyatlari;
- sintaksis va uning predmeti;
- sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar;
- so'z birikmasi sintaksisi;
- gap sintaksisi;
- gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari;
- gaplarning his-hayajon ifodalashiga ko'ra turlari;
- gaplarning tasdiq-inkor ifodalashiga ko'ra turlari;
- gaplarning tuzilish jihatdan turlari;
- sodda gaplarning turlari;
- murakkablashgan sodda gaplar;
- qo'shma gaplarning turlari;
- matn sintaksisi;
- ona tili ishorat qoidalari;
- nutq uslublari va uslubiyat turlari;
- bolalar adabiyoti fanining predmeti va vazifalari;
- jahon bolalar adabiyotining tavsifi;
- folklorning o'ziga xos xususiyatlari;
- bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari
- bolalar adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi **haqida bilimga ega bo'lishikerak.**

- ona tilining strukturasi va sistemasini farqlay olish;
- ona tili fonetik tizimi va grafikasini ta'riflay olish;
- ona tili lug'at tarkibini tahlil qila olish;
- ona tili frazeologiyasi va leksikografiyasiga ta'rif bera olish;
- ona tili morfemik tizimini tahlil qilish;
- ona tili so'z yasash tizimini tahlil qilish;
- ona tili so'z turkumlari tizimini tahlil qilish;
- ona tili sintaktik qurilishini farqlay olish;
- ona tili talaffuz, imlo va ishorat qoidalarini bayon qilish;
- bolalar adabiyoti fanining maqsad va vazifalarini farqlay olish;
- maktabgacha, maktab, o'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlarini farqlay olish;
- bolalar folklori haqida hikoya qilish;
- o'zbek va jahon bolalar adabiyoti durdonalari haqida hikoya qilish va insho yozish **ko'nikmalariga ega bo'lishkerak;**
- ona tilining jamiyatdagi rolini tushuntira bilish;
- ona tilining o'rganilish darajasini bayon qila olish;
- tilning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilish;
- tilning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalarni bayon qila bilish;
- ona tilining tovush tizimini tahlil qila olish;
- ona tili imlo va ishorat qoidalarini bayon qila bilish;
- ona tili lug'at boyligining o'ziga xos tomonlarini bayon qila olish;
- ona tili frazeologiyasi va leksikografiyasi haqida ma'lumot bera olish;
- ona tili morfem va so'z yasash tizimi haqida ma'lumot bera olish;
- ona tili grammatik qurilishini tahlil qila bilish;
- bolalar adabiyoti fanining maqsad hamda vazifalarini bayon qila olish;
- turli yoshdagi bolalar kitobxonligi haqida ma'lumot bera olish;
- bolalar folklori namunalari haqida ma'lumot bera olish;
- jahon va o'zbek bolalar adabiyoti namunalari haqida o'ziga xos tomonlarini tushuntira bilish **malakalariga ega bo'lishkerak.**
- ona tilining fonetika bolimi bo'yicha olingan bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo'llay olish;
- ona tili imlo va ishorat qoidalari haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llay bilish;
- ona tili lug'at boyligining o'ziga xos tomonlari bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo'llay bilish;
- ona tili frazeologiyasi va leksikografiyasi haqida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni muammoli vaziyatlarda qo'llay bilish;
- ona tili morfem va so'z yasash tizimi haqida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni muammoli vaziyatlarda qo'llay bilish;
- ona tili grammatik qurilishi haqida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni muammoli vaziyatlarda qo'llay bilish; tahlil qila bilish;
- bolalar adabiyoti fanining maqsad hamda vazifalarini haqida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llay bilish;;
- turli yoshdagi bolalar kitobxonligi haqida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llay bilish;;
- bolalar folklori namunalari haqida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo'llay bilish;;
- jahon va o'zbek bolalar adabiyoti namunalari haqida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo'llay bilish **kompetensiyalariga ega bo'lishkerak.**

Fanining o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatdan uzviyligi va ketma-ketligi

Ona tili va adabiyot fanini chuqur o'rganish uchun falsafa, tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik fanlaridan xabardor bo'lish talab etiladi. Tilning rivojlanish tarixi millat tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyat, xalq tarixida yuz bergan o'zgarishlar tilning lug'at boyligida aks etadi, badiiy adabiyotda o'z ifodasini topadi.

Badiiy adabiyot adabiy tilni yangiliklar bilan boyitish uchun juda katta ahamiyatga egadir, shuning uchun talabalarni til muammolarini hal qilishda badiiy adabiyotga tayanishga o'rgatish lozim.

Fanining ta'limdagi o'rni

Ona tili va adabiyot fanining amaliy ahamiyati quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- har bir inson, ayniqsa, ziyoli inson o'z ona tilining imkoniyatlaridan mumkin qadar unumli foydalana bilishi kerak;
- ona tili har bir millatni millat sifatida farqlantiradigan, shakllantiradigan buyuk ne'mat ekanligini tushunishimiz kerak;
- ona tili fani milliy til va uning tarkibiga kiruvchi adabiy tilning an'anaviy vazifalaridan tashqari, komputer lingvistikasining keng imkoniyatlarini hayotga tatbiq etishda katta rol o'ynaydi;
- bolalar adabiyoti ming yillar davomida dunyo xalqlari tomonidan yaratilgan so'z san'ati durdonalari bilan o'quvchilarni tanishtiradi;
- o'zbek milliy bolalar yozuvchilarining ijod namunalaridan bahramand qilish uchun xizmat qiladi.

Fanni o'qitishda qo'llanadigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Ona tili va adabiyoti fanini puxta o'rgatish maqsadida o'qituvchning dars jarayonida slaydlar, proyektorkabi zamonavaiy texnologik vositalardan mohirona foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Texnik vositalar talabalarga o'qitilayotgan fanning mohiyatini chuqur anglashga imkon beradi, mashg'ulotning qiziqarliroq bo'lishiga, o'tilgan mavzuni eslab qolishga, vaqtni tejab qolishga yordam beradi.

ASOSIY QISM

“Ona tili va adabiyot” fanining “Ona tili” qismi nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Kirish.

Umumiy tilshunoslikdan ma'lumot

Tilshunoslik fani, uning o'rganish obyekti va turlari; tilning paydo bo'lishi; tilning ijtimoiy hodisa ekanligi; til va tafakkur; til va nutq; o'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili; tilning tuzilishi va tizim sifatidagi usuliyatlari; til taraqqiy qilib, o'zgarib boruvchi hodisa; milliy til va adabiy til; dunyo tillari va ularning tasnifi; tilshunoslikning sohalar; tilning paydo bo'lishi, tillarning taraqqiyoti, Tillarning tasnifi.

FONETIKA

Fonetika va uning turlari; fonetik birliklar va ularning turlari; nutq apparati; fonetik akustika; nutq tovushlarining artikulyatsiyasi; fonologiya haqida; tovush va fonema; fonemalarning turlari; o'zbek adabiy tili unli fonemalari va ularning tasnifi; ayrim unli fonemalar tavsifi; o'zbek tili undosh fonemalari va ularning tasnifi; undosh fonemalar tavsifi; qo'sh tovushlar va ularning qo'llanilishi; fonemalarning o'zgarishi; transkripsiya; nutqning fonetik bo'linishi; urg'u va uning turlari; fonetik hodisalar; ohang; orfoepiya;

grafika; yozuvning turlari; o'zbek yozuvi tarixidan; orfografiya va uning tamoyillari; o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari;

LESIKLOGIYA

Leksikologiya, uning o'rganish obyekti, vazifalari; o'zbek tili lug'at tarkibining ma'no jihatidan tavsifi; so'z va leksema munosabati; leksemaning ifoda va mazmun tomoni; lug'aviy ma'no va uning tarkibiy qismlari; leksemalarda bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik; lug'aviy ma'noning turlari; lug'aviy ma'no taraqqiyoti yo'llari; leksemalarning shakliy munosabatlariga ko'ra turlari; lug'at tarkibidagi so'zlarning kelib chiqishi jihatidan tavsiflanishi; o'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam; lug'at tarkibining ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llanishi jihatidan tavsiflanishi; qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksika (so'zlar); qo'llanish doirasi chegaralangan leksika (so'zlar); lug'at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatidan tavsiflanishi; tarixiy jihatdan o'zbek tili leksikasi; o'zbek tili leksikasining boyish manbalari; lug'at tarkibining hissiy-ta'siriy bo'yoqdorligi jihatidan tavsiflanishi; lug'at tarkibidagi ajralmas birikmalar frazeologik birikmalarni ma'no va tarkib jihatidan tavsiflanishi; frazeologiya; tasviriy ifoda (parafraza); leksikografiya, lug'atlar va ularning turlari;

MORFEMIKA. SO'Z YASALISHI

Morfemika, morfema va uning turlari; so'z yasash usullari; so'zlarning tuzilish jihatidan turlari;

GRAMMATIKA. MORFOLOGIYA

Grammatika; so'z shakl va grammatik ma'no; grammatik ma'noni ifodalash vosita va usullari; so'zning grammatik shakli grammatik kategoriya va uni hosil qilish vositalari; so'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.

Otning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; otlarning ma'no turlari; otlardagi son kategoriyasi; otlarning aloqa-munosabat kategoriyalari; otlarning nokategorial shakllari; otlarning yasalishi; otlarda modal shakl yasalishi otlarning tuzilish jihatidan turlari.

Sifatning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; sifatlarning ma'no jihatidan turlari; sifatlardagi daraja kategoriyasi; sifatlarning modal shakllari; sifatlarning yasalishi; sifatlarning tuzilish jihatidan turlari.

Sonning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; sonlarning ma'no jihatidan turlari; sonlarning hisob so'zlari bilan qo'llanishi; sonlarning ishlatilish jihatidan turlari; sonlarning tuzilish jihatidan turlari.

Olmoshning ta'rifi va grammatik xususiyatlari; olmoshlarning ma'no jihatidan turlari; olmoshlarning ishlatilish jihatiga ko'ra turlari; olmoshlarning tuzilish jihatidan turlari.

Fe'ning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; fe'llarning ma'no turlari; bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar; o'timli va o'timsiz fe'llar; fe'llarning nisbat kategoriyasi; fe'llarning mayl kategoriyasi; fe'llarning zamon kategoriyasi; fe'llarning shaxs-son kategoriyasi; fe'llarning nokategorial shakllari; fe'llarning vazifa shakllari: ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi; fe'llarning yasalishi; fe'llarning tuzilish jihatidan turlari.

Ravishning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari; ravishlarning ma'no turlari; ravishlarning yasalishi; ravishlarning tuzilish jihatidan turlari;

Yordamchi so'z turkumlarining ta'rifi, turlari va grammatik xususiyatlari; Alohida olingan so'z turkumlarining ta'rifi, turlari va leksik-grammatik xususiyatlari; sintaksis va uning predmeti.

SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA

Sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar; so'z birikmasi sintaksisi; gap sintaksisi; gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari; gaplarning his-hayajon ifodalashiga ko'ra turlari; gaplarning tasdiq-inkor ifodalashiga ko'ra turlari. Gaplarning tuzilish jihatidan turlari; sodda gaplarning turlari; murakkablashgan sodda gaplar; qo'shma gaplarning turlari; matn sintaksisi; ona tili ishorat qoidalari; nutq uslublari va uslubiyat turlari.

“Ona tili va adabiyot” fanining “Adabiyot” qismi nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

I. Kirish

- 1.1 Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari.
- 1.2 Bolalar kitobxonligi haqida.

II. Bolalar folklori

- 2.1 Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog‘liqligi.
- 2.2 Qo‘shiqlar.
- 2.3 Maqollar.
- 2.4 Topishmoqlar.
- 2.5 Masallar.
- 2.6 Tez aytishlar.
- 2.7 Ertaklar. Adabiy ertaklar.

III. O‘zbek bolalar adabiyoti (umumiy tahlil)

- 3.1 O‘zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi.
- 3.2 O‘tgan asrning 30-40 –yillaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti.
- 3.3 Hozirgi davrdagi o‘zbek bolalar adabiyoti.

IV. Alisher Navoiy va Gulxaniy ijodi

- 4.1 Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalar.
- 4.2 Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlar.
- 4.3 Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g‘oyalar.

V. Abdulla Avloniy va Hamza ijodi

- 5.1 A. Avloniyning pedagogik faoliyati. Yangi maktablar, o‘quv jarayonlari, dars uslubi tashkil etishdagi faoliyati.
- 5.2 “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati.
- 5.3 H.H. Niyoziy ma’rifati. Uning ta’limda joriy etilgan o‘qish kitoblari mohiyati.
- 5.4 Hamza qalamiga mansub “Gul” turkumiga kiruvchi to‘plamlarining badiiy ahamiyati.

VI. G‘afur G‘ulom va Quddus Muhammadiy ijodi

- 6.1 G‘afur G‘ulomning bolalar uchun yozilgan she’rlarida ilgari surilgan g‘oyalar.
- 6.2 G‘afur G‘ulomning nasriy asarlari o‘zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida.
- 6.3 G‘afur G‘ulomning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi.
- 6.4 Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati.
- 6.5 Shoir shehrlardagi musiqiylik.
- 6.6 Q. Muhammadiy she’riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o‘rni hamda ahamiyati.

VII. Zafar Diyor va Shukur Sa’dulla ijodi

- 7.1 Zafar Diyorning hayoti va ijodi.
- 7.2 Zafar Diyorning “Mashinist” dostonida ilgari surilgan g‘oyalar.
- 7.3 Zafar Diyorning she’riy asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi.
- 7.4 Shukur Sa’dulla hayoti va ijodi.
- 7.5 Sh. Sa’dulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyliigi.

VIII. Sulton Jo‘ra va Hakim Nazir ijodi

- 8.1 Sulton Jo‘raning hayoti va ijodi.
- 8.2 Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she’rlarida ifodalangan g‘oyalar haqida.
- 8.3 Sulton Jo‘raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili.
- 8.4 Hakim Nazirning hayoti va ijodi.

- 8.5 Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan asarlariga xos xususiyatlar.
- 8.6 Hakim Nazirning mehnat, odob-axloq, vatanparvarlik mavzulariga bag‘ishlangan asarlarining ahamiyati haqida.

IX. Po‘lat Mo‘min va Qudrat Hikmatijodi

- 9.1 Po‘lat Mo‘minning hayoti va ijodi.
- 9.1 Po‘lat Mo‘min ijodida odob-axloq mavzusi.
- 9.3 Po‘lat Mo‘min – qo‘shiqchi shoir.
- 9.4 Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi.
- 9.5 Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she‘rlarining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 9.6 Qudrat Hikmat dostonlarida ilgari surilgan g‘oyalar.

X. Xudoyberdi To‘xtaboev va Farhod Musajon ijodi

- 10.1 Xudoyberdi To‘xtaboev hayoti va ijodi.
- 10.2 “Sariq devni minib”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha” asarlarining badiiy xususiyatlari.
- 10.3 Farhod Musajon hayoti va ijodi.
- 10.4 Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g‘oyalar.
- 10.5 Farhod Musajon - dramaturg adib.

XI. Miraziz A‘zam va Tursunboy Adashboyev ijodi

- 11.1 Miraziz A‘zamning hayoti va ijodiy faoliyati.
- 11.2 M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini.
- 11.3 Adib dramalarining maktab sahnasidagi ahamiyati.
- 11.4 Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi.
- 11.5 T.Adashboyevning so‘nggi yillardagi ijodiy faoliyati.
- 11.6 Shoirning ona-tabiat va Vatan mavzusidagi she‘rlari badiiyati.

XII. Qambar Ota va Muhammad Ali ijodi

- 12.1 Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati.
- 12.2 Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan she‘rlarining mavzu doirasi.
- 12.3 Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g‘oyalar.
- 12.4 Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari.
- 12.5 Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari.
- 12.6 Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar.
- 12.7 Muhammad Alining temuriylarga bag‘ishlab yozilgan romanlari haqida.

XIII. Anvar Obidjon va Abusaid Ko‘chimov ijodi

- “Қўрқмас-қўрқоқ”,
- “Чумолилар”

Шоир балладалари

- “Денгиз балладаси”
- “Қасам ҳақида баллада”
- “Қора хат ҳақида баллада”
- “Икки дўст ҳақида баллада”,
- “Адашган хабар балладаси”
- “Она”
- “Марат топган аппарат”,
- “Антиқа орзу”,
- “Соқчи отряд”
- “Сўзи бошқа, иши бошқа”,
- “Муз юрак”
- “Болалик”,
- “Партадошлар”,
- “Кулол ҳақида”

Шеърӣ эртаклар

- **1. Шеърӣ эртаклар:** “Онабулоқ”, “Олтин шаҳар ҳақида афсона”
- **2. Шеърӣ- адабий эртаклар:** “Меҳмон”, “Виждон”, “Қадимги эркатой”
- **3. Шеърӣ нақл - эртаклар:** “Олтин ошиқлар”, “Хазина”
- **4. Шеърӣ дoston- эртак:** “Бир дарахт ҳикояти”

“1947 йил ҳикоялари” туркуми:

- “Насиба”,
- “Она”
- “ Нон”
- “ Тандир”
- “Байрам”
- “ Аскар қайтган кун”

“Афғон ҳикоялари” туркуми

- “Боғи Бобурда бир кун”,
- “Закия”,
- “Дўппили дўстим”,
- “Итлар мазори”,
- “Томда ухлаган бола”

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**BOSHLANG`ICH VA MAKTABGACHA TA`LIM
USLUBIYOTI KAFEDRASI**

Ona tili va adabiyot
fanining
adabiyot qismi bo`yicha

TARQATMA MATERIAL

Bilimdonlar bellashuvi

1. A. Avloniy maktab o'quvchilari uchun qanday darsliklar yozgan?
(“Birinch muallim”, “Ikkinchi muallim”(1912), “Tarix”, “Turkiy Guliston yoki axloq” (1913) kabi zamonasi uchun muhim va zarur bo'lgan darsliklarni yozgan.)
2. U qanday taxalluslar bilan she'r, hikoya, feleton va kichik hajmdagi dramatik asarlar yozgan?
(A. Avloniy “Nabil”, “Shuxrat”, “Abdulxaq”, “Indamas”, “Tangriquli”, “Shapaloq”, “Chol”, “Ab”, “Chig'aboy” taxalluslari bilan asarlar yaratgan.)
3. A. Avloniyning qanday dramatik asarlarini bilasiz?
(“Pinak”, “Advokatlik osonmi?”, “Ikki muhabbat”, “To'y”, “S'ezd”, “Layli va Majnun”, “Biz va siz”, “Portugaliya inqilobi”.)
4. A. Avloniy qaysi tillarni bilgan?
(A. Avloniy fors, rus, ozarbayjon, arab tillarini bilgan.)
5. A. Avloniyning fasllarga bag'ishlab yozgan she'rlari qaysilar va ularga misollar keltiring.
(Uning fasllarga bag'ishlangan “Bahor”, “Yoz”, “Kuz”, “Qish” kabi she'rlari bor.)
6. Taniqli teatr artisti Gavhar Zokirova A. Avloniyning kimi bo'ladi?
(A. Avloniyning uch qizi, uch o'qli bo'lgan. Shundan eng to'nqich farzandlari Sora bo'lgan. Uning yakkayu-yagona farzandi Gavhar Zokirova. U A. Avloniyning nabirasi)
7. A. Avloniyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida kimlar kitob yozganlar?
(A. Boboxonov, M. Maxsumov “Abdulla Avloniy”, B. Qosimov “Abdulla Avloniy” (adabiy pedagogik portretlar), U. Dolimov “Ma'rifat darg'alari” va boshqalar.)
8. A. Avloniy rus adibi I. A. Krilovning qaysi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan? (U I. A. Krillovning 21 masalini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Jumladan “g'ay-rijins ittifoq”, “Tulki ila serka”, “Maymun ila ko'zoynak”, “It ila yo'lovchi”, “Qarg'a ila zag'izqon” kabilar.)
9. Adib “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida o'z fikrlarini va mulohazalarini dalillash uchun mashhur mutafakkirlardan kimlarning fikrlarini keltiradi?
(Avloniy o'z mulohazalarini dalillash uchun Aristotel, Platon, Gippokrat, Mirzo Bedil, singari mashhur mutafakkirlar fikrlarini keltiradi.)
10. Avloniy “Muxtasar tarixi adabiyoti va tarixi Islom” asarida qaysi payg'ambarlarning qissalarini bayon etgan?
(Avloniy “Muxtasar tarix adabiyoti va tarixi Islom” asarida odam alayhissalomdan Muhammad alayhissalomgacha o'tgan payg'ambarlarning qissallari va zuhuri islomni bayon etgan.)
11. A. Avloniy bilan bog'liq joylarni bilasizmi?
(Avloniy nomida bir qator maktablar bor. O'zbekiston yozuvchilari uyushmasi bolalar adabiyoti bo'yicha uning nomida mukofot ta'sis etgan. Toshkentdagi yirik ko'chalardan biri, Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish, markaziy institut va mahallalarning biri uni nomida.)

12. Adib “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini nima uchun ikki qismga ajratgan?

(Avloniyning xulosasiga ko`ra olam yaratilishidan murod insondir. Inson bu olamning ziynati va tojidir. Olamdagi hamma narsa faqat uning uchun yaratilgan. Chunki u aql va yurak sohibi. Shuning uchun ham u o`ziga tabiat va Olloh tomonidan saqlangan ulug` vazifalarga munosib yashashi lozim. Avloniy ana shu fikrdan kelib chiqib risolani ikki qismga ajratgan. “Yaxshi xulqlar” deb nomlangan birinchi qismga 31 fazilat, “Yomon xulqlar” deb atalgan ikkinchi qismiga esa 20 fazilat haqida yozilgan.

13. Qaysi yozuvchining qanday asarida A. Avloniyning tarjimai holi berilgan va unga bag`ishlangan?

(Mashhur yozuvchi Tohir Malikning “Qaldirqoch” (“Savohil”) qissasi.)

14 .A. Avloniy Olloh madhi va payg`ambarimiz sifatleri bilan boshlanadigan she`rlar yozgan, bunga sabab nima?

(Shoir Ollohga iltijo qilar ekan, millatning tanazzulidan “nifoq, bug`z, xurofot” dan dod soladi , Rasuli akromdan ummatinig “bemor ham, g`arib holi”ga uning muqaddas ruhidan madad tilab bir qancha she`rlar yozgan.)

15. Quyidagi misralar adibning qaysi asarida berilgan?

Yaxshilik qilsang, bo`lur joning omon,
Yaxshilikdan hech kishi , qilmas ziyon,
Yaxshi so`z birla ilon inidan chiqar,
So`z yomon bo`lsa, pichoq qinidan chiqar.

(“Birinchi muallim” kitobidan olingan)

SWOT -taҳлил



Тренинг «Ўрмонга сайр».

«Кўзингизни юмиб, ўзингизни эркин хис қилинг ва куйидаги манзарани

тасаввур қилинг:

Тасаввур қилинг, сиз ўрмонда кетяпсиз. Сиз бу ўрмонни тасаввур қилинг — у ерда қандай дарахтлар, ўтлар, гуллар ўсаяпти, қандай хайвонлар бор, ёруғлиги қандай, қайси фасл. У ерда йўл борми, ёки йўл йўқ жойлардан юряпсизми?

Кейин сиз ердан чашка топиб олдингиз. Уни ҳам тўлиқ тасаввур қилинг – эскимми, янгими, тозами, ифлосми, нимадан ясалган, ранги ва катталиги қандай?

Сайр қилишни давом этиб, сиз тўсиқга дуч келдингиз. Бу девор, канал, кулмак, дарё ёки бошқа нарса бўлиши мумкин. Бу вазиятда сизнинг кайфиятингиз ва хатти-харакатингиз ... тўлалигича тасвирланг.

Кейин сиз уй ёнида пайдо бўлдингиз. У уй қандай? Сиз уйга кирасиз, диққат билан атрофга қараб, у ердаги жихозларни, ёруғлигини тасаввур қилинг ва уйдаги сизнинг ҳаракатларингиз.

Уйдан чиқиб юришни давом этинг. Сиз ёввойи бўрига дуч келдингиз. Нима қиласиз? Бу вазиятдан қандай чиқиб кетасиз?

Бўри қочиб кетгач, сиз сайрни давом этиб кўлга дуч келдингиз. Кўлга яқин келганда сизнинг хатти-харакатингиз.

Ниҳоят, сиз узун баланд девор ёнида пайдо бўлдингиз. Унинг орқасида нима борлигини кўра олмайсиз. Сизнинг хатти-харакатингиз?

Ўйин қалити: Ўрмон - бу жамият. Ўрмоннинг ҳолати сизнинг жамиятда яшаш қобилиятингизни кўрсатади. Бу ўрмон сиз учун қандай бўлса, сиз атрофингиздаги инсонлар олами шундай тасаввур қиласиз.

Чашка – бу сизнинг ўзингиз, сизнинг ўз қиёфангиз. У қандай: тозами, ёрқинми, қорамтирми, ифлосми?

Тўсиқ - сиз уни қандай енгасиз – бу қийнчиликлар билан курашиш қобилиятингиз.

Уй ва ундаги хатти-харакатингиз – бу оила ва оилавий муносабатларингиз.

Бўри – уни қандай енганингиз – бу ўз кўркувингизни енга олиш қобилиятингиз.

Девор - бу ўлимни акс эттирувчи образ ва унга сизнинг бўлган муносабатингиз.

Xudoyberdi To'xtaboev: Bolalar — mening og'aynilarim

Muallif Adib: [Muborak kun, O'zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati, TV, FOTO, VIDEO, AUDIO 17.12.2013 Izoh: 2](#)



17 декабрь – Машихур болалар ёзувчиси Худойберди Тўхтабоев таваллуд топган кун

«Менга танишиш ва таржимага тавсия этиш учун тақдим этилган ёзувчилар орасида Худойберди Тўхтабоевнинг «Сехрли қалпоқча» номли асари юморга бой бўлганлиги ва фантазияси бениҳоя кенг бўлганлиги сабабли маъқул бўлди. Ушбу юмор ва фантазиядан италян болалари ҳам баҳра олсин, деб мен ушбу асардан бир боб таржима қилиб бердим» — деб ёзган эди олис 1971 йилда италиялик жаҳонга машхур болалар ёзувчиси Жанни Родари.

Худойберди Тўхтабоев (1932.17.12, Ўзбекистон тумани) — Ўзбекистон халқ ёзувчиси (1991). Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими (1982). Қўқон пед. билим юртини (1949), Ўрта Осиё университетини тугатган (1955). Ўрта мактабда ўқитувчи ва директор (1955—58), «Тошкент ҳақиқати» газетасида адабий ходим, бўлим мудири (1958—62), «Совет Ўзбекистони» (1962—70) газетаси, «Гулистон» журналида (1970—72), «Ёш гвардия» нашриётида (1972) бўлим мудири ва бош муҳаррир ўринбосари (1974—76), «Гулхан», «Ёш куч» журналларида бош муҳаррир (1977—80), «Олтин мерос» халқаро хайрия жамғармаси бошқаруви раиси (1980—1998).

Худойберди Тўхтабоев дастлаб журналист сифатида танилган, фелъетонлар ёзган. Илк ҳикоялар тўплами — «Шошқалок» (1961). «Фелъетондан кейин» (1962), «Сир очилди» (1963), «Сехрли қалпоқча» (1964) сингари қиссалари, «Муҳаббат кўшиғи» (1967), «Жонгинам, шартингни айт» (1969), «Конизар юлдузлари» (1978), «Омонбой бн Давронбой саргузашти» (1974) ва бошқа асарлар муаллифи. «Сариқ девни миниб» романи (1968) ёзувчига катта шуҳрат келтирган. Шундан кейин «Сариқ девнинг ўлими» (1973), «Беш болали йигитча» (1976), «Қасоскорнинг олтин боши» (1981), «Йиллар ва йўллар» (1983), «Ширин қовунлар мамлакати» (1986), «Мунгли кўзлар» (1988), «Жаннати одамлар» (1996) романлари нашр этилди. Худойберди Тўхтабоев асарлари юморга бойлиги, болалар ҳаёти, уларнинг ўзига хос табиати, хусусиятлари, рухий кечинмалари ниҳоятда жонли, қизиқарли ва болалар- боп йўсинда маҳорат бн тасвирланиши жиҳатидан ажралиб туради. Адиб ўзбек болалар адабиётини жаҳон миқёсига олиб чиққан ижодкорлардан биридир. Асарлари дунёнинг кўпгина тилларига таржима қилинган. Ҳамза номидаги Ўзбекистон Давлат мукофоти лауреати (1989).

БОЛАЛАР — МЕНИНГ ОҒАЙНИЛАРИМ

Сухбатдош — Ориф Толиб

-Болаларга атаб ёзадиган ижодкорлар кам. Балки бу йўналишда катта гапларни, катта дардларни ифодалаб бўлмас. Сиз нима учун айнан болалар адабиётини танлагансиз?

-Болаларга мослаб ёзиш қийин, шу сабабли бу йўналишни танлайдиганлар кам дейиш унча тўғри эмас. Болаларга ёзиш, унинг руҳига тенглашиб олиш, бола қалбига монанд бирор нарса айтиш албатта қийин. Қаршингизга бир болани ўтирғизиб қўйгандай, у билан суҳбатлашгандай ёзиш ҳақиқатан ҳам мураккаброқ. Бугун болаларга бағишланган асарлар жуда кам, деярли йўқ ҳисоби.

1-2 апрел кунлари болалар китобхонлигини химоя қилиш куни бўлди. Шу санада “Шарк зиёкори” китоблар дўконида тадбир бўлиб ўтди. Атрофдагиларнинг эътиборини болалар адабиётига оид китоблар териб қўйилган тоқчага қаратдим. Чет эл адабиётидан Жонатан Свифт, Жанни Родари, ўзимиздан Анвар Обиджон, Фарҳод Мусажонларнинг китоблари бор. Аксарияти қайта нашр. Янгиларини изладим, нари борса уч-тўрт бет келадиган асарларни топдим, холос. Мендан олдин Эркин Малик сўзга чиқиб, бир қанча расмли китобларни кўрсатди. Боғдорчиликка оид – русчадан таржима, ҳайвонот оламига оид – русчадан таржима. Хайрият, Тошкент ҳақидаги китоб оригинал экан. Бундоқ қараганда, янги китоблар нашр этилаётганга ўхшайди. “Гулхан” журнали ёки “Тонг юлдузи” газетасида унча-мунча ҳикоя, қиссалар босилапти. Лекин бу тўққиз миллион нафар ўқувчи бола учун жуда оз, жуда-жуда оз. Салкам ўн минг ўрта таълим мактаби бор. Айрим мактабларнинг кутубхонасига кириб қолсангиз, лотин алифбосида босилган китоблар кам эканига гувоҳ бўласиз. Шу мактабга қатнаётган болалар билан суҳбатлашиб кўраман. “Қани, ўғлим, бу йил қанақа китоб ўқидинг?” деб сўрайман. Ўйлаб-ўйлаб, битта-яримта эртакни айтади, бўлмаса – йўқ. Дарсликдаги нарсаларни ўқишади, лекин яхлит китоблар уларга етиб бормаяпти.

Китоблар икки минг, уч минг, беш минг нусхада чиқяпти. Бу олдингига солиштирганда битта маҳалланинг китоби, холос. Шу маънода, болаларбоп асарлар тақчил.

Лекин болаларга ёзиш қийин деган гапга қўшилмайман. Лев Толстойдай буюк ёзувчи болалар учун ёзган-ку! Ғафур Ғулом, Зулфия каби шоирларимиз болаларга бағишлаб шеърлар ёзган. Қийинлигини улар ҳам билган, лекин ички хоҳиш-истак уларга туртки берган. Битта аччиқ гапни айтиш жоиз: бугунги ёзувчилар болалар олдидаги масъулиятни унча ҳис қилмаяпти. Шу ўсаётган болалар эртага катта ёшдаги китобхонга айланади-ку! Ўқимасдан улғайган бола катта бўлгандан кейин ҳам ўқимай кўя қолади.

Яхши китобхонни болалигидан тайёрлаш керак. Агар газета, журналлар ўз саҳифаларидан болалар учун жой ажратса, уларнинг онгини, тафаккурини шакллантирадиган асарларни чоп этиб борса, жуда хурсанд бўлардим. Ҳеч бир киши болалар олдидаги масъулиятини унутмаслиги керак.

-Билишимча, ўқитувчи бўлиб ҳам ишлагансиз. Фаолиятингиз давомида иложсиз вазиятларга ҳам тушиб қолганмисиз? Қахрамонингиз Ҳошимжонга ўхшаган болалар билан қандай шуғуллангансиз?

-Икки марта ўқитувчилик қилганман. Дастлаб, Кўқон педагогика билим юртини битириб бориб, 1949-50 ўқув йилида Қайқубод деган қишлоқда 1-4-синфларга дарс берганман. Бу биринчи муаллимлик даврим эди. Бир қанча қийинчиликларга дуч келдим. Менга 1-синфни бериб қўйишди. Аслида, бу ишни тажрибали ўқитувчилар олиб бориши керак.

Бир-иккита мисол айтиб бераман. Болаларга қаттиқ гапириб бўлмас экан. Ўша пайтларда педагогикада қаттиқ гап ҳали бор эди. Ғуломжон деган бир ўқувчим бўлган. Бир куни ручкаси яхши ёзмаётганди, “ҳе, онангни...” деб сўкиб қолди. “Ҳой, ўғлим, онангни деб сўкмайди”, деб танбеҳ берсам, бир оздан кейин “ҳе, бувингни...” деб сўкяпти. “Ҳой, ўғлим, нега яна сўқиняпсан?” десам, “онангни демаяпман-ку” деб жавоб берди. Сўқиниш одобдан эмаслигини бафуржа тушунтиришимга тўғри келган.

Бир кун бир ўқувчим йўқолиб қолди. У Қайқубод қишлоғининг “Кўрғонча” маҳалласидан келарди. Тушдан кейин онаси келиб, ўғли уйга бормаганини айтди. Мен ҳамма қатори уйга кетганини айтдим. Болалар билан чўмилиб юргандир, деб онаси қайтиб кетди. Кечга яқин ота-она биргаликда келди. Топишолмабди. Эртасига эрта келиб хонани очсам, қидирувдаги бола орқадаги партада сумкасини бошига болиш қилиб ухлаб ётибди. Хурсанд бўлишимниям, хафа бўлишимниям билмайман. Бола топилди. Ёмон томони, кеча синфни қулфлаётганда қарамаган

эканман. Уйкудаги паҳлавонни уйғотдим, уйига хабар жўнатдим. “Э ўғлим, нимага бундай қилдинг?” десам, “Эртага тагин келарканман деб ухлайвердим”, дейди. “Кўрғонча” маҳалласи сал узоқроқ эди-да.

У пайтларда довод-қалам ишлатиларди. Болаларнинг битта одати бор эди: агар бугун кимдир қалам кўтармай келса, эртага ҳаммаси қаламсиз келарди. Бир куни битта ўқувчим қаламини уйда қолдириб келибди. Бошини силаб, яхши гапириб қалам топиб бердим. Эртасига бугун синф қаламсиз келди. Ҳа десам, бизгаям қалам олиб беринг, деб жавоб беришди.

Шунақанги қизиқ-қизиқ воқеалар мени болалар дунёсига яқинлаштирди.

Тўртинчи синфларни ҳам ўқитганман. Бу ҳам болалар дунёсини яхши ўрганишим учун катта ёрдам берган. Бир бола бир қизни яхши кўриб қолибди. Дардан кейин қолиб гаплашишади. Кет энди десанг, кетмайди. Бир куни Ҳусниддинова деган рус тили ўқитувчиси менга хат олиб чиқиб берди. Ҳалиги болалар гаплашаверибди, ёнига борса бир-бирига хат ўқиб бераётган экан. Мен нима қилишим керак? Ота-онасига ошкор этайми-йўқми? Улар анчагина “ёзишмалар олиб борган” экан. Муаллим чўнтақларидан олиб қўйибди. Хатни ошкор қилмадим, болаларни чақириб ўзларига қайтариб бердим. Энди бунақа иш қилманглар, еттинчи синфдан кейин ҳаммасига рухсат, дедим. Унда еттинчи синфгача ўқитиларди, ундан кейин қизлар эрга тегиши мумкин эди.

1955 йили университетни битириб келдим-да, яна мактабга ишга кирдим. Уч йил ишладим. Ўсмирлик ёшидаги болаларга дарс бердим. Бу пайт боланинг шаклланиш даври ҳисобланади. Бу мураккаб ўтиш палласининг сир-синоати, ўзига хосликларининг поёнига етолмадим. Ҳар бир ўсмир ўғил, ҳар бир ўсмир қиз ўзи бир дунё-да. Уларнинг ҳаётини кузатиб, жуда кўп воқеаларнинг гувоҳи бўлдим.

-Садриддин Айний ўз хотираларида ёзишича, Аҳмад Дониш ўз танишларини уйига тўплаб, зиёфат бериб, уларнинг шовқин-суронида ишлаган экан. Сиз қандай шароитда ижод қиласиз?

-Тўғри, ҳар ким ҳар хил шароитда ижод қилади. Баъзи бирлар сувнинг шилдирашини эшитиб шеърый оҳанг топар экан. Мен болаларнинг ичида ижод қиламан. Агар шу бугун тўртта болани кўрмасам, бағримга босмасам, улар билан суҳбатлашмасам, кўнглим тўлмайди.

Анча йиллар олдин Ёзувчилар уюшмаси аъзоларига дала-ҳовли таркатди. Ўша пайтларда партия ташкилотининг котиби эдим, ҳовли олсам бўларди. Лекин болаларни кўзим қиймади. Дала-ҳовлига йигирмата бола ўлиб қолса бормайди-ку. Ҳафтада учта болани ё кўраман, ё кўрмайман.

Яқинда, “13-студия” кўрсатувида қатнашганимда бир гапни айтдим: “Мен болаларга ош бераман, чунки улар менинг ўртоқларим, оғайнимларим”. Чунки мен шу болалар билан бирга завқланаман, улардан сюжет топаман, шу улфатларимнинг оҳангини, сўзини “ўғирлайман”.

-Тошкентга келиб ўрнашиб, ватан қилиш осон эмас. Қанақа қийинчиликларга дуч келгансиз, уларни қандай ҳал этгансиз? Уй-рўзгорни бошқаришда нималарга эътибор берасиз?

-Ҳаётда иқтисодий қийинчиликларга кўп учраганман. Ўзим уй-жой қилганман, уйланганман. Тошкентга келгандан кейин мусофирчиликда яшадим. Меҳнатим, ҳаракатим билан бу ерда ҳам уй-жой қилдим, ўғилларимни уйлантирдим, уй-жой, машина олиб бердим. Буларнинг ҳеч бири осонликча бўлгани йўқ.

Тошкентда иш бошлаган дастлабки йилларимда қайнотам меҳмон бўлиб келди. У киши савдо ходими бўлиб ишларди, бозорни яхши биларди. Бир ўринда менга рўзгор тебратиш

тўғрисида насиҳат қилдилар. Айтган насиҳатлари хали-хануз ёдимда. Биринчиси – сув қаттиқ ерда тўхтайти, агар қаттиқ бўлмасанг пулни ушлай олмайсан. Иккинчиси – беш сўм пул топсанг, ҳар қандай шароитда ҳам икки сўмини асраб қўй. Учинчиси – сўмнинг онаси тийин, тийинни эҳтиёт қилсанг туғади, кўпаяди.

-Агар бола яхши тарбия кўрса, ҳалоллик, тўғрилиқни ўрганса, ўз ҳақини ҳимоя қила олса, кейинчалик бемалол мустақил яшай олади. Болаларда бундай хусусиятларни шакллантириш учун нималар қилиш лозим деб ўйлайсиз?

-Аввало ота-онанинг ҳалоллик йўли билан топаётган пулининг қадрига етиш керак. Бола келаётган пулларнинг ҳалоллигини билсин. Ота-она мабодо нопок йўл билан пул топган бўлса, болаларни ундан ҳимоялаш зарур. Халқимизда лўқмаи ҳалол деган ибора бор. Ҳалол лўқма еб ўсган бола ҳалол меҳнатни хуш кўрадиган, бироқнинг ҳақидан, ҳаромдан ҳазар қиладиган киши бўлиб етишади.

Халқ орасида “эқканга, тикканга раҳмат” деган гап юради. Одам бошқаларнинг туз-намагидан тотганда, кимдир яратган боғ-роғнинг мевасидан баҳраманд бўлганда, уларнинг ҳаққига дуо қилишни ҳам билиши керак. Қадимда бир бой ўтган экан. Шу одам бозорга борганда одамлар мева-чева олгач, “эқканга раҳмат, тикканга раҳмат” деб кетаётганини эшитиб қолибди. Келаси йили чоракорларига буюриб боғ-роғ барпо этибди. Вақти келиб шу боғнинг мевасидан одамлар баҳраманд бўлибди. Келганлар “эқканга, тикканга раҳмат” дермиш-у, “эғасига раҳмат” деб айтмасмиш. Шунда бой ҳалол меҳнатнинг савоби улуғлигини англаб етиб келаси йили ўз кўли билан боғ яратибди.

Болани уйдаги буюмларни, кийим-бошни, умуман, ҳар қандай товарни асраб-авайлашга ўргатиш лозим. Сотиб олаётган маҳсулотининг сифатини, кадр-қимматини аниқлашда нималарга эътибор бериш кераклигини ўргатиш лозим.

Болтиқбўйи республикаларида болалар адабиёти кунлари бўлганди. Шу тадбирларда қатнашган пайтим бир ажойиб нарсага гувоҳ бўлганман. Бошланғич синфларда “Рўзғор арифметикаси” деган фан ўтилар экан. Ўқувчи алоҳида дафтар тутиб, ота-онаси, бобо-бувиси қанча маош ёки нафақа олишини ёзиб кўяркан. Кейин ҳар кунлик харажатларни қоғозга тушириб ҳисоблар экан. Масалан, ўзи мактабга қанча йўл кира билан келди, қанақа ўқув қуроли сотиб олди – буларни ҳар дарсда ўқиб бераркан. Нархлар, олинган нарсалар солиштирилади. Натижада бола юқори синфга ўтганда қилаётган харажатларига эътибор берадиган тайёр иқтисодчига айланади.

Қадимги бойларда бир одат бор экан. Ўғилларини эргаштириб бозорга олиб бораркан-да, савдо қилишга киришар экан. Биринчисидан, иккинчисидан, учинчисидан, ҳатто тўртинчи савдодан ҳам нарса сотиб олмас экан. Болалар бетоқат бўлиб кетар, бўлди энди, олақолайлик деб тихирлик қиларкан. Йўқ, ҳали кўришимиз керак деб, меъёри келгунча савдолашиб юраверар экан. Танга-тийинларни асрашни ўрганган бола ўз-ўзидан отанинг топган мол-дунёсини кўкка сокурмайди. Шу тариқа болада истеъмолчилик маданияти шаклланади.

-Иқтисодий қанчалик муҳим бўлса, маънавият шу қадар аҳамиятга эга. Бола маънавиятини шакллантиришда адабиётнинг қай даражада ўрни бор деб ҳисоблайсиз?

-Болани нимага ўргатишимиздан қатъи назар, хоҳ иқтисодга, хоҳ касб-хунарга бўлсин, маънавиятни ҳеч қачон ёдимиздан чиқармаслигимиз зарур. Энг аввало маънавият масалага қайғуриш керак. Қадимда бир киши ўғлини тарбиячига олиб борса, бўлажак устоз : “Ўғлингиз неча ёшга тўлди?” деб сўрабди. “Уч ёшга”, деб жавоб берибди ота. Шунда мураббий: “Э-э, аттанг, уч йил кечикибсиз-ку”, деган экан. Қиссадан ҳисса шуки, бола маънавиятини туғилганидан бошлабоқ шакллантириш керак. Бу нарса онасининг сути юзига томганда чақалоқнинг ўзига арттиришдан бошланади.



Маънавиятни шаклантирмай туриб иқтисодни шаклантирсангиз ё чайқовчи, ё олғир, ё бировнинг ҳисобига боювчилар пайдо бўлади.

-Ҳозир енгил-елпи, маиший асарларга ишқибоз ўқувчилар кўп. Адиб китобхон эҳтиёжидан келиб чиқиб асар ёзиши керакми ёки адабий меъёрлар билан ҳисоблашиши зарурми?

-Онги-тафаккури баланд ўқувчи ҳамиша гўзалликни, ўзига хосликни истаб туради. Ўқиётган китоби бошқа китобдан баланд, эшитган концерти бошқаникидан савиялироқ бўлиши хоҳлайди. Навоийнинг буюк бўлишига ўша даврда туркий дунёда етилган буюк талаблар сабаб бўлган. Абдулла Қодирийнинг роман жанрига кўл уришиша ўша даврда бизнинг миллатимизда ҳам катта жанрларга эҳтиёж туғилгани туртки берган. Ғафур Ғуломнинг буюк фалсафий шеърлари яралиши ҳам эҳтиёжга бориб тақалади. Баъзан паст савияли талабгорлар ҳам учрайди. Улар китоб кўрмай, шакланмай улғайган. Ҳозир шуларга монанд ёзаётганлар кўпайиб кетди.

Президентиимзнинг “Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор” китобида шундай фикрлар бор: “Таъбир жоиз бўлса, одам ёзувчилик касбини танламайди, аксинча, бу касб ёзувчини танлайди. Истеъдод, истеъдод ва яна бир бор истеъдод соҳибларини топиш, тарбиялаш ва уларнинг меҳнатини муносиб қадрлаш ҳам энг асосий вазифамизга айланиши зарур”.

Ҳозир ёзувчилик касбини танлаётганлар кўпайиб кетган. Қараса китоб билан ҳам бизнес қилиш мумкин. Бир ойда китоб ёзади, иккинчи ойда бостиради, кейин йўлини топиб сотади. Чунки чўнтагида пули бор, имконияти бор. Яқинда “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетасида истеъдодсиз ёзувчилар, уларнинг чалажон асарлари тўғрисида мақола босилди. Унда қачонлардир берилган асарининг у ер-бу ерига ўзгартириш киритиб, янги асар деб босаётганлар, ўқувчининг олдида зиғирча масъулият ҳис қилмайдиган, енгил-елпи сюжет орқасидан қувувчи ёзувчилар ҳақида сўз юритилган. Мана шундай зўраки ёзувчилар катта адабиётнинг қадрини туширишга, маънавий даражани пасайтиришга ҳаракат қиляпти.

2010

Манба: [Шоир Ориф Толиб веб-саҳифаси](#)

«Сехрли қалпоқча» — Бадийий фильм

Худойберди Тўхтабоевнинг «Сарик девни миниб» асари асосида.

Сценарий муаллифи ва режиссёрлар — Сарвар Каримов ва Нозим Жумаев

Бош тасвирчи — Иззатилла Лутфуллаев

Бош рассом — Акмал Саидов

Монтаж устаси — Тимур Суслин

Махсус эффектлар — United Soft

Картина директори — Фарход Усмонов

Бош рольда — Бунёд Рахматулла

Ertaga O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboev 81 yoshgato'ladilar!
Xudoyberdi akabugung ikunda asarlari eng ko'pnash retiladigan mashhur adiblar qatoriga kiradilar.
Asarlaridunyo bo'ylab 32 tilda, 58 davlatdacha topilgandir! Adabiyotimiz baxtiga,
millatimiz baxtiga omon bo'ling Xudoyberdi aka! Adabiyotimiz sha'nini dunyoga yoyishdan hech qachon
charchamang!

Мен болалик даврим, Худойберди Тухтабоевнинг "Сарик девни миниб", "Ширин ковунлар мамлакатига саехат", "Мунгли кузлар"ни укиб улғайганман.... Асарлари бетакрор маъноли ва самимий, оддий халқ тушунадиган тилда езилгандир. Купгина дуне тилларига угириб таржима қилинган..... Ва жуда катта тарбиявий ахамиятга эгадир.... Балким, адабиётга илк хавас ана шу асарлар мутолаасидан уйғонгандир..... Барибир.... хозир билмадим, бизнинг болалик даврлар бир

бошкача булган эди....у даврларда на компьютерда ва на мобилда бекор утириб вақт утказиш булган....Чиройли бир езилган бадий асар топиб уқирдик....ва шу хаели билан яшардик....Ва уша асарларнинг роли хозир хаетимда катта ахамиятга эгадир....Уқиб окни корадан ажратишни,яхшини емондан фарк килишни....Зеро,езилган бадий асарлардан куп нарса олиб урганиш мумкин....Хозирги ешларимиз хам компьютер,техник уйинларга камрок машгул булиб китоб уқиб,дунекарашларини ошириб,маънавий озука олиб турсалар яхши буларди....Зеро,"Китоб-билим булогидир"!Устоз адиб Худойберди Тухтабоевга эса,сихат-саломатлик узок умр!яна гузал бадий асарлар кутиб қоламиз!



Анвар Обиджон: Болалиқдан айрилиш қийин



Анвар ака билан «Ёш гвардия» наشريётда узок йиллар (бир бўлимда, бир хонада) бирга ишлаганмиз. Ўша пайтлар наشريётнинг деворий газетасига ажойиб шоир дўстимиз Муҳаммаджон Раҳмон Анвар акага бағишлаб бир ҳазил шеър ёзганини эслайман (Афсуски, дастлабки икки сатри ёдимда қолган):

Келиб

Олтириқдан

Ёзар олти жанрда...

Анвар аканинг шеър ёза бошлаганига салкам ярим аср бўлади. Мана шу йиллар мобайнида у ўзбек болалар адабиёти ва юмор соҳасида энг катта ислохотчи (реформатор) шоир сифатида намоён бўлди. Унинг ўзбек болалар шъриятини янгилаида қилган хизматлари ҳали етарлича баҳосини олмаган деб ўйлайман. Нашриётдан кейин ҳам телевидениеда, «Ёшлар» телеканалда бирга ишладик. Шу сабабдан бўлса керак, аканинг табиатини яхши биламан. Энг аввало, Анвар ака жуда пухта одам (олтириқликларга хос сифат) сифатида биламан. Пухталигидан ҳатто тугилган куниниям икки сана билан белгилаган. Яъни: ровийларга кўра, 1947 йилнинг 8 январиди, ҳужжат бўйича эса 25 январиди тугилган. Биз- Анвар аканинг дўстлари, укалари бунни тўғри қабул қилганмиз. Икки

санадаям, ажойиб ёзувчи ва шоир, энг муҳими, ўхшаши топилмас инсонга узоқ умр ва баракали ижод тилаймиз.

Хуришид Даврон

Ўзбекистон халқ шоири

Анвар Обиджон

БОЛАЛИКДАН АЙРИЛИШ ҚИЙИН

Б

олалигимни қўмсайвераман, қўмсайвераман... Ичкиб-ичкиб соғинаман...

Ваҳоланки, у замонларда ҳаёт енгил бўлмаган. Уйлар полсиз, қишда печка топилса, кўмир топилмайди. Ўтин ёқсанг, бир ловуллаб иситади-ю, яна тафти сўнади. Сандалнинг аҳволи ҳам шу. Қор ёки ёмғир ёғса, томдан чакқа ўтгани-ўтган, сув томчилаётган жойларга териб қўйилган турли идишлардан таралган “чак-чук”, “тиринг-тиринг”ларга кўринмас ажиналар ўйин тушаётгандек.

Иложи борича кундузи дарс тайёрлашга уринардим. Қоронғига қолсанг, керосин иси анқиб турадиган лампа-чироқ кўзларингни толиқтиргандан толиқтириб ташлайди. Эндигина пайдо бўлган электр чироқлари ойида уч-тўрт йилтиллаган бўлади, шундаям шамдан хира. Бу етмагандек, умумий қилиб солинган кўрпада қаторлашиб ётган опа-укаларинг: “Чироқни ўчир, ухла”, деб тихирлик қила бошлашади.

Иккинчи жаҳон уруши укубатларидан эндигина қутулган хонадонларнинг кўпчилиги анча қашшоқ эди. Маҳаллада ёппасига тупроқтом уйлар, кўпининг ҳатто айвони ҳам йўқ. Фалончи томига шифер ёпганмиш дейишса, одамлар атайлаб кўргани боришарди. Кўчалардан дам иккала ғилдираги девор бўйи келадиган кўқонарава, дам ўрислар “бричка” деб атайдиган тўрт ғилдиракли кўтакарава ўтиб қолади. Кейинроқ қўш отли “хаптакач”лар кўпая борди. Бир сакраб, кенг юкшотининг четига осилиб олсанг, ана мазза, мана мазза. Колхозимиздаги иккита “полатўрка” юк машинасидан бири ёки хусусий мотоцикллар ҳафтада бир-икки бор кўзга чалиниб турарди, қий-чув кўтариб, ортидан чопқиллашга тушардик. Енгил машина учраб қолса-ку, байрам бўлиб кетарди. Лекин қандайдир “сирли катталар”ни олиб юрадиган бу машиналарга осилиш тугул, югуриб қувлашга ҳам ҳаддимиз сиғмасди.

Оиламиз ўзига тўққина эди. Аммо, кўпчилик қўшниларникига кирганимда, дастурхонларида чой-нон, туршак-қоқилардан бўлак нарса йўқлигини кўриб, ғалати бўлиб кетардим. Бундай хонадонларда яшовчи ўртоқларимнинг бир унисини, бир бунисини уйимизга тез-тез бошлаб кирардим, бирга овқатланардим, дастурхонга қанд ҳам қўйишларини талаб қилиб туриб олардим. Сен қандни ҳар куни ейсанми, дея ҳавас билан сўраб кўярди болалар. Хоҳласам, кунига ўн марта ейишим мумкин бўлса-да, негадир ёлгон гапириб, онда-сонда беришади холос, деб ғарибланар эдим. Оқ қандни-ку мендан аяшмас эди, бироқ гулдор қоғозчаларга ўралган попукли қандларни қутичада қулфлаб сақлашар, гоҳ қулфбузарлик қилишга мажбур бўлиб, бошимга бало орттирардим. Меҳмонлар келганда, олдиларига товоқчалардаги ширинликларни териб ташлашса, катта бўлиб меҳмонга борсам, наҳотки менинг олдимга ҳам попукли қандларни товоқчаси билан ишониб қўйиб қўйишса, деб ўйлардим. Биладан, егинг келиб турибди, олифталанмасдан лунжингга тикавермайсанми, деган хаёлда меҳмонга хитланиб боқардим.

* * *

Кўшни маҳалладаги мачит биноси ўртасига дувол урилган тарзда иккита синф хонасига мослаштирилган бўлиб, биттасида бешинчи синфгача биз ўқиганмиз. Биринчи ўқитувчимиз Аҳмадали Обидийни “мулла ака” деб чақирардик. У зот бирортамизни турткилаш у ёқда турсин, қаттиқ чақчайганини ҳам эслолмайман. Аччиғини келтирсак, ўзини қаттиқ ҳафа бўлгандек, астойдил аразлагандек тутиб, оқсоқланганича дераза ёнига борар, маъюс қиёфада жим туриб қолар, сочига оқ оралаган, ҳеч кимга озор беришни истамайдиган домламиз билан тезроқ ярашиб олишга тиришардик.

Бошланғичда ўқиётган чоғларимда Заҳрахон деган синглим, Ҳомитжон деган укам қаттиқ шамоллашдан бирин-кетин вафот этишган. Улар қайта-қайта тушимга кираверарди...

Чамаси, болалигимни ҳадеб қўмсайверишимнинг асосий сабаби ҳам шу – ўша даврларга қайтсам-у, Заҳрахон билан Ҳомитжон ёнимда диконглаб юришса, ҳамма ишни йиғиштириб қўйиб, уларни ўйнатаверсам, ўйнатаверсам. Улар вафот этадиган пайт яқинлашгач, ҳаётим яна янгитдан бошланаверса.

* * *

Бобомиз Баҳром ота эшон бўлган эканлар. Уйда мактаб очиб, болаларга дарс бериб ҳам тураркан. У киши оламдан ўтганларида, Обиджон дадам ўн ёшда, Шафоат аммам беш ёшда бўлишган экан.

Сарвинисо бувимизни эшон отанинг аёли сифатида ҳурматлашиб, кўплар зиёратга келиб туришар, отин ойилар тез-тез йиғилиб, китобхонлик қилишарди. Ҳали мактабга бормаган бола бир четда ёнбошлаб олиб, девона Машраб, Або Муслим, бобо Равшан кабилар ҳақидаги ривоятларни берилиб тинглардим.

Дадам эскича илмдан хабардор бўлсалар-да, диндорлар, айниқса таниқли диндорларнинг фарзандлари ҳам қаттиқ кузатув остида бўлган маҳалларда улғайгани учун замонга мос турмуш тарзини танлаган эдилар. Сиёсатга қизиққанларини билмайман. Эсимни таниганимдан то илк ўсмирлик давримгача пахта қабул қилиш пунктида товаршунос бўлиб ишлаган. У киши ўз ишининг ўта билимдони эканлиги, бошқа жойлардаги касбдошлари маслаҳат олишга келиб туришлари тўғрисида кўп гапиришарди. Онамиз Мунис ая ҳозир биркам тўксондалар. Ёшлигида далага ялангоёқ қатнаб, колхознинг битта нони, бир коса ёвғоншўрваси эвазига сахардан кечгача ишлаганини бот-бот эслаб туришади. Бизнинг назаримизда аямиз ҳамон кийимимизни ювиб, олдимизга овқат қўйиб, бир тергаб, бир эркалатиб юргувчи ўша-ўша уй бекаси.

Бувимизга ука бўлмиш Усмон тоғамиз сал дувонахонлиги боис уйланмасдан, бизникида яшаб ўтдилар. Бирин-кетин кўтариб катта қилгани учун у кишини ҳаммамиз жуда-жуда яхши кўрардик. Тоғажонимиз вафот этганида ўсмир эдим, нимага йиғляпсиз, деб аямга дағдаға қилганим ёдимда.

Дадам 1969 йилда ҳарбийдан қайтишим биланок мени уйлантириб, уч ойдан сўнг оламдан ўтдилар. У кишидан саккиз фарзанд қолган, уч опам, тўрт укам бор. Опаларим аллақачон дадамнинг ёшидан ўтиб кетишди. Шуни биламан, ишонгим келмайди.

* * *

Шеър ёзишга бошланғич синфлардаёқ ружу қўйганман. Дастлабки шеърларим ўша отин ойилардан эшитган Машраб ғазаллари радифларига тақлидан битганман. “Ғунча” журналининг мухлисига айланганимдан сўнг болаларга тинимсиз ёзишга тушдим. Шу журналда ишловчи Миразиз Аъзам домла мени қулоғимдан тортқилаб шоир қилган, йўқса, бу ҳавасдан ўшандаёқ кўнглим совиб, бошқа ёққа чалғиб кетишим ҳеч гап эмасди.

Ўсмирлигимда дадамнинг ишлари сал орқага кетиб, оиламизга етишмовчиликлар оралаб қолди. Аямиз яхшигина чевар эдилар, ёзда кител, қишда пахтали камзул тикиб сотиб, рўзғорнинг камини ёпиб юришди. Менда ҳам тирикчилик ташвиши эртароқ бошланди, олти-еттинчи синфларда маҳаллалар аҳолисига текин хизмат кўрсатувчи сайёр киночига шогирд тушдим, кейинроқ кечки мактабда ўқиб, пахта заводида трактор миндим. Мактабни битиргач, кўрғошин конида бурғиловчи, қишлоқ кутубхоначиси бўлдим, Самарқанд Молия техникумини тугатиб, аскарликка кетдим. Уч йиллик хизматдан қайтганимдан сўнг, тўнғич ўғил бўлганим учун, отасиз оиланинг бошлиғига айландим. Колхозда табелчи бўлиб иш бошладим.

Шундай хилма-хил ҳаёт, шунча ташвишнинг ичида юриб, шеър ёзишдан барибир кўнглим совимади. Дафтарларим кетма-кет тўлаверди. Туман газетасига мухбирликка ўтганимдан кейин ҳозирги Миллий университетнинг журналистика факультетига сиртдан ўқишга кирдим-у, ниҳоят ўзим кўпдан орзулаб юрган йўлнинг бошига чиқиб олдим. Болаларга аталган “Она Ер” номли биринчи китобим бахтимга энди Миразиз Аъзам домланинг саховати билан 1974 йилда босилиб чиқди.

Туман газетасида олти йилча ишлаб, бирон-бир газета-журнал ёки нашриётга ўрнашиб олиш умидида бошкентга келдим, лоақал олдин мусаҳҳихликка ҳам лойиқ кўришмагач, Тошкент ёғ-мой комбинатида боғбон бўлиб жойлашдим. Тошкентга куруқ хою ҳавасга эргашиб эмас, пухта ҳозирлик билан келиш лозимлигини англаб, яна қишлоққа қайтдим. Фарғона радиосидан иш беришди. 1980 йилда “Ёш гвардия”да “Баҳромнинг ҳикоялари” деган иккинчи китобим босилгач, шу ерда бош муҳаррир бўлиб ишловчи устоз Эркин Воҳидов ҳузурига чақириб, китобингизни ўқиб хурсанд бўлдим, бизга ишга келмайсизми, деб қолдилар. Ёшим ўттиз тўртда эканлиги, бешта фарзандим борлигига қарамай, 1981 йилнинг ёзида нашриётга келиб иш бошладим. Насиб экан, кейинчалик “Ёш куч”, “Муштум” журналларида, Чўлпон номидаги нашриёт, Ўзтелерадиокомпания тармоғида ҳам ишладим.

Ҳозиргача ўттизга яқин китобим чоп этилди, бир неча пьесаларим сахналаштирилди, айрим асарларим асосида болалар учун кинолар яратилди...

Ҳаётимнинг бу ёқдаги қисми ҳақида кўп гаплар айтилган, ёзилган, чўзгилашнинг хожати йўқ деб ўйлайман. Энг муҳими, юртимнинг эркини кўрдим, энг катта армондан халос бўлдим.

Бошимдан нималар кечган бўлмасин, барибир яхши яшадим. Нимаики кўрсатган бўлса, Яратгандан минг марта розиман. Имкон қадар сабрли бўлишга, борида шукрона айтишга уриниб келдим. Тўғриси ҳам шу экан.

Ҳаёт давом этаяпти. Феъллим эса, ўша-ўша – болалигимни кўмсаб-кўмсаб тураман. Бу менга ички куч ато этаверади.

Абдуғафур
ИЖОДИЙ ЎЗЛИК САРИ ЙЎЛ

Расулов



Children's Literature in English

Children's literature in English, literature for children up to early adolescence, has been written since the mid-19th century.

-
-

Ernest Thompson Seton, author, artist

Along with Charles G.D. Roberts, Seton gave the animal story its distinctive form (Library and Archives Canada/C-9485).



Ida and the Wool Smugglers

Illustration by Ann Blades, published by Tundra Books (courtesy McClelland and Stewart).




Kusugak, Michael

Kusugak hunted caribou, seals and whales with his parents by dog team when he was young. He relates these stories in his children's books (courtesy Maclean's).



Mary of Mile 18

Illustration by Ann Blades, published by Tundra Books (courtesy M&S).



"Wynken, Blynken and Nod"

"Wynken, Blynken and Nod" by Eugene Field, illustrated by Ron Berg (1985) (courtesy Ron Berg and Scholastic-TAB Publishing Ltd).



"Jillian Jiggs"

Author Phoebe Gilman created the well-known character "Jillian Jiggs," a tenacious little girl who loves to dress up but always makes a huge mess (courtesy Phoebe Gilman and Scholastic-TAB Publishing Ltd).

Children's Literature in English

Children's literature in English, literature for children up to early adolescence, has been written since the mid-19th century. It was originally a literature in which portrayals of life in the new country - confrontations with and adaptations to the landscape and the native peoples, colonizing the territories and then creating and developing a nation - were in search of appropriate vehicles of expression. During the 19th and early 20th centuries the vehicles were generally those fashionable in Great Britain. At the turn of the century the animal story, the first distinctively Canadian genre, appeared. In the last half of the 20th century, authors and illustrators have used a variety of genres to reflect the geographical and cultural diversity of Canadian life.

The Animal Story

Although animals had been mentioned in earlier literature, the works of Sir Charles G.D. **ROBERTS** and Ernest Thompson **SETON** gave the animal story its distinctive form. Seton's highly popular *Wild Animals I Have Known* (1898) influenced Roberts, whose *The Kindred of the Wild* appeared in 1902 and *Red Fox* in 1905. Drawing on their observations of wildlife and their study of Darwinistic theories of natural selection, both writers focused on the lives of superior members of various species. In *Red Fox*, Roberts combined exceptional strength and intelligence in an individual fox, making him the novel's hero. To Seton, the important fact of animal life was death, often at the hands of man and always tragic. Among later wild-animal stories that end with death are Roderick **HAIG-BROWN's** *Ki-yu: A Story of Panthers* (1934) and Fred Bodsworth's *Last of the Curlews* (1955).

Pets have also provided the focus for many children's books. One of the best-known early children's novels, Margaret Marshall Saunders's *Beautiful Joe* (1894), is the "autobiography" of a "cur" who, having been rescued from a cruel master, lives a long and happy life. Farley **MOWAT's** *The Dog Who Wouldn't Be* (1957) is the humorous story of Mutt, a pet who "at some early moment of his existence ... concluded there was no future in being a dog." Sheila **BURNFORD'S** *The Incredible Journey* (1960) is the account of a 400 km trek across northern Ontario undertaken by 2 dogs and a cat.

The Adventure Story

The adventure story, a major form of Victorian children's literature, influenced Canadian books in the 19th century and, to a lesser degree, the 20th. Emphasizing the goodness of the British Empire, Christianity and physical courage, such British novels as Frederick Marryat's *The Settlers in Canada* (1844) and G.A. Henty's *With Wolfe in Canada* (1886) were immensely popular in Britain and the colonies, and shaped many young Canadians' views of their country. R.M. Ballantyne's firsthand account of the fur trade, *Hudson's Bay* (1848), was followed by his novels *Snowflakes and Sunbeams* (1856) and *Ungava* (1858). The vast landscape, populated by fierce wild animals and heathen savages, was supposedly won for civilization by people such as the young white heroes and heroines of the novels of these authors.

Of 19th-century stories, one of the most interesting is Catharine Parr **TRAILL's** *The Canadian Crusoes* (1852), which combines a knowledge of the wilderness north of Lake Ontario with elements of the survival story made popular by Daniel Defoe's *Robinson Crusoe*. In addition to describing how the 3 central figures, all teenagers, secure the basic necessities, the book portrays their strong belief in divine protection and their rescue of a native girl to whom they teach the tenets of Christianity. The popularity of the traditional adventure story during the early 20th century (eg, Seton's *Two Little Savages*, 1906; Alan Sullivan's *Brother Eskimo*, 1921, and *Brother Blackfoot*, 1937) may account for the appearance of many of its traits in such novels as Haig-Brown's *Starbuck Valley Winter* (1943), Mowat's *Lost in the Barrens* (1956) and James **HOUSTON's** *Frozen Fire* (1977). In each story the male hero grows to maturity, drawing on lessons learned through meeting native people and coping with the harsh wilderness. Tony German's *Tom Penny* (1977) and Bill Freeman's *Shantymen of Cache Lake* (1975) combine historical backgrounds and foregrounds of danger and suspense as youthful heroes confront the elements and evil characters.

Historical Fiction

There is no self-conscious tradition in Canadian fiction of mythologizing major historical characters and events as there is in American children's literature. Thus, in historical fiction, Canadian authors cannot relate their narratives with the confidence that their young readers will have a general familiarity with major eras or events. Certain periods of Canadian history (eg, the War of 1812 and the North-West Rebellion) seem to be favourites in novels. The former has been treated in Barbara and Heather Bramwell's *Adventure at the Mill* (1963) and John F. Hayes's *Treason at York* (1949); the latter in W.T. Cutt's *On the Trail of Long Tom* (1970) and Jan Truss's *A Very Small Rebellion* (1977). The Royal Canadian Mounted Police are portrayed in J.W. Chalmers's *Horseman in Scarlet* (1961); the **LOYALISTS'** escape to Canada in Mary Alice and John Downie's *Honor Bound* (1971), and the Cariboo Gold Rush in Christie Harris's *Cariboo Trail* (1957). In *Underground to Canada* (1977), Barbara **SMUCKER** describes the dangerous journey to Ontario of 3 slaves who have escaped from a Southern plantation. Many contemporary authors have created historical novels about the first half of this century. Barbara Smucker's *Days of Terror* (1979) is an account of the struggles of Mennonites who have fled their Ukrainian village and come to Canada during WWI. Jean Little, in *Listen for the Singing* (1977), details the tensions of a German-Canadian family during WWII. Myra Paperny's family story *The Wooden People* (1976) is set in Alberta in the 1920s, and Brian Doyle's *Up to Low* (1982) and *Angel Square* (1986) are based on the author's 1940s eastern Ontario boyhood.

Set in rural Alberta during the Depression, Cora Taylor's *Summer of the Mad Monk* (1994) presents a young teenager's encounter with a Russian blacksmith he believes to be the famous Czarist leader Rasputin. Paul Yee, in *Curses of the Third Uncle* (1986), deals with the impact the Chinese revolution of 1909 has on a Chinese Canadian girl. *Hockey Bat Harris* (1985), by Geoffrey Bilson, and Kit Pearson's *The Sky is Falling* (1989), *Looking at the Moon* (1991) and *The Lights Go On Again* (1993) recount the struggles of British children evacuated to Canada during WWII. Joy **KOGAWA's** *Naomi's Road* (1986) is based on the author's own experience of being interned as a Japanese-Canadian during WWII.

Some of the most distinguished historical fiction for children is found in books dealing with the native peoples, both before and after European contact. Often these stories centre on the rites of passage, as in [HAIG-BROWN's](#) *The Whale People* (1962), in which a Nootka youth is thrust into a position of authority after the death of his father. In Edith Sharp's *Nkwala* (1958), a Salish boy searches for a vision to guide him into adulthood. Cliff Faulkner's trilogy, *The White Calf* (1965), *The White Peril* (1966) and *The Smoke Horse* (1968), is set on the prairies just before and during the arrival of Europeans. Stories dealing with contacts between native and European cultures include J.F. Hayes's *Buckskin Colonist* (1947), Doris [ANDERSON's](#) *Blood Brothers* (1967) and Harris's *Forbidden Frontier* (1968). Jan Hudson's *Sweetgrass* (1984) combines historical research and a feminist viewpoint in detailing the life of a young Blackfoot woman in the early 19th century. Kevin Major's *Blood Red Ochre* (1989) draws parallels between the life of a contemporary Newfoundland native girl and her Beothuk ancestors.

Writers of biography and historical nonfiction have always had to avoid the pitfalls of accurate but dry scholarship, and exciting but inaccurate fictionalization. Among those biographies that have avoided the dangers are Haig-Brown's *Captain of the Discovery: The Story of Captain George Vancouver* (1956), Kay Hill's *And Tomorrow the Stars: The Story of John Cabot* (1968) and Roy [DANIELLS's](#) *Alexander Mackenzie and the North West* (1969). Accurate and lively histories for young readers include Pierre [BERTON's](#) *The Golden Trail* (1954), T.M. Longstreth's *The Scarlet Force* (1953) and William Toye's *The St. Lawrence* (1959), and Janet Lunn and Christopher Moore's *The Story of Canada* (1992). Although native peoples have been sensitively treated in fiction and in adaptations of folklore, they have not, with the exception of Harris's *Raven's Cry* (1966), been the subject of major biographies or histories for children.

Ona tili fanidan 2-kursda o‘tiladigan mavzularga doir prezentatsiyalar

Morfemika



- Qo‘shimchalar va ularning turlari
- O‘zakka qo‘shilib, turli ma‘nolarni ifodalaydigan qism **qo‘shimcha** deyiladi: *ishchi, bahola, olmazor, ishla, yozgi.*
- Qo‘shimchalar so‘z tarkibida qatnashmasligi ham mumkin, ular ayrim qo‘llanmaydi, doim o‘zakka qo‘shilib keladi. O‘zak va qo‘shimchalar so‘zning **ma‘noli qismlari (morfemalar)**dir.



Qo'shimchalar vazifasi va so'zga qo'shilib anglatadigan ma'nosiga ko'ra uch turli bo'ladi (ayrim darsliklarda qo'shimchalar ikki turga bo'linadi: so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar).

- 1. **So'z yasovchi qo'shimchalar** o'z aka qo'shilib, yangi ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalardir: *o't - o'tloq, arra - arrala, kuch - kuchli, hosil - serhosil*. So'z yasovchi qo'shimchalar unumli (-li, -la, -chi, ser-, -dosh, -kor) va unumsiz (-vul, -ag'on, -chil, -in, -a) bo'lishi mumkin.



- 2. **So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar** (ayrim darsliklarda "aloqa munosabat shakli qo'shimchalari" deyiladi) gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimchalardir. Bular 3 turli bo'ladi: 1) Kelishik qo'shimchalari: *kitobni, uyga, daftarning*. 2) Egalik qo'shimchalari: *maktabimiz, ukam, bog'i*. 3) Shaxs-son qo'shimchalari: *yedik, bordim, kelding, yurasan*.
- 3) **Shakl yasovchi qo'shimchalar** (ayrim darsliklarda "lug'aviy shakl qo'shimchalari" deyiladi) o'z aka qo'shilib, ma'noni bir oz o'zgartiradigan, qo'shimcha ma'no orttiradigan, lekin yangi so'z yasamaydigan qo'shimchalardir. Bular so'zlarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmaydi, balki ko'plik (*kitoblar*), kichraytirish (*uycha*), erkalash (*qizaloq*), chegaralash (*uygacha*), kamlik (*oqarinqiramoq*), kuchaytirish (*tepkilamoq, chayqa*), gumon (*kimdir*), daraja (*kattaroq*) kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Ot turkumi

OTLAR

Bir turdagi predmet turdosh otlarga bo'linib atab qo'yilgan nomlari deyiladi:

Atoqli otlarnimani atab qo'yilgan nomlari deyiladi:

OT SO'Z TURKUMI

Shaxs, narsa, sa'nalarni shuningdek joy ovmomini bildirib, **kim? nimni? qayer?** so'roqlariga javab bo'ladigan so'zlar ot deyiladi. Kim? so'rog'i shaxsni bildiruvchi so'zga, narsa? so'rog'i narsa-bayramni bildiruvchi so'zga, qayer? so'rog'i joy ovmoni bildiruvchi so'zga beriladi. Shunga ko'ra otlar **shaxs otlari, narsa-bayram otlari, o'rin-joy otlariga bo'linadi. Misalan: oltin, bulut, do'ppi; qiz, chad, Qo'ziyoy, qishloq, gazel, Toshkent.**

Ma'lum bir geografik hududga atab qo'yilgan nomlar joy nomlari deyiladi: Farg'ona, Xatirchi, Chorsu, Italiya, Markaziy Osiyo, O'zbekiston Respublikasi. Mamlakat va o'lka nomlari qo'shma so'z shaklida bo'lganda har bir qism bosh harf bilan yoziladi: Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Saudiya Arabistoni, O'rta Osiyo. Tarkibi turdosh otlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan joy nomlari qo'shib yoziladi: Oltiariq, Yettisuv, Oqtosh, Bildirsoy, Qizilqum, Yangiobod, Qumqo'rg'on. Tarkibida bo'yi, orti, oldi so'zlari ishtirok etgan joy nomlari qo'shib yoziladi: Orolbo'yi, Kavkazorti.

ATOQLI OTLAR TASHKILOT, KORXONA, MUASSASA NOMLARINI HAM BILDIRADI:

- **Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Oliy Majlisi, O'zbekiston Milliy universiteti, «vahan» konsert zali, «O'zbekiston» mehmonxonasi, «Sharq gullari» firmasi.**
- **xalqaro tashkilot va oliy davlat tashkilotlari va mansablarining nomlari tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, vazirlar Mahkaması, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi;**
- **vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi: Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Quvasoy tsement zavodi;**
- **turli korxonalar, mahsulotlar, inshootlarga berilgan shartli nomlar qo'shimcha ichida bosh harf bilan yoki birinchi qismi bosh harf bilan beriladi: «Istiqlol» saroyi, «Umid gulshani» oromgohi.**

Turdosh otlar bir turdagi shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlardir. Turdosh otlar quyidagi ma'naviy guruhlarga bo'linadi:

- * **Shaxs otlari** – kim? so'rog'iga javob bo'lib, shaxslarni yoshiga, yashash joyiga, mansabiga, ijtimoiy holatiga, nasl-nasabiga qarindoshlik darajasiga ko'ra nomlab keladi. Masalan: *yigit, qiz, ayol, erkak* – jins jihatdan; *amma, xola, tog'a, amaki* - qarindoshlik darajasiga ko'ra; *leytenant, dotsent, polkovnik* – unvoni jihatdan; *tikuvchi, oshpaz, sartarosh* – kasb-koriga ko'ra; *chol, kampir, bola* – yoshiga ko'ra; *mahalladosh, qishloqdosh* – yashash joyiga nisbatan nomlangan.
- * Shaxs otlari yasama otlar ham bo'lishi mumkin. Ular shaxs oti yasovchi qo'shimchalar yordamida yasaladi: *sinfadosh, suvchi, dorboz, soatsoz, kitobxon* kabi.
- * -lik qo'shimchasi o'rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo'shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi, Atoqli otlarga qo'shilgan -lik qo'shimchasi atoqli otini turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi: *andijonlik, qishloqlik, amerikalik*.

Sifat soʻz turkumi

MAVZU: SIFAT SOʻZ TURKUMI

- Otga bogʻlanib uning belgisini bildiradigan va qanday? qanaqa? soʻroqlariga javob boʻladigan soʻzlarga sifat deyiladi. Masalan: goʻzal, baland, xushboʻy, kemtik. Sifat gapda asosan sifatlovchi-aniqlovchi, kesim vazifasida keladi: *Yonbagʻirlar koʻm-koʻk. baqqol amaki pakana, yuzi katta iyagi kalta odam. U juda sergap.*

ASLIY VA NISBIY SIFATLAR

- Belgini toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalaydigan va uni darajalab koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻlgan sifatlar asliy sifatlar deyiladi: goʻzal, suvli, achchiq, aqlli, yuzaki.



Nisbiy sifatlar



o Nisbiy sifatlar belgini to`g`ridan-to`g`ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlagan holda ifodalaydigan va daraja ko`rsatish imkoniyatiga ega bo`lmagan



sifatlardir: yozgi, yig`ma, derazali, devoriy, g`ishtin.



Tarqatma materiallar, mustaqil ta'lim uchun materiallar

Amaliy mashg'ulotlar uchun tarqatma material

**So‘z yasovchi, lugaviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi
qo‘shimchalar
1-kartochka**

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi so‘z yasovchi, lugaviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.

Mehrjon bilan Navro‘z **o‘zbeklarning** eng go‘zal, eng **tarovatli** bayram sayillaridan hisoblanadi. Chunki ular **xalqchil, hayotiy an‘analardir.**

2-kartochka

Ot, sifat, son, fe‘l turkumiga doir lugaviy shakl yasovchi qo‘shimchalarni guruhlab yozing va quyida berilgan so‘zlarga qo‘shib ayting.

-cha, -ta, -tir, -jon, -inchi, -lar, -ib, -tacha, -in, -roq, -gani, -xon, -ish, -larcha.
O‘rdak, shirin, to‘rt, ber.

3-kartochka

Berilgan so‘zlarni o‘zak va qo‘shimchaga ajrating. O‘zak va yasama so‘zning ma‘no-sini qiyoslab, qo‘shimchanining o‘zak ma‘nosiga qanday ta‘sir qilayotganini tushuntiring.

Sayohatchi, guldon, tilshunos, davlatmand, suvli, sergap, bebaho, holvapaz, soatsoz, jurnalxon, anorzor, boylik, chrgarachi, ta‘kidlamoq, saxovatli, paxtazor,

4-kartochka

Gaplarni nuqtalar o‘rniga zarur qo‘shimchani qo‘yib yozing. qo‘ygan qo‘shimchala-ringizning vazifasini tushuntiring.

Ozod bilan Nosir... ko‘ngl...ni vahima xuddi oqshom g‘ira-shirasi kabi bosib kela boshla... .

Qo‘shimchalarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari

1-kartochka

Berilgan so‘zlardan -li, -dor, ser-, ba-; -siz, no-, be-; -soz, -chi; -chi, -shunos qo‘shimchani yordamida yangi so‘z hosil qiling. Bu qo‘shimchalar orasidagi ma‘no munosabatini izohlang.

Davlat, shira, suv, ma‘no, odob; aql, o‘rin, iloj, to‘g‘ri, odob; soat, ara-va; adabiyot, tarix, baliq

2-kartochka

Berilgan soʻzlardagi soʻz yasovchi qoʻshimchalarni aniqlang. Bu qoʻshimchalar orasidagi maʼno munosabatini tushuntiring.

Baxtli, baxtsiz, insofli, insofsiz, qurolli, qurolsiz, yogʻli, yogʻsiz; odobli, beodob, iboli, beibo, suvsiz, besuv, mulohazali, bemulohaza, fayzli, befayz, mehrli, bemehr, quvvatli, bequvvat.

3-kartochka

Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni maʼnoli qismlarga ajrating va shakldosh qoʻshimchalarni aniqlang.

1. Tilma zovurdan chiqib, tuproq uyumidan sakrab oʻtgan Alijon **qaytarma** etigiga yopishgan tuproqni jahl bilan qoqdi. (*H. Nuʼmon*)
2. Ga-pirilgan gaplarni **qaytarmang-da**, hatto oʻzingiz aytgan gaplarni takrorlayo-tirsiz!

Soʻz yasalishi. Soʻz turkumlarida soʻz yasalishi.

1-kartochka

Berilgan soʻzlarni tub va yasama soʻzlarga ajrating. Yasama soʻzlarning yasalish usulini tushuntiring.

Hurlik, mustaqillik, boy, tarix, umumxalq, madaniyat, mukammal, sport, mehmondoʻst, soy, hovliqma, beshiktartar, yoshlik, toshkoʻmir, topqir, oshqovoq, savdogar, kamaymoq, kamhosil, mehnatkash, fojiali

2-kartochka

Gaplardan affiksatsiya usuli bilan yasalgan soʻzlarni topib, namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: *mustaqillik* – sodda yasama soʻz, affiksatsiya usuli bilan yasalgan, yasalish asosi **mustaqil**, yasovchi qoʻshimcha **-lik**, sifatdan ot yasalgan.

1991-yil 31-avgust Oʻzbekistonimiz uchun asrga tatigulik kun boʻldi. Shu kundan boshlab Oʻzbekiston zaminida mardona “mustaqillik” soʻzi tilimizga koʻchdi, ongimiz, tilimizdagi qulf sharaqlab ochilib ketdi.

3-kartochka

Berilgan soʻzlar ichidan oʻzakdosh soʻzlarni topib, guruhlab yozing. Oʻzagini koʻrsating.

Tekis, uzumzor, tekisla, tekisroq, uzumchilik, uzumni, toza, aybli, bosh, tozala, aybsiz, suvsiz, suvlar, tozalik, aybdor, aybni, suvchi, suvi, suv, boshla, qora, yozuvchi, bosh, suvchilik, boshliq, yoz, sez, sezgi, qovur, sezilarli, qovurdoq, tekislik, sezgir.

4-kartochka

quyidagi soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshish orqali yangi soʻzlar hosil qiling.

Til, soʻz, shamol, gup, haq, arra, ye, tayyor, chroy, vatan, dars, loy, dori, yer, ijod, yon (harakat), paxta, baliq, joy, jon, zaif, zamon, zor, zot, xabar, ilm, yalt, inson, itoat, ish, yirt, yoʻl, yoʻq, kam, katta, kes, kerak.

5-kartochka

Berilgan qoʻshimchalarni ot yasovchi, sifat yasovchi, fel yasovchi va ravish yasovchi qoʻshimchalarga ajratib yozing va har bir qoʻshimcha yordamida soʻz hosil qiling.

-la, -chi, -ona, -simon, -dosh, -chan, -illa, -li, -larcha, -shunos, be-, no-, -ay, -i, -sira, -soz, -lik, -iy, -zor, -lab, -uvchi, -boz, -chasiga, -mand, -gi, -ma, -cha, -an.

Soʻz turkumlari

1-kartochka

Berilgan soʻzlarni mustaqil, yordamchi va boʻsh-ishora maʼnoli soʻzlarga ajratib yozing.

Anjir, bilan semiz, oʻn, arralamoq, piyola, va, u, mardlarcha, oʻsha, chunki, oliy, fa-qat, kulmoq, poyezd, biz, kuchli, uchun, besh, ammo, hayajon, taxminan, sari, hamma, oltin, notoʻgʻri, kabi, shuning uchun.

2-kartochka

Berilgan soʻzlarni qaysi soʻroqqa javob boʻlishiga koʻra jadvalga joylashtiring.

Paxta, sezgir, tasodifan, kumush, ber, bulbul, olti, kel, qoʻqqisdan, suvsimon, choy, anʼanaviy, mos, paxtakor, birdan, bil, talaba, oshpaz, dumaloq, gulli, astronom, maqol, bosh, tez, avayla, Nozima, shaftoli, qalin, taxminan, taxminiy, yur, butunlay, mangu.

Kim?	Nima?	Qanday?	Necha?	Qay tarzda?	Nima qilmoq?

Ot turkumi

1-kartochka

Matnni o'qing. Ot turkumidagi so'zlarni aniqlab qanday ma'noni ifodalashini tushun-tiring. Har bir otga so'roq bering.

Kuz. Yakshanba kuni edi. Uchinchi sinf o'quvchilari olmazorga borishdi. Olmazor yonidagi tokzorda Qudrat aka toklarni chilpib yurgan ekan. "Kelinglar!" deb bolalarni xursand kutib oldi. Bolalar odob bilan otaga salom berishdi.

– Yashanglar, azamatlar, yashanglar. Olmalarga qaranglar, tagi bitta bo'lib to'kilib yotibdi.

Bolalar otaning gapiga darrov tushunishdi. Ular qo'llariga bittadan savatcha olishdi-da, olma terishga tushib ketishdi.

2-kartochka

Berilgan otlarni bir turdagi shaxs, joy, narsaning umumiy nomini yoki bir turdagi shaxs, joy, narsaning bittasini bildirishiga ko'ra ikki guruhga ajratib yozing.

Buxoro, qishloq, shahar, daryo, "Tafakkur", bulbul, jurnal, Nozima, "Navoiy", Amudaryo, qiz, O'zbekiston, bayram, mamlakat, Navro'z, televizor, "Samsung", "O'tgan kunlar", ot, roman, Boychibor, qalam, ig-na, gul, suv, qo'ng'iz, oltin.

3-kartochka

Berilgan atoqli otlarni quyidagi guruhlarga ajratib yozing: 1) kishi nomi, 2) hayvon nomi, 3) joy nomi, 4) tashkilot nomi, 5) osmon jismi nomi, 6) gazeta, jurnal, darslik, asar nomi, 7) tarixiy sana va bayram nomi, 8) suv havzasi nomi.

O'tkir, Mosh, Kattaqo'rg'on, Amudaryo, Buxoro davlat universiteti, Mars, Osiyo, Boltiqbo'yi, Chimkent, Qizilqum, Olapar, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Misr Arab Respublikasi, Saturn, Somon yo'li, "Ma'rifat", "Boshlang'ich ta'lim", Kumush, Ramazon, Loy jangi, Kas-piy, "Ona tili", "O'qish kitobi", "Kecha va kunduz", Baroq, Tyanshan, Mustaqillik kuni, Bobur, Tojiyev, Sog'liqni saqlash vazirligi, "Yoshlik", Pomir, Baykal, Sangardak, Zarafshon, Venera, Qibray, Bo'ynoq, Amu-Buxoro kanali, Chorvoq suv ombori.

4-kartochka

Berilgan otlarni aniq va mavhum otlarga ajrating. Aniq va mavhum otlarga -lar qo‘shimchasini qo‘shib ko‘ring va ma‘nosini izohlang.

Qalam, fikr, orzu, boychechak, ukki, suv, ma‘no, alam, shahar, tok, terak, kuch, quvvat, loqaydlik, niyat, varrak, daryo, mehr, vafo, miltiq, qanoat, himoya, saxovat, tulki, tulkilik, mohiyat, tafakkur, ko‘ngil, g‘or, muvaffaqiyat, shaftoli, uzuk, shubha, g‘amxo‘rlik, shafqat.

5-kartochka

Berilgan otlarni yakka va jamlovchi otlarga ajratib yozing.

Qalam, barg, xalq, guruh, baliq, to‘da, qo‘y, tosh, echki, poda, daryo, olomon, armiya, jurnal, omma, qo‘shin, bo‘linma, o‘rdak, gala, to‘plam, el, uyum, mashina, karvon, daraxt, g‘oz, uyur, jamoa, komanda, ot, so‘z, suruv, dasta, o‘rik, turkum, roman, toifa, qo‘ng‘iz, ohu, koptok.

Otning son kategoriyasi

1-kartochka

Gaplarni o‘qing. Tub va -lar shaklidagi otlarni topib, birlik, ko‘plik yoki umumiylik ma‘nosini ifodalayotganini ayting.

1. Tom orqasida xo‘roz qanot qoqib qichqirdi. 2. Tepalikning kungay tomonida chuch-momalar yerni yorib chiqa boshlagan, havo ham xiyla ayoz bir palla edi. 3. Odobli bola elga manzur. 4. Inson avvalo mehnat bilan sharaf qozonadi. 5. Bobojon, bog‘imizda o‘rik ko‘p-ku, endi qolganini ekmay qo‘ya qolaylik, qishloqqa qaytgim kelyapti, enamni sog‘indim. 6. Bir vaqt yo‘lni changitib, qatoriga uch mashina keldi.

2-kartochka

Gaplarni o‘qing. Tub shakl qanday vositalar yordamida birlik yoki ko‘plik ma‘nosini ifodalayotganini izohlang.

1. Domla ichkariga kirib ketdi-da, birozdan keyin qo‘lida bitta katta **pichoq**, bir **bolta** va biroz chiyratma arqon bilan to‘ppa-to‘g‘ri mening oldimga keldi. 2. – Kel endi, mana bu **ko‘chatni** ushlab tur, – deydi ba‘zan bobom. 3. Bir **kishi** ekkandan ming **kishi** bahra olar ekan. 4. **Toy** yo‘rg‘alab ketdi. 5. Ammo o‘rdak tomdan tushmay, tumshug‘idagi bir hovuch **gavharni** tashlabdi-yu, uchib ketibdi. 6. Bir **odam** ariq qaziydi, ko‘p **odam** suv ichadi. 7. **Odam** yig‘ildi.

3-kartochka

Matndan ko'plik ma'nosini ifodalagan birlik shaklidagi otlarni toping. Bu otlar ko'plik ma'nosini qanday vosita yordamida ifodalaganini izohlang.

Atrof yam-yashil. Tabiatning sehri bilan olamdagi bor rang Navoshox soyining ikki betiga sepib yuborilganday. Pichan tizzadan keladi. Oppoq ochilgan gulxayri salobatli archalarga bosh uradi. Yakka-dukka sershox, sap-sariq qavraygul, bargsiz, yalang'och, havorang gulli sachratqi. Soy ichiga dalarayhon hidi qamalib qolgan – hamma yoq muattar. Tevarak-atrof tabiiy chamanzor. Ming bir xil rang tovlanadi. Qadam qo'ysang gulni bosasan.

Egalik kategoriyasi

1-kartochka

Gaplarni o'qing. Egalik qo'shimchasini olgan otlarni aniqlab, qo'-shimchani shaxsi va sonini ayting.

1. Akam chayla yoniga yetganimizda aravani to'xtatib, eshak ustidan pastga irg'idi.
2. – Ha, xizmatning boshingni yesin! – dedi domla.
3. Tog'asi Yolqinjonni uzumzorga olib bordi.
4. Shokir ota va uning kampiri qizning ko'nglini ko'tarishga tirishadilar.
5. Yo'lovchi.. yoshlarni birma-bir nazaridan o'tkazarkan, atrofga alanglab so'radi: – Idoralarigiz qayerda, yigitlar?
6. Kuz kelganda uyimizda to'y bo'ladi,
Qo'zichog'im o'sib katta qo'y bo'ladi.

2-kartochka

Aka va daftarso'zlarini egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda o'zgartiring. Unli va undosh tovush bilan tugagan otlarga qanday egalik qo'shim-chasi qo'shilishini ayting.

3-kartochka

Quyidagi so'zlariga I, II, III shaxs egalik qo'shimchalarini qo'shib yozing. Yozgan so'zlaringizning imlosini qoida asosida tushuntiring.

Parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo.

Kelishik kategoriyasi

1-kartochka

Gaplarni nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchasini qo'yib o'qing. Shu asosda kelishik qo'shimchalarining vazifasini tushuntiring.

Tug'ilib o'sgan qishlog'im... borib, qarindosh-urug'lar huzuri... bir necha kun mehmon... bo'ldim. Tengqurlarim, yoshlar davrasi... ishtirok etib, goh qizg'in

suhbatlar... qo‘shildim, goh aytilayotgan fikrlar... “mazasi...” shimayotganday jimgina o‘tirdim. Yoshlar orasi... ko‘proq bo‘ldim desam ham bo‘ladi, ular... beg‘ubor suhbatini yoqtiraman. Bir galgi suhbat... yigitchalar... biri: “Amaki, o‘rik... yeng, og‘zingiz... erib ketadi. “Qoraqandak” deyishadi bu nav..., Erkachol... o‘rigi...” – deb qoldi. Yuragim hapriqib ketdi.

2-kartochka

Ajratib ko‘rsatilgan otlarning kelishik shakli va gapdagi vazifasini izohlang.

1. **Juvon** dasturxonga uchta arpa non, ikki-uch hovuch o‘rik tashladi. 2. Xafa bo‘lmasin-u, **ukam**, men sendan bunaqa quvlik chiqadi, deb hech o‘ylamagandim. 3. Bodring – issiqsevar, yorug‘sevar va namga talabchan **o‘simlik**. 4. **Hindistonning** ajoyib, rang-barang go‘zal gullari sekin barq urib o‘sar edi. 5. Ahmad **sunbulani** – yozning adog‘i, kuzning boshlanishini yaxshi ko‘rardi.

3-kartochka

Gaplarni o‘qing. Belgili va belgisiz shaklda qo‘llangan qaratqich va tushum kelishigi-dagi otlarni ular tobe bo‘lgan hokim so‘z bilan birga ko‘chiring va ularning ba‘zan kelishik qo‘shimchasi bilan, ba‘zan esa kelishik qo‘shimchasisiz qo‘llanganini izohlang.

1. O‘zbekistonda ekiladigan qovun navlari to‘rt botanik turga mansub: handalak, amiri, kassaba va zard. 2. Bizda, ekiladigan qovunning eng yaxshi, shirin «oq novvot», «shakarpalak», «qo‘ybosh» kabi jaydari navlari yetishtiriladi. 3. Qovun yesang – sahar e, sahar emasang – zahar ye. 8. Eson bobo paykalni oralab, dumaloq, sariq, qoramtir xoli bor qovunni ko‘tarib chiqdi.

Sifat turkumi

1-kartochka

Gaplarni o‘qing. Sifatlarni aniqlab, so‘rog‘i, qanday so‘zga bog‘lanishi va gapdagi vazifasini izohlang.

1. Biz yashayotgan go‘zal va bepoyon mamlakat O‘zbekiston deb ataladi tushmoqda. 2. Butun bir institutda undan chiroyli qiz yo‘q edi. 3. Qiz nihoyatda chiroyli edi. 4. Bu hazildan faqat Risolat kuldi. Dangal va chiroyli kular edi.

2-kartochka

Berilgan otlarga qavs ichidagi sifatlardan mosini bog‘lab, birikma tuzing.

(Muloyim, yumshoq) shavla, (qiziq, qiziqarli) odat, (sirli, sehrlil) jum-boq, (jajji, mitti) soat, (jajji, mitti) bola, (g‘adir-budur, o‘nqir-cho‘nqir) tosh, (qaynoq,

qizg'in) suhbat, (zarur, muhim) kitob, (qiyin, murakkab) qurilma, (zararli, ziyonli) hasharot, (nurli, yorug') xona, (qudratli, kuchli) kran, (an'anaviy, odatdagi) bayram, (an'anaviy, odatdagi) ish.

Son

1-kartochka

Dona son ishtirok etgan gap qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Bu sinfda yigirma beshta o'quvchi ta'lim oladi.
- B) Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi.
- C) Shahrimizda o'nlab teatrlar bor.
- D) Ikkovimiz ham pastga tushdik.

2-kartochka

Gaplarni o'qing. Bir so'zining ma'nolarini aniqlang.

1. Deraza va eshikli, tagi taxtaband, usti tunukali ikki uy, bir oshxona, bir og'ilxona va bir xashakxona – tamom! 2. Bir vaqtlar bu uyga onasi bilan mehmon bo'lib kelgan bir tatar qizi ruscha bir axloqiy romanni unutib qoldirgan. 3. Jonzotlar ichida birgina odamzotga aql ato etib, yuragiga diyonatni joylabdi 4. Mashina bir baland tepaning orqasiga o'tib to'xtadi. 5. Kumush boshqalar bilan bir-bir ko'rishib chiqdi. 6. Ular uchun akademik ham bir, ko'chada yotgan alkash ham bir. 7. Mana bukun quling o'rgilsin bir xiyobonki, ko'lankasida yastanging keladi.

3-kartochka

O'qing. Sonlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring va ma'no jihatdan turini ayting.

1. Quyoshga ters bir hujrada to'rt kishi g'uj bo'lib, odatdagicha gurunglashib o'tirishar edi. 2. U ikki qo'lida uchmadan oltita choynak ko'tarib, hovuz bo'yidagi choyxo'rlar oldiga ketayotgan Sidiqjonni ko'rib, xuddi ko'ziga ishonmaganday, turib qoldi. 3. Oqburasoy bo'ylarida ham, Chilmahram tog'ining etaklaridagi ko'kalamzor-larda ham yuzlab chodirlar va o'tovlar paydo bo'ldi. 4. Sidiqjon yuzlarcha kishi og'zi-ga qarab turgan majlisni ko'z oldiga keltirib, juda katta tashvishga qoldi-yu, dami ichiga tushib ketdi. 9. Ikkala ot bir qiyosda baravar qadam tashlab borar edi.

Fe'l so'z turkumi. Nisbat kategoriyasi

1-kartochka

Berilgan fe'llarni quyidagi ma'no turlariga ajratib yozing: 1) harakat fe'llari, 2) nutq fe'llari, 3) holat fe'llari, 4) natijali faoliyat fe'llari, 5) tafakkur fe'llari, 6) munosabat fe'llari.

Yurmoq, fikrlamoq, yozmoq, holsizlanmoq, yasamoq, o‘ylamoq, yo‘rg‘alamoq, pildiramoq, sayqal bermoq, lapanglamoq, tepmoq, toptamoq, chizmoq, depsinmoq, so‘zlammoq, tisarilmoq, solmoq, ushlamoq, tirnamoq, tubanlashmoq, e‘zozlammoq, arralammoq, chimchilamoq, erkalammoq, uqalammoq, qitiqlamoq, mushtlammoq, chertmoq, gapirmoq, yaxshi ko‘rmoq, randalammoq, esankirammoq, aytmoq, demoq, eslash, unutish, yodlash, xafa bo‘lmoq, shodlanmoq, xayol surmoq, dovdiramoq, g‘azablanmoq, kuchlanmoq, zaiflashmoq, boyimoq, kambag‘allashmoq, qurmoq, bunyod etmoq, hosil bo‘lmoq, barpo qilmoq, silamoq, parchalammoq, sindirmoq, o‘chirmoq, tafakkur qilmoq, suymoq, maftun bo‘lmoq.

2-kartochka

Berilgan fe‘llarni o‘timli va o‘timsizga ajratib yozing. O‘timli fe‘llarni tushum kelishigidagi so‘z bilan bog‘lab so‘z birikmasi tuzing.

Arralammoq, uyalmoq, kesmoq, qurimoq, qurmoq, qizarmoq, kelmoq, olmoq, shamollamoq, o‘qimoq, eshitmoq, ketmoq, yurmoq, qizimoq, turmoq, termmoq, tortmoq, bo‘yamoq, uchmoq, qiyshaymoq, kulmoq, ichmoq.

3-kartochka

Qaysi gapda orttirma nisbat shaklidagi fe‘l qo‘llangan?

- A. Yo‘lga chiqqan bahodirga otaqonasi yoki suyuklisi non tishlatgan
- B. Bolalar kitob, jurnal, gazetalar o‘qigani tezqtez keladigan bo‘ldilar
- C. Bolaga insqjins ziyon yetkazmasin deb, ona o‘z go‘dagi yostig‘i ostiga non qo‘ygan.
- D. A va S

4-kartochka

Bir kuni chol bechora qo‘li titrab, osh suzib berilgan kosasini tushirib sindirdi. Ushbu gapda qaysi nisbatdagi fe‘llar qo‘llanilgan?

- A. o‘zlik, majhul, orttirma nisbatlar
- B. aniq, majhul, orttirma nisbatlar
- C. orttirma, birgalik, aniq nisbatlar
- D. majhul, birgalik, aniq nisbatlar

5-kartochka

Qaysi gapda o‘zlik nisbat shaklidagi gap berilgan?

- A. Ammo kampirning dodiga odam tez to‘plandi
- B. Belbog‘imga bitta kulcha tugilgan
- C. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko‘chirdi

D. Yo'lga chiqqan bahodirga otaqonasi yoki suyuklisi non tishlatgan.

6-kartochka

1.*Gul ochildi.*2.*Yig'ilish ochildi.* Ushbu gaplardagi fe'llarning nisbatini aniqlang.

A.1-gapda o'zlik nisbat,2-gapda majhul nisbat

B.1-gapda majhul nisbat,2-gapda o'zlik nisbat

C.1-gapda aniq nisbat,2-gapda majhul nisbat

D. Har ikkala gapda majhul nisbat

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**BOSHLANG`ICH VA MAKTABGACHA TA`LIM
USLUBIYOTI KAFEDRASI**

Ona tili va adabiyot
fanining
adabiyot qismi bo`yicha

Test topshiriqlari

1. O'zbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirgan asosiy omillar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) XX asr boshlaridagi "usuli savtiya" maktablari o'quvchilariga mo'ljallangan alifbo va o'qish kitoblari (majmualar) maydonga kelib, ularga tom ma'nodagi o'zbek bolalar adabiyotining tug'ilishi deb qarash mumkin.

B) XX asrdagi maktab darsliklari birinchi marta bola dunyoqarashi, qiziqishlari, tafakkur olami hamda yosh xususiyatlariga muvofiq yozilgan; ulardagi badiiy ijod namunalari ham kichkintoylar tasavvuriga yaqin bo'lgan.

D) Turkistonda jadidchilik harakatining ommaviylashuvi bolalar adabiyotining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

E) barcha javoblar to'g'ri.

2. XX asr boshlaridagi o'zbek ma'rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandasi, Toshkentdagi "usuli savtiya" maktablarining asoschilaridan biri, o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga samarali hissa qo'shgan shoir qaysi javobda keltirilgan?

A) Hamza Hakimzoda Niyoziy;

B) Abdulla Avloniy;

D) Sadridin Ayniy;

E) Mahmudxo'ja Behbudiy.

3. "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli to'rt qismdan iborat to'plami muallifi va uning darsliklari qaysi javobda ko'rsatilgan.

A) Hamza, "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar", "Yengil adabiyot";

B) Ayniy, "Tahzibus sibyon", "Qiz bola yoki Xolida";

D) Abdulla Avloniy, "Birinchi muallim" "Ikkinchi muallim";

E) Abdurauf Fitrat, "O'qu".

4. Firdavsi jinon maktab, nodonlarga jon maktab,

Bilgan kishiga qadrin, bir dorulomon maktab Ushbu misralar bilan boshlanuvchi she'r va to'plam nomi hamda muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?

A) "Yengil adabiyot", "Maktab", Hamza

B) "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab", Abdulla Avloniy;

D) "Maktab guliston" kitobidagi "Maktab", A. Avloniy.

E) "Tahsibus sibyon", "Maktab";

1. Ma'rifatparvar adib Hamzaning bolalar uchun tashkil qilgan maktabi, darsliklari qaysi qatorda to'-ri ko'rsatilgan?

A) Yetimlar maktabi, "Tarbiyat ut atfol", "Maktab gulistoni";

B) "Dorulyatim", "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi";

D) Mardikorlar maktabi, "Uchinchi muallim", "Yengil adabiyot";

E) Ishchilar maktabi, "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar".

2. "Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" hikoyasi qaysi ma'rifatchi adib qalamiga mansub?

A) Hamza;

B) Ayniy;

D) Avloniy;

E) Elbek.

3. "Tahzib us-sibyon" darsligi muallifi va nashr etilgan yili to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A) Ayniy, 1930 yil;

B) Hamza, 1910 yil;

D) Ayniy, 1910 yilda;

E) Avloniy, 1913 yil.

4. Ayniyning 1920-yillarda nashr etgan asari nomi va uning yo'nalishi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

A) "Alifbo", husnixatni o'rganishga;

- B) “Qiz bola yoki Xolida” qissasi, qizlar maktabiga mo’ljallangan;
- D) “Tarbiyali bola”, axloq-odob o’rganishga;
- E) “Odobli bola”, odob o’rganishga.

5. Ustod Ayniyning maktab va tarbiya mavzu ilgari surilgan asarlari qaysi javobda to’g’ri.

- A) “Qullar”, “Doxunda”, “Sudxo’rning o’limi”;
- B) “Odina”, “Buxoro inqilobi tarixi”;
- D) “Guli surx”, “Kulliyot”;
- E) “Eski maktab”, “Yetim”, “Esdaliklar”.

1. Hamid Olimjonning bolalar va o’smirlar kitobxonligiga daxldor asarlari mundarijasini aniqlang;

- A) “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg` ” ertak dostoni;
- B) “ Hulkarning she’ri”, “Samolyot”, “Lola”, “Vatan”, Ona va o’g’il she’rlari;
- D) “Jangchi Tursun”, “Zafar dostoni”;
- E) barcha javob to’g’ri

2. Hamid Olimjon xalq og’zaki ijodi ta’sirida qaysi dostonlarni yaratdi?

- A) “Jangchi Tursun”, “Semurg`”;
- B) “Oygul bilan Baxtiyor”;
- D) “Semurg` yoki Parizod va Bunyod”;
- E) B va D javoblar.

3. H.Olimjon “Oygul va Baxtiyor”ni xalq og’zaki ijodidagi qaysi ertak asosida yozgan?

- A) “Malikai Husnobod”;
- B) “Malikai Turandot”;
- D) “Gulqahqah”;
- E) “Uchar gilam”;

4. “Oygul va Baxtiyor” ertak dostonidagi Darxon kim va u nima uchun isyon ko’taradi?

- A) Oygulning otasi, ozodlik uchun jabr –zulmga qarshi ozodlik uchun kurash olib brogan isyonchilarning boshlig’i;
- B) Jambil xonining zolimligini fosh etib, ozodlik yo`lida qurbon bo`lgan mehnatkash xalq vakili;
- D) Jambil elining xoni;
- E) A va B javoblar.

5. Do’stlar mening yurtimni,
O`zbekiston deydilar.
Dong`i tutgan dunyoni

Bog`u bo`ston deydilar. **Ushbu misralar muallifi kim?**

- A) Hamid Olimjon;
- B) Zafar Diyor;
- D) Q.Muhammadiy;
- E) Q.Hikmat.

1. «Bolalar adabiyoti» istilohi dastlab qachon va qayerda qo`llanilgan?

- A) eng qadimgi davrlarda, xalq ijodida;
- B) o`rta asrlarda, yozma adabiyotda;
- D) XX asrning 20-yillarida, davriy matbuot maqolalarida;
- E) mustaqillik yillarida, tadqiqotchilar ishida.

2. O`zbek bolalar adabiyotining fan sifatida takomillashuvi va unga doir darsliklarning chop qilinishi to`g`ri qayd etilgan javobni aniqlang?

- A) XX asrning o`rtalari, 1953, 1967, 1973, 1976,1978, 1981,1989;
- B) XX asr boshlari.1905,1910,1937,1953,1981,1989;
- D) XIX asr oxiri.1889,1898,1900,1913,1917.
- E) to`g`ri javob yo`q.

3.O'zbek bolalar adabiyotining paydo bo'lish omillari qaysi javobda bosqichma-bosqich to'g'ri ifodalangan?

A) folklor, jahon adabiyoti, rus adabiyoti, mumtoz adabiyot, jadid adabiyoti,mustaqillik davri adabiyoti;

B) ijtimoiy voqelik, xalq og'zaki badiiy ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti,yangi realistik o'zbek adabiyoti, jahon va rus xalqlari bolalar adabiyotini o'rganish va o'zlashtirish, ilk maktab darsliklari;

D) yozma yodgorliklar,xalq og'zaki ijodi, sho'ro davri mafkurasi, mustaqillik davri adabiyoti;

E) barcha javoblar to'g'ri.

4. Bolalar kitobxonligi haqidagi tushuncha qaysi javobda batafsilroq qayd etilgan?

A) umuman, kitob o'qish hodisasi, kattalar didi, hayotiy tajribasi dunyoqarashiga mos holda yaratilib, bolalarning ham o'qish doirasida amal qilgan hammmabop badiiy - ilmiy hamda professional bolalar adabiyoti;

B) bolalarning o'zlari tomonidan ijod etilgan adabiyot namunalari;

D) kattalar uchungina daxldor badiiy adabiyot;

E) faqat bolalarga ixtisoslashgan, ulargagina mo'ljallangan adabiyot namunalari.

5. Bolalar kitobxonligi va adabiyoti orasidagi tafovut qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) bolalar kitobxonligi og'zaki, adabiyoti esa yozma shaklda bo'lishi;

B) bolalar kitobxonligi kattalarga, adabiyoti bolalargagina mo'ljallanganligi;

D) bolalar kitobxonligida didaktikaning ustivorligi, adabiyotida esa uning ko'zga tashlanmasligi;

E) bolalar kitobxonligi ijtimoiy-estetik hodisa sanalib, unda mantiqiy tafakkurning ustivorligi, bolalar adabiyotida esa obrazli badiiy tafakkur amal qilib, adabiy-estetik hodisa hisoblanishi.

6.«..boshdan-oxirigacha pand-nasihati asosida bitilgan asarlar bolalarni kichkina keksalarga aylantirib qo'yadi, bu ularni mustaqil fikrlash, tashabbuskor bo'lishlari va ijodkorliklariga salbiy ta'sir qiladi,» -degan fikrni qaysi munaqqid ilgari surgan?

A) V.G.Belinskiy;

B) N.L.Chernishevkiy;

D) N.A. Dobrolyubov;

E) P.Shermuhammedov.

7. Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi yagona vosita qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) yozuv;

B) so'z ;

D) til;

E) tovushlar.

8. «Bolalar adabiyoti bu..» ushbu mulohaza qaysi javobda to'g'ri davom ettirilgan ?

A) bolalarning o'zlari o'qishlari mumkin bo'lgan adabiyot;

B) ota-onalar o'qishiga mo'ljallangan adabiyot;

D) sodda mazmunga ega rasmiy kitoblar majmui;

E) bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra ularga ixtisoslashgan professional badiiy adabiyot namunalari;

9. Bolalar adabiyoti fanining ob'ekti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) bolalar va o'smirlar uchun yozilgan yuksak saviyadagi badiiy asarlar va adiblar ijodi;

V) maktab darsliklari;

B) bolalar matbuoti;

E) kichkintoylar psixologiyasi.

10.Bolalar badiiy adabiyotining umumbadiiy adabiyot bilan munosabati qaysi javobda o'z ifodasini topgan?

A) ular bir-biri bilan mutlaqo bog'liq emas, har biri alohida hodisa;

B) ularning har ikkalasi bir hodisa, alohida xususiyatlari yo'q;

D) bolalar adabiyoti umumbadiiy adabiyotning ajralmas tarkibiy qismi;

E) to'g'ri javob yo'q.

11. Bolalar adabiyotining umumbadiiy adabiyot bilan mushtarak xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?

A) so'z san'ati;

B) adabiy tur va janrlarning amal qilishi;

D) xalqchilik, haqqoniylik prinsiplarining mavjudligi, yuksak badiiylik;

E) barcha javoblar to'g'ri.

12. Bolalar badiiy adabiyotining umumbadiiy adabiyotdan tafovuti to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?

A) narsa va hodisalarga bolalar ko'zi bilan qaray bilish;

B) voqelikni bolalarcha idrok eta olish;

D) ularga bolalarcha munosabat ko'rsatish, hayratlanish;

E) barcha javoblar to'g'ri.

13. «..bolalarni ertaklarning fabulasi hammadan ko'proq qiziqтира, kattalar uchun ularga singdirilgan g'oya muhimdir». Ushbu mulohaza muallifi hamda u qanday munosabat bilan aytilganligi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) A.P.Chexov. «Uyda» hikoyasining qahramoni misolida;

B) K.I.Chukovskiy. «Ikkidan beshgacha» asarida;

D) V.G.Belinskiy, rus bolalar adabiyoti namunalarini kuzatishi munosabati bilan;

E) X.K.Andersen, bolalar adabiyotining ikki yo'nalishligini asoslash munosabati bilan.

14. Bolalar adabiyotida tasvirning o'ziga xos xususiyatlari qaysi javobda to'g'ri qayd etilgan?

A) badiiy obraz, voqelikning aniq va ko'rimlilik;

B) lirik va komik maylning kuchlilik;

D) tilning aniq va ravonligi, emotsionalligi;

E) barcha javoblar to'g'ri.

15. «Bolalar bizning ustozimiz». Bu e'tirof muallifi va uning asari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?

A) A.P.Chexov, «Uyda» hikoyasi;

B) A.Obidjon, «Dahshatli Meshpolvon»;

D) X.To'xtaboev, «Sariq devni minib»;

E) K.I.Chukovskiy, «Ikkidan beshgacha».

17. Milt etib chiqdi quyosh,

Dedi:-Do'stlar qish odosh. - Bu satrlar muallifi, unda tasvirning qaysi xususiyati hamda qaysi yoshdagi bolalarga mo'ljallab yozilganligi to'g'ri ifodalangan javobni aniqlang?

A) A.Obidjon, lirik mayl ustunligi, 5-6 yoshdagi bolalarga mo'ljallangan;

B) G'.G'ulom, komik maylning ustunligi, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga mo'ljallangan;

D) Q.Muhammadiy, badiiy obrazning ko'rimlilik, 7-12 yoshdagi bolalarga mo'ljallangan;

E) Sh.Sa'dulla, tilning aniqligi, tushunarlilik, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga mo'ljallangan.

17. Bolalar kitobchiligi tushunchasi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) bolalar kitobxonligining asosi, rang-barang mazmun va shaklga ega kitoblar chop qilish;

B) bolalar matbuoti namunalari;

D) maktab darsliklari majmui;

E) didaktik adabiyotlar to'plami.

18. Animal kitob nima?

A) o'simliklar rasmlaridan iborat kitoblar;

B) insonlarning rasmlari joylashtirilgan to'plamlar;

D) hayvonlar, qushlar, hasharotlar rasmlari asosida tartib berilgan rangli kitoblar;

E) faqat sheʼrlar asosida tartib berilgan majmualar.

19. Bolalar kitobchiligidagi musavvirning vazifasi nimadan iborat?

A) asar qahramoni, muallifi ruhiga kirgan holda bolalarning yosh xususiyatlariga koʻra matn mazmunini grafik va boshqa tasviriy usullarda rasm va bezaklar bilan toʻldirish, asar jozibadorligini taʼminlash;

B) bolalar kitoblarini turli naqsh va shriftlarda, turfa ranglarda ifodalash, zamon ruhiga mos bezaklar bilan mazmun-mundarijasini boyitish;

D) yozuvchi matnda aytmagan, koʻrsatilmagan nuqtalar, ruhiy holatlarni ifodalashi, takrorlanmas milliy koloritni singdirishi lozim;

E) A,B,D javoblar.

20. Bolalar adabiyotining adresliligiga doir mulohaza qaysi javobda oʻz aksini topgan?

A) bolalar yozuvchilari oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, oʻz asarlarini kimga qarata yozayotganliklarini oldindan bilishlari lozim;

B) bolalar adiblari uchun mavzular chegaralangan boʻlmogʻi shart;

D) bolalarbop asarlarning hajmi oʻta qisqa boʻlishi muhim ahamiyat kasb etadi;

E) faqat hayvonlar haqidagi asarlar yozish maqsadga muvofiq.

21. Bolalar kitobxonligida pedagogika va psixologiya nuqtai nazaridan yosh xususiyatlariga koʻra oʻzaro tafovutlanishi qaysi javobda toʻgʻri qayd etilgan?

A) tugʻilgandan to 6-7 yoshgacha maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi;

6-7 yoshdan to 11-12 yoshgacha kichik maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi;

12-13 yoshdan to 17-18 yoshgacha, oʻrta va katta yoshdagi bolalar yoxud oʻsmirlar kitobxonligi.

B) 2-5 yosh- maktabgacha tarbiya yoshi bolalar kitobxonligi; 5-9 yosh- kichik maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi; 9-12 yosh-oʻrta maktab yoshi bolalar kitobxonligi; 12-16 yosh – oʻsmirlik davri bolalar kitobxonligi;

D) 1-3 yosh- goʻdaklik davri bolalar kitobxonligi; 3-6 yosh- bolalik davri bolalar kitobxonligi; 7-9 yosh-kichik maktab yosh bolalar kitobxonligi; 9-12 yosh-oʻrta maktab yoshidagi davr bolalar kitobxonligi; 13-16 yosh – oʻsmirlik davri bolalar kitobxonligi;

E) toʻgʻri javob yoʻq.

22. Ikki yoshdan besh yoshgacha boʻlgan bolalarning ruhiy olami, qiziqishlari, «daho tilchi» darajasidagi kashfiyotlari haqida qaysi yozuvchi tadqiqot olib borgan va qanday asar yozgan?

A) L.N.Tolstoy: «Birinchi oʻqish kitobi»;

B) Sharl Perro: «Zolushka»;

D) K.Chukovskiy: «Ikkidan beshgacha»;

E) Sh.Saʼdulla: «Komandirning boshidan kechirganlari».

23. 7-9 yoshdagi bolalarning soʻz boyligi hamda ularga tavsiya etiladigan yetakchi mavzular qaysi javobda oʻz aksini topgan?

A) 3000 tacha soʻzdan foydalanadi, sehri ertaklar tavsiya etiladi;

B) 4000 tacha soʻz arsenaliga ega, maishiy-adabiy ertaklar oʻqishga qiziqishadi;

D) 3600 tagacha soʻzni isteʼmolga kiritgan boʻladi, hayvonot va nabototga doir ertaklar, insonlarning oʻzaro munosabatlarini ifodalovchi ertaklarga qiziqadi;

E) 5000 tacha soʻz biladi, maishiy ertaklar va tarixiy qissalarni sevib mutolaa qiladi.

24. «Oʻrik nega sargʻayib pishadi?», «Olcha nega qip-qizil?», «Sada nega meva qilmas?», «Mol nega kavsh qaytaradi?» kabi sheʼrlar muallifi va ular kiritilgan toʻplami hamda kitobxonlar yoshi toʻgʻri koʻrsatilgan javobni aniqlang?

A) Q.Muhammadiy, «Tabiat alifbesi», kichik yoshdagi maktab oʻquvchilari;

B) Sh.Saʼdulla, «Yoritosh», maktabgacha tarbiya yoshi;

D) Gʻ.Gʻulom, «Shum bola», oʻsmirlar;

E) H.Olimjon, «Oyguil bilan Baxtiyor», kichik maktab yoshidagi bolalar.

25. Oʻzbek bolalar adabiyotining nazariyotchi olimlari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- A) G`ozi Olim, Oltoy, G`ulom Zafariy, Abdulla Suyumov, Oxunjon Safarov, Rahmatulla Barakaev, P.Shermuxeimedov, J.Tursunov, M.Jumaboyev;
- B) Abdulla Avloniy, Fitrat, Sulton Jo`ra, G`afur G`ulom, Shukur Sa`dulla, Quddus Muhammadiy;
- D) Hamid Olimjon, Zafar Diyor, Anvar Obidjon, Matyoqub Qo`shjonov, SHokir Sulaymon;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

26. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga oid kitoblarning xususiyatlari qaysi javobda yorqinroq aks etgan?

- A) bu yoshdagi bolalar hali kitob o`qib bilmaydi, binobarin, ularga mo`ljallangan adabiyotlar yo`q;
- B) ular taqlidchilik vositasida hayotni o`zlashtiradilar. Shu boisdan ularga atalgan asarlarning personajlari-hayvonlar, qushlar, hasharotlar, o`simliklar va boshqa narsalar;
- D) asarlarning personajlari hayvonlar va boshqa narsalar bo`lsa-da, odamlarga taqlidiy sifatlariga ega: odamlarday gapirishadi, fikr yuritishadi
- E) B,D javoblar.

27. So`qma so`zlar vositasida «gapirish» bolaning qaysi yoshiga xos? Bu davrda bola qancha miqdorda so`z bilib, qanday tuyg`ularni anglay boshlaydi? To`g`ri javobni aniqlang?

- A) uch-to`rt yoshida, 300 tacha miqdorda so`zni ayta oladi va issiq-sovuqni anglaydi;
- B) ikkinchi yoshida, 300 ta so`z miqdoriga ega bo`ladi, ochlikni, chanqoqlikni, issiq-sovuqni, og`riqni tuyadigan bo`ladi;
- D) bir yoshida, o`ntacha so`z biladi, ochlikni, yorug`lik va qorong`uni anglaydi;
- E) besh-olti yoshida, 1000 tacha so`z biladi, har qanday tuyg`uni tushunadi.

28. «Bolalarga o`zlari sezgan va o`ylaganlarini gapirib berish g`oyat qiyin, chunki ularni so`zda ifodalashga to`g`ri keladi. Bundan ham og`irrog`i esa-yozish. Lekin bolalar shoir va faylasufdirlar». Yanush Korchak bu fikri orqali qaysi yoshdagi bolalar tabiatini oydinlashtirgan?

- A) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tabiatini;
- B) kichik yoshdagi o`quvchilarning murakkab ichki dunyosini;
- D) o`rta yoshli bolalar tabiati;
- E) o`smirlar olamining o`ziga xosliklarini

29. Bolalar adabiyotining yoshga nisbatan mo`ljallanganligi qanday hodisa?

- A) u muntazam harakatda bo`ladi: ijtimoiy-estetik taraqqiyot chuqurlasha borishi bilan bolalarning yosh xususiyatlari ham o`zgaradi;
- B) zamon va insonlar o`zgarsa ham, bolalar adabiyotining o`quvchi yosh xususiyatiga ko`ra tasnifi o`z mohiyatini yo`qotmaydi;
- D) kattalarga mo`ljallab yaratilgan ayrim asarlar, qissalar zamonlar o`tishi bilan bolalar o`qishi doirasiga kirishi mumkin;
- E) A,D javoblar.

30. Xalq og`zaki badiiy ijodiyotiga oid mulohaza qaysi javobda to`g`ri aks etgan?

- A) u yozma adabiyotning bunyodga kelishida genezis vazifasini bajarib, xilma-xil adabiy tur va janrlarda namoyon bo`ladi;
- B) kishilik jamiyati tarixida ko`p vazifali, ijtimoiy-estetik mohiyatga ega so`z san`ati;
- D) bolalarning ham ma`naviy-axloqiy shakllanishida tarbiyaviy vosita bo`la oladi;
- E) A,B,D javoblar.

31. "Bolalar folklori bu-.." Qaysi javobdagi fikr to`g`ri ?

- A) kattalarning bolalar uchun ijod etgan og`zaki adabiyotlari;
- B) kichik toylar olami bilan kattalar dunyosining o`zaro uyg`unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o`yinlar, qo`shiqlar, musiqiy poetik janrlar tizimidan iborat xalq og`zaki ijodining tarmog`i.
- D) bolalarning o`zlari tomonidagina ijro etiladigan turli qo`shiqlar;

E) mavsumiy-marosim qo`shiq-lari.

32. O`zbek bolalar folklorini to`plash, tartib berish qachon va kim tomonidan amalga oshirilgan hamda u qanday nomlanadi?

- A) 1965-yil, Sh. Sa`dulla, "Yoriltosh";
- B) 1937-yil, Elbek, "Bolalar qo`shig`i";
- D) 1984-yil, O. Safarov, "Boychechak";
- E) 1975-yil, G. Jahongirov, "O`zbek bolalar folklori".

33. "Alla" istilohining lug`aviy ma`nolari qaysi variantda yorqinroq aks etgan va xalq qo`shiqlarining qaysi turkumiga mansub?

- A) "Olloh", "aldamoq", "ensa" ma`nolarini bildiradi, erkash poeziyasining beshik qo`shiqlari turkumiga kiradi;
- B) "uxlamoq", "tinchlamoq", "jim bo`lmoq" ma`nolarini bildiradi, go`dak qo`shiqlari turkumiga kiradi;
- E) "yig`lamoq", "kuylamoq", "orom olmoq" ma`nolarini bildiradi, bolalik turkumidagi qo`shiq hisoblanadi;

33. Allaning ijro etilishi qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) xor jo`rligida ijro etiladi, mungli ohang;
- B) ifodali aytiladi, quvnoq ohang;
- D) alla faqat kuylanadi, monoton ohang;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

34. Allaning kompozitsion butunligini ta`minlovchi unsurlar qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) matni;
- B) kuyi;
- D) ohangi;
- E) so`z, ohang va harakat birligi.

35. Allada qanday poetik obrazlar orqali farzand qiyofasi umumlashtiriladi?

- A) qo`zichoq, qo`chqor, olqor, toychoq;
- B) saman, toyloq, bo`taloq, bulbul, lochin, tog`;
- D) to`ti, chirog`, qizil gul, sha`m;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

36.

Adoq-adoq yurisin,

Tikan shunga kirmasin,

Ko`zi qattiq bandalar,

Ko`zi shunga tegmasin.

Bu badiha bolalar folklorining qaysi janriga mansub va u qachon aytiladi?

- A) alla janriga, 2-3 oylik go`daklarga ko`z tegmasligi uchun aytiladi;
- B) aytim-olqishlarga, 7-9 oylik chaqaloq ilk bor qadam tashlaganida;
- D) sanamalarda, kichkintoylarning o`yin jarayonlarida;
- E) masxaralamalarda, bolalar bir-biridan arazlashganda.

37. Aytim-olqishlar, erkalama va ovutmacholqlar qanday ehtiyojlar natijasida paydo bo`lgan? To`g`ri javobni aniqlang?

- A) chaqaloqlarni ovutish hamda tinchlantirish zarurati bilan;
- B) go`daklarga birinchi marta kiyim kiydirish, sochini olish, qadam tashlashi munosabati bilan;
- D) chaqaloqlar va beshik yoshidagi go`daklarni ilk bor beshikka solish, cho`miltirish kabi turli marosimlarni o`tkazish ehtiyojidan;
- E) A, B, D javoblar.*

38. "Ha, do`rsa-do`rsa", "Ho`-ba, ho`-ba", "Ha, kishta-kishta-kishta" singari taqlidiy va so`qma so`zlar tizimidan iborat an`anaviy qolipga aylangan satrlar bilan boshlanuvchi badihalar bolalar folklorining qaysi janriga mansub va u necha yoshli bolalarga mo`ljallangan?

- A) sanama janriga mansub, faqat 5-9 yoshli bolalarga mo'ljallangan;
- B) topishmoq, 6-12 yoshli bolalar uchun;
- D) erkalama va ovutmachiq, faqat 2-3 yashar bolalarga;
- E) taqvimiy qo'shiq, 2-7 yoshli bolalar uchun.

38. "Boychechak" va "Yo ramazon" qo'shiqlarining janri to'g'ri qayd etilgan javobni aniqlang?

- A) qiziqmashoqlar;
- B) qaytarmashoqlar;
- D) sanamalar;
- E) taqvim qo'shiqlari.

39. "Oftob chiqdi olamga, Yugurib bordim xolamga." Bunday badihalar bolalar folklorining qaysi janriga mansub va ularning paydo bo'lishida qanaqa e'tiqod asos bo'lgan?

A) janri noma'lum, hech qanday e'tiqod asari yo'q, bolalarning o'zlari shunchaki ijro etishgan;

B) yalinchoqlar janriga daxldor, ajdodlarimizning quyoshga sig'inishidan iborat qadimiy animistik e'tiqodi izlari bor;

D) qiziqmashoq janri, quyoshga sig'inish, totemistik e'tiqod;

E) hukmlagichlarga oid, xursandlik e'tiqodi.

40. Bolalar o'yin folklorining o'z xususiyatlariga ko'ra guruhlanishi qaysi variantda to'g'ri aks etgan?

A) harakatli o'yinlar, ma'naviy (so'z) o'yinlar;

B) qo'shiqli o'yinlar va ijroli o'yinlar;

D) harakatli o'yinlar va predmetli o'yinlar;

E) tez aytish va topishmoqdan iborat o'yinlar.

41. Oq terakmi, ko'k terak, Bizdan sizga kim kerak?

-o'yin qo'shig'i harakatli o'yinlarning qaysi turiga mansub?

A) sof harakatli o'yinlar;

B) harakatni predmet boshqaradigan o'yinlar;

D) harakatni so'z boshqaradigan o'yinlar;

E) barcha javob to'g'ri.

42. Qaysi variantda harakatni narsa boshqaradigan o'yinlar turkumi to'g'ri ta'kidlangan?

A) "Oq terakmi, ko'k terak", tez aytish, topishmoqlar, "Yumalandim, yumoq topdim", "Sutmi, qaymoq?";

B) "Besh tosh", "To'p tosh", "Chillak", "Quloq cho'zma", "Podsho-vazir", "Ro'molcha";

D) maqollar, ertaklar, sanamalar, chandishlar, hukmlagichlar;

E) "Sandiqcha-qutticha", "Ko'z bog'log'ich", "Almoysi, aljoyi; men qochdim, men tutdim", "Bayroqcha".

43. Sanama janri tabiati qaysi javobda oydinlashtirilgan?

A) o'yinboshi badiha, o'yin yo'nalishiga poydevor yasaydi;

B) o'yin boshlanishi oldidan uni boshlab beruvchini aniqlaydi;

D) navbatda turuvchini aniqlab, galni tayinlaydi;

E) barcha javob to'g'ri.

44. Tez aytishlar O'zbekistonning turli joylarida qanday yuritiladi va undan kuzatilgan asosiy maqsad nima?

A) "chalg'itma", "adashish" shakllari uchraydi, maqsad, so'zni bir nafasda shiddat bilan ko'proq ayta olish;

B) "chalish", "adashtirish" deb yuritiladi, maqsad, alliteratsion tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish;

D) "tutal", "chalish", "adashish", "chalg'ituv" deb yuritiladi, maqsad, tez aytishda chalg'ish, tutilish;

E) barcha javoblar to'g'ri.

45. Topmachamning o'zi qora, Topmaganning yuzi qora.

Bunda yashiringan predmet va qo'llangan istiloh to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?

- A) qozon, masal janri;
- B) choynak, chiston;
- D) qozon, topmacha (topishmoq);
- E) qumg'on, topishmoq.

46. Topishmoqlarning paydo bo'lish davri va yetakchi manbalari qaysi javobda o'z aksini topgan?

- A) antik davr, xalqning turmush tarzi;
- B) qadimiy ajdodlarimizning animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan zamonlar, ajdodlarning tabiat stixiyasi oldidagi ojizliklari, xalq ertaklari;
- D) o'rta asrlar, yozma adabiyotning takomillashuvi, xalq durdonalariga murojaat;
- E) XX asr boshlari, xalq og'zaki ijodini to'plash va o'rganish.

47. Topishmoqlarning tabiatiga xos xususiyat qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

- A) hayvonot va nabotot dunyosi, tabiat hodisalariga oid aniq va ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'proq jumboqlashtiradi;
- B) yashiringan narsaning asosiy xususiyatlarini, eng muhim yetakchi belgilarini xoh ko'chma ma'noda, xoh o'z ma'nosida bo'lsin- aniq va ravshan izohlab beradi;
- D) Har qanday topishmoq jumboq va javob qismlarining bir butunligidan iboratdir;
- E) barcha javoblar to'g'ri.

48. 1. *Beli, beli belang ot,* 2. *Tog'da talaymonni ko'rdim,*
Beli qalin yo'g'on ot, *Suvda sulaymonni ko'rdim,*
Tog'u toshdan yumalab, *Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim,*
Tura kelar to'rig' ot; *Yumalab yotgan boshni ko'rdim.*

Keltirilgan ikkala topishmoqda yashiringan predmet hamda ularning o'zaro tafovutlanuvchi xususiyati qaysi variantda to'g'ri aks etgan?

- A) birinchisida-egarli ot, ikkinchisida- bo'ri, baliq, sumalak, toshbaqa; o'zaro tafovuti - qo'fiyalanishida;
- B) birinchisida-ot, ikkinchisida- bo'ri, baliq, holvaytar, toshbaqa; birinchisi 15 so'zli, ikkinchisi 12 so'zli;
- D) birinchisi- toshbaqa, ikkinchisi- bo'ri, baliq, sumalak, toshbaqa; birinchi topishmoq bir predmetli, ikkinchisi ko'p predmetli;
- E) to'g'ri javob yo'q.

49. Narsa va hodisalarning bir-biriga oshkora, xufya yo taxminiy qiyoslanishi, o'xshatilishi asosida fikr uyg'otishga mo'ljallangan ixcham topshiriqlar va so'roqlar qaysi janrga xos?

- A) maqol;
- B) topishmoq;
- D) hikmatli so'z;
- E) fantastik ertak.

50. Topishmoqlarning yozma badiiy adabiyotga ta'sirini mumtoz she'riyatdagi qanday janrlar bilan asoslash mumkin?

- A) lug'z, chiston, muammo, ta'rix muvashshah;
- B) chiston, masal, zarbulmasal, aforizm, lug'z, tuyuq;
- D) ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, chiston, lug'z, maqol, chandish;
- E) u faqat xalq og'zaki ijodidagina mavjud.

51. O'zbek bolalar she'riyatida adabiy topishmoq janri qaysi adiblar ijodida ko'proq uchraydi ?

- A) Navoiy, Uvaysiy, Q. Muhammadiy, Sh. Sa'dulla, G'.G'ulom;
- B) P. Mo'min, S. Barnoev, S. Ahmad, A. Obidjon, T. Adashboev;
- D) A. Avloniy, Q. Hikmat, X. To'xtaboev, R. Tolib;

E) Sh.Sa`dulla,I.Muslim,A.Rahmat,P.Mo`min,S.Barnoev, Q.Muhammadiy.

52. Maqolning qaysi so`zdan olinib, qanday ma`no anglatishi va qanaqa hodisaligi to`g`ri ko`rsatilgan javobni aniqlang?

A) fors-tojikcha "matal" so`zidan olingan, "so`z" ma`nosini anglatadi, umumadabiy hodisa;

B) arabcha "qavvola" so`zidan olingan, "aytmoq ,so`zlamoq" ma`nolarini bildiradi, umumfolklor hodisasi;

D) o`zbekcha "hikmat" so`zidan olingan, dono fikr ma`nosiga ega, donishmandlikka xos hodisa;

E) A,B,D javoblar.

53. Maqollarning yaratilish sabablari qaysi javobda yorqinroq aks etgan?

A) Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, u sinalgan hayotiy tajribadan tug`iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatida hukm bo`lib yuzaga keladi;

B) Maqollar ma`lum hayotiy sharoit taqozosiga ko`ra kattalar tomonidan maxsus ijod etiladi;

D) maqol yaratish uchun barcha donishmandlar xuddi yozuvchi va shoirlar singari mas`uldirlar, binobarin, u maxsus ijod namunasidir;

E) B,D javoblar.

54. Maqollar qachon va qanday vaziyatda aytiladi hamda kimning nutqida faolroq ishlatiladi?

A) u ma`lum voqea-hodisa munosabati bilan fikrni boshlash oldidan aytiladi, keksayu yosh baravar ishlatadi;

B) u fikr bayoni jarayonida yo fikrni xulosalash maqsadida aytiladi, hayotiy tajriba egasi bo`lgan katta avlod nutqida faolroqdir;

D) maqollar faqat badiiy adbiyotlarda keng qo`llaniladi, og`zaki nutqda unchalik faol emas;

E) A,B javoblar.

55. Maqollarda aytilgan hukmni hech kim inkor etolmasligi sababi hamda qo`shimcha ma`nolari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

A) undagi hukm asrlar davomida turmush tajribasida qayta-qayta sinalib tasdiqlangani uchun, maqollar yana kinoya, piching, istehzo, zaharxanda ma`nolarida ishlatiladi;

B) maqollar ibora, hikmatli so`zlar, hadislardan tashkil topgani uchun hech kim inkor qilolmaydi, maqtov, tanbeh ma`nolarini ifodalaydi;

D) xalq og`zaki ijodi namunasi bo`lgani uchun, mubolag`alashtirish ma`nosida ishlatiladi;

E) barcha javoblar to`g`ri.

56. Maqollar qanday adabiy turga mansubligi va ularning to`planib kitobat qilinishi, taraqqiyot qonuniyatlariyu badiiyatining o`rganilishi to`g`ri ko`rsatilgan javobni aniqlang?

A) epik turga mansub, etnografiya va manbaashunoslikda keng o`rganilib,badiiyati adabiyot nazariyasida tadqiq qilinadi;

B) lirik turga mansub, mumtoz she`riy san`atlarda maqollarning badiiyati alohida o`rganilgan;

D) paremik turga mansub,yozib olinishi, kitobat qilinishi paremiografiyaga, taraqqiyot tamoyillari va qonuniyatlari, badiiyati paremiologiyada o`rganiladi;

E) dramatik turga mansub, ularni to`plash va chop etish adabiyotshunoslikda o`rganiladi.

57. Saj` maqollarda qanday vazifani bajaradi?

A) Maqolning xalq ijodi namunasi ekanligini ko`rsatib turadi;

B) o`ziga xos ichki qofiyadoshlikni yuzaga keltirib, ohang jilolarining jozibasini oshiradi;

D) maqollar epik turga mansubligi va nasriy uslubda yozilishini asoslaydi;

E) A, D javoblar.

58. Paremiologiyada maqollarni tasnif qilishning qanday ko`rinishlari an`anaga aylangan?

- A) alifbe tartibida;
- B) mavzulari, sinonimik yoki antonimik mohiyatiga ko`ra;
- D) to`g`ri yoki ko`chma ma`no tashishiga hamda yaratilish xronologiyasiga ko`ra;
- E) A,B,D javoblar.

59. O`zbek xalq maqollarini yozib olish tarixi necha va qaysi yo`nalishlarda davom etib kelmoqda?

- A) 3 yo`nalishda: og`zaki,yozma, bosma;
- B) 2 yo`nalishda: birinchisi- jonli so`zlashuvda qanday aytilsa, shu holatida xalqdan yozib olish va kitobat qilish; ikkinchisi-mumtoz adabiyot vakillari va tarixnavis olimlar tomonidan asarlarida ishlatilgan xalq maqollari;*

D) faqat bir yo`nalishda: qadimgi ajdodlarimizdan bugungi avlodgacha og`izdan-og`izga o`tib kelgan maqollarni regional to`plash;

- E) to`g`ri javob yo`q.

60.Maqollarni kitobat qilishda qaysi olimlarning faoliyati alohida e`tirofqa sazovor? To`g`ri javobni aniqlang?

A) Mahmud Qoshg`ariy, Gulxaniy, Rojiiy, Mulla bekjon Rahmon, Sherali Ro`zi, Hodi Zarif;

B) M.Afzalov, M.Ahmadboeva, R.Jumaniyozov, E.Siddiqov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Madrahimova;

D) Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, N.Mallaev, M.Hakimov;

- E) A,B,D javoblar.

61. Ertak istilohi haqida qaysi variantda to`g`ri mulohaza yuritilgan?

A) yozma adabiyotdagi eng qadimgi janr, fantastikaga yo`g`rilgan;

B) og`zaki adabiyotning epik janri hisoblanib, bugungacha faqat tarixiy manbalar orqali etib kelgan;

D) umumfolklor hodisasi sifatida eng qadimiy epik janr bo`lib, biror voqeani og`zaki hikoya qilishni anglatadi, u matal, varsoqi, ushuk, cho`pchak kabi nomlar bilan yuritiladi;

- E) A,B,D javoblar.

62. Ertaklarning paydo bo`lish an`anasi va shakllanish jarayoni qaysi variantda o`z aksini topgan?

A) u ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan;

B) ertaklar so`zga sig`inish, ilohiy kuchlarga sig`inish, animistik,totemistik, fetishistik e`tiqodlar,gallyutsinatsiya va tush ta`sirida fantastik vositalarga to`lisha borgan;

D) insonlarning hayvonlarni ovlashlari, xonakilashtirishlari, mahsulotlari va kuchidan foydalanishlari oqibatida hayvonlar haqidagi ertaklar, nihoyat, feodal munosabatlar tarkib topib, ijtimoiy jarayon takomillasha borgach hayotiy-maishiy ertaklar ham paydo bo`lgan;

- E) barcha javoblar to`g`ri;

63. Ertaklarni ijro etish tartibi haqidagi mulohaza qaysi variantda to`g`ri?

A) ertaklar professional ijrochilikka asoslangan;

B) o`tmishda ertaklar yilning ma`lum davrida belgilangan paytda, ijrochilik salohiyatiga ega bo`lgan yoshi ulug`,dono, hurmatli va e`tiborli kishilar tomonidan aytilgan;

D) ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytiladi; ertak, odatda, dehqonlarning dala yumushlari tugagan paytda-kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytilgan;

- E) barcha javoblar to`g`ri.

64. Ertaklarni og`zaki nasrning mif, afsona, rivoyat va naql singari janrlaridan farqlanuvchi xususiyatlari qaysi javobda ifodalangan?

A) tasvirlanayotgan voqelikning hayotiy qamrovi, syujetning hajmi va murakkabligi, qahramonlarning ko`pligi va g`ayritabiiyligi;

B) ertaklarning xalq og`zaki ijodi namunasi ekanligi, ko`proq hayot haqiqatlarini o`zida mujassamlashtirgani;

D) ertaklar boshqa og`zaki nasr turlariga qaraganda ko`proq xalqning badiiy ijodini namoyish etadi, quvonch ulashadi, ma`naviy ozuqa beradi;

E) barcha javoblar to`g`ri.

65. O`zbek xalq ertaklari ifodalayotgan voqeligining sajiyasi, g`oyaviy mazmuni, obrazlar talqini, badiiy tili, uslubi va boshqa xususiyatlariga ko`ra necha turga bo`linadi? Ular qaysilar?

A) 5 turga: sehrli, novellistik, kumulyativ, hayvonlar haqida, hayotiy ertaklar;

B) 2 turga: fantastik va realistik;

D) 3 turga: hayvonlar haqidagi, odamlar haqidagi, hayotiy ertaklar;

E) 3 turga: sehrli-fantastik, hayvonlar haqidagi, maishiy- hayotiy ertaklar.

66. Demonologik obraz nima? U qaysi turdagi ertaklarda ishtirok etadi?

A) laylak, kabutar, qaldirg`och, musicha, to`ti, sigir, qo`y singari foydali qush va hayvonlar obrazi; hayvonlar haqidagi ertaklarda ishtirok etadi;

B) dev, pari, jodugar, alvasti, jin singari g`ayritabiiy personajlar, sehrli-fantastik ertaklarda ishtirok etadi;

D) kampir, o`gay ona, shahzoda, malika, podshoh, vazir kabi obrazlar; hayotiy-maishiy ertaklarda ishtirok etishadi;

E) barcha javoblar to`g`ri.

67. Sehrli-fantastik ertaklarning mazmun-mundarijasini tashkil etuvchi motivlar qaysi variantda o`z aksini topgan?

A) hushtak, gavron, o`q-yoy, supurgi, etik, sehrli uzuk;

B) odam o`ldirish, jang qilish, suvda suzish, osmonda uchish, dev bilan olishish, qahramonlik ko`rsatish;

D) bosh qahramonning o`limi, g`orga kirib ketishi, samolyotda uchishi, oyna orqali voqealardan voqif bo`lishi;

E) sayohat, sarguzasht, sinov, tush, evrilish, befarzandlik, tasodifiy homiladorlik, keksalikda farzand ko`rish, etimlik, o`gaylik.

68. Maishiy-hayotiy ertaklarning yetakchi xususiyati haqidagi mulohaza qaysi javobda to`g`ri?

A) bu turdagi ertaklar kishilarning mehnatini tarannum etadi, ammo alohida xususiyati yo`q, ertaklarga xos barcha jihatlar bunda ham o`z aksini topgan;

B) bunda voqelik makoni aniq shahar yoki qishloqda kechadi, aniq qahramon ishtirokida yuz beradi;

D) bu turdagi ertaklarda aniq shaxsning o`z aql kuchi, tadbirkorligi, chidam va matonati, yuksak insoniy fazilatlarini tufayli murod-maqсадiga etishuvi ko`rsatib beriladi;

E) B, D javoblar

69. "Avesto" yaratilgan zamin, davr va uning muallifi to`g`ri ko`rsatilgan javobni belgilang?

A) Eron, XX asr muqaddam, Axura Mazda;

B) Movarounnahr, XXX asr muqaddam, Spitamon Zaratushtra;*

D) Turon, 300 yil muqaddam, Zardusht;

E) A, D javoblar.

70. "Avesto" so`zining ma`nosi, ta`limoti va uni ifodalovchi qo`shiqlarning nomlanishi hamda nozil qilingan "oliy ibtido" qaysi variantda qayd etilgan?

A) "hayot yo`riqnomasi", yakkaxudolik, "Gotalar", Axura Mazda (Hurmuzd);

B) qonun-qoidalar, ezgu fikr, "Gohlar", Axriman;

D) huquq manbai, ezgu ish, Vedalar, Bratarvaxsh;

E) barcha javob to`g`ri.

71."Artavirafnomak"("Do`zax va zardushtiylik aqidalari haqida kitob"), "Motikan kajastikabolash"("Zardushtiylik rusumlari tarixini isbotlash haqida kitob"), "Moyast namoyast" ("Mazhabiy marosimlar vazifalariga oid kitob") singari tafsirnomalar qaysi kitob haqida yozilgan hamda u qanday an`ana namunasi?

- A) "Avesto"ga oid tafsirnomalar, ilk kitobxonlik an`analari ;
- B) "Qur`on"ga doir sharhlar, ilk maktab hodisasi;
- D) "Avesto" gotalarini kuylab turib ehromlarda sig`inish an`anasi , maktab hodisasining sarchashmasi;
- E) A, D javoblar.

72."Avesto"da ajdodlarimizning oila va bolalikka munosabatini ifodalovchi mulohazalar to`g`ri aks etgan javobni aniqlang?

- A) avlodning sog`lomligi ko`zda tutilib, qarindoshlarning o`zaro oila qurishlari man`etilgan;
- B) Axura Mazda nomi bilan serfarzandlik alqangan, bunday oilalar uning himoyasida bo`lib, hayoti farovon, rizqi mo`l bo`lgan;
- D) 2-3 bola ko`rgan ayol tuya bilan mukofotlanib, farzandlari uchun mas`uliyatsiz ota-onalar jazoga hukm qilingan;
- E) A, B, D javoblar.

73. Movarounnahrda ilk maktablarda asosan o`qishni o`rgatish an`anasi hamda qoriy unvonlarining berilish sabablari qaysi javobda oydinlashtirilgan?

- A) "Qur`oni karim" payg`ambarga og`zaki nozil qilingan edi, o`sha davrdagi qog`oz tanqisligi bois, Qur`on qiroatiga zo`r berilgan;
- B) qiroatdagi turfa tovlanishlar, ohanglar vositasida inson ruhi va qalbini zabt etish, shu orqali islomiy e`tiqodning qaror topishiga erishish bosh maqsad hisoblangan;
- D) Qur`onni yodlash va qiroat qilishni o`rgatadigan qorixonalar mavjud bo`lib, bunday maktablarni xatm qilganlar qoriy(qori) unvoniga sazovor bo`lgan;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

74."Haftiyak" kitobi haqidagi mulohazalar qaysi variantda to`g`ri ifodalangan?

- A) YU asrda Eron pedagoglari tomonidan tuzilgan o`quv kitobi;
- B) u fors-tojikcha so`z bo`lib, "Qur`on"ning ettidan biri degan ma`noni anglatadi;
- D) musulmon o`lkalarida ilk alifbe vazifasini o`tagan ,bolalar undagi suralarni birin-ketin hijjalab qiroat qilganlar;
- E) barcha javoblar to`g`ri

75.Hadislarda bolalarning yashash haq-huquqlari batafsilroq tushuntirilgan javobni aniqlang.

- A) Bola dunyoga kelgach unga munosib ism qo`yilishi, Ibrohim xalilulloh zamonidan boshlanib davom etib kelayotgan xatna(sunnati) qilinishi;
- B) Ota-onasining mulkiga merosxo`rligi, ilm olish haq-huquqlarining hadislarda rivojlantirilishi;
- D) "Yosh bolalar bilan hazillashish haqida", "Ota o`z farzandlariga odob o`rgatishi va yaxshilik qilish haqida" "Yetim bolani tarbiyat qiluvchining fazilati haqida", "Yosh bolani sevib quchoqlash haqida", "Qizaloqni o`pish haqida" qabilidagi hadislarning yaratilishi;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

76.Hadislarning maqol va naql janrining rivojiga ta`siri hamda yorqin namunasi qaysi javobda to`g`ri bayon etilgan?

- A) Hadislarni yodlash asnosida ularning mazmunini ixcham va teran obrazli iboralarda ifodalash hamda batafsil bayon etish evaziga xalq aforistik qarashlarini boyitdi;
- B) Hadislar mazmuni: "Ota rozi-xudo rozi", "Odam-odamning taftini oladi", "Ko`p kulgan bir yig`lar", "Ota bezori-xudo bezori" ko`rinishidagi maqollar uchun asos bo`lgan;
- D) Hadislar xalq maqollaridan o`sib chiqqan;
- E) A va B javoblar.

77. Diniy-axloqiy mohiyatga ega ilk pandnoma asari uning muallifi va yaratilgan vaqti qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) "Salomon va Ibsol"-X1 asr (Ibn Sino), "Qobusnoma"-X asr (Kaykovus), "Irq bitigi"-1X asr;
- B) "Irshodul kabir", "Irshodul sag`ir"-USH asr,(Al-Muqaffa);
- D) "Qutadg`u bilig"-X1 asr(Yusuf xos Hojib), "Hibatul-haqoyiq"-X11 asr(Ahmad Yugnakiy);
- E) "Ilohiynoma"-X111 asr(Attor), "Guliston"-X1U asr (Sa`diy), "Bahoriston"-X1U asr (Jomiy).

78. 1X asrda yaratilgan turkiy tildagi ilk nasriy pandnoma namunasi va uning asosiy xususiyatlari qaysi javobda o`z ifodasini topgan?

- A) "Hibatul-haqoyiq", haqiqat va uning mohiyati bolalarga tushuntiriladi;
- B) "Siyosatnoma", hayotiy qonun qoidalar, siyosiy muhim voqealar didaktik yo`sinda talqin etilgan;
- D) "Irq bitigi", moniy jamoasiga mansub Isig Sangun va Ite Chug otlig` ikki bola uchun yozilgan , bitikda 65 ta tush ta`birlanadi;
- E) "Salomon va Ibsol", Aql va Kuchning mohiyati oydinlashgan.

79.Quyidagi mulohazalarning qaysi biri Kaykovusning "Qobusnoma"sigadaxldor?

- A) Unda o`rta asrlarga xos adabiy an`anaga amal qilib, bir kishi obrazida bir qancha kishilar timsollari umumlashtirilgan;
- B) Turmushdagi har bir kishining fe`l-atvori, uning har xil kirdikorlarini ma`lum kishilar sifatida gavdalantirib beradi;
- D) Otaning o`z o`g`liga pand-nasihati tarzida bitilgan , 44 bobdan iborat hamda har bir bob mohiyatiga ko`ra bir noma bo`lib, "Ey farzand" degan murojaat bilan boshlanadi;
- E) to`g`ri javob yo`q.

80."Chor kitob" va uning ma`nosi to`g`ri izohlangan javobni aniqlang.

- A) O`tmishda eski maktabda "Haftiyak" va Qur`ondan keyingi asosiy va majburiy o`qish kitobi vazifasini bajargan, to`rtta kitobning bir muqova ostidagi jamlanmasidan iborat;
- B) Imom Ismoil al-Buxoriyning to`rt jilddan iborat "Al-jome` as-sahih" hadislar to`plami;
- D) Ilk yozma adabiyot paydo bo`lishi bilan yaratilgan dastlabki to`rt badiiy doston;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

81."Chor kitob" tarkibidagi kitoblar nomi va mazmuni qaysi javobda to`g`ri tasniflangan?

- A) Birinchi kitobi-"Nomi haq"da musulmonlikning birinchi sharti kalimai shahodatning mohiyati sharhlangan;
- B) Ikkinchi kitobi "Bidon"da iymon, islom va namoz ma`rifati savol va unga javob tarzida sodda tushuntirilgan;
- D) Uchinchi kitobi-"Muhumatul muslimin" bo`lib savollarga hadislar vositasida javob berilgan; to`rtinchi kitob-"Pandnoma" -etnopedagogik xarakterga ega;
- E) Barcha javoblar to`g`ri.

82.Alisher Navoiy ijodining bolalar kitobxonligidagi o`rni qaysi asarlar bilan belgilanadi?

- A) "Hayratul abror", "Mahbub ul-qulub", "Arbain hadis";
- B) "Farhod va Shirin", "Lisonut tayr", "Sabba`i sayyor";
- D) "Saddi Iskandariy", "Layli va Majnun", "Mantiqut tayr";
- E) barcha javoblar to`g`ri.

83.Qaysi javobda "Hayratul abror" dostoniga xos asosiy xususiyatlar bayon etilgan?

- A) Doston 1488 yilda yozilgan bo`lib, 64 bobdan tarkib topgan;
- B) Dostonning asosini 20 maqolot tashkil etadi, hikoya va masallar ularga ilovalar sanaladi;
- D) Shoir bu asarda axloqiy-ta`limiy qarashlar silsilasida xulq -odobni, mehnatsevarlikni, saxovatpeshalikni umuman, insonni sharaflovchi ezgu fazilatlarini targ`ib, yaramas odatlarni esa tanqid qiladi;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

84. Navoiy umrining so`nggida ustozlari Sa`diy va Jomiylardan ilhmlanib yozgan didaktik asarining nomi, necha tarkibiy qismdan iboratligi ifodalangan javobni belgilang.

- A) "Lisonut-tayr", etti asosiy qism;
- B) "Saddi Iskandariy", besh asosiy qism;
- D) "Sabba`i sayyor", etti qism;
- E) "Mahbub ul-qulub", uch qismdan iborat;

85. "Mahbub ul-qulub"dagi "tanbih" so`zining ma`nosi va mazmun mohiyati qaysi javobda to`g`ri?

- A) Nojo`ya xatti-harakat uchun beriladigan ta`zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo;
- B) Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribalarining natijalari, xulosalari bo`lib, aforistik xarakterga ega;
- D) lo`nda, qisqa va obrazli qilib yaratilgan hikmat va donolik namunalari;
- E) B va D javoblar.

86. "Bu paytda mening qiziquvchan ta`bim Fariddin Attorning "Mantiqut -tayr" dostoniga ko`ngil qo`ygan edi. Men bu asarni takror-takror o`qir, yosh ko`ngil undan bahra topmoqda edi. ..Undagi ajoyib hikoyatlarga o`rganib qoldim, qush tilidan aytilgan kinoya va majoziy fikrlar menga oshno bo`lib qoldi." Bu e`tirof qaysi ijodkor tarjimai holiga xos va u qanday munosabat bilan aytilgan? To`g`ri variantni aniqlang.

- A) Sa`diy tarjimai holi, "Guliston" dostonining yozilish sababi;
- B) Jomiy tarjimai holi, "Bahoriston" debochasida;
- D) Navoiy tarjimai holi, "Lisonut-tayr" dostonining yozilish sababini izohlash;
- E) Ibn Sino tarjimai holi, "Tayr risolasi"ni yozish jarayonida.

87. Majoziy personajlar- Simurg`, Hudhud va qushlarning ramziy ma`nosi hamda ular ishtirok etgan asar nomi to`g`ri qayd etilgan javobni belgilang.

- A) Simurg`-xudo, Hudhud-shayx, murshid, qushlar -kishilar; "Lisonut tayr";
- B) Simurg`-o`ttiz qush, Hudhud-popishak, qushlar-insonlar; "Tayr risolasi";
- D) Simurg`-si murg`, Hudhud-podsho, qushlar-xalq; "Mantiqut tayr";
- E) barcha javob to`g`ri.

88. Abitsedariy mazmuni va mohiyati qaysi javobda to`g`ri qo`llangan?

- A) Alifbe manzumalar-o`qish va yozishni o`rgatishga asoslangan;
- B) Alfavit, harflarni o`rgatgan;
- D) Krill alifbosiga asoslangan "O`qish kitob"lari ;
- E) To`g`ri javob yo`q.

89. O`zbek tilida bitilgan ilk alifbo-manzuma nomi va muallifi bayon etilgan javobni belgilang.

- A) "Mufradot", Mirali Tabriziy;
- B) "Yakka baytlar", Anbar Otin;
- D) "Sirot ul-xat", Sulton Ali Mashhadiy;
- E) "Savodi ta`lim", Shermuhammad Munis.

90. O`zbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirgan asosiy omillar qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) XX asr boshlaridagi "usuli savtiya" maktablari o`quvchilariga mo`ljallangan alifbo va o`qish kitoblari (majmualar) maydonga kelib, ularga tom ma`nodagi o`zbek bolalar adabiyotining tug`ilishi deb qarash mumkin.
- B) XX asrdagi maktab darsliklari birinchi marta bola dunyoqarashi, qiziqishlari, tafakkur olami hamda yosh xususiyatlariga muvofiq yozilgan; ulardagi badiiy ijod namunalari ham kichikintoylar tasavvuriga yaqin bo`lgan.
- D) Turkistonda jadidchilik harakatining ommaviylashuvi bolalar adabiyotining yuzaga kelishiga turtki bo`ldi.
- E) barcha javoblar to`g`ri.

91. XX asr boshlaridagi o'zbek ma'rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandasi, Toshkentdagi "usuli savtiya" maktablarining asoschilaridan biri, o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga samarali hissa qo'shgan shoir qaysi javobda keltirilgan?

- A) Hamza Hakimzoda Niyoziy;
- B) Abdulla Avloniy;
- D) Sadriddin Ayniy;
- E) Mahmudxo'ja Behbudiy.

92. "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli to'rt qismdan iborat to'plami muallifi va uning darsliklari qaysi javobda ko'rsatilgan.

- A) Hamza, "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar", "Yengil adabiyot";
- B) Ayniy, "Tahzibus sibyon", "Qiz bola yoki Xolida";
- D) Abdulla Avloniy, "Birinchi muallim" "Ikkinchi muallim";
- E) Abdurauf Fitrat, "O'qu".

93. Firdavsi jinon maktab, nodonlarga jon maktab,

Bilgan kishiga qadrin, bir dorulomon maktab **Ushbu misralar bilan boshlanuvchi she'r va to'plam nomi hamda muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?**

- A) "Yengil adabiyot", "Maktab", Hamza
- B) "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab", Abdulla Avloniy;
- D) "Tahsibuz sibyon", "Maktab";
- E) "Maktab gulisoni" kitobidagi "Maktab", A. Avloniy.

94. Ma'rifatparvar adib Hamzaning bolalar uchun tashkil qilgan maktabi, darsliklari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Yetimlar maktabi, "Tarbiyat ut atfol", "Maktab gulistoni";
- B) "Dorulyatim", "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi";
- D) Mardikorlar maktabi, "Uchinchi muallim", "Yengil adabiyot";
- E) Ishchilar maktabi, "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar".

95. "Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" hikoyasi qaysi ma'rifatchi adib qalamiga mansub?

- A) Elbek;
- B) Ayniy;
- D) Avloniy;
- E) Hamza.

96. "Tahzib us-sibyon" darsligi muallifi va nashr etilgan yili to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- A) Ayniy, 1930 yil;
- B) Hamza, 1910 yil;
- D) Ayniy, 1910 yilda;
- E) Avloniy, 1913 yil.

97. Ayniyning 1920-yillarda nashr etgan asari nomi va uning yo'nalishi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

- A) "Alifbo", husnixatni o'rganishga;
- B) "Qiz bola yoki Xolida" qissasi, qizlar maktabiga mo'ljallangan;
- D) "Tarbiyali bola", axloq-odob o'rganishga;
- E) "Odobli bola", odob o'rganishga.

98. Ustod Ayniyning maktab va tarbiya mavzu ilgari surilgan asarlari qaysi javobda to'g'ri.

- A) "Qullar", "Doxunda", "Sudxo'rning o'limi";
- B) "Odina", "Buxoro inqilobi tarixi";
- D) "Guli surx", "Kulliyot";
- E) "Eski maktab", "Yetim", "Esdaliklar".

99. O'zbek bolalar adabiyotining yuksalishida ulkan hissa qo'shgan adib G'.G'ulom tavalludi va vafoti hamda hayotining muhim sanalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 1903 yilda tug`ilgan, 1966 yilda vafot etgan;
- B) 1918 yilda 8 oylik muallimlar tayyorlash kursini bitirib, 1919 yildan o`qituvchilik qila boshlagan;
- D) 1923 yilda adabiyot maydoniga kirib kelda va 1934 yilda mashhur “Shum bola” qissasini yozdi;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

100. G`G`ulom asar va to`plamlari ro`yxati qaysi javoblarda keltirilgan?

- A) “Mukofot”, “Tongotar qo`shig`i”, “Bari seniki”, “Bir g`uncha ochilguncha”;
- B) “Qaldirg`och”, “Og`riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Oltin medal”;
- D) “Siz mening yolg`izimsiz”, “Shum bola”, “Tirilgan murda”, “Yodgor”;
- E) A, D javoblar.

101. G`Gulomning qanday she`r va asarlarida yetimlik va urush mavzui ustivor?

- A) “Netay”, “Yodgor”, “Shum bola”, “Sen yetim emassan”;
- B) “Nortojining kurak tishi”, “Ahmadjon yomon bola emasku, ammo”;
- D) “O`rdak va turg`un”, “O`ylashni o`rganamiz”, “Bari seniki”;
- E) to`g`ri javob yo`q.

102. “Men yetim o`sganman, Oh, u yetimlik...” Bu misralar muallifi kim?

- A) Sulton Jo`ra;
- B) Q.Muhammadiy;
- D) G`.G`ulom;
- E) Zafar Diyor.

103. “Zafar va Zahro”, “Haqgo`ylar”, “Bobom” dostonlari muallifini aniqlang.

- A) Sulton Jo`ra;
- B) G`.G`ulom;
- D) Zafar Diyor;
- E) Oybek.

104. Oybekning avtobiografik qissasining nomi qaysi javobda to`g`ri?

- A) “Alisherning yoshlogi”;
- B) “Bolalik”*;
- D) “Zafar va Zahro”
- E) “Shoirning bolalaigi”

105. Oybekning biografik qissasi nomi qaysi javobda to`g`ri?

- A) “Alisherning yoshlogi”*;
- B) “Bolalik”;
- D) “Zafar va Zahro”;
- E) “Shoirning bolalaigi”.

106. Oybekning xorijlik bolalar hayotidan hikoya qiluvchi qissalari qaysi qatorda to`g`ri korsatilgan?

- A) “Alisherning yoshlogi”, “Haqgo`ylar”;
- B) “Qonli barmoqlar”, “Zafar va Zahro”;
- D) “Bobom”, “Bolalik”;
- E) “Singan umid”, “Tillatopar”.

107. Oybek buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodini o`rganishga kirishgan davri va Navoiy haqidagi asarlari nomi qaysi javobda to`g`ri?

- A) 1940 yildan, “Navoiy” romani, “Alisherning yoshlogi”, “Bolalik”, qissalari;
- B) 1960 yillardan, “Guli va Navoiy”, “Navoiy”, “Bobom” dostonlari;
- D) 1928 yildan, “Navoiy”, “Guli va Navoiy” dostonlari, “Navoiy” romani, “Alisherning yoshlogi” qissasi;
- E) “Husayn va Navoiy”, “Alisher navoiy” qissalari.

108. “Bolalik” qissasidagi Musa obrazining hayotdagi asosi qaysi javobda to`g`ri?

- A) adib Oybekning o`zi;
- B) adib Oybekning bobosi;

D) adib Oybekning ukasi;

E) adib Oybekning otasi.

109. Hamid Olimjonning bolalar va o'smirlar kitobxonligiga daxldor asarlari mundarijasini aniqlang;

A) "Oyguil bilan Baxtiyor", "Semurg`" ertak dostoni;

B) "Hulkarning she`ri", "Samolyot", "Lola", "Vatan", Ona va o`g`il she`rlari;

D) "Jangchi Tursun", "Zafar dostoni";

E) barcha javob to`g`ri

110. Hamid Olimjon xalq og`zaki ijodi ta`sirida qaysi dostonlarni yaratdi?

A) "Jangchi Tursun", "Semurg`";

B) "Oyguil bilan Baxtiyor";

D) "Semurg` yoki Parizod va Bunyod";

E) B va D javoblar.

111. H. Olimjon "Oyguil va Baxtiyor"ni xalq og`zaki ijodidagi qaysi ertak asosida yozgan?

A) "Malikai Husnobod";

B) "Malikai Turandot";

D) "Gulqahqah";

E) "Uchar gilam";

112. "Oyguil va Baxtiyor" ertak dostonidagi Darxon kim va u nima uchun isyon ko`taradi?

A) Oyguilning otasi, ozodlik ucun jabr –zulmga qarshi ozodlik uchun kurash olib brogan isyonchilarning boshlig`i;

B) Jambil xonining zolimligini fosh etib, ozodlik yo`lida qurbon bo`lgan mehnatkash xalq vakili;

D) Jambil elining xoni;

E) A va B javoblar.

113. Do`stlar mening yurtimni,

O`zbekiston deydilar.

Dong`i tutgan dunyoni

Bog`u bo`ston deydilar. Ushbu misralar muallifi kim?

A) Hamid Olimjon;

B) Zafar Diyor;

D) Q. Muhammadiy;

E) Q. Hikmat.

114. "Kapalak", "Binafsha", "Navbahor", "Qushlar haqida qo`shiq" singari mashhur she`rlar muallifi va bu asosan qaysi yoshdagi bolalarga mo`ljallanganini aniqlang?

A) G`.G`ulom, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga;

B) Q. Muhammadiy, bolalar va o`smirlarga;

D) Z. Diyor, kichik maktab yoshidagi bolalarga;

E) to`g`ri javob yo`q.

115. Zafar Diyorning lirik –epik asarlari qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?

A) "Mashinist", "Yuksak tog`, keng o`tloq va mard o`rtoq haqida qissa";

B) "Qushlar haqida qo`shiq", "Madriddan kelgan mehmon";

D) "Tilsiz o`rtoq", "Madriddan kelgan mehmon", "Mamlakat", "Kazbek";

E) A va D javoblar.

116. Zafar Diyorning qo`riq va bo`z yerlarni o`zlashtirish mavzusidagi asari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

A) "Kichkina bog`bon haqida doston";

B) "Yuksak tog`, keng o`tloq va mard o`rtoq haqida qissa";

D) "Madriddan kelgan mehmon";

E) "Mashinist".

117. ...1907 yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. 1925 yilda esa uning birinchi she`ri "Chuvalachi" maydonga keldi. Qaysi javob ma`lumotga mos?

A) Zafar Diyor;

- B) Shukur Sa`dulla;
- D) Quddus Muhammadiy;
- E) G`afur G`ulom.

118. Toshkent qishloq xo`jalik texnikumi, O`rta Osiyo davlat universiteti biologiya fakultetini tamomlab, maktabda botanika o`qituvchisi bo`lib ishlashiga qaramay, ijodkor sifatida mashhur bolalar shoirini aniqlang?

- A) Sulton Jo`ra;
- B) Zafar Diyor;
- D) G`afur G`ulom;
- E) Quddus Muhammadiy;

119. Bir maktabda gap mish-mish

Turg`unning dumi bormish... **Ushbu misralar muallifi, she`rning nomi va yo`nalishi qaysi javobda to`g`ri?**

- A) Zafar Diyor, "Qahramon", hajviy;
- B) Q.Muhammadiy, "Dum", yumoristik ;
- D) Q.Muhammadiy, "Lapashang", satiric;
- E) Q.Muhammadiy, "Nomsiz erkatoylar", yumoristik.

120. Q.Muhammadiy ijodining cho`qqisi-besh kitobdan iborat kitoblarning nomi, mundarijasi qaysi javobda to`g`ri qayd etilgan?

- A) 1-kitob-"Tabiat alifbesi", quyosh, havo, yer va suv haqida;
- B) 2-kitob- "Cho`pon bobo qo`shig`i", jonivorlar haqida; 3-kitob "Qanotli do`stlar", 100 dan oshiq qushlarning hayoti aks etgan;
- D) 4-kitob-"Bog`larda bolalar", o`simliklar va dov-daraxtlar haqida; 5-kitob "Odam-olam qo`shig`i"-insonlar haqida;
- E) A, B, D javoblar.

121. Q.Muhammadiyning ertak- dostonlari qaysi javobda to`g`ri?

- A) "Bir o`zboshimcha chumchuq haqida", "Qo`ng`izoy va Sichqonboy", "Sandal va pechka";
- B) "Tabiat alifbesi", "Odam-olam qo`shig`i";
- D) "Momaqaymoq", "Shaftoli doktor";
- E) "Asalari va Ahmadjon", "Mamajon shofyor".

122. 1910 yilning 15 yanvarida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Qag`altom qishlog`ida tug`ilgan bolalar adibi qaysi javobda keltirilgan?

- A) Omon Muxtor;
- B) Safar Barnoyev;
- D) Sulton Jo`ra;
- E) Zafar Diyor.

123. Sulton Jo`raning ilk she`rlari qachon va qayerda chop etilgan hamda dastlabki kitoblarning nomi to`g`ri qayd etilgan javobni aniqlang?

- A) 1933 yilda Buxoro yosh shoirlarining "She`rlar" to`plamida;
- B) 1939 yilda "Fidokor", 1941 yilda "Moskva"she`riy to`plamlari, 1942 yilda "Iroda" nomli pesasi nashr etilgan;
- D) shoir vafotidan so`ng "Havo rang gilam", "Zangori gilam", "Bruno", "Parvoz", "Qaldirg`och", "Tanlangan asarlar" kitoblari bosilib chiqqan;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

124. Sulton Jo`raning Vatan urushi yillarida yaratgan asarlari nomi keltirilgan javobni aniqlang?

- A) "To`pchil Muhammad", "Pulemyotchi ovozi", "Chavandoz", "Uch og`ayni botirlar", "Sog`inclil salom";
- B) "Nayzamiz", "Qahramon Qo`chqor", "Jahon seni olqishlar", "Berlin artekasida", "Salom xat";
- D) "Qaldirg`och", "Zangori gilam", "Dengiz tagida", "Tinish belgilarining majlisi";
- E) A va B javoblar.

125. Sulton Jo`raning pedagog –shoir sifatidagi ta`lim-tarbiyaviy she`rlari qaysi javobda to`g`ri?

- A) “Kimning xati chiroyli”, “Tinish belgilarining majlisi”, “Harflar paradi”;
- B) “Oy nechta”, “Mamatning kechirmishi”, “Yaxshi”ning maqtovi”;
- D) “Sog`inchli salom”, “Salom xat”, “Sog`inish”, “Yolg`onchi”;
- E) to`g`ri javob yo`q.

126. Uqdingizmi? Yetadimi? Bormi savol?

Yoki o`zim so`rayinmi sizdan savol? **bu misralar nimani tilidan aytilgan, qaysi she`rdan olingan va uning muallifini aniqlang.**

- A) “Gunafsha”, binafsha tilidan, Zafar Diyor
- B) “Tinish belgilarining majlisi”, so`roq belgisi tilidan, Sulton Jo`ra;
- D) “Harflar paradi”, harflar tilidan, Sulton Jo`ra;
- E) “Temirlar o`yini”, temirlar tilidan, Q.Muhammadiy.

127. Gar undalma gapda kelsa qoq o`rtada,

Uning ikki yonboshida men jo`rttaga...

Gar undalma gap so`ngida kelsa, u choq,

Undan oldin qo`illarman, tushun o`rtoq! **Bu ta`rif qaysi tinish belgisiga xos. Sh`er nomi va muallifini aniqlang.**

- A) qo`shtirnoqqa, “Kimning xati chiroyli”, Sulton Jo`ra;
- B) “A” harfiga, “Harflar paradi”, Sulton Jo`ra;
- D) tirega, “Tinish belgilarining majlisi”, Sulton Jo`ra;
- E) vergulga, “Tinish belgilarining majlisi”, Sulton Jo`ra;

128. Chiroyli yoz, yozsang xat!

Chunki bu ham zo`r san`at... **she`r nomi, muallifi va mohiyati qaysi javobda to`g`ri?**

- A) “Kimning xati chiroyli”, Sulton Jo`ra,
- B) yozuvning go`zal bo`lishida partada to`g`ri o`tirish qoidasiga qat`iy rioya qilish;
- D) bolaning sog`lom, baquvvat bo`lib kamol topishi;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

129. Shukur Sa`dulla asarlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A) “Shohista”, “Dastyor qiz”, “Ozoda”, “Komandirning boshidan kechirganlari” she`rlar va hikoyalar to`plami;
- B) “Yoriltosh”, “Bizning bog`chamiz”, “Ikki blakuzuk”, “Zubayda”, “Afsona yaratgan qiz” pesalari;
- D) “Ism qo`yilmagan xat”, “Sening bayraming”, “Mening aziz bolalarim” qissa va ertak-dostonlari
- E) noto`g`ri javob yo`q.

130. Milt etib chiqdi quyosh,

Dedi:-Do`stlar, qish odosh .

Ko`rsak yo`q qora bulut,

Yer yuzi ko`k gilam –o`t. **Bu misralar Sh.Sa`dullaning qaysi she`ridan olingan va nima ta`riflanmoqda?**

- A) “Yomg`ir yog`aloq”, yomg`r;
- B) “Boychechak”, gul;
- D) “To`rt fasl”, bahor ;
- E) “To`rt fasl”, kuz.

131. Shukur Sa`dullaning xalq ertaklari uslubida yozilgan asarlarini aniqlang?

- A) “Uch ayiq”, “Ayyor chumchuq”, “Ari bilan qaldirg`och”, “Laqma it”;
- B) “Ivirsiq”, “Anqov”, “Komandirning boshidan kechirganlari”;
- D) “Ikki donishmand”, “Yalqov ayiqcha”, “No`xat polvon”, “It o`ziga qanday qilib do`st topdi”, “Chol bilan bo`ri”;
- E) A va D javoblar.

132. Shukur Sa`dullaning qissalari qaysi javobda keltirilgan?

- A) “Shohista”, “Yalqov ayiqcha”, “Dastyor qiz”;
- B) “Aziz qishlog`im”, “Komandirning boshidan kechirganlari”;
- D) “Kachal polvon”, “Ism qo`yilmagan xat”;
- E) B va D javoblar.

133. “Qishloqdagi jiyanlarim”, “Besh baho”, “Cho`l havosi”, “Yaxshi ism”, “Meni taniysizmi?”, “Bolajonlarim”, kabi hikoyalar qaysi bolalar adibi qalamiga mansub?

- A) Shukur Sa`dulla;
- B) Hakim Nazir;
- D) Omon Muxtor;
- E) Zafar Diyor.

134. Hakim Nazirning kichik yoshdagi bolalar hayotini aks ettirishga bag`ishlangan asarlari qaysi javobda to`g`ri?

- A) “Bir og`iz so`z”, “Rasmlı kitobcha”, “Davronning qushchasi”;
- B) “Qaysargina ukam”, “Yaxshi ism”, “Ikki o`rtoq”, “Bulbul”;
- D) “Qanddon”, “Igna”, “Bir tup g`o`za”;
- E) barcha javob to`g`ri.

135. H. Nazirning “Yonar daryo” qissasida qanday manzaralar aks etgan va voqealar kimning tilidan hikoya qilinadi?

- A) Qizilqum sahrosi kishilarining jasorati va “Gaz qaynar” manzarasi;
- B) oiladagi bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan o`rni;
- D) voqealar o`n ikki yoshli o`quvchi Damir tilidan hikoya qilinadi;
- E) A, B va D javoblar

136. H. Nazirning “Kenjatoy” va “Tohir-Zuhra” qissalarining yetakchi mavzusi qaysi javobda to`g`ri?

- A) “Kenjatoy”da hunar maktabi hayoti aks etgan bolib, o`smirlarda ishchi kasbiga havas uyg`otishga xizmat qiladi;
- B) “Tohir-Zuhra”da balog`at yoshidagi o`spirin va qizaloqlarning qalbida tug`ilgan ilk sevgi kechinmalari hikoya qilingan;
- D) qissalarning har ikkısında qishloq hayoti aks etgan;
- E) A va B javoblar to`g`ri.

137. Hakim Nazirning so`nggi xotira-qissa kitobi va uning mavzui qaysi javobda ko`rsatilgan?

- A) “Oq fotiha”, bolalik sarguzashtlariga bag`ishlangan;
- B) adib bu kitobida bolalik chog`lari ko`rgan-kechirganlarini jonli lavhalarda hikoya qiladi;
- D) kichikligida ota-onasidan olgan ilk insoniy saboqlari uchun chuqur va samimiy minnatdorchiligini izhor etadi;
- E) barcha javoblar to`g`ri.

138. H. Nazir 1973 yilda qanday roman yozgan va uning asosiy obrazlari qaysi javobda to`g`ri?

- A) “Dadamni topib beringlar”, bir dehqon oilasi boshiga tushgan nohaqlik;
- B) “Lochin qanotlari”, urushga ketgan ota-onalar o`rnini bosgan farzandlar ;
- D) romanda O`ktam, Umri kabi yosh vatanparvarlar obrazi gavdalantirilgan;
- E) B va D javoblar to`g`ri.

139. H. Nazir qanday pesa yozgan?

- A) “Bir tup g`o`za”;
- B) “Ko`korol chiroqlari”;
- D) “So`nmas chaqmoqlar”;
- E) “Chiranma g`oz - hunaring oz”.

140. Po`lat Mo`minning ertak –pesalari va ertak –dostonlari qaysi javobda keltirilgan?

- A) “Qovoqvoy bilan Chanoqvoy”, “Suqatoy-konfetvoy”, “Ona bolam deydi, bola onam”;
- B) “Alla bilan Jalla”, “Ziyrak fil va ziqna boqqol”, “Har kimniki o`ziga, oy ko`rinar ko`ziga”, “Unutgan o`g`il”;

D) “Oltin nay”, “Dono bola”, “Bilganni qari-bilmaydi pari”, “Tish cho`tka, Poroshok va Atirsovun ertagi”;

E) A, B va D javoblar.

141. Po`lat Mo`mining she`riy to`plamlari qaysi javobda keltirilgan?

A) “Hunardan unar”, “To`g`ri o`sgan gul bo`lar”, “bir yarim Karim” “Bir yuz bir oltin qo`l”;

B) “Rahmatga rahmat”, “Gazpolvon ertak aytar”, “Do`sting qancha ko`p bo`lsa”;

D) “Oftob va odob”, “Bu juda soz”, “Eson va Omon”, “Oltmish olti oltin qo`l”;

E) noto`g`ri javob yo`q.

142. Po`lat Mo`minning “Suqatoy-konfetvoy” ertak –pesasining g`oyaviy mundarijasi va obrazlari qaysi javobda to`g`ri?

A) ilm, odob, halollik va mehnatsevarlik ulug`lanadi;

B) voqea Bilim xola, Janjal xola, Qurt o`rtasidagi kurash asosida rivojlanadi;

D) Qovoqvoy va Chanoqvoy o`rtasidagi kurashdan tashkil topgan;

E) A va B javoblar to`g`ri.

143. Tarvuz, Qovun, Chanoqvoy, Paxtaoy, G`ujumoy, Lavlagi, Sholg`om qishloq xo`jalik ekinlari va zararkunanda hasharotlar chigirtka, kapalak hamda yalqov, tanbal, beg`am Qovoqvoylarning allegorik obrazi Po`lat Mo`minning qaysi asarida tasvirlangan?

A) “Alla bilan Jalla”;

B) “Ona bolam deydi, bola onam deydi”;

D) “Suqatoy va Konfetvoy”;

E) “Qovoqvoy bilan chanoqvoy”.

TEST JAVOBLARI

1-D

2-A	29-E	56-E	83-E	110-A	137-E
3-B	30-E	57-E	84-A	111-E	138-D
4-A	31-B	58-D	85-E	112-E	139-A
5-E	32-B	59-B	86-E	113-A	140-B
6-A	33-A	60-E	87-E	114-E	141-E
7-B	34-D	61-B	88-D	115-B	142-E
8-E	35-E	62-E	89-A	116-D	143-D
9-A	36-E	63-D	90-A	117-E	144-E
10-D	37-B	64-E	91-E	118-B	145-E
11-E	38-E	65-E	92-E	119-D	
12-E	39-D	66-B	93-B	120-E	
13-A	40-E	67-E	94-D	121-B	
14-E	41-B	68-B	95-D	122-E	
15-E	42-A	69-A	96-B	123-A	
16-E	43-A	70-E	97-A	124-D	
17-A	44-B	71-B	98-D	125-E	
18-D	45-E	72-E	99-B	126-E	
19-E	46-E	73-D	100-E	127-A	
20-A	47-D	74-A	101-E	128-B	
21-A	48-B	75-D	102-E	129-E	
22-D	49-E	76-E	103-A	130-E	
23-D	50-D	77-A	104-D	131-E	
24-A	51-B	78-E	105-E	132-D	
25-A	52-A	79-B	106-B	133-E	
26-E	53-A	80-D	107-A	134-E	
27-B	54-B	81-D	108-B	135-B	
28-B	55-A	82-A	109-D	136-D	

2-kurs 3-semestrda “Ona tili va dabiyot” fanining adabiyot qismi bo`yicha talabalar bilimlarini reyting tizimi asosida baholash mezonlari

№	Ko`rsatkichlar	JB ballari 30	OB ballari		Ya N ballari 30
			OB 40	Jami 70	
1.	Darsga qatnashish darajasi.	0-5			
2.	Ma`ruza matni va ma`ruzada o`tilgan mavzularni o`zlashtirganlik darajasi		0-20	0 - 40	
3.	Amaliy mashg`ulotda doskaga chiqish, seminar mashg`ulotlarida faol qatnashish.	0-15			
4.	She`r va badiiy asar tahlili	0-5	0-5		
5.	Adabiyotlar mutolaasini amalga oshirish		0-5		
6.	Talabanning amaliy va seminar mashg`ulotlari bo`yicha daftar yuritishi	0-5		0-30	
7.	Mustaqil ta`lim topshiriqlarini bajarish, ularning mazmunini o`zlashtirish darajasi.		0-10		
8.	Yakuniy baholashda yozma ish javoblari				0-30
	Jami:	JB- 30	OB 40	YaN 30	100

11. Baholash mezonlari:

a) **86-100 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishilozim:** Bolalar adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi bo`yicha o`zlashtirilgan bilimlar asosida xulosa va qarorlar qabul qilish; "Bolalar adabiyoti" muammolari yuzasidan ijodiy fikrlay olish; "Bolalar adabiyoti" ning taraqqiyot bosqichlari yuzasidan ilmiy mushoqada yurita olish; "Bolalar adabiyoti" ga doir nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish; Bolalar adabiyoti namunalarini taqlil qilish ko`nikmasiga ega bo`lish; Mavzularning moqiyatini tushunish.

b) **71-85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:** Bolalar adabiyoti janr xususiyatlari yuzasidan mustaqil ilmiy mushoqada yurita olish; Bolalar adabiyotidan olgan bilimlarni amalda qo`llay olish, Bolalar adabiyotining boshqa fanlar bilan aloqasi yuzasidan umumiy tasavvurga ega bo`lish. Bolalar adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy xulosalarga ega bo`lish.

v) **55-70 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:** Bolalar adabiyoti fani mavzulari bo`yicha tasavvurga ega bo`lish; Bolalar adabiyotiga doir nazariy ma`lumotlarni bilish, aytib berish;

g) **quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi 0-54 ball bilan baqolanishi** mumkin: O`zbek bolalar adabiyoti fani bo`limlari haqida aniq tasavvurga ega bo`lmaslik; O`zbek bolalar adabiyotidan o`tilgan mavzularni bilmaslik;

Nazorat	Turi	Maksimal ball	Saralash bali
Joriy nazorat	Savol-javob	10	6
	tahlil	10	6
	Mustaqil ish	10	6

Oraliq nazorat			
	Yozma ish	20	10
	Test	20	10
Yakuniy nazorat	Yozma ish	30	16
Jami		100	55

Talabani o'zlashtirish darajasini belgilash uchun maksimal ball: 100; saralash bali: 55. mazkur fandan 3 va 4-semestr oxirida yakuniy nazorat topshiriladi. ON uchun maksimal ball: 40 (har biri 20 balldan 2 marta yozma ish topshiriladi). JN uchun maksimal ball: 30 (dars davomida va mustaqil ish jarayonida to'planadi). YaN uchun maksimal ball: 30. YaNga ON va JNning 55% ini (ya'ni 47 ball) to'plagan talaba kiritiladi. "Bolalar adabiyoti va folklor" fanidan oraliq nazoratlarni o'tkazish uchun yozma ish variantlari tayyorlanadi. Har bir variantda ikkitadan nazariy savol beriladi. Nazariy savolga berilgan javoblar 0-20 ball oralig'ida baholanadi. Nazariy savolga to'g'ri va to'liq javob berilgan, fikr badiiy asarlardan olingan misollar bilan asoslangan, ifoda va bayonda uslubiy, mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan xabardorligi sezilib turgan hamda yozma ishda imloviy xatolari 1-2 tadan oshmagan ishlar 17-20 ball (86-100%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savolga, asosan, to'g'ri javob bo'lsa ham ishda misollar kam, ifoda va bayonda izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan, shuningdek, imloviy xatolari 3-4 ta bo'lgan ishlar 14-17 ball (71-85%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savol yetarli ochilmagan, ifoda va bayonda uslubiy-mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilib turgan va imloviy xatolari 5-7 tadan oshmagan ishlar 11-14 ball (55-70%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savolga noto'g'ri javob berilgan yoki umuman javob berilmagan, misollar tahlili noto'g'ri, ifoda va bayonda bog'lanishlilik buzilgan, imloviy xatolari 8 tadan ko'p bo'lgan ishlar 0-10 ball (0-54%) oralig'ida baholanadi. "Bolalar adabiyoti" fanidan joriy nazoratlar uchun ajratilgan 30 ball talaba tomonidan amaliy mashg'ulot davomida to'planadi. Bolalar adabiyoti yuzasidan berilgan savollarga mantiqiy jihatdan to'g'ri va to'liq javob bergan, seminar mavzusini reja asosida konspektlashtirgan talabalar 5 ball(86-100%) bilan baholanadi. Og'zaki savollarga javob berishda qisman chalkashliklarga yo'l qo'ygan, o'z fikr-mulohazalarini ilmiy adabiyotlardan keltirgan misollar bilan asoslangan talabalar 4 ball (71-85%) bilan baholanadi. Fan yuzasidan berilgan savollar haqida tushunchasi sayoz bo'lgan, mavzuni bayon qilishda jiddiy chalkashliklarga yo'l qo'ygan talabalar 3 ball(56-70%) bilan baholanadi. Seminar mashg'ulotlarida o'tilgan mavzular yuzasidan berilgan savollar haqida umumiy tushunchasi bo'lmagan, mavzuni konspektlashtirmagan talabalar 0-3 ball (0-55%) bilan baholanadi. Talaba "Bolalar adabiyoti va folklor" fanidan mustaqil ish sifatida yozib topshirgan referati uchun 15 balgacha baholanadi. Mustaqil ish o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan muayyan bir mavzu asosida tayyorlanadi. Baholashda o'zbek adabiyotiga oid ilmiy asarlardan foydalanilganligi, mavzuga aloqador misollar to'g'ri to'plangani va asosli tahlil qilingani, adabiyotlar ro'yxati to'g'ri shakllantirilgani kabilarga e'tibor beriladi. Ifodada uslubiy-mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan xabardorligi sezilib turgan, ko'chirmalarni iqtiboslarda keltirgan, reja asosida yozilgan va imloviy xatolari 1-2 tadan oshmagan ishlar 13-15 ball (86%-100%) oralig'ida baholanadi. Ifodada izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan, shuningdek, reja asosida yoritilmagan va imloviy xatolar miqdori 3-4 tadan oshmagan ishlar 10-12 ball (71%-85%) oralig'ida baholanadi. Ifodada uslubiy-mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilib turgan, tahlil to'g'ri olib borilgan va imloviy xatolari 5-7 tadan oshmagan ishlar 8-9 ball (56%-70%) oralig'ida baholanadi. Ifodada bog'langanlik buzilgan, tahlil noto'g'ri olib borilgan, imloviy xatolari 8 tadan ko'p bo'lgan ishlar 0-7 ball (0%-55%) oralig'ida baholanadi. "Bolalar adabiyoti va folklor" fanidan yakuniy nazoratlar yozma savol-javob tarzida o'tkaziladi. YaN uchun maksimal ball: 30. Yakuniy nazoratlarni o'tkazish uchun savol-javob variantlari tayyorlanadi. Har bir variantda uchtadan nazariy savol beriladi. Nazariy savollarga to'g'ri va to'liq javob berilgan, fikr badiiy asarlardan olingan misollar bilan asoslangan, ifodada uslubiy-mantiqiy izchillikka amal qilingan, tavsiya etilgan adabiyotlardan

xabardorligi sezilib turgan bo'lsa 26-30 ball (86-100%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savolga, asosan, to'g'ri javob bo'lsa ham ishda misollar kam, ifoda va bayonda izchillik buzilgan, tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalanilgan ishlar 24-25 ball (71-85%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savol yetarli ochilmagan, ifoda va bayonda uslubiy-mantiqiy izchillik buzilgan, tegishli adabiyotlardan xabarsizligi sezilib turgan ishlar 18,5-23,5 ball (56-70%) oralig'ida baholanadi. Nazariy savollarga noto'g'ri javob berilgan yoki umuman javob berilmagan, misollar tahlili noto'g'ri, ifoda va bayonda bog'lanishlilik buzilgan ishlar 0-13 ball (0-55%) oralig'da baholanadi. Semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarining har biri bo'yicha saralash ballidan kam ball to'plagan talabning o'zlashtirishi qoniqarsiz (akadem qarzdor) hisoblanadi.

Rahbariyat adabiyotlari

1. Karimov. Barkomol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997-yil.
2. I.A. Karimov. Yuksakma'naviyat –yengilmas kuch. T. Ma'naviyat, 2008

Asosiy adabiyotlar

- 1.M.Hamroyev,D.Muhamedova,D.Shodmonqulova,X.G'ulomova,Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
2. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002, -290 bet.
3. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi,2011, 260 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,"Universitet" nashriyoti.
- 3.R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
- 4.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
5. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.
6. Yule G. The Study of Language. 4th edition. Cambridge: CUP, 2010

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRANET.ped

III.Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,"Universitet" nashriyoti.
3. Yunusov R. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
4. Tursunov U., Muxtorov J. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil. -290 bet.
5. Машарипова З. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Т., 2008. -150 bet.

6. Azizova O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1980
7. Zikrillaev F. Istiqlol va adabiy til. Toshkent, “Fan”, 2004.
8. Ikromova R va b. O‘zbek tili. Pedagogika – psixologiya fakultetlari uchun darslik. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1983.
9. Mirzaev M. va b O‘zbek tili Toshkent “O‘qituvchi”, 1978.
10. Ne‘matov X, Rasulov R. O‘zbek tili system leksikologiyasi asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995.
11. Tursunov U., Murotov J., Raxmatullaev SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent, “O‘zbekiston”, 1992.tuvchi
12. Abdullaev Y. Hamrohim. Toshkent, “O‘qituvchi” 1996.
13. Rahmatullaev SH, Hojiev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995.
- Toshev I. Ona tili. Buxoro, 2005
14. Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Buxoro, 2004.
15. Ibragimova Z. Anvar Obidjon– bolalar shoiri.– T.: Yangi asr avlodi, 2006 .
16. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., “Fan”, 2004
17. Murodov M. Oltin sandiq ochildi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1994.
18. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T., “Musiqqa”, 2010. Bolalik kuychisi. T.:Fan, 1978 ; yana: Bolalarni erkalovchi o‘zbek xalq qo‘shiqlari. T.,1985; yana: Oliy o‘quv yurtlarida bolalar adabiyotini o‘qitish muammolari. “Til va adabiyot ta’limi” j., 1999y., 3-4 -sonlar.
19. O‘zbekbolalaradabiyotivaadabiyjarayon. T.:Fan, 1989.
20. O‘zbek bolalar adabiyoti antalogiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild.T:O‘qituvchi, 2006.
21. O‘zbek bolalar adabiyoti. Maqolalar. T.,:Yosh gvardiya, 1969.